

Таълим тизимида узлуксиз касбий  
ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва

# ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК

асослари



ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК  
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ  
ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ  
ОШИРИШ ҲУДУДИЙ МАРКАЗИ

**«ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ  
РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ ВА  
ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ»**

МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

**Мақолалар тўплами**  
**7-ҚИСМ**  
(тўлдирилган нашр)

Тошкент-2022

Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2022. – 790 бет.

Мазкур тўплам “Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари” мавзусига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, бошқа турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган. Мазкур тўплам жамият илмий-маърифий ҳаётини янада такомиллаштиришга, соҳадаги тадқиқотларни жадаллаштиришга хизмат қилади.

#### **ТАШКИЛОТЧИЛАР:**

**Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази**

**Ўзбекистон халқаро ислом академияси**

**Тошкент вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази**

#### **ТАХРИР КЕНГАШИ А ЁЗОЛАРИ:**

**ЗЕБО КАСИМОВА** - пед. фанлари номзоди, профессор, ЎзХИА кафедра мудири

**МУҲАББАТ МУСАЕВА** - пед. фанлари номзоди, доцент, ТВХТХҚТМОҲМ кафедра мудири

**АБДИМУМИН РАСУЛОВ** - психология фанлари доктори, доцент

**МИРМУҲСИН АКРАМОВ** - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

**ДОНО КАЛАНДАРОВА** - фалсафа фанлари бўйича PhD

**АЗАМАТ НАЗАРОВ** - катта ўқитувчи

**ЭРДАВЛАТ ЖУМАНОВ** - ТВХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

**МУРОД САПАРОВ** - ўқитувчи

**САРВАР ҚАХХОРОВ** - таянч докторант, психолог

**МАЪРУФ КУБАЕВ** - стажёр тадқиқотчи, психолог

«Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 13 апрелдаги 01-04/03 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг ҳолислиги ва ишончилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

## PSIXOLOGIK XIZMATDA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR

*Xodjayeva Ozodaxon Muxammadanasovna  
Shayxontohur tumani 324-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Shaxs tarbiyasi. uning ijtimoiy- psixologik kamolati har qanday davlatning bosh strategik maqsadlaridan biridir. Chunki shaxsni ma'lum ezgu g'oyalar, ijtimoiy psixologik va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar:** psixologik maslahat, shaxs, muloqot, autism, psixologik korreksiya, ahloq, suhbat.

Ayni dam maxsus maktab va maktab-internatlarda faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning faoliyatida o'quvchilar ruhiy holatlarini o'rganish. xulq-atvoridagi —o'g'ishlar|ni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish. stress. nizo va ko'plab salbiy emotsional kechinmalarining oldini olish ishlarini to'g'ri tashkil qilish psixologik xizmatning samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mana shunday muammoli holatlarni yo'qotishda esa psixologik xizmat sohasida mavjud bir qancha yo'nalishlar yordam beradi. 1.Kirish qismi: Shaxs shakllanishidagi —inqirozli davrlarning o'quvchilar xulq-atvoriga ta'siri. Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igarilashib ketsa. goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba'zan —inqiroz||li davrlarni boshidan o'tkazayotganlar esa o'zlarini jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog'liq xotirjamlikni yo'qotib qo'yadilar. Ruhiy tushkunliklar natijasida o'z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar. xuddi shu bois.o'zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o'rganar ekanmiz. bunda barcha yondashuvlarga. tamoyillarga. yo'l-yo'riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo'lish jarayoni. uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamdakechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish. Psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq- atvor psixologiyasida. jumladan

jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko‘p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi. —Inqirozli davrlar orasida o‘smirlik davri o‘zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o‘smirlarni voyaga yetkazishnin o‘ziga xos qonuniyatlari. xususiyatlari. imloniyatlari. xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O‘smirlik davri taqlidchanligi. muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi. hissyotlilik. mardligi. tantililgi bilan farqlanadi. O‘smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V.Dragunovlarning ta‘kidlashicha. o‘g‘il-qizlarning bu davrda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi. tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘quvchilarning to‘g‘ri va to‘liq ta‘lim va tarbiya olishi uchun oila va maktabning o‘rni beqiyosdir.

2. Muammoni bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari. Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar mavjud:

- Xulqida og‘uvchanligi bo‘lgan o‘quvchilar. ularning sinf rahbarlari. ota-onalari bilan tizimli ishlash.
- Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Psixologik profilaktika yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli va uzluksiz olib boorish.
- Psixologik diagnostika yo‘nalishi bo‘yicha olilib boriladigan ishlar.
- Psixologik korreksiya yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar,
- Psixologik maslahat yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o‘tkazish tartibi.
- Voyaga yetmagan bolalarni o‘z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyotga muntazam joriy etish.

Sinfdagi o‘quvchilar sonining tobora ortib borishi. maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o‘quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo‘lgan o‘quvchilarlardan iborat sinflar bilan ishlashga to‘g‘ri kelayotgan bir vaqtda. o‘qituvchilar talabalarni rag‘batlantirish va boshqarishning

samaradorligini oshirishga tobora ko‘proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o‘quvchilarni sinflarga qo‘shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta‘lim borasida muammolari mavjud o‘quvchilar sonining ko‘payib borayotganligi va sinflarda ta‘lim borasida muammolar mavjudligi o‘quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo‘ladi. O‘zib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz. kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak o‘quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni. jumladan xulq-atvorida —og‘ishli borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

3. Maktabda psixologik muammolari bor o‘quvchilar bilan psixologik maslahat o‘tkazish shartlari. Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o‘zgarib rivojlanib o‘zgarib boradi. bu esa individuallik. shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek. quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo‘llarini aniqlash.
- O‘smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi. hayotga munosabati. o‘z-o‘ziga ishonchi. irodaviy – hissiy o‘zini boshqarishni tahlil etib. shularga mos ravishda maslahat berish.
- Maqsadga erishishda o‘smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.
- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o‘smir hayotidagi ijtimoiy. Shaxsiy vazifalarni hal etish.
- Ayniqsa. o‘smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish. maslahat berishda aaniq maqsad qo‘yish.

#### 4.Xulosa

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan. yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek : — Fikrlash. ishlash va yashash madaniyatiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerakl. O‘zbekiston Respublikasining — Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni va —Kadrlar tayyorlash milliy dasturitalablari asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari asosida sog‘lom. har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Afsuski. bugun maktablarimizdagi bir qancha o'quvchi yoshlarimizning ruhiyatida. xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko'rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko'plab salbiy holatlarga olib keladi. bu ham o'ziga va o'zgalarga qolaversa. Butun jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o'quvchilar bilan ko'p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta'kidlaganimizdek maktab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat sohasidagi bir qator yo'nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o'quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo'ladi. Shuningdek. bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha director o'rinbosari. ota-onalar qo'mitasi. mahalla fuqarolar yig'ini. voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to'laligicha amalga oshirgan bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova T.M.Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur.2010.150-b
2. Mahmudova D,A. Psixokorreksiya asoslari. –Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2011. 128-b
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU,2006.128-b

## NIZOLI VAZIYATLANI INSON HAYOTIGA TA`SIRI

*Madaliyeva Ziyodaxon Usmonovna*  
*Farg`ona viloyati Furqat tumani 23-maktab psixologi*

Hammamizga ma`lumki, so`ngi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo`lgan turli ilmiy-texnik, ma`naviy, iqtisodiy ta`sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomoni ortib borayotganligi odamlarga to`qnash kelishi mumkin bo`lgan turli konfliktli vaziyatlarni ham oshirmoqda. Nizo (konflikt inson hayotining ajralmas qismi bo`lar ekan, konfliktlarni tan olmaslikni ilojisi yo`q. Faqat nizolarni boshqarish, ularga yechim topishga o`rganish lozim.

Nizolar tipologiyasi, ya`ni uning o`ziga xos tiplarga, ko`rinishlarga bo`linishi ancha murakkab hodisa hisoblanadi. Chunki, har bir real konflikt faqat uning o`zigagina xos bo`lgan hususiyatlardan iborat bo`ladi.

Nizo-istaklari, qiziqishlari, qadryatlari yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq subb`ektlar orasidagi ijtimoiy aloqalar shakli bo`lib, subb`ektlar individ, guruh, o`z-o`zi bilan ichki nizolarda bo`ladi. Nizo qarama-qarshilikning haddan tashqari kuchayib ketganligi bilan bahsdan. Nizo o`z tarkibiy tuzilishi, amal qilish sohasi, dinamikasi va turlariga ega. Nizoning tarkibiy tuzilishi muloqot ishtirokchilarining tashqi va ichki pozitsiyasi hamda nizo ob`ektidan iborat. Tashqi pozitsiya – kishining xulq –atvori. Ichki pozitsiya – kishining maqsadi va motivlari. Nizo ob`ekti – nizoning sababi. Nizo ichdan yoki shaxsiy sohada amal qilishi mumkin. Masalan, ichdan sohada – Nega kech qoldingiz?!, —Qandaydir muammolar paydo bo`lishi kabidir.

Nizo dinamikasi uch bosqichdan iborat: etilish, ro`yobga chiqish, so`nish.

1 – bosqichda nizo ro`yobga chiqishining oldini olish mumkin. Samarali usullardan biri kommunikativ o`zaro ta`sir sohasidan predmetli faoliyat sohasiga o`tish.

Ro`yobga chiqish bosqichiga o`tgan nizoning odini olib bo`lmaydi.

So`nish bosqichining kelishini kutish kerak bo`ladi. Bu bosqichda korreksion tadbirlarni o`tkazish samaralidir. Nizolar bir qancha belgilariga ko`ra tavsiflanadi:



1. Natijasiga ko`ra: konstruktiv – munosabatlarning yaxshilanishi, muammoning ikkala tomon uchun ijobiy hal qilinishiga olib keladi. Destruktiv - munosabatlarning yomonlashuviga, muammoning hal etilmasligiga olib keladi.

2. Davom etish vaqtiga ko`ra: uzoq muddatli – ro`yobga chiqish bosqichi cho`zilib ketgan nizo, qisqa muddatli - ro`yobga chiqish bosqichi uzoq davom etmaydigan nizo.

3. Keskinlik darajasiga ko`ra: norozilik, kelisha olmaslik, qarama-qarshilik, dushmanlik.

4. Faoliyat sohasiga ko`ra: boshqarish sohasidagi, ishlab chiqarish sohasidagi.

Shunday qilib, nizo qarama-qarshilikni bartaraf etishga qaratilgan tomonlarning faolligida namoyon bo`ladigan bipolyar hodisa, nizolashayotgan tomonlar faol sub`ektlar bo`lishi kerak.

Nizo – istalgan narsadan paydo bo`lishi mumkin, boshqa insonning axloqiy, diniy, siyosiy, hayotiy qarashlarini to`g`ri kelmasligidan yuz beradi. Nizoli vaziyatlar shu bilan birga o`zgarishlarga, rivojlanishlarga ham stimuly bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Nizolar pozitiv va negativ, konstruktiv va destruktiv bo`lishi mumkin. Nizolarni echimini topish insonning madaniyatlilik darajasiga bog`liq, yani ularni konfliktning signallari deb atash mumkin. Ularga inqiroz, bir-birini tushunmaslik, diskomfortlarni kiritish mumkin.

Nizoli vaziyatlar ijtimoiy aloqalarning bir tomoni hisoblanadi, uinsonlarning hayotida doim bo`lgan va ularni diqqat etiborini tortgan.

Konfliktologiya fan sifatida XIX asrning II yarmidan boshlab rivojlangan. Bu fan sotsiologiya fanining asoschilari tomonidan rivojlantirilgan, ularga O.Kont, G.Spenserlar o`z hissasini qo`shgan.

Nizo ijtimoiy hodisa bo`lib, jamiyat hayotining bir qismi hisoblanadi. Nizolarning tasnifi:

1. Kelib chiqish sohasiga ko`ra: ishlab chiqarish va iqtisodiy, ideologik, ijtimoiy-psixologik, oilaviy.

2. Masshtabi va davriyligiga ko`ra: umumiy va lokal, qisqa muddatli, uzoq muddatli.

3. Nizoli vaziyatlarning subektiga ko`ra: shaxsiy, shaxslararo, guruhiy, guruhlararo.

4. Konflikt predmetiga ko`ra: real, noreal.

5. Sababiga va kelib chiqishiga ko`ra: obektiv-subektiv, emotsional va ijtimoiy mehnat, kasbiy va shaxsiy.

6. Kommunikativ yo`nalganligiga ko`ra: gorizontaal, vertikal, aralash.

7. Ijtimoiy oqibatiga ko`ra: pozitiv-negativ, konstruktiv-destruktiv, yaratuvchi va buzg`unchi.

8. Shakli va darajasiga ko`ra: ochiq va yopiq, majburiy, maqsadli.

9. Boshqarish usuliga va masshtabiga ko`ra: ontogonistik, kompromisstik, hamkorlikka olib keluvchi, butunlay yoki qisman echimi topiladigan.

Shaxsning ichki nizolari bu motivlar, maqsadlar, qiziqishlar kurashidan iborat bo`lib, individ ongida maxsus kechinmalar paydo bo`ladi. Bu turdagi nizolar psixologik adabiyotlarda shaxs ichidagi, shaxsiy ichki, intrasub`ektiv, intrapersonal, psixologik nizolar sinonim sifatida ishlatiladi.

Shaxsiy nizo inson ruhiyatida ichki qarama-qarshilikning paydo bo`lishi, inson tomonidan muhim psixologik muammo sifatida idrok etiladigan va his etiladigan, uni hal etish uchun ichki ish talab etiladi.

Psixologik nizo ma`lum sharoitlarda vujudga keladi. Tashqi sharoitlar shunday bo`lishi mumkinki, —chuqur va faol motivlarni qondirishning iloji bo`lmay qoladi. Shuning uchun ham faqat insonlarda bo`ladi. Psixologik nizolarning ikkinchi sharti — vaziyatning sub`ektiv hal qilinmasligi.

Inson psixik hayotida psixologik nizolarning umumiy ahamiyati shundaki, —psixologik nizolarda shaxsning yangi munosabatlari shakllanadi, ilgorigi munosabatlar o`zgaradi. Shunday qilib, —nizoning hal qilinishi va rivojlanishining o`tkir shaklini tashkil etadi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, nizo yechimini topish murakkab, uzoq muddatli, sabr va qanoatni talab etadigan, tononlarning o`z ustida uzoq muddat ishlashini zaruriyatga aylantiradigan jarayondir. Nizo yechimini topish —tomonlarning bir-birlarini anglashini va tushunishiga qaratilgan yo`ldir.

## O'QUVCHILARNI ONGLI KASB TANLASHLARIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Berdiyeva Mahmudaxon Ohunovna*  
*Farg'ona viloyati Furqat tumani 16-maktab psixologi*

Bizga ma'lumki, har qanday kishi o'z hayotini yaxshilashi uchun birinchidan, buni hohlashi, ikkinchidan bunga o'zi tayyor bo'lishi va yana bunga erishishi uchun harakat qilishi zarurdir.

Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, integral hususiyatga ega ilmiy-amaliy faoliyatdir.

O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik harakterga ega bo'lsada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Bu yo'nalish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarigacha davom ettiriladi. O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida doimiy ishlashlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani, pedagogik mahorat namda insonparvarlikni takomillashtirishlari talab etiladi. Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi

yartm g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga old ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni solishtirish, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boy'itishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi. Shuningdek, tasavvur, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, bilim, ko'nikma, odatlar bilan uzviy bog'laydi. Hozirgi kunda kasb-hunarga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot ishlari, kasbiy bilim va ta'limga yo'naltirilib, o'quvchilarning fikrlarini, otionalarning hamkorligini seminar-treninglar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, kasb-hunarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish, anjuman, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar, qiziqish va havaslarini orttirish individual muloqotlarni uyushtirishdan, mazmunli tashkil etishdan iboratdir. Bunda psixologik xizmatni keng tatbiq qilish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

Kasbiy o'zlikni anglash, kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining tarkibiga singib ketgan component sifatida maqsadga yo'naltiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, yani oqimi hususiyatlarini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

O'quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashiga ta'sir etuvchi omillar-uning individual – tipologik hususiyatlari yoki ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy o'zlikni anglashning nomoyonligi ichki pozitsiyaning shakllanish qonunyatiga asoslanadi. Ichki pozitsiya o'z-o'zidan emas, balki sub'ektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi.

## **“KASBLAR VA INSONNING KASBGA YAROQLILIGI”**

### **“Ha!” Mashqi**

“HA” - bu sizda hozirda mavjud bo'lgan ko'nikmalar, qobiliyatlar, fazilatlar. Bu sizning boshlang'ich kapitalingiz. Maktabni bitirganingizdan so'ng nima qilishingizni o'ylash uchun bugungi kunda o'zingizni to'g'ri baholash juda muhimdir. Ushbu mashqda o'zingizni baholashda ob'ektiv bo'lishga harakat qiling”

“Ushbu jadvalda keltirilgan ko'nikmalar sizda qay darajada shakllangan?”

Foydali ko‘nikmalar	Doimo	Ko‘pincha	Ba’zida	Hech qachon
Boshlagan ishni oxiriga yetkazaman				
Men o‘zimga talabchanman				
Qiyinchiliklarni yenga olaman				
Vaqtни taqsimlay olaman				
Boshqalarning fikrini inobatga olaman				
Bergan va’damni bajaraman				

## MAKTAB O‘QUVCHISINING KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHI

### “Ijobiy va salbiy” usuli bo‘yicha so‘rovnoma.

O‘quvchilar uchun ko‘rsatma:

Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun siz o‘zingizning kuchli, zaif tomonlaringizni, imkoniyatlaringizni, shuningdek, ushbu kasbni o‘rganishga xalaqit beradigan to‘siqlarni hisobga olishingiz kerak

Jadvalni to‘ldiring va bunda kuchli va kuchsiz tomonlar sizga bog‘liq bo‘lgan ichki omillar va imkoniyatlar, to‘siqlar sizdan deyarli mustaqil bo‘lgan tashqi omillar ekanligini hisobga oling.

Afzalliklar – bu shaxsiy fazilatlar, moyilliklar, qobiliyatlar, bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlar, bu maktabda, har qanday faoliyatda, kelajakdagi hayotingizda maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Kamchiliklar – yomon odatlar, tajriba, bilim, ko‘nikma va qobiliyatning yetishmasligi bu maqsadlarga erishishni qiyinlashtirishi mumkin.

Imkoniyatlar – qulay tashqi sharoitlar va insonga maqsadlarga erishishga nima yordam beradi; bu sizning ham kuchingiz, ongingiz, qobiliyatingiz.

To‘siqlar – noqulay tashqi sharoitlar va xalaqit beradigan narsalar, maqsadlarni, niyatlarni, istaklarni amalga oshirishga imkon bermaydi.

Tashqi sharoitlarga mehnat bozoridagi vaziyat, iqtisodiyotning holati, do‘stlar va tengdoshlarning mavjudligi yoki yo‘qligi va boshqalar kiradi.

<p>Afzalliklar</p> <p>1. _____</p> <p>2. _____</p> <p>3. _____</p> <p>4. _____</p>	<p>Kamchiliklar</p> <p>1. _____</p> <p>2. _____</p> <p>3. _____</p> <p>4. _____</p>
<p>Imkoniyatlar</p> <p>1. _____</p> <p>2. _____</p> <p>3. _____</p> <p>4. _____</p>	<p>To‘siqlar</p> <p>1. _____</p> <p>2. _____</p> <p>3. _____</p> <p>4. _____</p>

**Quyidagi jummalarni to‘ldiring va ularni daftarga yozing.**

1. Odamlar ... Uchun ishlaydi
2. Har qanday faoliyatda..... Muhim ...
3. Mehnat faoliyatini tanlashda insonlar ko‘pincha ..... Tayanadilar
4. Mehnat faoliyatini tanlashda insonlar ko‘pincha ..... E’tiborga olishmaydi
5. Mening kelajagim menga ...
6. Men ushbu kasbiy faoliyatni tanladim, chunki ...
7. Tanlangan ish mendan .....Talab qiladi ...
8. Nazarimda, mening kasbim .....Yordam beradi
9. Mening kasbim menga ..... Imkon bermaydi deb o‘ylayman
10. Kasbim menga ..... Imkoniyat beradi ...
11. Mening kasbim ..... Ta’minlaydi
12. Kasbiy faoliyatni insonlar ..... Uchun ko‘pincha tanlashadi.

## OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASHDA DIN ROLINING O'RNI

*Amriddinov Azamat Zafar o'g'li*  
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 4-kurs talabasi*

Oila jamiyatning to'rtta asosiy institutlaridan biri hisoblanib, unga barqarorlik va har bir keyingi avlodda aholini to'ldirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, oila kichik guruh - jamiyatning eng yaxlit va barqaror bo'g'ini sifatida ishlaydi. Inson hayoti davomida turli xil guruhlarining bir qismi bo'lib keladi - tengdoshlari yoki do'stlari, maktab sinfdoshlari, mehnat hamkamlari yoki sport jamoasi lekin u hech qachon tark etmaydigan yagona guruh bu oila bo'lib qoladi. Maqolamiz mavzusining dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

**birinchidan**, oila ma'naviyatini mustahkamlash, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyituvchi tarixiy meros va qadriyatlarni ma'naviy tahlil qilishga ehtiyoj kuchaymoqda;

**ikkinchidan**, G'arb mamlakatlarida demokratiya namunasi deb baholanib, jahonga eskalatsiyasi (biror narsa yoki hodisaning asta-sekin tadrijiy ravishda kuchayib, zo'rayib, ko'payib borishi) kuchayib borayotgan bir jinsli nikohningg'ayriinsoniy mohiyatini fosh qilish g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda;

**uchinchidan**, oilaning jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati bilan bog'liq milliy, islomiy va umuminsoniy qadriyatlarning oilani mustahkamlashga qaratilgan jihatlarni ma'naviy tahlil qilish nazariy-metodologik ahamiyatga ega ekanligi;

**to'rtinchidan**, o'zbek xalqi turmush tarzi va oila ma'naviyatini mustahkamlashda islomiy qadriyatlarning tarixiy ahamiyatini, undan ijodiy foydalanishda vorislik aloqadorligiga rioya qilish ilmiy yo'llarini, usullarini tadqiq qilish zaruriyati kuchaymoqda;

**beshinchidan**, yoshlarni turli norasmiy diniy harakatlar ta'siridan muhofaza qilish, o'zining mustaqil hayotiy pozitsiyasi g'oyaviy immunitetini shakllantirishda oila ma'naviyatini tizimli-funksional ma'naviyjihatdan tahlil qilish, (asoslash hamda oilani barqarorligiga salbiy ta'sirini oldini olish muhim ahamiyatga ega);

Oila eng muhim ijtimoiy element hisoblanadi. U hamisha alohida, mustahkam, hayotiy qadriyatlar qatoriga kiritilgan, jamiyat mavjudligining asosi bo'lgan. Oila

qadriyat bo‘lib, ayni paytda axloqiy tamoyillar, an'analar va urf-odatlar ombori, inson xatti-harakatlarining axloqiy koordinatalari tizimining eng muhim bo‘g‘inidir. Zamonaviy dunyoda oila institutining kelib chiqishi haqida ko‘plab tushunchalar mavjud. Ba'zilar oilani insoniyat evolyutsiyasi mahsuli degan e'tiqodga amal qiladilar, boshqalari uni ijtimoiy tuzilish va ijtimoiy aloqalarning zaruriy shakli deb bilishadi. Diniy an'ana tashuvchilari oila va oilaviy qadriyatlarning ilohiy kelib chiqishiga ishonch hosil qilishadi. Diniy hayot, samoviy dunyoga yuzlanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nikoh va oila shunchaki ikki kishining birligi emas, balki er va xotin endi bir-biridan mustaqil ikkita atom bo‘lagi emas balki, birlashgan yangi organizmdir. U o‘sishi, yuqoriga ko‘tarilishi, gullashi, yaxshi meva berishi mumkin, lekin u kasal bo‘lib, qurib qolishi va oxir-oqibat o‘lishi ham mumkin.

Faqat Xudo bilan hamkorlikda er va xotin o‘zlarining baxt uyining yaratuvchisiga aylanadilar. Ilohiy Yaratguvchiga tayanmasdan oila farovonligini qurishga qaratilgan har qanday urinish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Diniy oilaning asosi er-xotinning Xudoga bo‘lgan umumiy sevgisidir. Agar ikkita nur umumiy nuqtaga moyil bo‘lsa, ular doimo bir-biriga yaqinlashib, ular bitta yorqin nur nuriga birlashmaguncha, ularda biri va ikkinchisi endi ko‘rinmaydi, faqat bittasi mavjud va aksincha, umumiy intilish nuqtasini yo‘qotgan nurlar xaotik tarzda harakat qiladi - yo bir-biri bilan kesishadi, yoki turli yo‘nalishlarda tarqaladi.

Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi sog‘lom avlodning yaralishi yo‘lida muttasil e‘tiborda bo‘lgan, oilasi, urug‘i obro‘si mustahkamligi, g‘ururi uchun doim kurashib kelgan. Bunday oilaparvarlar va bolaparvarlar islomiy g‘oyalarining aynan bizning zaminda rivoj topgani bilan ham bog‘liq. Buni tarixiy manbalarni kuzatishning o‘ziyoq anglatib turibdi. Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” da oila, uning mustahkamligi, tarbiya masalalariga katta e‘tibor berilgani uning isbotidir.

Islom dini oilaviy munosabatlarning hayot haqiqatlariga, adolat tuyg‘usiga va insonparvarlikka asoslangan ma'naviy mezonlarini yaratdi, ayollarning oila va jamiyatdagi haq-huquqini belgiladi, bu borada, ayniqsa, uning onalik burchiga, bolalari uchun murabbiylik faoliyatiga Yuksak e'tibor berdi. Qur'onda bayon qilinishicha, musulmalar ma'naviy jihatdan musulmon erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lib, jismoniy



ji hatdan zaif bo'lganliklari uchunaslo kamsitilmasliklari lozim. Chunki Alloh erkakni erlarga xos, ayolni esa, ayollarga xos xususiyatlar bilan yaratdi. Binobarin, ular o'z tabiiy xususiyatlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'z jinsini ulug'lab, boshqa jinsni mensimaslikka haqqi yo'q. Aksincha, bu ikki jinsning o'zaro bir-biriga hurmati, mehr-muhabbati Yaratganning o'zi tomonidan bu yurilgan amallardan bo'lib, ahil va inoqlikda yashash, bir-birini sevrishga da'vat etilgan.

Alloh taolo insoniyat naslining nikoh yo'li bilan davom etishini iroda qilib, O'zining so'nggi va mukammal dinida bunga oid barcha hukmlarni bayon etgan. Shuning uchun dinimizda ushbu muqaddas robita – nikoh tufayli vujudga keladigan oilaga katta e'tibor beriladi. Islom dini nikohni, oilaning sha'nini qanchalik himoya qilishini, maxluqotning gultoji bo'lmish inson naslining davomiyligini ta'minlovchi ilohiy ko'rsatmalar Qur'oni karimda ham bosh mavzulardan biri ekanini anglash uchun Niso surasidan bir oyat va uning tafsiri bilan tanishish kifoyadir.

«Erkaklar xotinlar ustidan (oilal boshlig'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlarini (erkaklarni) ayrimlaridan (ayollardan ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulkidan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – (Allohga va eriga) itoatli, g'oyibga Alloh saqlaganicha himoyatlilardir (ya'ni erining sirini, molini va obro'sini saqlovchidir). Xotinlarning itoatsizligidan qo'rqsangiz, avvalo ularga nasihat qiling, so'ngra (bu ta'sir qilmasa) ularni o'rinlarda (aloqasiz) tark eting, so'ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo'lmagudek darajada) uring. Ammo sizga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo'l axtarmang. Albatta, Alloh oliy, ulug' Zotdir» (34-oyat).

Yurtimiz istiqloлга erishgach, dinimizni o'rganish va unga amal qilish, milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida keng ko'lamli xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizning buguni va ertasi bo'lmish oila, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash bolajon xalqimizning asriy orzulari, ming yillik diniy va milliy an'alarimizga ko'ra eng muhim dolzarb vazifaga aylandi. Uzoq muddat davom etgan mustabid tuzumning zararli ta'sirini yo'qotish, millatimizga yot tushunchalar, urf-odatlarining yoshlarimiz ongiga singdirilishiga, sog'lom insoniy fitratga zid bo'lgan turmush tarzini sun'iy ravishda

ommalashtirishga qarshi kurashishning eng muhim omili – oilada, mahallada ta'lim-tarbiyani kuchaytirishdir.

Insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan, buyuk allomalarni dunyoga keltirgan o'zbek xalqi bugungi kunda yana o'zligini anglab, jahonga yuz tutmoqda. Otabobolarimizning asriy orzu-armoni bo'lmish hurriyat bayrog'i ostida tug'ilgan yosh avlodni Buxoriy, Termiziy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk bobokalonlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash sizni bizning zimmamizdagi ulkan mas'uliyatdir. Bu og'ir vazifani sharaf bilan ado etish uchun oilalarimiz mustahkam, farzandlarimiz sog'lom va barkamol bo'lishi lozim. Oilani mustahkamlash uchun esa muqaddas dinimizning yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatmalariga og'ishmay amal qilishimiz zarur. Oilada iymon-e'tiqodli, salohiyatli farzandlar yetishib chiqishi uchun oilaning nizomi, poydevori mustahkam bo'lishi kerak, ota-onaning o'zi tarbiyali, sabrmatonatli bo'lishi, turmushning baland-pastini, hayotning achchiq-chuchugini birgalikda totishi kerak. Ana shundagina jamiyatimizdagi har bir oila chinakam baxt saroyiga, rohat-farog'at, huzur-halovat maskaniga aylanadi.

---

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB - HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Kung'irova Soxiba Berdimurotovna  
Samarqand viloyati Nurobod tumani 31-maktab psixologi*

Mukammal egallanmagan kasb o'z egasiga mukammal imkoniyatlar eshigini to'la qonli ochib berolmaydi. Qachonki inson kasbiga mehr qo'ysagina kasb ham unga mehr ila javob qaytaradi. Ya'ni, kasbdoshlar, millat, kerak bo'lsa jahon miqyosida ham munosib o'rin topishda to'g'ri tanlangan mutahassislikning o'rni beqiyos. Bo'lg'usi mutahassislarni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo'yiladigan talablarga mutanosib

insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o'rganilganligiga qaramay, ularning mehanizmlari, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi ,mehnatkashlarning issiq sharoitlarga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo'llari ,mehnat unumdorligini oshirishning samarali usullari, ekologiyaning o'zgarishiga o'xshash muammolarni o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan.

O'quvchilarni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashiga va ta'lim muassasalariga (kollej, kasb-hunar maktabi, texnikum, oiliy o'quv yurti) o'qishga yo'naltirishga tayyorlash bugungi kunda asosiy vazifalardan biridir. O'quvchilarga turli kasblar, mutaxassisliklar, ixtisosliklarhaqida ma'lumot berish, ta'lim turlari va tanlangan kasb hamda mutaxassislikni qaysi o'quv yurtida olish mumkin, bundan tashqari kasblarni insonning jismoniy ruxiy va shaxsiy sifatlariga talabini xisobga olgan holda tanlashiga yordam berish lozimdir. Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda kasbiy tushunchalar berish, kasb hunarga yo'llash tizimi hamda bosqichlarini tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda maktab raxbariyati oldida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini o'rganish, har bir fan o'qituvchisi darslarda o'quvchilarga mavzuga bog'lagan holda kasbiy tushunchalar berib borishi, natijaviy xulosalarga ko'ra kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etishi kerak bo'ladi. Bugun har jihatdan omilkor, mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti nuchun ongli-faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, uni o'z salohiyatiga mos kasbga yo'naltira olish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Qiziqish va mayllar. Qiziqish deganda odamning u yoki bu fanga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda qiziqishlar bu odamning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir.

Qiziqishlar o'zining mazmuni, ko'lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami odamning bilim darajasini

hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko'rsatadi.

Qiziqishlar o'z taraqqiyoti mobaynida bir nechta bosqichdan o'tadi. Dastlab ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo'ladi hamda muayyan bir fanga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo'ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so'nadi. U yoki bu fanning chuqur va muntazam ravishda o'rganib borilishiga, mehnat faoliyatining qiziqqan sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin. Bunday qiziqishlar ko'pincha o'sib, ulg'aya borib, maylga kishining muayan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o'z bilimni oshirib borish uchun intilishiga aylanadi.

Agar qiziqishlar "bilishni istayman" degan formula bilan ifodalanadigan bo'lsa, mayllar "bajarishni istayman" degan formula bilan ifodalanadi. Hayvonlar to'g'risidagi kitoblarni o'qishga bo'lgan qiziqish hayvonot bog'iga borib turishni yaxshi ko'rish, "hayvonot olamida" deb ataladigan televizion ko'rsatuvning birortasini qo'ymay ko'rib borish boshqa-yu, hakiqiy jonivorlarni har kuni parvarish qilish natijasida hosil qilinadigan bir olam quvonch boshqadir.

Kasb tanlashga yo'llash –bu kasb ta'limi psixologiyasining asosiy muammosi shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo'llash masalalaridir. Kasb tanlashga yo'naltirish davlatning tadbir-choralari tizimidan iborat bo'lib, inson tomonidan tanlanadi, o'z hayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kasbga yo'naltirish - bu ta'lim oluvchi bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, u tarkibiga turli xildagi bir-birini o'zaro to'ldiruvchi ish usullarini qamrab olish lozim. Zamonaviy psixologiya amaliyotida kasb tanlashga aloqador bo'lgan qator uslublar mavjud. Bu usullarni yuqori sinf o'quvchilari uchun o'quv yili davomida qo'llab borilishi maqsadga muvofiqdir.

Tanlov bo'yicha qabul qilish uchun insondan bir qator sifat ,bilim va malakalar talab etiladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin :

- bolaning faolligi va qiziquvchanligi;
- tahlil va sintez qila olish qobiliyati;
- o'ziga adekvat –munosib baho bera olish;
- tafakkurni moslashuvchanligi va qo'zg'aluvchanligi;
- irodaning rivojlanganligi;
- xissiy yetuklik;
- kelajakni ko'ra olish ;
- tasodifiy omillarga qarshi tura bilish;
- o'z-o'zini va tanlov vaziyatini rivojlantira olish ;
- yangi maqsad qo'ya bilishi va maslahatlarni hal eta olish ;
- Harakatchanlik;
- Olingan yangi habar va ma'lumotlar asosida qabul qilinayotgan qarorni qayta ko'rib chiqish,o'zgartirish va to'g'rilash;
- Tanlash tamoyili va qoidalarini shakllanganligi.

Shuningdek, kasbiy o'zligini belgilay olish qobiliyati o'z ichiga bir qancha bloklarni qamrab oladi:

- 1) axborot – ma'lumotli blok dunyodagi mavjud kasblar va mehnat bozoridagi xolatdan habardorlik;
- 2) motivatsion blok-maqsad va istaklarni aniqlash;
- 3) hulq-atvor blogi-ijtimoiy va kasbiy tajribani amalga oshirish tajribasini mavjudligi;
- 4) hissiy barqarorlik blogi;
- 5) shaxsiy va kasbiy sifatlar blogi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi to'rt asosiy bosqichdan iborat:

- 1.kasbiy intilishlarning shakllanishi;
- 2.kasbiy ta'lim;
- 3.kasbiy moslashish
- 4.shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to'liq o'zini-o'zi bag'ishlash.

Kasbiy ta'limning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo'lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko'rinishda amalgam oshiriladi: mustaqil o'rganish va maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olish orqali. Kasb tanlash qisqa vaqtda xal etiladigan ish bolmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davomiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub'ektining individual xususiyatlarida to'liq kechadi.

O'quvchilarni kasb hunarga yonaltirish ishlarini takomillashtirish. Bunda kasb-hunarga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay bilish ko'nikmasiga ya'ni qiziqishiga mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot yangiliklaridan habardor bo'lishi lozim. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish pedagog hodimlar tomonidan uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bosqichlarda amalgam oshiriladi. Barcha kasblar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashga asoslangan shaxsiy intilishlar darajasini aks ettiradi. Qolaversa kasblar tanlovi kasbiy o'zligini anglash subektdan yuksak faollikni talab qiladi. O'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

- a) o'z ichiga kasbiy targ'ibot va tashviqotni olgan kasbiy ma'rifat ya'ni kasbiy axborot;
- b) u yoki bu soha kasbga bo'lgan shaxsqiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy diagnostikasi;
- v) kasb tanlashda mutahassislar tomonidan guruhviy individual yordam ko'rsatishga qaratilgan kasbiy konsultatsiya;
- g) ko'proq muvaffaqiyatga erishish mumkin bolgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov
- d) ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalgam oshiriluvchi ijtimoiy kasbiy adaptatsiya;
- e) tanlangan kasbni o'rganish jarayonida burch, ma'suliyat kasbiy or-nomus, oriyat hislarini o'quvchilarda shakllantirishga qaratilgan kasbiy tarbiya;

f) Kasbiy ma'rifat ya'nikasbiy axborot o'quvchilarga kasblar olami kasblarning belgi va hususiyatlari kasb klassifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlarni berishdan iborat bo'lib, ular asosida o'quvchi o'zini qiziqtirgan jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlaydi. Turli metodikalar yordamida o'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlab olish mumkin.

Kasb- bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonning kelajagini belgilab beradigan, o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasb tanlash bu murakkab lekin zaruriy jarayon bo'lib,

insonning kelajagiviva yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi shuningdek jamiyatda o'z o'rnini topishi foydalimehnat qilish imkoniyatiniberuvchi jarayon hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, o'quvchilar jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari, kelajakda tanlagan kasblarida samarali faoliyat olib borishlari uchun yoshlikdanoq kasbiy qobiliyat va layoqatlarini aniqlab olishlari kerak. O'qituvchi pedagog psixologlardan esa ularni kasbiy motivatsiyasini oshirib, kasbiy qiziqish va layoqatlarini tanlagan kasbiga mos tushishini ta'minlash hamda ularni bu borada to'g'ri yo'lga yo'naltirishni talab etadi.

## ЎСМИРНИНГ ҲАЁТ КЕЧИРИШ ТАРЗИ ВА УНИНГ ПСИХИК ТАРАҚҚИЁТГА ТАЪСИРИ

*Хамитжоновна Гулбахор Обитовна  
Наманган вилояти Чуст шаҳри 75-мактаб психологи*

Кичик ёшдаги ўқувчилардан фарқли равишда ўрта ёшдаги ўқувчиларнинг ҳаёт кечириш тарзида жиддий ўзгаришлар рўй беради. Оилада, мактабда ва ўқувчилар жамоасида ўсмирнинг мавқеи сезиларли даражада ўзига хос хусусиятларни юзага келтиради. Ўсмирларнинг оила аъзолари билан ҳам янгича муносабат ўрнатишлари лозим бўлади. Ўсмир шахсининг такомиллашуви ва шакилланишига туртки бўлган омиллардан бири ўқув фаолияти мотивларидаги сифат ўзгаришлардир. Ўсмир энди фақат билимлар тизимига эга бўлиш, ўқитувчининг мақтовини эшитиш ва «5» баҳоларни кўпайтириш учун эмас, балки тенгқурлари орасида маълум ижобий мавқени эгаллаш, келажакда яхши одам бўлиш учун ўқув мотивлари устувор бўлиб боради, лекин ўқув фаолияти мотивлари орасида билиш, янги билимларга эга бўлиш мотиви кучсиз бўлгани сабабли, улар мактабга боргиси келмайди, ўқишга оғриниб келиб, салбий хис туйғулар ва хавотирлик хисларини бошдан кечиради. Катталар томонидан ўсмирнинг юриш туриши, хулқига жавоб бериш талаб қилинади. Ўсмирга унинг илгари қондирилиб келинаётган эҳтиёж ва хоҳишлари

Энди қондирилмаслиги, уларнинг кўпидан воз кечиш лозимлиги уқтирилади. Ўсмир қийинчилик билан бўлсада, ўзининг янги мавқеини тушуна бошлайди, ўз хулқини ўзгартириб унга мослаша боради. Мактабда ўсмирнинг мавқеи янада кескин ўзгаради. Уни энди бир неча ўқитувчи ўқитади. Ўсмир олдида ҳар бир ўқитувчининг ўзига хос метод ва усулларига мослашиш, уларнинг талабларини англаб, билиб олиш каби мураккаб вазифа туради. Энди ўсмир кўпгина янги ўқув фанларини ўрганиб олиши керак бўлади.

Ўсмирнинг болалар жамоасига бўлган муносабати ҳам мураккаблашади. Ўсмирга ўзининг ўқиши, меҳнати ва хатти- ҳаракатларига масъулият билан қараш жамоат топшириқларини аниқ бажариш, билим ва кўникмаларни эгаллашда режа бўйича системали равишда кўтарила бориш каби аввалгидан кўра жиддийроқ талаб қуйилади. Ўсмирнинг оиладаги мавқеининг ўзгариши, мактабда ўқишнинг янги шароити, болаларнинг ижтимоий ҳаётида мураккаб муносабат-лар ўрта ёшдаги ўқувчилар олдида кўпгина янги талаблар қўяди ва уларнинг бутун психик ҳаётида янги қийинчиликлар туғдиради. Аввал мустаҳкам ўрнашиб қолган кўникма ва малакалар янги ҳаёт кечириш тарзига кўп жиҳатдан мос келавермайди. Шунинг учун ўсмирларнинг психик жиҳатдан нормал ҳаёт кечириши ва ўсишини таъминлаш учун ўсмирлик ёшининг ўзига хос психологик хусусиятлари эътиборга олинган таълим-тарбиявий тадбирлар қўлланилиши зарур. Ўсмирлик даври қарама-қаршилиқларга бой даврдир. Уни баъзи олимлар « кризислар » « таназзуллар » даври ҳам деб атайдилар. Сабаби ўсмир руҳиятида шундай инқирозий ҳолатлар рўй берадики, у бу инқирозни бир томондан ўзи ҳал қилгиси келади, иккинчи томон-дан, ўзи ҳал қилишга имконияти, кучи ва ақли етмайди. Психологик жиҳатдан ўсишида унинг руҳиятида кескин бурилишлар юз беради. Бу кўринишларни биз уларнинг ҳарактер хусусиятидаги « оғиш » ликларда кўришимиз мумкин ва бу оғишлиқлар уларнинг хатти-ҳаракатларидаги « портлаш » ва агрессияга (тажовузкорликка) мойил бўлган аффектив қўзғалувчанликдир. Бу ҳолат кўпинча ижтимоий адаптациянинг (мослашишнинг) бузилишини, жумладан қонунбузарликнинг сабабларидан бири бўлиб ҳисобланади. Маълумки аффектив қўзғалувчанлик кўп жиҳатидан ўсмирлик даврига тўғри келади. Бу ҳолат меъёрда



ҳам кузатилади. Унинг вужудга келиши бу ёш фазасининг вегетатив эндокрен системанинг қайта қурилиши бўлса психологик ўзгариш портлаш ва агрессияга (тажоввузкорлик) мойил бўлган аффектив кўзгалувчанликдир. Бу ҳолат кўпинча ижтимоий адаптациянинг (мослашишнинг) бузилишини, жумладан, қонунбузарликнинг сабабларидан бири бўлиб ҳисобланади. Аммо психик соғлом атроф муҳитнинг қулай шароитларида тарбияланаётган ўсмирларда аффектив кўзгалувчанлик адаптациянинг бузилишига олиб келмайди. Ўсмир шахси характеридаги оғишларнинг шаклланиши уларнинг типларини аниқлаш, тиббий психологик ва тиббий педагогик ишларни актив олиб бориш учун зарурдир.

Хулқ - атори оғир ўсмирларнинг шахси шаклланишига кўпчилик ҳолларда оилавий шарт-шароитлар, ота-онанинг ёки қариндошлар-нинг ичкиликбозлиги, уларнинг ахлоққа зид хулқ-атворлари салбий таъсир кўрсатади. Тарбияси оғир ўсмирлар учун одатда ўқишга, умум эътироф этган қоидаларга нисбатан зид муносабат бўлиб, охир- оқибатда бу уни синфига, мактабга, билим юрти жамоасига, қарама- қарши қилиб қўяди. Аксарият ҳолларда тарбияси қийин ўсмирлар- ички салбий муносабатлар натижасида мактаб жамоасида ўз ўрнини топа олмаган ўқувчилар бўлиб чиқади. Ўсмирлик ёшида катта ёшдагилар, ота- оналар ва ўқитувчилар билан келишмовчиликлар рўёбга чиқадики, бу фақат табиий ўсиш жараёни билангина эмас, балки, ўсмирни катта ёшдагилар ва тенгдошлараро муносабатлари ўзгариши билан изоҳланади . Тенгдошлар билан доимий мулоқотга эҳтиёжнинг кучайиши, ўзлигини тасдиқлашга интилиш, тенгдошларининг ўзи ҳақидаги фикр мулоҳазаларига таъсирчанлик ўсмирлик даврига хос хусусиятлардир.

Психолог тадқиқотчилар тарбияси қийин ўсмирларнинг вужудга келишига ижтимоий муҳитдан ташқари, педагогик, психологик сабаблар ҳам борлигини кўрсатади. Назарий мулоҳазалар анализи, ўсмирларнинг хатти-ҳаракатлари мотивини системали ўрганиш жараёни тарбияда меъёрдан четга оғиш сабаблари, хилма-хил эканлигини кўрсатади.

Балоғат даврида ўқитувчилар, ота-оналар ва жамоатчилик ўсмирни назоратсиз қолдириши, бўш вақтини тўғри уюштирамаслиги, ўқишга нисбатан салбий муносабат, синф жамоаси билан алоқани ёмонлашуви, спиртли ичимликка ўрганиш, тажовузкор, серзардалиқ тарбияси қийин ўсмирларни келтириб чиқарувчи муҳим омиллардан бўлиб ҳисобланади.

Тарбияси қийин ўсмирларни ўрганишда ижтимоий муҳитдан ташқари педагогик-психологик сабаблар мавжудлигини ҳисобга олиш, қонунбузарликни келиб чиқиш сабабларини диагностика ёрдамида аниқлаш, тарбияси қийин ўқувчилар шахсини аниқлаш уларнинг психологик муносабатларини инобатга олган ҳолда типологиясини тузиш типологик хусусиятларга биноан индивидуал иш олиб бориш, қонунбузарликни олдини олиб ва тарбияси қийин болаларни қайта тарбиялаш методларини амалга тадбиқ қилиш, бу муаммони ечилишига ёрдам беради. Юқорида таъкидланган номақбул оилавий шарт- шароитлар билан бирга тарбияси қийинликни келтириб чиқарувчи мактаб, қариндош- уруғ, маҳаллаларни болалар тарбиясига эътиборсизлигини ҳам киритишимиз мумкин. Бироқ ёмон ота-онанинг боласи албатта ёмон бўлади деб ҳисоблаш хатодир. Ўсмир номақбул ташқи таъсирларни ўз истаганича ранг- баранг тарзда идрок этади ва ўзлаштиради. У салбий таъсирларни қабул қилмаслиги, рад этиши, уларга қарши курашиши ҳам мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик технология. Т., 2004
2. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психологиядан практикум. Т., 1991
3. Каримова В. Ва бошқалар. Мустақил фикрлаш. Т., “Шарқ”, 2000

## O'QUVCHILARNI KASBGA-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Boboyeva Nasiba Maxmudovna*  
*Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 16-maktab psixologi*

**Kalit soʻzlar:** kasb, hunar, psixolog, kasbiy tayyorgarlik, shaxs kamoloti, qiziqish, intellekt, kasbiy tanlov.

Bizga ma'lum, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritirib, YE.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat

ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi. Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar. Keyingi kasblarning tizimlash qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi.

Asosiy ish qurollariga ko'ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin. 1. Qo'l mehnati kasblari;

2. Mashina qo'l mehnati;

3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo'llanishi bilan bog'liq kasblar;

4. Funktsional ish quroli bilan bog'liq kasblar.

Ma'lumki, kasbiy ta'limning barcha kasblar bo'yicha olib borib bo'lmaydi va kasbiy faoliyat turlarining murakkablik darajasi, sharoitlari, vositalari, mazmuni juda farqlanadi. O'quv kasblarning ma'lum belgilari, sifatlarini tasniflash va malaka darajalarini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan tanlov lozim. O'quv kasblar ro'yxati buning natijasi bo'lishi kerak va shu asosda mutaxassislar tayyorlash shakllari aniqlanadi. Bu korxonalaridagi qisqa muddatli tayyorgarlik, kasb maktablarida yoki oliy o'quv yurtlaridagi o'qish

bo'lishi mumkin. O'quv kasblar ro'yxatiga shuningdek, kasblarning tarqalganligi, 17 og'ir va zararli mehnat sharoitlari bo'lgan ishlarga qarshi ko'rsatmalar, shuningdek yoshdagi cheklashlar ta'sir etadi. Kasbiy ta'lim uchun o'quv kasblar ro'yxatini tanlash doimodolzarb bo'ladi va albatta bu ro'yxat ilmiy asoslangan guruhlashga ega bo'lishi kerak hamda kam sonli bo'lishi lozim. Malakali ishchilarning tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida o'quv fanlarini guruhlash masalasi birinchi marta S.Ya.Botishev tomonidan ko'rib chiqilgan edi. Kasblarning bo'linish belgisi sifatida quyidagilar ko'rib chiqildi: 1) Mehnatning mexanizasiyalanganlik darajasi. 2) Talab etiladigan malaka darajasi va xarakteri. 3) Sarflangan jismoniy va aqliy mehnat nisbati. Kasbiy ta'lim iqtisodiyotning kasblarga bo'lgan ehtiyoji va tarqalganligi asosida o'quv yurtlarida mutaxassisliklarni tayyorlash uchun mo'ljallangan kasblarni tasniflashga muhtoj. Bu borada quyidagicha ish olib borilmoqda, 1987 yilda kasbiy texnologik ta'lim tizimida ishlarini rivojlantirish uchun navbatdagi kasblar ro'yxati tasdiqlangan edi. Unga ko'ra, o'quv kasblarining umumiy soni 1123 tagacha qisqartirilgan edi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda shaxs omili muhim hisoblanadi. Oxirgi yillarda "malaka" tushunchasi ham sezilarli o'zgardi. Ishchi malakasiga ma'lum mutaxassislik bo'yicha bilim, ko'nikmalardan tashqari keng kasblar doirasi uchun zarur bo'lgan muhim kasbiy sifatlar ham kiradi. Muhim kasbiy sifatlarga mas'uliyat, ishonchlilik, kirishimlilik, hamkorlik qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati kiradi. Hammasi bo'lib 50 ga yaqin asosiy tasniflash ajratiladi. har bir kasbiy faoliyat odatda 5-7 muhim kasbiy sifatlarni talab etadi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda quyidagi tamoyillar asosiy bo'lishi mumkin. Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqish texnologiyalarining o'zaro aloqalari. Shaxsning kasbiy o'zlikni anglash. Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat masalalari ham nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lgan va sanitariyagigienik talablar kiradi. XULOSA Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini

kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ko`pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo`lsam ekan yoki qaysi sohaning mutaxassisi bo`lsam ekan? – degan savolni o`z oldilariga qo`yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o`quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo`lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib etmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.G`oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
- 3.WWW.ZIYONET.UZ

---

## MAKTAB O`QUVCHILARINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O`RGANISHNING AHAMIYATI

*Shamamedova Laylo Ro`ziyevna*  
*Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 21-maktab psixologi*

**Kalit so`zlar:** individ, shaxs, o`quvchi, individual-psixologik xususiyat, refleksiya, temperament, xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar.

Inson shaxsi taraqqiyotida biologik va ijtimoiy omillarni o`zaro nisbati muammolari psixologiyada munozarali va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsning barcha psixik ko`rinishlari uning hayoti davomida shakllanib boradi. Insonning individual–psixologik hususiyatlari deyilganda qobiliyatlar, temperament, xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar tushuniladi. Bu psixologik hususiyatlar ajralmas tarzda mavjud bo`lib o`zaro bog`liq, shartlangan, inson faoliyatida bir–biriga birikib ketadi. Kishilarning individual hususiyatlarini hisobga olgan xolda va ular haqidagi bilimlar amaliy hayotda qo`llanilishi katta ahamiyatga ega bo`lib, ijtimoiy faoliyat va qobiliyatlarni to`liq rivoj topishida muhim rol o`ynaydi. ndivid

rivojlanishining tabiiy sharoitlari, uning jismoniy tuzilishi nerv va ichki sekretsiya bezlari sistemasi, jismoniy tuzilishidagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual–psixologik hususiyatlari shakllanishiga ta’sir ko’rsatadi. Lekin biologik omillar kishi Shaxsning tarkibiga singib ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda mavjud bo’ladi. Shaxs shakllanishida uning ijtimoiy va tabiiy xislatlari birlikni tashkil etadi va Shaxsning mustaqil kichik tuzilishi sifatida bir– biriga o’zidan o’zi qarshi qo’yilmaydi. Psixologiyada shaxsda ikki omil biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura mavjudligini ta’kidlaydigan nazariya sezilarli o’rin egallaydi. Inson shaxsning o’zi «endopsixik» va «ekzopsixik» tuzilishga ega, degan fikr ilgari surildi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi «endopsixik» to’zilish bamisoli kishining nerv–psixik to’zilishga o’xshash bo’lgan inson Shaxsning ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funktsiyalarning o’zaro ichki bog’liqligini ifoda etadi. «Ekzopsixika»ning tashqi muhitga munosabati bilan, ya’ni Shaxs qanday bo’lmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bo’lgan va Shaxsga qarama–qarshi turadigan to’zilishlarning barchasiga munosabati bilan belgilanadi. «Endopsixika» moyillik, xotira tafakkur va hayol hususiyatlari, irodaviy zo’r berish, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa xislatlarni, «ekzopsixika» esa kishi munosabatlari sistemasini va uning tajribasini, ya’ni uning qiziqishlarini, ideallarini, moyilliklarini, ustun darajadagi his–tuyg’ularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini o’z ichiga oladi. Tabiiy asosdagi «endopsixika» ijtimoiy omil bilan belgilanadi, «ekzopsixika» esa biologik jihat bilan bog’liqdir. Shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini bir qancha psixologlar ilmiy ishlarida izchil o’rgangan bo’lib, ulardan bir qanchalarining fikr va qarashlarini keltiramiz.

Shveytsariyalik psixolog J.Piaje insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o’rganishi tavsiya etadi: 1. Bola–tashqi muhit–ma’lumotlarni qayta ishlash. 2. Tafakkur: a) ijtimoiy davrgacha; b) ijtimoiy davr. 3. Intellekt: a) sensomotor–2 yoshgacha b) operatsional davrgacha 2–7 yosh; v) yaqqol operatsiyalar davri 8–12; g) rasman, formal operatsiya davri – 12–15 yoshgacha. Shaxsning ekstrovert va introvert hususiyatlari shveysariyalik medik va psixolog Karl Gustav Yung tomonidan 1923 yilda asoslab berilgan. Hozirgi kunga kelib psixologiya fanida Shaxsning iqtidor hususiyatlari,

qobiliyatlarini aniqlash uchun Kettel, Spirmen, Bine, Ayzenk, Raven va boshqa testlardan foydalaniladi. Qiziqish biron-bir sohada to'g'ri yordam beradigan motivdir. Individ uchun qiziqish, sub'ektiv tarzda olganda, bilish jarayoni tusini kashf etadigan ijobiy xissiy ohangda, ob'ekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko'proq bilish, uni anglab yetishga bo'lgan istakda namoyon bo'ladi. Qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqishlar mazmuniga, maqsadlariga, miqyosiga va barqarorligiga ko'ra tasnif qilinishi mumkin. Kishidan ko'proq nimaga qiziqish paydo bo'lishi va uning bilish ehtiyojlari ob'ektning ijtimoiy qimmati psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Maktabning eng muhim vazifalaridan biri - o'smirlik yoki yoshlarning faol bilish va mehnat faoliyatiga rag'batlantiradigan va maktabdan tashqari ham saqlanib qolishi mumkin bo'lgan jiddiy va sermazmun qiziqishlarini uyg'otishdan iboratdir. Qiziqishlar o'zining kengligi bo'yicha ham farq qiladi. bir xil odamlarda qiziqishlar bir sohaga qaratilgan bo'lishi mumkin, boshqalarda esa barqaror ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab ob'ektlarga bo'lingan bo'ladi. Qiziqishlarning tarqoqligi ko'pincha Shaxsning salbiy xislati sifatida yo'zaga keladi, lekin ayni chog'da qiziqishlarning keng miqyosligi kamchilik tariqasida talqin qilish noto'g'ri.

Psixologiyada Shaxsning yo'l-yo'riqlari uning u yoki bu ehtiyoji qondirilishiga yordam berishi mumkin bo'lgan faoliyatga tayyorligining, moyilligining o'zi tomonidan anglanilmaydigan holatini belgilaydi. Masalan: birinchi sinf o'quvchilarining muallimaga nisbatan uning har qanday hatti-harakatlariga, shu jumladan biron bir boshqa kishida namoyon bo'lganida bolalarning qarshi harakatini qo'zg'atishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlariga nisbatan ham hech qanday tanqidiy yondashish bo'lmaydi. O'z "Men"ining mavjudligini his qilish shaxsning hali chaqaloqligi paytidayoq boshlanadigan va o'zoq davom etadigan hamda sobiq ittifoq psixologi I.S.Kon "Men"ning kashf etilishi" deb juda o'rinli atagan shakllanish jarayonining sezgirligi undan tashqaridagi buyumlar tufayli hosil bo'ladigan sezgilardan farqini anglay boshlaydi. So'ngra 2-3 yoshida bola buyumlar bilan o'z xususiy harakatlari jarayoni va natijasida hosil bo'ladigan hursandchilikning katta yoshdagilarning konkret harakatlaridan farqini ajratadi va kattalarga qarata: "Yo'q, men o'zim qilaman!" deydi. Insonning eng yorqin xususiyatlaridan biri bu gapira olish qobiliyatidir. So'z inson



psixikasi mavjudligining muhim shartidir. Muloqotsiz jamiyat xam mavjud bo'lmaydi. Muloqot bilish va mehnat faoliyati bilan bir qatorda inson Shaxsini shakllantiruvchi muhim faoliyat turi sifatida qaraladi. Muloqot insonga xos bo'lgan faoliyat turlaridan biridir. Kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhim shakli bo'lib xisoblanadi. Muloqot-bu kishilar o'rtasidagi aloqa. Muloqot mehnat, o'qish yoki o'yin jarayonida kishilarning amaliy jixatdan o'zaro ta'sir etishi bilan tavsiflanadi. Birgalikda faoliyat muloqot bo'lishini talab qiladi. Aynan birgalikdagi faoliyatda inson boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi, ular bilan turli tuman aloqalar o'rnatadi, zarur natijaga erishish uchun birgalikda harakat qiladi. Bu yerda muloqot faoliyatning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot shaxsning rivojlanishida katta ahamiyatga ega ,muloqotsiz shaxsning tarkib topishi shakllanishi mumkin emas. Aynan muloqot jarayonida tajriba o'zlashtiriladi, bilimlar to'planadi, amaliy ko'nikma va malakalar shakllanadi, e'tiqod va qarashlarga erishiladi. Faqat muloqot jarayonidagina ma'naviy ehtiyojlar ,axloqiy siyosiy va estetik xislar tarkib topadi va xarakter shakllanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik–kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlarning yig'indisidir. Individuallik temperament va xarakter hususiyatlarida, odamlarda ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlarda, qobiliyatlarda, faoliyatning Shaxsga xos uslubi va h.k.larda namoyon bo'ladi. Inson shaxsi o'z individualligiga ko'ra takrorlanmas. Shaxsning individual–psixologik hususiyatlarini inobatga olish orqali u bilan muloqot qilish shaxslararo muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, har bir Shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishni ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik, o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti–harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bolalar psixologiyasi va metodikasi.- Z.Nishanova, G.Alimov.
2. O'qituvchi qobiliyati va uni psixologiyada o'rganilishi- K.Qudratova
3. <http://library.ziyonet.uz>

## **BOLALARDA UCHRAYDIGAN TORTINCHOQLIKNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI**

*Ayitbayeva Nilufar O`marbek qizi  
Ellikqal`a tumani 43-maktab psixologi*

Inson shaxsining rivojlanish jarayonida turli xil insonlar bilan muloqotda bo`lar ekan, muloqot qilish jarayonida bir qancha to`siqlarga duch keladi. Bu shaxsning o`z xulq-atvorida mavjud bo`lgan turli holatlar bilan bog`liqdir. O`z fikrini to`liq bildira olmaslik, muloqot jarayonida hayajonlanish, noo`rin gap gapirib qo`yishdan cho`chish, o`z fikrlarini himoya qila olmaslik, muloqot jarayonidagi tortinchoqlik ham ko`pgina muammolarga sabab bo`ladi.

“Tortinchoqlik” - mavhum tushuncha bo`lib, uning ko`pgina turlarini uchratish mumkin. Shunday ekan, tortinchoqlik bilan qanday kurashishni hal qilishdan avval, uning o`zi nima ekanligini yaxshiroq bilib olish lozim.

Tortinchoqlik – bu tushuncha bugungi kunda har bir insonda turlicha va har xil ko`rinishlarda namoyon bo`lganidek, bu so`zning mazmun-mohiyatini ham hamma har xil qabul qiladi. Tortinchoqlik hozirgi kunda kam o`rganilgan psixologik hodisa hisoblanadi.

Tortinchoqlik – odamlar orasida asabiylashish , o`ziga ishonmaslik, muloqot chog`ida noqulaylikni his etish, biron-bir harakatni amalga oshirishdan cho`chishdir.

Ma`lumki, tortinchoqlik – bu umumiy va keng ko`lamdagi tarqalgan tushunchadir. Tortinchoqlik nafaqat insonlar bilan muloqotga kirishishdagi to`siq , balki insonni jamiyat bilan aloqasidagi bir devor hisoblanadi. Tortinchoqlik fikrning ravshanligiga va muloqotdan taasurot qoldirishga to`sqinlik qilib va odatda xavotirlanish, yolg`izlikni his qilish, kuchli ruhiy tushkunlik holatlari bilan birga uchraydi.

Psixologiya sohasida inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Aynan kichik maktab yosh davri inson hayotida katta ahamiyatga ega bo`lib, bu davrdagi bolalarda o`ziga xos bo`lgan, ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta`sirlarga beriluvchanlik, o`z-o`ziga past baho berish, xavotirlanish

soddalik xislatlari shakllanib borib, shu bilan birga ularda tortinchoqlik hissi ham namoyon bo`la boshlaydi.

Bolalarda namoyon bo`layotgan yuqoridagi salbiy hissiyotlar bilan birgalikda, hozirgi kunda jamiyatda kam o`rganilgan va shu bilan birga, jamoada, ayniqsa bolalar orasida ancha keng tarqalgan tortinchoqlik hissi ham bola shaxsi rivojlanishida global muammo hisoblanadi.

Tortinchoqlikni nafaqat katta yoshdagi insonlar balki, o`sib kelayotgan yosh bolalar orasida ham ko`plab uchratish mumkin. Chunki tortinchoqlikning boshlang`ich negizi aynan bolalarda ko`p va tez namoyon bo`ladi. Birinchi o`rinda, bolalarda tortinchoqlikni kelib chiqishi va rivojlanish tomonlarini ko`rib chiqish kerak.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda, ichki ruhiy kechinmalarida ham o`zgarishlar sodir bo`ladi. Ko`pchilik bolalarda mavjud bo`lgan hayajonlanish, xavotirlanish, o`ziga ishonmaslik, qo`rquv, muloqotga kirisha olmaslik holatlari ko`proq kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydi.

Kichik maktab yoshidagi tortinchoq bolalar o`zlarini yoqimsiz, nozik tabiat, tortinchoq bo`lmagan bolalardan aqli pastroq deb hisoblashishadi. Bu o`zini ulardan past darajaga qo`yish hisoblanadi. Chunki, o`ziga bo`lgan ishonchi sust, jura`atsiz, o`zini kamchiligini sezadigan, hayolparast, o`zgalar oldida kulgili bo`lib ko`rinishdan qo`rqadigan, har qanday tanqidga ta`sirchan bo`lishadi. Tortinchoqlik hissi ularga qattiq ta`sir qilishi oqibatida, ular o`zlarini idora qila olmay, xatti-harakatida tabiiylik yo`qoladi, mimika va ovoz tovushlarida ham o`zgarish paydo bo`ladi. Tortinchoq bolalar, jamoa orasida iloji boricha ko`rinmaslikka harakat qilishadi. Do`stlari, sinfdoshlari bilan bo`lgan muloqotda o`zini bitta qolipga solib turishi natijasida bunday bolalar sekin asta o`zini odamlardan olib qochadilar. Agar bu holatlar kattalar tomonidan befarq qoldirilsa, bola shunday holatda ulg`ayib borsa, tortinchoqlik zo`rayib, buning oqibatida og`ir nevroz holatiga olib keladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda tortinchoqlik hissi namoyon bo`lishida oila muhitining bevosita ta`siri mavjud, aynan ota va ona dastlabki ijtimoiy ko`nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaning to`liq bo`lishi, ya`ni unda ham ota, ham onaning tinchliktotuvlikda yashashlari va unda normal

insoniy munosabatlar, sog`lom ma`naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog`lom aqlli, kuchli iroda sohibi bo`lib yetishiga imkon beradi.

Shuningdek, oilada bu davrda tortinchoqlikning yuzaga kelishida ota-ona tomonidan farzandiga o`ta qattiqqo`llik bilan munosabatda bo`lishi, ham sabab bo`ladi. Biz bilamizki, ota-ona va farzand o`rtasidagi muloqot ahamiyatli hisoblanadi, agar ota-ona bola bilan muloqotga kirishganda, ota-ona qo`pollik ko`rsatsa, ular orasidagi devor, to`siq paydo bo`lishiga olib keladi. Bundan tashqari bolaning uyatchanligi faqatgina bir chekkada o`tirishda, hech kim bilan muloqotga kirishmaslikda, itoatkor bo`lishdagina emas, balki xatolarga yo`l qo`yish oqibatida qaysarlik, o`jarlik kuchayadi.

Bu faqat ular o`rtasidagi devorning o`shishiga emas, balki bolaning xatti-harakati ota-onaning g`ashini keltirish mumkin. Bolaning muloqot ko`nikmalarini yaxshi rivojlanmaganligining ayrim sabablari mavjud bo`lib, bular:

Oilada bolaga mutlaqo qarama-qarshi talablar qo`yilishi;

Erkalash, rag`batlantirish va yupatish holatlari kamligi va bu holatdan bolani birdan tanqid qilishga o`tish holatlari;

Bolalar tez-tez tanbex qilib turilishi, bunda bolaning noto`g`ri xatti harakati emas, balki shaxsi ko`proq tanqid qilinadi;

Farzandining savollari javobsiz qoldirilishi;

Bolaning avvalgi muvaffaqiyatsizliklari ko`p esga olinishi;

Ota-ona tomonidan farzandga qo`pol va qattiq ohangda gapirilishi.

Farzandga nisbatan ishonchsizlikning namoyon qilinishi va boshqa ko`pgina sabablar kichik maktab yoshidagi bolalarda tortinchoqlikni kelib chiqishiga olib keladi.

Tortinchoq bolalar doimo o`zini nazorat qilib borishadi, chunki;

Birinchi: kelib chiqqan vaziyatlardan atrofidagi odamlarda qanday ta`surot qoldirganini doim analiz qiladi.

Ikkinchi: tortinchoq bolaning o`z ichki holatida “nima qilish mumkin-u, nima qilish mumkin emas, odamlar nima deydi” qabilida, doim baxslashuv ketadi.

Bu ikkala holatlar bolaning aqliy sifatlarini pasayishiga olib keladi. Mavjud bo`lgan muammoni hal qilishda, tortinchoqlik hissi ustunlik qilib, bolaning barcha bilish jarayonlarini, hissiyotlarini boshqarish natijasida, bola o`zini yo`qotib qo`yadi.

Xavotirlanish kuchayib borishi tufayli, bola o`zini idora qila olmay, diqqatini jamlay olmaydi.

Izlanishlar natijasida shu narsa ma`lum bo`ldiki, tortinchoqlikning ijobiy tomonlarini ham ko`rishimiz mumkin ekan.

“Og`ir vazmin” , “jiddiy”, “kamsuqum”, “kamtar” – kabi ijobiy baholar odatda tortinchoq bolalarga qarab beriladi. Tortinchoq bolalarni tashqi tomondan kuzatganda, gapini o`ylab gapiradigan, kamgap, o`z xatti-harakatlarini nazorat qiladigan, ozoda bolalar kabi ijobiy ta`surot qoldirishadi.

Kichik maktab yoshidagi tortinchoq bolalar birovlarini xafa qilisha olmaydi. Uning yana ijobiy tomoni shundaki, tengqurlari bilan munosabatda bo`layotganda ularni yaxshi – yomonini farqlay olib, eng asosiysi nizoli vaziyatlarda ular o`zlarini chetga olishadi, doim o`zlari bilan band bo`lib, hech kimga zararlari tegmaydi.

O`quv faoliyatida erishilgan yutuqlar va shaxsning rivojlanishi o`zaro chambarchas bog`liqdir. Buni shunday tushuntirish mumkinki, unda, bolaerishgan hamda u bajarishga intilayotgan narsalar, ya`ni uning kelajagining ko`rinishidir.

Bolalar bilan to`g`ri muloqot ko`nikmalarini shakllantirishda, bolalarda atrofdagi odamlarga nisbatan qiziqishni uyg`otish, kattalar, ya`ni ota-onasi bilan birgalikda o`qituvchi va tarbiyachilari ham bolaning muloqotiga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun hamkorlikda harakat qilishlari ayni muddao bo`ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.G`oziyev “ Psixologiya” T. “O`qituvchi” nashriyoti 2003
2. E.G`oziyev “ Tafakkur psixologiyasi” T.1999
3. Z.T.Nishonova “ Yosh davrlari psixologiyasi” T. 2013
4. Z.T.Nishanova, I.G`.Raximova “ Tortinchoqlik psixologiyasi” T 2011
5. Sh.A.Dusmuxamedova, Z.T.Nishanova, P.S.Ergashev, I.G.Raximova “ Tortinchoqlik: hayotiy savollarga ilmiy-amaliy javoblar” T 2015

## O'QUVCHILARNI KITOBGA MUHABBAT VA KITOBSEVARLIKKA JALB ETISH USULLARI

*Usmonova Umida Uralovna*  
*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 50-maktab*  
*2-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarni kitobga muhabbat va kitovsevarlikka jalb etish usullari yoritilgan. Shu bilan birga o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishda kutubxonaning o'rnini bayon etilgan.

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi:

Kitobga yuz o'girgin, ey farzandim, jigarbandim,  
Kitobga ulfat bo'lgin, quloqqa ol bu pandim,  
Tanholikda munising, bilsang agar kitobdir,  
Donolikning tongiga, shu'la sochar kitobdir.  
Bepul, beminnat senga, chigallaringni yechar,  
Bilim bag'ishlab senga chigallaring yechar.  
Kitobdir yaxshi hamdam, teri yopingan olim,  
Ish siridan goh so'zlab, ammo goho turar jim.  
Uning ichi g'unchadek, varaqlardan liq to'la,  
Har varag'i go'yoki, durdonadir bir yo'la.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy hayotini ijobiy tashkil etish muhim hisoblanadi. Shu jumladan, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, el-yurt manfaati uchun kuch – g'ayratini sarf etadigan, shijoatli yoshlar sifatida tarbiyalashda kitobning o'rnini beqiyosdir. Kitob o'qish jarayonida o'quvchi yaxshilik va yovuzlikni farqlashga, salbiy illatlar va ijobiy fazilatlarning inson hayotidagi o'rnini haqida keng ma'lumotlar oladi.

Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi chuqur va puxta bilimga ega, aqliy, intellektual

qobiliyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali barkamol shaxsni tayyorlashdir. Ta'lim-tarbiya jarayoning bu vazifani bajarishiga kutubxonaning o'rnini katta hisoblanadi. Maktab kutubxonasining yangi bilimlar manbai sifatidagi o'rnini- axborotni ommalashtirish va shaxsning o'z-o'zini qaror toptirishga ko'maklashishida namoyon bo'ladi.

Kitob yosh avlodga ta'sir etishning eng qulay vositasidir. U inson his-tuyg'usiga, axloqiga, hatti-harakatiga, dunyoqarashiga ta'sir etadi, ayniqsa, o'quvchi yoshida, ya'ni uning shakllanish davrida alohida mavqega ega. Badiiy adabiyot, turli fanlarga doir qiziqarli kitoblar, lug'atlar, ma'lumotnomalar bolalar ma'naviyatini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar ma'naviyati tadrijiy rivojlanib boruvchi faol jarayon. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyati shakllantirishda oilaning o'rnini va roli juda muhim hisoblanadi.

Kutubxona arabcha so'zdan olingan bo'lib, kitob, jurnallarni saqlash, to'plash, ularni tashviqot qilish, o'quvchilarga foydalanish uchun shug'ullanuvchi maxsus muassasa hisoblanadi.

Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manba kitob hisoblanadi. Kitob o'qish jarayonida o'quvchilar quyidagi yutuqlarga erishadilar:

- ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'langan bo'ladilar;
- o'z ustida tinimsiz ishlaydilar;
- yangi bilimlarga ega bo'ladilar;
- aqliy va intellektual qobiliyatlari rivojlanadi;
- o'quv fanlariga oid yangi ma'lumotlar bilan tanishadilar.

O'quvchilar kitob o'qish jarayonida nafaqat yangi bilimga ega bo'ladilar, balki tarbiyalanib ham boradilar. O'qigan asarlaridagi qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganadilar, o'ylaydilar, mushohada qiladilar. Yaxshi qahramonlarga taqlid qila boshlaydilar.

O'quvchilarni kutubxonaga jalb etish uchun kutubxonachining vazifasi nimalardan iborat, kutubxonachi qanday faoliyat olib borishi lozim degan savol tug'iladi? Biz ana shu savollarga quyidagicha javob beramiz:

- kutubxonada tashkil etilgan to'g'arak mashg'ulotlarini jonlantirish, faqat a'lochi o'quvchilarni emas, balki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham jalb etish;
- kitobxonlar o'rtasida o'qilgan asarlar yuzasidan bahs-munozaralar, suhbat-treninglar olib borish;
- sinf rahbarlari bilan birgalikda "Sinf kutubxonalari"ni tashkil etish;
- yangi kitoblar ko'zgazmalari, rasmlari kartotekalar, mavzuli bukamlar tashkil etish;
- "Men sevgan kitob", "Yosh kitobxon" kabi mavzulardagi tadbirlarni tashkil etish.

Kutubxonachi kutubxona ishlarini shunday tashkil etishi kerakki, o'quvchilar bu yerdan nafaqat bilim olsinlar, o'z hayotlari uchun zamin yarata olsinlar.

Xudoybergan To'xtaboevning yozishicha: "Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda – kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir". Kitobxonlik qobiliyati tug'ma emas, u insonning o'z ustida ishlashi orqali, tarbiya vositasida kamol topadi.

Kitobxonlik- bu ijodiy mehnat. Buyuk mutafakkir olimlar, fan va madaniyat arboblari avvalambor iste'dodli kitobxon ham bo'lganlar.

O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda kitob kuchli vosita bo'la oladi. Kitob mutolaasidan o'tgan inson, undan o'ziga xulosa chiqaradi. Natijada o'z bilimini, dunyoqarashini kengaytiradi. Bilimli, savodli, madaniyatli, jismonan baquvvat, ma'naviy etuk, ruhan tetik va e'tiqog'an mustahkam inson bo'lib etishadi.

Inson hayoti atrof-olamdagi narsalarni tushunish, hayotda o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoj, milliyg'urur, yashash uchun kurashishdan iboratdir. Shaxs ma'naviy kamoloti jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilar ekan, barcha zamonlarda ham yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga katta e'tibor berilgan. Yosh avlodni ma'naviy shakllantirishda kitobxonlikning o'rni o'ziga xos.



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA MATEMATIKA FANIDAN TO'GARAKLARNING O'RNI**

*Haydarova Nigora Murtazayevna*  
*Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani 50-maktab*  
*2-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun tashkil etiladigan hamda matematika fanidan o'quvchilarni aqliy va mantiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to'garaklar faoliyati bayon etilgan.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Boshlang'ich ta'lim, to'garaklar, matematika, aqliy va mantiqiy fikrlash, bo'sh vaqt.

Uzluksiz ta'limning bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi - yosh avlodni aqliy jihatdan rivojlangan, jismonan sog'lom, ruhan tetik, axloq-odob egasi bo'lgan iymonli shaxs sifatida tarbiyalash va voyaga yetkazishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fani alohida o'rin egallaydi. Matematika fanining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'z fikrini mustaqil bayon etishga o'rgatish;
- egallagan bilimlarini hayotga qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilish;
- ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlash.

Matematika fanining ushbu vazifalari dars jarayoni hamda sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda amalga oshiriladi.

Sinfdan tashqari ishlar deganda – maktab o'qituvchilari yoki chetdan taklif etilgan mutaxassislar rahbarligi ostida maktabda darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yiladigan va olib boriladigan ta'lim – tarbiya ishlari nazarda tutiladi. Maktabdan tashqari ishlar o'quvchilar bilan olib boriladigan, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyushtiriladigan ta'lim – tarbiya va ma'naviy ishlardan iboratdir. O'quvchilar

bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ta'lim – tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Sinfdan tashqari ishlarni o'z ichiga olgan to'garaklar quyidagi turlarga bo'linadi.:

- fan to'garaklari;
- kasb – hunar to'garaklari;
- sport to'garaklari;
- san'at yo'nalishidagi to'garaklar.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayoram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilmag'xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar.

Maktabdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi. Biz matematika fanidan tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Matematika fanidan tashkil etiladigan to'garaklar fan to'garaklari sirasiga kiradi. To'garaklarning asosiy vazifasi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish va fanga doir bilimlarini yanada chuqurlashtirish.

To'garak ishlari: maktabdagi har bir to'garak o'zining doimiy ish kunlari va soatlariga ega bo'lishi lozim. To'garakda qat'iy intizom bo'lishi: to'garak a'zolari mashg'ulotlariga kechikmasdan kelishlari, to'garak topshiriqlarini batrtib bajarishlari, to'garakning moddiy boyliklarini ehtiyot qilishlari kerak.

Sinfdan tashqari individual ish har bir o'quvchi mayl va qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Individual topshiriqlarning turlari juda ko'p bo'lib, o'simliklar o'stirish, gullar, sabzavotlar etishtirish ham ana shunday topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida bolalarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda ayrim o'qituvchilar, gruppaga yoki butun sinf bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN BAYRAM TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*To'xtayeva Ra'no Xolmaxmatovna  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani 50-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish va ularni tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerakli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

### **KALIT SO'ZLAR**

Ertaliklar, sinfdan tashqari tadbirlar, bo'sh vaqt, unumdorlik, qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, ijobiy fazilatlar.

Har jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifa ekan, avvalo bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan murg'ak qalb egalarilarining ongiga ona Vatan, Vatanni sevmok, Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi tushunchalarni chuqurroq singdirish lozimki, shu ruhda tarbiya topayotgan yosh avlod kelajakda mamlakat, xalq manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan yetuk insonlar bo'lib yetishadilar. Bunday shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda ta'lim va tarbiya jarayonining almashinib bo'lmas o'z o'rnini bor. Shuningdek, dars jarayonining davomi sifatida yo'lga qo'yiladigan sinfdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi ham o'quvchilar hayotini zavq-shavqqa to'ldirish bilan birga mamlakatimiz rivoji uchun barkamol insonlarni tarbiyalab berishdan iborat.

Maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladigan sinfdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, amalda qo'llay bilish, kasbga yo'naltirish, xalqimizning boy merosi, an'analari bilan yaqindan tanishtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bunday tarbiyaviy tadbirlarni maktablarda ko'proq tashkil etilishi taqozo etiladi.

Chunki, kichik maktab yoshidagi bolalar o'ta qiziquvchan, o'yinqaroq, taqlidchan bo'ladilar, ular tadbirlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar.

Ertaliklarni maktablarda tashkil etishda milliy qadriyatlarimiz namunalari boy manba bo'lib hisoblanadi. Bunday tadbirlarda o'quvchilar mashhur allomalarimiz, vatanparvar insonlarning Vatan uchun olib borgan kurashlari, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishib boradilar hamda ularda ham Vatanga e'tiqod, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, insoniylik kabi hislatlar tarbiyalanib boradi. Mustaqillikdan keyin mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyo andozalari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, barkamol insonni tarbiyalash Respublika ijtimoiy tarqqiyotida ustuvor soha deb belgilanganligi bois maktablarda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi.

O'quvchi-yoshlarimizni bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazish, o'zlari tanlagan kasb-hunarlarini bo'yicha qiziqish va mahoratlarini oshirishlariga yordam ko'rsatadi. Ularning bo'sh vaqtlarini qoldirmasligimiz ularni begona g'oyalarga ergashmasligiga yordam beradi. Zero, tafakkuri boy yurt va jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan yoshlarni kamol toptirish har birimizning vazifamizdir. Millatimizga yot bo'lgan g'oyalar, dunyoqarash va tushunchalar, o'zga oqimlar xurujlari, barcha-barchasi bizga hamda farzandlarimizga bo'layotgan tajovuzlardir.

O'quvchi-yoshlarimizni bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazish, o'zlari tanlagan kasb-hunarlarini bo'yicha qiziqish va mahoratlarini oshirishlariga yordam ko'rsatadi. Ularning bo'sh vaqtlarini qoldirmasligimiz ularni begona g'oyalarga ergashmasligiga yordam beradi. Zero, tafakkuri boy yurt va jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan yoshlarni kamol toptirish har birimizning vazifamizdir.

Biz farzandlarimizni ana shunday illatlardan, ko'cha-kuyda bemaqsad yurishlardan xoli qilib, befoyda va zarar keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanishlariga bo'sh vaqt qoldirmasligimiz kerak. Ularga milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz asoslarini, axloq va odob tushunchalarini singdirishimiz lozim. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda sinfdan tashqari boshlang'ich sinflar bilan o'tkaziladigan ertaliklarni tashkil etib borish orqali bu bayram ertaliklarda bolalar o'yinlari aks etishini o'rganish va pedagogik texnologiyalarning o'rni va imkoniyatlarini ham aniqlash zarurdir.

Yoshlarni ajdodlarimiz asrlar davomida shakllantirgan milliy qadriyatlar va an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Bu borada sinfdan tashqari ishlar alohida ahamiyatga molik. O'quv muassasalarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish vositasida yosh avlodni tarbiyalash doimiy muammolardan sanaladi. Sinfdan tashqari tashkil etilayotgan tadbirning tabiati, xarakteri va maqsadi tarbiyaning ma'lum yo'nalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi taviy.

Har qanday tadbirni tashkil etishdan oldin tashkilotchi o'qituvchi o'z oldiga ma'lum didaktik maqsad qo'yishi va shu maqsadni amalga oshirish uchun hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi zarur. Bayram tadbirini tashkil etish ishlari bayram ishtirokchilarini tanlash va bayram ishlanmasini tuzishdan boshlanadi. Ssenariy tuzayotganda albatta, mavzuni badiiy ifodalashga harakat qilish mavzuga mos ravishda bayram repertuarini tog'ri tanlay bilish o'qituvchida yuksak kasbiy-pedagogik mahorat talab etadi.

Ko'pchili hollarda bayram dasturida birorta ham o'quvchi va o'qituvchilar tomonidan yaratilgan yangi san'at asari yoki yangicha g'oyalar kiritilmaydi. Aksincha, bayram tadbirini rejalashtirishda bir xillilik, ma'lum bir narsalarni takror-takror namoyish etilaveradi. Bu hol o'quvchilarda tashkil etilgan tadbirga nisbatan qiziqishning so'nishiga olib keladi.

Bayram tadbiri dasturida albatta, o'quvchilarning ijodiy ishlarida namoyishlarga o'rin ajratilsa, o'quvchilarda ijodiy fikrlash hissi shakllanib boradi. Bu borada esa o'qituvchi ma'lum bir ma'noda rejissorlik ishlaridan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Qatnashuvchi o'quvchilarning nutqini yosishda tashkilotchi o'qituvchi tomosha qiluvchi va ishtirok etuvchilarning psixologik jihatlarini inobatga olishi zarur. Personajlar nutqini yozishda yana bir narsaga e'tibor berish lozimki, bu tasvirlanayotgan voqelikning qaysi davrga mansubligini inobatga olib, o'sha davr tili xususiyatini saqlash masalasidir.

Bunga misol tariqasida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludini nishonlashga bag'ishlangan bayram tadbirini olishimiz mumkin. Yoki, "Navro'z" umumxalq bayramini nishonlashda ham mana shu ketma-ketlikni qo'llash mumkin. Chunki, sahnada namoyish etiladigan har bir ko'rinish sahna bezaklaridan tortib, adabiy kompositsiyagacha, dehqon boboning ko'rinishi, nutqi, ovozi, boshlovchilarning

chiqishlarigacha, hammasi Navro'zning nafaqat bahor bayrami, balki, shodlik va ming yillik an'analarni o'z ichiga olgan o'zbek xalqining qadimiy bayrami ekanligini ko'rsatib turishi darkor. Buning muhimligi shundaki, bayram tadbirlarini bu tusda tashkil qilish orqali o'tkazilayotgan tadbirning maqsadi bilan o'quvchilarning qiziqishlari o'zaro bir-biriga tutashib ketadi.

Bu tarzda bayram tadbirlarini o'tkazilishi ham o'quvchilarga zavq bag'shlaydi. Ma'lumki, har bir shaxs, jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmuni, shakl, metodlariga bog'liqdir. Ma'naviy yangilanish-bu avvalo, xalqimizning boy milliy-ma'naviy merosini xolis o'rganish, yosh avlodni ana shu qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning milliy tafakkurini har qanday yot qarashlardan poklashni taqozo etadi.

---

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIM JARAYONI HAQIDA

*Taniyeva Gavhar To'xtayevna  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani 50-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada Sharq mutafakkirlari, jumladan, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykobus asarlarida ta'lim jarayoni qay tariqa yoritilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

### KALIT SO'ZLAR

Sharq mutafakkirlari, ta'lim jarayoni, ustoz, , Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykobus, ustoz-shogird an'analari.

Beruniy (973-1048) o'zining didaktik qarashlarida tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish-inson tabiatini anglatuvchi omil ekanligini ta'kidlab, har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra, ezgulikka intilishi sun'iy obro',

shuhrat qozonishi uchun muruvvat ko'rsatmasligi kerakligini undaydi. U har bir narsani aniq, sinchiklab o'rganish bilish va shundan so'nggina bir xulosaga kelish kerakligi va bu o'rinda, ayniqsa, tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, qalloblik, erinchoqlik, ilmsizlik va sun'iy e'tiqodni tanqid qiladi. Beruniy ijtimoiy turmush o'ziga xos hamkorlik asosida tuzilganligini e'tirof etadi: "Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilida "shartnoma" tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish zarurdir". Beruniyning fikricha, "insonning qadr qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnati bilan belgilanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi". Beruniyning bu kabi hayotiy xulosalari bugungi kunda ham o'z qimmatini pasaytirgan emas, albatta.

**Ibn Sino** (980-1037) "Tib qonunlari" asarida o'quv tarbiya jarayoni yagona jarayon ekanligini ta'kidlab, bolani olti yoshdan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yuritadi. Ta'limda o'qitish oddiylikdan murakkablikka qarab borish qoidasiga amal qilish, shuningdek, bolaga kuchi etadigan (jismoniy va psixologik imkoniyatlariga mos) mashqlarni bajartirish amali bu jarayonda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Muallif bolalarni yakka-yakka o'qitishdan ko'ra, jamoada ta'lim tarbiya berish, o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlik faoliyatini yo'lga qoyish afzal ekanligini e'tirof etadi. Allomaning fikricha, jamoada o'qitilganida ularda ilmga intiluvchanlik kuchayadi, boshqalardan orqada qolishga g'ururi yo'l qoymaydi. O'zaro hamkorlik ular nutqining o'sishida, fikrining charxlanishida, xotirasining mustahkamlanishida muhim rol oynaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlashadilar, o'zaro hurmat qilishga odatlanadilar, munozara qilishni o'rganib, o'zaro musobaqalashadilar, o'zlarining xulq va burchlari haqida fikr almashadilar. Ana shunday qoidalarga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonigina yoshlarning aqliy va axloqiy kamolotini ta'minlashga ko'maklashadi.

**Yusuf Xos Xojib**ning shoh asari "Qutadg'u bilig" turkiy xalqlarning qadimgi ta'lim va tarbiya usullari haqidagi ilk ma'lumotlarni saqlagan muhim manbadir. Bu asar orqali XI asrdagi ijtimoiy va oila tarbiyasi, maktablardagi fan tarmoqlari, o'qitish



tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'plab bilimlarga ega bo'lamiz. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi hunarga egaligidadir. Bu xislatlar uning muhtaramligini ham ta'minlaydi. Uningcha, farzandlarning tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart, chunki ularning noo'rin xatti-harakatlarga berilishning oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi zarurligi alohida ta'kidlandi.

**Az-Zamaxshariy** ilmiy asarlar yozish va shogirdlarni etishtirishni hamma narsadan yuqori qoygan. Buni, ayniqsa, "Nozik iboralar" asarida bayon qilingan hikmat, nasihat va o'gitlaridan ham ko'rish mumkin. Mazkur asarda insonlar ota-onaga hurmat, ilmga muhabbat, vafo, haqqoylik, halol pokizalik, hamdardlik, himmatlilik, xushfe'llik, olijanoblik, mardlik, ezgu-niyat kabi yaxshi xislatli bo'lishga, yomon illatlar va ulardan saqlanishga da'vat etadi. Muallif ilmni, ilm ahlini yuksak baholaydi. Ilmli bo'lish, o'qitish va yozish bilan hosilu mukammal bo'ladi. Olim kishi chiroyli, xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolatga etganligidan dalolatdir. "Eru zaminning ko'rkamligi olimlar bilan bo'lsa, osmonu falakning ziynati esa yulduzlar bilandur" deydi shoir ("Nozik iboralar asarida"). Uning bu pand nasihatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik fikr rivojida munosib o'rin egallagan va hozir ham o'qitish jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

**Kaykovusning** "Qobusnoma", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Burhoniddin Zarnujiyning "Ilm yo'lidagi shogirdlarga nasihat", Sa'diy Sheroziyning "Guliston va Bo'ston", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" nomli va boshqa ko'p asarlarda ham o'quv tarbiya jarayonining asosi bo'lgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik-psixologik xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Biz quyida mutafakkirlarining ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining o'ziga hos ahamiyati haqidagi hikmatli so'zlaridan namunalar keltiramiz:

"O'qituvchining qadri, bolalar va yaqinlarining unga bo'lgan hurmat e'tibori bilan belgilanadi, buning boisi shuki, o'qituvchi ularga mehr ko'rsatgan, ko'ngil qoygan". "Bo'lmagaylar xayrixoh mudarris ila hakim iltifot etmasang gar alarning ikkisin. Qo'rslik qilsang hakimga - tanangda dard qoladi. Mudarrisga qo'polsan - nodonligingcha

qolasan”. “Murdadir gar tirik bo’lsa ham nodon, o’lgandan keyin ham yashar bilimdon”, “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, “Umr o’lchovli, ilm cheksizdir. Shuning uchun ilm tolibi vaqtini behuda, tunlarni va holi joylarni bekor o’tkazmasligi joiz”. “Ilm tolibi keksalar (ilmlilar) ilmidan foydalanishi, ulardan o’qib o’rganmog’i lozim. Zero, o’tmishning ko’plari unga ma’lum emas”. “Bilimli kishi nimalarni so’zlaydi, sen unga quloq sol, adablar boshi tildir, uni tiymoq zarur”. “Oylab so’zlagan kishining so’zi to’g’ridir, o’rinsiz ko’p vaysagan til shavqatsiz yovdir.

Ta’lim jarayonida o’qituvchi bilan o’quvchilar hamkorligining pedagogik-psixologik xususiyatlariga Sharq mutafakkirlari va ma’rifatparvar ziyolilari alohida e’tibor bilan qaraganlar. Ayniqsa, o’quv-tarbiya jarayonining asosiy sub’ektlari hisoblangan ustoz-shogirdlarga xos zaruriy sifat va fazilatlar shakllangan bo’lishi ular o’zlariga tegishli burch hamda vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari, bir-biriga mehribon, g’amxo’r, hurmat va izzatda bo’lishi, kechirimlilik eng muhim qadriyat sifatida e’zozlanadi. Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan, o’qituvchi bilan o’quvchilar hamkorligining psixologik xususiyatlariga xos qimmatli ma’lumotlar hozirgi davrda ham mazkur hamkorlikni takomillashtirishda va o’quv-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

## **BUYUK AJDODLAR TA’LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATI**

*Maxmudova Gullola Xolmo’minovna  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog’ tumani 50-maktab  
boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Sharq mutafakkirlari asarlarida ustoz-shogird munosabati qay tariqa yoritilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

### **KALIT SO’ZLAR**

Sharq mutafakkirlari, ustozlar, ustoz bilan shogird munosabatlari, o’quvchining burchi, vazifalari va odobi, o’qitish sharoitlari, o’zbek xalq dostonlari.

Xalqimiz tarixan bitmas-tuganmas madaniy merosga, betakror etnopsixologik xususiyatlarga, an'ana va urf-odatlariga ega. Bu ayniqsa, ta'limiy va tarbiyaviy qarashlarda o'z ifodasini topgan. Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn-Sino, Zarnujiy, Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Sadridin Ayniy, Abdullo Avloniy va boshqalarning asarlarida xalqimizning turmush tarzi, madaniyati, ilg'or ta'limiy va tarbiyaviy qarashlari o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, ustoz bilan shogird munosabatlari, o'quvchining burchi, vazifalari va odobi, o'qitish sharoitlari hamda boshqalar haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Ustoz bilan shogird o'rtasidagi munosabatlarga xos ilg'or ta'limiy va tarbiyaviy qarashlar, shaxsiy fazilatlar o'zaro munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari Abdulxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Boxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro asarlarida ham keng yoritilgandir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosida bayon qilingan bilimlarni egallash va ezgulikka intilish, ustoz-shogird hamkorligi va munosabatlariga xos tartib qoidalar, muomala madaniyati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq halqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz. Chunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida bilimlarni egallash va ezgulikka intilish, mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sadoqat, do'stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, hamfikrlilik, hamkorlik, oqillik, e'tiqod, hurmat-ehtirom, halol va pok yashash ulug'langan. Bu voqelikni Alpomish, Kuntug'mish, Farhod va Shirin, Saddi Iskandariy, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlaridagi qahramonlar misolida ko'rish mumkin.

«Qadimiy eposlarda farzandlar - qiz bola yoki o'g'il bola bo'lishidan qat'i nazar bilim va zarur hunar egallashda teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan» Bu muqaddas zaminda

yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi. Bu holat Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining o'ziga xos xususiyati sifatida saqlanib qolgan. «Avesto» hozirgi o'zbek millati, uning etnik ongi va o'ziga xosligining ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII-asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to'plami hisoblangan. Mazkur davr o'zbeklarining milliy xarakterini shakllantirgan.

“Avesto”ning pedagogik qimmatini shundaki, u ko'p asrlar davomida yoshlarga ilmu ma'rifatni o'rgatish, axloq-odob fazilatlarini shakllantirishda muhim vazifasini bajargan. “Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, - deyiladi “Avesto”da - u avvalo, yaxshi o'qishi va so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin”. “Avesto”da ta'lim va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- 1) diniy va axloqiy tarbiya;
- 2) jismoniy tarbiya;
- 3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Bu davrda o'qitish jarayonida hamkorlik qoidalariga alohida e'tibor berilgan, ko'rgazmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilgan. Darsda o'quvchilardan o'tilgan mashg'ulotni shovqinsiz takrorlash talab qilingan. Bolalarda ilk yoshlikdan mehnatsevarlik va pedagogika ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilgan hamda maishiy mehnat turlariga o'rgatilgan. Kishilar ongiga ma'lumotlilik orqali yaxshiroq kun kechirish g'oyalari singdirilgan. Bu esa o'z navbatida “maktab” va muallim mavqeini yanada mustahkamlagan. Xullas, zardushtiylik ta'limoti umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlar qaror topishida, shuningdek, tarbiyashunoslik, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi va odobining shakllanishida muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

VII - IX asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan faix etilishi, keyinchalik tub aholining islomga kirishi ijtimoiy voqeelik edi. O'sha davrda maktablardagi mashg'ulotlar asosan Qur'onni o'rganishga qaratilgan edi. Maktablardagi mashg'ulotlarni dastlab faqat musulmon arablar o'tkazardi. Keyinchalik tub millatlarning qobiliyatli kishilaridan o'qituvchilar tayyorlana boshlandi va IX asrda islom bazasida milliy maktablar tashkil topdi.

Qur'on - falsafiy, huquqiy bilimlar majmuigina bo'lib qolmay, kishilarni halollik, poklik, axloq-odob, insof-diyonatga da'vat etuvchi muqaddas kitob sifatida qadrlidir. Hadislarda axloqiy yo'l-yo'riqlar talqin etiladi, inson sha'niga dog' tushiradigan illatlar qoralanadi. Ilm egallash, halollik, to'g'ri so'zlik, adolatlilik, mehr-oqibat, ota-onani hurmat qilish, nochorlarga g'amxo'rlik, saxiylik, poklik, omonatga xiyonat qilmaslik, diyonat kabi axloqiy fazilatlar ulug'lanadi. Unda shunday deyilgan: «Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida - tayanch, yolg'izlik damlarida - yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda - rahbar, qayg'uli damlarda - madadkor, odamlar orasida - zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir.

Imom Buxoriyning "Al-jomi as-sahih" asarining "Ilm kitobi" bo'limida ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o'rganish va o'rgatish odobi to'g'risida fikr yuritiladi. Bunda ilm egallash odobining 54 qoidasi haqida hikoya qilingan. Ularda Muhammad (s.a.v.)ning ilm o'rgatish va o'rganishga doir pand-nasihatlari o'z ifodasini topgan. Islom mamlakatlarida maktab va madrasalarining muallim va mudarrisleri hamda tolibi ilmlari bu pand-nasihatlarga qat'iy amal qilganlar. Mazkur mezonlar o'sha davr musulmon maktablarida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala va hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy qoidalar sifatida amaliyotda qo'llanilgan. Xalq og'zaki ijodi va diniy g'oyalar hamda hikmatnomalar og'zaki tarzda avlodan-avlodga ko'chib yurgan bo'lsa, buyuk allomalar esa xalq an'analari va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarini yaratganlar.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, uni yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar", degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning fikricha, ustoz shogirdiga zug'um qilishga, shuningdek, ko'p hollarda yon berishga intilmasligi darkor. Chunki ortiqcha zug'um shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agarda shogird ustozining

ko'ngli yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka, oxir-oqibatda u beradigan bilimdan sovib ketishga olib keladi.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH**

*Maxmudova Feruza Xolmo'minovna  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani 50-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini mohiyati va ularning samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

### **KALIT SO'ZLAR**

Boshlang'ich ta'lim, hamkorlik pedagogikasi, o'quvchi, kreativlik, ijobiy fazilatlar, shaxs, hamkorlikda o'qitish.

Boshlang'ich ta'lim jarayoninida shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida tinimsiz izlanish zarur. Shaxsning ongiga ta'sir etish yo'llarini belgilashdan oldin uning ichki aloqa elementlarini aniqlash zarur. Bular uning layoqati, imkoniyatlari, ehtiyoji, mavjud bilimlari va qobiliyatidir. Insondagi qobiliyat, layoqat o'rganilib, undagi bor bilim yoki bilim o'zlashtirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar aniqlanib, uning ehtiyojiga e'tibor qaratiladi.

Ma'lum maqsad asosida ta'sir choralarini belgilash bu elementlarda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shunday ta'sir natijasida shaxsning rivojlanishida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflardan boshlaboq o'quvchilarning qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojini aniqlab qilingan amaliy ta'sir zoe ketmaydi.

Bolaning intellektual imkoniyatlari haqida birdan xulosa chiqarish yaxshi natija bermaydi. Chunki insondagi intellektual imkoniyatlar birdaniga ko'zga tashlanmaydi. U asta-sekinlik bilan ro'yobga chiqishi mumkin. Shuning uchun ham bolaga "sening

kallang ishlamaydi”, “sen odam bo‘lmaysan” qabilidagi so‘zlarni aytmalik lozim. Bunday so‘zlar bolani o‘zi haqida tez xulosa chiqarib qo‘yishga, o‘z kuchiga ishonmaslikka, o‘qish motivlarini susayib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilardagi o‘ziga xoslikni bilishi va shu asosda faoliyatni tashkil etishi shaxsda bor bo‘lgan imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi mahorati bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish orqali shaxs faolligini oshirishga qaratiladi. Agar o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatiga qiziqsalar bu ta‘lim samaradorligini va o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini ta‘minlaydi, bilimga qiziqish va ehtiyojini shakllantiradi. Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining tashkil qilishda: o‘qituvchi-sinf, o‘qituvchi-kichik guruh, o‘qituvchi-katta guruh, o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo‘llaniladi. Hamkorlikda o‘qitish- bu o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o‘quvchilarning ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O‘quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o‘zlariga hamda o‘z guruhlaridagi o‘rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

Hamkorlikda o‘qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O‘quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o‘qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o‘zlashtiriladi.
2. O‘quvchilar 2-5 a‘zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
3. O‘quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq –atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O‘quvchilar ijobiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyati bo‘yicha ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarning birlariga ko‘maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘ladi.

5. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, ta’lim olishga, shaxsan mas’uliyatli va javobgardir.

Hamkorlikda o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;
- o‘quvchilarga ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv axborotlar to‘plamini beradi;
- o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;
- o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy–iqtisodiy guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlik - shunday holatki, obekt va subekt birgalashib faoliyat qiladi, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, jamoatchilik yuzaga keladi.

Hamkorlik pedagogikasining asosi quyidagilardan iborat:

- o‘quvchi shaxsini chuqur bilish;
- o‘quvchi shaxsiga insoniy yondashish;
- jamoatchilik tarbiyasi;
- o‘qituvchining yuqori kasbiy solohiyati;
- maktabga jamoa diqqat e’tiborini qaratish.

Hamkorlik pedagogikasi – ilg‘or pedagogikaning ko‘rinishlaridan deb qarash mumkin, uning ichiga yangi pedagogik tafakkur, rivojlantiruvchi g‘oyalar kiradi.

Hamkorlik pedagogikasining konsepsiyasi quyidagicha: Ya’ni:

- o‘quvchi bilan hamkorlik munosabati;
- o‘quvchida ijobiy emotsional qoniqish hosil qilish;
- maktab ta’limini muvaffaqiyatli amalga oshirish;



- muloqot va mehnat qilish ko'nikma va malakasini hosil qilish;
- o'quvchilar bilan birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishontriish;
- o'quvchiga yordam berish g'oyasi;
- har bir o'quvchi sinf ishida bimalol erkin qatnashishi imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- bolalar ishini baholash ya'ni rag'batlantirish.

Demak, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum. Bolalarda kreativlik qobiliyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

---

## **BOSHQARUV JARAYONIDA RAHBARNING O'Z XODIMLARI BILAN MUNOSABATI**

*Mavlonova Nazokat Jomurodovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 8-maktab psixologi*

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada boshqaruv jarayonida rahbarning o'z xodimlari bilan munosabati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Boshqaruv, boshqaruvchi, rahbar, rahbarlik, xodimlar.

Jamiyatning ma'naviy hayotini boshqarish oldiga qo'yilgan maqsad esa ilm-ma'rifatni, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual, yuksak darajadagi pok va axloqli kishini tarbiyalab etishtirishdan iboratdir.

Har qanday miqiyosidagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat-idora qiluvchiga ma'lum darajada muxtojdir. Bu ibora qiluvchi individual ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmining mustaqil organlari harakatidan farq qilib, butun organizm harakatidan kelib chikadigan umumiy vazifalarni

bajaradi. Yakka skripkachi o`zini-o`zi idora qiladi. Lekin, orkestr esa - dirijyorga muxtojdir. Demak, to`g`ri boshqaruvning muhim sharti - boshqaruvchi - rahbarning bo`lishidir.

Hokimiyat va rahbarlik lavozimi samarali boshqarishning eng ta`sirchan vositasi degan fikr o`rnashib qolgan va ancha keng tarqalgan. Biroq, buning o`zi kifoya emasligini ta`kidlash lozim. Murakkab tashkilot o`z vazifalarini samarali ado etishi uchun boshqaruvning hamma funksiyalari bajarilishini ta`minlash kerak. Rahbarlik, yetakchilik butun boshqaruv tizimiga kirib boruvchi faoliyat turidir. Agar samarali rahbar mavjud bo`lmasa, rejalashtirish, tashkil qilish, asoslash va nazorat qilish funksiyalarini samarali bajarib bo`lmaydi.

Boshqaruv uchta tarkibiy qism asosida qurilgan: yetakchilik, ta`sir o`tkazish va hokimiyat. Qo`l ostidagilar bilan o`zaro munosabat –yetakchilikning yana bir muhim va nozik jihatiki, boshqaruv xodimi uni yo`lga qo`ymay turib, o`z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi, larzalar va ziddiyatlardan qochib qutulishi mumkin emas. Boshqaruv sohasidagi jahon tajribasiga tayangan holda, ta`lim muassasasi boshqaruv xodimiga quyidagicha tavsiyalarni havola etamiz:

- barcha narsada odil bo`lishga intiling, sizni yaxshilab taqdirlaganingiz uchun yoki jazolashingizdan qo`rqib emas, balki unisi ham bunisi ham odillik bilan berilganligi uchun hurmat qilishadi. Buyuk bobomiz aytganlaridek, “Kuch-adolatdadir!”.

- xodimlarga e`tiborli bo`ling, ularga samimiy xayrihoxlik ko`rsating, qiyin daqiqalarda ularni qo`llab-quvvatlashga intiling.

- boshqalarga iltifot ko`rsatib, ularda qarzdorlik hissini uyg`otish yo`li bilan hokimiyatni kuchaytirish mumkin.

- qo`l ostingizdagilar bilan suhbat chog`ida faqat o`zingiz gapirmang, yaxshi tinglovchi ham bo`ling.

- jilmaying, sizning tundligingiz atrofdagilarni shubhaga soladi va ulardan yiroqlashtiradi;

- tanqid qilishda ehtiyot bo`ling, qo`l ostingizdagilarni ko`nglini og`ritmang.

- buyruq ohangini hech kim yoqtirmasligini yodda tuting, buyruq berish o`rniga savol berish usulidan foydalaning;

- o'zingizni qo'l ostidagilar o'rniga ko'proq qo'yib ko'ring, xodimlarning o'y va mulohazalariga hurmat bilan qarang.

Boshqaruv xodimlari o'dindan bilsa bo'ladigan va nafaqat g'oyani qabul qilinishiga, balki uning ro'yobga chiqishiga-tashkilot maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan haqiqiy mehnatga turtki bo'ladigan yo'l bilan ta'sir o'tkazish kerak. Rahbar o'z xodimi bilan suhbatlashmoqda. Suhbatning ijobiy natija bilan tugashi uchun:

- suhbatdoshingizning ehtiyojlarini aniq bilib olishga harakat qiling va shu ehtiyojlarga tayaning;

- suhbatni shunday fikr bilan boshlangki, u albatta, tinglovchining ko'ngliga yaqin bo'lsin;

- chuqur ishonch va xotirjamlik hissini uyg'otadigan holatni yaratishga harakat qiling, o'z do'stona munosabatingizni ko'rsating.

- xodimga gapini aytib olishga imkoniyat bering;

- shunday qilingki, xodimingiz g'oya o'ziga tegishli ekanligini his etsin;

- o'zingizning emas, balki xodimingizning manfaatlariga moslab gapiring;

- agar bir necha nuqati nazarlar bildirilayotgan bo'lsa, oxirida gapirishga intiling, oxirida tinglangan dalil-isbotlar ko'proq ta'sir o'tkazishga ega.

- o'z g'oyalaringizni ko'rgazmali ifodalashga intiling, ularni jonlantiring.

Boshqaruv xodimi o'z xodimlari bilan munosabatda samaradorlikka erishish uchun quyidagi vositalardan foydalanishi lozim:

- qo'yilgan vazifalarni qayta loyihalashtirish va vakolatlarni qayta ko'rib chiqish;

- qo'l ostidagilarga vakolatlar bersih va mas'uliyat yuklash, qarorlar qabul qilishga undash;

- ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini kuzatib borish.

- Ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarish oldiga qo'yilgan maqsad ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy o'z-o'zini idora qilishga aylantirishdir.

Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma'rifat berishni, aholida maishiy-madaniy xizmat ko'rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chiqadi. Eng yangi ilmiy texnika inkilobi asarida ma'naviy ishlab chiqarishning fan kabi sohasini boshqarish g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning va uning har bir ayrim a`zosining ma`naviy rivojlanishini boshqarish - umumiy ta`lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta`limi organlari, o`rta maxsus va oliy o`quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan adabiyot, san`at, madaniyat, sog`likni saqlash kabi sohalarni boshqarishni o`z ichiga oladi. Shunga ko`ra xalq ta`limi tizimini boshqarish, jumladan, umumiy ta`lim maktabini boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismidir.

---

## MULOQOT VA UNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

*Muhammadiyeva Dilfuza Axmadovna*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 20-maktab psixologi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada muloqotning inson hayotidagi ahamiyati, vazifalari haqidagi ma`lumotlar bayon etilgan.

### **Kalit so`zlar**

Muloqot, o`zaro munosabatlar, shaxslararo muloqot, fikrlar almashinuvi, suhbatdoshlar, psixologik mexanizmi

**Muloqot** - odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o`rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni— jamiyatda yashash va o`zini shaxs deb hisoblash bilan bog`liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o`zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya`ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o`qish, o`yin, ijod qilish va boshqalar) o`zaro munosabat va o`zaro ta`sir shakllarini o`z ichiga oladi.

Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, birbirlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiëfasi, fazilatlari, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro *bir - birini tushunishlarini* ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga biron kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning **ikkinchi** muhim funksiyasi - ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab

tadqiqotlarda izolyasiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan.

Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi.

Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan e'ki his qila'etgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehti'eji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan yerda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehti'ejining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi.

To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga e'qsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehti'eji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning

muomala madaniyati va muloqat texnikasi mehnat unumdorligi hamda samaradorligining muhim omillaridandir.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi.

---

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Parmonova Norgul Saitovna*

*Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va uning natijalari bayon etilgan.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Ta'lim jarayoni, o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, an'anaviy o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi.

O'quvchilarni bugungi kun talabi asosida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir. Bunday murakkab va muhim jarayonni amalga oshirishda ustoz-murabbiylar o'rni beqiyosdir. Aynan ta'lim sohasida iqtisodiyotimizning barcha sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasi davlat siyosatining ustivor sohasiga aylandi. Endigi vazifa bu tizimni taraqqiy ettirish va barkamol avlod tarbiyasini yuqori darajada tashkil etishdir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: tushuntiruv ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: ta'lim oluvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa – bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi - ta'lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy prinsiplar xos bo'ladi:

- *insonparvarlik*, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'ravonlikdan to'la voz kechish;
- *hamkorlik*, ya'ni pedagog va ta'lim oluvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- *erkin tarbiyalash*, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda ta'lim oluvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs ob'ekt emas, sub'ekt hisoblanadi;
- har bir ta'lim oluvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;



• yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi. Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta’lim oluvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- ta’lim oluvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi
- pedagog va ta’lim oluvchi munosabatining asosi: ta’qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g‘ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu yondashuvni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so‘zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish;
- ta’lim oluvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta’minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta’lim tizimida o‘quv fanidan ta’lim oluvchiga emas, ta’lim oluvchidan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, ta’lim oluvchilarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Ta’lim tizimi uchun o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ muammoli ta’lim;
- ✓ hamkorlik;

- ✓ o'yinli;
- ✓ tabaqalashtirilgan;
- ✓ yakka tartibda o'qitish;
- ✓ modulli o'qitish;
- ✓ kompyuterlashtirilgan;
- ✓ masofali ta'lim va boshqalar.

O'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tashkil eta olishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda nihoyatda ahamiyatlidir. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, har bir o'qituvchidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoiylik hamda ta'lim texnologiyalarini qo'llash mahoratiga ega bo'lish kabi katta tajribani talab etadi. Zero, yosh avlodni, chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash o'qituvchilar zimmasidadir.

---

## **BOSHLANG'ICH SINIF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI IJODKORLIKKA O'RGATISH YO'LLARI**

*Babayeva Nodira Mahmudovna*

*Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani 3-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi,*

*Karimova Shaxlo Yuldashovna*

*Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani 3-maktab*

*tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga tasviriy san'at darslarida o'qituvchi faoliyati ko'rsatib berilgan.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Tasviriy san'at, rasmlar, bo'yoqlar, dunyoqarash, ranglar, tafakkir, ijodkorlik.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar.

Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarliq xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan xarakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (*uy, odam, kitob, soat, portfelb*) ayrimlarini yon tomonidan (*mashina, qayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.*), yana boshqalarini ustki tomonidan (*kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.*) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Dars o'quvchilarni maktab bog'i yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat jarayonida o'qituvchi bolalar e'tiborini chiroyli kuz manzarasiga jalb etadi.

Ularga kuz fasli va bu vaqtdagi o'zgarishlar haqida so'zlab beradi: "Bolalar, mana hozir kuz fasli. U nihoyatda chiroyli, chunki, kuzda havo soviy boshlaydi, natijada daraxtlarning barglari o'z rangini o'zgartiradi. Ba'zi barglar qizg'ish tusga kiradi. O't-maysalar sarg'aygan bo'ladi, qisqasi, ular oltin rangga burkanadilar. Osmonda yengil parcha-parcha bulutlar paydo bo'ladi. Ertalab kuzgi ekin va o'tlarning usti oppoq qirov bilan qoplanadi.

Yerga to'kilgan daraxt barglari oyoq ostida shitirlaydi. Oktyabr oyida kech pishar mevalar terib olinadi va tokdagi shirin-shakar uzumlar uziladi. Yong'oq qoqiladi. Kechki kartoshka, sabzi, piyoz, lavlagi kabi savzavotlar yig'ishtirib olinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar ota-onalariga, maktab bog'ida esa maktab jamoasiga yordam beradilar.

Kuzda shahar va qishloqlarda ko'chat o'tkazish oyligi boshlanadi. Bu ishlarda ham bolalar kattalar bilan bir qatorda qatnashadilar. Kuzgi yig'im-terim ishlari nihoyatda zavqlidir. Sayohat jarayonida o'qituvchi emotsional-estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan namunalar o'qib beradi.



She'r o'qib bo'lingandan so'ng, tabiatning ko'rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
- qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko'ryapsiz?
- daraxtlarning o'lchovi bir xilmi?
- daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qilib turibdi?

- e'tibor bering, daraxt shoxlarining yo'g'onligi bir xilmi?
- daraxtlarning tanasi va shox-shabbalarining tuzilishi qanday?
- osmonga ham razm soling, uning rangi qanday?
- osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo'lsa)?
- o't va daraxtlarning rangida farq bormi?
- tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima?



Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba'zi bir tabiiy materiallarni (urug'lar, barglar, mayda hashoratlar, ildizlar) kolleksiya uchun yoki tasviriy ishlar uchun yig'ishlari mumkin.

Kuzatilayotgan ob'ekt yuzasidan savol-javob tugagach, o'qituvchi suhbatga yakun yasab, bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, kamchiliklarini to'ldiradi, xatolarini tuzatadi.

Agar dars sinfda o'tkaziladigan bo'lsa, o'qituvchi yuqorida nomlari qayd qilingan tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari, diapozitivlari, slaydlarini bolalarga ko'rsatib, sinfda o'quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Lekin, shuni ham qayd qilish lozimki, dars sinfda qanchalik ilg'or metodlar bilan olib borilmasin, baribir u aynan tabiat qo'yniga qilingan sayohatning o'rnini bosa olmaydi. SHuning uchun o'qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qilishi lozim.

Uyga bolalarni yashash joylaridagi bironta oltin rangga kirgan tabiat manzarasini kuzatish vazifa qilib topshiriladi.

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHI MAHORATI

*Xudoyqulova Farida Rahmatovna*  
*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 61-maktab*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining darslarni samarali tashkil etishida pedagogik mahorati yoritilgan.

### **Tayanch so'zlar**

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, pedagogik mahorat, pedagoglik kasbi, shaxsiy va kasbiy sifatlar, pedagogik qobiliyatlar.

O'zbekiston Respublikasining Milliy Dasturida ta'kidlanganidek, ona tili Davlat Ta'lim standartida barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida, shu jumladan uning asosiy bo'g'ini hisoblangan o'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitilishini tubdan yaxshilashni, ta'limning eng samarali metod, vosita va usullarini qo'llashni, muhimi o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni talab etadi.

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, xususan yoshlar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirdi.

Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy – texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga, mavjud pedagogik – psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada “eskirishi”ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini

rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi. Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablaridagi ona tili darslari o'quvchilarni imloviy savodxonligini oshirishga, gaplarni bir-biriga izchil bog'lab matn tuzishga, so'z boyligini oshirishga, so'zni to'g'ri va o'rinli ishlatishga, o'z nutqini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatib boradi.

Ona tili darslaridagi bu kabi vazifalarni amalga oshirish o'qituvchidan mas'uliyat va pedagogik mahoratni talab etadi.

Xo'sh, pedagogik mahoratning o'zi nima? Uni qanday egallash lozim? Pedagogik mahorat- bu o'qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixoxligi, insonparvarligi, mehribonligi) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z o'quv fanini chuqur va atroflicha chuqur bilishida, pedagogik-psixologik va va metodik tayyorgarligida, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoiylilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib toptirilishi lozim.<sup>1</sup>

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliligi va ulug'ligi shundan iboratki, u kelajak avlodni tarbiyalaydi, jamiyat uchun kerakli shaxsni tarbiyalab beradi. Doimo yosh avlod bilan aloqada, muloqtda bo'lib unga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazib boradi. Ana shu jarayonda o'qituvchi pedagogik, psixologiyaga oid bilimlarni puxta va mukammal bilishi, o'z kasbiy mahorai ustida doimo tinimsiz ish olib borishi lozim. Bu o'qituvchidan pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi.

<sup>1</sup> Ahmedjnov M. M va boshqalar. Pedagogik mahorat. Buxoro. 2000. 6-bet.

Pedagogik mahorat pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayonga esa biz dars jarayonini keltirib o'tamiz. Ana shu dars jarayonida o'qituvchi o'zidagi bor tayyorgarligini, sifatlarini namoyish etadi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchi – tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatleri yig'indisi hisoblanib, u pedagogik – psixologik, metodik bilimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Buning uchun, avvalo:

a) ixtisoslik bo'yicha zamon, ilm – fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal ma'lumotga ega bo'lishi, o'z o'quv fanining kesishadigan o'quv fanlari bilan bog'liqligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

b) o'quv – tarbiya jarayonini aniq tashkil qila olish va buning uchun muayyan pedagogik – psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

v) o'quvchini, jamoani «ko'ra bilish», ularning qiziqishi, intilishlarini tushuna olish va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va ularni o'z vaqtida anglay olish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini anglay bilish hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lish;

g) o'z shaxsiy sifatleri (madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va h.k.) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lish kerak.

O'qituvchining pedagogik mahoratiga biz quyidagilarni kiritamiz:

- pedagogik texnika;
- pedagogik qobiliyat;
- pedagogik muomala;
- pedagogik ijod;
- pedagogik madaniyat;
- pedagogik nazokat.

Hozirgi fan va texnika jadal rivojlanayotga, axborotlar keskin tezlashib borayotgan shiddatli davrda o'qituvchining pedagogik mahoratini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlarda o'qituvchiga nisbatan yangiliklar doirasi nihoyatda keng. O'qituvchining pedagogik mahorati shundan iboratki, o'quvchi –yoshlardagi



axborotlarni o'z o'rnida qo'llashni, kerakli ma'lumotlarni ajratib olishga o'rgatishdan iboratdir.

Bundan tashqari o'qituvchi o'z fani doirasidagi bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, boshqa ilmiy adabiyotlarni ham o'rganib borishi zarur. Qiziquvchan o'quvchilar barcha fan doirasida o'qituvchidan yangiliklarni, ma'lumotlarni o'rganishga harakat qilib boradilar. Bu esa pedagogning o'z ustida tinimsiz ishlashiga, izlanishiga olib kealdi.

---

## МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ПСИХОЛОГИЯСИНИ ЎРГАНУВЧИ МЕТОДЛАР

*Бегматова Ирода Толкиновна  
Тошкент шаҳар Яшнобод туман 339 мактаб психологи*

Ҳар бир фаннинг ўз предметига қараб бир қанча ўрганиш ва текшириш методлари бўлади. Метод лотинча —methodas сўзидан олинган бўлиб, маълум бир фаннинг предметини текшириш, ўрганиш ва тушунтириб бериш усуллари­нинг ёки воситаларининг йиғиндисидир.

Болалар психологияси умумий психологиянинг махсус соҳаси бўлгани туфайли, у ўз предметини ўрганишда умумий психологиянинг деярли ҳамма методларидан фойдаланади. Лекин умумий психологиянинг методларидан болаларнинг асосий фаолиятларига мослаштириб қўлланилади.

Умумий психологиянинг методлари - кузатиш, эксперимент, суҳбат, фаолият махсулини ўрганиш кундалик ва биографик материалларни ўрганиш, социометрик метод, тест ва шу каби методлардир.

Болаларнинг бутун ақлий, яъни психик тараққиётлари уларнинг турли-туман фаолиятларида содир бўлади. Ана шунинг учун болалар психологияси юқоридаги методларни болаларнинг асосий фаолиятларига мослаштириб қўллайди.

Кузатиш методи. Болалар психологиясида субъектив кузатиш методидан деярли фойдаланилмайди. Болалар психологиясининг асосий методларидан бири - объектив, яъни болаларни ташқаридан кузатиб ўрганиш методидир. Тарбиячи ёки текширувчи психолог болаларнинг турли хил фаолиятларини табиий шароитда тизимли тарзида кузатилади. Бунда болаларнинг хулқ-атворлари, хатти-ҳаракатларига доир характерли моментларни қайд қилиб боради. Ҳар қандай кузатишнинг аниқ мақсади бўлиши керак. Бошқачароқ қилиб айтганда, тарбиячи болаларнинг хулқ-атвори ёки хатти-ҳаракатларига доир нималарни кузатмоқчи эканини олдиндан аниқлаб олиши керак. Масалан, болалар диққатининг барқарорлигини ёки тафаккур жараёнлари билан боғлиқ бўлган анализ қила олиш қобилиятларини кузатишни олдиндан бошлаб олиш мумкин.

Шуни эсдан чиқармаслик керакки, кузатиш табиий шароитда олиб борилар экан, болалар ўзларининг кузатилаётганликларини мутлақо билмасликлари керак. Кузатишни болалар ўрганган тарбиячининг ўзи кузатгани маъқул. Агар кузатишни болалар кўзи олдида бегона одам ўтказса, болаларнинг хаттиҳаракатидаги табиийлик бузилади. Уларнинг хулқ-атворлари ва хаттиҳаракатларини бегона киши кузатишига тўғри келса, у вақтда яширин кузатиш методларидан фойдаланиш лозим. Бунда кузатувчи болаларга кўринмайдиган жойдан туриб кузатади. Болалар психологиясида кузатиш методидан фойдаланилганда, болаларнинг турли ўйин фаолиятлари, дидактик машғулотлари ва қуриш-ясаш ҳамда ижодий машғулотларида хилма-хил психик жараёнларининг намоён бўлиши ва қанча давом этиши каби

жараёнларни қайд қилиш мумкин. Бундан турли ёшдаги болаларни бир-бирига таққослаб, улардаги психик жараёнларнинг тараққиёти ўрганилади. Кузатиш методи - узлуксиз ва бу фаолиятни танлаб вақти-вақти билан ўрганилганда уларнинг барча феъл-атворлари ва хатти-ҳаракатлари кундалик фаолиятлари давомида умумий ҳолда ўрганилади. Узлуксиз кузатиш бир неча кун ёки бир неча ой давомида давом этгандан сўнг тўпланган маълумотлар таҳлил қилиниб, болага психологик характеристика бериш мумкин бўлади. Вақти-вақти билан танлаб кузатилганда боланинг барча хулқ-атвори ва характерлари эмас, балки фақат

маълум ҳаракатлари, яъни диққати ёки хотираси, ё бўлмаса, унинг нутқи билан боғлиқ бўлган томонлари ўрганилади.

Болалар психологиясида кенг қўлланадиган иккинчи метод – эксперимент методидир. Эксперимент методи - кузатиш методига нисбатан фаол метод ҳисобланади. Агар кузатиш методида у ёки бу психик жараённи қайд қилиш учун психолог шу психик жараённинг қачон ва қандай шароитда пайдо бўлишини пойлаб юрса, эксперимент методи эса мутлақо бунинг аксидир. Эксперимент методида у ёки бу психик жараён юзага келадиган шароитни текширувчи психологнинг, яъни экспериментаторнинг ўзи ташкил қилади. Бунда экспериментатор ўрганаётган психик жараёнларни болаларда бир неча марта юзага келтириб ўрганади. Биз умумий психологиядан биламизки, эксперимент методи 2 хил бўлади: лаборатория эксперименти ва табиий эксперимент. Болалар психологиясида экспериментнинг ҳар иккала туридан кенг фойдаланилади. Бирок, бу методлардан болалар психологиясида

фойдаланишнинг ўзига хос томони шундаки, мактабгача тарбия ёшидаги болалар лаборатория шароитида ўтказиладиган тажрибалар билан табиий шароитда ўтказиладиган тажрибанинг унчалик фарқига бормайдилар. Ҳар иккала ҳолда ҳам тажрибалар вазифа тарзида эмас, балки ўйин тарзида ўтказилса натижа яхши чиқади. Масалан: кичик ва ўрта гуруҳ ёшидаги болаларга бири иккинчисидан бир оз узунроқ бўлган таёқча кўрсатилиб, улардан қайси бири узунроқ эканлигини сўралса, болалар ҳеч эътибор бермай, тасодифан биттасини кўрсатаверадилар. Агар бундай фарқлаш уларнинг ўйинларига айлантирилса, болалар дарҳол эътибор билан қарайдилар.

Кузатиш ва эксперимент асосий методлар ҳисобланади, лекин булардан ташқари бир қатор ёрдамчи методлар ҳам мавжуд. Масалан: фаолият маҳсулотларини ўрганиш методи, социометрик ва тест методлари. Фаолият маҳсулотларини ўрганиш методи ҳақида гап борар экан, шунини айтиш керакки, болалар ҳам жуда катта одамлар сингари доим маълум фаолият билан машғул бўладилар. Катта одамлар бошқа одамлар учун керак бўладиган ижтимоий фойдали

нарсалар ишлаб чиқариш фаолияти билан банд бўлсалар, болалар ўз фаолиятларида деярли ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдилар.

Боғча ёшидан болаларнинг фаолиятлари - ўйин, расм чизиш, пластилин ёки лойдан бирор нарса яшаш, аппликация, қуриш-яшаш ва шу қабилардан иборат бўлиши мумкин. Болалар одатда, катта кишиларнинг топшириқ ва таклифлари билан маълум фаолиятга киришадилар. Айрим ҳоллардагина болаларнинг ўзлари мустақил равишда у ёки бу фаолиятни бажарадилар. Ҳар икки ҳолатда ҳам болалар фаолияти маълум натижага эга бўлади. Кўпинча болалар фаолиятининг маҳсулоти улар чизган расмларга, лой ёки пластилиндан ясалган нарсага қараб ўрганилади. Кўпинча болаларнинг чизган расмларида улар идрокининг хусусиятлари ва онгида юзага келаётган турли тасаввурлар ҳамда атрофларидаги нарса ва ҳодисаларга бўлган муносабатларида ўз ифодасини топади. Ана шу жиҳатдан болаларнинг чизган расмларидан фаолият маҳсулотини ўрганиш сифатида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Турли ёшдаги болаларнинг ишлаган расмларини анализ қилиш орқали уларнинг айна пайтдаги эҳтиёжларини, майл-истаклари, қизиқишлари, қобилияти ва лаёқатларини ўрганиш мумкин. Шу сабабли, бу методдан ҳам болалар психологиясида кенг фойдаланилади.

Сўраш – суҳбат методидан болалар психологиясида анча чекланган ҳолда фойдаланилади. Бу методни боғча ёшидаги болаларга нисбатан деярли қўллаб бўлмайдди, чунки бу ёшдаги болаларда турмуш тажрибаси жуда оз, тафаккурлари ҳали яхши ривожланмаган бўлади. Шу сабабли кичик ёшдаги болалар катталарнинг берган саволларига ўйламай-нетмай жавоб қайтараверадилар. Сўраш методидан фойдаланилганда одатда жуда содда ишланган айиқчалар, узоқ ва яқин қилиб ишланган уйлар ва дарахтлар ва х.к. Болалардан қайси айиқ катта, қайси айиқча кичик ёки қайси уй узоқ, қайси уй яқин деб сўралади.

Болалар психологиясида сўнгги йилларда қўллана бошлаган методлардан бири, тест методидир. Тест сўзи инглизча сўз бўлиб, у ўлчаш деган маънони билдиради. Тест методи орқали болаларнинг умумий ақлий тараққиёт даражалари ва айрим психик жараёнларнинг (тафаккур, хаёл, хотира каби) қанчалик ривожланганлик даражаси аниқлаб, таққосланади. Тест методи ёрдамида

болаларнинг ўз ёшларига нисбатан нормал тараққий этганликлари ёки орқада қолганликларини ҳам аниқлаш мумкин. Масалан, тест методидан болаларга топшириладиган вазифалари бир неча вариантда бўлиб, улар кучлари етган вариантдаги вазифаларни бажарадилар. Ҳар бир бажариладиган вазифага балл системасида баҳо қўйиб борилади. Вазифалардан қанчаси бажарилганлиги ва тўплаган балига қараб, болаларнинг ўртача тараққиёти белгилаб берилади.

## МАКТАBLARDA ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISH

*Rahmonova Dilorom Qo'chqaraliyevna*  
*Andijon viloyati Marhamat tumani 4-maktab psixologi*

**Annatatsiya.** Maqolada oila, mahalla, maktab va atrofdagi zoravonliklarni insonlar ongida ruhiy tramalar, xulq atvorlarda o'zgarishlar va psixologik tavsiyalar bayon etilgan.

Maktablardagi zo'rvonlik /bulling bolalar hayotiga, ularning turmush tarziga, kelajakiga ular bilan birga yashaydigan oila a'zolariga va jamoaga jiddiy va uzoq muddatli ta'sir kuchini ko'rsatmay qolmaydi. Butun dunyo bo'ylab juda ko'p o'quvchilar, o'smir yoshlar uchun zo'rvonlik /bulling har kungi mashg'uloti yoki uning reja bilan tuzilgan tajribasiga aylanib bormoqda va yoki butkul aylanib ulgurgan. Biz pedagoglar, psixologlar, ota-onalar, hamkor tashkilotlar birgalikda bunday og'riqlik vaziyatlarni o'zgartirishimiz yoki oldini olishimiz mumkin. Maktablardagi zo'rvonliklar asosan shaxsiy, oilaviy, atrof-muhit, ijtimoiy omillarni o'zaro ta'sirida kelib chiqadi. Ushbu omillarni oldi olinsa zo'rvonliklarning oldi olingan yoki yo'l qo'yilmagan bo'lar edi.

- Shaxsiy omil ya'ni giperativlik va impulsivlik past yoki juda yuqori ilmiy ko'rsatkich, g'azablanishni yuqoriligi, shaxsiyat xususiyatlari, uyatchanlik va o'ziga ishonmaslik holatlaridagi o'quvchilar bilan yakka va guruh tartibda treninglar, individual suhbatlar olib borish, turli tadbirlar va to'garaklarga jalb etish lozim.

- Oilaviy omil - bola ustidan nazoratni yetishmasligi, oila a'zolari o'rtasidagi zo'ravonliklar, bir birlariga nisbatan yordamning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi. Bunday oila rahbarlari ya'ni ota-onalarining o'zlari bilan tarbiyaviy ishlar olib boorish, bunda hamkor tashkilotlar mahalla faollari, namunaviy oila vakillari, pedagog hodimlar, psixologlar birgalikda ishlashlari talab etiladi. Shundagina oila boshliqlarining, oila az'olarini qolganlarini tarbiyalanganlik darajasini yuqoriga ko'tarish mumkin.

-Atrof-muhit omillari – maktabda sinfdoshlar, tengdoshlar, o'qituvchilar bilan munosabtlar natijasida kelib chiqqan stress, pedagog hodimlar tomonidan, maktab rahbariyati tomonidan mahsus nazoratning yo'qligi, maktab o'quvchilarining ta'lim muassasasi haqidagi salbiy tushunchalari oqibatida kelib chiqadi. Bunday omillarning oldini olish uchun sinfdoshlar, tengdoshlar, o'qituvchilar orasidagi mehr-oqibat madaniyatini yaratish, bulling haqidagi tushunchlarni yaxshilash, uning mohiyati va undan himoyalaniish mumkinligini, zo'ravonlikka duch kelgan tengdoshiga yoki o'quvchiga yordam ko'rsatish usullari bilan tanishtirib chiqish kerak.

- Ijtimoiy omillar-genter stereotiplari, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik, ommaviy axborot vositalarining ta'siridir. Kattalar va bolalarda tajavvuskorlikning ortib ketishiga eng katta sabab ommaviy axborot vositalarida zo'ravonlikning tez-tez eslatib turishlik, filmlar va reklamalarda zo'ravonlikni o'stirish, zo'ravonlikni namoyish etuvchi kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir. Yuqoridagi holatlarni kamaytirilishi yoki butunlay hayot tarzimizdan chiqarib yuborish bolalar va o'spirinlarda o'z tengdoshlariga bo'lgan tajavvuskor hatti-harakatlarni, zo'ravonliklarning oldi olingan bo'lar edi.

Dunyodagi bolalarning hammalari beg'ubor, beozor bo'ladilar ammo ularga yuqoridagi omillarning ta'sir kuchi salbiy ko'rinishlarni namoyan etishga majbur etadi. Biz ularni asrashimiz, mehr berishimiz darkor. Yaqinlarimizni, butun olamni nurga to'ldiruvchi, yashashga umid baxsh etguvchi, ozod va obod yurtni asrab qoluvchi eng yaxshi vosita bu - Mehr.

## МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Mamadjonova Muhtaram Rahmonjonovna*  
*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 19-maktab psixologi*

**Annotasiya:** Bolalar o'rtasida individual farqlarning ko'payishi kuzatilmoqda, temperamentli farqlar faollik va xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Shartlar va yetakchi faoliyat mehnatsevarlik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish uchun qulaydir. Ushbu maqola maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** o'qish faoliyati, asosiy faoliyat, ta'lim-tarbiya, aqliy rivojlanish.

**Аннотация:** Отмечается усиление индивидуальных различий между детьми, темпераментные различия отражаются в деятельности и поведении. Условия и руководящая деятельность способствуют развитию таких личностных качеств, как трудолюбие, самостоятельность, способность к самоуправлению. Данная статья посвящена изучению психологических особенностей детей школьного возраста.

**Ключевые слова:** читательская деятельность, основная деятельность, обучение, умственное развитие.

**Annotation:** There is an increase in individual differences between children, temperamental differences are reflected in activity and behavior. Conditions and leadership activities are conducive to the development of personal qualities such as diligence, independence, and the ability to self-manage. This article is devoted to the study of the psychological characteristics of school-age children.

**Keywords:** reading activity, main activity, education, mental development.

Inson shaxsi taraqqiyotida biologik va ijtimoiy omillarni o'zaro nisbati muammolari psixologiyada munozarali va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsning barcha psixik ko'rinishlari uning hayoti davomida shakllanib boradi. Insonning individual-psixologik hususiyatlari deyilganda qobiliyatlar, temperament, xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar tushuniladi. Bu psixologik hususiyatlar ajralmas tarzda mavjud bo'lib o'zaro bog'liq, shartlangan, inson faoliyatida bir-biriga birikib ketadi. Kishilarning individual hususiyatlarini hisobga olgan holda va ular haqidagi bilimlar

amaliy hayotda qo'llanilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy faoliyat va qobiliyatlarni to'liq rivoj topishida muhim rol o'ynaydi. Tarixiy jarayonning ayni bir vaqtda ham mahsuli, ham sub'ekti bo'lgan inson Shaxsi ijtimoiy tuzilishi bilan yonma-yon joylashayotgan va teng huquqqa ega bo'lgan biologik to'zilishni saqlab qola olmaydi. Individ rivojlanishining tabiiy sharoitlari, uning jismoniy tuzilishi nerv va ichki sekretiya bezlari sistemasi, jismoniy tuzilishidagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual-psixologik hususiyatlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Lekin biologik omillar kishi shaxsining tarkibiga singib ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda mavjud bo'ladi. Shaxs shakllanishida uning ijtimoiy va tabiiy xislatlari birlikni tashkil etadi va Shaxsning mustaqil kichik tuzilishi sifatida bir-biriga o'zidan o'zi qarshi qo'yilmaydi. Psixologiyada shaxsda ikki omil biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura mavjudligini ta'kidlaydigan nazariya sezilarli o'rin egallaydi. Maktabga borish bolalarning xaetida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning yaslidan bog'chaga o'tishlariga qaraganda murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi. Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada "katta" deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana "yeng kichkinalar" qatoriga tushib qoladilar. Bolalarning maktabga o'tishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi hayotha har tomonlama tayyorlash kerak. Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har tomonlama tarbiya berish, ularniig taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida ma'lum izchillik bo'lishini talab qiladi. Bog'chada bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga



qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va ahloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashg'ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, xayol xamda tafakkurlari, irodalari sistemali tarzda taraqqiy ettirib boriladi. Bolalarni maktabdagi o'qish jarayoniga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun katta guruh bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, ya'ni so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqida tasavvurlarini kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o'stirish asosida olib borilishi kerak. Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma bog'chalardagi maktab yoshiga to'lgan bolalar maktabdagi o'qishga bab-baravar tayyor bo'lavermaydilar. O'quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O'quvchilarni ta'limni o'zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim shunchalik ko'rgazmali bo'lishi hamda faol harakt qilish katta rol o'ynaydi. Barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin. Bilamizki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiylarni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarining faqat unga xos birikuvidan tarkib

topgandir. Individuallik–kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlarining yig'indisidir. Individuallik temperament va xarakter hususiyatlarida, odamlarda ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlarda, qobiliyatlarda, faoliyatning Shaxsga xos uslublarda namoyon bo'ladi. Inson shaxsi o'z individualligiga ko'ra takrorlanmas. Shaxsning individual–psixologik hususiyatlarini inobatga olish orqali u bilan muloqot qilish shaxslararo muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, har bir Shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishni ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik, o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti–harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bolalar psixologiyasi va metodikasi.- Z.Nishanova, G.Alimov.
2. O'qituvchi qobiliyati va uni psixologiyada o'rganilishi- K.Qudratova.
3. Zach A.Z. Amerika psixologiyasida boshlang'ich sinf o'quvchisi fikrlashini o'rganish. // Psixologiya masalalari. - 1980. - №1. - S. 156.
4. Zaxarova A.V., Andrushchenko T.Yu. Ta'lim faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchisining o'zini o'zi baholashini o'rganish // Psixologiya muammolari. - 1980. - № 4. - S. 90-100.
5. Ivanova I.P. Maktabning 1-sinf o'quvchilarini o'rganish va eslab qolish // Psixologiya masalalari. - 1980. - №3. - S. 90-100.
6. Romanova M.P., Zukerman G.A., Fokina N.E. Yosh maktab o'quvchisining aqliy rivojlanishida tengdoshlar bilan hamkorlikning o'rni // Psixologiya masalalari. - 1980. - № 6.- S. 109-114.

## PSIXOLOGIK KORREKSIYANING KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

*Botirova Ozoda Maxmanazarovna*  
*Samarqand viloyati Paxtachi tumani 37-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada psixologik korreksiyaning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda amalga oshirish shakllari haqida ilmiy-psixologik ma'lumotlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik maktab yoshi, o'quvchi, maktab, psixolog, muhit, ota-ona, tarbiya, bilish jarayonlari.

Birinchi marta maktabga qadam qo'yadigan birinchi sinf o'quvchilarining maktab talablariga, sharoitlariga moslashishi uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali o'tmasligi mumkin.

Bolaning maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota-onalar arzlaridagina emas, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmoqda. Masalan, ota-onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xohlamayotganini, juda asabiy bo'lib qolganini aytishsa, o'qituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligi, tartibsizligi, tengdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmoqda. Bunday bolalarda asabiy ruhiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi. Bolalar maktabda o'qishga qanchalik tayyor bo'lmasalar, maktabda moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq o'tadi.

Psixologlar bolaning maktabda o'qishga tayyor deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar. O'qishning dastlabki oylarida maktab psixologining birinchi sinf o'quvchilari bilan olib boradigan asosiy ishlari quyidagilardan iborat:

- a) maktabga moslashishga qiynalayotgan bolalarni aniqlash;
- b) bu bolalarga psixologik yordam ko'rsatish. Bu vazifani bajarish uchun bolani maktabga moslashishdagi qiyinchilik ko'rsatkichlarini aniqlash lozim.

Ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) O'quv materialini o'zlashtirishda; 2) O'qituvchi talablarini bajarishda qiynalish, o'quvi vazifalarini bajarishda ixtiyoriylik

xususiyatlari, harakat aktivligining o'zgarishi, bolaning emotsional xususiyatlari, o'qishga, maktab xayotiga qiziqishlari, o'qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotga urishishlaridagi qiyinchiliklaridir. Bolani har tomonlama psixologik tekshirib, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini ko'rsatish mumkin.

Psixolog tuzatish metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishga ijobiy ta'sir etadigan omillarni, ya'ni o'quvchini o'zini to'g'ri baholashi, oilada to'g'ri tarbiyalanishi, oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlar orasida bolani hurmat qozonishini hisobga olish lozim. Maktab psixologining o'zlashtira olmovchi boshlangich sinf o'quvchilari bilan olib boradigan ishlari uning faoliyatidagi amaliy yo'nalishi tashkil etadi.

Bunda psixolog bunday o'quvchilar bilan olib boradigan ishning asosiy yo'nalishlari haqida gapirishdan oldin o'zlashtira olmaslik sabablarini ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yosh davridan maktab yoshi davriga o'tish ancha qiyin kechadigan davrdir. Odatda maktabga borish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat: 1. Yangi o'quv tartibi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar. Bunday qiyinchilik ko'proq maktabgacha tarbiya muassasalariga bormagan bolalar uchun xosdir. 2. Bolaning sinf jamoasiga moslashuvdagi qiyinchilik. Bu holat bolalar jamoalariga yetarli darajada ishtirok yetmaganlarda ko'proq uchraydi. 3. O'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar. 4. Bolaning oilaviy sharoiti o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar. Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishining yangi ijtimoiy sharoitlarida asta - sekin o'z ifodasini topadi. Psixologlar maktabdagi psixogen buzilish bolalarning sinfda o'qishidagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb ko'rsatadilar. Ruxiy omillar ta'siri ostida kelib chiqadigan kasallik psixogen kasallikdir. Mazkur kasallik bolaning maktabda, oilada obyektiv va subyektiv mavqeining buzilishida, ta'lim-tarbiya jarayonining qiyinlashuvi hamda uning shaxsda psixogen tarkib topishida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi qiyinchiliklarning alohida olingan sabablaridan kelib chiqib ularni tahlil qilish "Uddalanilmayotgan" materiallarni, masalan, yozuv yoki o'qishni bosh asos qilib olish, keyin esa ularni keltirib chiqarayotgan omillarni ko'rib chiqish mumkin. O'qituvchi bolalarda uchraydigan har qanday qiyinchilikni uning o'zlashtirishi bilan bog'laydi. Bunda bolani baholash odatdagidek

o'ziga xos shaklda bo'ladi, a'lochi, demak, yaxshi o'quvichi, yomon baho olsa yomon o'quvichi. Mazkur shaklga xos choralar ko'rilgan. Masalan, maktabda yomon o'zlashtirgan o'quvichining ota-onasi chaqirtiriladi, g'azablangan o'qituvchi ularga o'z farzandlariga yomon qarayotganliklarini, yomon tarbiya berayotganliklarini, ular bilan kam shug'ullanayotganliklarini aytib noliydi. Yana ham achinarlisi o'qituvchi sinf oldida yuqori ovoz bilan bolani kamsitadi.

Ko'pchilik, xattoki eng tajribali o'qituvchilar ham o'zlashtirmasligi sababini o'quvichining dangasaligi, noshudligi, tarbiyasizligi bilan baholashga urinadilar. O'qituvchi o'zlashtirmaslikning haqiqiy sabablari to'g'risida kamdan kam o'ylaydi va tabiiyki, uni bartaraf qilishning o'ziga xos chora tadbirlarini izlaydi. Shuning uchun quyida maktab psixologining boshlangich sinf o'quvichilari bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan psixologik tuzatish ishlarininng ayrim jihatlarini ko'rib chiqamiz. Misol tariqasida E.L.Yakovleva tomonidan taklif etilgan tuzatish dasturini xavola qilamiz. Yozilgan so'zlarni tahlil qilish, ulardagi harflarni ko'rish uchun bolalarga diqqat qilish o'yinlari taklif qilinadi. Bu o'yin asosida sinash, tuzatish testi yotadi. Buning uchun katta shrift harflarida bosilgan eski ertak kitoblari olinadi. Bolalarga 5 minut davomida uchragan a harfini chizish taklif etiladi. Bunda bola 4 va undan ortiq a harfini qoldirsa yutqazadilar, agar kam qoldirsa yutadilar, degan shart qo'yiladi. Yutganlar ragbatlantiriladi. O'yinni har kuni o'ynagan ma'qul, yutuqlar natijasi esa, bir haftada bir marta e'lon qilinadi va g'olib taqdirlanadi. Topshiriqni bir-biriga qo'shni bolalarning o'zlari tekshiradilar. Chunki bu yoshdagi bolalar o'z ishlaridan ko'ra o'zgalar ishiga juda qiziqadilar.

Shunga ko'ra ular sezmay qoldirgan xatolarga ko'ra ularning bir necha minut davomida diqqat e'tiborlarini to'plagan holatlari juda ahamiyatli bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006. - 162 b
2. Немов Р.С. Психологическое консультирование.-М.: ВЛАДОС 2003.-528 с.
3. Bookbest.org

## O'QUVCHILARNING HAR TOMONLAMA BARKAMOL BO'LIB SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUNOSABALARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

*Xisenova Musallam Fozilovna*  
*Qashqadaryo viloyati Mirishkor tuman 36-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishida oilaviy munosabalarining psixologik ta'siri haqida bir qator foydali ilmiy muhokama fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'quvchi, oila, ota-ona, muhit, oilaviy munosabatlar, ta'lim, tarbiya, sharoit, taraqqiyot, muloqot.

Ayonki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fantexnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi. Oilaviy munosabatlar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik

kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qaramaqarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida namoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi. Agressiya va agressiya muammosi uzoq vaqt davomida ijtimoiy psixologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendensiyalarni o'sishi so'nggi yillarda keskin tarzda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik oshdi. Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat ishlari sezilarli darajada oshdi. Shu bilan bir vaqtda shafqatsiz yosh guruhlardagi janglarning hollari tez-tez uchraydi. Shuni e'tiborga olish lozimki, bu kabi holatlarning ortib borishi esa yoshlarning ruhiyatida oilaviy muhitning keskin buzulishi va oilaviy munosabatlarning keskinlashuvi sabab bo'lmoqda. Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhitidagi holatlar va omillar alohida o'rin tutadi: Birinchidan: ota-onalarning jamoatchilik faoliyati ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari bola tarbiyasiga ta'siri kuchli bolar ekan. Ikkinchidan: oila ichidagi

munosabatlari ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buvisiga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari. Uchinchidan: ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati. To'rtinchidan: oilada bolalarning ta'limga munosabatlari va ijtimoiy normalarni bajarishlari va boshqalar. Demak oila muhitini uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratish imkoniyati tug'ildi. Bu esa, oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganishda "baxtli bolalik - bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir", degan xulosaga kelindi. Shu asosda oilada farzand tarbiyasiga yondashishning oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib berish mumkin. 1. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan, qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallarni har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi. 2. Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi, u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining muvosiisiz pozitsiyalari ko'pincha ularning fe'l-atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissiga, muayyan majburiyatni bajarishgina oila



a'zolarini o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi. 3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalarda ko'pincha ishchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishiga qaratilgan boladi. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarining korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlangan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish haqi miqdori bilan o'lchanadi. Oila boshlig'ining zo'ravonligi, zolimligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishlik, sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a'zolari farovonligini poymol qilishga intilishi va hokazolar ustun bo'ladi. Meshchanlik ideali va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o'qish ijtimoiy turmush faoliyatida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi. Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan xudbin, qo'rqqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqishi mumkin. Jumladan, har bir oila a'zolarining yashayotgan mikromuhitda tutgan o'rni va erishgan obro'li, oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning farzandlarga nisbatan muomalalari, turli yoshdagi farzandlarning o'zaro muloqoti, ularning ota-onalarga munosabatlari, oila a'zolarining begona kishilar bilan muloqotga kirishishi xususiyatlari, ular o'rtasida o'zaro yordam va birdamlilik xususiyatlari, uy-ro'zg'or yumushlari taqsimoti, xordiq chiqarish, oila a'zolarida muloqot ko'lamining kengayishi kabi shaxslararo munosabatlarning rang-barang jihatlarini oilada bola ongiga sngdirish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, axloqiy-ma'naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma'naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta'minlanganligi, turli ko'rinishdagi faoliyatlari, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilada farzand tarbiyasini samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biz mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy, tahliliy natijalarni qo'lga kiritdik:

Sog'lom bola oilada shakllanadi va kamol topadi. Bu o'rinda ota-onaning psixologik-pedagogik bilimi, dunyoqarashi hamda madaniyati yetakchi omil hisoblanadi. Har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi, buning uchun

esa ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - Toshkent, O'qituvchi, 1995.
2. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2007
3. Ziyonet.uz

---

## TARBIYASI OG'IR BOLALAR SHAXSINING SHAKLLANISH OMILLARI VA ULARGA PSIXOLOGIK YECHIMLAR

*Matmuratova Dilfuza Kopjursinovna*  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani 40-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarbiyasi og'ir bolalar shaxsining shakllanish omillari va psixologik yechimlar haqida ma'lumotlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, farzand, nosog'lom muhit, bola, ota-ona, ta'lim, tarbiya, salbiy illat, sharoit.

Bugun barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi og'ir va noqobil farzandlar mavjud bo'lib, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlash azaldan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra shaxsning genetik xususiyatlari, tug'ma kasallik va xususiyatlar ham uning xulq-atvoriga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatar ekan. Shu bilan birga, bu muammoning kelib chiqishiga bir qancha tashqi sabablar ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, televizor, kompyuter, internet axborotlari, kattalarning

e'tiborsizliklari, oiladagi krizis va boshqalar. Mazkur omillarni inkor etmagan holda ushbu muammoning asosiy sabablarni bolaning psixik shakllanishidan ham qidirish mumkin.

Tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, u inson dunyoga kelishidan to umrining oxirigacha davom etadi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqe – hodisalar shaxsga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin va bu uning shaxsiy fazilatlarining shakllanish darajasini belgilab beradi. Bu esa ta'lim sohasi oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoning yuzaga kelishi sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tibor qaratish lozim. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, oxirgi paytlarda “tarbiyasi og'ir” bolalar bilan bog'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular soning keskin oshganligi tasdiqlanmoqda. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi ( uzluksiz televizor ko'rish, kompyuterda xar hil o'yinlar o'ynash, internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirish ) yoki kattalarning e'tibori, oiladagi iqtisod va hokazolar. Amerikalik amaliyotchi pedagoglar tomonidan pedagogik xizmat doirasida bola tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish lozimligini ta'kidlashgan. Buning uchun bolaning o'zini o'zgartirishga tayyorlash, ya'ni: tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslik; turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim. Olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahmiyatga ega. Inson tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch – ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir.

Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Ma'lumki odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq

bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi deb izoh beriladi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

Boladagi salbiy illatlarni oldini olishda va bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim;

- Bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak;

- “Tarbiyasi og'ir” bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

- Maktab hududida ko'cha-ko'yda, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

- Bolaga bo'sh vaqtdan unimli foydalanish yo'llarini o'rgatib borish va uni nazorat qilish;

- Ijtimoiy foydali mehnat turlaridan unimli foydalanish;

- Bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda to'g'araklarga qatnashtirish;

- Ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlari, yutuqlari, shu yutuqlarga erishish uchun kurashlari kabilarga e'tibor qaratish;

- Barcha darslarda o'sh tarbiyasi og'ir bolani iloji boricha bir daqiqa ham nazardan qoldirmaslik. Ota-onalarni psixologik bilimlardan xabardor bo'lishini ta'minlash va maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar: har-xil kechalarda, o'z tengdoshlari davrasida, o'rtoqlari orasida unga so'z navbatini berish, ularda faol bo'lishini ta'minlash;

- Gazeta, radio, televideniya va jurnallardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;

- Rag'batlantirish metodlarini ishlatib ko'rish. Lozim topilganda olgan baholarga yarim ball, bir ball qo'shish, yutuqlarinisinfda, maktabda me'yorida ta'kidlab qo'yish lozim.

- Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o'ralashib kirib qolgan bo'lsa, uni tezlik bilan o'sha davradan ajratib olib, so'ng o'sha tarbiyasi og'ir bolani “yaxshi” va “a'lo” baholarga o'qiydigan intizomli o'quvchilarga birlashtirib qo'yish kerak.

Bugungi kunda o'quvchilar tarbiyasidagi ijobiy o'zgarishlarni har damda sezish mumkin. O'zbekistonni butun jahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash muhim omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda. "Kelajakka qanday yoshlar kerak? Ularni qanday tarbiyalash lozim?" degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Bola maktab ostonasiga qadam qo'ygunga qadar oiladagi olti, yetti yillik hayoti mobaynida oila birinchi darajali tarbiyachi ekanligini ham nazarda tutish lozim.

Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o'zlaricha baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo'ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydi. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol totirgan oilalardagi sofdillik, samimiylik, bir-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarni kamol topishiga sabab bo'ladi. Ahil oilada bolaning xulq-atvori me'yorlari to'g'risidagi tasavvuri ota-onalarning hulqi bilan uyg'un bo'lsa farzandlarini oqilona so'rab – tergap tursalar bu uydan tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichi qoralik, loqaydlik, ma'naviy zaiflik, insoniy munosabatlardagi qashoqlik, ahloqiy nopoklik hukm surgan oilalarda o'sgan bolalarning tarbiyasi ko'pincha izdan chiqadi. Bola yaxshilik va yomonlikka, haq va nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushinish mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushunmaydi.

Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolani ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Ruhiy holat insonning biron – bir tarzda ta'sir etuvchi xatti-harakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotsional bahodir.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehda ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlik ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsiga tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv(nafrat) va passiv(g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilova N.G'. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 105 b
2. G'oziyev E.G'. "Pedagogik psixologiya" – Universitet. Toshkent – 1997 134 b
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

---

## ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Duschanova Nasiba Ollaberganovna*  
*Xorazm viloyati Shovot tumani 6-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ilk o'spirinlik davrida intellektual rivojlanishning psixologik xususiyatlari haqida bir qator ilmiy-psixologik mulohaza va ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, albatta ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

**Kalit so'zlar:** O'spirinlik davri, bilish jarayonlari, o'quvchi, ta'lim, intellectual rivojlanish, ilmiy tushuncha

Ilk o'spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo'ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo'lib boradi. Ular bu yoshga kelib jiddiy ishlarga ko'p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o'yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning bilish jarayonlari turli nuqtayi nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tom onlam fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o'qishga ongli munosabatda bo'lishning o'sishi bilish

jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi. Bu yosh davrining oxiriga borib, o'quvchilar o'zlarining bilish jarayonlarini to'la-to'kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo'ysundiradilar. Ular axloqiy va siyosiy va boshqa mavzular bo'yicha erkin fikrlaydilar. Ilk o'spirinlarga umumiydan xususiyga, xususiyan umumiyga xulosa chiqarish, ya'ni induksiya va deduksiya xosdir. Ilk o'spirinlar ko'pchilik ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, turli masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanishni o'rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so'z-mantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bolib boradi. Shaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. Shu bilan birga N.D.Levitov ko'rsatib o'tganidek, o'spirinlar o'z kuzatishlarida parashonxotir bo'lmasliklarini, kuzatishni o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarga bo'ysundirishlarini, yetarli darajada to'plangan faktlar to'planmaganlarga xulosa chiqarishga shoshilmasliklarini nazorat qilib borish zarur. Ilk o'spirinlarning o'quv faoliyati ularning faolligi va mustaqilligiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Xotirani rivojlantirishda mavhum so'z-mantiq xotira, ma'nosi o'ziga tushunib esda olib qolishning roli sezilarli darajada ortadi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsa-da, ixtiyorsiz esda olib qolish ham ilk o'spirinlar tajribasidan chiqib ketmaydi. U faqat o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, ilk o'spirinlarning qiziqishlari, xususan ularning bilishga oid va kasb tanlashga oid qiziqishlari bilan ko'proq bog'lanadi. Shu bilan birga faol ravishda bilim egallash, o'qish va jamoat faoliyatida har holda ixtiyoriy xotira yetakchi rol o'ynaydi. So'zma-so'z yodlab olish alohida hollarda zarur ekanligini o'quvchilar yaxshi tushunadilar. Ilk o'spirinlar esda olib qolish usullaridan — rejalarni va tekstning sxemalarini, konspektlarni tuzish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va ostiga chizish, ilgari ma'lum bo'lgan fikrlarga taqqoslash, solishtirish usullaridan o'spirinlarga qaraganda beqiyos darajada keng suratda foydalanadilar. Ular esda olib qolishga alohida-alohida yondashadilar. Qiziqishlarning differensiyalashganligi diqqatning tanlovchanligini, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatning roli ancha ortishini belgilab beradi. Ilk o'spirinlarda ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqatning ham ahamiyati ortadiki, ular o'quv materialini bilan bevosita qiziqmasdan, o'rganilayotgan hodisalarning hayotiy ahamiyatini tushunib, unga diqqatlarini qaratadilar. Diqqatni

ko'chirish va taqsim lash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirgan narsalarini ham tinglash, ham yozib borish, o'z javobining mazmunini kuzatib borish mahoratining shakllanishida o'z aksini topadi. Ilk o'spirinlar o'quv ishlari jarayonida o'zlariga ta'sir qiladigan chalg'ituvchi narsalarga o'smirlardan ko'ra ko'proq qarshi turishga, bardosh berib yengishga qobildirlar.

Ilk o'spirinlarning ayrimlarida diqqatning tanlovchanligi shu narsada ham ko'rinadiki, ular o'quv materialini idrok qilar ekanlar, hamma vaqt uning ahamiyatiga baho berishga, uni amaliy jihatdan ahamiyatligi nuqtayi nazaridan idrok qilishga harakat qiladilar. Agar unga material muhim bo'lib tuyulm asa, u o'z diqqatini susaytiradi. Shunisi qiziqki, diqqatning bu o'ziga xos harakati ko'pincha atayin ro'y bermaydi. Odatda ilk o'spirinning diqqati shu sohadagi muayyan bilimlarni amalda tatbiq etish haqida gap borgan vaqtdagina ixtiyorsiz ana shu predmetga qaratiladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularni tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlari muvohaza yurgizib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va o'zlarining fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. Bu davrda bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, O'spirinlar to'laravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o'z munosabatlarini bildiradilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammalarni yechishda foydalana oladilar. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarining o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z



-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. Ular voyaga yetib boradilar, ularning tajribasi ortadi; ular mustaqil hayot bo'sag'asida turganliklarini anglaydilar.

Bilimlarga ehtiyoj sezish hozirgi vaqtda ilk o'spirinlarning xarakterli xususiyatlaridan biridir. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, O'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar. O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish tobora amaliy xususiyat kasb etga boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi.

Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bolib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun o'qish faoliyatlarida faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o'stirib borish kerak bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Возрастные возможности усвоения знаний. - М: Просвещение, 1966. -442с
2. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
3. Nishanova Z.T., Dusmuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T.: Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmaxonasi. 2013. -344 b.

## УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИДА ДИҚҚАТНИ ЖАМЛОВЧИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Абдусамадова Муқаддас Хамидулла қизи  
Чилонзор тумани 162-мактаб психологи*

**Аннотация:** Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Билим олиш жараёнида мустақил ақлий меҳнат қилиш, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш иродавий зўр бериш жараёнида ихтиёрий, онгли диққат таркиб топади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шакллана бошлайди.

**Калит сўзлар:** Таълим жараёни, кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар, ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққат, билим, жараён, мустақил ақлий меҳнат, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш, ихтиёрий, диққат, ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, тақсимлаш, бошқариш.

Бошланғич синф ўқувчиларида диққатни иродавий зўр бериш билан бошқариш ва вазиятга мослаш имконияти яхши бўлмайди. Бунинг асосий сабаби, уларда ихтиёрий диққатнинг кучсизлиги ва беқарорлигидир. Болаларда ихтиёрсиз диққат кўпроқ ривожланган бўлади. Бошланғич синф ўқув материалларининг яққоллиги, эркинлиги, жозибadorлиги, ўқувчида беихтиёр хис-туйғулар уйғотади, иродавий зўриқишсиз, осонгина фан асосларини эгаллаш имконини беради. 1-2 синф ўқувчилари диққатининг ўзига хос хусусиятларидан бири, унинг етарлича барқарор эмаслигидир. Шунинг учун ҳам улар диққатларини муайян нарсаларга қарата олмайдилар ва диққат объектда узоқ тура олмайди. Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шакллана бошлайди.

Кичик мактаб ёшидаги бола маълум даражада ўз фаолиятини ўзи мустақил ривожлантира олади. У ўз режасини, у ёки бу ишни қандай кетма-кетликда бажаришини сўз билан ифодалаб бера олади. Режалаштириш сўзсиз боланинг диққатини ташкил эта олади ва ривожлантиради. Уларда ихтиёрсиз даққат устунлик қилади. Кичик мактаб ёшидаги болалар сўзсиз ўз диққатларини интеллектуал масалаларга қарата оладилар, лекин бу жуда катта иродавий кучни ва юқори мотивацияларни ташкил этилишини талаб қилади. Боланинг диққати теварак-атроф таасуротлари, тасвирий санъат асарларини етарли даражада акс эттиришда вужудга келади. Кичик мактаб ёшидаги бола ўқитувчиси билан мустаҳкам эмоционал боғлиқ бўлади. Мактаб таълими ўқувчининг турмуш тарзини ижтимоий мавқеини синф жамоаси ва оила муҳитидаги аҳволни ўзгартиради, унинг вазифаси ўқишдан, билим олиш, кўникма ва малакаларини эгаллаш, ўзлаштиришдан иборат бўлиб қолади. Кичик мактаб ёшидаги боланинг муҳим хусусиятларидан бири унда ўзига ҳос эҳтиёжларнинг мавжудлигидир. Бу эҳтиёжлар ўз моҳияти билан муайян билим, кўникма ва малакаларни эгаллашга қаратилмай, балки фақат ўқувчилик истагини акс эттиришдан ҳам иборатдир. Шу эҳтиёжлар асосида ўз портфелига, шахсий ўқув куролларига дарс тайёрлаш бурчагига, китоб қўйиш жавонига эга бўлиш, катталардек ҳар куни мактабга бориш истаги ётади.

Кичик мактаб ёшидаги бола ўзининг туб моҳияти ва вазифасини тушуниб етмайди, балки ҳамма мактабга бориши керак деб тушунади. Аммо у катталарнинг кўрсатмаларига амал қилиб тиришқоқлик билан машғулотларга киришиб кетади. Орадан маълум вақт ўтгач шодиёна лаҳзаларнинг таассуроти камайиши билан мактабнинг ташқи белгилари ўз аҳамиятини йўқота боради ва бола ўқишни кундалик ақлий меҳнат эканлигини англайди. Шунда бола ақлий меҳнат кўникмасига эга бўлмаса, унинг ўқишдан кўнгли совийди, унда умидсизлик ҳисси вужудга келади. Ўқитувчи эса бундай ҳолнинг олдини олиш учун болага таълимнинг ўйиндан фарқи, қизиқарлилиги ҳақида маълумотлар бериши ва уни шу фаолиятга тайёрлаши керак. Таълимнинг мазмуни ўқувчининг билимларни эгаллашга қизиқиши ўз ақлий меҳнати натижасидан қаноатланиш ҳисси билан

узвий боғлиқдир. Бу ҳис ўқитувчининг рағбатлантириш билан амалга оширилади ва ўқувчида самаралироқ ишлаш мойили, истаги ва иштиёқини шакллантиради. Болада пайдо бўлган фахрланиш ўз кучига ишониш ҳислари билимларни ўзлаштириш ва малакаларни ривожланишига хизмат қилади.

"Бола-катта" муносабати, "бола-ота-она" муносабатидан ташқарида юзага келади. Чунки, ўқитувчи болага ота-онага нисбатан кўпроқ равишда норматив талаблар қўяди. Биринчи бор мактабга келган бола ҳали ўзини тўлиқ англаши ва ўзи ҳатти-ҳаракатларини аниқ билиши қийин. Бошлагич синфда ўқувчилар ўқитувчи томонидан қуйиладиган янги шартларни қабул қиладилар ва уларнинг қоидаларига тўла амал қилишга ҳаракат қиладилар. Бола учун ўқитувчи унинг психологик ҳолатини белгилаб берувчи асосий фигура ҳисобланиб. Бу ҳолат унинг нафақат синфдаги балки умуман тенгдошлари билан бўладиган муносабатига бу муносабат эса ўзўзидан оиласидаги муносабатларига таъсир кўрсатади. Шунингдек, бу муносабатлар, унинг ўқув фаолияти муваффақиятини ҳам белгилаб беради. Бу даврда болаларнинг билимлари кенгайди ва чуқурлашади, кўникма ва малакалари такомиллашади.

3-4 синфга бориб кўпчилик болаларда умумий ва маҳсус лаёқатлар кўзга ташланади. Кичик мактаб даврида ҳаёт учун ниҳоятда аҳамиятли бўлган муваффақиятга эришиш мотиви мустаҳкамланади, бу эса ўзўзидан бошқа лаёқатларни жадал ривожланишига олиб келади. Бу ёшдаги болаларда идрок, диққат, хотира, тафаккур ва нутқ тўлиқ шаклланиб бўлгани учун ҳам уларга таълим беришда катталарга қўлланиладиган услублардан фойдаланиш мумкин. Кичик мактаб ёшидаги болалар психик ривожланишда, уларнинг атрофидаги шахслар, ота-онаси ва айниқса ўқитувчи билан бўладиган муносабати орқали эришиши мумкин. Хулоса қилиб, шуни айтамикки ўқувчилар ўртоқлари билан муносабатларини, катталар таълим-тарбия мақсадларида фойдаланишлари мумкин. Бу ёшдаги болалар соатлаб ёлғиз ҳолда севимли машғулотлари билан шуғулланишлари мумкин ва шу асосда уларда меҳнатсеварлик ва мустақиллик фазилатлари шаклланади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Адизова Т.М., Тўлаганова Г.К. Мактаб психологининг ўзлаштира оловчи бошланғич синф ўқувчилари билан амалга оширадиган психологик коррекцион ишлари. Бу тўпланда: Мактабда психологик хизматни ташкил қилиш муаммолари. –Т.: ТДПУ. 1994. Б. 18-32.
- 2 Нишанова З.Т., Психодиагностика ва экспериментал психология 2014.й
3. Нишанова З.Т., Ходжакулова Д.И., Алимова Қ.Г. Психогигиена. Баёз нашриёти. Тошкент 2013 йил.

---

## KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUVCHI-SHAXSINING PSIXOLOGIK VA JISMONIY RIVOJLANISHI

*Allaberganova Fazilat Shakirbayevna  
Xorazm viloyati Urganch shahar 24-sonli ixtisoslashtirilgan  
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Bolalarda — “Men” tushunchasi jamiyatga ijtimoiylashuv nuqtai nazari bilan ilk bolalik, kichik maktab yoshi, katta maktab yoshi davrlarida faol va keng tus oladi, faoliyatning amaliy predmetli jihatlari jadal o'sish jarayonadi. Ularda “Men” va jamiyat nuqtai nazari vujudga kelishi maktabgacha va o'smirlik davrlariga to'g'ri kelib, ularning ijtimoiy xatti-harakat majburiyatlarini, qoidalarini o'zlashtirishlari va boshqa shaxslar bilan munosabat o'rnatishlari, o'zaro muloqotga kirishishlari bilan ifodalanadi. Ana shu murakkab ijtimoiy-psixologik harakatlarga asoslangan D.I.Feldshteyn bolaning ijtimoiy o'sishdagi jamiyatga munosabatini asosiy (bosh) va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish orqali amalga oshadi. Asosiy munosabat - insonning kamol topishida keskin siljish nuqtalari paydo bo'lishi, ichki sifat o'zgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, D.I.Feldshteynning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarni ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishining hususiyatlari quyidagicha namoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu davrlarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning psixikasida hamda jismoniy rivojlanishida sezilarli darajada o'zgarishlar vujudga keladi.

Kichik yoshdagi o'quvchi maktabgacha yoshdagi bolalarga va o'zidan kattaroq yoshdagi bolalarga nisbatan bir qancha jismoniy xususiyatlarga egadir. Kichik maktab yoshida suyak tizimi mustahkam bo'lib qolgan bo'lsa-da, biroq suyaklarini qotishi jarayoni xali tamomlanmaydi. Shuning uchun bolalardan mashg'ulotlar davomida partada to'g'ri o'tirishini talab qilib, ana shu holga e'tibor berish kerak. Bolalarni ko'p yozish bilan charchatib qo'ymaslik kerak, chunki xali ular qo'l barmoqlari va panjani aniq harakat qildirishda qiynaladilar. Ularning yurak-tomir tizimi sistemasi xali yetarli, darajada rivojlanmagan bo'ladi, shuning uchun o'quv mashg'ulotlari va o'yinlar davomida toliqtirib qo'yishga yo'l qo'ymaslik kerak. Miyaning funktsional takomillanishi yuzaga keladi - miya po'stining analitik va sintetik funktsiyasi rivojlanadi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabati sekin-asta o'zgaradi; tormozlanish protsessi ustunlik qiladi, shuning uchun kichik maktab yoshidagi bola yuksak darajada qo'zg'aluvchidir.

7 yoshdagi bolaning jismoniy taraqqiyotini unchalik zo'r bermasdan va unchalik toliqtirmaslik 3-5 soat dars mashg'ulot o'tish va uy vafalarini bajarish imkonini beradi. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan yangi hayot faoliyatiga, yangi muxit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak atrofdagi narsalarga munosabati ham o'zgaradi. Endi u o'quvchi degan sharafli nomga ega uning muayyan vazifalari va o'quvchilik burchi bor. Bu yoshdagi bola maktab qoidalariga rioya qilishi, dars mashg'ulotlariga

kechikmay o'z vaqtida yetib kelishi, darsda o'qituvchining tushuntirayotgan materiallarini tinglab uqib olish, topshiriqlarni o'zi bajarishi lozim. Darsda o'zini qanday tutishi, gigiena va tozalikka rioya qilishi o'qituvchi va kattalar tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalarni so'zsiz bajarish, jamiyat orasida o'zini qanday tutishi, lozimligini bilishi kerak. Yashash sharoitidagi bunday o'zgarishlar bola psixikasining o'sishiga, xulq atvoriga, shaxsning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Maktabga kirish bolaning hayotida uning faoliyatida burilish davri hisoblanadi.

Kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bola butun bir yangi jamoalar tizimiga qo'shiladi. O'quvchi oldiga bir qator jiddiy talablarni qo'yadigan o'qishga- yangi faoliyat turiga qo'shilishi o'quvchilarni o'z hayotini qa'tiy tarzda tashkil qilishdagi qonun va tartibga bo'ysunishga majbur qiladi. O'quvchi ta'lim jarayonida axloqiy normalar va xati-harakat qoidalarini o'zlashtira boshlaydi. Kichik maktab yoshi davrida axloqiy xatti-harakatlarga poydevor qo'yiladi. Psixologik qayta qurilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ayniqsa, I-sinf o'quvchilarida qiyinchiliklarni paydo qiladi. Bu qiyinchiliklar:

- Birinchi sinf o'quvchilari ko'p harakatlarni intizom qoidalari talab qilgan darajada chaqqonlik bilan, sifatli qilib bajara olmaydilar. Lekin o'qish faoliyati doimiy ravishda intizom qoidalariga rioya qilishni, 35-45 minutlik darslarda sabr-toqat bilan o'tirishni, o'zini- o'zi tuta bilishni talab qiladi.

- Ta'limning butun mazmuni boladan ixtiyoriy jarayonlarini: ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy idrok, xotirani rivojlangan bo'lishini taqozo qiladi. Lekin bolada hali bunday jarayon yetarli rivojlangan bo'lmaydi.

- O'quvchi mustaqil fikr yuritishi, vazifalarni mustaqil bajarishi lozim. Bu xususiyat hamma bolalarda ham birdek rivojlanmaydi.

- Bola o'z burchini anglagan bo'lishi, yaxshi o'qishi va yaxshi intizomga ega bo'lishi, intizom qoidalariga rioya qilishni, uyga berilgan vazifalarni bajarishi uning burchi ekanligi his qilishi kerak.

Ayni paytda har bir shaxsning o'quvchining individualligini hisobga olish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nishonova Z., Asqarova N.A. va boshq. O'quvchilarda past o'zlashtirish

diagnostikasi va psixokorreksiya. Toshkent, 2014.

2. Sunnatova R.I., Karimova V.M., Tadjibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. Toshkent: Sharq.-2000. - 112 b.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCHNI SHAKILLANTIRISHDA INDIVIDUAL HUSUSIYATLARINI TADQIQ QILISH**

*Allaberganova Fazilat Shakirbayevna  
Xorazm viloyati Urganch shahar 24-sonli ixtisoslashtirilgan  
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Bolalarning tetiklik, yorqinlik va konkretlikdan mahrum bo'lmagan tasavvurlari sekin–astalik bilan yanada aniqlashadi, o'quv predmetlari, bolalar o'qigan kitoblarning mazmunini borgan sari to'g'ri aks ettiradi, hamda uzuq–yuluqlik va fragmentorlikdan ozod bo'lib, bir sistemaga birlashadi. O'tmishdagi tajribalardan olingan taassurotlarini qayta ishlash va o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan hamda ularni yangi obrazlarga, kombinatsiyalarga birlashtirishdan iborat yangi obrazlar hosil qilish sifatidagi ijodiy xayol ham yanada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi xayolida voqelikka zid bo'lmagan obrazlar borgan sari ko'proq paydo bo'ladi. Bu esa bolada tanqidiy baholash qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shunday qilib kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xayoli bir tomondan, bevosita tassurot ta'siridan sekin–asta ozod bo'ladi, mana shuning o'zi bola hayotiga ijodiy xarakter bag'ishlaydi. Ikkinchi tomondan mazkur o'quvchilar xayolining rivojlanishi ya'ni uning realligi xayol obrazlarini mantiqiy ravishda ob'ektiv olam qonunlari asosida nazorat qilish hamda baholash qobiliyati rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan realligi kuchayadi.

Ta'limning dastlabki bosqichida bolani umumlashtirishi juda sodda bo'ladi va faqat o'xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratishi va tasniflashga, narsa va



hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog'lanish va munosabatlarning muhim belgilari bo'yicha umumlashtirishga o'tadi.

Tajribali o'qituvchi o'z o'quvchilarining temperamentidagi individual xususiyatlarni aniqlab oladi va ular bilan qilinadigan ishni tegishli tarzda yo'lga qo'yadi. Temperament tipi tug'ma sifat bo'lganligi sababli temperamentni tarbiyalash ishini iloji boricha ertaroq boshlash kerak. Bunday ish uchun kichik maktab yoshi juda qulay davrdir. Maktabda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiyaviy ish bolalar temperamentidagiba'zi salbiy xususiyatlarni tuzatadi. Xoleriklarni ancha o'zini tutgan, sangviniklarni o'zlariga ancha ishonadigan va atrofdagilar bilan ko'proq muomala qiladigan bo'lib qoladilar. Maktab intizomi shuningdek, jismoniy tarbiya va boshqa sog'lomlashtirish tadbirlari temperamentni hamma tiplariga foydali ta'sir ko'rsatadi. Temperament ustida ishlash odamda o'z temperamentning qo'liga aylanib qolmaslik, balki uni idora qila bilish imkoniyatlarini beradigan iroda va mustaxkam xarakterni tarbiyalash bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi.

Kichik maktab yoshdagi davrida xarakter endigina tarkib topa boshlaydi. Bolalardagi xakteriologik xatti-harakatlar o'zining beqarorligi va qarama-qarshiligi bilan farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan ba'zan ulardagi o'tkinchi psixik holatlarni xato ravishda xarakter xislatiga qo'shib yuborish mumkin. Bu davrda o'quvchilarning xatti – harakatlarida oliy asab faoliyatining tipologik xususiyatlari ancha aniq va yorqin namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar keyinchalik borib odatda hayotda tarkib topgan xatti – harakatlarning odatdagi shakllari bilan qorishadi. Uyatchanlik, tortinchoqlik asab tizimi kuchsizligining bevosita ko'rinishida bo'lishi mumkin. Impulsivlik, o'zini tuta bilmaslik-tormozlanish jarayonining kuchsizligi natijasida namoyon bo'lishi mumkin.

Reaksiyaning bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatdan ko'chishning sustligi-asab tizimining kam harakatchanligi natijasida namoyon bo'lishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi xakteri o'zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Dastavval ular xakterninng impulsivligi (beixtiyorligi) ularning o'ylamasdan va barcha xolatlarini hisobga olmay bevosita impulslar, mayllar va tasodifiy sabablar ta'siri ostida darxol harakat qilishga moyilligi yosh munosabat bilan xatti –

harakatlarni iroda orqali boshqarishning sustligi va faol tashqi vaziyatga bo'lgan ehtiyojdir. Shuning uchun kichik maktab yoshdagi o'quvchilar tomonidan maktabning ichki tartibini buzish hodisalarini intizomsizlik deb tushuntirib bo'lmaydi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilar xarakteridagi ko'p uchraydigan kamchiliklar, ya'ni ularning injiqligi va qaysarligi oila tarbiyasidagi nuqsonlar oqibatidir. Bunday bola o'zining barcha talab va xohishlari qondirilishiga odatlanib qolgan bo'ladi. Bolalarning xarakteriga xos yosh xususiyatlariga mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik, to'g'rilik ishonuvchanlik kabi ijobiy xislatlar ham kiradi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning muhim yosh xususiyatlaridan biri taqlidchanlikdir. Ular katta yoshli kishilarga va ba'zi tengqurlariga, shuning bilan birga yaxshi ko'rgan kitoblari va kinofilmlardagi qaxramonlarga taqlid qilishga intiladilar.

Kichik maktab yoshdagi davr xarakterining ijobiy xislatlarini tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga egadir. O'quvchilarning tez ko'nikuvchanligi va ma'lum darajada ta'sirchanligi, ulardagi ishonuvchanlik, taqlid qilishga moyillik, o'qituvchining ular orasida juda katta obro'si borligi tarbiyaviy ishning asosini tashkil qiladi va o'qituvchi o'z ishi faoliyatida bularga amal qilishi zarur. III sinf ta'limning boshlariga kelib tobora ortib borayotgan talablar ta'siri va to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya ishlarining ta'siri bilan kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intizomlilik, hamda batartiblilik tarkib topadi. O'quvchilarda III – IV sinflardan boshlab burch hissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo'la boshlaydi. Ammo bu yoshdagi burch hissi hali yetarli darajada barqaror va batamom mustaqil bo'lmaydi. Maktab ta'limi boshidan bola ikki tomonlama ham oilada, ham maktabda tarbiyaviy ta'sir ostida bo'ladi. Shu sababli tarbiyaviy ta'sirlarning, bir xil yo'nalishda bo'lishi komil shaxsni tarbiyalashga asos bo'ladi.

Maktab va o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga ta'lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini ham o'stirishdir. Qobiliyatlarni o'stirishda o'quv ishining ahamiyati nihoyatda kattadir. Bolalardagi qobiliyatlarning borligi haqida, avvalo ularning qanday o'qishlariga o'quv materialini qanday tushunishlariga, eslab

qolishlariga, o'z bilimlarini qo'llay bilishlariga, masalalarni yechishda qanchalik puxta fikr yuritishlariga, yozma va og'zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab xukm chiqarish mumkin. Quydagi sifatlar: ziyraklik, tez va puxta eslab qolish, o'ylay olish, topqirlik, rivojlangan hayol, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik va uning mahsuldorligi bolalar qobiliyatlarining ba'zi bir ko'rsatkichlari bo'lishim mumkin. O'qituvchi bolalar bilan har bir ishda tashabbus va ijodkorlik ko'rsatkichlarida ularni har jihatdan rag'batlantirib turish kerak. O'quvchi qiynalib qolganda unga yordam berishga shoshilish yaramaydi, qiyinchiliklarni asta – sekin oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalar undan aqlni zo'r berib ishlatishni talab etishi darkor. Biroq maqtab o'quvchilariga individual tarzda yondoshish, ulardagi tafovutlarni hisobga olish, ularga differentsiatsiyalangan topshiriqlar berish zarur. Kuchli o'quvchilarning darsda zerikib qolmasliklari va uyda yetarlicha ish bilan band bo'lishlari uchun ularga qo'shimcha ish berish zarur. Bo'sh o'quvchilarga ko'proq yordam berish, ularning oldiga qo'llaridan keladigan talablar qo'yish, ularga muvaffaqiyat bilan bajara oladigan yengillashtirilgan turdagi topshiriqlarni berish kerak. Bunday o'quvchilarni tez-tez maqtab turish, ishda erishgan arzimagan yutuqlarini ham nazarda tutish lozim bo'ladi, bu ularni o'z kuchlariga ishonadigan va o'qishni istaydigan qiladi. Ota-onalar va katta bolalarni bo'sh o'quvchilarga muntazam ravishda yordam ko'rsatish ishiga jalb etish darkor. Odatda bunday tadbirlar yaxshi yordam beradi, bolalar boshlang'ich sinfni mavaffaqiyat bilan tugallaydilar va o'rta maktabda qoniqarli o'qiydilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev E.G'. Intellect psixologiyasi. T., 1996.
2. G'oziyev E.G'. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. Toshkent, 2002.
3. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 2002.

## SHAXS RIVOJLANISHIDA MOTIVATSIYA VA HIMOYA MEXANIZMLARINING AHAMIYATI

*Yusupova Dilfuza Muxammadjonovna*  
*Andijon viloyati Baliqchi tumani 36-maktab psixologi*

Motivatsiya va motivlarni o'rganish muammosiga xorijiy va mahalliy psixologiyada ko'plab nazariyalar bag'ishlangan. Mahalliy psixologiyada motivatsiya muammosi bilan V.G. Aseev A.N. Leontiev, V.I. Kovalev, M.Sh. Magomed-Eminov, P.V. Simonov, D.N. Uznadze, V.S. Merlin, M.G. Yaroshevskiy, V.K. Vilyunas va boshqalar. Chet el psixologiyasida bu A. Maslou, X. Xekxauzen, G. Xoll, J. Atkinson va boshqalar. Ham xorijiy, ham mahalliy tadqiqotlarda, motivatsiya fenomenini ta'kidlagan holda, ko'plab psixologlar motivatsiya jarayonlariga maqsad qo'yish, qaror qabul qilish jarayonlari, kognitiv jarayonlar kiradi! Yutuq motivatsiyasining barcha nazariyalari qaror qabul qilish jarayonlari, oqibatlarni baholash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Motivatsiya nazariyasining rivojlanishi, asosan, muvaffaqiyat motivatsiyasi nazariyasining rivojlanishi misolida ko'rib chiqiladi. Buning sababi shundaki, bugungi kunda muvaffaqiyat motivatsiyasi sohasi eng rivojlangan va unda motivatsiyaning rasmiylashtirilgan modellari ishlab chiqilgan.. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy motivatsiya psixologiyasida motivatsion, xulq-atvor o'rtasidagi aloqalarni doimiy ravishda izlash mavjud. murakkab psixologik yaxlitlikning ruhiy va shaxsiy jihatlari Motivatsiya (Magomed-Eminovning dinamik modelida) - bu shaxsiy va vaziyat parametrlarini bog'laydigan jarayon! tegishli motivni amalga oshirish uchun ob'ektiv vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni tartibga solish yo'lida, ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun.

Shaxsning atrof-muhitga sub'ektiv munosabati. Motivatsiya tizimli-dinamik modelda ko'rib chiqiladi, u quyidagilar bilan tavsiflanadi

Xususiyatlari:

1) murakkab tizim sifatida tarkibiy qismlar va tuzilmalardan iborat, ya'ni. ma'lum mazmun va ichki tashkilotga ega;

- 2) motivatsiya protsessual dinamikaga ega - motivatsion davrlar mavjud!, aloqalar, bosqichlar!;
- 3) motivatsiyaning o'zi murakkabroq metatizim - faoliyatning elementi bo'lib, uning mohiyatini mexanizmlarini tahlil qilishdan kelib chiqadi;
- 4) motivatsiya - samarali va kognitiv jarayonlar ichki birlikda va o'zaro vositachilikda bo'lgan funktsional tizim.;
- 5) motivatsiya "aqliy tizim" [L.S. Vygotskiy, 1983], ya'ni. faoliyatni tartibga soluvchi psixik jarayonlarning alohida turi [M.Sh. Magomed-Eminov, 1991].

Insonning ma'lum bir faoliyatni qanday bajarishini tushunishda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa uning yonida kimdir xuddi shu narsani qilayotganda, muvaffaqiyatga erishish motividan tashqari, tashvish ham rol o'ynaydi. Anksiyete fenomenining eng mashhur tadqiqotchilari K. Spilberger, G. O'Neill, D. Hansen.. Turli vaziyatlarda tashvishning namoyon bo'lishi bir xil emas!. Ba'zi hollarda, odamlar moyil bo'ladi! hamma joyda va har doim o'zini tashvishli tutadi, boshqalarda ular vaziyatga qarab o'z tashvishlarini vaqti-vaqti bilan ko'rsatadilar. Anksiyetening situatsion barqaror ko'rinishlarini shaxsiy va odamda mos keladigan shaxsiy xususiyatning mavjudligi bilan bog'liq ("shaxsiy tashvish" deb ataladigan) deb atash odatiy holdir. Vaziyatga qarab o'zgaruvchan ko'rinishlar Anksiyete situatsion deb ataladi va bunday tashvishni ko'rsatadigan shaxsiy xususiyat "vaziyatli tashvish" deb ataladi. Shu sababli, reaktivlik darajasi, shaxsiy tashvish va ekstraversiya darajasi deb taxmin qilish mumkin.

- introversiyalar asab tizimining xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Vaziyat, shaxsiy tashvish va moyilliklarni o'rganish psixologik nazariya va amaliyot uchun juda muhimdir.

Psixologik himoyani bilish va xavotir muammosini o'rganish bugungi kunda juda dolzarb. Mahalliy va xorijiy psixologiya tomonidan to'plangan psixologik tajriba uning mohiyati, funktsiyalari, rivojlanish xususiyatlari va inson hayotidagi roliga yangicha qarash imkonini beradi, turli hayotiy vaziyatlarda inson xatti-harakatlariga yangicha baho berishga imkon beradi. Ushbu munosabatni o'rganish shaxsning turli muammoli vaziyatlarda amalga oshiradigan moslashuvchan psixik jarayonlarini tushunish uchun zarurdir. Shaxsning ijtimoiy psixologiyasining asosini nima tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, himoya mexanizmlari va xavotir o'rtasidagi bog'liqlik Menengir va Leaf asarlarida qayd etilgan. Bu munosabat L.F Burlachuk, S.M. Morozov, M.I. Enikeev tomonidan ham ko'rsatilgan..Himoya mexanizmlari! - bu yo'llar!, ularning yordami bilan biz! o'zimizni himoya qilishga harakat qilamiz. Xavotirdan biz! biz ham himoya mexanizmlari yordamida "o'zimizni himoya qilamiz". Repressiya, almashtirish, ratsionalizatsiya, proyeksiya va boshqalar kabi mexanizmlar yordamida tashvish zaiflashadi.Chet el psixologiyasida ko'pgina tadqiqotchilar himoya mexanizmlarini ko'rib chiqdilar: A.Adler, E.Bern, F. Dastlab, shaxsiyatning himoya mexanizmlari klassik psixoanaliz bilan, xususan, libido nazariyasi va Freydning shaxsiyatning tarkibiy modeli bilan bog'liq bo'lib, u uchta holatni o'z ichiga oladi: Men, Ego men va Super-men.

Anksiyetening situatsion barqaror ko'rinishlarini shaxsiy va "shaxsiy tashvish" deb ataladigan odamda tegishli shaxsiy xususiyatning mavjudligi bilan bog'liq deb atash odatiy holdir. Xavotirning vaziyatga qarab o'zgaruvchan ko'rinishlari situatsion deb ataladi va bunday tashvishni ko'rsatadigan shaxsiy xususiyat "vaziyatli tashvish" deb ataladigan xavotir».

"Shaxsiy tashvish - bu kuchdan qat'i nazar, shaxsning tashvishlanishga moyilligini tavsiflovchi psixikaning barqaror holati! tahdid qiluvchi omilInkor qilish esa ontogenetik, ibtidoiy mudofaa mexanizmi!, shu tufayli salbiy tomonlar! (masalan, kimningdir e'tibori) idrok etish bosqichida bloklanadi va ijobiylari tizimga kiritiladi" [Raigorodskiy D.Ya. O'z-o'zini anglash va himoya mexanizmlari! shaxsiyat, s. 410]. Ya'ni, idrok etish bosqichida qanchalik salbiy ma'lumotlar bloklanadi va tizimga ijobiy ma'lumotlar kiritilsa, odam boshdan kechirishi mumkin bo'lgan tashvish shunchalik past bo'ladi.

Repressiya qo'rquv hissiyotlarini o'z ichiga olish uchun rivojlanadi. Odam qanchalik tez-tez muammoli va qo'rquvga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochsa, u qanchalik kam tashvishlansa, tashvishlanishni boshdan kechiradi. Himoya mexanizmlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda! va vaziyat va shaxsiy tashvish kichik namunalar, erkak talabalarda vaziyatli tashvish va ratsionalizatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. O'zaro munosabatlar teskari.

Shunday qilib, mudofaa mexanizmlari, ularning komplekslari, ulardan foydalanish strategiyalari haqidagi bilimlar shaxsning ijtimoiy psixologiyasini yaratish va shaxsni ijtimoiy vaziyatlarga moslashtirish usullarini tushunish uchun zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova va bosh... Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004. 85-b.
2. Davletshin M.G., To'uchieva S.M. Umumiy psixologiya. T, 2002
3. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. T-2003. 16 b
4. Otajonov M.Y. Menjment psixologiyasi. T-2003. 516.

## **ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШДА ТЕСТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

*Каримова Мирижон Холдоржоновна  
Чуст тумани 58-мактаб психологи*

Амалий фаолиятни шакллантиришга қаратилган таълим-тарбиявий, илмий-амалий ишлар бутун жаҳон миқёсида ҳар бир соҳада кенг қамровли олиб борилмоқда. Айнан, шу жараёни амалий психологик фаолиятда ҳам сезиларли даражада ривожланиш билан бирга баъзи муаммоли жиҳатлар мавжудлигини эътироф этиш мумкин.

Психологик хизмат кўрсатишда мутахассислар ўз амалиётларида диагностик методикалардан фойдаланиш билан боғлиқ муаммоларга кўп дуч келмоқдалар. Бунинг сабаби психодиагностик мақсадларда татбиқ этилаётган методикаларнинг асосий қисми бошқа муҳитларда яратилган бўлиб, улар бизнинг шароитимизда айрим психометрик қоидаларга асосан мувофиқлаштирилган ҳолда қўлланилиб келинмоқда. Шунингдек, психодиагностика ва унинг муаммоларига бағишланган қўлланмалар, адабиётларнинг ўзбек тилида яратилганмаганлиги ўз навбатида психологик хизмат жараёнида бошқа муаммоларни келиб чиқишига асос бўлиб қолаётганлиги шубҳасиз. Бундай ҳолатда муаммоларга таянган ҳолда психологик

методикаларни яратиш, уларни модификациялаш ва мослаштиришнинг психометрик жиҳатлари билан боғлиқ масала таҳлилига эътибор қаратиш кўзда тутилади. Методиканинг валидлик, ишончлилиқ ва дифференциаллик талабларига, уни қўллаш учун нисбий танланмани стандартлаштириш зарур. Шу боис, психологик методикаларнинг биринчи кўрсаткичлари, баҳоси ва талқини экспериментаторнинг хулқ-атвори ва субъектив мулоҳазаларига боғлиқ бўлиб қолмаслигини тақозо этади.

Ҳозирги вақтда психологик хизматни амалга оширишнинг асосий жиҳатларидан бири тест текшируви бўлиб унинг натижалари асосида психопрофлактик ва психокоррекцион усуллар танланади ҳамда амалиётга тадбиқ этилади. Тест текширув мураккаб иш бўлиб, психологдан катта масъулият ва билим талаб этади. Тест текширувда йўл қўйиладиган хато муаммолар ечимини анча чигаллаштириб, психологик ёрдам кўрсатишда чекланишларга олиб келиши мумкин. Таълим муассасаларида, психологик хизмат кўрсатадиган психолог - ходим бу масалага жиддий эътибор қаратиши зарур. Бунинг ўзига хос сабаблари бор, албатта. Бундан ташқари, кейинги йилларда деярли барча таълим муассасаларида амалиётчи психолог лавозими ташкил этилди. Зеро, тест тадбирларни ўтказишнинг ўзига хос талаблари ҳам мавжуд. Энг биринчи галда мутахассис-психолог касбий-этикавий қоидаларни жуда яхши билиши зарур.

Республикамиз таълим муассасаларида психологик хизмат кўрсатиш бўйича махсус Низом ишлаб чиқилган бўлиб, унда таълим муассасаси психологининг асосий вазифалари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари қайд этилган. Лекин биргина расмий ҳужжат — Низомга таяниб ишлаш билан ижобий натижаларга эришиб бўлмайди. Тест текширувларда касбий тайёргарлик ва мутахассислик бўйича чуқур билим ва педагогик маҳорат касбий фаолият учун асосий мезон ҳисобланади.

Беморни тиббий текширувдан ўтказиш ёки унга ташхис қўйишда шифокордан қанчалик масъулият талаб этилса, тест текширувлар ўтказишда психологдан ҳам шунчалик катта масъулият талаб этилади. Негаки таълим тизимида тест тадбирларни тўғри ташкил этиш мутахассислар фаолият йўналишини тўғри белгилашда муҳим аҳамиятга эга.



Психологик хизмат ходимлари психодиагностика ишларини ўтказишда, аввало психодиагнос-тик тадқиқотларни олиб бориш тамойиллари, талаблари, жумладан, методикаларнинг модификация-лаштирилиши, уларнинг валидлик, ишончлилик ва аниқлик талаблари ҳақида тегишли маълумотларга қатъий амал қилиши лозим. Акс ҳолда яхши жиддий хатоларга йўл қўйиши мумкин. Чунки, синалувчилар, маҳаллий шароитларга мослаштирилмаган методикалар ёрдамида ўрганилса, психодиагностика талаблари қўпол тарзда бузилади. Оқибатда маҳаллий шароит, этник хусусиятлар ҳисобга олинмаган ҳолда қўлланилган психодиагностик воситалар синалувчи шахси ҳақида нотўғри маълумотларни олишга олиб келади.

Бундай хатоларга йўл қўймаслик учун, биринчи навбатда психодиагностик воситалар савия-сига, психодиагностик тадқиқотлар ўтказиш тартибига жиддий эътибор бериши ва синалувчиларнинг ёш-психологик, этник, ҳудудий хусусиятларига мувофиқ келишлигини эътиборга олиш лозим.

Юқорида билдирилган мулоҳазаларга таяниб айтиш мумкинки, тест ишларни ташкил этишда психолог бир қанча талабларга амал қилиши лозим:

Биринчидан, психолог дифференциал психометриянинг асосларини ва психологик адабиёт-ларни таҳлил этиш методларини, умумий назарий-методологик тамойилларни амалий қўллашни билиши ва уддалаши лозим.

Иккинчидан, ахборот маълумотлар банкини ва тест воситалари банкини яратиши зарур.

Учинчидан, тест текширувлар ўтказувчи психолог тест маълумотлари асосида қабул қиладиган қарори, қўлланилган методиканинг валидлигини ва ташхиснинг зарурий ишончлилик даражасини таъминлаш учун масъул.

Тўртинчидан, психолог тестнинг комплекс методикасини ишлаб чиқишда диагностиканинг юқори самарадорлигига асосланиши, тегишли соҳада қўлланиладиган усулларни такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб бориши керак.

Бешинчидан, диагностика иш жараёнида тест методикаларни стандартлаштириш талабларига риоя этиши, олинган маълумотларни қайта ишлаши ва талқин қилиши керак.

Олтинчидан, психологдан методик воситалардан тўғри фойдаланиш, психологик ахборотлар-нинг конфиденциаллигини таъминлаш, шуни касбий йўналишдаги фанларни ўрганиш, ишлаб чиқариш таълими бўйича ўтказилган амалий ишлар ўқувчиларнинг умумтаълим фанлари бўйича олган билимларини мустаҳкамлайди, уларни тўлдиради ва чуқурлаштиради.

Ҳозирги вақтда, психологик хизматга, психолог мутахассислар хизматига зарурат кундан-кунга ортиб боришини инобатга олиб ҳар бир психолог хизмат доирасидан келиб чиқиб психодиагностик тестлардан фойдаланиш қонуниятларига амал қилиши қилиши учун амалий психологик билимларини етарли даражада эгаллаши ва улардан самарали фойдалана олиши талаб этилади

### Адабиётлар

1. Анастаси А., Урбина С. Психологическое тестирование. -Спб.:Питер, 2003.-688 с.
2. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. Учебник для вузов. -Спб.:Питер, 2007.-352 с.

---

## KASBIY YO`NALTIRUV ISHLARINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGNING O`RNI

*Nosirova Gulzoda Sadullayevna*  
*Toshkent tumani 31-maktabi psixologi*

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular orasida kasb tanlash jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu insonning hayot yo'lining bir qismi, uning keyingi kasbiy taqdirini belgilaydigan bir qator qarorlarni qabul qilish jarayoni. Kasb tanlash jarayoni har doim shaxs hayotidagi hal qiluvchi daqiqadir va bu qandaydir

psixologik yordamni talab qiladi. Kasbiy yo'l-yo'riqlar tizimi bunday ko'makni ta'minlashga mo'ljallangan.

Kasb-hunarga yo'naltirish deganda insonni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashga, uning qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatlariga muvofiq ravishda va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashda yordam beradigan chora-tadbirlarning ilmiy asoslangan tizimi tushuniladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning aniq yaqin maqsadlari jonli mehnatdan oqilona foydalanish, ishchilar sifatini oshirishda ifodalanadi; tibbiy qarshi ko'rsatmalarni aniqlash va kasbiy rejalarini tuzatish orqali yoshlarning sog'lig'ini saqlashda; kelajakdagi kasbiy sohaga eng mos keladigan shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

Kasb-hunar ta'limi talabalarning kasblar dunyosi, kasbiy tanlov qilish usullari va shartlari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy ta'limning ikki shakli mavjud: kasbiy ma'lumot va kasbiy targ'ibot.

Professional ma'lumot bu yoshlarga asosiy kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot. Maktab o'quvchilariga mehnatning mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit sharoitlari, moddiy rag'batlantirish tizimi, mehnat va dam olish tartibi, ushbu kasbni rivojlantirish istiqbollari, o'qitish shakllari va muddatlari, rasmiy va malakaviy o'sish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi. Ushbu kasb inson salomatligi holatiga, uning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga, shaxsiy xususiyatlariga va umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik darajasiga qo'yadigan asosiy talablarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy axborot faoliyati nafaqat passiv tanishish, balki faol ta'lim funksiyasini ham bajaradi. Shuning uchun, ba'zi hollarda, nafaqat kasblar haqida ma'lumot almashish, balki ularning ayrimlarini targ'ib qilish ham muhim o'rin egallaydi.

Professional targ'ibot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki rekonstruksiya qilinishi sababli kadrlar etishmasligi yoki ularning tayyorgarligini kengayishi kutilayotgan kasblar bilan shug'ullanadi. Professional targ'ibot, agar to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, o'z vaqtida kasbni tanlash muammolariga faol munosabatni shakllantirishga, yoshlarning o'z tanlovini qilish istagini faollashtirishga yordam beradi.

Davlat va xususiy korxonalar, universitetlarning ish jarayonida turli xil bosma materiallarni nashr etish, ochiq eshiklar kunlarini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida turli kasb vakillari chiqishlari, televizion filmlar va reklama roliklarini yaratish va namoyish etish kabi kasbiy ta'lim shakllari eng keng tarqalgan. Jamiyat hayotining keng kompyuterlashtirilishi Internet-resurslarni ushbu ish bilan bog'lashga imkon berdi.

Shu bilan birga, ta'lim ishlarining samaradorligi axborotni taqdim etish sifati va shakliga bog'liq. Ushbu turdagi ishlarda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun professional ma'lumotlarga qo'yiladigan bir qator talablarga rioya qilish kerak. Ma'lumot:

- keng qamrovli. Kasb haqidagi bilimlarning sarhisobida kasbiy hayotning barcha jabhalariga e'tibor berish kerak, alohida e'tibor - ushbu professional sohada o'sish istiqbollari;
- ishonchli. Kasblar haqida ma'lumot ishonchli manbalardan olinishi kerak, ular bosma nashrlar, mutaxassislardan olingan ma'lumotlar, faoliyatni psixologik tahlil qilish ma'lumotlari va hk.;
- ob'ektiv. Kasbning barcha afzalliklari va qiyinchiliklari bilan haqiqiy rasmini berish kerak. Kasb-hunarga mavjud bo'lmagan xizmatlarni ta'kidlab, ayrim partiyalarning haddan tashqari reklamasi qabul qilinishi mumkin emas.

Kasbiy konsultatsiya insonga kasbiy faoliyat sohasini tanlashda yordam berish uchun uni psixologik tekshirish tadbirlari tizimini o'z ichiga oladi. Kasbiy maslahatlashuvning asosiy maqsadi insonning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini, uning har xil sharoitdagi xulq-atvorining xususiyatlarini o'rganishdir. Professional konsultatsiya bir qator funktsiyalarni bajaradi, ular bir tomondan uning asosiy maqsadini aks ettiradi, boshqa tomondan uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kasbiy maslahatning uchta asosiy vazifasi mavjud:

- o'quvchiga kasbning o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy rejalarini amalga oshirish usullari va usullari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga olgan axborot;
- diagnostika - sog'liqni saqlash holatini va insonning psixologik xususiyatlarini rivojlanish darajasini kasb talablariga muvofiq ravishda tekshirish;

- tuzatuv, bu tegishli kasbiy faoliyat sohasi va undagi aniq kasblar bo'yicha optik mutaxassisni (kasbni tanlagan kishini) tavsiya etish, shuningdek, kasb talablari va shaxsiyat xususiyatlari o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda professional rejalarni tuzatishdan iborat.

Biror kishi bilan professional maslahatchining o'ziga xos ishi individual ravishda amalga oshiriladi va bir qator majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ bosqich optik bilan aloqa o'rnatishni, maslahat berish jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning samaradorligi, bir tomondan, maslahat berishga kelgan maktab o'quvchilarining munosabatiga, boshqa tomondan, kommunikativ mahoratga va maslahatchining psixologik taktik darajasiga bog'liq.

Kasbiy konsalting ishining psixodiagnostik bosqichi - bu sub'ektning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini ifodalash darajasini o'rganishga asosiy e'tibor beriladigan bosqich. O'quv predmetlari:

- qiziqishning xususiyatlari, qiymat yo'nalishlari va optant sifatida kasb tanlashning boshqa motivlari, ularning mazmuni, chuqurligi va barqarorligi berilgan shaxsning motivatsion sohasi;
- sub'ektning qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari. Asosiy aqliy jarayonlar (xotira, diqqat, fikrlash) xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi, psixomotor fazilatlar, shaxsiy xususiyatlar o'rnatiladi;
- shaxsiyatning tayyorligi. Ilm-fan va amaliyotning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilim, qobiliyat va ko'nikmalar baholanadi. Faqatgina bilimlarni ko'paytirishga emas, balki uni muayyan muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatiga ham alohida e'tibor beriladi;
- o'zini o'zi qadrlash va kasbiy rejalarni shakllantirish xususiyatlari. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish haqiqati, hayotiy rejalarning mazmuni va asosiligi, ularni qurishda mustaqillik darajasi aniqlanadi.

Tuzatish bosqichi uning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq professional sohani topish nuqtai nazaridan optant bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning asosiy nuqtasi - bu faoliyat printsiptiga rioya qilishdir, unga ko'ra kasb tanlash bo'yicha qarorni optikning o'zi qabul qilishi kerak va maslahatchining vazifasi uni bunga olib borishdir.

Ushbu bosqichda kasb talablarini shaxsiy xususiyatlar va optantning kasblar dunyosidagi yo'nalishi bilan yanada samarali ravishda bog'lash uchun kasb tasniflari keng qo'llaniladi.

Kasblarni tasniflash quyidagi sabablarga ko'ra kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirish ishlarida muhim bosqich hisoblanadi:

- kasblar dunyosi haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirishga va unda yo'naltirishning asosiy usullarini belgilashga imkon beradi;
- yangi kasblar va mutaxassisliklarni barpo etish uchun zamin yaratadigan ularning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi;
- amaliyotchiga professional maslahat narxini sezilarli darajada minimallashtirishga imkon beradi. Masalan, optikning istaklari yoki imkoniyatlari bilan u tanlagan kasb o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda, psixolog boshqa psixodiagnostik tekshiruv o'tkazmasdan unga tegishli kasbni tavsiya qilishi mumkin.

## O'QUVCHI-YOSHLARDA ODOB-AHLOQ XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

*Ro'ziyeva Feruza Fayzullayevna*  
*Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 38 - maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda odob-ahloq xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** O'quvchi, odob, o'qituvchi, taraqqiyot, muhit, ta'lim, tarbiya, an'analar, yangilik, rivojlanish.

Milliy istiqlol tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodni jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb

vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikga erishgan dastlabki kundanoq talaba yoshlarni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qoldi. Chunki, davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning ahamiyati kattadir. Chunki talabalarning bilimini, aqliy va ahloqiy holatlarini shakllantirish, nazorat qilish va baholash davlat miqyosida amalga oshirilmoqda. Shuni aytish kerakki, insonning ma'naviyati uning ruxiy xolati, ahloqi, odobi, hulqi, madaniyati, psixologik xususiyatlarini shakllanish darajasidan tashkil topadi. Ahloq esa ularning individual psixologik xususiyatlari rivojlanishi, aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ahloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi, ruxan sog'lomlashtiri imkonini beradi. Demak, ahloq insonning ijobiy psixologik sifatleri majmuidir ham. Chinakam ma'rifatli odam milliy qadriyatlarni, o'zini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatiga o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yiladigan eng muxim vazifalardan biri- malakali mutaxassis sifatida o'zligini o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofdegilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning boshqa sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Odamning shaxs sifatida shakllanishi kamolot darajasi odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. Odob bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotiga hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi. Ahloq jamiyatda qabo'l qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan hulq odob normalari majmui. Madaniyat-jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat-inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, intellektual fazilatlar majmuasidir. Aqliy kamolotga erishish irodaviy hatti-harakatlar, uzluksiz faollik, fidoyilik, bilimga chanqoqlik kabilarning bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshadigan jarayondir. Mustaqil fikrlash bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Anglash biror-bir g'oyani tub mazmuniga tushunib yetish. Mushohada - shu

g'oyani mantiqan talqin qilish. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotda qo'llash. Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar asosida talaba yoshlarning hulq madaniyatini shakllantirish muhimdir. Chunki, talaba ana shu ma'naviy muhitda o'z faoliyatini amalga oshiradi, o'zligini anglaydi. Ma'naviy bilimi bilan muloqatga kirishadi. Shuning uchun talaba yoshlarniig hulq madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlash ma'naviy muhitga bog'liqdir. O'quvchi yoshlarning xulq madaniyati, ma'naviy harakatlarining samarasi o'qituvchi va talabaning o'z faoliyatlariga bo'lgan munosabatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'qituvchi ma'naviy merosning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishi, amaliy faoliyatda ularga tayanishi shaxsning hulq madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan o'qituvchi-talabalardan ijodkorlikni talab qiladi.

O'qituvchining ijodkorligi o'quvchoning ijodkorligini uyg'otadi. Ular o'z o'quvchilarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning qalbida olijanob fazilatlarni qaror toptiradilar. Shunday ekan, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali o'quvchilar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ularning niyati talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muxandislari, ilmu ma'rifat fidoiylari safida ko'rishdir. O'qituvchi ijodkorligi natijasida o'quvchi yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari, va urf-odatlar haqida chuqur bilim oladi. O'quvchilarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi, Ma'naviy meros manbaalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi.

O'quvchi-yoshlarning xulq madaniyatni shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan ta'lim mazmuniga va o'qituvchining hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda: har bir darsdan o'qituvchi maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim; dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning



bilimini kengaytirish yuksak xulqli bo'lishdek ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. O'quvchilarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga o'tmish, adabiyot, tarix, milliy urfodatlar, an'analar haqida bilim berish o'qituvchidan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

O'quvchining ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, shaxs barcha ijtimoiy munosabatlarning majmuasidir, Shu sababli uning hayotda mavjud ko'p qirraligidan foydalana bilish lozim. hamma davrlarda o'qituvchi shaxsiyati qanchalik erkin va o'ziga xos bo'ladigan talabalarga ta'siri shunchalik kuchli, mehnatining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi deb hisoblangan. O'qituvchining haqiqiy munosabatlari tizimiga kiradigan shaxsi hamisha uning faoliyatida muhim o'rin tutishi kerak. Chunki o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish o'qituvchining munosabatiga, muloqatiga bog'liq.

O'quvchilarning ma'naviy boyligi o'qituvchining haqiqiy munosabatlariga bog'liqdir. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, talabalarning ijtimoiy muxit ta'siridagi ma'naviy ehtiyojini qondirish psixologik himoyalanih asosida shakllanadi desak mutlaqo to'g'ri aytgan bo'lamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Yenikejev M.I. Obshaya i sosialnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Norma, 2005. – 624 s.
2. Davletshin M.G., Jalilova S.X. Maktablarda ta'lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari. –T.: 2001
3. Referat.uz

## YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGI – IJTIMOY PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA

*Tursunova Barnoxon Sohibjonovna*  
*Uchqo'rg'on tumanidagi 18-maktab amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlar ijtimoiy faolligi va buning ijtimoiy psixologik hodisa sifatida talqin qilinishi haqida ilmiy ma'lumotlar va mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, ijtimoiy faollik, muhit, psixologik hodisa, sharoit, shaxs, ijtimoiylashuv, jamiyat.

Yoshlarning jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik yoshlarning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini ta'minlaydi. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Har bir yosh aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi. Ijtimoiy faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda «ijtimoiy faollik»-shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko'rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o'zi g'oya hisoblanadi. Uning mazmunini esa jamiyat ma'naviy yuksalishini ta'minlaydigan bilim, odob axloq, iste'dod, qobiliyat, ijobiy ko'nikma va malakalar, bular asosida shakllangan dunyoqarashlar majmui tashkil etadi. Yoki aniqroq aytsak, ijtimoiy faollik shaxs ma'naviyatini kamolot sari etaklovchi, barcha ijobiy mazmunga ega sifatlarni o'zida mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan g'oyalar majmuidan iborat. Bo'lajak o'qituvchi talabaning ijtimoiy faolligi shaxs sifati bo'lib, jamiyat ravnaqi yo'lidagi g'oyaviy, siyosiy, kasbiy-madaniy va fuqarolik mas'uliyatining qonuniy ifodasidir. har bir bo'lajak o'qituvchi o'z faniga oid ilmiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni anglab etishi, g'oyaviy jihatdan qurollangan bo'lishi ham talab etiladi. Bu uzviylik pedagogika fanlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunidagi o'zaro aloqador xususiyatlarga bog'liq. Demak, yoshlarni tarbiyalashda pedagogika oliy o'quv yurtlari oldida turgan muhim vazifa hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, erkin fikrlaydigan, o'z fanini chuqur biladigan,

kasbiy mahorati kuchli, tashabbuskor, dunyoqarashi keng, ijtimoiy faol, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsini shakllantirish mexanizmini quyidagi jadval ko'rinishida belgilashni maqsadga muvofiq deb topdik. Ijtimoiy faollik sifatlarining asosiy elementlarini o'ziga singdirib olgan har bir talaba yosh, bo'lajak mutaxassis sifatida xayot qonuniga mas'uliyat bilan yondashib, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni aniq idrok etishga, o'zi va kasbdoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga, ezgu maqsad yo'lidagi to'siqlarning hech biridan cho'chimay engib o'tishga tayyor bo'ladi. Ya'ni, demokratik xuquqiy davlatning shakllangan ijtimoiy faol fuqarosiga aylanadi. tula bilimlarga tomon xarakat kilish sifatida soodir bo'ladi. Bilish tevarak-atrofdagi odamning narsa va xodisalarni xissiy idrok kilishdan boshlanadi. Tashki olamning sezgi, idrok va tasavurning xosil bulishiga olib keladi, bular real borlikdagi narsalarni inson ongida aks ettiradi. Tevarak-atrofdagi olamga muvaffakiyatli ta'sir etish uchun bu olam rivojlanishining ob'ektiv konuniyatlarini bilish kerak. Fakat xissiy bilish yordamidagina bu konunlarning moxiyatini tushunish mumkin emas. Abstrakt tafakkur tabiat va jamiyat xayoti rivojlanishining ob'ektiv konunlarini bilishga xizmat kiladi. Abstrakt tafakkur xissiy bilish axborotlarini umumlashtirib, narsa va xodisalardagi hamma muxim bulmagan tasodifiy tomonlardan uzoklashadi hamda narsa va xodisalarning moxiyatiga kirib borib, ularning rivojlanishidagi umumiy konuniyatlarni ochib beradi. Umumlashtirish natijalari fan tushunchalari va qonuniyatida ifodalanadi. Ularning xaqiqiyiligi amaliyotda tikshiriladi, amaliyot bilimlarning xaqiqiyiligini kursatuvchi oliy mezondir. Biroq olimning xali noma'lum bulgan sirlarini bilishi bilan, yoshning fanlar soxasida bayon kilingan bilimlarni bilishi urtasida katta farq bor, ya'ni olim yangilikni kashf kiladi, yosh esa tayyor sinalgan bor bilimlarni o'zlashtiradi. Yoshlarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Avvalo bu o'zlashtirish bu o'zlashtirib olish o'qituvchi raxbarligida bo'ladi va shuning uchun tugri yul bilan amalga oshiriladi. Bu o'zlashtirish insonning borlikni bilib olish jarayonida uchraydigan egri-bugri yullar va yanglishuvlarni chetlab utib, ancha qiska yo'l va muddatda ro'y beradi.

Yoshlar o‘qib, o‘quv fanlarining mazmunini o‘zlashtira borib, obyektiv olamni bilib boradilar. Ular ilmiy bilimlarning hammasini emas, balki ularning «fan asoslari» deb ataladigan bir kisminigina o‘zlashtirib oladilar. Ma‘lumki, odam muayyan bilim, ko‘nikma, malaka hosil kilish uchun xulq-atvor shakllarini ham o‘rganib olishi uchun, ijtimoiy tajribalardan tashkil topgan malakalarning asosiy xajmini egallab olish uchun u o‘quv-tarbiya tizimining turli soxalari bilan mashg‘ul bo‘lmog‘i va bu ishlarga jalb etilmog‘i kerak. Bunday xodisalarda tegishli bir mazmunni o‘zlashtirib olish bir-biri bilan aloqador bo‘lgan ikki jarayon: ta‘lim olish va o‘qitish jarayonining natijasi sifatida zikr etiladi. Fan-texnika taraqqiyoti hamda uzluksiz ta‘lim olish g‘oyasi amalga oshirilayotgan bir sharoitda ta‘lim inson sotsial faolligining predmetli faoliyatning subyekti hamda ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida o‘zini doimiy ravishda kamolga yetkazishga qaratilgan faol sotsial faoliyatning mustaqil shakli sifatidan ko‘prok ahamiyat kasb eta boradi. o‘zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, - 2000.- 96 b.
2. Mayers D. Sosialnaya psixologiya G‘ Perv.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s
3. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru)

---

### **O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI ORASIDAGI MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI. MULOQOTNI TASHKIL ETISHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING USTUVORLIGI**

*Movlanova Ulxon Xurramovna  
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqot madaniyati va psixologik yaqinlikni rivojlantirish. Psixologik bilimlarga tayangan holda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotida pedagogik nazokat va odob-axloq qoidalariga oid treninglar mazmuni haqida.

**Tayanch tushunchalar:** Interaktiv, perseptiv, stereotipizatsiya, refleksiya, identifikatsiya, kommunikativ. Muomala-hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko'pqirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi ma'lumotlariga qaraganda muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo'ladi:

Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish

Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir)

Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish). 1. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvni qamrab olgan bo'lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo'lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar. 2. Muomalaning ikkinchi tomoni-muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanishdan (masalan, o'qituvchi va o'quvchilar) iboratdir.

3. Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kirishuvchilar (muloqotdoshlar) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo'ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi. Masalan, bu jarayonning eng zarur tomoni shuki, unda muloqotga kirishuvchi, ya'ni muloqotdosh (sheriklarning) bittasi ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida uni idrok qilish juda muhim ekanligini anglash yoki bir-birlarini oldindan hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotlarni fahmlay olmaydi, deb taxmin qilish nazarda ruhiy holat vujudga keladi.

Muomalaning har uchala tomonini (jabhasini) birlikda, yaxlit hodisa sifatida olib qarash natijasida u hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning, ya'ni muloqotchanlarning o'zaro munosabatlari tariqasida namoyon bo'ladi, muayyan tarzda davomiylikka erishadi.

O'qituvchilarning faoliyati uchun eng muhim narsa-muomalaning qonuniyatlari, uning rivojlanishi to'g'risidagi psixologik bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni egallashdir. Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli ravishda shunday yechish mumkinki,

qachonki o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga samarali kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsadi va vazifalariga javob beruvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunuvni yo'lga qo'ya bilsa, faqat mana shundagina pedagogik muomala amalga oshadi, xolos.

Pedagogik muomala-bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish usullarining muayyan tizimini aks ettirishdir.

– hamkorlik ishtirokchilarining o'zaro axborot almashinuvi;

- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan o'quvchi (talaba)lar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarni tashkil qilish;

- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajarish kabilar. Muomala va shaxslararo munosabatlarda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida turli darajadagi ayrim nizoli holatlar uchrab turadi;

-o'qituvchi bilan o'quvchi (talaba) lar o'rtasida fikriy yaqinlikning yo'qligi,

-foйда,naf to'g'risidagi ijtimoiy muoammada shaxsiy fikriy qarama-qarshilik mavjudligi,

-ayrim ma'naviy to'siqqa ega ekanligi,

-narsa va hodisalarning shaxsiy ma'no kasb etishi,

-ehtiyojlarning nufuzliligi,

-faoliyat, muomala, xulq uyg'unligining buzilishi kabilar.

Psixologiya fanida muomala insonlarning o'zaro tushunishi sifatida talqin qilinadi. Bu muammo ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va shaxslararo idrok qilinishning mexanizmi sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

-stereotipizatsiya (ajdodlar tomonidan qo'llanilgan ma'lumotlar, odatlar, aqidalar hech o'zgarishsiz hozirgi zamon odamlarining foydalanishi);

- identifikatsiya (katta) yoshdagi odamlar, o'qituvchi mahorati, xulq odobi andoza sifatida yoshlar tomonidan qabul qilinib, unga o'xshashlikka intilish, taqlid qilish, idealdagi xislatlarni o'zida shakllantirish.

–refleksiya (o'z imkoniyati va xulq-atvorini bilish, muloqotdoshining odobi, fahm-farosatini anglash) kabilar.

Shaxs to'g'risidagi dastlabki axborotlar, ma'lumotlar, uning tashqi ko'rinishini baholashga aloqador namoyon sub'ektiv baholashni keltirib chiqaradi. Lekin o'zaro fikr

almashish, muloqotga kirishish davomida omillar tobora haqchillashib, ob'ek-tivlashib boradi.

Izlanishlarning ko'rsatilishicha pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq holda murojaat qilishi o'quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. O'quvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lish ularda ishonchsizlik kamgap bo'lishga, o'quvchilarni laganbardorlik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. O'quvchilar tomonidan yaxshi ko'ringan, hurmat qozongan o'qituvchining gapi, begona, yomon ko'ringan o'qituvchining gap-so'zlariga qaragan-da, o'quvchi tomondan umuman boshqacha qabul qilinadi.

O'quvchilar orasida hurmat va ishonch qozongan o'qituvchining so'zlariga amal qilishga harakat qiladilar. O'qituvchi o'zaro ta'sirini turlicha amalga oshiruvchi rahbar hisoblanadi. Rahbarlik qilishning 3 xil uslubi mavjud:

1.Avtoritar

2.Demoktarik

3.Liberal uslublardir.

1. Avtoretar uslubda o'qituvchi grupp faoliyatini muammolarni o'zi hal qiladi: masalan, qaysi o'quvchi kim bilan 'tirishi. O'qituvchining muomalasining asosiy ormasi buyruq berish, majburlab ish buyurish, urushish yoki jazo berishdir. Bunday pedagogning rag'batlantirishi ham xuddi komanda bergandek bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga bunday ta'sir ko'rsatishi o'quvchini haqoratlaydi. "Sen yaxshi javob berding. Sendan buni kutmagan edim" yoki o'quvchi qilgan xato ustidan kulib, qayerda xato qilganini aytmaydi.

2. Demokratik uslubda rahbar sinfnining fikriga suyangan holda ish olib boradi. Biror-bir narsani o'quvchilar bilan birgalikda hal qilishga intiladi, ularning har birini fikrini bilishga harakat qiladi, hammani faoliyatga aktiv yondoshishga undaydi. Bunday ta'sir o'qituvchining asosiy ta'sir etish formasi iltimos qilish, maslahat berish va axborot berishdan iboratdir.

3.Liberal uslubda o'qituvchi kollektiv hayotiga aralashmaslikka harakat qiladi, o'quvchilar savollariga, qiziqishlariga yuzaki qaraydi.

Munosabatning quyidagi uslublari ham mavjud:



Do'stlik asosida mavjud bo'lgan munosabat Masofani aqlovchi munosabat Nafrat uyg'otuvchi munosabat Yuzaki o'lgan munosabat

1. Do'stlik sosida mavjud bo'lgan munosabatda o'qituvchi bolalarga va ishga nisbatan qat'iy ijobiy munosabatda bo'lishi, tashkilot faoliyatiga tegishli bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishga intiladi. Ish yaxshi yurishi uchun o'quvchilar va o'qituvchining tashvishi bir xil, maqsadlari ham bir xil yo'nalishda bo'lishi karak.

2. Bunda o'quvchi va o'qituvchining munosabati chegaralangan bo'ladi. Masalan: "Men bilgan narsani siz bilmaysiz", "Meni gapimga kiringlar-men sizlardan katta sizlardan ko'proq tajribaga egaman". Pedagogning bunday avtoritar uslubda ish olib borishi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida bo'lgan munosabatning muvaffaqiyatsizligiga olib keladi. 3. Qo'rquv munosabat masofa saqlovchi munosabatning haddan tashqari shakli hisoblanadi. Bu uslubda o'quvchilarga nisbatan salbiy munosabat va faoliyat tashkil qilishda yuqoridan qarash mujassamlashadi. Shu qo'rqituv munosabati, "Yaxshilab eshitinglar yoki doskaga chiqarib 2. Qo'yib qo'yaman" "Sizlar hali mendan ko'rasizlar".

4. Bu yuzaki usulda pedagog olalarni juda ham erkin qo'yib yuboradi. Natijada bu usulda bolalar yolg'on gapirib, o'zlariga hammani e'tiborini qaratmoqchi bo'lishadi. Bu usulning kelib chiqishi, bundan maqsad tezroq hamma bilan muloqotga kirish, hammaga yoqishdan iboratdir. Lekin boshqa tomondan qaraganda, kasbiy faoliyatning turlari yo'q. Munosabat uslubining 2 turi bor: monologik va dialogik. Dialogik munosabat tarbiyaning asosi hisoblanadi. Monologik munosabat esa o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan ijro etiladi. Pedagogning bolalarga bo'lgan ijobiy munosabati va pedagog o'rtasidagi hamkorlik dagi bo'lgan ijobiy faoliyatini rivojlantiradi va ular o'rtasidagi munosabat demok-ratik tusda bo'lishiga yordam beradi. O'qituvchi odobiga ta'rif berganda mantiqiy tafakkur qonuniyatlarini buzib, xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun o'qituvchi odobi kasb axloqining bir turi, ko'rinishi (yo'nalishi)dir deb ta'riflash va bu ta'rifda o'qituvchi odobining muhim, asosiy belgilarini ko'rsatish zarur. O'qituvchi odobining muhim, asosiy belgilari qatoriga quyidagilar kiradi: umuminsoniy va miliy axloqning qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalari, mezonlari, talablariga amal qilish; pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga binoan ularni

oydinlashtirish, aniqlashtirish, umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari muallimning o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari bilan muomalasida, munosabatlarida, shuningdek, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda, pedagogik mehnatning samaradorligida namoyon bo'lishi kabilar. Demak o'qituvchi odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, muallimning o'quvchilar, o'z kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari bilan muomala –munosabatlarida ifodalanadigan professional axloqiy xususiyatlardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A.I.Avazboyev, Ya.U.Ismadiyarov. Kasbiy pedagogika. Toshkent-2014
- 2.A.Abdurashidov, O'.Yo'ldoshev. Pedagogika o'qitish metodikasi. Toshkent-2015

---

## **YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI**

*Habibova Lola Shamsiddinovna*

*Buxoro viloyat Jondor tuman 39-maktabning tasviriy san'at fani o'qituvchisi*

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'limni 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda uzluksiz ta'limni sifat jihatdan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirishni belgilab berdi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi munosabatidan iborat bo'lib, bu jarayonda shaxs dunyoqarashi, olamni idrok etish qobiliyati va tarbiyasi rivojlanib boradi. Darslarda o'qituvchi o'z bilim, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa ularni o'zlashtirib borishi natijasi o'laroq, foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'lim

jarayonida o`qituvchi va o`quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o`quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta`lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta`limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Ta`lim hamda tarbiya maqsadi mos ravishda mutanosib bo`lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta`limning maqsadi imkoniyatlaridan to`g`ri, aniq, o`rinli foydalanish, ko`nikma va malakalarni hosil qilish, mantiqiy ijodiy tafakkurni rivojlantirish, uzviy savodxonlikni oshirish, milliy g`oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma`naviy boyitishdan iboratligi ta`kidlab o`tilgan.

Ta`lim olish asosida o`quvchilarda mustaqil fikrlash, og`zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati shakllantiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosini esa ma`naviy, g`oyaviy, estetik tushunchalar tashkil etadi. Til o`rganish jarayonida xalqning madaniy – axloqiy qadriyatlariga yaqinlashish imkoni paydo bo`ladi.

Ma`lumki, ta`limga ilg`or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish o`quv mashg`ulotlarining samaradorligini oshirib qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo`llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak, ma`naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan- kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining asosiy sabablaridan biri, shu paytgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ular kerakli ma`lumotlarni o`zlari qidirib topish, mustaqil o`rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham keltirib chiqarishga moslashadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ta`limda “ Aqliy hujum “, “ Fikrlar hujumi “, “Bahs – munozara “, “Rolli o`yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Zigzag”, “Oxirgi so`zni men aytay”, “Zinama – zina “ kabi zamonaviy texnologiyalar qo`llanilmoqda.

Matn bilan ishlashga yo`naltirilgan interfaol metod va usullar turkumiga kiruvchi “Zinama-zina” texnologiyasi o`quvchilarni o`tilgan yoki o`tilishi kerak bo`lgan mavzu bo`yicha yakka va kichik jamoa bo`lib fikrlash hamda o`zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to`plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko`rinishida ifodalay olishga o`rgatadi. Bu texnologiya o`tilgan mavzuni mustahkamlash va mavzu asosida o`quvchilarning kreativ faolligini shakllantirishda juda qo`l keladi.

Ko`pchilik o`qituvchilar “Zinama – zina” texnologiyasi deganda “Kim birinchi cho`qqiga yetadi?” yoki “Bayroqni kim qo`lga kiritadi?” kabi nomdagi musobaqa va mashqlarni tushunadi va shu tarzda olib boradi. Lekin bu texnologiya musobaqa shaklida o`tmaydi. Quyida ushbu texnologiyani olib borish jarayoni bilan tanishing.

3 – sinf “O`qish” darsligidagi “Maktabim – qutlug` makonim, kitobim – buyuk imkonim” bo`limi.

Erkin Malikovning qalamiga mansub “Unutilmas bayram” mavzusini o`qituvchi ifodali o`qib beradi va mazmunini tushuntiradi. Darsning mustahkamlash bosqichida ushbu texnologiyadan foydalanishda o`quvchilardan 4-5 kishilik guruh tashkil qilib, har bir guruhga mavzuning nomi yozilgan A3 format qog`oz va marker yoki flomaster tarqatiladi. So`ng ularga 8-10 daqiqada matnning qisqacha mazmunini yozish topshiriladi. O`qituvchi guruh a`zolarining berilgan topshiriqni hamkorlikda bajarishini kuzatib, ularning ishlashiga yo`nalish berib boradi.

Topshiriqni bajarishga berilgan vaqt tugagach, guruhlarning taqdimot qog`ozlarini yig`ib oladi va ketma-ket har bir guruhdan bitta o`quvchi guruh ishini tagma-tag doskaga ilib, yozgan matnini o`qib beradi. Har bir guruh taqdimotidan so`ng guruhlar bir – biriga yozganlari bo`yicha tushunmagan joyi yuzasidan savollar berib, fikrlarini to`ldirib boradi. Taqdimotdan so`ng eng chiroyli yozuvlar yoki mazmunan yaxshi yoritilgan matnlar taqqoslanadi va aniqlanadi. Bunda o`quvchilarda matnning mazmunini qisqartirib yozishda ijodiy yondoshiladi va yozma fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Guruh ishlarini o`qituvchi rag`batlantirib boradi. O`qituvchi ushbu texnologiyadan foydalanganda o`quvchilardan darslikni bekitib qo`yishni talab qilmasligi kerak. Chunki bu metod bolalarni matnning har bir qatorini qayta o`qishga undaydi. Mayli, o`quvchilar matnni darslikdan ko`chirib yozsin, ular matnni yana bir bor o`qishga va hamkorlikda

matnni qisqacha umumlashtirib yozishga o`rganadi. Darslikda qanchadan – qancha matnlar bor, o`qituvchilar “Zinama-zina” texnologiyasining ushbu matnni qisqartirib yozish usulidan tez-tez foydalansalar, farzandlarimizda og`zaki va yozma nutq rivojlanar edi, ona tili fani bilan integratsiya hosil bo`lardi.

“Zinama-zina” texnologiyasining matn mazmuni asosida rasm chizish usuli darslikning “Keldi bahor – gulbahor “ bo`limidagi “Erta bahor” “Varrak” “Navro`z – bahor bayrami” mavzularini o`tishda juda qulay hisoblanadi. Texnologiyaning ushbu turi o`quvchilarda matn mazmunini tashkil etuvchi elementlarni tasvirlash qobiliyatini oshiradi. Texnologiyaning ushbu variantida ham bolalar matnni qayta – qayta o`qish orqali mazmun yuzasidan rasm soladi. Taqdimot paytida har bir guruh matn mazmuni bo`yicha chizgan tasvirga qarab hikoya qiladi. Texnologiyaning ushbu turida ham taqdimot qog`ozlari zinama-zina shaklida doskaga ilib qo`yiladi.

Xulosa shuki, boshlang`ich sinf o`quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish asosida olib borilgan tadqiqot ishlarida “Zinama- zina” texnologiyasidan foydalanish o`quvchilarning kreativ faollikning shakllanishi, shu asosida ularda o`zini-o`zi rivojlantirish ko`nikmalarining hosil qilinishi, eng asosiysi, matnni o`qish va tushunish ko`nikmasi shakllanadi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilari ushbu metoddan darslarda samarali foydalansalar, kutilayotgan 2021 - yilgi PIRLS xalqaro bilimlarni taqqoslash musobaqasiga kuchli tayyorgarlik bo`lur edi.

---

## **O`QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O`RNI**

*G'opurova Gulshoda Durdiboy qizi*  
*Xorazm viloyati Hazorasptumani 27-maktab psixologi*

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlarning asosida o`rib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxslar etib tarbiyalash masalasi turadi. Bu jarayonda yondoshishimiz kerak bo`lgan asosiy masala bu ularga to`g`ri kasb-

hunar tanlashga ko'maklashishdir. Kasb-hunarga yo'naltirishda maktabgacha tarbiya va maktab davrida o'quvchilarga zarur va kerakli tushuntirish ishlari olib borilishi bilan ahamiyatlidir. Bu vazifalarni bajarishda oila va jamoatchilikning ham hamkorligi kerak bo'ladi. Chunki ayrim yoshlarimiz ma'lum bir bosim asosida kasb tanlaydi, o'zlarinig mustaqil qaroriga ega bo'lmaydilar. O'quvchilarni kasbga yo'naltirar ekanmiz, kasb tanlashning ongliligi, tanlanayotgan kasbga insonni qiziqishlari, layoqat, qobiliyati va jamiyatning ehtiyojlariga mosligi, kasbning inson tomonidan faol tanlanilishi, kasbning inson rivojlanishi uchun imkon berishi kabi jihatlarni inobatga olish talab etiladi.

Kasbni to'g'ri tanlash uchun 3ta jihatga e'tibor qartish kerak:

“Xohlayman”-kasbiy qiziqish, layoqat.

“Uddalayman”-salomatlik, kasbiy yaroqlilik, imkoniyatlarga ega bo'lish.

“Kerak”-kasbiy sohani bilish, o'zining yutuq kamchiliklarini baholashga asoslangan maqsadga erishish yo'llari.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari davomiy bo'lib, tizimli ravishda amalga oshiriladi. Dastlab bola o'z qiziqish va kasbiy moyilligini o'yin faoliyati orqali amalga oshiradi. Keyinchalik bu qiziqishni maktabda kasbiy o'yinlar, treninglar, suhbatlar tarzida mustahkamlab borilib, maqsadga aylantiriladi. O'tkazilgan kasbiy so'rovnomalar, test va suhbatlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kasb tanlashda deyarli bir xil kasblar: o'qituvchi, shifokor, yurist, muhandis, jurnalist, aktyor, tarjimon kabi kasblar nomini keltirishadi. Bu esa ular kasblar haqida to'liq ma'lumotga ega emasligini ko'rsatadi. Yer yuzida 5000 dan ziyod kasblar mavjud. Ayrimlari juda mashhur kasblar. Ayrimlari kamyob va noyob kasblardir. Yana bir yoshlarimiz duch keladigan muammolardan biri bu oddiy ishqibozlikni kasb bilan adashtirib qo'yadilar. Kasb tanlashdagi bu kabi masalalarni hal etib, o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashiga yordamlashishda amaliyotchi psixologlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida metodikalarni tanlashda o'quvchilarni yoshi, harakter xususiyati inobatga olinishi lozim. Boshlang'ich sinflarda enerjayzirlar ko'rinishidagi treninglardan foydalanish samaraliroq natija beradi. O'quvchilarning yoshi ulg'ayganlari sari ularning xarakter sifatlari ham o'zgaririb borishi hisobiga, ularning voqelikka bo'lgan munosabatlai ham o'zgaradi. Kasb tanlash jaryonida turli xil ikkilanishlarga duch

keladilar. Amaliyotchi psixologlar o'z ish jarayonida guruhiy va individual suhbatlar, kasbiy maslahatlar, ota-onalar bilan alohida tushintirish ishlarini olib borishi bilan birga, o'quvchilar uchun alohida mavzulashtirilgan treninglar dasturini ham shakllantirishi lozim. Kasb-hunarga yo'naltirish treninglari tizimli va davomli bo'lib bir-birini to'ldirib borishi lozim. Kasblar haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish, temperamentiga ko'ra kasb tanlash, o'zi uchun ma'qul bo'ladigan kasblarni tanlash, kasbning insonga qo'yadigan talablari bilan tanishish, kasbiy faoliyatda yutuqlarga erishish va to'siqlarni yengib o'tish, shaxsiy kasbiy reja tuza olish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, kasbiy yangiliklardan xabardor bo'lish kabi tushunchalar navbatma-navbat o'rgatilib boriladi.

Kasbga yo'naltirish metodikalari turli-tuman bo'lib, kasbga yo'naltirishda faqat so'rovnomalardan emas, ularning barchasidan foydalanish lozim. Mazkur usullar yordamida o'quvchining qiziqish va qobiliyat yo'nalishi aniqlangandan so'ng, kasbiy maslahatning shakli, mazmuni va uni o'tkazish tartibi belgilanadi. Kasbiy maslahatning asosisini kasb tanlashda ikkilanayotgan maktabning 10-11 sinf o'quvchilari tashkil etadi. Kasbning nufuzliligi albatda inobatga olinishi, lekin qiziqish, qobiliyat, sog'lik holati, mehnat bozorida kasbga bo'lgan talab ham inobatga olinishi haqidagi tushunchalar kasbiy maslahatning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari ko'pgina o'quvchilar o'zlarinig zaif tomonlarini bilishdan cho'chiydilar, natijada mustaqil qarorga ega bo'lmasdan kimgadir ergashib kasb tanlaydilar. Bu tanlov juda kam hollarda samarali bo'lishi mumkin, lekin, aksincha bu tarzda kasb tanlagan insonlar munosib turmush sharoitiga erisha olmaydilar. Kasbiy maslahatning asosini samarali kasb tanlashga yo'naltirish tashkil etadi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etib boorish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik-pedagogik xizmat ko'rsatishtish faoliyatini uzluksizligini ta'minlash lozim. Bu yo'nalishda psixolog bolan bir qatorida sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari ham reja asosida tegishli ishlarni olib boradilar.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Тошкент 2005.
2. Э.Ф.Фозиев. Психология муаммолари. Тошкент 1999.

3. Р.Й.Тоштемиров, Э.Ф.Ғозиев Психодиагностика ва амалий психология.  
Тошкент 2004.

## **RUHIY ZO‘RIQISH VA UNI OLDINI OLISHNING O‘ZIGA XOSLIGI**

*Muhiddinova Mahliyo Nuriddin qizi  
Buxoro viloyati Gijduvon tumani 8-maktab psixologi*

Insonning har qanday faoliyati aqliy, ijodiy va jismoniy ishlari zo‘riqishni talab qiladi. Shunday yo‘l bilan insonlar hayotiy vaziyatlarda oldilarida turgan vazifalarga uzoq vaqt ishni diqqatlarini jamlab, ularni ishonch bilan to‘liq yecha oladilar. Inson ishni muvaffaqiyatli tugatgandan so‘ng yengillashish va bo‘shashish hissini boshdan kechiradi. Bu holat bo‘shashish deb ataladi. Nerv va gormonal yo‘llar orqali zo‘riqib, funksiyaning organik (stress) muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. U inson uchun zararli hisoblanmaydi, agar sarflangan energiya tezda bo‘shashish orqali qayta tiklansa, tanafuslar va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish yo‘li bilan bo‘shashishga erishish mumkin. Bo‘shashishga boshqa faoliyat turiga ko‘chish orqali ham erishish mumkin.

Lekin zo‘riqish inson ijodiy faoliyatini tormozlashi, ish qobiliyatini pasaytirishi, sog‘liqqa zararli ta’sir ko‘rstishi mumkin. Agar bo‘shashish yetarlicha bo‘lmasa, yuqoridagi xolatlarni kuzatish mumkin. Ular shaxsiy hayot va ishdagi nizoli vaziyatlar, shaxslararo munosabatning buzilishi, kelajakka ishonmaslik, xavf- xatardan qo‘rqish, ishni doimo qisqa muddatda topshirish tufayli o‘z vaqtida ulgura olmaslikdan qo‘rqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga jamoadagi nosog‘lom psixologik iqlim, shaxs xarakterining bo‘shligi, qo‘rqish, muvaf-faqiyatsizliklar, o‘z imkoniyatlarini yuqori baholsh, boshqa kishilar bilan munosabat aloqalarning yetishmas-ligi, ijtimoiy ajralib qolish ham uzoq zo‘riqish xolatiga olib kelishi mumkin. Barcha stress xolatlarida salbiy hissiyotlar rol o‘ynaydi. Ular inson faoliyatiga va uning organizmiga buzuvchi ta’sir ko‘rsatadi.



Nevroz organizm va muhit orasidagi dinamikaning barqaror bo'lishi oqibatida paydo bo'ladigan kasallik bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlash, hissiyot, boshqarish bilan bog'liq miyadagi jarayonlarning o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarishlar motor va sensor funksiyalarni jalb qiladi, aqliy va jismoniy ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Organizm va muhit orasidagi dinamika yoki muhitning noanomol sharoitlari yoki organizmning anormal holatidan buzilishi mumkin. Masalan, muhitdan keluvchi bir kuzatuvchiningo'zi bir odamga undovchi ta'sir ko'rsatsa, boshqa birida og'riq reaksiyasini vujudga keltirishi mumkin. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, jismoniy va ruhiy mashq qilgan, kelajakka ishonch bilan qarovchi inson sog'lig'iga ziyon keltirmasdan ishlashi mumkin.

Tashqi muhit sharoitlariga bog'liq nerv psixik kasalliklarining vujudga kelishi va taraqqiyotida stresslarning ta'siriga katta ahamiyat beriladi, ayniqsa, bu yurak-qon tomir kasalliklariga tegishlidir. Shu bilan birga stressga ijobiy ta'sir, ya'ni ish qobiliyatini oshirish xislati xos. Shuning uchun ham stressni "hayot tuzi" deb atashadi. Tuzdan foydalanishda me'yoriy rol o'ynaganidek, stressning ham me'yori mehnat unumdorligini oshirishi mumkin yoki me'yordan ortishi sog'liq uchun zararli bo'lishi mumkin. Inson aqlli mavjudot sifatida, agarda u bilimlar, tartib, irodaviy hislatlar va faollikka ega bo'lsa stressning to'g'ri dozasi o'zi uchun aniqlashi mumkin.

Stress - bu inson atrof-muhit o'zgarishlariga moslashishida yuzaga keluvchi ruhiy va jismoniy holat. Bu organizmning zarbaga, tashqaridan qilingan bosimga javoban keskinroq qarshilik ko'rsatish. Biz ularni uncha yoqimli bo'lmagan odatiy hol sifatida qabul qilamiz bu atrof muhitning uzoq vaqt ta'siri bo'lib, individ uchun hissiy organizmning boshqariluvchi tizimida va markaziy nerv sistemasida unga mos reaksiyalarni vujudga keltiradi.

Amaliy nuqtai nazardan stress nima? Buni tushunish uchun stressning asosiy alomatlarini ko'rib chiqamiz:

Doimiy bezovtalik, tushkun holatda yurish, ba'zida bu holatlar hech qanday sabablarsiz yuzaga keladi.

Yomon, notinch uyqu.

Depressiya, jismoniy zaiflik, bosh og'rig'i, charchoq, biron narsa qilish yoqmasligi.

Diqqatni kamayishi, bu o'qish yoki ishlashni qiyinlashtiradi. Xotiradagi muammolar va fikrlash jarayonining sekinlashishi.

Dam olish, ish va muammolarni bir chetga chetga surib qo'ya olmaslik.

Boshqalarga, hatto eng yaxshi do'stlarga, oila va yaqin kishilarga qiziqishning yo'qligi.

Doimiy paydo bo'ladigan yig'lash, ko'z yosh to'kish, xafagarchilik, umidsizlik, o'z-o'ziga achinish hissi.

Ishtahaning pasayishi — ba'zida esa aksincha: oziq-ovqatni ortiqcha yeb yuborish.

Ko'pincha asabiy odatlar rivojlanadi: kishi labini tishlaydi, tirmoqlarini tishlaydi va hokazo. Kishida befarqlik, odamlarga ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Agar siz stress holatda bo'lsangiz, bu bir narsa demakdir: sizning organizmingiz qandaydir tashqi ta'sirga javob reaksiyasini qaytardi.

Stressning sababi aslida insonni ta'sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo'lishi mumkin. Misol uchun, tashqi sabablarga biron nima tufayli payo bo'lgan bezovtalikni kiritisa bo'ladi (ish joyini o'zgartirish, qarindoshning o'limi).

Stressning ichki sabablari hayotiy qadriyatlar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. Bunga shaxsiy baholashi ham kiradi

Stress va depressiya ayol va erkaklarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o'z xususiyatlariga ega. Agar siz o'zingizda stress haqida so'zlashi mumkin bo'lgan alomatlarni sezsangiz, birinchi navbatda holat sababchilarini aniqlash kerak. Stressning oqibatlaridan ko'ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. «Barcha kasalliklar asabdan» degani yolg'on emas.

Stressning o'z harakatlantiruvchi qurilmasi o'z davriyligi mavjud va bu quyidagilarda ko'rinadi.

1- bosqich. Xavotirlanish ta'siri. Organizm quvvatni ishga soluvchi garmonlar ajratgan holda unga qarshilik ko'rsatadi. Xavotirlanish ta'siri qandaydir shiddatli yallig'lanish jarayoni yordamida namoyon bo'lishi mumkin. Keyinchalik hammasi o'z

o‘rniga tushadi- odam stressgacha bo‘lgan holatga qaytadi. Agar zo‘riqishni yenga olmagan bo‘lsangiz ikkinchi bosqichni yuzaga keltiradi.

2- bosqich unga moslashish bosqichi boshlanadi. Organizm stress bilan kelishishga harakat qiladi, nima qilib bo‘lsa ham, undan xalos bo‘lishga intiladi. Buyrak usti bezlarining faolligi oshadi, ular yalig‘lanishga qarshi xususiyatlargaega bo‘lgan kortikosteroidlarni qongaishlab chiqaradi. Lekin zo‘riqishgamoslashish jarayoni o‘z nihoyasiga yetayotgan kuchalarni arang tutib turgan quvvatni so‘rib oladi. Jang ham, tinchlik ham bo‘lmagan bu holatabadiy davom etishi mumkin emas. Uning yakuni uchinchi bosqichni yuzaga keltiradi.

3- stressning uchinchi bosqichi: inson organizmini tamoman holdan toyishini yuzaga keltiradi.

Asabiy vaziyatni, yaxshisi birinchi bosqichda, juda bo‘lmaganda ikkinchi bosqichda bartaraf etish lozim. Buning ikki yo‘li mavjud.

1. Muammoda diqqatni jamlash metodi - asbiy vaziyatning o‘zini nazorat qilish va o‘zgartirishdan iborat. Umuman olganda muammoda diqqatni jamlash usuli, qoidaga ko‘ra, boshqarish mumkin bo‘lgan asabiylashish omiliga duch kelganingizda, y’ani birorchorani qo‘llamoqchi bo‘lgan vaziyatda juda foydali hisoblanadi. Muammoni tahlil qilib chiqing: ba'zida o‘z muammolarimizni oshirib yuboramiz Haqiqatan hammuammo bilan ish ko‘ramizmi yoki bu zo‘riqish holati ikki lahzada hal etiladigan arziyas narsadan yuzaga kelganmi, aniqlab olish zarur.

2. Diqqatni hissiyotlarda jamlash usuli - odamlar vaziyatga nisbatan o‘zlarining ehtirosli ta’sirlarini nazorat qilishga urinishlaridan iborat. Hissiyotlarda jamlangan harakatlarni nazorat ostidan chiqib ketgan zo‘riqishni engish uchun mos keladi. Bu ikki usul bir vaqtning o‘zida qo‘llanilishi mumkin.

Biz insondagi ruhiy zo‘riqishni oldidini olish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Tez fursatda tanani bo‘shashtirish.
2. Miyaga dam berish.
3. Zo‘riqishga olib keladigan vaziyatlardan nari bo‘ling.
4. Sun’iy zo‘riqishni yuzaga keltiruvchi salbiy xotiralardan voz keching.
5. Ovqatlanishda foydali maxsulotlarga urg‘u bering.

## БОЛАНИ ЎСМИР ЁШ ДАВРИДА ПСИХИК РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Махкамова Раънохон Бакирбаевна  
Давлатобод тумани 79 - мактаб психологи*

Психологияда ўсмирлик даври ўзи хос бир қанча хусусиятлар билан ажралиб туради. Бу ажралиб туриш айниқса психик ўзгаришларда яққол намаён бўлади.

Ўсмирлик даврида назарий тафаккур юқори ривожланиши аҳамиятга эга бўла бошлайди. Чунки бу даврдаги ўқувчилар атроф оламдаги боғланишлар мазмунини максимал даражада билишга ҳаракат қиладилар. Бу даврда ўсмирнинг билшга бўлган қизиқишда прогресс содир бўлади. Илмий назарий билимларнинг эгаллаб олиниши тафаккурнинг ривожланишига олиб келади. Бунинг ҳисобига исбот, далиллар билан фикрлаш қобилияти ривожланади. Унда дедуктив хулосалар чиқаришга қобилият пайдо бўлади. Мактабда ўқитиладиган фанлар ўсмир учун ўз тахминларини юзага келтириш ёки текшириш учун шароит бўлиб хизмат қилади. Ж.Пиаженинг таъкидлашича «Ижтимоий ҳаёт уч нарсанинг таъсири – тил, мазмун, қоидалар асосида шакллантирилади». Бу борада ўзлаштирилган ижтимоий муносабатлар ўз –ўзидан тафаккурнинг янги имкониятларини яратади.

11–12 ёшдан бошлаб ўсмир энди мантикий фикрлаб ҳаракат қила бошлайди. Ўсмир бу ёшда худди катталар сингари кенг қамровли таҳлил этишни ўргана бошлайди. Ўсмир тафаккурнинг назарий даражага қанчалик тез кўтарила олиши ўқув материалларни шунчалик тез, чуқур эгаллаш ва унинг интелектини ҳам ривожланишини белгилаб беради. ўсмирлик даври юқори даражадаги интеллектуал фаоллик билан фарқланади. Бу фаоллик асосан ниҳоятда қизиқувчанлик ҳамда атрофдагиларга ўз лаёқатларини намойиш этиш, шунингдек улардан юқори баҳо олиш эҳтиёжининг

мавжудлиги билан белгиланади. Ўсмирнинг катталарга берадиган саволлари кўпгина мазмунли, чуқур ўйланган ва айнан ўша масала юзасидан бўлади. Бу ёшдаги болалар турли гипотезалар туза оладилар, тахминий фикр юрита оладилар, тадқиқ ўтказа оладилар ҳамда маълум бир масала бўйича алтернативларни таққосла оладилар. Ўсмир тафаккури кўпинча умумлаштиришга мойил бўлади. Республикамизнинг бозор иқтисод шароитига ўтишда кишилардаги амалий тафаккурнинг аҳамияти ошмоқда. Амалий тафаккур тизимида қуйидаги ақлий сифатлар киради:

- тадбиркорлик, тежамкорлик, ҳисоблилиқ, юзага келган муаммоларни тез еча олишлиқ.

Кўрсатилган барча сифатлар бўлган тақдирдагина амалий тафаккурини ривожланган деб ҳисоблаш мумкин. Бу сифатларни 1–синфданок бошлаб ривожлантира бориш ниҳоятда муҳим. Ўсмирлик даврида ишбилармонлик сифатини ўқувчилар ўз–ўзини бошқаришни йўлга қўйиш шунингдек, умумий фойдали тадбиркорлик ишларида иштирок этириш орқали ривожлантириш мумкин. Бу борада ўқувчи ижрочи ролида эмас балки бошқарувчи, мустақил йўл танловчи ва тадбиркорлик муносабатларига ўзи киритувчи бўлган тақдирдагина ривожланиш амалга ошиши мумкин. Бу ёшда тадбиркорликни ривожлантиришда кўпроқ мустақилликни берилиши ўсмир амалий тафаккурининг ривожига ижобий таъсир кўрсатади. Ўсмир ёшдаги болаларда тежамкорликни ривожлантириш ақлни бошқа сифатларига нисбатан осонроқ кечади, буни кўпроқ уларни қизиқтирадиган нарсаларга мустақил равишда ҳисоб – китоб қилиб боришга йўллаш орқали амалга ошириш мумкин. Ўсмирларда юзага келган муаммоларни тез ва оператив ҳолда ечиш малакасини шакллантириш бир мунча қийинроқ кечади. Албатта бу боланинг темпераментига ҳам боғлиқ. Барча ўсмирларни ҳам тез ўйлаб, тез ҳаракат қилишга ўргатиш мушкул,

лекин уларни муаммо юзага келиши билан орқага ташамай тез ечишнинг умумий қоидаларга ўргатиб бориш мумкин.

Ўсмирлик даврида интеллектнинг юқори даражада ривожланган бўлиш ҳимматли ва обрўли ҳисобланади. Ўсмир шахсида ва унинг билишга қизиқишидаги ўзгаришлар ўзаро боғлиқ бўлади. Ихтиёрий психик жараёнларнинг ривожланиши ўсмирдаги шаклланиб келаётган шахс мустақиллигига таянади, ўзининг шахсий хусусиятларини англаш ва шакиллантириш имкониятлари эса ундаги тафаккурнинг ривожланиши билан белгиланади.

Ўсмирлик даврида диққат, хотира тасаввур тўла мустақиллик касб этиб, энди ўсмир уларни ўз ифодасига кўра бошқара оладиган бўлади. Бу даврда қайси етакчи функция (диққатми, хотирами ёки тасаввур) устунлик қилаётгани яққол намоён бўлиб, ҳар бир ўсмир ўзи учун ахамиятлироқ булган функцияни эътиборга олиш имкониятига эга бўлади.

Ўсмирлик даврида асосан билиш жараёнлари юқори даражада ривожланади. Бу йилларда ўсмирларга ҳаёт давомида керак бўладиган асосий шахсий ва тадбиркорлик хусусиятлари очиқ кўрина бошлайди. Хотира механик хотира даражасидан мантиқий хотира даражасига кўтарилади. Нутқ асосан юқори даражада ривожланган, хилма-хил ва бой тафаккур эса ўзининг барча кўринишлари: ҳаракатли, образли, мантиқий даражасида ривожланади. Ўсмирларни энди турли амалиёт ва ақлий фаолиятларга ўргатиш мумкин. Шунингдек, бу даврда умумий ва махсус лаёқатлар шаклланади ва ривожланади. Бу даврига жуда кўп зиддиятлар ва қарама-қаршиликлар хос. Мактаб дастури ва бошқа ишлар билан боғлиқ турли масалаларни ечишда кўзга ташланадиган ўсмирларнинг интеллектуал ривожланганлиги катталарни улар билан бирга жиддий муаммолар бўйича фикрлашга ундайди, ўсмирларнинг ўзлари ҳам бунга ҳаракат қиладилар. Бошқа томондан эса айниқса, келажак касб, хулқ атвор этикаси ва

мажбуриятларига масуллик каби муаммолар муҳокамасида инфантилликни (ёш болаларга хос жисмоний ва психологик ҳолат) кузатиш мумкин.

5-6 синф ўқувчиларига синфдаги ўзи эгаллаган мавқеига катта эътибор бериш хусусияти хос. Айниқса 6 синфдан бошлаб ўқувчилар ўз ташқи кўринишларига, шунингдек қарама-қарши жинсдаги болалар ва улар билан ўзаро муносабатларига эътибор бера бошлайдилар.

7-синф ўқувчиларида эса ўз лаёқатларини ривожлантиришга хос қизиқиш юзага келади. 8 синф ўқувчилари эса мустақиллик, ўзига ҳослик, дўстлик ва ўртоқлик билан боғлиқ бўладиган шахсий хислатлар юқори баҳоланади. Ўсмирларнинг ана шу кетма-кет юзага келадиган қизиқишларига асосланадиган ҳолда фаол равишда иродавий ишбилармонлик ва бошқа фойдали сифатларни ривожлантириш мумкин.

Юқоридаги маълумотлар шунини кўрсатадики, ўсмирлар бу даврда психик ва эисмоний ривожланишнинг муҳим жиҳатини босиб ўтади. Катталар эса бу даврда улардан огоҳ бўлиб йўл-йўриқ кўрсатиб туришлари лозим.

---

## **ЎСМИРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РУҲИЙ ОМИЛЛАР АҲАМИЯТИ**

*Исаева Барно Эшмуҳаммадовна  
Сурхондарё вилояти Ангор туман 17-мактаб психологи*

Бугунги кунда кўплаб ота-оналар, педагоглар бола шахсининг таълим-тарбия жараёни, бу жараённинг психологик омиллари билан уйғун равишда таъсир ўтказишни истайди. Бунинг учун эса, энг аввало ёш даврлар психологияси хусусиятларини билишлари, инобатга олишлари даркор. Ёш даврлар психологияси фан сифатида боланинг индивидуал хусусиятларини, атроф-муҳитни англаш ва идрок этиш, ёш даврга нисбатан ривожланаётган психик даражасини ўрганиш ва

уни такомиллаштиришдан иборат. Ҳар бир ёшда бирор функциянинг ривожланиши бошқа бир функциянинг сусайиши ҳисобига рўй беради. Масалан, болаликнинг илк боғча ёшида фазога мослашув жуда кучайса, кейинчалик унинг ўрнини вақтни адекват идрок қилиш кучаяди. Қарияларнинг бирор нарсалар хусусида билимдонлиги, маълумотлар дунёсидаги яхши ориентацияси, психомоторик функциялар ва бевосита билиш жараёнларининг сусайиши ҳисобига рўй беради. Худди шундай, боланинг 3-5 ёш даври тилни, унинг луғавий ва структуравий хусусиятларини ўзлаштиришга жуда мақбул бўлса, етуклик даври бўлмиш 45-55 ёшларга келиб айна шу сифат деярли ўзини йўқотади («тил қотиб қолади»).

Ўсмирнинг шахс сифатида тараққиёти.

Бир томондан, бошқалар, тенгқурлар билан яқинроқ алоқада бўлишга интилиш, гуруҳ нормаларига бўйсунуш, иккинчи томондан, мустақилликнинг ошиши ҳисобига бола ички руҳий оламида айрим қийинчиликлар кузатилади. Ўзгаларни англаш билан ўз-ўзини англаш ўртасида ҳам қарама-қаршиликлар пайдо бўлади. Кўпинча ўсмир ўз имкониятларини юқори баҳолайди, бошқалар эса унинг кучи, иродаси ва салоҳиятига ишончсизлик билан қарайди. Лекин шундай бўлса-да, ўзини нима қилиб бўлса ҳам ҳеч бўлмаганда тенгқурлар жамияти томонидан тан олинисига эришишга интилади ва улар билан мулоқот ҳаётининг маъносига айланиб қолади.

Агар, мабодо ўсмир шу даврда бирор сабаб билан тенгқурлари жамияти томонидан инкор қилинса, у бунга жуда катта мудҳиш воқеадай қарайди, мактабга бормай қўйиши, хаттоки, суицидал ҳаракатлар (ўз жонига қасд қилиш) ни ҳам содир этиши мумкин.

- ◎ Ўсмирликнинг физиологик ўзгаришлари
- ◎ Ўсмирлик даврида нафас олиш органлари жадал ривожланади.

Ўпканинг тириклик сизими ўғил болаларда - 11 ёшда 1900-2000 мл; 15 ёшда 2600-2700 мм; қизларда-11 ёшда 1800-1900 мл; 15 ёшда 2500-2600 мл.

Шунинг учун нафас олиш ҳар дақиқада 2 мартага камаяди. Ўғил болалар корин билан, қизлар эса кўкрак билан нафас ола бошлайдилар. Кўкрак қафаси, нафас олиш мускуллари тез ўса боради ва жинсий етилишни кучайтиради.



◎ Ўсмирликнинг физиологик ўзгаришлари 11-12 ёшдаги ўсмирнинг ички секреция безлари қайта туғилади. Гипофизнинг олд қисми ишлаб чиқарадиган гормонлар гавданинг ўсишини таъминлайди. Гипофизнинг ўрта қисмининг кучайиши сабабли пигментлар алмашилиши ўзгаради, натижада соч қорайиши, юзларнинг оқариши намоён бўлади.

◎ Ўсмирликнинг физиологик ўзгаришлари Гипофиз билан бир қаторда қалқонсимон безнинг функцияси ҳам кучаяди. Қалқонсимон без ишлаб чиқарадиган тироксин гормони организмда модда алмашинуви ва энергия сарфини кескин орттиради. Марказий нерв тузилмасида кўзгалувчанлик ўзгаради, натижада яққол ҳис-туйғулар туғила бошлайди.

◎ Қалқонсимон без фаолиятининг кучайиши кўзгалувчанлик, асабийлашиш ва толиқишни келтириб чиқаради. Бош мия қобиғида тормозланиш жараёнининг сусайиши шиддатли эмоционал кечинмаларни вужудга келтиради, хулқ-атворда парокандалик, ғайритабiiйлик пайдо бўлади. қалқонсимон без функциясининг ўзгариши ва модда алмашинувининг бузилиши сабабли ўсмирда семириш рўй бериши мумкин.

◎ Ўсмирликдаги руҳий ўзгаришлар Мазкур ёш даврида жинсий безлар фаолияти кучаяди. Балоғатга етишнинг бирламчи ва иккиламчи аломатлари ўса бошлайди: ўғил болаларда овоз ўзгаради, йўгонлашади, мўйлов ва сокол пайдо бўлади, қизларда эса кўкрак безлари ривожланади ва ҳоказолар.

Натижада бошқа жинсга қизиқиш ортади, орзу, хоҳиш, нозик туйғулар, соғинч, изтироб каби кечинмалар пайдо бўлади.

◎ Ўсмирлар жинсий этилиш сирларининг 17 фоизини ота-онадан, 9 фоизини ўқитувчилардан, 4 фоизини мактаб врачидан ва қолган яширин жиҳатлари, ҳолатлари тўғрисидаги маълумотларни кўча-кўйдан, ўртоқлари ва дугоналаридан эшитиб билиб оладилар.

Кутилмаган ҳолатлар ва маълумотлар уларнинг хатти-ҳаракатини чигаллаштиради, яққалик оламига берилиш бошланади, феъл-атворда айрим иллатлар пайдо бўлади.

Ўсмирлик давридаги қийинчиликларнинг олдини олиш.

Ўсмирнинг бирор нарсага турғун қизиқишига эришиш, фаолият мотивларини мазмунлироқ қилиш. Масалан, шу даврда техникага қизиқиб қолган бола қизиқишини қондириш шарт-шароитининг яратилиши, бекор қолмаслигига эришиш, ҳар бир ҳаракатини рағбатлантириш, унга бир иш қўлидан келадиган одамдай муносабатда бўлиш катта педагогик аҳамиятга эга. Унинг қизиқишларини била туриб, олдига янгидан янги мақсадлар қўйиш — бола шахсининг ривожига асосдир. Шундагина унинг ўз «Мен»и тўғрисидаги тасаввурлари ижобий, ўз-ўзига баҳоси объектив ва адолатли бўлади, ўзининг нималарга қодирлиги ва ким эканлиги ҳақида яхши фикрлар пайдо бўлади.

Ўсмирлик давридаги қийинчиликларнинг олдини олиш.

Ўсмирликнинг ўзига хос томонларини инобатга олган ҳолда у билан мулоқот қилиш унинг муаммоларини ечишга ёрдам беради. Биз катталар баъзан фарзандларимиз, ўқувчиларимизнинг дунёқарашини, ҳоҳиш-истакларини тушунмагандай бўламиз, ўз фикримизни тўғрилигини исботлашга, уни шунга қўндиришга ҳаракат қиламиз. Улар учун ишлаётганимизни, барчасини улар учун қилаётганимизни қайта-қайта таъкидлаймиз.

Бироқ шу кичик мурғак қалб учун бизнинг озгина эътиборимиз, ширин сўзимиз, “Яхшиям, Сен борсан, борингга шукур”, деган самимий гапимиз керак ҳолос.

Бола бизнинг меҳримизни, эътиборимизни ҳохлайди, шу нарсалардан уни маҳрум қилишимиз, ўзига хос бўлган турли салбий хулқ-атвор кўринишларни юзага келтиради.

Ўспиринлик даври

У ҳозирги пайтини, бугуни ва эртасини келажак нуқтаи назаридан, истиқболга назар билан қабул қилади. Айнан шу даврга келиб, ўспирин турли касбларга қизиқа бошлайди, ўзининг келажакда ким бўлишини тасаввур қила бошлайди.

Демак, ўз-ўзини профессионал нуқтаи назардан ажратиш, тасаввур қилиш - ўспиринликнинг энг муҳим янгилигидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Нишонова З.Т., Алимова Г.К. Болалар психологияси ва психодиагностикаси ТДПУ 2017-264 б.
2. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси Назарий-экспериментал таҳлил Т. 2010й.
3. Дўсмухамедова Ш.А. Нишонова З.Т. ва бошқалар Ёш даврлари ва педагогик психология Т.:Фан ва технологиялар 2013й.

---

**YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IRODAVIY XUSUSIYATLARNING O'RNI VA PSIXOLOGIK OMILLARI**

*Nurullayeva Shalola Sur'at qizi*  
*Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 33-maktab psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda irodaviy xususiyatlarning o'rni va psixologik omillari haqida bir qator mulohazalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, irodaviy xususiyatlar, muhit, ota-ona, tarbiya, omil, ijtimoiy faollik, qat'iyat.

Fikrimizcha, araqqiyotni yuzaga keltiruvchi asosiy omil — bu shaxslar bo'lib, ular biosfera va noosferaning insoniyat uchun noma'lum, yangi qirralarini ochish, fanni rivojlantirish, texnika va texnologiya ishlab-chiqarishga qodirdirlar. Psixologiya fanida inson omili uzluksiz ravishda ta'kidlanib turilishiga qaramasdan, u taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi batamom tan olinmagan. Xuddi shu bois individuallik va umumiylik ustuvor rol o'ynashi birlamchi voqelik sifatida talqin qilingan. Bugungi kunda inson omili, komil inson psixologiyasining bosh maqsadiga aylanib, uning xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari, xosiyatlari, sifatleri, ichki imkoniyatlari, iste'dod alomatleri qancha erta ro'yobga chiqarilsa, demak taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi super shaxslarni shakllantirish shunchalik tezlashadi, Inson kamoloti quyidagi bosqichlardan

iborat: murtaklik — odam — inson — shaxs — sub-ekt — komil inson. Inson komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni ertaroq egallaydi, taraqqiyotni jadallashtirishga munosib hissa qo‘shadi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o‘zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o‘z - o‘zidan ro‘y bermaydi.

Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada “motiv” va —motivatsiya tushunchalari ishlatiladi. Inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta‘sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta‘sirini o‘tkaza olishi jarayonidir. Ta‘limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanishiga olib keladi. O‘zini qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shunday tetik ongli turmish kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo‘lib har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z ma‘suliyati bilan ongli tarzda ozod va xur fikrli bo‘lib yashaydi.

Aynan shaxs faolligini shakllanishida irodaviy sifatlarni o‘rni muhimdir. Chunki inson kundalik faoliyatlarida faollikka xarakat kilar ekan u albatta istaydimi, istamaydimi turli qiyinchiliklarga uchraydi. Bu qiyinchiliklarni yengishda o‘zida kuch, matonatni tarkib toptirishi lozim.

Irodaviy sifatlardan qat‘iyatlilik ham insonning u yoki bu maqsadlarini amalga oshirishga muhim o‘rin egallaydi. Kishi irodasining kuchi va qat‘iyati xarakterning irodaga bog‘liq bo‘lgan qaysi xislatlarida ifodalansa , o‘sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo‘ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xakteri qat‘iy deb bo‘lmaydi, balki bu sifatlari bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xakteri qat‘iy deb ataladi. Xorij psixologiyasida shaxsdagi qat‘iyatlilikni irodaning boshqa sifatlardan bo‘lmish qaysarlik bilan almashtirishadi. Ko‘pgina psixologlar qat‘iyatlilik va qaysarlik sifatlarini bir tushuncha sifatida e‘tirof etadi. Bunga

yaqqol misol sifatida —psixologiya lug‘atilda qat‘iyatlilikka berilgan ta‘rifni keltirib o‘tish joiz. Unga ko‘ra qat‘iyatlilik – irodaviy sifatlardan biri bo‘lib, qiyinchiliklar va to‘siqlarga qaramasdan o‘z maqsadi sari intilishga moyilligi mavjudligi bilan tavsiflanadi. Jahon psixologiyasida inson xatti-harakatidagi qat‘iyatlilik muhim ahamiyatga ega ekanligi allaqachon tan olingan. Jumladan Makdaugallning fikricha qat‘iyatlilik inson xulq-atvorining aniq maqsadga yo‘naltirilgan ob‘ektiv sifatlardan biridir. Irodani bu sifatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu holat xorij psixologlari uchun motivatsiyani o‘rganuvchi mustaqil yo‘nalish sifatida yuzaga keladi. Shu bois qat‘iyatlilik sekinlik bilan o‘zida qaysarlik, sabr, barqarorlik, uzoqni ko‘ra bilishlik kabi sifatlari bilan uyg‘un namoyon bo‘ladi. Lekin olib borilgan tadqiqotlarda ularni aynan bir xil emas, turlicha narsa ekanligini qo‘rsatib o‘tsalarda, bizning nuqtai nazarimizcha, qat‘iyatlilik, qaysarlik, sabrlilik bu shaxsda irodani namoyon bo‘lishi deb atashimiz mumkin. Ko‘p vaziyatlarda qat‘iyatlilik fenomenini o‘rganishda murakkab intellektual va echilishi qiyin masalalar, shuningdek ayrim hollarda test va jismoniy mashqlar yordamida amalga oshirilgan. Shunisi qiziqarlilik, bir shaxsda o‘tkazilgan turli qat‘iyatlilikka doir testlarni natijalarini korrelatsion tahlil qilinganda farq ahamiyatsiz darajani tashkil qilgan. Xorij psixologiyasida qat‘iyatlilik borasida olib borilgan tadqiqotlarni 3 yo‘nalishga ajratgan. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari qat‘iyatlilik inson xulq-atvorining muhim belgisi, harakterning xususiyatlaridan biri sifatida o‘rganiladi. Ushbu nazariya tarafdorlarining fikriga ko‘ra vaziyat bilan bog‘liq omillar inkor qilinadi, shu bilan bir qatorda ular shaxs xislatlari orqali yashirinadi deb hisoblanadilar. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari qat‘iyatlilik sifatini o‘zgaruvchanlik bilan bog‘lab, ya‘ni uni vujudga kelishi omad yoki omadsizlikning kelishiga bog‘liqligi tadqiq qilingan. Shunga bog‘liq ravishda agar inson uning erishgan yutuqlari —baxtli tasodifgal emas, balki uni o‘ziga bog‘liq deb hisoblashi natijasida shaxsda qat‘iyatlilik yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Albatta bu jarayonda masalaning qiyin yoki osonligi ham muhim ahamiyatga egadir. Birinchi yondashuvga nisbatan ikkinchi yondashuvda qat‘iyatlilik kuchli darajada namoyon bo‘ladi. Uchinchi yo‘nalish tarafdorlari qat‘iyatlilikni motivatsiya muammoli tizimida ya‘ni qat‘iyatlilikni motivatsiyaga bog‘liqligi jihatlari o‘rganiladi. Dj .Atkenson va G. Litvinlarning fikriga qaraganda motivatsion kuch masalani qat‘iyatlilik bilan ijobiy hal qilishni ta‘minlasa,

omadsizlikdan qochish motivi esa salbiy holatida namoyon bo‘ladi. Ixtiyoriy idora qilishning ontogenetik rivojlanishi haqida S.L.Rubinshteyn shunday yozadi: —Bolaning birinchi aniq bir ob‘ektga yo‘naltirilgan, qandaydir —muammonil echishga qaratilgan fikriy faoliyati irodaviy aktning primitiv ko‘rinishidir. Lekin irodaning bu primitiv ko‘rinishdan murakkab shakldagi irodaviy harakatlar uchun hali ancha uzoqdir. Adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, iroda ilk bolalik (2-4yosh) davrida mustahkam bo‘lmasdan, o‘smirlik davriga kelib, u huddi aql singari yangi qirralarini namoyon qiladi. Aslida esa, irodaviy harakatlar insonda juda erta namoyon bo‘la boshlaydi: xattoki 3yoshli bolaning harakatlarini barchasini instinktlar bilan bog‘lash umuman noto‘g‘ridir. Haqiqatdan olganda, iroda ilk bolalik davridan rivojlanishni boshlaydi va uzoq davom etadi. Bu taraqqit jarayoning har bir bosqichida iroda o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘ladi. O‘smirlarning irodaviy doirasi ancha qarama-qarshi bo‘ladi. Bu davrga o‘tishdagi jinsiy etilish tufayli neyrodinamik o‘zgarishlar yuz beradi va bu o‘z navbatida irodaviy sohaning ham o‘zgarishiga olib keladi. Natijada, vazminlik va dadillik yanada barqaror bo‘lib boradi va jasurlik rivojlana boshlaydi Qaysarlik faqatgina qiziqarli ishlarda vujudga kelishi mumkin. intizomlilik susayadi, o‘z —Menli, shaxsiy fikr va nuqtai nazariga egalik huquqini tasdiqlash bilan bog‘liq qaysarlik kuchayib boradi. Qo‘zg‘aluvchanlikning tormozlanishdan yuqoriroq bo‘lishi o‘smirning ta‘qiqlovchi axloqiy sanksiyalarni qabul qilishida qiyinchiliklarni tug‘diradi. Irodaviy aktlarda tashqi stimulyatsiyadan ichkiga o‘tish holati kuzatiladi. Biroq bu mexanizm hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shunday qilib, shaxs kamolotining keying bosqichlarida irodaviy sifatlar taraqqiy etib boradi. Albatta buning uchun ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar va berilayotgan ta‘limtarbiya muhim rol o‘ynaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, —O‘AJBNT markazi, 2002. – 205 b.
2. Yenikeyev M.I. Obshaya i sosialnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Norma, 2005. – 624 s. 35.

## RUHAN SOG'LOM O'QUVCHINING PSIXIK HOLATLARI VA ULARNI TUSHUNTIRISH VOSITALARI

*Tuxtamurodova Fotima Azamat qizi*  
*Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani 41-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ruhan sog'lom o'quvchining psixik holatlari va ularni tushuntirish vositalari haqida ilmiy-psixologik ma'lumotlar berilgan bo'lib, ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

**Kalit so'zlar:** O'quvchi, ruhiy holat, barkamol shaxs, ta'lim, tarbiya, ta'sir, tuishuncha, bilish jarayonlari.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ruhiy holatini barqaror kayfiyatini vujudga keltirish bilish faolligining negizi hisoblanadi. Shuning uchun xam o'quvchi ruhiy holatlarini o'rganish, ularda o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi va bilish faoliyatining xar xil ko'rinishlariga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Ruhiy holatning sifat xususiyatlari xilma-xil bo'lib, ular quvonch, qayg'u, tekislik, ruxiy ko'tarinkilik yoki tashvish, sarosimalik, bezovtalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Psixologiyada o'quvchilarning ruhiy holatini ilmiy asoslash orqali uning yo'nalishlari aniqlangan Jumladan: Gnostik: xavaskorlik, sinchkovlik, xayratlanish, ajablanish, taajjublanish, ikkilanish, gangish, xayolparastlanish, qiziqish, diqqat e'tiborlilik. Emotsional: shodlik, xafalik, g'amginlik, nafrat, alam, g'azab, qoniqish, jur'atsizlik, qo'rquv, daxshat, intilish, ishqibozlik, affekt. Irodaviy: faollik, qat'iylik, qat'iyatsizlilik, dadillik, dadilsizlik, vazminlik, yengillik, xotirjamlik. Mexnat psixik xolatlari: tayyorlik, tayyor emaslik, ilxom, ruxlanganlik, g'ayratlilik, lanjlik, loqaydlilik, ishchanlik, maxmadonachilik, charchoqlik, chidam, chidamsizlik. O'quv psixik xolatlari: xayajonli, ezilganlik, tormozlanganlik, berilganlik, xayolparishonlik, diqqat-e'tiborsizlik, e'tiborlilik, qiziqish, befarqlik. Sport psixik holatlari: shaylik, bo'shashganlik, zo'riqish, xarakatchanlik, tanglik, dadillik, dadilsizlik, tetiklik, loqaydlik, maqsadga intilganlik, mas'uliyatlilik. Optimal psixik xolatlar, stress holatlar, depressiv psixik xolatlar va shuu kabilar.

Suggestiv (ishontirilganlik) xolatlariga: a) geterasuggestiv, b) autosuggestiv, Didaktogen (nevroz) psixik holatlar kiradi. Ma'lumki, turli yoshdagi o'quvchilar ruxiy xolatlarini diagnostika qilish muammosi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Buning asosiy sababi egallangan bilimlar ko'lamining kengayganligi, inson hayoti va faoliyatining barcha sohalaridagi axborotlarning ko'payib borayotganligidir. Xozirgi paytda turli diagnostik metodikalar yordamida ruxiy xolatlarni o'rganish imkoiyatlari yaratilgan.

Bunga asos qilib, N.P.Kaskoning ko'pgina laboratoriyalarda sinalgan va moslashtirilgan so'rovnomasi, Ayzenkning shaxs so'rovnomasi, J.Teylor so'rovnomalari yordamida ruhiy holatlarning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish imkoniyatlari mavjudligini e'tirof etish mumkin. Ularning qo'llanilishi katta matematik ishlov talab qilishi tufayli sermashaqqat jarayondir. Ayniqsa, gurux bilan ish olib borganda, ushbu so'rovnomalar ko'p vaqtni talab etadi hamda natijalarni qayta ishlashni tezkor amalga oshirishning imkoniyati yo'q. O'quvchilarning ruxiy xolatini o'rganishda Qozon tibbiyot instituti xodimlari tomonidan tuzilgan va professor I.Ye.Shvars tomonidan pedagogik-psixologik maqsadlarga muvofiqlashtirilgan so'rovnomaning qo'llash maqsadga muvofiq. Mazkur metodika muallif tomonidan qayta ishlanib, maxalliy muxitga moslashtirilgandir. Bu metodik yordamida o'quvchilarning bezovtalik, depressiya va asteniya holatlarini o'rganish mumkin.

—Bezovtalik. Depressiya, Asteniya (—BDA) metodikasi bilan ishlash tartibi quyidagicha: Bezovtalik shkalasi: So'rovnomaning shu guruh savollarida shaxsning o'z xarakterlaridan parokandalik, tashvishlanish ustuvorligi, shaxslararo munosabatda, dars jarayonida, savollarga javob berish va yakuniy nazorat vaqtida ishonchsizlik, beqarorlik kabi ruxiy xolatlarining belgilari o'z aksini topgan. 10 ta savol ishlab chiqiladi va bo'lar tashvish va bezovtalanish xolatlari alomatlarini izoxlaydi. Depressiya shkalasi: Ushbu shkalaga taalluqli savollar shaxsda kayfiyatning tushishi, atrofdagilar bilan muomala qilishning cheklanishi, qiziqishning pasayishi, g'amginlik tuyg'usi, ishchanlik qobiliyatidagi sarosimalik, frustratsiya, pessimizm, qaltislik tavsif belgilarini mujassamlashtirgan. Depressiv xolatlarni izoxlovchi 10 ta savol ishlab chiqiladi. Ishchanlik qobiliyatining pasayishi, tez toliqish, serzardalik, serjaxllik, xissiy betayinlik,



diqqatning buzilishi kabi belgilar o'z aksini topgan. Shu xolatlarni izoxlovchi so'rovnomadagi 10 ta savoldan iborat topshiriqlar ishlab chiqiladi. Mazkur shkalalarning alohida ajratilishi o'quvchilar ruxiy xolatlarining o'ziga xos sifatlarini baholashda differensial yondashishga imkon beradi. Bu jarayon o'quvchi mustaqil fikrlash jarayoniga ham ta'sir etadi. Ya'ni mustaqil fikrini ayta olmaslik, hayajonlanish, o'ziga kuchli ta'sir etish, qo'rqish( fobiya) kabi xolatlarining vujudga kelishiga sharoit yaratib beradi. Bunida o'z mustaqil fikriga ega bo'lmaganlar bilan ishlashda:

- Ularning negativ fikrlash tarzining sxemasini o'zgartirish
- O'qituvchining tushuntirish uslublarini, tarbiya metodlarini o'zgartirish
- O'quvchi-talabanning o'z-o'zini idrok qilishini, o'ziga bo'lgan bahosini o'zgartirish
- O'quvchi ijobiy tajriba orttirishi uchun sharoit yaratish - ta'lim jarayonining o'zida joriy etilgan tartiblarda byurokrtiyani minimallashtirilishiga erishish kabi ta'sir mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Yuqoridagi jarayonlar shaxsni ruhiy xolatlarini ta'sirlanishi asosida ro'y beradigan xulq ko'rinishlari uning turli qarashlari va yo'nalishlarini belgilab berishi mumkin. Albatta bu holatlar shaxs psixik taraqqiyotida ijtimoiy ta'sirlarning darajalarini aks etishi va uni ifodalanishini o'zida namoyon etib boradi. Ya'ni ijobiy xarakterdagi ijtimoiy ta'sir orqali shaxsning ijobiy psixologik xususiyatlari rivojlansa, salbiy xarakterdagi ijtimoiy ta'sirlardan esa shaxsning agressiv, salbiy psixologik xususiyatlari rivojlanadi.

Bugungi kunda barkamol shaxsni shakllantirish va uni psixologik xususiyatlaridagi agressiv xulq ko'rinishlarini korreksiya qilishning umumiy modeli psixologiya tizimida ishlab chiqilgan. Ya'ni:

- ijtimoiy me'yorlarni anglay olish uquvini xosil qilish
- ehtiyoj va imkoniyatlarni to'g'ri baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish.
- jamiyatdagi qoidalarni, kutishlarni shaxs ongiga singdirish, kompromistik xususiyatlarni shakllantirish,
- ijtimoiy ijobiy ustanovkalar haqida bilish saviyasini shakllantirish,
- hayotdagi qarama qarshiliklarni to'g'ri tushuntira olish,

- O'zini –o'zi va boshqalarni anglash xususiyatini shakllantirish, favqulotda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish,
- muammoli vaziyatlarga to'g'ri baho berish va adekvat yechimini topa bildish ko'nikmasini shakllantirish.

Bu model ta'lim tarbiyani modellashtirish va tizimli olib borishda, barkamol shaxs taraqqiyotini ta'minlashda muxim ahamiyatga ega. Demak jamiyat taraqqiyotida shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish va barkamol shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatlarini va ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik jarayonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. T.: TDPU, 2004, 89 b.
2. Kovalev A.G. Kollektiv i sotsialno-psixologicheskie probleme' rukovodstva. M.: Politizdat, 2005.—272 b.
3. all.psychology.ru

---

## O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH USULLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

*Ziyaeva Sarbinaz Adilbekovna*  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani 26-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish usullarining ijtimoiy-psixologik tamoyillari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Kasb-hunar, o'quvchi, ta'lim, ota-ona, o'qituvchi, kasbga yo'naltirish, umumta'lim maktablari, imkoniyatlar, qobiliyat.

Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilxom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Jamiyatning intellektual, ma'naviy imkoniyatlari rivojlangan hozirgi sharoitda mamlakatimizning barcha bo'lg'usi mutaxassislarini tayyorlab beruvchi maktab oldida muhim vazifalar turadi. Jahon pedagogik hamjamiyati ishlab chiqarish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni o'rta umumta'limni yangilashning muhim omili sifatida tan oldi. Ta'lim masalalari bo'yicha YUNESKO xalqaro konferensiyasining tavsiyalarida ishlab chiqarish mehnati xalq xo'jaligining asosiy sohalarida qo'llanadigan asosiy ilmiy qoidalarini tushunishga yordam berishi, o'quvchilarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini hamoxang kamol toptirishga xizmat qilishi, ish sharoitida qurilma (stanok) va boshqa jihozlar bilan ishlab bilimlari, ko'nikmalari, metodlarini egallashlariga yordam berishi ta'kidlab o'tilgan. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda o'quvchilarning alohida qobiliyatlari va mehnat resurslarini jamiyat manfaatlariga mos tarzda taqsimlanishini hisobga olish lozim. Kasbga yo'naltirish-har bir shaxsning alohida hususiyatlarini mamlakat xalq xo'jaligining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, mehnat bozorini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olib erkin va mustaqil kasb tanlashga tayyorlashga asoslangan tizimdir. Kasbga yo'naltirish tizimi-individga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va qoidalar, uslublar va vositalar birligidir. Kasbga yo'naltirish barcha o'quv tarbiya ishlari bilan ko'nikib olib boriladi.

Ongli kasb tanlash etarli darajadagi umumiy tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) o'quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarning tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, suhbat, test, interv'yular olish mumkin. Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarni aniq kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni-bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham oladilar. Yoshlar o'z oldilarida

haqiqiy, keng hayot yo'li ochilishi uchun ko'p kuch- g'ayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi-o'z ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim. Shu boisdan ham o'rta maktabni bitirayotgan yigit va qizlarning ko'pchiligi qanday kasb egasi bo'lish to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoit yaratilgan. Ayniqsa, ishchi kasblarni o'rganishning juda keng imkoniyatlari mavjud, jumladan, Respublikamizda ishchi kadrlar tayyorlashga jiddiy e'tibor berilmoqda, kasb-hunar kollejlarda yoshlar turli kasblarga o'rgatilmoqda. Yoshlarga maktabdayoq, mazkur rejaning xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng kerakli bo'lgan aniq ixtisos bo'yicha kasbiy tayorgarlik berish lozim.

Kasb tanlash-jiddiy va ma'suliyatli ishdir. O'z hayot yo'lini jiddiy suratda belgilab olish-oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. O'quvchilarning bunday tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlash, o'quvchilarning o'z hayot yo'llarini jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlarini birga qo'yish asosida to'g'ri belgilab olishlariga, o'zlarining haqiqiy iste'dodlarini aniqlab olishlariga va adashmasdan kasb tanlashlariga yordam berish- umumiy ta'lim maktablarining muhim vazifasidir.

O'quvchilarning diqqatini kasb tanlash masalasiga jalb qilish, bu masalaning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, o'quvchilarni o'z hayotiy yo'llarini tanlash to'g'risida jiddiy va ongli ravishda o'ylashga, ularning bu yo'ldagi mustaqil harakatlarini rag'batlantirish, ularda kasbni to'g'ri tanlashning shartlari hayotida dastlabki zaruriy tasavvur hosil qilish, ularni kasb tanlashda uchraydigan xatolardan ogohlantirish va bu xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatish lozim. Shundan keyin, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi va qiziqishini aniqlash va hisobga olgan holda bu yo'lda olib boriladigan ishlarni belgilab olish kerak. Kasblarni egallash yo'llari bilan atroflicha tanishtirish juda muhim. Maktab tizimida to'garaklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklari, elektrotexnika, radiotexnika, avtomobil', traktor, pillachilik, o'simlikshunoslik to'garaklarida bolalar bilimlarini kengaytirish bilan, kasb tanlashga amaliy tayyorlanadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning maktabdagi ko'zda tutilgan unumli mehnati va ijtimoiy foydali ishlaridan ham foydalanish zarur. Masalan, o'quvchilarning qishloq xo'jalik ishlari bilan

shug'ullanishlari, ko'rgazmali qurollar yasash, shanbaliklar, obodonlashtirish ishlarida mehnat madaniyatini egallaydilar, ma'lum kasbga yo'nalishlar hosil bo'ladi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashda xalq pedagogikasida ko'rsatilganidek, o'quvchilarning uy mehnatidan foydalanish kerak. Ular uy hayvonlarini parvarish qilish, sabzavot ekinlarini o'stirish, taom tayyorlash, texnika asboblarni tuzatish kabi ishlar o'quvchilarning kasb to'g'risidagi tushunchalarini kengaytiradi. Kasbga yo'naltirishga oid ma'ruza va suhbatlarda; kasb mazmuni, ixtisoslar ahamiyati, istiqboli, ishning tashkiliy shakllari va metodlari, mehnat qurollari, imkoniyatlar, moddiy ahvoli, o'rganish yo'llari haqida fikr yuritish lozim. O'quvchilar diqqatini kasb tanlash masalalariga jalb etish va ularga kasblar haqida tushuncha berish uchun maktablarda kasbga yo'naltirish xonasi, burchak tashkil etadi. Unda quyidagilar bo'lishi lozim: adabiyotlar ro'yxati, kasb obyektlari, fotosuratlar, rasmlar, plakatlar, sxemalar, shu maktabni bitirgan va hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faol ishlayotgan o'quvchilar haqida ma'lumot va boshqalar.

O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish uchun kasb va uning vakillari haqida ma'lumot beradigan adabiyotlarni, fan, texnika, san'at ishlab chiqarish kishilari haqida hikoya va ocherklardan foydalanish kerak. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish maqsadida ular uchun turli kasb va ixtisos vakillari bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazish lozim. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ota-onalar ham manfaatdordirlar. Shuning uchun ham o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa o'rnatish zarur. Ota-onalar ham maktabga yordam berishlari, maktabda o'z kasblari bo'yicha suhbat, ma'ruza, konsul'tasiya, uchrashuvlar uyushtirishlari mumkin bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
2. Nishanova Z.T., Dusmuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T.: Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmaxonasi. 2013. -344 b
3. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Возрастные возможности усвоения знаний. - М: Просвещение, 1966. -442с
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. Saviya.uz

## O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI BARTARAF QILISHDA MAKTAB PSIXOLOGNING O'RNI

*Achilova Shukurjon Azamatovna*  
*Xorazm viloyati Urganch tumani 1-maktab psixologi*

Balog'at davrida o'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o'smirni nazoratsiz qoldirishi, bo'sh vaqtini to'g'ri uyushtirmasligi, o'qishga nisbatan salbiy munosabat, sinf jamoasi bilan aloqani yomonlashuvi, spirtli ichimlikka o'rganish, tajovuzkor, serzardalik tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'rganishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik sabablar mavjudligini hisobga olish, qonunbuzarlikni kelib chiqish sabablarini diagnostika yordamida aniqlash, tarbiyasi qiyin o'quvchilar shaxsini aniqlash ularning psixologik munosabatlarni inobatga olgan holda tipologiyasini tuzish tipologik xususiyatlarga binoan individual ish olib borish, qonunbuzarlikni oldini olib va tarbiyasi qiyin bolalarni qayta tarbiyalash metodlarini amalga tadbiiq qilish, bu muammoni yechilishiga yordam beradi.

O'smirlarda o'z- o'zini tarbiyalashga intilish. Shaxsning ahloqiy jihatdan tarkib topishi, ahloqiy ongning tarkib topishi, xatti - harakatlarining axloqiy - etik tushunchalarini o'zlashtirishi o'smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikasidir. O'smirlik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ostida maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining ta'sirida jamoa va tarbiyachilarning g'oyaviy rahbarligi ostida amalga oshadi. Ota-ona va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi anashu yoshda ahloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. O'smirning qanday ahloqiy tajriba orttirishiga, qanday ahloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi.

Lekin xuddi mana shu o'smirlik yoshi ahloqiy jihatdan tez rivojlanish yoshi bo'lganligi tufayli shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'pincha o'smir ongida, tarbiyachi o'quvchi ongiga singdirmoqchi bo'lgan xislatlarga qarama—qarshi unda ahloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin. O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-

harakatlarini anglashdan boshlanadi, undan so'ng o'zlarining ahloqiy sifatlarini, xarakterlarini va o'z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi.

Dastavval ta'lim faoliyatini bajarish bilan bog'liq bo'lgan sifatlar (mehnatsevarlik, matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik) anglana boshlanadi. Undan so'ng boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (o'rtoqlik xissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, o'z-o'zini tanqid qilish, maqtanchoqlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat, shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarni ifodalovchi murakkab sifatlar (burch xissi, qadr-qimmat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi) anglanadi.

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va boshqalarning mazmun mohiyati o'zgaradi. O'smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik hamda ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Endi ular atrofdagi-larni hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan holiroq bo'lishga o'z muammolarini o'zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib, ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildarmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning « ishlariga» aralashmasliklarini hox-laydilar. Bularning barchasi o'smirlarda kuzatiladigan « kattalik hissi» ning ta'siridir. O'smir tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan muammolar munosabat asosida alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi. O'zaro qiziqishlar, atrof dunyoni, bir-birlarini anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatli-dir. O'smir o'z ishlarini, sirlarini endi ota-onalariga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi. U o'z tengdoshlari bilan muloqat va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan to'la namoyon eta oladi. Shaxsiy erkinlikni u katta bo'lish huquqi deb anglaydi. O'smirlar o'zini xurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar. Balog'at davrida o'g'il qizlar o'zlarini kattalardek xis etish bilan birga boshqalar ham ularni aqilli, xushli, or-nomusli, katta odam deb hisoblashlarini xohlaydilar. Katta yoshdagi begona kishilarga taqlid qilish odati kuchayadi. Atrofdagilarning nima bilan

shug'ullanayotganligi, nimaga e'tibor berayotganligi, o'zlarini qanday tutayotganligiga razm soladilar. Tabiiyki, o'smirda o'ziga yoqib qolgan, ko'ngliga ma'qul tushgan shaxsday bo'lish havasi tug'iladi. Ammo afsuski, kattalar boladagi ana shunday o'zgarishlarni yo payqamay qolishadi, yoinkim sezishsa ham u narsalarga durust ahamiyat berishmaydi. Kattalar tomonidan o'rinsiz tanbeh berish, kesatish, do'q-po'pisa qilishlar o'smir hissiyotida noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. O'zimiz sezmaganimiz holda o'smir tarbiyasida katta va qo'pol xatoga yo'l qo'yamiz. Bu beparvolik oqibatida zavq- shavqqa to'lib, voyaga yetib kelayotgan o'smir noto'g'ri yo'lga kirib ketishi ham mumkin. Negaki, xuddi shu yoshda yaxshidan ko'ra yomon odatlarga berilish mayli unda kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun o'smir bola shaxsiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak.

Shunday qilib, o'smirlik yoshida bolada kattalik hissini tarkib topishida o'z-o'zini anglashning ahamiyati va roli kuchaya boradi. Demak, mana shu davrda bola muhit o'rtasidagi munosabatning yangi tipini belgilovchi taraqqiyotning ichki faktorlari borgan sari ko'proq ahamiyat qozona boshlaydi. O'smir o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini o'stirish orqali mustaqil o'sish qobiliyatiga ega bo'lib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xurvalieva T. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. –A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006 y.
2. Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korrektsiyasi. –T., 2000 y.



## МАКТАБ О'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN RIVOJLANTIRUVCHI TRENINGLARNI TASHKIL QILISH

*Achilova Shukurjon Azamatovna*  
*Xorazm viloyati Urganch tumani 1-maktab psixologi*

Maktab o'quvchilari bilan psixologik treninglarni tashkil qilishda ularning ruxiy holatini inobatga olish juda ahamiyatlidir. Treninglarni olib borishda quyidagi rivojlantiruvchi dastur majmuasidan foydalanish uchun bir qator uslubiy ko'rsatmalar beriladi. Ushbu uslubiy ko'rsatmalar trening ishtirokchilarini mashg'ulotlarda samarali natijalarga erishishlariga imkon beradi.

1-ko'rsatma. Siz mashg'ulotga kirishdan oldin «ko'chadagi ruhiy muhitingiz»ni ortga qoldiring. Muammo va tashvishlaringizni ostonaga qoldiring. Mashg'ulotlarga qat'iy ishonch va yuksak maqsad bilan kirishing.. O'zingiz uchun tanlagan yo'lingizda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishdan huzur oling.

2-ko'rsatma. Siz ko'proq tahlil qilmasdan mashqlantirishga harakat qiling. Mashqlar ruhiy imkoniyatlaringizni yuzaga chiqarishga yo'naltirilganligini e'tiborga olib ko'proq mashqlar bilan shug'ullaning. Mashg'ulotlarning samaradorligi sizning qo'lingizda.

3-ko'rsatma. Vaqtni tejang va o'zingiz uchun erkin vaqt to'plang. Mashqlarni shoshmasdan bajaring. Aqliy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish va aqlni rivojlantirish mashqlariga sidqidildan kirib borish vaqt talab etadi. O'zingizga imkon beringki, ichki olamingizni atroflicha o'rganishingizga olib kelsin.

4-ko'rsatma. Mashqlarni takrorlang. Mashqlar har xil sharoitni talab etishi mumkin. Siz faqat trening mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmang. Faoliyatni uzviy davom ettirishga harakat qiling. Sizga faqat amaliy tajribalargina yordam beradi. Trening mashg'ulotlaridan so'ngra bu aqliy gimnasitika mashqlarini kunlik ish tartibingizga kiriting.

5-ko'rsatma. Tez-tez shug'ullaning. Siz miyangizni qancha ko'p mashqlantirsangiz. Mashqlar sizning qalbingizdan chuqur joy oladi. Agar ular sizni kundalik ish tartibingizga kirib yaxshi natija bera borsa, u sizga huzur bera boshlaydi. Agar mashqlantirish qancha

maroqli bo'lsa, siz miyangizni shuncha mashqlantirishga harakat qilasiz. Siz miyangizni qancha mashqlantirsangiz, fikrlashingizda va tafakkuringizda samaradorlik ortadi.

Psixolog trener mashg'ulot mashqlarini quyidagicha o'tkazish tavsiya qilinadi:

Diqqatingizni boshqaring. Hamma doira shaklida aylaningizlar, va Sizlar ushbu mashqni ayni damda bajarishga kirishing: to'liq harakatsizlikka erishing va shu damda qanday holatda turgan bo'lsangiz o'sha holda turing. Gavgangizni, yuz ifodangizni, barmoqlaringiz holatini xayolan ko'zdan kechiring. Sizning pyeshonangiz, qorningiz va oyoqlaringizdagi zo'riqishlarni tekshiring. Sizning yelkangiz bukilganmi? Oyoqlaringizning barmoqlari qisilayaptimi? Gavgangiz bukilganmi? Maboda sizning muskullaringiz tin oladigan bo'lsa qaysi tomonga siz yiqilasiz?

Tanangizdagi har bir muskullarni aniq his etayapsizmi? Sizda kuzatilayotgan zo'riqishlardan xalos bo'lishingiz uchun bir necha bora chuqur nafas oling va so'ngra yana davom eting.

O'quvchilar nilan psixolog quyidagi diqqatgi rivojlantirish o'yinni o'tkazish tavsiya qilinadi. Tasavvur qiling, siz hozir stol atrofida o'ltirib ish bilan mashg'ulsiz va yengilgina zyerikishni his etayapsiz. Siz o'zingiz boshlab qo'ygan loyiha ustida bosh qotirayapsiz. Bunda bir tomondan mas'uliyat bezovta qilsa, bir tomondan ichki qo'zg'alish tinch qo'ymayapti. Sizning bir bo'lagingiz ishlashga da'vat etsa, ikkinchi tomoningiz esa xohishni yo'qotmoqda.

Keling o'zingizdagi ortiqcha xayollardan xalos bo'lishga harakat qiling. Ichki betartibsizlikdan xalos bo'lish, muskullardagi bo'shanishlar va yengillashishga xohish sezadi. Yelkalarni bo'shashtiring, chuqur va bir tekisda nafas oling, ko'z va og'iz atrofidagi zuriqishlarni yozing, siz jismoniy zo'riqishdan xalos bo'lasiz. Tana muskullarining yengillashishi miyada yengillashishni keltirib chiqaradi.

Katta sayyohat (asosiy mashq): ko'zingizni yuming va qulaylik yarating va tanangiz to'liq yengillashishi uchun bir necha daqiqa ajrating. Boshida tanangizni erkin va batartib bo'lishiga urining. Uni yengillashishiga imkon bering. Bir qancha vaqt esa uning oddiy kuzating, tanangiz bunga javoban nima dyerkin. Diqqatingizni qo'ldagi, yelkadagi, beldagi, boshdagi, qorin, oyoq, shuningdyek, ko'krak qafas, qorin va kurakdagi jismoniy sezgilarga yo'naltiring.

Diqqatingizni sekin-astalik bilan nafas olishingizga ko'chiring. Nafas olganingizda dimoqdan o'tayotgan havo qanday sezgini keltirayotganligiga diqqatingizni to'plang. Nafasingizni kuzating, uni xotirjam va ancha tekis bo'lishiga harakat qiling. Nafasingizni nazorat qilishga urinmang. Uni yengil va tabiiy kechishiga erishing. Agar boshingizga har xil chalg'ituvchi fikrlar kelsa, ularni diqqatingizni tanangizga yo'naltirishga yordam beruvchi sifatida foydalaning. Shun tarzda idrokingizni yana tanangizdagi tuyg'ularga to'g'rilang. O'zingizni to'liq yengilashishga undang va yengillashish uchun iliq tuyg'uni vujudga keltiring. Sezgilaringizni yangi tuyg'ular hosil qilishiga erishing.

Imkon qadar harakatsiz turing, bu esa yuragingizni urishini eshitishga imkon bersin.

Ongingiz har bir nafas olganda erkinlashadigan bo'lsa, u holda uni tanangizni biron a'zonsini yengillashishiga yo'naltiring.

Dastlab yuz ifodangizni tasavvur qiling. Ko'zingiz, labingiz, iyak va peshonangiz qandayligini tassavvur eting.

Har bir yuz qisimingizni aniq fikriy timsollar bilan ifodalang va uni bo'shashtiring.

Diqqatingizni yuz-qiyofangizga yo'naltiring, undagi zo'riqishlarni kuzata oling. Alohida timsollar orqali yuzdagi zo'riqishlardan xalos bo'lishga erishing.

Yuzingiz to'liq yengillashib boshlasa, diqqatni bo'yin, yelka, qo'l va barmoqlarga ko'chiring.

O'zingizni va tanangizni har bir a'zosini batartiblashgan va yengillashgan tarzda tasavvur qiling. Qanchalik fikriy timsollar o'z o'rnini topsa, shunchalik chuqur bo'shanish yuz beradi.

Fikran o'z tanangiz, ko'krak, bel, qorin, oyoqlar, tizzalar va oyoqning barmoqlariga fikran nazar solib ko'rishni davom ettiring. Bu yerda shoshish kerak emas, bu yerda tanangiz bo'ylab qilingan sayohatdan huzur oling va yengillashing.

Ushbu mashq bajarib bo'lingan so'ngra guruh a'zolarining mulohazalari tinglanadi va ularda ruhiy yengillashish va diqqatni boshqarishdagi o'zgarishlar bo'yicha xulosalarga kelinadi.

Mustaqil ravishda yengillashish mashqlarini amalga oshirish bo'yicha maslahatlar:

- Aqliy tiniqlikka erishish uchun tanangizni yengillashishiga olib keling. Qulay o'ltirib oling va muskullarni bo'shashtiring, xotirjam va bir tekisda nafas oling.
- Fikrlaringizni tartibga keltiring, nima haqida mulohazalashni aniqlashtirib oling. Sizni boshingizda xujxon o'ynayotgan majburiyatlar, ehtiyojlar, xohish, yumushlarning ro'yxatini tuzing. Yashirin bezovtalanishlardan xolos bo'ling.
- Sizni o'rab turgan olamga qarang, bevosita sezgilaringizga qaytishga o'rganish. Diqqatingizni yuz foizli to'play olishga, uni har qanday vaqt va sharoitda boshqarishingizga imkon beruvchi usulni toping.
- Vaqti-vaqti bilan o'zingizni yengilashishingiz uchun bir necha daqiqa vaqt ajrating. Har kuni barcha yumush va tashvishlarni uloqtirib, o'zingizni yengillashtirishga odatlaning.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nishonova Z., Askarova N.A. va boshq. O'quvchilarda past o'zlashtirish diagnostikasi va psixokorreksiyasi. Toshkent, 2014.
2. Sunnatova R.I., Karimova V.M., Tadjibaeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent: Sharq.-2000. - 112 b.
3. Usmonova E.Z. Uquvchilarning mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? - «Pedagogika va yosh psixologiya» ilmiy-ommabop seriya, 2000, №1.

## BOLANING MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI

*Usmonova Muxlisa Nasrullo qizi*  
*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 8-maktabi psixologi*

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola, avvalo, maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik – fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm ga ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni bemalol bajarishlari mumkin.

6 – 7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z – o'zidan bolaning o'ziga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion tayyorgarlik. Katta bog'cha yoshdagi bolalar, asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. Bunday motivlarni bolalarga ota – onalar singdirishadi. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz, bolani juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi. Ota – onalar, pedagog – tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o'rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o'qish omili bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy tayyorgarlik. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti – harakatlarni bajarish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish,

ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali – harakatli va ko'rgazmali – obrazli tafakkur, nafaqat, 6 – 7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi, nafaqat, uning aqliy va jismoniy tayyorgarigi, balki shaxsiy, ijtimoiy – psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq.

Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o'zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o'z yordamini ko'rsatadi. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini – turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan – o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning maktabga borishni istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy – psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosbatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olisi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olisi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6 – 7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlaari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaaffaqiyatli o'qishida shaxsiy, ijtimoiy - psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalar, avvalo, bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda,

bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa, belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash tushuniladi.

Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T., TDPU, 2002.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.
3. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.:Noshir. 2010.
4. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M., "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2004

---

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLANING PSIXIK O'SISHIDA O'YINNING AHAMIYATI**

*Abdusamadova Muqaddas Xamidulla qizi  
Chilonzor tumani 162-maktab psixologi*

Har bir yosh davrlarining psixologik hususiyatlarini hisobga olgan holda tarbayaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z vaqtida o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onlsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. O'yinning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, hizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bolsa, bola hayotida o'yin ham huddi shunday ahamiyat kasb etishi mumkin. Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar kata rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganida avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq maskur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini subyekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) sub'yekt (jonzot) ongining dastlabki ob'yekti darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan hususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.



Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega boladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi; b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo boladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir korsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z. V. Manuylenkning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq korsatgichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, shuni ham aytish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, subyekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tuvchi narsalarning aksariyatidan o'yinda bevosita obyekt sifatida foydalaniladi. O'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. Yuqorida aytilganidek, narsa bilan o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli,

hususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshadi. O'yin harakatlarning qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishdagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarning hususiyatlarini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi. Darxaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabkiko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi huddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida bolaning aqliy o'sishini chuqurroq izohlab berish hali yetarli tajriba ma'lumotlari mavjud emas.

Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, kata yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his- tuyg'usini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon boladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

## O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Kulmanova Janar Xidirbayevna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 7 - maktab psixologi*

Bu dunyodagi barcha xatti-harakatlarimizning ibtidosi yashashga bo'lgan intilishga borib taqaladi. Aslida esa yashash uchun unchalik ko'p narsa zarur emasdek go'yo. Lekin inson ongli mavjudot bo'lgani bois shunchaki yashash, havo, suv, ozuqa, issiqlik, yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalana olmaydi. U yaxshi yashashga intiladi, ehtiyojlarini imkon qadar to'liqroq qondirish payida bo'ladi.

Odamzod dunyoga kelibdiki, yaxshi yashash yo'llarini izlaydi. Bu esa unda olamni bilishga, o'zligini anglashga intilish, qavmdoshlari bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ma'lumot almashish kabi ma'naviy ehtiyojlarni ham vujudga keltiradiki, bugun endi aynan shu ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani farovon yashash sharti, to'kin-sochinlikning asosiy omili hisoblanmoqda. Bugungi kunda insonning o'zi xohlaganchalik umr kechirishining muhim omillaridan biri munosib kasb egasi bo'lish bilan ham belgilanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi tarbiyasi qanchalik muhim bo'lsa, uni qobiliyat va qiziqishlari asosida kasbga yo'naltirish ham bugungi kunda muxim pedagogik-psixologik muammolardan hisoblanadi. Chunki yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyat demokratik qadryatlarni mustahkamlash bilan mamlakatimiz kelajagini jaxon xam jamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari xayotga kirib kelmoqda". Yangi avlodni kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda jamiyatimiz uchun salohiyatli kadrlarni yetkazib chiqishda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish muhim masalalardan biri bo'lib, asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda, o'z hoxishi bilan kasbiy moyilligini aniqlash orqali kelgusi hayoti, faoliyati va yutug'ini ta'minlab beradigan kasb tanlashini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jaroyandir.

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongli ravishda yondoshmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumannig xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasbga o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, so'g'lig'i to'g'ri kelsagina kasbni ongli ravishda tanlash mumkin.

Kasb tanlashda mustaqillik deganda kushining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, o'zining tashabbuskorligi to'la namoyon bo'lishi tushuniladi. Lekin bu bilan o'quvchi hojlagan kasbni o'zi tanlashi lozim degani emas, bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Kasb tanlash to'g'risidagi masalada o'quvchining va ota-onalarning fikri bir joydan chiqsa yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik bo'lmasa, o'z imkoniyatlarini chamalab, katta yoshli kishilarning fikr mulohazalarini tahlil qilib ko'rish lozim.

Bundan tashqari o'quvchilarga mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikni bilish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligi aytib o'tildi:

1. Kasbning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga inson jamiyat taraqqiyotidagi o'z o'rniga ega bo'lish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash va avaylashga o'rgatish;
3. O'quvchilarga kasbga nisbatan muhabbatni o'rgatish;
4. O'quvchilarni kasb tanlashda ongli ravishda, vijdonan yondashishga odatlantirish;
5. Kasb tanlaganda uning hayotiy zarurat ekanligi, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
6. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
7. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hakoza.

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik insonning o'z qiziqishi qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga o'zi baho berishini taqozo etadi. Lekin har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydi. Shuning uchun fan o'qituvchilarining, murabbiylarning fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki har bir pedagog o'quvchining xulq - atvorini qiziqishlarini, mayillarini, xarakterini va mehnatga qay darajada tayyor ekani to'g'risida hammadan ko'ra yaxshiroq fikr bildiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida o'smir yoshdagi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning qiziqishi, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojga qaratish muhimdir .

O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullaridan biri esa kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo'nalganligini aniqlashdir. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda 9-sinf bitiruvchilari bilan „Qiziqishlar anketasi“, „Kasbiy motivatsiyani aniqlash“, „Deferensial-diagnostik so'rovnoma“, „O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi“, „Shaxs sifatleri va kasbiy qobiliyatlarni o'rganish metodikasi“, „Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash metodikasi“, „Qiziqishlar xaritasi“ kabi kasbiy tashxis metodikalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maktab psixologlari va kasbga yo'naltiruvchilar, mehnat va boshqa fan o'qituvchilari tamonidan turli usullar yordamida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash mumkin.

Kasb tanlash katta hayot yo'lidagi eng muhim qadamdir. Inson o'zini baxtli his qilishi uchun albatta atrofida sevimli insonlar bo'lishi bilan birgalikda ,o'zi qiziqqan kasb egasi bo'lishi lozim. Ba'zi yoshlar ko'p yillar orzu qilgan mutaxassislik uchun oliy ta'lim tizimiga hujjat topshirish vaqti kelganda, ikkilanish yuzaga keladi. Chunki uning o'z bilimiga nisbatan ishonchi bo'lmaydi. Shuning uchun ham bilimdan kelib chiqib kasb tanlash emas, balki bilimni maqsadga qarab oshirib borish zarur. Buning uchun esa bolaga yoshligidanoq o'zi yoqtirgan kasb haqida oilada va maktabda to'g'ri tushuncha berish va bolada qiziqish va layoqatni shakllantirib borish lozim.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch“ asarida ta'kidlaganidek; ”Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish –haqiqiy qahramonlik aslida mana shu ...”. Zero, umumta'lim maktablari psixologik xizmatning asosiy

yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, iqtidorini aniqlash, ularni o'z jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos kasblarga yo'llash ularning kelgusida el-yurt ravnaqi uchun qo'shadigan hissasiga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda kasbga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Umumiy psixologiya . E. G'oziyev. Toshkent-2002
2. Turmush tarzi, ta'lim va milliy o'ziga xoslik. A.Jabborov, Sh.Bekova. Qarshi-2002
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal

---

## **ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ ХАМДА ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР**

*Аллаярова Феруза Акрамжановна  
Наманган вилояти Учкургон тумани 1-мактаб психологи*

Таълимнинг барча босқичларида унинг самарадорлигини ошириш ёш психологиясининг қонуниятларига суянмоғи зарур. Болалар жамоаси, оила муҳити, меҳнат жамоаларида шахслараро илк муносабатни шакллантириш ёш даври хусусиятларини инобатга олишнинг маҳсули ҳисобланади. Ёш даврлар психологиясининг асосий баҳси турли ёшдаги кишиларнинг онтогенез ва филогенездаги психик ривожланиш жараёнини, шахснинг шаклланиши ҳамда ўзаро муносабати қонуниятларини ўрганиш борасида бўлади. Ҳар бир ёш даврининг психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тарбиявий таъсир

ўтказиш инсонда ўз вақтида ўзини англашни вужудга келтиради. Шахсда ўзини англаш туйғуси қанча эрта уйғонса, шахсий нуқтаи назар, ўз ҳуқуқини ҳис этиш, ўзининг ақлий ва жисмоний имкониятларини баҳолаш шунчалик тез пайдо бўлади. Худди шу аснода инжиқлик, ўжарлик ва қайсарлик каби иллатлар таркиб топишига руҳий тўсиқ вужудга келади. Кишиларда эътиқод, дунёқараш, идеал, муомала, мулоқот, мустақил хулқ-атвори самарали шакллантириш кўпроқ юқорида қайд этилган омилларга боғлиқ бўлади. Шу сабабли ҳам уларга ёш психологияси хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда руҳий туртки бериш мақсадга мувофиқ бўлади.

Шахсининг ижтимоийлашуви жараёнида болалик даври муҳим ўрин эгаллайди. Чунки бу даврдаги боланинг ҳаёти тўлиқ катталар билан ҳамкорликдаги эмоционал муносабат билан боғлиқликда ўтади. Илк болалик даврида эса болалар ўз ҳатти-ҳаракатлари билан жуда фаол ва катталар билан мулоқотга киришишга интилувчанликлари кузатилади. Уларни предметларни ўрганиш орқали нутқи ривожланиб боради. Ушбу давр нутқининг ривожланиши учун сензитив давр ҳисобланади. Идрок, тасаввур, хотира сингари психик жараёнлар ҳам бевосита иштирок этади. Шунингдек, тафаккурнинг ривожланиш куртаклари намоён бўлиши ҳам ижтимоийлашув жараёнининг асосий кўрсаткичларидан биридир. Катталар билан бўлган муомалада ўз “Мен” ини англай бошлайди, яъни 3 ёшдаги кризис: барча ҳаракатларини мустақил ҳал қилишга интилади. Ва айнан кризис даврида юзага келадиган хусусиятлар ирода, лаёқат ва бошқа хусусиятлари уни шахс бўлиб шаклланишини тайёрлайди

Бундан ташқари яна инсон шахсининг таркиб топишига таъсир қилувчи кучли омил - инсон орттирган тажрибаларнинг тарбия воситаси орқали болаларга берилишидир. Шундай қилиб, инсон шахси жуда мураккаб психологик категория бўлиб, у кишининг индивидуал ҳаёти давомида маълум конкрет омилларнинг таъсири остида секин-аста таркиб топади. Илмий манбаларга қараганда инсон шахси учта факторлар таъсирида таркиб топади. Улардан биринчиси, одам тўғилиб ўсадиган ташқи ижтимоий муҳитнинг таъсири бўлса, иккинчиси, одамга узок муддат давомида системали бериладиган ижтимоий таълим-тарбиянинг

таъсиридир ва ниҳоят, учинчиси одамга наслий йўл билан берадиган ирсий омилларнинг таъсиридир.

Инсоннинг психик тараққиётида ва шахсий сифатларининг таркиб топишида ташқи, ижтимоий муҳит ва тарбиянинг роли хал қилувчи аҳамиятга эгадир. Лекин, инсон шахсининг таркиб топиши, юқорида айтиб ўтганимиздек, фақат шу иккита факторга эмас, балки учинчи бир факторга ҳам боғлиқдир. Бу фактор наслий йўл билан айрим анатомик ва биологик хусусиятларнинг таъсиридир. Одамга наслий йўл билан айрим анатомик ва биологик хусусиятлар берилади. Масалан: танасининг тузилиши, сочи ва кўзларининг ранги, овози, гапириш услублари, айрим ҳаракатлари туғма равишда берилиши мумкин. Лекин, шуни ҳеч қачон эсан чиқармаслик керакки, одамга ҳеч вақт унинг психик хусусиятлари, яъни унинг ақлий томонлари билан боғлиқ бўлган сифатлари наслий йўл билан берилмайди. Ниҳоят, нодир ҳолларда айрим қобилиятлар, масалан, мусиқа, математика қобилиятларда наслий йўл билан берилиши мумкин. Бундай имкониятларнинг амалга оширилиши, яъни рўёбга чиқиши учун албатта, маълум шароит бўлиши керак. Ҳозирги кунда халқимиз орасидан етишиб чиққан истеъдодли олимлар, муҳандис-иختирочилар, ёзувчи ва шоирлар, давлат ва жамоат арбоблари, истеъдодли артистлар, рассомлар ва бошқа кишиларимизга наслий йўл билан берилган барча имкониятларнинг рўёбга чиқиши учун ҳар қандай шароит майдонга келганлигини далили бўла олади. Болалар ўқув маскани ёшига етгач, шахс шаклланишининг янги мазмуни бошланади. Кичик ўқув маскани, ўсмирлик ва катта ўқув маскани ёши даврларида шахс шаклланишининг юқори босқичи намоён бўлади. Инсон шахсини ўрганиш масаласи билан фалсафа, психология, педагогика каби фанлар шуғулланади.

Ҳозирги даврда инсон муаммоси аниқ ва гуманитар фанларнинг умумий тадқиқот объектига айланиб бормокда. Шунга қарамасдан, бир томондан, инсонни ўрганишда дифференциация ҳодисаси юз бермокда, иккинчи томондан, инсон тараққиётининг синтетик тавсифи бўйича интеграция ҳолати кузга ташланмокда. Инсон бир қатор фанларнинг тадқиқот объекти эканлигини йиғиқ тарзда тасаввур этиш учун уни биосоциал ва социобиологик жиҳатдан ўрганиш мақсадга мувофиқ.



Тарбияланганлик ижтимоийлашувни ўрганиш жараёни сифатида қараладиган ёш психологиясида олинган натижаларга асосланади: бола ўзини эгоцентрик эмас, балки тарбияли тутиши учун тарбияланганлик қандай рағбатлантирилиши керак? Тарбия ўз моҳиятига кўра ижтимоий жиҳатдан ижобий эҳтиёжларни ҳосил қилишидир. Агар таълим шахснинг онгини шакллантириш бўлса, тарбия унинг онгсизлик сферасига таъсир этишдир. Болаларга уларни тарбиялайдиганларга ҳиссий яқинлик хос. Одатда 6 ойлик болалар унга ғамхўрлик қиладиган ота-онасига боғланиб қоладилар. Отаонанинг олдида бўлиш, улар билан мулоқотда бўлиш болаларга жуда ёқади, уларнинг йўқлиги болага ёкмайди. Ота-онанинг ғамхўрлигини билдирадиган сўзлар, ҳатти-ҳаракатлар бола учун жуда катта аҳамиятга эга, уни эркаламаслик, суймаслик салбий аҳамиятга эга бўлади.

Хулқ-атворнинг дастлабки ижтимоийлашуви худди шу ўрганиш жараёни орқали содир бўлиши мумкин: хулқ-атворнинг исталган шакллари ғамхўрлик ва эътибор билан тақдирланади, кутилмаган шакллари эса куллаб-қувватланмайди. Лекин, яхши хулқ-атвори рағбатлантириш ва ёмон хулқ-атвор учун жазолаш ахлоқий ижтимоийлашувнинг кичик бир қисмидир.

Ўқув фаолияти инсоннинг бутун ҳаёти давомида намоён булувчи узлуксиз жараён бўлиб, таълим бевосита муайёян ахборотни, ҳаракатларни, хулқ-атворнинг шаклларини ўзлаштиришга қаратилгандир. Билим бериш муваффақиятлари мотивацияга, маълумот усулларига, маълумотнинг тушунарлигига, хотирага боғлиқ бўлади. Унинг самарадорлиги ўқитувчи томонидан бериладиган кўрсатмаларига ҳам асосланади. Таълим ва тарбия жараёнида ўқувчи томонидан таълимнинг ўзлаштирилиши ўқув дарсликларини мавжудлигига, методикаларнинг такомиллашганлигига, ўқитувчи маҳоратига, ўқувчининг индивидуал психологик хусусиятлари билан узвий алоқадор. Бу борада ўзига хос таълимнинг бир қатор усуллари қўлланилади. Ўқув фаолияти шундай бошқарилиши керакки, у кишиларнинг ижодий имкониятларини юзага чиқариш мумкин булсин. Руҳий ҳолатларни ва шахс хусусиятларини инобатга олиш таълим ва тарбияда муҳим аҳамиятга эга, айниқса, акселерация жараёнини эътиборга олишлик ўқув фаолиятини самарали бўлишига олиб келади.

Инсоннинг боғча ёшидаги даврининг ўзига хос хусусияти шундаки, бу даврда болаларда характер ҳислатларининг намуналари шаклланиб ахлоқий характернинг асослари вужудга келади. Улардаги етакчи фаолият бўлиб ўйин ҳисобланади. Ўйин болалар ҳаёли томонидан яратилган нарса эмас, балки, бола ҳаёлининг ўзи ўйин жараёнида юзага келиб ривожланиб боради. Ўйин фаолияти болани инсониятнинг ижтимоий тажрибасининг эгаллашнинг фаол шакли бўлган таълим фаолиятига тайёрлаб боради. Боғча ёшидаги болаларнинг сезги, идрок, диққат, хотира, тасаввур, тафаккур, нутқ, ҳаёл, ҳиссиёт ва ироданинг шаклланиши жадал кечади. Боғча ёшидаги болалар шахсининг ривожланиши эса, 3-4 ёшгача эмоционал жиҳатдан ўз-ўзини мустаҳкамланиши, 4-5 ёшдаги ахлоқий жиҳатдан ўз-ўзини бошқариш ва шахсий ишчанлиги ва тадбиркорлик хусусиятининг шаклланиши билан характерланади.

Ўсмирлик даври-ўтиш даври деб аталади. Унда ўсмирлар томонидан имитация қилиш ҳолатлари кузатилади. Шу билан бирга ўсмирлик даврида ўз фаолиятини ҳамда ўз-ўзини назорат этиш, бошқариш кучайиб боради. Бу даврда ўсмирларда назарий тафаккур катта аҳамиятга эга. Ушбу даврга хос хусусият шундаки шахснинг шаклланиши ижтимоий омилларга боғлиқ бўлади. Ўсмирларнинг психик ривожланишида янги ҳислатлар яъни шахсий ва тадбиркорлик хусусиятлари, умумий ва махсус лаёқатлар шаклланади. Ўз ташқи кўриниши ва қарама-қарши жинсга нисбатан муносабатлар юзага келади. Уларда катталар шахси ва фаолиятини баҳолашнинг ўзига хос мезонлар юзага келади. Илк ўспиринларда эса акселерация кескин намоён бўлади. Улар касб танлаш ҳақида фикрлайдилар. Жисмоний, ақлий жиҳатдан дунёқарашлари ва инсоний хусусиятлар шаклланган бўлади. Мулоҳазали ва маъсулиятли бўладилар. Таълим ва тарбия жараёнида ушбу психологик хусусиятларни эътиборга олган тарзда фаолият олиб борилса, ўсмирлардаги девиант хулқларнинг олдини олишга, яхшим хулқ-атворларнинг шаклланишига таъсир қилган бўлар эди.

## ART-TERAPIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TURLARI. ART-TERAPIYA

*Mirdjalilova Dilnoza Xamidullayevna*  
*Shayxontohur tumani 40 maktab psixologi*

So'nggi yillarda art-terapiya turli xil psixologik muammolarni hal qilishda juda mashhur usulga aylandi. "Art davolash" samarali va foydalidir, shuning uchun u yoshidan qat'iy nazar bemorlar bilan ishlashda keng qo'llaniladi. Albatta, ko'p odamlar uchun har qanday ma'lumot qiziq. Masalan, shunga o'xshash tuzatish usullari qanday ko'rinadi, uning turlari qanday. Art-terapiyada deyarli hech qanday cheklovlar va kontrendikatsiyalar yo'q, ammo bu sizga haqiqatan ham yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi.

Ko'pincha ota-onalar bunday ish usullariga qiziqish bildirishadi, chunki ular har qanday yoshdagi bolalarga tegishli. Bundan tashqari, bemorning o'zi (qaysi yosh guruhiga mansub bo'lishidan qat'i nazar) seanslar o'yinlar va o'yin-kulgilar shaklida taqdim etiladi, bu esa uni to'liq ochishga imkon beradi. Xo'sh, bolalar va kattalar uchun art-terapiyaning asosiy turlari qanday? Mashg'ulotlar qanday olib boriladi? Tuzatish uchun qanday materiallardan foydalanish mumkin? Art-terapiyaning maqsadlari nimada? Qanday natijalarni kutish mumkin? Bu savollarga javoblar ko'pchilikni qiziqtiradi.

Art-terapiya nima? Bir oz tarix

Zamonaviy psixologiyada art-terapiya ko'pincha esga olinadi. Ushbu texnikaning turlari va usullari xilma-xildir, bu eksperimentlar uchun juda katta maydonni ta'minlaydi. Bu so'zma-so'z san'atni davolashni anglatadi. Darhaqiqat, mashg'ulotlar paytida bemorlar o'zlarining his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini ifoda etishlari, san'atning turli shakllari, jumladan rasm, raqs, kompozitsiya, haykaltaroshlik va hokazolardan foydalanib, shaxsiy xususiyatlarini o'rganish imkoniyatiga ega.

Psixologiyada eng mashhur art terapiya turlarini ko'rib chiqishdan oldin, ushbu tuzatish uslubini yaratish va rivojlantirish tarixiga e'tibor qaratish lozim.

Dastlab, badiiy davolanish sxemasi Z. Freud, C. Jung, A. Maslou kabi taniqli shaxslarning nazariyalarida taqdim etilgan. Ammo amalda faraziy modellar faqat XX

asrning 30-yillarida qo'llanila boshlandi. Shunga o'xshash tuzatish usuli urush tugaganidan keyin AQShdan Germaniyaga ko'chib ketgan bolalarni davolashda qo'llanila boshlandi. O'sha paytlarda art-terapiya stressni engish va fashist lagerlarida bo'lgan davrda olgan jarohatlariga qarshi kurashishning yagona yo'li bo'lgan.

Birinchi tajribalar ijobiy natija berdi, shuning uchun "art davolash" tobora ommalashib bordi. Bugungi kunda artoterapiyaning deyarli barcha turlari psixoterapiyada keng qo'llaniladi. Bunday usul odamga ko'p muammolarni tushunishga va hal qilishga, shaxsiyatining yangi qirralarini ochishga imkon beradi.

Terapiyaning asosiy maqsadlari

Deyarli har bir psixolog bemorni davolashning biron bir bosqichida art-terapiya kabi usulga murojaat qilish zarurligini his qiladi. Ushbu texnikaning turlari va usullari davolash rejimini sezilarli darajada diversifikatsiya qilishi, bemorning farovonligini yaxshilashi va unga chuqur mojarolarni hal qilishda yordam berishi mumkin. Ushbu tuzatish sxemalaridan foydalangan holda, shifokor bir nechta maqsadlarga ega.

- San'at darslari odamga salbiy his-tuyg'ularni, shu jumladan tajovuzni va ijtimoiy maqbul shaklda ozod qilish imkonini beradi. Masalan, haykallar yoki chizmalar ustida ishlash stressni engillashtirish va almashtirishga imkon beradi.

- San'at og'zaki bo'lmagan muloqot qilish imkonini beradi. Ba'zan odam ichki nizolarni vizual tasvirlar yordamida, so'zlarni ishlatmasdan, nima yuz berayotganini to'g'ri tasvirlashga harakat qilmasdan tushunishi va ifodalashi osonroq bo'ladi.

- Psixologiyada san'at ob'ektini yaratish jarayonini o'z ichiga olgan art terapiya turlari shifokorga ko'plab qiziqarli materiallarni olish imkoniyatini beradi, bu esa keyinchalik izohlash va tashxis qo'yish uchun ishlatilishi mumkin.

- Birgalikda san'at darslari sizga bemor va uning terapevti o'rtasida tezkor aloqa o'rnatishga, kerakli ishonch darajasiga erishishga, xijolatni engishga va mashg'ulotlar uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi.

- Art-terapiya odamni bostirishga odatlangan his-tuyg'ular va fikrlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Ba'zida bu bemor uchun o'z his-tuyg'ularini ifoda etishning yagona usuli.

- San'at darslari o'zini tuta bilish va o'zini tarbiyalash tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.
- Texnika, shuningdek, sezgilarga diqqatni jamlashga, yangi tajriba orttirishga imkon beradi. Masalan, agar biz modellashtirish haqida gapiradigan bo'lsak, unda bemor shakllar bilan tajriba o'tkazish, to'qimalarni his qilish va hk.
- Va, albatta, barcha turdagi art-terapiya o'z-o'zini hurmat qilishni oshirishga yordam berishini unutmang. Bunday mashg'ulotlarga qatnashgan odamlar ish tugaganidan so'ng mamnun bo'lishadi (masalan, rasm yoki haykalni tugatgandan so'ng). Bundan tashqari, san'at ko'pincha odamga yangi badiiy qobiliyatlarni kashf etishga yordam beradi, bu hatto u shubhalanmagan edi.
- Aytgancha, afzalligi shundaki, maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun deyarli barcha turdagi art terapiya katta imkoniyatlar ochadi. Kurs oxirida sobiq bemorlar yaratishni davom ettirishi mumkin va siz bilganingizdek, kelajakda biron bir faoliyat ularning kasbiga aylanishi mumkin. Ular uchun kattalar kabi terapiyaning barcha turlari mavjud.

Ushbu uslub universal deb hisoblanadi. U mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin, ammo ko'pincha badiiy darslar odatiy maslahatlar bilan birlashtirilib, ularda shifokor bemordan ko'proq ma'lumot olishi, maslahat berishi va hk. Ko'pincha guruh mashqlari o'tkazilib, ularda bir nechta bemor ijodkorlik bilan shug'ullanadi. Bu ularga aloqa va yordamga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatini beradi.

#### *Art-terapiya turlari, o'zaro ta'sir va faoliyat usullari*

Ijodkorlik turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Qanday turlari bor? Art-terapiya ham passiv, ham faol bo'lishi mumkin.

Agar passiv uslub haqida gapiradigan bo'lsak, bu darslar paytida tayyor san'at asarlari ishlatilishini anglatadi. Masalan, bemorga rasmni ko'rib chiqish, relyef, haykaltaroshlikning xususiyatlarini o'rganish, kitob o'qish, muayyan musiqa tinglash va h.k.

Faol art-terapiya mustaqil ijodkorlik jarayonini nazarda tutadi - odam o'z rasmini chizadi, o'z kollajini, haykalchasini yaratadi va hokazo. Darsda nafaqat bemor, balki

shifokor ham qatnashishi mumkin. Birgalikdagi modellashtirish darslari yoki, masalan, fotosuratlar ishonchli munosabatlarga yordam beradi.

Bundan tashqari, darslar tuzilishi mumkin (shifokor mavzuni, san'at turini mustaqil ravishda tanlaydi, namunalarni namoyish qiladi) va tuzilmagan (bunday hollarda bemor ijodkorlik, materiallar, ranglar va boshqalarni mustaqil ravishda tanlaydi).

Aytgancha, art-terapiya nafaqat tasviriy san'atni anglatadi. Davolash jarayonida bemorlar musiqa, raqs, yozuv va boshqalar bilan shug'ullanishlari mumkin.

Ko'rib turganingizdek, art-terapiyaning asosiy yo'nalishlari va turlari nihoyatda xilma-xildir. Bu, o'z navbatida, tajriba uchun juda katta maydonni yaratadi. Shifokor darslar sxemasini doimiy ravishda o'zgartirishi mumkin (masalan, birinchi navbatda bemorga tayyor rasmlarni o'rganish tavsiya etiladi, keyingi mashg'ulotda esa o'zidan biron narsani chizish kerak), muqobil ijod turlari va boshqalar.

Davolash qanday natijalarga erishadi?

Zamonaviy amaliyotda art-terapiyaning qaysi turlari qo'llaniladi, degan savolga javob berishdan oldin, qanday natijalarga erishish mumkinligi bilan tanishib chiqishingiz kerak. Aslida, san'at bilan davolash, uning soddaligiga qaramay, shunchaki ajoyib effekt beradi.

---

## ЎСМИРЛАРДА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИНING КЕЛИБ ЧИҚИШINI ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

*Баратова Мухтасар Набижонова  
Норин тумани 18-мактаб психологи*

Оиладаги носоғлом психологик муҳит ва оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда таълим жараёнида кузатилаётган нуқсонлар, болалар ва ўсмирлар яшаётган маҳаллалар ҳаёти, уларнинг психологик муҳити вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди. Маълумки, объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа- ҳодисалари ўсмирнинг онги,

хоҳиш иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши, шахс сифатида шаклланиш ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Маълумки, вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқиши ва ижтимоий муҳит ўртасида ўзига хос таъсир доираси мавжуддир. Ушбу ўзаро таъсир механизми назаримизда уч хил кўринишда намоён бўлади. Биринчидан, носоғлом ижтимоий муҳит билан шахснинг ўзаро алоқалари ўсмирларда ижобий қарашларнинг салбийлашувига олиб келса, иккинчида шахс ва носоғлом ижтимоий муҳит ўртасидаги ўзаро алоқа кишига ижтимоий меъёрларга тўғри келмайдиган муайян йўл-йўриқни, хусусан ғайриқонуний вазифаларни бажариш бўйича ролларни тақсим этади. Учинчидан эса ғайриқонуний йўл-йўриқлар ва роллар тақсимоти ўсмирда аста-секин ижтимоий муҳит талаб ва меъёрларига нисбатан деформациялашувнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Ушбу деформациялашув шахс хулқида ўзига хос ўзгаришларни келтириб чиқаради. Шунинг учун ҳам хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг аксарият қисми ижтимоий муҳитга нисбатан деформациялашув поғонасида бўладилар. Ўсмирларда ижтимоий муҳитга нисбатан бўлган мослашишнинг издан чиқиши ва уларда ижтимоий мавқенинг мавжуд эмаслиги ёки тусатдан йўқолишлиги (мактабдан ҳайдалиш, оилада носоғлом муҳитнинг мавжудлиги, ишидан, яқин кишисидан маҳрум бўлиш) ўз навбатида ноқонуний, ноахлоқий хулқнинг шаклланишига олиб келади. Яъни, турли хил ғайриқонуний, ноахлоқий гуруҳларга кўшилиш, референт гуруҳларнинг ташкил этилишига сабаб бўлади. Шу боисдан жиноятчилик кўчасига кира бошлаган ўсмир кўпинча мактабни ташлайди, ўзича ишга кирмоқчи бўлади, кўпчилиги эса умуман фойдали машғулот билан шуғулланмайдилар. Кузатишларимизга қараганда, хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг аксарият қисми ижтимоий фойдали машғулотларда қатнашмайди, газета, журнал ёки бадий адабиётлар ўқишмайдилар. Ўқиганларида ҳам ўзига хос қизиқишлар (расмлар, суд материаллари, эълонлар ва бошқалар) билан чекланадилар. Уларда театрға тушиш, дарслик ва бадий китоблар ўқиш бўйича кўрсатгич даражаси анча пастдир. Аммо кинотеатр, видеобар, дискотекларга қатнашиш даражаси анча юқорилиги кузатилади. Ушбулардан кўринадики, ижтимоий фойдали машғулот

билан шуғулланиш, китоб, газета ўқиш, театрларга бориш ўсмирларда ижтимоий фойдали, ижобий позицияларнинг ва установкаларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Аксарият ҳолларда эса болалар ва ўсмирлар ҳуқида салбий позиция ва установкаларнинг шаклланишига имконият яратилади. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ва шарт-шароитларнинг ўсмирларга таъсир этиши улар ҳуққ-атвори мазмунини белгилаб беради. Агарда ижтимоий муҳитдаги воқеа-ҳодисалар ва шарт-шароитлар ўсмирга ижобий таъсир этса ўсмир ҳуқида ижобий хислатлар, аксинча, ҳолатларда эса салбий хислатлар, ғайриқонуний установкалар (йўналиш, мойиллик) шаклланади. Ҳуққ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг ижтимоий муҳити соғлом ҳуққли болалар ва ўсмирлар ижтимоий муҳитидан ўзига хос тор доирадаги дунёқарашга эгаллиги, низоли вазиятлар доирасининг кенглиги, қатъий ҳаётий позициянинг, келажакка нисбатан ижобий қараш, мақсад ва интилишларнинг йўқлиги ва шу каби бир қатор жиҳатлар билан фарқланади. Қуйида биз ушбу жиҳатларни кенгрок таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз. Кузатишларимизга қараганда, ҳуққ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг хатти-ҳаракатлари оила аъзолари томонидан қўллабқувватланиши ва уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатига оила аъзолари ва яқинлари томонидан ижобий муносабат билдирилади. “Бундай иш қилма”, “қилаётган ҳаракатинг ноқонуний”, дейиш ўрнига ота-она ва атрофдагилар уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатларини маъқуллашади ёки унга эътибор беришмайди. Натижада ўз ноқонуний ҳаракатининг маъқулланишини ҳис этган ўсмир яна бошқа бир ноқонуний ҳаракатга қўл уради. Оқибатда салбий ҳуққатвор ўсмирнинг бутун фаолиятини, онгини қамраб олади. Қолаверса, ўз ноқонуний ҳаракатларининг жавобсиз қолишини, катталар томонидан маъқулланишини ҳис этган ўсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги билади. Бу эса ўсмирга янги-янги ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради. Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ўсмирларда ҳуққ оғишининг келиб чиқишига баъзан сабаб бўлиши мумкин. Хусусан, оилада қаҳр-ғазаб асосидаги ота-она муносабати



болаларни уйдан бездиради. Уйдан бешиш, оила муҳитини тан олмаслик ўсмирларда оилавий муҳитга нисбатан мослашишнинг издан чиқишини келтириб чиқаради. Натижада ўсмир оиладан ташқари кўча муҳитини ўзига маъқул кўради. Кўча муҳити эса баъзан криминал мазмунга эга бўлиши мумкин. Натижада ноахлоқий ва ғайриқонуний хулқ-атвор муҳитига тушиб қолган ўсмирда хулқ оғишининг келиб чиқиши учун имконият яратилади. Ота-оналарнинг фарзандлари ҳаёти ва фаолияти билан қизиқмасликлари, уларни назоратсиз қолдиришлари, кўпинча ўсмирни ғайриқонуний хулқ-атворга эга бўлган болалар ва ўсмирлар сафига қўшилиб кетишга олиб келади. Шунинг учун ота-оналар фарзандларининг айниқса, ўсмирлик ёши давридаги фаолиятларини, бўш вақтларида нималар билан шуғулланаётганликларини домий равишда назорат қилиб боришлари мақсадга мувофиқдир. Қолаверса, ўсмирлик ёши давридаги психофизиологик ўзгаришлар ва ўтиш даври хусусиятлари бу ёш ота-оналар ва катта ёшдаги кишиларнинг ўзига хос алоҳида эътиборини талаб қилади. Оилада ота-оналарнинг бу ёшдаги ўсмирларга нисбатан бўладиган эътиборсизликлари, тарбия шундай берилиши керак деб, қарашлари болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига имконият яратади. Шунингдек, оиладаги авторитар, ҳаддан ортиқ қаттиққўллик асосидаги муносабат ҳам болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлганлиги кузатилади. Маълумки, оила ижтимоий институт сифатида ҳозирги пайтда бир қатор ўзгаришларни бошдан кечирмоқда. У бугун жуда кўплаб таъсирлар қуршовида қолмоқда. Хусусан, иқтисодий инқироз, ижтимоий, маданий, маънавий ва ҳуқуқий мазмуннинг сусайиши, оилавий ажримларнинг кўпайиши ва бошқалар оилавий тарбия таъсирчанлигининг сусайишига олиб келмоқда. Булар ўз навбатида оилавий муҳитнинг бузилишига, фарзандлар тарбиясидаги нуқсонларнинг келиб чиқишига замин яратмоқда. Оқибатда оилавий муҳитга, оилавий тарбияга боғлиқ бўлган муаммолар ортиши кузатилмоқда. Оилаларда носоғлом психологик муҳитнинг мавжудлиги оилавий муносабатлар нохушлиги, оилавий ажралишлар, ота-оналардан бирини йўқлиги, оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда оиланинг тарбиявий таъсир кучини пасайиши болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва ҳатто, жиноятчилик хулқининг келиб

чиқишига таъсир кўрсатади. Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, хусусан юртимизда кечаётган ислохотлар, бозор муносабатларига ўтиш, кишиларда кундалик турмуш ташвишларига барҳам бериш, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қараш лаёқатининг етишмаслиги ва шу кабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг биров сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандлари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда. Шу боисдан юртимизда оиладан ташқарида фарзандлар камолоти, тарбияси билан машғул бўладиган турли хил машғулотларга, (спорт, касб-ҳунар) тўғаракларга нисбатан бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, бу борада мамлакатимизда олиб борилаётган тадбирлар мақтовга сазавордир. Жойларда фойдаланишга топширилаётган спорт иншоотлари, замонавий талабларга жавоб берадиган таълим масканларининг бунёд этилиши, ёшларимизнинг бўш вақтларида шуғулланишлари учун турли хил тўғаракларнинг барпо этилиши бу йўналишда амалга оширилаётган ишларнинг намунасидир. Аммо бу соҳада ҳали қилинадиган ишлар ҳам бисёрдир. Оилада етарлича тарбия кўрмаган болалар турмуш қийинчиликларидан қоқилади. Турли хил низоли вазиятларга дуч келади. Тарбиясизлик ўсмирни яхши ўртоқларидан, давралардан айиради. Оқибатда ўсмир учун бирдан-бир йўл носоғлом хулқли ўсмирлар даврасига кўшилиб кетиш бўлиб қолади. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омиллардан яна бири оилавий тарбияда приметив (эскирган, номаъқул) усуллардан фойдаланиш ҳисобланади. Бундай тарбия усулида тарбия ўта қаттиққўллик, авторитар, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмаслик асосида олиб борилади. Бундай усулда болаларни тарбиялашнинг нотўғри эканлигини бугун ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Чунки бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақлан етук ёшлардир. Оқибатда ўзига маъқул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қилади. Бу муҳит ўзининг характерига кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин. Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларга кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

Маълумки, ўсмирлик (12-14 ёш) даврида кескин психофизиологик ўзгаришлар содир бўлади. Ушбу ўзгаришлар кўпинча ўсмир руҳиятига ҳам таъсир ўтказди. Бу ўсмирда тажанглик, серзардалик, инжиқлик, таъсирланувчанлик ҳолатларининг келиб чиқишига сабаб бўлади. Ўсмир руҳий дунёсида пайдо бўлган бундай ўзгаришлар балоғат даври ўтиши билан бир меъёрга келиб қолади. Шунинг учун балоғат ёши даврида ота-оналар ўсмирлар тарбиясига алоҳида эътибор беришлари, уларда кечаётган психофизиологик ўзгаришларни ҳисобга олишлари мақсадга мувофиқдир. Кўпинча оилавий тарбияда болаларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларининг инобатга олинмаслиги уларнинг нотўғри, ёмон йўлларга кириб кетишларига сабаб бўлади. Шу боисдан ота-оналар оилавий тарбияда, фарзандлари билан бўладиган шахслараро муносабатларда, улар билан муомала қилишда шахс ва ёш даври хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иш тутсалар оилавий тарбиянинг самараси юқори бўлишлигини таъминлаган бўлур эди. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқишига таъсир этувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омиллар орасида отаоналарда фарзандлар тарбиясига доир билимларнинг етарли эмаслиги ҳолати ҳам яққол кўзга ташланади. Оилада ота-оналар кўпинча фарзандлари бирон бир ёмон иш қилиб қўйса, уни қаттиқ жазолаш, тақиқлаш ва уларни уйдан чиқармай қўйиш усуллари орқали тарбияламоқчи бўладилар. Фарзанди ўзларига ёқадиган ишга қўл урса уни ҳаддан ортиқ мақтайдилар ва мукофотлайдилар. Ўзлари қўллаётган усулларни қай бири тўғри, қай бири нотўғри эканлигини англаб етмайдилар. Ўзларича тарбия шундай берилади, деб ўйлайдилар. Натижада ўзлари билмаган ҳолда болаларининг тарбиясига салбий таъсир кўрсатадилар. Шунинг учун отаона энг аввало, оилада болаларни тарбиялаш тўғрисидаги назарий ва амалий билимларга эга бўлиши лозим бўлади. Бунинг учун эса улар тарбия тўғрисидаги педагогик ва психологик китобларни, газета ва ойномаларни кўпроқ ўқишлари зарур бўлади. Ушбулардан кўринадики, ота-оналарда тарбия борасидаги билимларнинг етишмаслиги, тарбия жараёнида миллий қадриятлар, урф-одатлар ва расмрусумларимиздан фойдаланмаслик болалар тарбиясининг бузилишига, уларда турли хил хулқ оғишларининг келиб чиқишига олиб келади.

Тадқиқотларимиз натижаларидан маълум бўлишича, оилада болалар тарбиясида қарияларнинг иштирок этмаслиги ҳолати ҳам болалар тарбиясига салбий таъсир кўрсатади<sup>3</sup>. Ахир халқимизда «қариси бор уйнинг – париси бор», деб бежиз айтилмаган. Қарияларнинг биринчидан, деярли уйда бўлишликлари болалар билан доимо мулоқотда бўлишга, улар фаолиятини доимо назорат қилиб туришга олиб келса, иккинчидан улардаги ҳаётий тажрибанинг кўплиги болалар тарбиясида муҳим ўрин тутди. Кузатишларимизга қараганда, оилаларда ота-она ҳамда фарзанд ўртасидаги муносабатларда ҳам ўзига хос самарасиз усуллардан фойдаланилаётганлиги кўзга ташланмоқда

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. С.Х.Таджиева, Д.Ғ.Сабилова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б
2. Ғозиев Э.Ғ. Ўқувчиларнинг умумлаштириш усуллариغا ургатиш ва уларнинг ақлий таракқиёти. Т., "кит" 1983 й.
3. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154

---

## **O'QUVCHILARNI KASB TANLASHLARIGA PSIXOLOGIK KO'MAKLASHISH**

*Olimova Shahodat G'ayrat qizi  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani 33-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning kasb tanlash muammolari va ularga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son qaror bilan respublikamizda

uch bosqichli professional ta'lim joriy etilishi talablarida belgilangan talablariga kompleks yondashish kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini ta'minlaydi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi va mutahassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsning taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutahasissining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki inson umrining asosiy qismini sarflaydigan faoliyat hamdir. Kasb tanlayotgan shaxs undan talab qilinadigan bir qator jihatlarga ham alohida e'tibor qaratishi lozim:

-umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimga ega bo'lish;

-kasb tushunchasining ta'rifini, tabiatini, xususiyatlarini, kasblar sonini va turlarini bilishi;

-kasbni inson hayotida qanchalik muhim ekanini tushunishi, u haqda ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishi;

-kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi;

-o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi;

-kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi kasb-hunarga yo'naltirish yakuniy ideal natijasi- bu har bir o'quvchida mustaqil va ongli ravishda kasbiy o'zlikni anglashning shakllanganligidir. Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy me'zonlardan biri sifatida quyidagi bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Kasblar olami haqidagi aniq ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri. Bu Davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv-biluv faoliyatida o'quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi.

2. O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq, ularda yangi yetakchi faoliyat tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo'ladi.

3. O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zligini anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

Yoshlar o'z kelajagini anglagandagina, qiziqish va manfaatlarini anglab olgandagina, hayotidagi ehtiyojlarini tushungandagina kasb tanlashi oson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi. Bu asosni tanlashda beriladigan quyidagi tavsiyalar va bir qator jihatlar foydadan holi bo'lmaydi.

O'quvchilar uchun tavsiyalar:

-o'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab oling (bunda maktab psixologi sizga yaqindan yordam beradi);

-turli kasbiy yo'nalishlar istiqbolli soha va mutahassislik to'g'risida bilimlaringizni mustahkamlab boring;

-9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlarda o'tkaziladigan "ochiq eshiklar kuni"da ishtirok eting;

-adabiyotlar, onlayn platformalardan yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot oling;

-istaklaringiz, qiziqish va qobiliyatlaringiz, salomatligingiz va maqsadlaringizni muvofiqlashtiring;

-imkoniyat bo'lsa kasb tanlash bo'yicha malakali mutahassis bilan maslahatlashing;

-tanlayotgan kasbingizdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

-qanday kasb tanlashni farzandingizni o'ziga qo'yib bering;

-siz tomoningizdan berilayotgan maslahatlar zarur va foydali, lekin ular yakuniy qaror bo'lmasligi yordamchi ta'sir bo'lishiga e'tibor qarating;

-farzandingizni qiziqish, qobiliyat va layoqatini yoshligidan kuzatib, rivojlantirib boring;

-farzandingizni istak va maqsadlari bilan o'rtoqlashing;

-farzand otasi yoki onasining kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi, lekin bunga uni siz majburlamang;

-farzandingizni kasb tanlashi va kasbiy yetuklikka erishishi uchun iloji boricha yetarli sharoit yaratib bering;

-farzandingiz kasb tanlashida o'z imkoniyatlari va shaxsiy sifatlaridan kelib chiqishi to'g'risida maslahatlar bering.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kasbiy yo'nalishi yoshlarda hozirgi iqtisodni, menejment boshqarish nazariyasini, bozor muhitidagi marketing faoliyati va mo'ljalni, patent olishga kirishni, ma'lumotlarni bilishi va ularni mohiyatini tushunish- buning uchun informatika va informatsiyalar asoslarini egallagan bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'smirni kasb tanlashida o'zini aniq maqsadlarini anglab olishi va kasbga ega bo'lishga intilishi- bu ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda 3 ta asosiy omillar birlashishi va ularga moslashishi kerak bo'ladi. Bular:

Men xohlayman, Men eplay olaman, Men qila olaman omillaridir.

"Xohlayman" -bu shaxsning intilishi, qiziqishi, xohlashi.

"Eplay olaman" - bu insoniy imkoniyatlar (fiziologik va psixologik, shuningdek shaxsning ta'lim resurslari).

"Qila olaman"-mehnat bozorining ehtiyojlari, insonni jamiyat, odamlar, oilasi va shu kabilar oldidagi majburiyatlari.

Asosiysi tarbiyachi bo'lgan ota-onalar o'z bolalariga kasb tanlashida yordamchi hisoblanadilar. Ular bilan ochiq suhbat bolalar qaysi kasbga qiziqishlarini bilib olishlari va ularga yordam berishlari zarur. Agar bola tanlagan kasb ota-onaga yoqmasa uni ra'yini qaytarmagan holda nima uchun bu kasbni tanlagani va buning asosida nimalar yotganini

bilib olishlari zarur. Asosiy omilni bilib olgach, o'z maslahatlarini berishlari mumkin bo'ladi. qo'llab -quvvatlash, ishonch bildirish va o'z maslahatlarini berishdan iborat.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'natirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi faoliyatining natijasi o'quvchilardagi psixologik ko'rinishda o'z aksini topadi, ya'ni ularning bilimlarida, uddalay olishlarida, malakalarida, shaxsga xos tomonlarini ko'rinishida, dunyoqarashlarida, ma'naviy ehtiyojlarida o'z aksini topadi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi- bu aniq bir kasbni tanlab olishlarida, uni bajarishni uddalay olishlarida, shu sohani olib borish imkoniyatlarida ko'rinadi.

Unutmang, inson kasbida jon saqlashi emas, balki shu kasbda yashashi kerak. Shundagina qilayotgan ishi haqiqiy sevimli kasbi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. E.G'.G'oziyev. K.K.Mamedov "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003
2. F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. Toshkent. 2020.

---

## **PSIXOLOGIK MOSLASHUV VA NOTO'G'RI ISHLASH**

*Dehqonova Aziza Shokirovna  
Sergeli tumani 266- maktab psixologi*

Biz uzoq vaqtdan buyon kayfiyatning eng kichik pasayishida " depressiya " belgisini osib olishga odatlangan edik. Ushbu atama haqiqiy kasallik, rivojlangan davlatlarning bo'g'ini anglatishini esdan chiqarmaslik. Birinchi g'am-tashvish xavotirli bo'lishi mumkin va uzoq davom etadigan apatiya, uyqusizlik, hayotga qiziqish yo'qolishi - depressiya o'z huquqlariga kirishga tayyor ekanligini ko'rsatib beradi. Ushbu bosqichda siz shifokor va



dori-darmonlardan foydalanasiz. Siz o'zingizni depressiyadan tezroq chiqib, o'zingizga to'liq hayot yo'lini qanday qilib topishni bilib olasiz.

#### Depressiyadan o'zini namoyon qilish usullari

Muammo turli xil sabablarga ega bo'lishi mumkin: ajratish yoki ajralishdan keyin depressiya, tug'ilishdan keyin tug'ilish va depressiya - undan chiqib ketish usullari, odatda, bir-biriga o'xshashdir.

1 Avvalo, o'zingiz uchun bir maqsad qo'yish muhimdir. Sizing maqsadingiz hozirgi vaziyatdan chiqishdir. O'zingizni go'daklar kabi tasavvur qiling. Haqiqatan ham baxtning holatini his qilishni harakat qilib ko'ring. Ushbu mashqni iloji boricha tez-tez takrorlang.

2 Vaziyat va kun tartibini o'zgartirish. Oddiy qilib aytish kerakki, dam olishingiz kerak. Monotoniya hech qanday o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi. Shunday qilib, iloji bo'lsa, hayotingizni o'zgartiring. Agar uzoq vaqt davomida ta'tilga chiqmagan bo'lsangiz - boshqa mamlakatdagi taassurotlarga o'ting. Agar uyga kirsangiz, kurortga boring. O'zingizni ursin, lekin uni muntazam ravishda o'zgartirmang. O'z-o'zini rivojlantirishga harakat qiling!

3 Sog'lom uyqu. Har qanday holatda bu qismni ortiqcha baholaysiz. Ko'pincha depressiya surunkali uyqusizlik tufayli yuzaga keladi. Oddiy g'amxo'rlikni go'zal marosimlarda uyquga o'tkazish, yoqimli tungi nurlar sotib olish, yostiqli lavanta patnisini qo'yish va yangi to'shaklarni yotqizish.

4 To'g'ri ovqatlanish. Soqolli organizm va tez-tez ovqatni sevish tez-tez yomon kayfiyatdagi aybdorlarning biridir. Lekin sog'lom taom - bu tanangizga muhabbat bildirishdir.

5 Sport bilan shug'ullanish. Jiddiy jismoniy kuchdan so'ng, kayfiyat o'z-o'zidan ko'tarilganini hech ko'rganmisiz? Sport - bu ruhiy tushkunlikdan qutulishning ajoyib usuli 1 gormonning dozasi "quvonch".

2 O'qish. Hayotni tasdiqlaydigan va qiziqarli kitoblar sizning sodiq ittifoqchilaringiz bo'lishi kerak.

3 Uyda buyurtma bering. To'g'ri oqimga to'sqinlik qilayotgan barcha keraksiz axlatlarni tashlang.

4 Affirmations. Ertalab va kechqurun tanlangan parametrlarni o'zingizga takrorlang. Bunday fikrlashni hayotingizning muhim qismiga aylantir.

Depressiyadan uchta yo'l borligini yodda tuting. Birinchisi, taslim bo'lish, pastga tushishdir. Ikkinchisi esa o'zingizni shifokorlarga topshirishdir. Uchinchisi - hayotni o'z qo'llaringizga olishdir. Tanlash sizniki!

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Axutnina T.V. Pylayeva N.M. Yablokova L.V. O'qishdagi qiyinchiliklarning oldini olishga neyropsixologik yondashuv. dasturlash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari. // Salomatlik maktabi. T. 2. 1995.

2. Belicheva S. A. Voyaga etmaganlarni ishg'ol qilinishini oldini olishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Xulosa. Hujjat diss. - M., 1989 yil.

3. Belicheva S.A. Profilaktik psixologiya asoslari. - M.: Muharrir - tahr. "Ijtimoiy. Sog'liqni saqlash Rossiya" markaziy konsorsiumi, 1994 yil

4. Belicheva S.A. Kompensatsiya, tuzatish va rivojlanish ta'lim tizimini psixologik qo'llab-quvvatlash muammolari // Tomsk davlat universiteti jurnali. ruhiy-ijtimoiy. va axloq tuzatish ishlari. ishlash. - 2000.-№2. s -69-74

---

## **YOSHLARDA STRESSOGEN VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

*Rustamova Mayramxon Nabiyevna*  
*Namangan viloyati Norin tumani 12-maktab psixologi*

Jahon miqiyosidagi mutaxassislar stress bugungi kunda “asr kasalligi” bo’lib qolayotganligini ta’kidlashmoqdalar. Zero, shaxsning stress holatiga tushishi nafaqat uning yuritayotgan faoliyatiga, uning ruhiy jismoniy salomatligiga ham jiddiy salbiy ta’sir etadi. So’ngi yillarda hayot tarzining tezlashuvi, axborotlar oqimining ortib borishi, iqtisodiy o’zgarishlar, emotsional zo’riqishlar, bularning barchasi bugungi kun shaxsiga

o'zining salbiy ta'sirini o'tkazayotgani ma'lum. Shunga bog'liq holda bugungi kun kishisida stresslarning kuzatilayotgani keng ilmiy-jamoatchilik diqqat markazida bo'lgan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra (2020-2021-yillar) mavjud kasalliklarning 65%i stress bilan bog'liq ekanligi ta'kidlandi. Demak, kelajakning asosiy kuchi bo'lgan yoshlarda stressga tushishlari tufayli turli somatik va psixosomatik kasalliklarni orttirib olish ehtimoli keng jamoatchilik uchun ham jiddiy e'tibor ob'ekti bo'lishiga asos bo'lmoqda.

Stress jismoniy, ruhiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin bo'lgan zo'riqish holatlarini o'z ichiga oladi. Chidamlilik so'zining ma'nosi "bardoshlilik".

**Stressga chidamlilik** –stressga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. Bu his-tuyg'ular va stressli voqealarni yengish qobiliyatining o'lchovidir. Bugungi kunda yoshlarimiz orasida stress holatlari ortganini ko'rishimiz mumkin. Stress ortida har doim sabab bor. Stressni sababini tushunganingizdan so'ng, shunga mos ravishda qarshi choralar haqida o'ylashingiz mumkin.

### **Yoshlardagi stress sabablari:**

#### **1. Hammaga birdek yoqaman degan fikr.**

Odamlar turli xil qarashlarga ega. Ba'zi bir narsalarni yoqtirishsa, ayrimlarini yoqtirishmaydi. Misol uchun ko'pchilikka yoqadigan taom ma'lum miqdordagi odamlarga yoqmasligi mumkin. Har bir inson ham hammaga birdek yoqavermaydi. Agar hamma sizni yoqtirishi mumkin emasligini tushunmasangiz, siz hammaga birdek yoqaman deb o'ylaysiz va harakatlanasiz. Bu esa stress manbayi hisoblanadi. Chunki hammaga birdek yoqish mumkin emas.

#### **2. O'qish faoliyatida yoki o'qishni tugatgandan so'ng maqsadsiz holat.**

Maqsadsiz barcha qiyinchiliklar stressga aylanadi.

#### **3. Vaziyatni o'zgartira olmaslik hissi.**

Hayotda yoshlarimizga mos kelmaydigan qoidalar, ularning haqiqatlaridan farq qiladigan haqiqatlar va atrofdagilar bilan o'zlarini solishtirishlari. Bu vaziyatlarni o'zgartira olmasliklariga ishonish ham stressni keltirib chiqaradi. Hamma narsa ularning ideallariga

to'g'ri kelmaydi.. Ammo bu ular vaziyatni umuman o'zgartira olmaydilar degani emas. Biroq, "vaziyatni o'zgartirish mumkin emas" deb o'ylashlari stressni yaratib beradi.

#### **4. Kechalari yaxshi uxlamaslik.**

Kechasi yaxshi uxlamaslik chidamlilikni pasaytiradi. Miya uxlash orqali his-tuyg'ularni tetiklashtiradigan funksiyaga ega. Tartibsiz va stress tufayli uxlay olmaslik funksiyaning to'g'ri ishlamasligiga sabab bo'ladi. Yaxshi uxlamaslik stressni kuchaytirishi tabiiydir. Bundan tashqari uyqu yetishmasligi kognitiv funksiyani pasaytiradi.

#### **5. Stressga qarshi garmonlarning pasayishi.**

Stressga qarshi garmonlarning pasayishi stressga moyillikni oshiradi. Stressga qarshi garmonlar jismoniy mashqlar yetishmasligi, uyqu yetishmasligi va tartibsiz hayot tufayli yetishmaydi. Bugungi kunda zamonaviy odamlar kamroq jismoniy mashqlar va uyquga ega bo'lganligi sababli, bu stressga qarshi garmonlarning kamayadigan muhitini yaratadi.

#### **Stressga chidamlilikka ta'sir qiluvchi omillar:**

**Sezish qobiliyati-** Sezgi qobiliyati qanchalik past bo'lsa, stressga chidamlilik shunchalik yuqori bo'ladi.

**Qochish qobiliyati-**bu stress omillarini qabul qilmasdan oldini olish qobiliyatidir. Stressli vaziyatlarga moslashuvchan javob bera oladigan odamlarning stresslardan qochish qobiliyati yuqori bo'ladi. Tanangiz va ongingiz qanchalik sog'lom bo'lsa, undan qochish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

**Stress omillari bilan kurasha olish kuchi-** stress bilan samarali kurasha oladigan odamlar stressga nisbatan ancha chidamli bo'lishadi. Masalan: sizda muammo ko'p bo'lsa, bu muammoni bartaraf etishni o'ylash, muammolarni hal qilishingiz mumkin.

**Stressni ijobiy narsaga almashtirish qobiliyati-**bu stressli vaziyatlarni ijobiyga almashtirish qobiliyatidir. Misol uchun: biror narsa noto'g'ri bo'lsa, "bu juda qimmatli o'rganish imkoniyati edi" deyish yaxshi fikrdir.

**Tajriba** – bu insonning o'tmish tajribasi. Agar siz o'tmishdagi stresslarga o'rganib qolgan bo'lsangiz, siz kamroq stressga duch kelasiz.

**Imkoniyatlar-** sizdagi imkoniyatlar qancha stressni saqlashingiz mumkinligidir. Agar stressga tushganingizda, imkoniyatlaringiz ko'p bo'lsa, stressga chidashingiz mumkin bo'ladi. Agar sizda imkoniyatlar kam bo'lsa, stressga chidamligingiz kam bo'ladi. Agar

siz jismoniy va rihiy jihatdan yomon bo'lsangiz, siz juda ko'p stress holatlariga moyil bo'lasiz.

Psixologik chidamlilik uchun, hayotning go'zal tomonlariga e'tibor qaratib, biz istamagan vaziyatlarga tayyor yashash muhim nuqtai nazardir. Agar biz stressga to'g'ri munosabatda bo'lsak, bu stress bizda asta sekin kamayadi. Insonlar stress haqida gap ketganda salbiy fikrda bo'lishadi, ammo stressing o'zi yomon emas. Stress shunchaki kuchlanish va dam olishdir. Inson qiyin vaziyatlarda stressni his qiladimi yoki u buni shaxsiy qiyinchilik uchun imkoniyat sifatida ko'radimi bu odamning o'ziga bog'liqdir. Stress o'sishga, muvaffaqiyat tuyg'usiga va ishonchga olib keladi.

Stressga chidamlilikni oshirish imkoniyatlari:

- Yaxshi uyqu va to'g'ri ovqatlanish.
- Sevimli mashg'ulot va qadrlaydigan narsalar.
- Boshqalar bilan maslahatlashish- oilangiz, do'stlaringiz va yaqinlaringiz bilan tashvishlaringiz va muammolaringizni o'rtoqlashing.
- Mashg'ulotlardan so'ng dam olish, kichik tanaffus qilish, kofe ichish.
- Siz chora ko'rishingiz kerak. Mashq qilish, musiqa yoqish va raqsga tushish, yurish kabi rag'batlantiruvchi harakatlar bilan stressni engish osonroq.
- Nafas olish mashqlari va meditatsiya ham stressni boshqarishda juda samarali usullardir.
- Sog'lom turmush tarzini qabul qilish: sog'lom oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, spirtli ichimliklar va chekishdan voz kechish, muntazam uyqu.

### **Stressni boshqarish texnikasi:**

**1-qadam:** Stress belgilarini sezganingizda, avvalo, qilayotgan ishni to'xtating. Tanangiz sizga nima demoqchi ekanligini tinglang. Bir muncha vaqt tinchlik va osoyishtalikka vaqt ajrating. Siz tinchlantiruvchi tushni tasavvur qilishingiz yoki tinchlantiruvchi so'zlarni yoki iboralarni takrorlashingiz mumkin. Agar siz ma'lum bir tinchlantirish texnikasini muntazam ravishda mashq qilsangiz, o'zingizni osongina tinchlantirishingiz mumkinligini tushunasiz. Dam olish va stress darajasini pasaytirgandan so'ng, siz aniqroq fikrlashni boshlashingiz mumkin.

**2-qadam:** Ishning qaysi bosqichida xafa va g'azablanganingizni aniqlang. Keyin o'zingizdan nima o'tganini va o'zingizga nima deganingizni so'rang.

**3-qadam:** Boshingizdan qanday mantiqsiz fikrlar o'tayotganini aniqlashga harakat qiling. Nima va qaysi fikrlar sizni bezovta qilayotganini aniqlaganingizdan so'ng, bu fikrlarni ko'rib chiqing va o'zingiz bilan biroz suhbatlashing. Haqiqiy bo'lmagan va mantiqsiz g'oyalaringizni ko'rib chiqing.

**4-qadam:** Ko'proq mantiqiy va oqilona g'oyalarni ishlab chiqish uchun o'zingiz bilan bahslashing. Endi siz aniqroq va mantiqiy fikr yuritishingiz mumkin, qanday xatti-harakatlar stressni keltirib chiqarayotganini bilib olishingiz mumkin.

**5-qadam:** Eski, muvaffaqiyatsiz odatlardan voz kechish va yanada samarali xulq-atvor namunalarini qabul qilish uchun yangi narsa qilishga tayyor bo'ling. Muxtasar qilib aytganda, sizni yanada muvaffaqiyatli qiladigan yangi xatti-harakatlarga ega bo'lish xavfini oling.

**6-qadam:** Stressga bo'lgan nuqtai nazariningizni o'zgartirish stressni boshqarishga yordam beradi. Vaziyatni qabul qiling va uni qayta ko'rib chiqing.

Har birimiz hayotning turli sohalarida va bosqichlarida son-sanoqsiz stress omillari va kutilmagan oqibatlariga duch kelamiz, va shunga qaramay biz yashashni davom ettirish ma'suliyatining og'irligini his qilamiz. Hayotda uchragan muvaffaqiyatli odamlar umumiy nuqtasi bo'lgan konsepsiyada chidamlilik qobiliyati yotadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova V.M salomatlik psixologiyasi.-T.: Yangi asr avlodi. 2005.-71 b.
2. Samarov .R.S. Shaxs va stress. O'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent,2004-40b
3. Ziyonet.uz

## TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR PSIXODIAGNOSTIKASI VA ULAR BILAN ISHLASH

*Saydazimova Shahnoza Bahodirjanovna*  
*Toshkent viloyati Toshkent tumani 16-maktab psixologi*

Barchagamizga ma'lumki, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash azaldan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan, u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tiborni qaratishimiz lozimdir. Sobiq Ittifoq davrida shaxs xulq-atvoriga irsiy omillar va uning tabiiy xususiyatlarini ta'sir qilishi haqidagi qarashlar inkor etilar edi. Biroq N.P.Dubinin, V.P.Efroimson, N.S.Kanstonistov, B.F.Sergeev va boshqa genetiklarning bildirishicha, shaxsning genetik xususiyatlari, undagi ba'zi tug'ma kasalliklar va xususiyatlar ham shaxs xulq-atvorining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etilishini e'tirof etganlar. Ko'pchilikning fikriga qaraganda oxirgi paytlarda tarbiyasi og'ir bolalar bilan bog'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular sonining keskin oshganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni, hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor ko'rish, komp'yuterdagi har xil o'yinlar epizodlariga taqlid qilish, Internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirishi) yoki kattalarning e'tiboridan chetda bo'lishi, oiladagi krizis va hokazolar. Bu omillarni inkor etmagan holda, mazkur muammoning tub sabablarini bolaning psixik taraqqiyotidan qidirish lozim. Hech kimga sir emaski, bugungi kun bolalari o'zlarining yigirma yil oldingi tengdoshlaridan farq qilishadi. Hozirgi yoshlar tez ta'sirlanuvchan, musaqillikka moyilligi yuqoriligi va shu bilan birga nisbatan befarq, o'z vaqtlarini mazmunli ijtimoiy foydali faoliyatga sarflagilari kelmaydi. Vaholanki inson tabitan o'ziga xos oson va ko'ngilochar mashg'ulotlarga moyil bo'ladi. Inson xulq-atvori tarkibining aksariyati tabiiy instinktlari tazyiqi ostida bo'lishini inobatga olinishi kerak. Ushbu tazyiqlarni to'g'ri muvofiqlashtirish insondan irodaviylikni talab qiladi. Bu holatni zamonaviy texnikaning rivojlanganligi ta'siri deb ham izohlash mumkindir. Ko'pchilik hollarda

bolalardagi bu o'zgarishlarga e'tiborsizlik va befarqlik ularning xulq-atvorida salbiy og'ishlarining boshlang'ich sababi va asosi bo'lishi mumkin. Amerikalik amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik xizmat doirasida bolani tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi.

Buning uchun bolani o'zini o'zgartirishga tayyorlash, ya'ni:

-tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslikka;

-turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim. Demak, olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin ekan.

Shu o'rinda psixologiya faniga murojaat etib, inson psixikasida ongning tarkib topishi xususida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Ma'lumki, inson ongining yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashidir. Uning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Inson o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi sub'ektdir. Insonning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob'ektdir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, insonning o'zini anglashi sub'ektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi. Inson ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini, o'z xuquq va burchini, nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini adekvat baholashi o'zini anglashiga kiradi. Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarning o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil - inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda, inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan



ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangig ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Ma'lumki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan berilmaydi, deb izohlanadi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz. Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning biologik va ijtimoiy omillariga bog'liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida ham bevosita o'ziga xos yuqoridagi ikki omilning o'rni bor. Bolaning xulq-atvori ko'pincha o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, qiziqishlari, ideallari va e'tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir. Shunday qilib, boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

- birinchi o'rinda, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.
- ikkinchi o'rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.
- uchinchi o'rinda, tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G. T. Yadgarova va boshqalar. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash. O'quv qo'llanma. Toshkent- 2007.
2. Байярд Р.Т., Байярд Д. Ваш беспокойный подросток. М.: "Просвещение", 2005
3. Ziyonet.uz

---

## ОИЛАВИЙ КОНФЛИКТЛАРНИНГ ФАРЗАНДЛАРГА ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ

*Исоқова Хулкархон Сайдивалиевна  
Тошкент вилояти Бўка тумани 5- мактаб психологи*

Инсон ўз ҳаётида болалик давриданок бошқа инсонлар билан турли ижтимоий муносабатларга киришади. Инсон ҳаёти бошқалар билан бўладиган турли муносабатларнинг узлуксизлигидан иборат бўлган жараён дир. Ана шу муносабатлар эса ҳар доим ҳам бир текис, силлиқ ва тинч давом этавермайди. Ҳаётнинг бир текис давом этишини турли низо ва зиддиятлар бузиб туради. Биз уларни конфликтлар деб атаймиз. Конфликт ҳар бир инсон ҳаётига алоқадор бўлган ўзига хос жараён бўлиб, ҳеч бир инсон ўзини комил ишонч билан конфликт вазиятлардан муҳофаза қилинганман деб айта олмайди. Конфликтлар инсон ҳаётининг ажралмас қисми ҳисобланади, чунки ҳар бир инсон ўз ҳаёти давомида конфликтлар билан тўқнаш келади. Конфликтлар табиий ҳодиса бўлиб, конфликт билан тўғри муносабат ўрнатиш инсон тарбияси, унинг шаклланишининг зарурий талабларидан биридир. Психологик жиҳатдан конфликтларни ўрганиш фақат назарий эмас, балки жуда муҳим амалий аҳамиятга ҳам эга. Фаннинг бу соҳаси вазиятларда юзага келувчи конфликтларнинг олдини олишга, уларни ҳал қилиш учун самарали чораларни қўллашга ёрдам беради.

Оила инсонларни бирлаштириб турувчи энг кичик ижтимоий бирлик бўлиб, унинг тинчлиги, равнақи ва барқарорлиги жамият тинчлиги ва барқарорлиги ҳисобланади. Шу боис, Ж.Сантаяна “Оила табиатнинг шоҳ асарларидан биридир”, дейди. Оила – маънавий ўчоғи. Айнан оилада инсоннинг маънавий қадриятлари 11 шакллантирилади<sup>2</sup>. Инсоннинг ҳар томонлама униб-ўсиши учун шароит яратилади. Бироқ, айнан оила таркибида, инсонларнинг жуда яқин алоқалари ва маълум муносабатларга киришиши натижасида турли инқирозлар, зиддиятлар, низолар келиб чиқади. Ўзбек оиласининг тарихий ривожланган ўз миллий анъаналари мавжуд. Улар оиладаги томонлар мажбуриятлари, масъулияти ва ҳуқуқларини белгилаб беради. Ҳам аёл киши учун, ҳам эркак киши учун маълум талаблар қўйилади. Аёл киши кўпроқ уйда, болалар тарбияси ва уй юмушлари билан шуғулланиши лозимлиги, эркак кишининг эса – оила аъзоларининг моддий таъминотини амалга ошириши лозимлиги айтилади. Ўзбек оиласи ўз ривож босқичларида ислом дини қадриятларини ҳам ўзига сингдира олган. Шу билан бирга оила институти ҳар вақт ўз даврининг ижтимоий, иқтисодий талабларига ҳамоханг тарзда ўсиш ва такомил жараёнида бўлади. Агар авваллари оила институти ўзининг кичик бир дунёси ичида ташқи таъсирлардан бир қадар эркин яшаган бўлса, ҳозирда ҳар бир оила ва унинг аъзоларига глобализация шароитида жуда катта ахборот оқимлари ўз таъсирини ўтказади. Бу ҳам маълум даражада оилавий конфликтларни элтириб чиқаради,

Оила мураккаб ижтимоий гуруҳ бўлиб, биологик, ижтимоий, ахлоқий, мафкуравий ва руҳий муносабатларнинг бирлашуви натижасида вужудга келади. Шу сабабдан турмушдаги ва оила аъзолари муносабатларидаги ўзгаришлар унинг моддий-маиший, иқтисодий негизи ўзгаришига бевосита боғлиқдир. Оила

<sup>2</sup> Иномова М.О. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999; Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000; Мусурмонова О., Баубекова З. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятларини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993; Сафаров О., Махмудова М. Оила маънавияти. –Т.: Маънавият, 1998; С.Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1997; Шайхова Х., Назаров К. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. –Т.: Ўзбекистон, 1992; Юсупов Э. Инсон камоллигининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998; Нишанова С. Маънавият дарслари. –Т.: Ўқитувчи, 1994; Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Тўраева О. Ҳаёт сабоқлари. –Т.: Ўзбекистон, 2005; Тўраева О. Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1990; Қурбонов Т. Одобнома. –Т.: Ўқитувчи, 1990; Фитрат. Оила. –Т.: Маънавият, 1998.

аъзоларининг ўзаро муомалаларини тадқиқ қилган венгер социологи М.Комлоши 10-14 ёшдаги мактаб ўқувчиларининг ўқишга ва меҳнатга бўлган муносабатига бевосита таъсир қилувчи оила муҳити (вазият, шароит, ҳолат) омилларини тўрт рўйпўхга ажратади: 1) ота-оналарнинг жамоатчилик фаолияти (уларнинг мафкуравий қарашлари ва ишга нисбатан муносабатлари); 2) оила ичидаги муносабатлари (ота ва она муносабати, ота-оналарнинг бува ва бувига муносабатлари, ака-укалар ва опа-сингилларнинг ўзаро муносабатлари); 3) ота-оналарнинг тарбиявий-педагогик фаолияти (уларнинг тарбиявий муаммолари, қизиқишлари, мактаб билан ҳамкорликлари, ўқувчиларга дарс тайёрлаш кезида ота-оналарнинг ёрдами, уларнинг тарбиявий аҳамияти); 4) оилада ўқувчининг фаолияти (ўқувчининг кундалик тартиби, хўжалик ишларидаги муайян мажбурияти) ва бошқалар. М.Комлоши йиққан материалларини таҳлил қилиб, оила муҳити (вазияти, шароити, ҳолатини) уч тоифага: ижобий, ўзгарувчан ва салбий тоифаларга ажратади. Психолог олим В.И.Селиванов оилада шахсни шакллантириш жараёнини ўрганиб, бахтли болалик-бу оиладаги қувончли ҳамжиҳатликнинг ҳамда отаоналарнинг болаларига ғамхўрлигининг самарасидир, деган хулосага келади. Муаллиф оилаларни йўналишига қараб, уч тоифага мансуб эканлигини кўрсатиб беради: ижтимоий-илғор йўналишдаги оила, зиддиятли йўналишга эга бўлган оила, паст даражадаги ижтимоий йўналишга мансуб оила.

Ҳалқимизда “қуш уясида кўрганини қилади” деган мақол бор, табиийки ҳар бир бола ўз ота-онасидан оёнақ олади. Оиладаги доимий конфликтлар, ота-онанинг келишмовчиликлари боланинг руҳиятига биринчи навбатда, тарбиясига, дунё қарашига салбий таъсир кўрсатади. Бизнинг ҳалқимиз азал-азалдан бунга эътибор қаратишган хусусан, Маҳмуд Қошғарий бу тўғрисида ўша даврдаёқ фикр билдирганлар “Ахлоқий тарбияни изчил ва тартибли амалга оширишда оила муҳити ғоят муҳим рол ўйнайди. Инсон ахлоқий, маънавий ва руҳий қиёфасининг пойдевори оилада қўйилади. Шунинг учун ҳам машҳур алломалар оила тарбиясига катта эътибор беришган ҳамда шу масалага бағишлаб қатор қимматли асарлар ёзишган. Доно ҳалқимиз «Бола — бошидан, ниҳол — ёшидан» деган нақлни бежиз айтмаган. Модомики шундай экан, ёш авлодни таркиб топтириш, тарбиялаш

ишини ёшлиқдан, оиладан бошлаш керак. Би-нобарин, оиладаги тарбия жараёнида ҳар бир дақиқа ва фурсатни қўлдан бой бериш орқали ота-оналар кейинчалик кўпгина қийинчиликларга дуч келадилар. Ахир, нотўғри тарбия туфайли нафс балоси ўқига гирифтор бўлган ўн гулидан бир гули ҳам очилмай туриб умри хазон бўлган ёшлар камми? Донишманд тили билан айтганда, «Қапға очлик, ташналикнинг қийинчилигини сезса, музни тешади; бекиниб турган овчини кўрмай, унинг тузоғидаги донлар учун парво қилмай киравсради»<sup>3</sup>

Ота-она обрўсини орттиришда, энг аввало, ибрат-намуна муҳим рол ўйнайди. Оилада тарбия ишини муваффақиятли амалга ошириш учун ота-она тинмай ўзларини тарбиялаб боришлари керак. Ўзларида етишмайдиган сифат ва фазилатларни тўлдириб, мавжуд иллатларни батамом тугатишлари лозим. Чунки ота-оналарнинг тарбия жараёнидаги истъдоди — бу фарзандларга нисбатан муҳаббат ва садоқатдан иборатдир. Агар ота-оналар ўзлари келишишмаса уларни бола олдидаги ҳурматлари йўқоқлади. Ҳар кун ота-онасининг жанжалига воқиф бўладиган фарзанд уйдан қочишга кўпроқ кўчага интилиш уларда кучайиб кетади. Бунинг оқибатида боланинг психологиясига салбий таъсир кучаяди сўнгра ҳар хил девиант ҳолатлар болада кузатилиши мумкин. Бу жамиятимиз учун жуда катта зарардир. Бу каби ҳолатларни олдини олиш учун Ота-она фарзандлар ўртасида обрўга эга бўлишлари керак, бунинг учун қатор чора ва тадбирларни амалга оширишлари зарур. Даставвал улар турли ёшдаги фарзандлари руҳий дунёсига мос муомала қилишлари даркор. Кичик, ўрта ва катта ёшдаги ўғил-қизлар билан мулоқотда уларнинг ёш хусусиятларига мос муомалада бўлиш шарт.

Оилада тотувликнинг мавжуд бўлиши барча муваффақиятларнинг гаровидир. Чунки оила аъзоларининг бир-бирига бўлган муносабатлари келажак авлоднинг қандай шахс бўлиб вояга етишига ўз таъсирини кўрсатади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Иномова М.О. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999;
2. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000;

<sup>3</sup> М.Қошғ'арий. Devonu lug'otit turk, Toshksnt, 1960, 401-bet

3. Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. – Т.: Ўзбекистон, 2000;
4. Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида.-Т.: Ўзбекистон, 2000;
5. М.Қошғарий. Девону луғотит турк, Тошкент, 1960, 401-бет

## МАКТАБ О'QUVCHILARINING AXLOQIY KAMOLOTIDA BAXT HAQIDAGI TASAVVURLARNING O'RNI

*Ahmedova Zumradxon Ikromovna*  
*Dang'ara tumani 27-maktab psixologi*

**Annotatsiya.** Yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va komil insonni tarbiyalash ancha murakkab va mashaqqatli muayyan davrni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” deb aytgan so'zlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mazkur maqolada esa yoshlarimizni ruhan va ma'nan barkamol etib tarbiyalashda, ularning psixologik sog'lomligiga erishish borasida milliy qadriyatlarning ahamiyati o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, baxt, Qadriyat, ruhiy barkamollik, yoslar tarbiyasi, ma'naviyat, mafkuraviy poligon, ma'naviy barkamollik, xalq og'zaki ijodi.

O'zbek xalqi azaldan boshqa xalqlar qatori o'z kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratildi. Xuddi shu an'ana hozirgi kun ta'limi va tarbiyasida ham ustuvor bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan yuksak ma'naviyatli ,komil insonni voyaga yetkazish borasidagi islohotlar buning isbotidir. Maktab ta'limi jarayonida o'qituvchining vazifasi faqat fanni o'qitishdangina iborat bo'lib qolmasdan ,o'quvchining odob –axloqi , ma'naviy qiyofasi ,qolaversa unda komil insonga xos fazilatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlab , ulardan

ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishdan iborat bo'lishi kerak. Bugungi kunda olimlarning millat qadriyatiga bergan ta'riflari mukammal bo'lishiga qaramasdan, qadriyat ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ehtiyojning natijasi va mahsuli ekanligi, biroq qadriyatning ruhiy barkamollik sifatidagi funksiyasiga kam e'tibor qaratilgan. O'zbek xalqi qadim o'tmishdan bugungi kungacha o'zining boy tarixi, ma'naviy qadriyatlari, milliy urf-odatlariga ega bo'lib, zamonlar osha uni o'z qalbi va ma'naviyatida saqlab kelib avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda. Unda millatning orzu-umidlari, u yashayotgan tabiiy geografik, ijtimoiy muhit, xalq istidodi, malakasi, qobiliyati, etnik xususiyat hamda belgilari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham shaxs tarbiyasida va ruhiy barkamolligiga asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri milliy qadriyalar ham o'rin egallaydi.

Farzand tarbiyasi inson qalbidagi eng oily maqsadlardan biri bo'lib, ota – ona o'z hayotlarini shular orqali davom ettiradilar. Mutafakkir shoirlardan biri: “Farzandlar qalbimiz mevasi, bellarimiz tayanchidir. Biz ular yurishlari uchun zamin va soyabon osmondirmiz degan edi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida mahoratli o'qituvchilarni qo'llabquvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mahoratli o'qituvchilarni aniqlash maqsadida turli tanlovlar tashkil etilmoqda.

Xususan “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” Respublika ko'rik tanlovi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan fan o'qituvchilariga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo'lsa, “Yil maktabi” Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko'rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, Respublika miqyosida, pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan o'qituvchilar ta'lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasi “Xalq ta'limi a'lochisi” ko'krak nishoniga sazovor bo'lmoqdalar.

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasi bo'yicha o'rtaga quyilayotgan

vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagog shaxsiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish

### **1. Yoshlarni psixologik sog'lom va tarbiyali etib ulg'ayishidagi muhim omillar.**

Har bir tarixiy davr inson ma'naviy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi murakkab masalalarni ko'ndalang qo'yaveradi. Hozirgi ichki va tashqi tahdidlarga boy, o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda tarbiya Farzand tarbiyasi ham go'yo nihol parvarishidek nozik. Kishi oila qurib, farzandli bo'ldimi, uning kelajagi to'g'risida qayg'urishi shart. Bolani nafaqat moddiy ta'minlash, unga ta'lim-tarbiya, mehr berishi, turli yot g'oyalardan saqlashi ota-onaning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki farzand katta bo'lganda ota-onaga yo rahmat eshitiradigan komil inson bo'ladi, yo g'am-tashvish keltiradigan nokas kimsaga aylanadi.

### **2. Yosh avlodning psixologik nosog'lom bo'lib ulg'ayishida milliy tarbiyaning yetishmasligi asosiy sabab sifatida.**

Bilasizmi hozirgi kunda javobi o'yulantirib kelayotgan bir qancha savollar ko'payib borayapti. Nega yoshlar o'rtasida o'z joniga suiqasd qilish holati tobora yosharib bormoqda? Nima uchun yoshlar erta balog'atga yetmoqda? Oilaviy ajrimlar bola ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazmayaptimi?! "Ommaviy madaniyat"ning ko'rinish va illatlaridan birinchi navbatda kim saqlashi kerak?! Erta turmush va uning salbiy oqibatlariga kim sababchi? Yoshlarning odam savdosi qurboni bo'lishida yoxud yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishida eng avvalo kim aybdor? Bola va uning tarbiyasi, bandligini kun davomida avvalo kim nazorat qilishi kerak: ota-onami, maktabdagi ustozlarmi, qo'shnilarmi, yoki mahalla posbonimi? Internetdagi nazoratni-chi? kabi savollar ko'pchilikni chuqur o'yga toldirishi tabiiy. Aynan mana shu savollarga javob tariqasida yoshlarning oilada milliy tarbiyaning kamayayotgani uchun desak noto'g'ri aytmagan bo'lamiz. Bu ham bir bo'shliq sifatida to'ldirishimiz kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga



nisbatan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo‘lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirishi, ma’rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o‘zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak» – degan edi. Ta’limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e’tibor berilar ekan, psixologiya sohasining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatlari, individualligi, ya’ni shaxsiy fazilat, xislatlarini bilgan tarzda ta’lim-tarbiya faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir.

Xulosa qilib aytganimizda maktabdagi tarbiya ,ota- ona va bolaning o‘zaro munosabatidagi o‘ziga xoslik avloddan – avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlar va urf – odatlar , shuningdek , milliy stereotiplarga bog‘liq bo‘ladi .Shuni aytib o‘tish joizki , yuqoridagi fikrlarimizning isboti , ko‘plab psixologik , pedagogik asarlarda ko‘rishimiz mumkin.Shuningdek , ko‘plab Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga oila, maktab ,ota – ona , bola munosabatlari hamda bu munosabatlarning bola shaxsi shakllanishiga ta’sir etish muammosi muhim o‘rin egallagan .

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir .Toshkent . O‘zbekiston 2010 yil.

2.A.A‘zamov A.Yusupov, “O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish”, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2002-yil

3. Nishonova Z. O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O‘quv qo‘llanma. T., Sharq. 2003. B. 25-26.

4. Yodgorova G.T. Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash. T.. 2007.

5. G‘oziev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.

## МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK HOLATLARI

*Baratova Baxriya Suvonovna*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 8- maktab psixologi*

Butun dunyoda bolalarning ta'lim tarbiyasiga e'tibor berish ularni bilim salohiyatini yuksaltirish hozirgi kunda yetakchi o'rinda turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bola tarbiyasini to'g'ri shakllantirishda psixologlarning o'rni muhim ahamyat kasb etadi, xususan maktab psixologining.

Maktab psixologiyasi quyidagi tamoyillarni qo'llaydign sohadir. Maktab psixologiyasi, ta'lim psixologoyasi rivojlanish psixologiyasi, klinik psixologiya. Shuningdek, o'quvchilar va ota- onalar bilan hamkorlikda bolalar va o'smirlarning aqliy salohiyati va o'zini tutushi ehtiylarini qoniqtirish uchun xizmat qiladi.

Insoniyat paydo bo'lganidan to bugungacha, ta'lim va tarbiya tushunchasi uni qanday amalga oshirish ta'lim tarbiyada nima muhim? Ta'lim tarbiya nega muhim? Bunda asosan aysi jihatga e'tibor qaratish lozim? – degan savollarga bahs yuritish har kim o'zining dunyoga bo'gan qiziqishlaridan kelib chiqib ,har bir millat esa o'z mintalitetidan kelib chiqqan holda yondashadi. Aynan maktab psixologiyasi ham ta'lim va tarbiyada, o'qituvchi, murabbiy, asosan o'quvchilardagi salbiy jihatlarni o'rganadi va ijobiy hal qiladi.

Bolalar uchun taniqli pediatir “Benjamin Spok” shunday yozadi: “6 yildan” kegin bolalarda ota- onasini chuqur sevishadi lekin uni ko'rsatishga urinmaydi. Ular hech bo'lmasa boshqalar oldida o'pishini yoqtirmaydi. Bola boshqa odamlarga sovuq munosabatda, faqat “ajoyib insonlar” deb hisoblaydiganlarga. U mulk yoki “chiroyli bola” kabi sevilmoqchi emas. U o'zini hurmat qiladi va hurmat qilishlarini hohlaydi. Ota-ona qaramligidan qutilish uchun u o'z oilasi tashqrisidagi g'oyalar va bilimlarga ishonadigan katta yoshli kishilarga aylanmoqda.Ota-onasi unga o'rgatgan narsalar unutilmaydi, shuningdek, ularning yaxshi va yomonlik tamoyillari qalbida chuqur ildiz otgan. Ularni fikrlarini u ko'rib chiqadi. Lekin ota-onasi nima qilish kerakligini eslatganda u g'azablanadi, chunki u o'zi biladi va ongli ravishda bo'lishni hohlaydi.

**Maktab yoshidagi bolalarning zexinli jaroyonlarining rivojlanishi:**

Bu davirda bolalarning soʻz boyligi 7 ming soʻzga koʻtariladi. Nutning rivojlantirish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu vaqt mobaynida tillarni mukammallashtirish uchun asos boʻlgan mutanosib nutqning rivojlantirishning dolzarb ehtiyoji, bola ustozlari ovozini tahlil qilish. Bola kontekstual nutq asoslarini oʻrganadi, bu uning rivojlanishining koʻrsatkichidir.

### **Fikrlash:**

Ushbu davrd bolalarning fikrlashi eng asosiy vazifadir. Mantiqiy fikrlashning shakllanishi bolalarning toʻgʻri aqliy rivojlanishning belgisi hisoblanadi. Maktabda pedagog avvalo oʻquvchilarning psixik holatini taxlil qilish kerak, asab tizimini (temperament) tugʻma xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda taʼlim metodlarini qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi. Ana shunda taʼlim samaradorligi yuqri boʻladi.

Yuqorida takidlaganidek insonlarning temperamentlari:

Bolalarning individual xususiyatlari haqida gapirilganda uning tugʻma biologik xususiyatlariga alohida eʼtibor berildi xususan atrofdagi bolalarni kuzatganda ular his-tuygʻularning namoyon qilishda, harakat tezligida farq borligi seziladi ayrim bolalar tajang, harakatchan va quvnoq boʻlsalar, boshqlari yovuz, tasirchan oʻz tuygʻularini yashiruvchi boʻlishadi. His tuygʻularning paydo boʻlish tezligi va kuchida hamda kishilarning umumiy harakatchanligida namoyon boʻladigan individual-psixologiya xususiyatlar majmuyi temperament dep ataladi.

### **Bolalarning temperamentiga tavsifnoma:**

**Xolerik** mijozli bolalar- oʻz istagi va maqsadini amalga oshirish uchun hech narsadan tap tortmaydi, erkalik qiladi, janjal koʻtaradi, qaysarlik qiladi lekin oʻz aytganini bajartiradi. Hamma narsa uning irodasi va kayfiyatiga bogʻliq, har bir holati uning yuz ifodasida aks ettadi. Ular gohi qaysar, goho eʼtiborsiz beixtiyor bajaruvchi va indamas boʻlib qoladilar. U “buyuk hayolparast “ oʻzi taʼsirlangan narsalarni oqizmay- tomizmay sanatorona va mahorat bilan soʻzlab bera oladi. Xolerik mijozli bolalarning olov bilan qiyoslash mumkin. Hattoki rasm chizganda ham, toʻq ranglardan foydalanadi va voqealarni ifodali qilib aks ettiradi. Bunday bolalar oʻzi yaxshi koʻrgan doʻstlariga nisbatan odobli boʻlib ularga qoʻlidan kelganicha yordam beradilar. Ularning fikri mulohazalari oʻrinli ekani hayratga soladi. Ularning fikrlash jarayonini taʼriflash va

sharhlash qiyin bo'ladi. Ular kuch ta'siri ostida o'z tuyg'ularini, kechinmalarini va jahlini tiya olmaydi. Lekin biroz vaqt o'tgach sovugan vulqon kabi osoyishta bo'lib qolishadi. Bunday bolalarning to'g'ri tushunish va sabr toqatli bo'lish lozim.

**Sangvinik** mijozli bolalar-harakatchan, epchil, diqqati o'zgaruvchan bir narsaga bir daqiqadan ko'p e'tibor qarata olmaydilar. Bunday bolalarning harakatchan chumoliga o'xshatish mumkin: u hamma joyga borishga ulgiradi, hamma narsani bilishga intiladi. Barcha uni birdek jiddiy emas, e'tiborsiz, o'z- o'zini boshqara olmaydi deyishadi- yu, baribir yaxshi ko'radilar. Chuchuktamoq, yez- tez va oz- ozdan tamaddi qiladi. Uning ichki dunyosi tuyg'ularga boy, amma bu munosabatlarda yaqqol aks etmaydi. Bunday bolalarga ta'sir ko'rsatish uchun uning hurmatini, ijobiy munosabatini qozonish lozim. Kayfiyatining o'zgaruvchanligini hisobga olib, kun tartibini qiziqarli tashkil qilish lozim. Bunday bolalar yangi ishga berilib, kirishib ketadi, lekin ishdan tez sovushi mumkin. Darsda parishonxotirligi bilan ajralib turadi. Tevarak- atrofda ro'y berayotgan barcha hodisalar uning diqqatini jalb qiladi. Bunday bolalar qobilyatli, kitob o'qishni yoqtiradigan, hamma narsaga qiziqadigan bo'lsada, ularda yetarlicha matonat yo'q. Shoshqolikligidan yozma ishda ko'p hato qiladi. Yomon baho olsa yig'lashi ham mumkin, lekin 5 daqiqa o'tgach uning quvnoqligi tutib kulib turganini ko'rasiz. Bunday bolalar harakatchanligi, quvnoqligi, gapka kirishishi, yuz ifodasini jonliligi bilan yoqimlidir. Ammo ularga ko'proq tanbeh berishga to'g'ri keladi.

**Flegmatik** mijozli bolalar-kamroq harakati sust, muayyan bir narsani kuzatib, uzoq vaqt tinch o'tira oladi. O'z diqqatini bir narsaga qaratib, tevarak- atrofda qilargalarga e'tiborsiz bo'lib qoladilar. Ularning har bir ish harakati va faoliyatida erinchoqlikni kuzatish mumkin. O'ziga berilgan vazifa va topshiriqlarni sira shoshilmay bajaradi. Ular biror vazifa bajarayotganida tengqurlaridan qolib ketishi mumkin. Lekin ishi boshqalarnikiga nisbatan puhtarok va sifatliroq bo'ladi. Bunday bolalarning xatti-xarakatiga ko'proq e'tibor bersak, uning sustligi, savollarga turib- turib javob berishi, hozir javob emasligi yaqqol ko'rinadi. Ular o'ylab ish ko'radi, o'z faoliyatini rejalab, puhta bajaradi. Ularning zexni o'tkir va xotirasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Go'dagligi chog'laridayoq uning tartibga, doimiy bir tizimga intilishi seziladi. Yangi joy va sharoitlarga ko'nikib ketishi qiyinroq bo'lib, atrofda qilargalarni qiyin ahvolga solib, qiyin ahvolga qo'yishi kuzatiladi.

Tengdoshlari bilan tez kirisha olmaydi. Hamma ularni zerikarli bola dep o'ylaydi, chunki u chopmaydi to'palon qilmaydi. Bu ularning turmush tarzi, burch va javobgarlik hissi yaxshi rivojlangan. Bunday bolalar ichida tasviriy san'atga qiziqadiganlari ko'p bo'ladi.

**Melanxolik** mijozli bolalar ko'proq yolg'izlikni qumsab o'zini chetga tortadi, tinch o'yinlarni izlaydi. Bu tipdagi bolalarni ichki dunyosining sirli olam deyish mumkin. Kayfiyatga moslashishi juda qiyin. Har doim g'amgin bo'lib yuradi, uni kuldirish amri mahol. O'z yoshiga nisbatan aqilli ko'rinadi, ularning mantiqan fikr yuritishlari kishilarni hayratda qoldiradi. Lekin ularda "kichkintoy" odatlarni ham ko'rish mumkin, barmoqlarini og'ziga solishi, tirnoqlarini tishlashi kabilar. Rasm chizish, kitob o'qish jonu dili, qo'rqinchili voqealar va turli ertaklarni yoqtiradi. Maqul ko'rgan odamlari bilan emin-erkin gaplashadi, lekin ularning diliga kalit topish qiyin. Kam harakat ekani, uyquga kech yotishi, kun bo'yi yolg'iz bo'lib aqliy faoliyati bilan shug'ullanishi sababli boshi og'rishi mumkin. Ohista yuradi, qaddi bukchayadi, tez- tez charchoqni sezadi va yanada odamovi bo'lib o'zini chetga tortadi. Tabiatan nozik bo'lib kasalmand odamga o'shaydi. Bunday bolalar kattayu kichikka, tengdoshlariga doim yordamga tayyor bo'lishadi. Temperament odamga tug'ma ravishda berilsa ham tarbiyaning ta'siri va hayot sharoiti davomida o'zgarish mumkin. Shuning uchun bolalarning ota- onasiga pedagoglarning e'tiborli bo'lishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Zaxarova, T.Yu. Andruchenko. O'quv mashg'ulotlarida yosh o'quvchilarning o'zini-o'zi qadrlashlarini o'rganish ./ Psixologiya masalalar/. -1980 yil. -№ 4.
2. Yu V. Mikatze, NK Korsakova N.K Yosh talabalarni neyropsixologik diagnostika va tuzatish./ O'quv qo'llanma / -M.: 1994 y
3. A.A. Volochkoy, B.A Vyatkin.Boshlang'ich maktab yoshidagi Ta'lim faoliyati individual uslubi / Psixologiya masalalari/ -M.: 1999 y.
4. A.O Proxorox, G.N. Gening. O'quv mahg'ulotlari yosh o'quvchilarning aqliy holatlarining xususiyatlari /Psixologlar savollari/.-M.: 1998 y.

## МАКТАБ О'QUVCHILARINING SALOMATLIGI VA KASB TANLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Markaboyeva Inobat Fayzullojevana  
Yashnobod tumani 30-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining salomatligi va kasb tanlashga qo'yiladigan talablar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Salomatlik, kasb tanlash, psixologiya, maktab.

Mustaqillikka erishganimizdan boshlab, jamiyat har tomonlama o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar kishilardan hayotda o'z oldilaridagi maqsadlarga erishishlari uchun yangicha bilim, ko'nikma va mahorat talab qilmoqda.

Salomatlik-kishilar turmush darajasi, yashash tarzi va sifatining ko'rsatkichidir va shu jihatdan inson salohiyatini rivojlantirish maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir fuqoroning salomatligi singari jamiyatning salomatligi ham davlatning strategik maqsadi, milliy xavfsizligining garovi sanaladi.

Bolaning o'ynash va bilish faoliyati, o'smirning ijtimoiy foydali va kasb faoliyatini yo'qotishiga kabi qarash kerak. Bolalar va o'smirlar salomatligini tavsiflash uchun shifokor o'sayotgan organizmning ham biologik, ham ijtimoiy funksiyalarini aks ettiruvchi keng doiradagi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim.

O'smir va bolalar salomatligini baholash uchun kamida to'rt mezonidan foydalanish zarur:

- 1) Tekshirish paytida surunkali kasalliklarning borligi yoki yo'qligi;
- 2) Ayni paytdagi asab tizimining holati, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanish darajasi va ularning uyg'unligi;
- 3) Organizm asosiy tizimlarining faoliyat ko'rsatkich darajasi;
- 4) Organizmning nobop ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish darajasi.

Mazkur salomatlik mezonlari barcha tomonidan tan olingan va davolash, oldini olish (profilaktika) muassasalarining amaliy faoliyatida keng qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan sxemada muvofiq, bolalar va o'smirlar salomatlik ko'rsatkichlari shartli ravishda besh guruxga ajratiladi.

**Birinchi guruxga** surunkali kasalliklari bo'lmagan, kuzatish paytida kasal bo'lmagan yoki kam kasal bo'lgan, jismoniy va ruhan me'yorlarida, yoshiga mos rivojlangan shaxslar (benuqson salomatlik).

**Ikkinchi guruxga** surunkali kasalliklari bo'lmagan, biroq ba'zi organlar faoliyati va tana tuzilishi bilan bo'g'liq nuqsonlarga ega bo'lgan, shuningdek, tez-tez (yiliga 4 marta) va uzoq (1 kasal bilan 25 kundan ko'proq) xastaliklar bilan og'riydigan (faoliyati va tuzilishi bilan bog'liq nuqsonlari bor va organizmning qarshiligi past) shaxslar kiradi.

**Uchunchi guruxga** surunkali kasalliklar bo'lgan yoki kompensatsiya holatidagi (organizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi) tug'ma nuqsonli, umumiy ahvoli va o'zini his qilishda sezilarli buzilishlar ko'zga tashlamaydigan, ahyon-ahyonda, lekin og'ir xurujlar bilan kechuvchi surunkali kasalliklari qo'zib turadigan shaxslar (kompensatsiya holatida bemorlar).

**To'rtinchi guruxga** surunkali kasalliklari va rivojlanishida tug'ma qusurlari bo'lgan shaxslar kiradi. Bunday bemorlar kasallik hurujidan keyin umumiy ahvoli va o'zini his qilishda buzilishlar ro'y beruvchi subkompensatsiya holatidagi bemorlar).

**Beshinchi guruxga** og'ir surunkali kasalliklari bo'lgan dekompensatsiya holatidagi bemorlar kiradi. Bunday holatda organizmning faoliyat yuritish imkoniyatlari sezilarli darajada pasaygan bo'ladi (dekompensatsiya holatidagi bemorlar). Odatda, bunday kasallar bolalar va o'smirlar muassasalariga bormaydilar va ommaviy ko'rikdan o'tkazilmaydilar.

Shunday qilib, mamlakatimizda bolalar va o'smirlarga tibbiy yordam dispanserizatsiya usuli olib boriladi, bunda salomatlikning umumiy holatiga baho beriladi va kelgusida farqlangan davolash, oldini olish (profilaktika) ishlari olib borish uchun shaxslar guruxlarga taqsimlanadi.

O'rta va maxsus o'quv yurtlariga kirayotgan barcha o'smirlar, majburiy ravishda atroflicha tibbiy ko'rikdan o'tadilar va tanlagan kasbi bo'yicha ta'lim olishga yaroqliligi to'g'risida xulosa oladilar.

Kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyili kasb-hunar tanlash uchun erkinlik sharoitining yaratilishidan iboratdir.

Kasbga yo'naltirishda turli soha vakillari; shifokorlar, fiziologlar, pedagoglar, ruxshunoslar, gigiyenistlar, iqtisodchilar qatnashadi. Ushbu muammoning tibbiy-biologik tomonini shifokorlar hal qiladi, ular kasbiy yo'naltirish tizimida malakali maslahatlar beradilar.

Binobarin, xodimlarni kasb jihatdan to'g'ri tanlash faqat ishlab chiqarish unumdorligining oshirilishiga emas, kadrlarning to'g'ri taqsimlanishiga ham yordam beradi.

Biroq kasb va ixtisosliklar orasida mazkur shaxsga sog'ligi yoki salomatlik turlariga mansubligi jihatdan to'g'ri kelmaydiganlari uchrashi mumkin. Ayni paytda, o'smirlar kasb tanlashda ko'pincha faqat o'zlarining xohish-istaklariga bo'ysinadilar, ularni salomatligining holati va organizmining funksional imkoniyatlari bilan solishtirib ko'rmaydilar.

Salomatlikning holati kasb tanlashda ko'p jihatdan muhim belgilovchi omil sanaladi. Bu haqiqatni inkor qilib bo'lmaydi, zero organizm imkoniyatlarini hisobga olmasdan kasb manfaatlarini shakillantirish kelgusida mavjud kasalliklarni kuchayishiga olib keladi, nogironlik uchun zamin yaratadi.

Maktab o'quvchilari aholining boshqa qatlamlariga qaraganda kasb tanlashda tibbiy xodimlar ko'magiga eng ko'p muhtojlar, chunki ular o'z kuch va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishga moyillar; turli kasblar organizmga qo'yiladigan talablar bilan tanish emaslar. Bu yordamni ularga maktab pediatri, bolalar shifoxonalarining turli soha shifokorlari va kattalar shifoxonalarining o'smirlar bo'yicha mutaxassislari ko'rsatishlari kerak.

Shifokorning vazifasi shundan iboratki, u boshqa mutaxassislar bilan birgalikda maktab o'quvchilarida organizmning salomatligi holati kasbga to'g'ri yo'llashdan iborat.

Kasbga sanitariya nuqtai nazardan berilgan tavsif shifokorga o'smir organizmiga mehnat jarayonining ishlab chiqarish hamda uning sharoiti va turi ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

I.P.Pavlov asab jarayonlarining ikki-kuchli va zaif turini aniqlagan. Bir vaqtlar asab jarayonlarining kuchli turiga kiruvchilar ikkinchi guruhga kiruvchilarga nisbatan kasb jihatdan ancha yetukroq sanalar edi. Hozirga qarashlarga ko'ra, bunday nuqtai nazar



to'g'ri emas. Ma'lum bo'lishicha, asab tizimining chidamsizligi analizatorlarining (sezgi organlarining) yuqori darajadagi ta'sirchanligi xislati bilan muvozanatga solinar ekan. Bu mazkur turga kiruvchi kishilarga organizmning sezgi organlari tizimlariga kuchli talab qo'yiladigan ba'zi kasblarni egallashlarida katta afzalliklar yaratadi.

Masalan, mayda qismlarni yig'ish kasbida mushak-bo'g'in tuzilishi, ko'z bilan chamalashga qo'yiladigan talablar kuchli. Bunday ishlarni sezgi organlari yuqori darajada kuchli bo'lgan shaxslar bajara oladi.

Biroq o'zgacha tabiiy qobilyatlarini talab qiluvchi kasblar ham mavjud. Masalan, kuchli asab turiga mansub kishilar soatlab boshqaruv pulti oldida o'tirishi, uzoq davom etadigan va serbosim ishni bajarishi va bunda favqulodda choralar ko'rishga tayyor bo'lishi lozim.

Kuchsiz asab tizimi turiga kiruvchi aeroport dispetcheri yoki quvvat tizimi yoxud elektrostansiya uzatuvchisi yuqori malakali va boshqa fazilatlariga qaramasdan, falokat yuz bergan holatlarda muvaffaqli faoliyat yuritishga qodir emas. Shu tariqa, kasbiy maslahatning vazifasi yoshlarga salomatligiga to'g'ri keladigan biror kasbni tavsiya qilishdan iborat. Shifokorning kasbga yaroqliligi haqidagi xulosasi o'smir organizmining salomatligi holati va jismoniy imkoniyatlari, kasalligi va ijtimoiy turmushini tekshirish ma'lumotlari asosida chiqariladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A. Abdusamedov. Mustahkam oila ma'naviyati. Toshkent – 2011.
2. D.I.Ahmedova, G.U.Solihova. Sog'lom avlod asoslari. Toshkent-2007

## PROPOSITION TOWARD THE DEVELOPMENT OF A PSYCHOLOGICAL THEORY OF THOUGHT

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
faculty of social sciences 3rd year student of applied psychology  
Kadirova Ozodakhon Musajon's daughter*

### Abstract

Thought is considered a psychological concept associated with an individual's mental existence. It is apparent that a great deal of research has been focused on thought as an area of study. However, there is no psychological theory of thought which provides an explanation for its nature and structural organization. So far, researchers have mainly looked at the ways this concept is expressed, rather than investigating what it actually is. In this study, however, based on studies of the functions of the psyche, mental processes, and the neurophysiological bases of mental activity, thought is identified as a need-emotion-intentional substance existing in the human being's inner world. In keeping with this understanding of thought, the hypothesis that thought generation is caused by desire and experience (feeling and emotion) is put forward. An individual's thought is linked to his behavior or motivation for activity, and is followed by an emotional experience. The process of thought generation is regarded through the mechanism of behavioral motivation. The primary purpose of this mechanism is to define the qualities of the external objects that serve for need satisfaction and functionality in individuals. The ability to generate thoughts is a feature of thinking related to an individual's mental ability or frame of mind.

**Keywords:** mental processes, function of the psyche, substantial thought, thinking ontology, thought.

### Introduction

Words such as thought, thinking, and awareness are commonplace in every day language. Thus it would appear that anyone, at a prescientific level of understanding, could easily explain these terms. However, we encounter difficulties if we try to define

them scientifically. The best minds of mankind have been addressing those concepts for two millennia, in an attempt to expose the nature of the human mind. In dealing with the nature of thought, they have attempted to define the relationship between an individual's thought and the words he pronounces.

In psychology, as in other scientific studies, there are issues which have great significance in daily life which are not subjected to theoretical examination. One such issue is the understanding of human thought. A particular problem yet to be adequately addressed is how any theory of thought can provide the basis for introducing *thought* as a concept into the conceptual framework of any scientific study. Currently, thought is a subject of great importance in the study of the *psychology of thinking*. A certain contribution has been made by cognitive science, drawing on aspects of the philosophy of mind, epistemology, cognitive psychology, linguistics, neuroscience, anthropology, and computer modelling. The development of this interdisciplinary approach to understanding the mind and mental processes has resulted in identifying thought with information.

By making the psychological shift from the mind to the mental processes, many scholarly works have avoided the problem of the relationship between an individual's thoughts and cognition associated with representation, imagination, and conceptualization. Research in cognitive psychology, where the human brain and mind are regarded as a computer, provide some obvious examples. When cognitive psychologists present empirical models of imagination, perception, thinking, and other mental processes, they usually pay little attention to the *products* of these processes (image, sense, thought, etc.). Any cognitive model will be de facto inefficient if its interpretation is based on undefined psychological concepts. It also seems impossible to understand these psychological realities (or mental processes) without reference to the individual's thoughts as they are carried out in particular processes.

In this regard we face the fact emphasized by Zinchenko that thought has gradually lost ground in practice of psychology, and thinking has been seen in isolation from thought. Some recent studies of thought have viewed the concept within the larger context of its functions. Thus, some researchers conceptualize and study thought as an idea or opinion

produced by a thinking subject, or occurring suddenly in his mind; others regard it as an action or a process of thinking. Considering thought as a psychological concept, they nevertheless neglect its substantive interpretation as a mental entity.

### **Ontology Of Thinking**

The ontology of thinking was widely covered in S.L. Rubinstein's work. (Rubinstein, 1958). he stated that the only function of thinking was to become aware of being. In his understanding, being is the material world that has become an object in the evolutionary process of individuals. Owing to their interrelation with the world, individuals manifest themselves as subjects of action and cognition. According to Rubinstein's definition, to be a subject is to be able to change and explore the world. The psyche has played a pivotal role in that continuous interrelation of the individual with the world. By changing the world, the individual changes himself. By reflecting this persistent changeability, the human psyche acquires distinctive properties such as dynamism and flexibility. Therefore the psyche reveals itself in the process. This is a principal feature of psychological processes.

The central thesis of Rubinstein's theory concerns how the human being and his/her psyche perform and develop in an activity. here the activity is understood as the way the subject relates to reality. In keeping with this understanding, the psyche manifests itself in the activity as a mental process, and in the product of this process. Rubinstein holds that the key task of any psychological research is to study mental processes and mind activity. As such, the study of thinking has to primarily involve examining it as the process of analysis, synthesis, and generalization. These processes are carried out by the individual's mind, and thinking is his activity relating to the mind. Thus thinking is regarded as a mental activity which manifests itself to the individual through his motives. This is one aspect of thinking as an activity that is relevant to analyzing the personality of the individual. Another aspect is the procedural side of thinking, which consists of analysis, synthesis, and generalization. Thus, Rubinstein understands thinking as a process consisting of a set of mental operations, and as an activity. In this regard he asserts that the individual thinks, rather than that something is merely thought by the individual.

**Thought generation: sources and mechanisms**

Having considered the ontology of thought, we now turn to the issue of thought generation. To deal with this issue is to proceed from the methodological principle that man's being is maintained by his psyche. Traditionally this issue is discussed in cognitive science. In their study of the nature of human knowledge (its content and forms, and the ways in which knowledge is used, processed, and acquired), researchers proceed from the concept of information when they refer to such functions of the psyche as memory, visual perception and cognition, thinking and reasoning, social cognition, decision making, and cognitive development. The studies usually distinguish the role of information in organizing human behavior and activities. In psychological studies the concept of information narrows the content of thought to being characterized by meaning. Based on our understanding of the thought as the need-emotion-intentional substance, we put forward the hypothesis that thought generation is caused by desire and experience (feeling and emotion).

The thought of a thing (an external object) that satisfies an actual need is generated by desire. It is desire that directs the subject's search for an object, and thus shapes a thought. This is done through the process of the objectivation of the desire. Thus, the thought refers to the motivation and the content associated with the object that meets the relevant need. Desire is related to the object as well as to the action. Consequently, the thought of the necessary action occurs. It can be said that the shaping of a thought, the process of transition from desire to thought involves three stages. In the first stage, a motive (or need) is perceived a feeling of wanting to have something. This kind of emotional state could be conscious or unconscious. In the second stage, the given feeling under certain conditions is transformed into an objectified desire, and then expressed in the thought of desired object. Finally, in the third stage, the thought of the desired object is implemented through the thought of the action that must be taken in order to use the object for satisfying actual needs. Within this process of thought generation, thinking is determined by its function. Thinking operates within the content of the psyche, which includes images and thoughts of the objects that meet the relevant need, as well as images and thoughts of necessary actions. In this instance the function of thinking is to make a choice of the

object, and decide how it can meet the relevant need, thus discharging the motivational state.

## Conclusion

Our approach to understanding human thought and the process of its generation provides broad prospects for studying the evolution of human thought. By defining thought as a relationship between a thing and its qualities, we come to the conclusion that the thing's quality might be seen as a detector distinguishing the thing from other things (external objects). It is the qualities of things that establish the interrelationships between them. The qualities associated with the mental representation of the thing lead to the formation of its image and judgment about it (thing). Based on these thoughts, thinking manifests itself in judgment. As such, thinking is, on the one hand, a process of thought generation, and, on the other hand, a process that deals with thoughts.

It must be emphasized that the thought being generated by the subject contains not only the qualities of an external object, but also the qualities of its generator. Thus, any thought is personal in its nature. Personal consciousness is the unity and substantial integrity of thoughts generated by an individual. Individuals are not identical in their relationship to the same external object (thing). The coherence of conscious thoughts and their unity reflect the person's relationship to external objects and their completeness. This integration is employed to understand the outside world since a single generated thought is functional in nature. The mind enables an individual to be aware of the objective reality in which he finds himself. An ability to generate thoughts and establish relationships within a stream of consciousness is characteristic of human intelligence.

## References

1. Abulkhanova, K. A. (1999). *Psixologija i soznanie lichnosti (Problemy metodologii, teorii issledovanija realnoj lichnosti): Izbrannye psixologicheskie trudy*. [Psychology and personality awareness (Issues of methodology, theory and personality study): Selected psychological works]. Moscow: Moskovskij psixologo-socialnyj institut, Voronezh: MODJeK.

2. Abulkhanova-Slavskaja, K. A., & Brushlinskij, A. V. (1989). *Filosofsko-psixologicheskaja koncepcija S. L. Rubinshtejna: K 100-letiju so dnja rozhdenija*

[Philosophical and psychological conception of S. L. Rubinstein: On the occasion of the centenary of the birth]. Moscow: Nauka.

3. Abulkhanova-Slavskaja, K. A. (1994). Socialnoe myshlenie lichnosti: problemy i strategii issledovaniya [Personality social thinking: Problems and research strategies]. Psikhologicheskiy Zhurnal [Psychological journal], 4, 39-55.

---

## PSYCHOLOGICAL STUDIES OF THOUGHT: THOUGHTS ABOUT A CONCEPT OF THOUGHT

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
faculty of social sciences 3rd year student of applied psychology  
Kadirova Ozodakhon Musajon's daughter*

### Abstract

The concept of thought has always been central to understanding the nature of human thinking in psychological studies. However, the main question of what is thought still remains unanswered. The origins of the issue lie in the definition of the original unit of analysis, i.e. in the definition of what lies at the heart of image, belief, imagination, speech, consciousness, and thinking. Based on available studies, results of which were reflected in recent publications it was argued that thought should be such an original unit of analysis. This article explores the concept of thought based on cognitive constructs and the neurophysiological correlates of mental activity. The present study is addressed to discuss issues dealing with the nature of thought, its content and structure, and the relationships between indicators of substantial thought and the neurobiological correlates of the process of thinking. Structurally thought is based on needs, emotions and intensions, and as such, thought defines the substantive essence of an image and also represents consciousness. Coherence of thoughts and consciousness, their integrity reflect the connectivity of things from the external world in their entirety. Thus, the ability to

generate thoughts and build relationships within the stream of consciousness characterizes the human mind. It is shown that thought as a cognitive substance emerges from desires and experiences, as well as from conscious perception.

**Keywords:** cognitive neuroscience, motivation, thinking, thought, thought generation.

## Introduction

Experimental and empirical data accumulated over the past half-century allows us to raise the question of the need to study human thought in various aspects, starting with its definition and structure. In support of the above we present an estimation of the dynamics of interests in psychology made by Rita L. Atkinson. She noted that over the past century the point that had been the focus of attention in psychology had made a full circle. After rejecting the experience of consciousness as the object of psychology because of being of little use for scientific analysis and turning to the study of external observable behaviors, psychology again returned to the construction of theories of hidden aspects of the mind, this time having better tools for scientific research (Atkinson, Smith, Bem, & Nolen-Hoeksema, 2000). It is safe to say that the same applies to a thought as an object of psychological investigation. Forgotten along with the psychology of consciousness thought shall once again become one of the most important research subjects in psychology. New non-invasive neurocognitive technologies give hope for discovery of the relationship between brain activity and consciousness. However, despite a certain progress in finding brain mechanisms of cognitive actions, the essence of thinking mechanisms remains a mystery. It seems to us that origins of the issue lie in defining the original unit of analysis, in defining what is the basis of an image, idea, word, consciousness, and thinking. In our view, human thought should serve as such an original unit of analysis.

A similar opinion is expressed by Tatyana N. Ushakova in her research on the problem of relationship between speech and thought. She emphasizes that it is paradoxical that to this day given issue escapes from solution and remains rather mysterious (Ushakova, 2011). Giving an explanation of this situation, she points out that “its invincibility lies in the fact that it is necessary to trace the connection between the two seemingly disjoint areas of the human mind: the sphere of



non-material consisting of human consciousness, thoughts and feelings, on the onehand, and physical and material phenomena of sounding or recorded speech onthe other” (Ibid., p. 210).One of the interesting approaches to solving the problem of consciousness is contained in the theory of information synthesis by Ivanitskii (1997), according to which conscious perception occurs because of circulation of impulses with activation of memory centers, including hippocampus, and circulation of motivational structures with the subsequent return of excitation to the projection cortex. This mechanism makes it possible to compare and synthesize information on the physical and signaling properties of a stimulus, which we believe is the basis of objective thought about perceived images.

### **Thought as a substantive being**

Based on the above neurophysiological background for the process of psychological Study of Thought 563 thought generation and the basic principles of psychological studies, we will try to answer the question: “What is thought?” For this purpose we shall start with a brief analysis of the function of psyche as a whole, as well as what kind of place is given to thought in it. It is generally accepted that the psyche has evolved to ensure survival of living organisms, and increasing complexity of environment caused its development. However, what does to ensure survival mean? It means to avoid danger to life and find what is needed for feeding the organism and continuing the genus and species. What does this require? It requires the psyche to be able to provide the survival-related information about the outside world and organize behavior in accordance with the available information on the current state of environment and experience. In general, this means that the psyche controls the individual’s relationship with the outside world in order to build behavior maintaining his existence or his life. First of all, an individual must be an entity. Beyond this entity all problems of human existence are gone. To be means to exist in the world; human life can be defined as existence in the outside world, from birth to death, through active interaction with the outside world, the cause of which lies in the human nature (Shadrikov & Cheremoshkina, 1990). The basis on the need of being is the most important methodological principle in the studying of human psyche. Thus, the psyche always has a

functional nature. A function of the psyche is to provide a person with information about environment and to build adaptive behavior. We limit the following discussion only to the function of learning. What does it mean to learn? Firstly it means to be able to distinguish single objects (a thing as well as a phenomenon or occurrence) within environment, secondly to differentiate individual attributes of those objects, and thirdly to assign a meaning to those attributes to ensure survival and development. In the framework of psychological categories, differentiation of objects and their attributes is carried out within the processes of feeling and perception. Results of the process are images of objects and their attributes. Thus, the first function of psyche is to produce images and attributes of objects of the outside world. It is important to emphasize the unity of an object's image and its attributes. This is a key point because an image without attributes turns into a phantom. The unity of an object's image and its attributes is expressed in thoughts. As such, thought carries the link between image and its attributes. Having examined the mechanism of integrating an object's image and thoughts about properties of that object we actually approached the problem of image interpretation. This means filling an image with thoughts and reflecting properties of the object represented in such an image. Image interpretation occurs within human behavior and activity, and has a functional nature, i.e. thought's properties detected in image (if any), which are important for actual behavior, are also important for problem solving within such behavior.

## Conclusion

Theoretical searches based on inter-disciplinary data allow us to make certain judgments about what is thought and how thought is generated. We assume that thought is created from needs and feelings. Moreover, to the same extent to which our needs and feelings cannot be recognized, we cannot recognize thoughts produced by such needs and feelings. Thus, since we are aware of only a small portion of our needs and feelings, we are not aware of a significant part of our thoughts.

The Psychological Study of Thought 571 ontological essence of thought lies in the mechanism of thought generation from feelings and needs. Only at the level of awareness of "what I want and what I wish", thoughts can be generated about "what I

want and what I wish”, and this stage involves substantive thought on “what I want and what I wish”. In order to realize the fact of wanting there is a threshold of needs and experiences. Virtually everyone has experienced the state of vague wanting or feelings. It is shaped by unconscious thoughts about wanting. This desire or experience may not be objectified. In the beginning thought focuses on the need or feeling, and only at the stage of implementation of such a need there comes a thought about an action or about an object for meeting the need or about a task related to a specific purpose.

### References

1. Anokhin, P. K. (2013). International Series of Monographs in Cerebrovisceral and Behavioral Physiology and Conditioned Reflexes: Vol.
2. Atkinson, R. L., Smith, E. E., Bem, D. J., & Nolen-Hoeksema, S. (2000). Hilgard's introduction to psychology (13th ed.).
3. The two sources of morality and religion. New York: Henry Holt and Company. Bernstein, N. A. (1967). The co-ordination and regulation of movements.

---

## ЎСМИРЛАРДА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИНING КЕЛИБ ЧИҚИШИДА ИЖТИМОЙ МУҲИТ ВА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

*Рахманова Маърифат Алимбаевна*  
*Хоразм вилояти Қўшқўпир тумани 3 - мактаб психологи*

Оиладаги носоғлом психологик муҳит ва оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда таълим жараёнида кузатилаётган нуқсонлар, болалар ва ўсмирлар яшаётган маҳаллалар ҳаёти, уларнинг психологик муҳити вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди. Маълумки, объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа- ҳодисалари ўсмирнинг онги, хоҳиш иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши,

шахс сифатида шаклланиш ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Учинчидан эса ғайриқонуний йўл-йўриқлар ва роллар тақсимооти ўсмирда аста-секин ижтимоий муҳит талаб ва меъёрларига нисбатан деформациялашувнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Қолаверса, ўз ноқонуний ҳаракатларининг жавобсиз қолишини, катталар томонидан маъқулланишини ҳис этган ўсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги билади. Бу эса ўсмирга янги-янги ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради. Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига баъзан сабаб бўлиши мумкин. Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, хусусан юртимизда кечаётган ислоҳотлар, бозор муносабатларига ўтиш, кишиларда кундалик турмуш ташвишларига барҳам бериш, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қараш лаёқатининг етишмаслиги ва шу кабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг бироз сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандлари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда. Шу боисдан юртимизда оиладан ташқарида фарзандлар камолоти, тарбияси билан машғул бўладиган турли хил машғулотларга, (спорт, касб-хунар) тўғаракларга нисбатан бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, бу борада мамлакатимизда олиб борилаётган тадбирлар мақтовга сазавордир. Аммо бу соҳада ҳали қилинадиган ишлар ҳам бисёрдир. Оилада етарлича тарбия кўрмаган болалар турмуш қийинчиликларидан қоқилади. Турли хил низоли вазиятларга дуч келади. Тарбиясизлик ўсмирни яхши ўртоқларидан, давралардан айиради. Оқибатда ўсмир учун бирдан-бир йўл носоғлом хулқли ўсмирлар даврасига қўшилиб кетиш бўлиб қолади. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омиллардан яна бири оилавий тарбияда приметив (эскирган, номаъқул) усуллардан фойдаланиш ҳисобланади. Бундай тарбия усулида тарбия ўта қаттиққўллик, авторитар, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмаслик асосида олиб борилади. Бундай усулда болаларни тарбиялашнинг нотўғри

эканлигини бугун ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Чунки бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақлан етук ёшлардир. Оқибатда ўзига маъқул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қилади. Бу муҳит ўзининг характериға кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин. Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларға кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

Маълумки, ўсмирлик (12-14 ёш) даврида кескин психофизиологик ўзгаришлар содир бўлади. Ушбу ўзгаришлар кўпинча ўсмир руҳиятиға ҳам таъсир ўтказади. Бу ўсмирда тажанглик, серзардалик, инжиқлик, таъсирланувчанлик ҳолатларининг келиб чиқишиға сабаб бўлади. Ўсмир руҳий дунёсида пайдо бўлган бундай ўзгаришлар балоғат даври ўтиши билан бир меъёрга келиб қолади. Шунинг учун балоғат ёши даврида ота-оналар ўсмирлар тарбиясига алоҳида эътибор беришлари, уларда кечаётган психофизиологик ўзгаришларни ҳисобға олишлари мақсадға мувофиқдир. Кўпинча оилавий тарбияда болаларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларининг инобатға олинмаслиги уларнинг нотўғри, ёмон йўлларға кириб кетишлариға сабаб бўлади. Оилада ота-оналар кўпинча фарзандлари бирон бир ёмон иш қилиб қўйса, уни қаттиқ жазолаш, тақиқлаш ва уларни уйдан чиқармай қўйиш усуллари орқали тарбияламоқчи бўладилар. Фарзанди ўзларига ёқадиган ишға қўл урса уни ҳаддан ортиқ мақтайдилар ва мукофотлайдилар. Ўзлари қўллаётган усулларни қай бири тўғри, қай бири нотўғри эканлигини англаб етмайдилар. Ўзларича тарбия шундай берилади, деб ўйлайдилар. Натижада ўзлари билмаган ҳолда болаларининг тарбиясига салбий таъсир кўрсатадилар. Шунинг учун отаона энг аввало, оилада болаларни тарбиялаш тўғрисидаги назарий ва амалий билимларға эга бўлиши лозим бўлади. Бунинг учун эса улар тарбия тўғрисидаги педагогик ва психологик китобларни, газета ва ойномаларни кўпроқ ўқишлари зарур бўлади.

Бугунги кунда ўзбек оилаларида ота-оналарнинг ёки оиланинг катта аъзоларининг рад этиш, таъқиқлаш, руҳсат этмаслик асосидаги тарбиялаш усули ҳам болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва баъзан ўз жонига қасд қилиш ҳолатлариға сабаб бўлаётганлиги кузатилмоқда. Бу хилдаги тарбия усулида

болаларнинг хошиш-истаги, ўй-хаёллари, орзу ва интилишлари, фикр ва мулоҳазалари инобатга олинмайди. Бундан ташқари бундай тарбия усулида болаларга ўз фикр мулоҳазаларини очиқча баён этиш, мустақил қарорларга келиш ва муайян вазиятларга ўз нуқтаи назарини билдириш имконияти чекланади. Бундай тарбия усулида баъзан болаларнинг хатти-ҳаракатлари мажбурий тарзда тақиклаш усуллари билан бошқариб борилади. Уйда бу нарсага тегиш мумкин, бу нарсага тегиш мумкин эмас, бу кийимни киясан, бунисини киймайсан қабилидаги муносабат ўрнатилади. Боланинг қизиқиши, эркинлиги, ўзига ёққан кийимни кийиши, кўнгли истаган иш билан машғул бўлиши, қизиққан китобини ўқиши ва хохлаган спорт тури билан шуғулланиши ота-она ихтиёри билан амалга оширилади. Шунингдек, уларда нутқнинг суст ривожланиши ҳолати ҳам кузатилади. Бундай болалар бутун умр давомида бировларга тобе бўлиб яшайдилар. Уларда раҳбарлик, бошқарувчанлик қобилиятлари суст ривожланган бўлади. Улар бировларнинг гап-сўзларига тез учадилар. Шунинг учун улар алдовлар, кўзбуйамачиликлар, таъмагирликлар қурбонига айланиб қолмоқдалар. Қолаверса, улардаги фикрлаш қобилиятининг суст ривожланганлиги низоли вазиятларга тез-тез тушиб қолишликка сабаб бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. С.Х.Таджиева, Д.Ф.Сабилова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б
2. Ғозиев Э.Ғ. Ўқувчиларнинг умумлаштириш усулларига ургатиш ва уларнинг аклий тараккиёти. Т., "кит" 1983 й.
3. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154
4. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

## BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MEZONLAR

*Axmedova Dilnoza Jo'raboyevna*

*Chust tumani 29- maktab psixologi*

Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudot sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, ularning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Oliy pedagogik-psixologik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi, talabalar yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir [1.33-34].

Tarbiya qonuniyatiga ko'ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, uni amalga oshirish qiyin. Sh.Majitova o'qituvchi kadrlar tayyorlashda bir butun, yaxlit shaxsni rivojlantirish muammosini tadqiq etar ekan, shaxsni ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatida talqin etadi.

Shuningdek, shaxsning yaxlitligi atrof-olamni anglash hamda ijtimoiy muhit sharoitida aniqlanadi. O'qituvchining shaxs sifatida o'z-o'zini anglashi hamda faolligi, maqsadga intilishi talabaning ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashishi va o'z-o'zini baholashiga yordam beradi, degan g'oyani ilgari suradi. Muallif B.G.Anan'ev, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiylarning fikrlariga tayangan holda o'qituvchi shaxsi tarbiya va ijtimoiylashuv sharoitida shakllanadi, degan xulosaga

keladi. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchini yaxlit shaxs sifatida rivojlantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqilib, ular quyidagilardan iborat deb ko‘rsatiladi:[2.24-25].

- rag‘batlantirish (motivatsiya);
- yaxlit shaxsni shakllantirish mezonlarini aniqlash;
- pedagogik tizimga ega bo‘lish;
- pedagogik jarayon;
- talabalarning shaxslik-kasbiy yo‘nalishi;
- talabalarga qo‘yiladigan talablar;
- kommunikativ vositalar va ularga qo‘yiladigan talablar 9 .

Tadqiqotchilarning fikrlariga tayanib shuni ta’kidlash lozimki, talabalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhimdir:

- talaba-yoshlarning har biriga individual yoshdashish;
- pedagogik nazokatni shakllantirish;
- kasb-hunarga tayyorlash;
- ijtimoiy faollik, fuqarolik rolini shakllantirish va hokazolar.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirishda barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi mezonlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Barkamol shaxsni shakllantirish mezonlari:

- shaxsni aqliy, ma’naviy-axloqiy, hissiy-estetik, jismoniy rivojlantirish;
- ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga yo‘llash;
- insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;
- fuqarolik nuqtai nazarining tarkib topishiga erishish;
- hayotga, mehnatga, ijtimoiy ijodkorlikka tayyorlash;

Barkamol shaxsni axloqiy tarbiyalashda, avvalo, jamiyat talabiga mos holda axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuyg‘ular, e’tiqod va xulqiga doir ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Ma’naviyatli inson bilimli, kasb-hunar egasi, Vatanning sodiq fuqarosidir. U o‘z davlati qonunlarini biladigan



va ularga amal qiladigan, o'z yurtidan g'ururlana oladigan, o'z Vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs rivojlanishining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloqsiz, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy, jismoniy va ma'naviy yetukligi shakllanmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi [3.25-26].

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

- 1) ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- 2) ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ko'nikma va odatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o'z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg'unligi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo'lgan hurmat-e'tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarining e'tiqodga aylanishi va e'tiqodning tizimli bo'lishini ta'minlash va ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Estetik (nafosat) tarbiya talabalar tomonidan estetik bilimlarning egallanishi, ularda estetik madaniyatni tarkib toptirish, voqelikka estetik munosabatlarni shakllantirish, estetik his-tuyg'uni rivojlantirish, hayot go'zalliklari, tabiat va mehnatga muhabbatni tarbiyalash; estetik idealni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatni tashkil etishda estetik qonuniyatlariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxsda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda uning jismonan to'g'ri rivojlanishi, o'z salomatligini mustahkamlashi; aqliy va jismoniy faoliyatning yuqori darajada bo'lishiga erishish; gigienik malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi; turmush tarzini mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil etish;

jismonan sog'lom bo'lib, o'ziga va o'zgalarga quvonch baxsh etish, zararli odatlardan saqlanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o'rtasida mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy va umumbashariy an'analariga tayanish, ustoz-shogird, oilaviy mehnat va hunarmandchilikning eng samarali metod va usullaridan foydalanish, zamonaviy kasb-hunarlar asoslarini o'zlashtirish, ular tomonidan mehnatning shaxs rivojlanishida asosiy omillaridan ekanligini anglanishiga erishish muhim sanaladi. Shuningdek, barkamol shaxsning shakllanishida ekologik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalar ham o'ziga xos ahamiyatga ega [4.90-95].

Xulosa qilib aytganda, barkamol shaxs individ – shaxs – inson tizimida o'z dunyoqarashi, nuqtai nazariga ega bo'lish, o'z haq-huquqini hurmat qilishga o'rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini namoyon etib, o'z “Men”ini qaror toptirish asosida shakllanadi. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishlari, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Insonda yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G`oziev E. Ontogenez psixologiyasi. T. Sharq. 2008 . B. 33-34.
2. Shoumarov G. Oila psixologiyasi. T.Sharq. 2001. B. 24-25.
3. Nishonova Z. O`smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O`quv qo`llanma. – T., Sharq. 2003. B. 25 -26.

## ИНТЕРНЕТНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҲАЁТИГА ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ

*Домложонова Латофат Мирзаевна*

*Чуст тумани 60-мактаб психологи*

Маънавият масаласи Ватанимиз мустақилликка эришган биринчи кунлардан то ҳозирга қадар мамлакатимиз раҳбарияти томонидан халқимиз диққат марказига қўйиб келинаётган энг жиддий муаммолардан биридир. Зеро, бирон-бир жамият маънавий имкониятларни, одамлар онгида маънавий ва ахлоқий қадриятларни ривожлантирмай ҳамда мустаҳкамламай туриб ўз истиқболини тасаввур эта олмайди. Фақат шу мавзуга махсус бағишланган "Юксак маънавият - енгилмас куч" асарининг ёзилиши эса муаммонинг нақадар жиддий ва долзарблигини кўрсатади. Бу мазкур муаммонинг нафақат республикамиз халқи, балки бутун инсоният олдида турган энг муҳим муаммо эканини теран англашнинг самараси бўлиб, у бугунги кунда нафақат ҳар бир давлат мафкурасининг туб асосини ташкил этадиган, ҳар қайси инсон ва бутун жамият дунёқарашининг шаклланишида калит ролини ўйнайдиган, балки охириги ўн йилликларга келиб бутун жаҳон маданияти ва цивилизацияси ҳаётида ҳам долзарб ўринга чиққан муаммодир.

Инсоннинг биороботга трансформацияланиши тобора кучайиб бораётган бугунги кунда чин маърифат дурдоналарини ўзлаштириш тоборф мушкуллашиб, баркамолликка эришиш олдидаги тўсиқлар беҳад катталлашиб бормоқда. Чунки, эндиликда зомбилашган ғарб мафкурачилари ихтиёрида қудратли молиявий ва мафкуравий қуроллар бор. Интернет, оммавий ахборот воситалари, телевидения, радио, шоу-бизнес, жуда катта моддий, интеллектуал, инсоний ресурслар уларнинг пухта ўйланган, узоқ ва давомли ёвуз мақсадларига

хизмат қилади. Турли хил замонавий алоқа ва ахборот технологиялари ҳам бор. Улар ана шу қуроллар ёрдамида эркинлик ниқоби остида маънавий бузуқлик, космополитизм, истеъмолчилик ғояларини, худбинлик, ватанфурушлик кайфиятларини авваламбор ёшларнинг онгига муттасил сингдириб боришга зўр беради. Айни шунинг учун маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авланийнинг “Тарбия бизлар учун ё ҳаёт - ё мамот, ё нажот - ё ҳалокат, ё саодат, ё фалокат масаласидир” - деган фикри у зот яшаган даврдагидан беҳад долзарброкдир.

Халқаро амалиётда Интернет тармоғида деярли барча соҳалардаги хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида ишчан муносабатларни амалга ошириш, аҳолининг кенг қатламларига интернет тармоғи орқали товарларни сотиш ҳамда истеъмолчилар ўртасида товарлар ва хизматлар алмашишга хизмат қилувчи олди-сотди турлари кенг тарқалган. Бунинг натижасида тармоқли иқтисоднинг шаклланиши ҳамда кенгайиб бориши тараққиётнинг кескин бурилишларига олиб келади. Биринчидан, ахборот-коммуникацион технологияларининг тўхтамасдан ривожланиши ва тез тарқалиши сабабли, улардан фойдаланиш имкониятининг ўсаётганлигига ҳамда нархининг кундан-кунга пасайиб бораётганлигидадир. Иккинчидан, кузатиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий фаолиятнинг ҳар хил турлари электрон муҳитга ўтмоқда. Электрон муҳит ўз навбатида минглаб бизнес турларидан иборат.

Бугунги кунда инфор­мацион тахдидлар асосан Интернет воситасида четдан туриб уюштирилмоқда ва унинг асосий кўринишлари қуйидагилардир: давлатнинг миллий сиёсатини атайин танқид қилиш, сохта хабарлар тарқатиш, кичик муаммони катта (йирик) муаммо сифатида тасвирлаш, муҳолифларни гиж-гижлаш, раҳбарларни золим қилиб кўрсатиш, миллий кадриятларни нотўғри талқин қилиш, ёшларни чалғитиш. Тинимсиз ахборот оқими вужудга келтираётган муҳитда миллий кадриятлар, азалий анъаналар завол топишининг олдини олиш мақсадида ахборот хавфсизлигини таъминлаш кераклиги бугун долзарб масаладир. Бу мақсадга эса ёшларимизга телевидение ва интернетдан оқилона фойдаланиш йўлларини ўргатиш,

уларнинг уларнинг мазкур ахборот манбаларидан фойдаланишларини назорат қилиб бориш орқалигина эришиш мумкин. Токи ҳали суяги қотиб улгурмаган ёшларимизнинг беғубор маънавиятига жиддий зарар етмасин. Бу борада Биринчи Президентимиз И.А.Каримов "Юксак маънавият - енгилмае куч" китобларида "Ҳозирги вақтда ахлоқсизликни маданият деб билиш ва аксинча, асл маънавий қадриятларни менсимасдан, эскилик сарқити деб қараш билан боғлиқ ҳолатлар бугунги тараққиётга, инсон ҳаёти, оила муқаддаслиги ва ёшлар тарбиясига катта хавф солмоқда ва кўпчилик бутун жаҳонда бамисоли бало-қазодек тарқалиб бораётган бундай хуружларга қарши курашиш нақадар муҳим эканини англаб етмоқда" дея маънавий таҳдидлардан ёш авлодни асрашимиз зарурлигини алоҳида таъкидлайдилар.

Ёшларимизнинг маънавий оламида бўшлиқ вужудга келмаслиги учун уларнинг қалби ва онгида соғлом ҳаёт тарзи, миллий ва умуммиллий қадриятларга ҳурмат-эҳтиром туйғусини болалик пайтидан бошлаб шакллантиришимиз зарур. Айниқса, ҳозирги мураккаб ва таҳликали замонда миллий ўзлимиз, азалий қадриятларимизга ёт ва бегона бўлган турли хил хуружлар, ёшларимизнинг онги ва қалбини эгаллашга қаратилган ғаразли интилишлар тобора кучайиб бораётгани барчамизни янада хушёр ва огоҳ бўлишга даъват этиши табиийдир. Биринчи Президентимиз И.А. Каримов таъкидлаганларидек, "Бугунги кунда ёшларимиз нафақат ўқув даргоҳларида, балки радио-телевидения, матбуот, Интернет каби воситалар орқали ҳам ранг-баранг ахборот ва маълумотларни олмоқда. Жаҳон ахборот майдони тобора кенгайиб бораётган шундай бир шароитда болаларимизнинг онгини фақат ўраб-чирмаб, уни ўқима, буни кўрма, деб бир томонлама тарбия бериш, уларнинг атрофини темир девор билан ўраб олиш, ҳеч шубҳасиз, замоннинг талабига ҳам, бизнинг эзгу мақсад-муддаоларимизга ҳам тўғри келмайди". Шундай экан, ёшларда ахборот олами имкониятларидан оқилона фойдаланиш учун асос бўладиган ахборот истеъмоли маданиятини тарбиялаш ҳаётий-амалий аҳамиятга эга. Уларда бундай маданиятнинг камол топтирилиши миллий

қадриятларимизга зид бўлган ҳар қандай ҳодисага объектив ёндашиш кўникмаси шаклланишига ва дунёқарашдаги соғлом барқарорликка замин яратади.

Хулоса қилиб айтганда, биз давлатимиз келажагини ўз қобитимизга ўралиб қолган ҳолда эмас, балки умумбашарий ва демократик қадриятларни чуқур ўзлаштирган ҳолда тасаввур этамиз. Биз истиқболимизни тараққий топган мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиб, давлат ва жамият бошқарувини эркинлаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, фикрлар ранг-баранглигини ўз ҳаётимизга янада кенгроқ жорий қилишда кўрамиз. Биз бугун маърифатли дунё, халқаро ҳамжамият билан тинч-тотув, эркин ва фаровон ҳаёт кечириш, ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилиш тарафдоримиз.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. И.А.Каримов «Юксак маънавият - енгилмас куч». Т.:Маънавият, 2008. - 73 б.
2. В.В.Васильев Особенности суицидального поведения у женщин: Автореф. дис. ... док. мед. наук – Москва, 2018. [www.dissertac.com/search](http://www.dissertac.com/search).
3. Осипова А.А. Справочник психолога по работе в кризисных ситуациях. – Ростов н/Д: Феникс, 2015. - 315с.

---

## **КИЧИК ГУРУҲЛАРДАГИ ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ**

*Назарова Нигора Мухаммаджоновна  
Чуст тумани 58-мактаб психологи*

Ҳозирда ижтимоий психологияда гуруҳлар муаммоси кенг кўламда тадқиқ қилинаётганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Чунки бугунги ижтимоий тараққиёт ва одамлар онгининг интенсив равишда ривожланиб

бориши, қолаверса, ҳар жиҳатдан мураккаб бўлган шахс ва шахслараро муносабатларнинг ўта мураккаб ижтимоий жараён эканлигини инобатга олиб ҳар бир гуруҳий ҳодисага алоҳида таҳлиллар асосида ёндашувнинг муқаррар эканлигини ҳаётнинг ўзи яна бир бор тасдиқламоқда.

Кичик гуруҳларда шахслараро муносабатларни ўрганиш жамиятда ва таълим тизимида муҳим рол ўйнайди. Инсонлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни ҳамда ҳар бир шахснинг жамиятдаги ўрни ва унинг турлича ижтимоий муносабатлари табиатини ўрганувчи қатор ижтимоий фанлар мавжуд бўлиб, уларнинг орасида ижтимоий психология алоҳида ўрин эгаллайди.

Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев ”Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инонлар бўлиб камол топиши. Бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз.” – деб таъкидлайди.

Бу фикр орқали юртбошимиз ҳар бир жамоа ва кичик гуруҳлардаги психологик муҳит ундаги шахслараро муносабатлар ижтимоий тараққиётдаги муҳим ҳодиса эканлигини таъкидлайди. Бундан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки биз ўрганаётган мавзу долзарб ва жамият тараққиётига таъсир этувчи зарурий ҳодисадир.

Инсоний муносабатлар шундай ўзаро таъсир жараёнларики, унда шахслараро муносабатлар шаклланади ва намоён бўлади. Бундай жараён дастлаб одамлар ўртасида рўй берадиган фикрлар, ҳис-кечинмалар, ташвишу-қувончлар алмашинувини назарда тутди. Одамлар мулоқотда бўлишгани сари, улар ўртасидаги муносабатлар тажрибаси ортган сари улар ўртасида

умумийлик, ўхшашлик ва уйғунлик каби сифатлар пайдо бўладики, улар бир-бирларини бир қарашда тушунадиган ёки "яримта жумладан" ҳам фикр аён бўладиган бўлиб қолади, айрим ҳолларда эса ана шундай мулоқотнинг тиғизлиги тескари реакцияларни - бир-биридан чарчаш, гапирадиган гапнинг қолмаслиги каби вазиятни келтириб чиқаради. Шахснинг ижтимоий муносабатлар маҳсули эканлиги талабаларнинг доимо тенгдошлари, педагоглар билан ўзаро таъсир доирасида бўлишини англатади. Бу эса талаба шахсининг энг етакчи ва нуфузли фаолиятларидан бири мулоқот эканлигини билдиради.

Таъкидлаш жоизки, у ёки бу нарсаларни англашга бўлган ўз-ўзидан яхлит ёндашув узоқ ўтмишдан маълум бўлган. Шахслараро муносабат тушунчаси "Авесто"да комил инсон сифатлари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ, бир-бирини тўлдирувчи ва бир-бирини тақозо этувчи эзгу фикр, эзгу сўз ва эзгу амал бирлигида намоён бўлади. Демак, "Авесто" инсон шахсининг тақомилини инсонларга, табиатга нисбатан эзгу фикр, эзгу сўз ва эзгу амал бирлигининг узвий боғлиқлигини ўзида мужассам этган дастлабки педагогик асар десак хато қилмаган бўламиз, шахслараро муносабатлар принципларини ўзида мужассам этган бу ахлоқий учлик энг қадимги даврлардан бошлаб ундан кейин яратилган барча маърифий асарларга асос бўлган десак, тўғрироқ бўлади. Зеро, ундан инсоннинг инсон сифатида маънавий ва моддий камол топиши учун зарур бўлган муайян талаблар ўз ифодасини топиб, ҳаёт кодекси сифатида фақат Шарқ халқларининг эмас, Ғарб халқларининг ҳам муқаддас мероси бўлиб қолди. Демак, энг қадимги ёдгорликлар эзгулик, ватанпарварлик, самимийлик, оқкўнгиллик, хушмуомалалик ҳақида таълим беради. Инсонпарварликни тарғиб қилувчи маърифий ёдгорликларимиз қаторида Қуръони Карим ва Ҳадиси шариф ҳамда шариат қўлланмаларининг ўрни бекиёсдир.



Қуръони Каримда шахслараро муносабатларни яхшилаш тўғрисида ҳам гап боради ва бу олий даражадаги инсоний фазилат бўлиб, пок қалбли кишиларгина бунга эриша олади, дейилади. Бу хислат хоҳ жамият миқёсида бўлсин, хоҳ одамлар орасида бўлсин, тинчлик, осойишталик келтиради. Шунинг учун ҳам шахслараро муносабатларни мустаҳкамлаш мусулмончиликнинг талабларидан саналади. "Ҳужурат" сурасининг 10-оятида "Мўминлар ҳеч шак-шубҳасиз оға-инилардир. Бас, сизлар икки оғанининг ўртасини ўнглаб қўйинглар", дейилади. Зеро, шахслараро муносабатлардаги келишмовчиликларнинг олдини олиш жамият аҳамиятига моликдир. Ижтимоий ҳаётда ҳар бир шахс ёки жамият кишиларининг фаровон ва бахтли ҳаёти уларнинг тинч-тотув яшашига кўп жиҳатдан боғлиқ. Қуръони Каримнинг маълум оятлари ширинсуҳанликка, тўғри сўз ва муомала маданиятига бағишланади. Муомала маданиятига риоя қилиш қонун-қоидалари Исломгача ҳам бўлган. Аммо фақат Исломгина унинг асл моҳияти, инсон камолоти, жамият тараққиётида нақадар катта аҳамиятга эга эканини ёритиб бера олди. Чунки, кишиларда ширинсўзлик, маданий муомала тараққий этган мамлакатлардагина амалга ошади. Шунга кўра, Қуръони Каримда ҳар бир инсон ширинсўз бўлиши таъкидланади: "Бандаларимга айтингки, улар (ўзаро сўзлашганларида) энг гўзал сўзлардан сўзласинлар. Зеро, шайтон уларнинг ўрталарида бузғунчилик қилур" (Ал-исро сураси 53-оят).

Яхшилик, одоб, хушмуомалалик масалалари Қуръони Карим билан бир қаторда Ҳадисларда ҳам тарғиб этилади. Имом Бухорий 4 жилдлик "Ал жомеъ ас-саҳиҳ" асарининг бир жилдида одоб, ахлоқ, муомала, мулоқот ҳақидаги ҳадисларни жам этганлар. Ушбу китобда иймоннинг мукаммал бўлмоғининг уч шарти кўрсатилади:

- тўғри эътиқодли бўлмоқ;
- кишилар билан яхши муносабатда бўлмоқ;

-киши ўз устида ишламоғи ва ўзини ибодат ва итоатга чақирмоғи.

Иймон дарахтга тенглаштирилади ва унинг бодан ортиқ шохлари бор,-деб иймон белгилари санаб ўтиладики,буларнинг ҳар бири инсон маънавий қиёфасининг мукаммаллашувига таъсир этувчи хислатлардир.Булар қуйидагилардан иборат:

"Қўли билан ва тили билан ўзгаларга озор бермаган киши мусулмондир", "Ўзингиз яхши кўрган нарсани биродарингизга раво кўрмагунингизча ҳеч бирингиз мўмин бўла олмайсиз".

Учта ҳислатни ўзида мужассам қилган кишининг иймони мукаммал бўлғайдир:

- инсофли ва адолатли бўлмоқ;
- барчага салом бермоқ;
- камбағаллигида ҳам садақа бериб турмоқ.

Демак, Қуръони Карим ва Ҳадиси шарифлар ҳар бир мўминнинг ишончини, эътиқодини мустаҳкамлайди,шу билан инсонни маънавий камолотга, бир-бирларига меҳрибон болишга етаклайди. Хусусан, агар мулоқотдагилар ўзаро ширинсўз бўлмаса,душманлик содир бўлиши таъкидланади. Сўзлашганда очиқ юзли бўлиш, қўполлик қилмаслик, хушмуомала бўлиш одоблари ҳаётда тинчлик ва бахт-саодатга эришишда ёруғ йўл сифатида талқин этилади.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, ҳақиқатдан ҳам сўзлашиш маданияти ҳар бир инсон учун зарур бўлган,унга бахт-саодат, жамиятга эса раванқ келтирадиган муҳим фазилатдир. Келтирилган мисолларда шу нарса аён бўлмоқдаки.ижобий шахслараро муносабатлар барча даврларда ҳам инсонийликнинг энг улуғ сифати тарзида талқин этилган.Юқори даражадаги жамоаларда юксак мақомга эга бўлиш кичик мактаб ёшидан шахслараро муносабатларда мулоқот маданиятини нечоғлик ўзлаштириб олганлигига боғлиқдир.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Т."ўзбекистон".2016 й.
2. Site.ziyonet.uz."Avesto va uning tarbiyaviy ahamiyati".2013.
3. А.Мансур."Қуръони Каримнинг ўзбекча таржимаси".Тошкент-2007.
4. Имом ал- Бухорий."Ал жомеъ ас-сахих".2008.
5. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. Т.: 1999
6. Г.Акрамова." Бошланғич синф ўқувчиларида толерантлик тушунчаларини шакллантиришнинг дидактик асослари"дисс. Тошкент 2007

---

## YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ – ATVORIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

*Mahmudova Nigora Sayfilloyevna*

*Chust tumani 50 - maktab psixologi*

Yoshlar - bu ijtimoiy etuklik, kattalar dunyosiga moslashish va kelajakdagi o'zgarishlar davrini boshdan kechirayotgan ijtimoiy-demografik guruh. Yoshlar o'zlarining o'zgaruvchan chegaralariga ega, ular jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, madaniyat darajasi, turmush sharoitlariga bog'liq. Yoshlik muammolarini ko'rib chiqish uchun yoshlar nima ekanligini, uning boshqa ijtimoiy guruhlardan qanday farq qilishini tasavvur qilish kerak.

Bugungi kunda olimlar yoshlarni jamiyatning ijtimoiy-demografik guruhi, deb belgilaydilar, ular ijtimoiy holatning xususiyatlari asosida ajralib turadi va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish darajasi va jamiyatidagi sotsial o'rni bilan belgilanadi.

Yoshlik - bu inson tanlagan kelajak sari yo'l. Kelajakni tanlash, uni rejalashtirish yoshlargaga xos xususiyatdir.

Zamonaviy sharoitda ijtimoiylashuv jarayonining murakkablashishi va uzaytirilishi va shunga muvofiq uning ijtimoiy etukligi mezonlari boshqacha bo'lib qoldi. Ular nafaqat mustaqil mehnat hayotiga kirish bilan, balki ta'limni tugatishi, kasb-hunar egallashi, haqiqiy siyosiy va fuqarolik huquqlari hamda ota-onalardan moddiy mustaqilligi bilan ham belgilanadi. Ushbu omillarning ta'siri turli xil ijtimoiy guruhlarda turlicha, shuning uchun yoshlar tomonidan kattalar ijtimoiy rollari tizimini o'zlashtirishi qarama-qarshiliklari kelib chiqmoqda. Yoshlar bir sohada mas'uliyatli va jiddiy bo'lishi, boshqasida o'zini o'spirin kabi his qilishi mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy etukligini shakllantirish ko'plab mustaqil omillarning ta'siri ostida sodir bo'ladi: oila, maktab, mehnat jamoasi, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari va o'z-o'zidan paydo bo'lgan guruhlar. Yoshlik - bu har kim o'z taqdirini o'zi belgilashi, muvaffaqiyatga olib boradigan yagona haqiqiy hayot yo'lini topishi, bu ularning qobiliyatlari va iste'dodlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishi kerak bo'lgan jarayondir. Bu o'z-o'zini bilish, o'z "Men" ini topish bilan bog'liq bo'lgan mashaqqatli davr, inson o'zining haqiqiy imkoniyatlari chegaralarini aniqlashi, nimalarga qodirligini tushunishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, atrofdagi dunyo, qadriyatlar, siyosiy, axloqiy, estetik qarashlarni tizimlashtirishi kerak.

Yoshlarning hayot tajribasining etishmasligi bir qator muhim qarorlarni qabul qilish zarurati bilan to'qnash keladi. Kasb tanlash, umr yo'ldoshini tanlash, do'st tanlash - bu muammolarning to'liq ro'yxati emas, u yoki bu echim asosan keyingi hayot yo'lini shakllantiradi.

Zamonaviy yoshlarning ijtimoiy va psixologik muammolariga ta'sir ko'rsatadigan mavzu hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biridir. Yoshlar o'zlarini anglash istagi bilan belgilanadigan, psixologik, jamiyatda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy bir qator muammolarga duch kelmoqdalar. Ijtimoiy-psixologik muammolar - bu asosan insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan muammolar. Insonning odamlar o'zaro aloqada bo'lishi, ular bilan hamkorlik qilishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uning psixologik holatiga bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy va psixologik muammolar

bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini ta'qib qiladi. Ushbu muammolar mavjud va shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p muammolarni tug'diradi.

Shaxsga jamiyatning ta'siri eng avvalo uning ma'naviy tasavvurlarida dunyoqarashida, xayotga bo'lgan munosabatlarida aks etadi. Shu ma'noda mafkuraviy ongning mazmuni va sog'lom e'tiqodlar xam ijtimoiy muhit va unda o'rnashib qolgan mezonlar asosida shakllanadi.

Bugungi dunyo juda jadal va tez o'zgarib turadi. O'zgarishlar odamlarda ham, texnikada ham, ayniqsa, yosh avlodda sodir bo'lmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, bugun jamiyatimiz a'zolari ongida shakllanayotgan milliy istiqloq g'oyalarining genezisi, ya'ni kelib chiqishi ongga o'rnashish jarayoni bir qator ijtimoiy psixologik holatlarni o'z ichiga oladi. Yoshlarning dolzarb muammolari butun jamiyatning kamchiliklarini aks ettiradi. Shuning uchun bu qiyinchiliklarni hal qilish butun jamiyatning farovonligiga ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda yoppshlar o'rtasida keng uchraydigan muammolar nimalar? Avvalo bu muammo yoshlarning ishsizligi bilan bog'liq. Bunday muammolar davlatning iqtisodiy beqarorligidan kelib chiqadi, u etarli miqdordagi ish joylarini ta'minlay olmaydi, ish beruvchilar malakasiz va tajribasiz ishchilarni yollashni istamaydilar. Yosh avlodni ish bilan ta'minlash muammosi, o'z navbatida, yosh mutaxassislarning moddiy talablaridan iborat bo'lib, ular ish beruvchilar tomonidan chegaralanmagan. Ma'lum bo'lishicha, yoshlar ish izlaydilar, lekin ular ish topa olmaydilar, shuning uchun ham yashashga imkonlari yo'q. Bu noqonuniy daromadlarni qidirishni rag'batlantiradi, bu ko'pincha jinoyatchilikka, giyohvandlikka olib keladi, qashshoqlikka olib keladi. Hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan yoshlarni axloqiy tarbiyalash muammolari: hayotta aniq maqsadga ega emasligi, boqimandalik hissini kuchaygani ko'plab yosh yigitlar va qizlarni jinoyat dunyosining bir qismiga aylanishiga sabab bo'lib qolmoqda. Oilalarning ijtimoiy qashshoqligi, ota-ona oilasini moddiy ta'minlash maqsadida tarbiyaga yetarlicha axamiyat bermasligi, yoshlarning tarbiyasi, madaniyati va ta'limida aks etadi: ular ta'lim olishdan, ma'naviy ideallardan uzoqlashadi

Jamiyatimizda ko'plab uchrab turgan ayniqsa yoshlar o'rtasida dolzarb bo'lgan turmush darajasining pasayishi, ayniqsa yoshlarning madaniy hayotiga ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatimizga allaqachon kirib kelishga va ko'pkina yoshlarni o'z tarafiga og'dirishga ulgurigan G'arb madaniyati, moddiy farovonlikka intilib ma'naviy boyliklarni unutib qo'yishda aks etadi.

Yoshlarni nafaqat ota-onalar, maktab va kitoblar, balki ko'cha, ommaviy madaniyat mahsulotlari, ommaviy axborot vositalari va o'zlarining tajribalari bilan hayot normalari bilan tanishtiradi. Hokimiyatning beparvoligi va huquqlarning etishmasligi, yoshlik maksimalizmi yoshlarda befarqlik yoki tajovuzkorlikni rivojlanishiga undaydi, ularni norasmiy yoshlar kompaniyalariga qo'shilishga undaydi. Bundan tashqari, o'spirinlik - bu inson ko'plab muhim vazifalarni hal qilishi kerak bo'lgan vaqt: kasb tanlash, ikkinchi yarmi, do'stlar, hayot yo'lini belgilash va o'z dunyoqarashini shakllantirish.

Jahon psixologiyasi ma'lumotlarining ko'rsatishicha, xulq-atvorning muhim motivlaridan biri e'tiqod hisoblanadi. E'tiqod- shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda qarorga kelishga undaydigan muhim motivlar tizimidir. Boshqa so'z bilan aytganda, e'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni- bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzdagi tushunilish demakdir. Bu bilimlar falsafiy, estetik, tabiiy-ilmiy nuqtai-nazardan tartibga solinsa va ichki uyushgan tizimi tashkil etilsa, u taqdirga shaxsning dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Psixologiya fani dunyoqarashining shakllanish jarayonini tadqiqot qiladi, ijtimoiy-taraqqiyot hodisalarining to'g'ri baholanishini, evolyusion yo'sinda tarkib topishini, ahloqiy tamoyillar, didlar yuz berishini, tabiat hodisalariga va jamiyatning qonuniyatlariga nisbatan qarashlarning shakllanishi qay tariqa yuz berishini va boshqalarni aniqlaydi. Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. SHaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo'nalganligi masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini

yunaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turgun, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.

Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalari, hayot va olam tug'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik tug'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim. Dunyoqarash murakkab tuzilishga ega. U muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat. Bularning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzu-umidlarining asosli ekaniga, faoliyati va hattiharakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

## VOYAGA YETMAGANLARNING XULQ-ATVORIDAGI NUQSONLARNI TUZATISHDA PSIXOLOGIK YONDOSHUV

*Mussoyeva Matluba Satorovna*

*Namangan viloyati Chust tuman 13-maktab psixologi*

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan. Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar xuquqlari davlat himoyasida ekani belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 64-moddasida esa ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekani, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalari vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi bolalarga yo'naltirilgan hayriya faoliyatini rag'batlantirishi qayd etilgan.

Voyaga yetmagan o'smirlarning psixologik jihatlarini qarab chiqadigan bo'lsak, ularning hayotida ko'plab noxushliklar bo'lishiga amin bo'lamiz. Bunday noxushliklar sababi nimada aslida? Ularning hayotidagi muammolarga sabab nima? Nima uchun bunday muammolarning oldini olinsada o'smir hayotida ba'zi hollarda iz qoldiradi? Bunday savollarni ko'plab berish mumkin. Eng yomoni o'smirning tarbiyasidagi og'ishlar natijasida jinoiy ishlarga aralashib qolishi, hatto jinoiy ishga qo'l urishidir. Bunday muammolarni echish chinakamiga katta mehnatni talab qiladi. Bu boradagi tarbiyaviy ishlarda keng qamrovli hamkorlik ishlarini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda o'smir shaxsi sub'ekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ob'ekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta'sir etuvchi



element sifatida ifodalanadi. Sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar mutanosibligini ta'minlash esa voyaga etmaganlarda xulq og'ishi kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi.

O'smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba'zan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmush tarzini belgilasa, ba'zan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'smirlarda g'ayriqonuniy xulq-atvor kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta'sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o'smirning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishini taqazo qiladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta'sirchanligi, eng avvalo, o'smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg'ulotlar voyaga etmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, psixologlar va pedagoglar tomonidan moslashmagan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar, maslahatlar ishlab chiqilgan. Biz ularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1. Tarbiyasi qiyin o'smirlarning sinf jamoasidagi o'rnini va uning sinfdoshlar, atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlarini sog'lomlashtirish.
2. Tarbiyasi qiyin o'smirlarning shaxs xususiyatlarini har tomonlama o'rganish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishga erishish.
3. Tarbiyasi qiyin o'smirlarning sinf va maktab jamoasidan izolyatsiyalanishi (ajralib qolishlik) ning oldini olish tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish.
4. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib sinfda va sinfdan tashqarida o'tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish.
5. Sinf jamoasi a'zolarida sog'lom psixologik munosabat hissini shakllantirish.

6. Sinf va maktab jamoasida tarbiyasi qiyin o`smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini yuzaga keltirish.

7. Tarbiyasi qiyin bolalar va o`smirlarning ustun shaxs xislatlari, jismoniy barkamolligidan kelib chiqib, ulardan oqilona foydalanishni yo`lga qo`yish, ya`ni sinfdan tashqari ishlarda ularga sardorlik, boshqaruvchilik ishlarini topshirish mumkin. Bu orqali o`smirda o`z-o`ziga nisbatan bo`lgan ishonchini orttirish, ijtimoiy voqea-hodisalarga nisbatan bo`lgan munosabatini o`zgartirishga erishish mumkin.

Bulardan ko`rinadiki, shaxs xulqidagi ogishni tuzatishga harakat qilishda, eng avvalo, osmir shaxsiga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishiga hamda o`smirning motivatsion ehtiyojlar sohasini o`zgartirishga, nosog`lom turmush tarzi va tarbiya muhitini sog`lomlashtirishga e`tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulq og`ishiga ega bo`lgan bolalar va o`smirlar o`rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida o`zaro yaqinlik va sog`lom munosabatni o`rnatishga bog`liqdir. Shuning uchun o`qituvchining tarbiyasi og`ir o`smirga nisbatan berayotgan e`tiborini, ularni o`zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo`layotganligini o`smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o`smir xulqini sog`lomlashtirishga qo`yilgan ilk qadam bo`lib hisoblanadi. O`smirdagi moslashmagan xulqni tuzatishning keying sharti o`smir psixikasidagi o`zgarishni o`z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko`rsatish hisoblanadi. Bunda amaliyotchi psixologning xizmati kata bo`lishi lozim. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, uchastka militsiya xizmati tayanch punktlari qoshidagi profilaktika nozirlari zimmasiga voyaga etmaganlar bilan ishlash xizmatini yuklash yoki bo`lmasa voyaga etmaganlar bilan ishlash profilaktika nozirlari xizmatini har bir mahallada alohida joriy qilish, bizningcha maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, uchastka voyaga etmaganlar bilan ishlash nozirlarini psixologik-pedagogik, psixatrik boshlang`ich bilimlar bilan qurollantirish davr taqozosi hisoblanadi. Shuningdek, maktab, o`rta maxsus ta`lim maskani faoliyatiga psixiatr shtat birligini joriy etish yoki bo`lmasa, maktab psixologi tibbiy-psixatrik bilimlar bilan qurollantirilishi yaxshi natija berishi mumkin. Voyaga

yetmaganlarni balog'at yoshiga etgunga qadar tarbiyalash bilan birgalikda ilm-fan va kasb-hunarga qiziqtirib borish zarur. Yosh avlodning jismonan sog'lom, aqlan etuk va ma'nan barkamol bo'lib voyaga etishishi jamiyatda ular huquqlarining qay darajada muhofaza qilinishiga ham bog'liq. Zero, ular tarbiyasi, faoliyatiga beriladigan e'tibor yurtimizning yangidan-yangi yutuqlariga omil bo'ladi.

Ushbu xulosaga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- ota-onalar yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxslarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish zarur;
- voyaga yetmaganlarning axloqiy va huquqiy tarbiyasida muammolarni bilish shart;
- o'qimni noo'rin yoki bilib-bilmasdan jazolanishini oldini olish kerak;
- bolalarni ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishiga sharoit yaratib berish lozim;
- bolani ortiqcha erkalatib yuborish (aytgani aytgan va degani degan holga

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumanazarov Y. "Yosh davrlar psixologiyasi". Namangan 2013 y.
2. Abdurasulov R. "Psixologning kundalik kitobi". Jizzax – 2005.
3. Raxmatullaev M. "Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish" T.– 2001.
4. "O'zbekiston Respublkasi Konstitutsiyasi". T-2010.

## STRESS HOLATLARDA O'SMIRLARNING PSIXOLOGIK HIMOYA NAMOYON BO'LISHI VA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

*Tursunova Dilbarxon Abdubannayevna*  
*Uchqo'rg'on tumanidagi 28-maktab amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada stress holatlarda o'smirlarning psixologik himoya namoyon bo'lishi va ijtimoiy-psixologik omillari haqida mulahazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlar, stress, distress, koping xulq-atvor, koping strategiya, yenga olish, himoya mexanizmi, imkoniyat

Ma'lumki, ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologik himoya qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'zini o'zi rivojlantira borishi ko'p jihatdan ushbu jarayonga bog'liqdir. Alohida ta'kidlash joizki, shaxslar o'zlarining ma'lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o'z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so'z bilan aytganda, o'zlari haqida yanada teran, ijobiy va o'ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Zero, bu jarayonda eng avvalo ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologik himoyasi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning har bir nutqi, asarlari o'sib kelayotgan yosh avlod muammolariga bag'ishlanishi shaxsni shakllantirish, shaxs tuzilmasida ma'naviy komponentning o'rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Zero, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ma'naviy tanazzulning oldini olish, yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishda sog'lom e'tiqod, munosabat, dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol inson shaxsini shakllantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Respublikamizda o'ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar yotadiki, bu jarayonda

psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs tezkor vaziyat muhit bilan bog‘liq o‘ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos natija ko‘rsatish juda mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar, favqulotda vaziriyat, yong‘in xavfsizligi xodimlari zimmasiga yanada ko‘proq mas‘uliyat yuklatiladi. Azal-azaldan mehribon mehmon do‘st va insonparvar hisoblangan o‘zbek xalqi uchun inson hayoti hamma narsadan ustundir. Shuning uchun ham ekstremal vaziyatlarda shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish va favqulotda vaziyatlarda psixologik himoya qilish hozirgi kunda dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an‘analari bilan bog‘liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a‘zolariga psixologik xizmat ko‘rsatish muqararligini talab qiladi. Vaholanki, iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o‘zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, umuman ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya jarayoni shaxstabiati uchun xarakterli bo‘lgan boshqa xil himoyalar orasida ham alohida ajralib turadi. Jumladan, biologik himoyada shaxsning individ yoxud biologik mavjudot sifatidagi ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog‘liq harakatlar tushnilsa, ijtimoiy himoyada esa shaxsning davlat va jamiyat tomonidan ma‘lum me‘yoriy hujjatlar asosida himoya qilinishi tushuniladi. Iqtisodiy himoya jarayoni shaxsning moddiy ta‘minlanganlik darajasini belgilashga qaratilgan tadbirlar, qonunlar va rasmiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ko‘pgina adabiyotlarda ma‘naviy-mafkuraviy muhofaza jarayoniga dahldor mulohazalar ham mavjud. Bunda asosan yoshlardagi milliy e‘tiqodni mustahkamlash ma‘naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Insonning ekstremal vaziyatlarda psixologik himoyasi esa uning shaxs sifatidagi faoliyati hamda faolligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi o‘ziga xos psixologik imkoniyatlar bilan belgilanadi va baholanadi. Ilmiy adabiyotlar talqini psixologik himoya metodologiyasining umumiy yo‘nalishlari G‘arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izohlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan

"Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) asari ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Taniqli ingliz psixologi Vilyam Makdugallning 1908 yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari" nazariyasi freydizmga qarshi o'laroq inson instinktlari va faoliyat uyg'unligini ta'minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo'lib xizmat qildi. Binobarin, E.Fromm, J.Saliven, V.Shuts, G.Sheparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan guruhlar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orqali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda yaratilganyotgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya metodologiyasini asoslashga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari ayrim nizolarning sub'ektiv sabablariga bevosita ta'sir etishi mumkin. Shaxsning shaxsiy yoki guruhiy ehtiyojlarini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik va shaxsiy yoki guruhiy qiziqishlarini poymol qilish kabi sabablar nizoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. Ko'pincha jamoada qabul qilingan xulq-atvor formalari, ijtimoiy shakllanib borishi bilan individ reaksiyasi aniqlanadi. Bundan tashqari, individning nizolarga ishtiroki, uning oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirish uchun yuzaga kelgan to'siq qay darajada xalaqit berishi bilan aniqlanadi. Sub'ekt oldiga qo'ygan maqsadi qanchalik muhim bo'lsa va unga erishishni juda xohlasa, u shunchalik darajada qat'iylik bilan o'zaro nizoli vaziyatlarga va unga xalaqit beruvchi shaxsga qarshilik ko'rsatadi. Mazkur mulohazalarga asoslanib, Ivan Ognev tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi chizmada shaxsning nizolarda ishtiroki sabablarini shakllantirish tizimi tavsiya etiladi. Aytish joizki, mazkur tadqiqotlar zahirida ham shaxsning o'zini o'zi psixologik himoya qilish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan metodologik mulohazalar bayon etiladi. B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilisin, E.A.Golubeva va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individning)

tabiiy va tug‘ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o‘ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta’sir etuvchi ta’lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning ne chog‘lik tashkil etilish jarayonini mukammal o‘rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo‘llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi. Mazkur imkoniyatlar avvalambor insondagi u yoki bu faoliyatni bajarishga bo‘lgan iqtidor kurtaklarini o‘rganishni va shu asosda shaxs faolligini kamol toptirish uchun asos sifatida xizmat qilishi maqsadga muvofiq. Shunga asosan maxsus tadqiqotlar shuni tasdiqlayaptiki, faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun individual xususiyatlar, ayniqsa, har bir shaxs temperamenti va individual uslubiga ham bog‘liq. Ayniqsa, mehnat va o‘quv faoliyati jarayonida ushbu holatni kuzatish, tahlil qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq usullar majmuasining ishlab chiqilishi psixologik muhofazaning muhim vazifasi ekanligidan dalolatdir. Ye.Mironovning fikricha, ingliz tilidan tarjima qilinganda “stress” so‘zi “psixik zo‘riqish”, “bosim o‘tkazish” ma’nolarini anglatadi. Disstress so‘zi esa “qayg‘u”, “muhtojlik”, “charchash” ma’nolarida qo‘llaniladi. Hozirgi davrda stress deganda organizmning qandaydir qo‘zg‘atuvchi – stressor ta’siri ostida yuqori zo‘riqish holati tushuniladi. Stress so‘zi individning kuzatilgan vaziyatlardagi emotsional holatini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Stress holatlarini inson hayotining turli davrlarida turlicha namoyon bo‘lishi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular ko‘pincha bu tafovutlarni ham asab, ham gormonal tizimdagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab tushuntiradilar. Stressning shakllanish sabablari organizmning biologik butunligiga hamda insondagi psixologik holatga ham tahdid soladi. Ana shu asosda olimlar stress holatlarini ikki guruhga-fiziologik va psixologik stressga tafovutlashadilar. Fiziologik stressni fiziologik ta’sirlar - turli xildagi to‘siqlar, shuningdek, kuchli ovozlar, kuchli yorug‘lik, havoning yuqori harorati, vibratsiyalar va boshqalar keltirib chiqaradi. Psixologik stress vaziyatning favquloddaligi natijasida insonning yuzaga kelgan vaziyatga munosabati va uning murakkablikni baholashi yoki muammo oldida oqib bo‘lib qolishi bilan belgilanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164. 7

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. O`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B.

---

## O`SPIRIN O`QUVCHILARDAGI HISSIY-EMOTSIONAL JARAYONLAR VA MUHABBAT HISSINING KECHISHI PSIXOLOGIK NAZARIY ASOSLARI

*Xojixo 'jayeva Gavxar Saidorifxonovna*

*Uchqo 'rg'on tumanidagi 28-maktab amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o`spirin o`quvchilardagi hissiy-emotsional jarayonlar shuningdek, muhabbat hissining kechishining psixologik nazariy asoslari haqidagi mushohazadalar o`rin olgan bo`lib, bunday ma`lumotlar ko`pchilik uchun foydali bo`ladi degan umiddamiz.

**Kalit so`zlar:** Hislar, emotsional holat, muhabbat, tuyg`u, ehtiros, jinsiy yetilish, temperament, sharoit.

Muhabbat davriga nazar tashlaganda sevgi hissining ilk kurtaklarini bog`cha yoshidagi bolalarda ham ko`rish va buni har bir tarbiyachidan so`rab, ishonch hosil qilish mumkin. Lekin tabiiyki, bu hali to`laqonli muhabbat bo`la olmaydi. Bolalikdagi muhabbat hislarida fiziologik komponent, ya`ni jinsiy intilish deyarli bo`lmaydi. Ulardagi hissiyotning aksariyat qismi ruxiy komponentdan iborat. Maktab yoshidagi o`g`il va qiz bolalar o`rtasidagi muhabbat hislari esa bir muncha farq qiladi.



O'spirinlik yoshidagi qiz bolalarda ruxiy komponent jinsiy komponentdan ustunlik qilsa, o'g'il bolalarda hissiyot divergensiyasi-bo'lishi kuzatiladi. Ya'ni ular muhabbat hislarini bitta qizga nisbatan boshidan kechirsalar, jinsiy intilishni katta yoshli ayolga nisbatan his etadilar, ulardagi hissiyot ikki ob'ektga bo'linadi. Bu faqat o'g'il bolalarga hos bo'lib, qizlarda bunday hol kuzatilmaydi. O'spirinlik yoshidagi o'g'il bolalarda gipeseksuallik natijasida ularning hissiyotida jinsiy intilish ustunlik qiladi yoki uning ahamiyati keskin ortadi.

Qiz bolalarda esa ruxiy komponentning ustunligi saqlanib turadi. 17-25 yoshlardagi yigit-qizlarda qiz juftini topishga intilish va hirs keskin ortadi. Sevish va sevilishga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida yoshlar yorini tezroq qidirib topishadi va oila qurishadi, ba'zan bunday yoshlar qisqa vaqt ichida ajralishiga ham ulgurishadi. 25 yoshdan keyin qizlarning oila qurish imkoniyatlari ancha kamayib boradi. Unda bo'lgusi kuyovga nisbatan talabchanlik oshib, tanqidiy qarash kuchayadi. Endi unda hislarga berilish kamayib, uning o'rniga bo'lg'usi yoriga butunlay boshqacha qaray boshlaydi. Bunday ruxiy o'zgarishlar yigitlarda ham kuzatiladi, ammo qizlarda farqli ravishda ularning oila qurish, uylanish imkoniyatlari kamayadi, aksincha birmuncha ortadi. Chunki bu yoshda ularning ko'pchiligi bitirib, ma'lum bir ixtirosni egallagan, mehnat faoliyatini boshlagan bo'ladilar. Ya'ni oilani mustaqil tebratish imkoniga ega bo'ladilar. Muhabbat hislari erkak va ayollarda o'ziga xos shaxsvoniy hirs oyg'otadi. Erkaklarnikidek tez orada o'zgarmaydi va nisbatan uzoq davom etadi. 13-14 yoshli o'g'il bolalarning 40 foizi, qizlarning 26 foizi ilk sevgi hislarini boshidan kechirayotgan yoki kechirgan bo'ladilar. Bu hol 5-16 yoshli o'g'il bolalarda – 17%, qizlarda 30%ni, 17-18 o'g'il bolalarda – 10%, qizlarda 9%ni tashkil qiladi. A.R.Lemexova qizlar va yigitlar orasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganib, uni uch tuga bo'lgan.

1. Uyg'un tur – bunda qiz va o'g'il bolalarda axloqiy tushunchalar shakllangan, hissiyot madaniyati rivojlangan bo'lib, ular muhabbatga, qarama-qarshi jinsga, oilaviy hayotga birmuncha aniq qarashadi.

2. Oilaviy romantik tur – bunda muhabbat, jinslar orasidagi munosabatlar hayotdan yulingan holda, nihoyatda ideallashtirib olingan bo'lib, hayotdagi mavjud borliq bilan to'qnashganda esa barcha tasavvurlari parchalanib, ruhan tushkunlikka uchraydi.

3. Ma'naviy kambag'al tur – bunda yoshlar muhabbatni notog'ri tushunadilar. Muhabbatda ma'naviy yaqinlikni, ruhiy omilning ahamiyatini ko'ra bilmaydilar. Muhabbatda asosiy rol ni jinsiy yaqinlik o'ynaydi, deb biladilar. Bunday toifadagi yoshlar ko'p hollarda jinsiy hayotni erta boshlaydilar.

To'laqonli muhabbatni his etgan ha bir inson muhabbatning boshlang'ich, alangalangan va o'zaro hurmat bosqichlarini bosib o'tadi. Boshlang'ich haqiqiy, istiqboli porloq, bir umirlik sof muhabbatning boshlanish yoki aksincha shunchaki havas qilishi yoki umri qisqa sevgining biror bir ko'rinishi bo'lishi mumkin. Mazkur bosqich muhabbatning “agape” turining boshlanishi yoki “yudus” turining o'zginasi bo'lishi mumkin. Muhabbatning paydo bo'lishini bevosita temprament toifasiga bo'lish xato bo'lar edi. Temprament bilan hissiyotning ifodalanishi orasidagi o'zaro bog'liqlikni ham inkor qilib bo'lmaydi. Xolerik va sangvinik toifasidagi yoki ularning aralashuvidan iborat toifadagilar o'zgalar bilan tez va oson til topishadi. Bu toifadagi erkak va ayollar o'zlaiga do'st topishda unchalik qiynalmaydilar. Shuningdek, bunday toifadagi odamlar flegmatik va melanxoliklarga nisbatan tez va oson sevib qoladilar. Chunki ularda hissiyot tashqi tomondan kuchli ifodalangan va shu sababli ham hissiyot qoniqish osonroq va tezroq sodir bo'ladi. Bundaylar yuqoridagi aytib o'tilgan bosqichlarni birmuncha tezroq bosib o'tishlari ham mumkin. Flegmatik va melanxoliklar esa o'zgalar bilan til topishishlari ancha qiyin. Ular duch kelgan kimsa bilan do'stlashib ketavermaydi. Ammo do'stlikning qadriga yetadiganlar va azimagan sabab uchun do'stlikdad kechmaydila. Bu toifadagi kishilarda hissiyot nihoyatda chuqur va pinhona kechadiki, buni boshqalarning tashqi tomondan sezish qiyin. Buni huddi daryoniing chuqurligini uning sathiga qarab bilib bo'lmaganiga o'xshatish mumkin.

Hissiyotdagi ayrim bosqichlarga ko'ra muhabbat turini, bosqichini va umuman sevgi hislarining bor yo'qligini aniqlash, inb Sino kabi “oir hastalik”ka tashxis qo'yib, uni davolash choralarini ko'rish mumkin.

Sevishganlar yoki oila qurayotganlarning o'zaro munosabatlarini xarakterlovchi vaziyat, sharoitlardan biri bu-rashkdir. Sevikli odamdan ajralib qolish, uni yo'qotib qo'yish havfini hech qachon boshdan kechirmagan odam rashkni qandaydir tushunarsiz aqlsizlikdek tasavvur qilish mumkin. Suyukli odamidanda ajralib qolish nima ekanligini bir

marta bo'lsa ham boshidan kechirgan odam esa rashkchini osongina tushunadi va unga ma'lum darajada hamdardlik bilan munosabatda bo'ladi. Umuman olganda, albatta rashkchi odamlarga havas qilib bo'lmaydi. O'zidagi bu hisni yenga olmaydigan odamlar doimo havotirda, hadikda yashaydigan baxtsiz odamlardir. Ularning ikki karra baxtsizligi yana shunda hamki, ular bir vaqtni o'zida ham jabrlanuvchi, ham azob beruvchi, ham zo'ravon, ham kuchlidirlar. Ishonchsizlik, doimo xiyonat, shubhalanish muhitini yuzaga keltirar ekan, bundan rashkchilarning o'zlari birinchi bo'lib azoblanadilar. Ular arzimagan bahona tufayli yoki uning bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar yolg'iz yoki oshkora janjallarni yuzaga keltirishga doimo tayyor bo'lishadi. Bu esa ularning uyida, ishda va butun hayotida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlariga, jumladan jinsiy munosabatlariga ham jiddiy ta'sir qiladi va ko'pincha, ayanchli psixologik hastaliklar, shikastlanishlarga ham olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda har ikki jins vakillari o'z juftiga rashk qilish uchun hech qanday sabab, asos, bahona yaratib qo'ymaslikka harakat qilishi, ayniqsa, "sevgining uyqu" davrida ko'proq iliqlik, sabr-toqat, chidamlilikni nomoyon qilishlari lozim bo'ladi. Psixologlar rashkni zolimona rashk va "izzat-nafsi poymol qilinganlikdan" bo'ladigan rashklarga farqlaydilar. Zolimona rashkni odatda, hudbin (egoist), qaysar, zolim, hissiy sovuq, va begonlashib ketgan, yotsiratdigan, yetarlicha avtoritar odamlar yuzaga keltiradilar. Bunday odamlar odatda, turmush o'rtoqlariga faqat bir buyumdek, o'z manfaatini, farog'atini qondirish obyekti, o'z mulkidek qaraydilar. Ularda boshqa odamning shaxsiy xususiyatlarini sezish, hurmat qilish qobiliyatlari rivojlanmagan bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. (B.Shomurodov tahriri ostida).
2. Shoumarov Sh.B. Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oilaviy hayot. T. Ibn Sino 1996 y.
3. Referat.uz

## KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI O'QUVCHILARDA AQLIY VA PSIXIK RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Norova Gulzoda Innatulloevna*  
*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 41-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilarda aqliy va psixik rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida bir qator ilmiy-nazariy ma'lumotlar va mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Psixik rivojlanish, kichik maktab yoshi davri, majburiyatlar, ta'lim, o'qituvchi, aqliy rivojlanish, nutq, sharoit.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining bu davrda insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladi. Buning natijasida bolaniig uz-uzidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zurikish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida xam, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi. Bu davrga kelib bola atrofida bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni xamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-uzi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi.

Shuninhdek, maktabga kelish arafasida o'quvchining so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farklay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jummalarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va xarflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga

berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7-10 yoshdagi o'quvchining idroki, uning xatti-harakati, o'yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Birinchi sinfga kelgan o'quvchi predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yukori bo'lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga karatilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalarilaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qayerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo'lgan masofani bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning «*Nima uchun?*», «*Qanday qilib?*», «*Nima orqali?*» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. 6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi, so'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki,

aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyati psixik funksiyalarni yukori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yukori darajada tashkil etish hali bir muncha murakkabdir.

6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdegilarning talabi yoki shaxsiy harakatga intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlangich sinf o'quv materiallarining yaqqolliqi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi – O'qituvchi 2010 y.
2. Ivanov I.I., Zufarova M.R."Umumiy psixologiya" T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati , 2008-480b.

3. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru).

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHDA DASTLABKI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Boltayeva Aziza*

*Buxoro viloyat G‘ijduvon tuman 1-maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishda ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka‘bi vazifalar belgilangan [1].

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, o‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi.



Mazkur tasavvurning realligini ta'minlashda o'qituvchining katta o'rnini bor. Negaki, o'qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go'yoki bir "sehrgar", tengsiz murabbiydir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular:

- Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
- mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
- o'z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish;
- ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish;
- toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim [2, b. 6].

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar:

- kognitiv (axborotga ega ekanligi);
- kasbga qiziqish mezoni;
- amaliy mezon [3, b. 46].

Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'prok o'z ifodasini topadi va namoyon bo'ladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O'qituvchining vazifasi — o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [2, b. 9].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin [2, b. 12-14].

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o'qtirib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo'naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir.

Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo'naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o'quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- kasbga yo'naltirishda yakka tartibda ishlashga e'tibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;
- turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo'naltirish;
- turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- madaniy tadbirlar tashkil etish;
- kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o'quvchilarni o'z vaqtida to'g'ri kasbga yo'naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi PF-4947-son Farmon. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. — 21 b.
3. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

## **BOLALARDA JAHLI TEZLIK VA UNI YO'QOTISH YO'LLARI**

*Qo'ldoshova Gulnora*

*Buxoro viloyat Gijduvon tuman 1-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Jahl boshqa emotsiyalar singari insonning atrof muhitga moslashish vazifasini bajaradi. Jahl odamlarda ham, hayvonlarda ham ma'lum maqsadga yetishish yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlarni yengish uchun kerak bo'ladi. Shuning uchun jahlni hamisha ham kasallik deb qarash noto'g'ri. Jahl – ma'lum vaziyat taqozosi bilan paydo bo'ladigan harakat va shuning uchun o'sha vaziyatdan inson chiqmas ekan, unda jahl saqlanib qolaveradi. Agar jahl ma'lum vaziyatda emas, doimiy saqlanib qolsa, buni endi sog'lomlik deb bo'lmaydi. Bu ma'lum ma'noda o'z-o'zini boshqarish mexanizmining buzilganligidan dalolat beradi.

B.Spokning fikricha, quyidagilar normal holat hisoblanadi: bir yoshga kirgan bola onasi qilgan noxush harakatga qarshilik ko'rsatsa; - ikki yashar bolaning o'zga bolani urishi; agar uning biror narsasini tortib olishsalar va h.k. Mazkur jahldor harakatlar ma'lum vaziyatlardan kelib chiqayapti. Biroq ular kasallik chegarasiga ham o'tib qolishi mumkin. Har qanday buzilish o'z ibtidosini ma'lum vaziyatdan olishi mumkin.

Normal jahl holatining kasallik holatiga o'tib qolish shartlari quyidagilar:

Ota-onalarning doimiy jahlli hatti-harakatlari. Bunday xulqqa bolalar taqlid qiladilar, beixtiyor o'sha jahlni o'zlariga yuqtiradilar. Bu hodisaning psixologik mexanizmi quyidagicha: bolaning emotsional o'z-o'zini boshqarish tipiga moslashadi;

- bolaga ota-ona muhabbatining berilmasligi. Bu narsa bolada himoyasizlik tuyg'usini shakllantiradi, atrofdagilarga nisbatan shafqatsizlikni paydo qiladi;

- ota-ona tomonidan bolaning haqorat qilinishini va kamsitilishi. Bu tarbiyadagi xususiy hol bo'lishi mumkin, biroq bola shaxsi rivojida bu narsa o'ta muhim ahamiyat kasb etadi;

- ikki yo'ldan birini tanlash holatini bolada tez-tez paydo qilish. Bola qay tomonni tanlashga qiynaladi. Agar noto'g'ri quyilgan qadam uchun jazo oladigan bo'lsa, jahl kasallikka aylanib ketishi mumkin.

Bunday ota-onalar bilan ishlash juda murakkab, chunki jahldor bolasi bor ota-ona odatda unga nisbatan o'zlarida adovat tuyg'usini his qiladi va ular psixolog-konsultantga yordam uchun emas, balki uni tinchlantirib qo'yish uchun murojaat qilishadi. Ularga qolsa bolani tinchlantiruvchi bitta dori berishsalarida, bola birdaniga jahldan tushib qolsa. Ular bilishmaydilarki, boladagi jahlning ildizlari ularning turmush tarzlariga borib taqaladi. Aksariyat hollarda o'sha ota-onalarning o'zlari yoshligida serjahl bo'lgan bo'lishadilar. Ular o'zlaridagi psixologik holatlarini o'z farzandlariga uzatishadi. Shuning uchun psixolog odatda ilk ishini jahli tez bolaning ota-onalaridan boshlamog'i kerak.

Birinchiidan, ular bilan ishlaganda ularning o'z-o'zini baholashiga salbiy ta'sir ko'rsatib qo'yishdan ehtiyot bo'lish kerak. (Siz o'z bolangizni yaxshi bilmaysiz, men sizga o'rgatib qo'yaman qabilidagi gaplar ularning shaxsiyatiga tegishi mumkin). Aksincha, ularni o'z farzandlarini yanada bilishlikka chorlash lozim.

Ikkinchiidan, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatini o'zgartirish zarur. Ular serjahl bolasini noshukurlikda ayblashadilar. Ular bolani tergaganlarida, urishganlarida bolalari kechirim so'rashlarini, aybdor ekanligini aytishini kutishadi. Bola bu ishni qilmaganligini ko'rgach, ularning jahli chiqadi va bolani beodoblikda buzilib ketganlikda ayblashadi. Iloji boricha, ota-onalarda o'z bolalariga nisbatan rahm-shafqat tuyg'usini uyg'otish kerak. Serjahl bola-bu avvalom bor baxtsiz bola ekanligini ularga uqdirish kerak. Ota-onalarga jahlning paydo bo'lish mexanizmini, jahlitezlik bolaning emotsional jihatdan kasallanishi ekanligini tushuntirish lozim.

Uchinchiidan, ota-onalarning o'z bolalıkları haqidagi xotiralarini tiklash kerak. O'zlarining ham qilgan jahlli xulq-atvorining sabablarini birgalikda muhokama qilish zarur. Ehtimol, bu narsa bola bilan ota-onalar o'rtasidagi muomalaning shaxsiy sabablarini ochishga yordam berar va shu yo'l bilan psixologik yordam olar.

To‘rtinchidan, ota-onaning bolaga tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyingi birinchi oylardagi munosabatini aniqlab olish zarur. Agar bola boshidanoq istalmagan bo‘lsa (balki bola tasodifan yoki majburlikdan tug‘ilgandir), ota-ona bilan hamkorlikda aniq bir qarorga kelish zarur. Masalan, bola istalmagan bo‘lsa-da, har qalay unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish zarurligi uqtirilishi darkor.

Serjahl xatti-harkatni yomon deb bo‘lmaydi. Kutilmagan vaziyatlarda u himoya vazifasini bajaradi, ba’zida ma’lum vaziyatdan chiqishga xizmat qiladi. Jahlitezlik bolalarda aksariyat hollarda kuzatiladi. O‘tish bosqichlari – bu ijtimoiy muammolar bilan paydo bo‘ladigan krizislar bo‘lib, inson hayotining turli bosqichlarida kuzatiladi. Amerikalik psixolog E.Erikson inson hayotida 8 ta krizisni farqlaydi. Bular quyidagilar:

1) Birinchi krizisni bola umrining birinchi yilida boshidan kechiradi. Bu bola fiziologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog‘liq. Agar yaxshi qondirilmasa, bolada atrofdagilarga ishonchsizlik paydo bo‘ladi.

2) Ikkinchi krizis bolaning tozalikka o‘rgatish paytiga to‘g‘ri keladi. Agar bolaga qat’iy tashqi nazorat o‘rnatilsa, unda uyat va shubha paydo bo‘ladi.

3) Uchinchi krizis ikkinchi bolalik davriga to‘g‘ri keladi. Bunda bola mustaqil faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Agar uning omadsizligini hadeb ro‘kach qilinsa, unda aybdorlik tuyg‘usi shakllanadi.

4) To‘rtinchi krizis maktab yoshida sodir bo‘ladi. Maktabdagi muhitga moslasha olmagan o‘quvchida o‘ziga ishonchsizlik tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

5) Beshinchi krizis o‘smirlarda kuzatiladi. Undagi biologik yetilish bilan sotsial jihatdan yetilmaganlik o‘rtasidagi ziddiyat bu krizisni keltirib chiqaradi.

6) Oltinchi krizis yosh yigit-qizlarda kuzatiladi. Bunda ayrim yoshlarda izolyatsiya ya’ni o‘z-o‘zi bilan bo‘lish kuzatiladi.

7) Yettinchi krizis 40 yoshda kuzatiladi. Unda ham oilaviy munosabatlarda turg‘unlik kuzatiladi.

8) Sakkizinchi krizis qarilikda sodir bo‘ladi. U o‘limdan qo‘rqish va yangidan hayot boshlay olmasligidan nadomat tuyg‘usi bilan xarakterlanadi.

Shu 8 ta krizisning har biridagi salbiy holatlar odamda jahlni chiqaradi va u xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Jahlitezlikni tahlil qilganda albatta bu psixosotsial krizislarni hisobga olmoq lozim.

Bola xulq-atvoridagi serjahllik ular bilan munosabatni qiyinlashtirsa ham jahlni mutlaqo salbiy sifat deb baholash noto'g'ri. Unutmaslik kerakki, boladagi faollikning oshishi uning bo'lishi mumkin. Agar maxsus tuzatish ishlarini olib borilsa, unda atrofdagilar bilan normal muomala paydo bo'ladi.

Boladagi jahlni tuzatish ishlari uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlashdan boshlanadi. Agar jahl bolaning emotsional – motivatsion olamidagi buzilish bo'lmasa, unda ishlar jahlni olib tashlash yo'lidan emas, balki bola xulq-atvoridagi jahlni yumshatish, bolaga yaxshi tomondan ta'sir qilish ishlarini olib borish talab qilinadi. Bundan tashqari, ota-onalarni boladagi o'zgarishlarga tayyorlash kerak.

O'zga holatda, agar jahlitezlik bola shaxsining emotsional – motivatsion sohasidagi buzilish bo'lsa uni bola xulq-atvoridan yo'qotish yo'lidan bormoq lozim.

Jahli tezlikni yo'qotish yo'lida qo'llaniladigan psixokorreksion usullar uni keltirib chiqargan sabablarning xarakteriga bog'liq. Korreksion metodlarni tanlashda konkret hodisadan va konkret boladan kelib chiqqan holda tanlash kerak bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ye.I.Rogov. Nastolnaya kniga prakticheskogo v obrazovani. M.“Vlados” 1996.
2. J.Godfrua. Chto takoe psixologiya. Tom 2. M. “Mir” 1992

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XOTIRASI XUSUSIYATLARI

*Safarova Aziza*

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 1-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

Hozirgi davr talabi ma`naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo`lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma`naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta`lim jarayonida namoyon bo`ladi. Ta`limning sifatli tashkil qilinishi o`quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog`liq bo`ladi. Shunday ekan, o`quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o`rganilgan hamda ko`pgina tadqiqotlar o`tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo`yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib borishi xususida ma`lumotlar olishimiz mumkin. Umumiy psixologiya darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko`pgina ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining pedagogik jarayondagi ahamiyati, o`qituvchi hamda o`quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta`lim jarayoniga ta`siri hususiyatlari o`rganilgan.

Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari, xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma`lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo`yicha o`tkazilishi mumkin bo`lgan turli yosh davrlari bilan bog`liq holda metodikalar majmuyi mavjud.

Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to`xtalganimizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr



mulohazalarga guvoh bo`lamiz. Ularning har qaysisi o`z nuqta`i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o`tmoqdalar. Demak, bundan ko`rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi.

Shu o`rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog`liq ekanligi haqida to`xtalib o`tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o`zimizga kerak bo`lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba`zan xafa yoki ba`zan jig`ibiyron bo`lamiz va o`zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jummalarni aytamiz. Biroq unutmashimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni ko`rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to`laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o`rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ma`lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma`lum bir sharoitda qayta namoyon bo`luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirga va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g`oyaviy yo`nalishi kata o`rin egallaydi. Ko`pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta`riflanadi: “Individning o`z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi”

Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo`lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyani har xil mezonlar bilan o`lchashda o`z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog`liq tadqiqotlarda markaziy o`rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo`nalishda o`rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog`liq bo`lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi.

Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo`lishi shaklida o`rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta`riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo`lib, subyektlarning oldiga qo`yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta`siri ostida o`zgartirish mumkin.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo`lib oliy ruhiy jarayon bo`lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirga va keng ko`lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo`nalishini ishlab chiqdi. German Ebbingauz o`z “sof” xotira qonunlarini o`rganish imkonini beruvchi, boshqacha so`z bilan aytganda tafakkurga bog`liq bo`lmagan holda izlarning esda qolish jarayonini tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya`ni ma`nosiz bo`g`inlarni yod olishdan iborat bo`lgan bu uslub materialni esda olib qolishning egri chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so`nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratdi.

Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o`z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko`rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko`ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan.

A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o`rganganlar. Shuningdek ular o`qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o`quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog`liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog`liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma`nosiz bo`g`inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esad saqlab qolishi ta`kidlagan. Kata yoshdagilar ma`nosiz bo`g`inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog`lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma`no kasb

etadi. Shuningdek ma`no anglatmaydigan materialni o`zlashtirish jarayoni tez ko`chadi, mahsuldorrog bo`ladi. Ma`nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Nemis psixologiyasida ham xotira bo`yicha turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo`lib, jumladan psixolog Vilyam Shtern bolalarda ham kattalarda ham ma`nosiga qarab tushunib o`zlashtirishga nisbatan mexanik egallash miqdori kam miqdor ekanligini ilmiy ishlari davomida aniqlab shu xulosaga kelgan.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo`lmish xotiraning kuchli bo`lishi va ko`lamining kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qolingan narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o`qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi eslab qolish ustida ko`plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qolingan materialni tushunish oson bo`ladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
2. Ibdullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;
3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014;
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya// Toshkent, 2010.

## ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШ, ЭРТА ТУРМУШ ВА ЭРТА ТУҒРУҚНИ ОЛДИНИ ОЛИШ”НИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Худайбердиева Кизлархон Садуллаевна  
Қоракўл туман 51-мактаб психологи*

**Аннотатсия:** Шахсининг ахлокий-психологик хусусиятлари ижтимоий ижобий мативасияларини ривожлантириш.

**Калит сузлар:** Концептуал, диагностика, мотивасия, компетенциялар, реабилитатсия.

Оила қуриш, фарзанд тарбияси инсон ҳаётида энг масъулиятли қадамлардан биридир. Мутахассисларнинг фикрича, ёшларнинг турмуш қуриш ёши оила мустаҳкамлигига бевосита таъсир кўрсатади. Аммо айрим ота-оналар фарзандларининг келажаги, соғлиғини ўйламай, ҳали балоғат ёшига етмаган қизини узатиш ҳаракатига тушади. Оқибатда эса...

Бугунги кунда тиббиётчилар 16-17 ёшли қизлар турмушга тайёр эмаслиги, ҳомиладорлик ва туғуруқ ҳолатида қийналиб қолаётганини айтишмоқда. Ҳар бир шифокор кўригига борган қизларга 19-20 ёшларида турмушга чиқишни, йигитларга 20-22 ёшларда уйланишни тавсия қилишмоқда. Ёшлар расмий никоҳдан ўтиш учун тўйдан бир ой олдин жойлардаги Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш (ФХДЁ) идораларига ариза топширади. Шунда уларга тиббий кўрикдан ўтиш учун йўлланма берилади. Тиббий кўрик варақаси тўлдирилган ҳолдагина фуқароларнинг расмий никоҳи қайд этилади. Келин-куёвларни тўйдан олдин мажбурий равишда тиббий кўрикдан ўтказиш талаби бежиз қўйилмаган. Чунки ёшлар яширин тарзда кечаётган бирор дардга чалинганини ўзи ҳам сезмай юрган бўлиши мумкин. Камқонлик, юрак-қон томир, буйрак хасталикларини даволамай туриб ҳомиладор бўлиш ногирон болалар туғилишига олиб келиши ҳаётда кўп бора исботланган. Хасталикларни оила қуришдан аввал даволаш осон. Давлатимиз яратаётган бу каби шароитлар соғлом турмуш тарзини шакллантириш орқали оила мустаҳкамлигини таъминлашга

қаратилган. Аммо эрта турмуш кураётган йигит-қизлар шифокор кўригидан ўтмаслиги тайин. Оқибатда эса мабодо, ирсий касаллик мавжуд бўлса, уларнинг фарзандлари хасталик билан дунёга келиши мумкин.

Ёш оилалар ажримининг асосий қисми эрта турмуш қуриш билан боғлиқ. Ота-оналар билан тушунтириш ишларини олиб боряпмиз. Тиббий кўриқдан ўтишда ҳам муаммолар мавжуд. Хорижда ишлаб бир-икки сўм топиб келган ёши катта эркакларга 16-17 ёшли қизларини кўрқмай узатаётган ота--оналарнинг борлиги кишини ажаблантиради. Ёш ва дунёқарашдаги тафовут кўп ҳолатда оиланинг бузилишига олиб келади. Биз нафақат ФХДЁга никоҳдан ўтиш учун ариза топширишга келган қизлар, балки мактаблардаги юқори синф ўқувчилари ва уларнинг ота-оналари билан “Фарзанд тарбиясида ота-оналарга ижтимоий психологик ёрдам кўрсатиш маркази” нинг ишчи гуруҳ аъзолари билан биргаликда суҳбатлар ўтказиб келаяпмиз. Бу ўз натижасини бермоқда. Бу борада ”Ўқувчи ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш ва эрта турмуш ҳамда эрта туғруқни олдини олиш” бўйича чора –тадбирлар режасини ҳам тузиб чиққанмиз. Шу чора –тадбир бўйича режа асосида қизлар мажлиси, ота-оналар йиғилиши ҳамда туман тиббиёт бирлашмаси , туман Хотин-қизлар кўмитаси, туман бош имом хатиби билан ҳамкорликда учрашувлар ,”Оила мукаддас даргоҳ”, “Қизларни эрта турмушга беришнинг салбий оқибатлари”, “Соғлом турмуш тарзи”, “Репродуктив саломатлик”, “ОИТСга қарши кураш” мавзуларида суҳбатлар олиб бормоқдамиз. Бундан ташқари, мактабда синф раҳбарлари билан биргаликда доимо жанжал бўлиб турадиган оилалар , жиноятга мойиллиги бўлган ўқувчиларнинг ота-оналари билан суҳбатлар ўтказиб келмоқдамиз. Ўтган йили шу суҳбатлар натижасида қизини эрта турмушга бермоқчи бўлган 1нафар оиланинг фикри ўзгарди. Ҳозир ўша қизлар таълим олишмоқда.

Албатта, ўтказилган тадбирлар ижобий натижа бермоқда. Лекин шу ўринда савол туғилади: оилаларда соғлом муҳитни мустаҳкамлаш, қизларни эрта турмушга беришнинг олдини олиш мақсадида хотин-қизлар кўмиталари раислари, қишлоқ ва маҳалла фуқаролар йиғинлари фаоллари, маслаҳатчилар томонидан

жойларда амалга ошириладиган кенг кўламли ишларга қарамай, нега юқоридаги каби ҳолатлар ҳамон давом этмоқда?

Мактабларда қизларга репродуктив саломатлик, ёшлар учун исталмаган ҳомиладорлик ва концератив усуллар ҳақида кўпроқ маълумот ва таълим бериш етарли даражада эмаслигини бунга асосий сабаб сифатида кўрсатиш мумкин.

Бўлажак она келгусида фарзанд тарбиясига ҳам масъуллигидан келиб чиқадиган бўлсак, ҳар бир қиз бола маълумотга эга бўлиши, касб эгаллаши, турли бадий адабиётлар мутола қилиши шарт. Чунки билимсиз, дунёқараши тор она ҳеч қачон ўз фарзандини етарли даражада тарбиялай олмайди. Педагог ва ота-оналарда болаларнинг ҳар бир ёш давридаги психик ривожланиши ҳақидаги психологик билимларни эгаллаш, бола шахси ва ақлий тараққиётида содир бўлиши мумкин бўлган ҳар қандай салбий оғишларнинг ўз вақтида олдини олишга қаратилган психологик тадбирлардан иборатдир. Психологик диагностика. Ўқувчиларни мактабда ўқитиш давомида психологик-педагогик жиҳатдан чуқурроқ ўрганишга йўналтирилган бўлиб, уларнинг индивидуал хусусиятларини, таълим ва тарбиясидаги нуқсонларнинг сабабини аниқлашга мўлжаллангандир. Ҳар бир ёш даврида боланинг шахсий ва интеллектуал ривожланишига тўлиқ шароит яратиб бериш; ҳар бир болага индивидуал ёндашиш имкониятини амалга ошириш; болани интеллектуал ва шахс сифатида ривож-ланишидаги ҳулқдаги оғишлар сабабини аниқлаб коррекцион ишларни белгилаш; ижтимоий фаол шахс шаклланишида ёрдам бериш Психологик коррекция. Психологдан инсон шахси ва индивидуаллигини таркиб топтириш жараёнига фаол таъсир ўтказишни тақозо қилади. Психологик маслаҳат. Ушбу маслаҳат доирасида ота-оналар ва ўқувчиларга шахсий, касбий ва ҳаётий муаммоларини ҳал этишга ёрдам берилади, уларни ўз психологик саломатлигини муҳофаза қилишга ўргатилади.

Соғлом фарзанд соғлом онадан дунёга келади. Туғилажак невараларнинг бахтли ва соғлом бўлиши, аввало, ота-оналар қўлида. Шунини асло унутмаслик керак.

## ЎСМИРЛАРДА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИНING КЕЛИБ ЧИҚИШINI ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯНИING ЎРНИ

*Баратова Мухтасар Набижонова*

*Норин тумани 18-мактаб психологи*

Оиладаги носоғлом психологик муҳит ва оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда таълим жараёнида кузатилаётган нуқсонлар, болалар ва ўсмирлар яшаётган маҳаллалар ҳаёти, уларнинг психологик муҳити вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди. Маълумки, объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа- ҳодисалари ўсмирнинг онги, хоҳиш иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши, шахс сифатида шаклланиш ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Маълумки, вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқиши ва ижтимоий муҳит ўртасида ўзига хос таъсир доираси мавжуддир. Ушбу ўзаро таъсир механизми назаримизда уч хил кўринишда намоён бўлади. Биринчидан, носоғлом ижтимоий муҳит билан шахснинг ўзаро алоқалари ўсмирларда ижобий қарашларнинг салбийлашувига олиб келса, иккинчида шахс ва носоғлом ижтимоий муҳит ўртасидаги ўзаро алоқа кишига ижтимоий меъёрларга тўғри келмайдиган муайян йўл-йўриқни, хусусан ғайриқонуний вазифаларни бажариш бўйича ролларни тақсим этади. Учинчидан эса ғайриқонуний йўл-йўриқлар ва роллар тақсимоли ўсмирда аста-секин ижтимоий муҳит талаб ва меъёрларига нисбатан деформациялашувнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Ушбу деформациялашув шахс хулқида ўзига хос ўзгаришларни келтириб чиқаради. Шунинг учун ҳам хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг аксарият қисми ижтимоий муҳитга нисбатан деформациялашув поғонасида бўладилар. Ўсмирларда ижтимоий муҳитга нисбатан бўлган мослашишнинг издан чиқиши ва уларда ижтимоий мавқенинг мавжуд эмаслиги ёки тусатдан йўқолишлиги (мактабдан ҳайдалиш, оилада носоғлом муҳитнинг мавжудлиги, ишидан, яқин кишисидан маҳрум бўлиш) ўз

навбатида ноқонуний, ноахлоқий хулқнинг шаклланишига олиб келади. Яъни, турли хил ғайриқонуний, ноахлоқий гуруҳларга қўшилиш, референт гуруҳларнинг ташкил этилишига сабаб бўлади. Шу боисдан жиноятчилик кўчасига кира бошлаган ўсмир кўпинча мактабни ташлайди, ўзича ишга кирмоқчи бўлади, кўпчилиги эса умуман фойдали машғулот билан шуғулланмайдилар. Кузатишларимизга қараганда, хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг аксарият қисми ижтимоий фойдали машғулотларда қатнашмайди, газета, журнал ёки бадиий адабиётлар ўқишмайдилар. Ўқиганларида ҳам ўзига хос қизиқишлар (расмлар, суд материаллари, эълонлар ва бошқалар) билан чекланадилар. Уларда театрда тушиш, дарслик ва бадиий китоблар ўқиш бўйича кўрсатгич даражаси анча пастдир. Аммо кинотеатр, видеобар, дискотекларга қатнашиш даражаси анча юқорилиги кузатилади. Ушбулардан кўринадикки, ижтимоий фойдали машғулот билан шуғулланиш, китоб, газета ўқиш, театрларга бориш ўсмирларда ижтимоий фойдали, ижобий позицияларнинг ва установкаларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Аксарият ҳолларда эса болалар ва ўсмирлар хулқида салбий позиция ва установкаларнинг шаклланишига имконият яратилади. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ва шарт-шароитларнинг ўсмирларга таъсир этиши улар хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Агарда ижтимоий муҳитдаги воқеа-ҳодисалар ва шарт-шароитлар ўсмирга ижобий таъсир этса ўсмир хулқида ижобий хислатлар, аксинча, ҳолатларда эса салбий хислатлар, ғайриқонуний установкалар (йўналиш, мойиллик) шаклланади. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг ижтимоий муҳити соғлом хулқли болалар ва ўсмирлар ижтимоий муҳитидан ўзига хос тор доирадаги дунёқарашга эгаллиги, низоли вазиятлар доирасининг кенглиги, қатъий ҳаётий позициянинг, келажакка нисбатан ижобий қараш, мақсад ва интилишларнинг йўқлиги ва шу каби бир қатор жиҳатлар билан фарқланади. Қуйида биз ушбу жиҳатларни кенгроқ таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз. Кузатишларимизга қараганда, хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг хатти-ҳаракатлари оила аъзолари томонидан қўллабқувватланиши ва уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатига оила аъзолари ва яқинлари томонидан ижобий муносабат билдирилади. “Бундай иш қилма”,



“қилаётган ҳаракатинг ноқонуний”, дейиш ўрнига ота-она ва атрофдагилар уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатларини маъқуллашади ёки унга эътибор беришмайди. Натижада ўз ноқонуний ҳаракатининг маъқулланишини ҳис этган ўсмир яна бошқа бир ноқонуний ҳаракатга қўл уради. Оқибатда салбий хулқатвор ўсмирнинг бутун фаолиятини, онгини қамраб олади. Қолаверса, ўз ноқонуний ҳаракатларининг жавобсиз қолишини, катталар томонидан маъқулланишини ҳис этган ўсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги билади. Бу эса ўсмирга янги-янги ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради. Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига баъзан сабаб бўлиши мумкин. Хусусан, оилада қаҳр-ғазаб асосидаги ота-она муносабати болаларни уйдан бездиради. Уйдан бешиш, оила муҳитини тан олмаслик ўсмирларда оилавий муҳитга нисбатан мослашишнинг издан чиқишини келтириб чиқаради. Натижада ўсмир оиладан ташқари кўча муҳитини ўзига маъқул кўради. Кўча муҳити эса баъзан криминал мазмунга эга бўлиши мумкин. Натижада ноахлоқий ва ғайриқонуний хулқ-атвор муҳитига тушиб қолган ўсмирда хулқ оғишининг келиб чиқиши учун имконият яратилади. Ота-оналарнинг фарзандлари ҳаёти ва фаолияти билан қизиқмасликлари, уларни назоратсиз қолдиришлари, кўпинча ўсмирни ғайриқонуний хулқ-атворга эга бўлган болалар ва ўсмирлар сафига қўшилиб кетишга олиб келади. Шунинг учун ота-оналар фарзандларининг айниқса, ўсмирлик ёши давридаги фаолиятларини, бўш вақтларида нималар билан шуғулланаётганликларини домий равишда назорат қилиб боришлари мақсадга мувофиқдир. Қолаверса, ўсмирлик ёши давридаги психофизиологик ўзгаришлар ва ўтиш даври хусусиятлари бу ёш ота-оналар ва катта ёшдаги кишиларнинг ўзига хос алоҳида эътиборини талаб қилади. Оилада ота-оналарнинг бу ёшдаги ўсмирларга нисбатан бўладиган эътиборсизликлари, тарбия шундай берилиши керак деб, қарашлари болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига имконият яратади. Шунингдек, оиладаги авторитар, ҳаддан ортиқ қаттиққўллик асосидаги муносабат ҳам болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб

бўлганлиги кузатилади. Маълумки, оила ижтимоий институт сифатида ҳозирги пайтда бир қатор ўзгаришларни бошдан кечирмоқда. У бугун жуда кўплаб таъсирлар қуршовида қолмоқда. Хусусан, иқтисодий инқироз, ижтимоий, маданий, маънавий ва ҳуқуқий мазмуннинг сусайиши, оилавий ажримларнинг кўпайиши ва бошқалар оилавий тарбия таъсирчанлигининг сусайишига олиб келмоқда. Булар ўз навбатида оилавий муҳитнинг бузилишига, фарзандлар тарбиясидаги нуқсонларнинг келиб чиқишига замин яратмоқда. Оқибатда оилавий муҳитга, оилавий тарбияга боғлиқ бўлган муаммолар ортиши кузатилмоқда. Оилаларда носоғлом психологик муҳитнинг мавжудлиги оилавий муносабатлар ноҳушлиги, оилавий ажралишлар, ота-оналардан бирини йўқлиги, оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда оиланинг тарбиявий таъсир кучини пасайиши болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва ҳатто, жиноятчилик хулқининг келиб чиқишига таъсир кўрсатади. Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, хусусан юртимизда кечаётган ислохотлар, бозор муносабатларига ўтиш, кишиларда кундалик турмуш ташвишларига барҳам бериш, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қараш лаёқатининг етишмаслиги ва шу қабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг биров сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандлари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда. Шу боисдан юртимизда оиладан ташқарида фарзандлар камолоти, тарбияси билан машғул бўладиган турли хил машғулотларга, (спорт, касб-ҳунар) тўғаракларга нисбатан бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, бу борада мамлакатимизда олиб борилаётган тадбирлар мақтовга сазавордир. Жойларда фойдаланишга топширилаётган спорт иншоотлари, замонавий талабларга жавоб берадиган таълим масканларининг бунёд этилиши, ёшларимизнинг бўш вақтларида шуғулланишлари учун турли хил тўғаракларнинг барпо этилиши бу йўналишда амалга оширилаётган ишларнинг намунасидир. Аммо бу соҳада ҳали қилинадиган ишлар ҳам бисёрдир. Оилада етарлича тарбия кўрмаган болалар турмуш қийинчиликларидан қоқилади. Турли хил низоли вазиятларга дуч келади. Тарбиясизлик ўсмирни яхши ўртоқларидан, давралардан айиради. Оқибатда ўсмир

учун бирдан-бир йўл носоғлом хулқли ўсмирлар даврасига қўшилиб кетиш бўлиб қолади. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омиллардан яна бири оилавий тарбияда приметив (эскирган, номаъкул) усуллардан фойдаланиш ҳисобланади. Бундай тарбия усулида тарбия ўта қаттиққўллик, авторитар, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмаслик асосида олиб борилади. Бундай усулда болаларни тарбиялашнинг нотўғри эканлигини бугун ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Чунки бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақлан етук ёшлардир. Оқибатда ўзига маъкул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қилади. Бу муҳит ўзининг характериға кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин. Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларға кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

Маълумки, ўсмирлик (12-14 ёш) даврида кескин психофизиологик ўзгаришлар содир бўлади. Ушбу ўзгаришлар кўпинча ўсмир руҳиятиға ҳам таъсир ўткази. Бу ўсмирда тажанглик, серзардалик, инжиқлик, таъсирланувчанлик ҳолатларининг келиб чиқишиға сабаб бўлади. Ўсмир руҳий дунёсида пайдо бўлган бундай ўзгаришлар балоғат даври ўтиши билан бир меъёрга келиб қолади. Шунинг учун балоғат ёши даврида ота-оналар ўсмирлар тарбиясига алоҳида эътибор беришлари, уларда кечаётган психофизиологик ўзгаришларни ҳисобға олишлари мақсадға мувофиқдир. Кўпинча оилавий тарбияда болаларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларининг инобатға олинмаслиги уларнинг нотўғри, ёмон йўлларға кириб кетишларига сабаб бўлади. Шу боисдан ота-оналар оилавий тарбияда, фарзандлари билан бўладиган шахслараро муносабатларда, улар билан муомала қилишда шахс ва ёш даври хусусиятларини ҳисобға олган ҳолда иш тутсалар оилавий тарбиянинг самараси юқори бўлишлигини таъминлаган бўлур эди. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқишиға таъсир этувчи оилавий тарбияға боғлиқ бўлган омиллар орасида отаоналарда фарзандлар тарбиясига доир билимларнинг етарли эмаслиги ҳолати ҳам яққол кўзға ташланади. Оилада ота-оналар кўпинча фарзандлари бирон бир ёмон иш қилиб қўйса, уни қаттиқ жазолаш, тақиқлаш ва уларни уйдан чиқармай қўйиш

усуллари орқали тарбияламоқчи бўладилар. Фарзанди ўзларига ёқадиган ишга қўл урса уни ҳаддан ортиқ мақтайдилар ва мукофотлайдилар. Ўзлари қўллаётган усулларни қай бири тўғри, қай бири нотўғри эканлигини англаб етмайдилар. Ўзларича тарбия шундай берилади, деб ўйлайдилар. Натижада ўзлари билмаган ҳолда болаларининг тарбиясига салбий таъсир кўрсатадилар. Шунинг учун отаона энг аввало, оилада болаларни тарбиялаш тўғрисидаги назарий ва амалий билимларга эга бўлиши лозим бўлади. Бунинг учун эса улар тарбия тўғрисидаги педагогик ва психологик китобларни, газета ва ойномаларни кўпроқ ўқишлари зарур бўлади. Ушбулардан кўринадики, ота-оналарда тарбия борасидаги билимларнинг етишмаслиги, тарбия жараёнида миллий кадриятлар, урф-одатлар ва расмрусумларимиздан фойдаланмаслик болалар тарбиясининг бузилишига, уларда турли хил хулқ оғишларининг келиб чиқишига олиб келади. Тадқиқотларимиз натижаларидан маълум бўлишича, оилада болалар тарбиясида қарияларнинг иштирок этмаслиги ҳолати ҳам болалар тарбиясига салбий таъсир кўрсатади<sup>3</sup>. Ахир халқимизда «қариси бор уйнинг – париси бор», деб бежиз айтилмаган. Қарияларнинг биринчидан, деярли уйда бўлишликлари болалар билан доимо мулоқотда бўлишга, улар фаолиятини доимо назорат қилиб туришга олиб келса, иккинчидан улардаги ҳаётий тажрибанинг кўплиги болалар тарбиясида муҳим ўрин тутди. Кузатишларимизга қараганда, оилаларда ота-она ҳамда фарзанд ўртасидаги муносабатларда ҳам ўзига хос самарасиз усуллардан фойдаланилаётганлиги кўзга ташланмоқда

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. С.Х.Таджиева, Д.Ғ.Сабирова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б
2. Ғозиев Э.Ғ. Ўқувчиларнинг умумлаштириш усулларига ургатиш ва уларнинг аклий тараккиёти. Т., "кит" 1983 й.
3. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154

4. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2-е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

## ТАЪЛИМ ТИЗИМИ -ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КАДРЛАР СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ТАЪСИРЧАН ВОСИТАСИ СИФАТИДА

*Н.А.Ортиқова*

*Кўқон давлат педагогика институти катта ўқитувчиси (PhD)*

**Аннотация.** Мақолада таълим тизимининг Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини амалга оширишдаги ўрни ва аҳамияти, ривожланган демократик давлатларда таълим тизимининг бошқарув органларига кадрлар етиштириб беришдаги ўзига хосликлари ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** таълим тизими, бошқарув салоҳияти, сиёсий иерархия, лидер ёшлар, бошқарув профессионализи, лидерлик қобилияти, тизимли фикрлаш салоҳияти, ўзгаришларга мослашувчанлик.

**Аннотация.** В статье освещаются роль и значение системы образования в реализации кадровой политики в Республике Узбекистан, особенности подготовки кадров для руководящих органов системы образования в странах с развитой демократией.

**Ключевые слова:** система образования, управленческий потенциал, политическая иерархия, лидерская молодежь, управленческий профессионализм, лидерские качества, потенциал системного мышления, гибкость к изменениям

**Annotation.** The article highlights the role and importance of the education system in the implementation of personnel policy in the Republic of Uzbekistan, the features of training personnel for the governing bodies of the education system in countries with developed democracies.

**Key words:** education system, managerial potential, political hierarchy, leadership youth, managerial professionalism, leadership qualities, systemic thinking potential, flexibility to change

Дунёнинг деярли барча минтақаларида таълим тизими сиёсий иерархиянинг юқори чўққиларига кўтарилишнинг таъсирчан воситаси ҳисобланади. Айрим давлатларда сиёсий элита шаклланишида таълим тизимининг аҳамияти шунчалик улканки, элитага танлаш тизимлари билан таълим тизимининг ўхшашлиги ҳақида хулоса чиқариш мумкин. Public school категориясидаги мактаблар мамлакат бўлажак раҳбарларини тайёрлаш тизимининг муҳим бўғинлари ҳисобланади. Гарчи бундай мактабларда барча ўқувчиларнинг 5% га яқини таҳсил олса-да, айнан шу мактаблар сиёсий элитани шакллантирувчи бирламчи каналлар саналади. Итон, Винчестер, Регби, Харроу каби мактаблар энг нуфузли таълим масканларига айланган. Юқори даражадаги ворисийлик улардан айримларига хос. Масалан, Итон ўқувчиларининг учдан икки қисмини шу мактаб собиқ битирувчиларининг фарзандлари ташкил этади. Айни пайтда, мактаб битирувчиларидан ўн саккиз киши бош вазир даражасигача кўтарилган.<sup>4</sup> Кембриж ва Оксфорд коллежлари ҳам элитани шакллантириш тизимининг муҳим бўғини саналади.

Францияда таълим тизими элитани шакллантириш омили, олий бошқарув тузилмаларига кадрларни илгари суришнинг устувор канали сифатида тан олинган. Махсус нуфузли институтларда ўқишга даъвогарлар кириш имтиҳонлари жараёнида мураккаб танловдан ўтказилиб, сараланади. Тегишли ўқув даргоҳига (масалан, Маъмуриятчилик миллий мактабига) ўқишга кириш бошқарувчиларнинг олий қатлами таркибига кириш ва давлат бошқаруви аппаратида обрўли лавозимни эгаллаш имконини беради. Айни пайтда, Францияда сиёсий элитага танлов вақт нуқтаи назаридан чегараланган бўлиб, даъвогарга деярли бир марта бахтини синаш имконияти берилади, имтиҳондан ўта олмаганларга қайта топшириш имконияти берилмайди. Шундай қилиб, элитага кириш истагида юрган кишининг тақдири

---

<sup>4</sup> Политология. Под общ.ред. В.С.Комаровского. -М.: Изд-во РАГС, 2006. – С. 390.

анча ёш вақтида – мактабни тугатиб, олий ўқув даргоҳига кириши даврида ҳал қилинади. Бунда давлат хизмати нуфузли ва шарафли саналади.

Бизнинг мамлакатда, хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 февралдаги «Президент мактабларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4199-қарори асосида дастлаб Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида Президент мактаби ташкил қилинди. Президент мактаби ихтисослаштирилган давлат умумтаълим муассасаси ҳисобланиб, унинг фаолияти юқори малакали мутахассислар тайёрлаш учун иқтидорли болаларни аниқлаш ва ўқитишни таъминлашга қаратилган. Президент мактабларида бепул умумий ўрта таълим берилади.

Президент мактабларини ташкил этишдан кўзланган асосий мақсад таълим жараёнида илғор технологияларни қўллаш орқали иқтидорли болаларни аниқлаш ва ўқитиш тизимини шакллантириш, шунингдек, иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, маънавий бой ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш кафолатларини таъминлашдан иборат. 2019 йилда Президент мактаб-интернатлари Тошкент, Хива, Нукус ва Наманганда очилди<sup>5</sup>.

Мамлакатимизда истиқболли бошқарув кадрларининг тизимли асосда танлаб олинишини таъминлаш, шунингдек, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари, бошқа давлат органлари ва ташкилотлари тизимида уларнинг касбий малакасини узлуксиз ошириб боришга кўмаклашиш мақсадида 2018 йил 30 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилинган бўлиб, унга мувофиқ “Тараққиёт” республика танловини эълон қилиш ва ўтказиш бўйича бир қатор ишлар олиб борилди. Хусусан:

Танловда иштирок этиш учун махсус веб-порталда ([www.taraqiyot-tanlov.uz](http://www.taraqiyot-tanlov.uz)) Республикамиз бўйича 8334 нафар талабгор танловда қатнашиш учун рўйхатдан ўтди ва сўровнома тўлдирди. Сўровномалар танлов номинациялари бўйича шакллантирилган ишчи гуруҳлар томонидан ўрганиб чиқилди. 4509 нафар

<sup>5</sup> Президент мактаблари расмий сайти. <https://pm.piima.uz>.

иштирокчи танловда қатнашиш учун белгиланган талабларга жавоб бермаслиги аниқланди, 3825 нафар иштирокчи эса, танловда иштирок этишга тавсия этилди.

Танловнинг 1-тур онлайн тест босқичи натижаларига кўра 2455 нафар, 2-тур онлайн тест босқичи натижаларига кўра эса 1356 нафар иштирокчи навбатдаги босқичга тавсия этилди.

2018 йилнинг 16 декабрь куни танловнинг ахборот-таҳлилий материал (доклад) тайёрлаш босқичи ўтказилди. Босқич натижаларига кўра, қарорга мувофиқ 300 нафар иштирокчи танлаб олинди. Улар навбатдаги босқичга тавсия этилди.

2019 йилнинг 2 март куни иштирокчилар учун ташкилотчилик қобилияти ва бошқарув салоҳиятини аниқлаш бўйича ёзма тест синови ўтказилди. Мазкур босқич натижасига кўра, қарор асосида 150 нафар иштирокчи танловнинг финал босқичида иштирок этишга тавсия қилинди.

Танловнинг финал босқичи 2 кичик босқичдан иборат бўлиб, 1-кичик босқичида номзодлар гуруҳларда муаммоли вазият (кейс)ларни муҳокама қилиб ҳал этиши, 2-кичик босқичида эса ҳар бир номинация бўйича Танлов комиссиялари билан яқка тартибда суҳбат ўтказилиши назарда тутилган.

2019 йилнинг 9-16 март кунлари танловнинг финал босқичи ўтказилди. Танловнинг финал босқичида баҳолаш мезонлари сифатида қуйидаги компетенциялар белгиланди: бошқарув профессионализи, лидерлик қобилияти, тизимли фикрлаш салоҳияти, ўзгаришларга мослашувчанлик.

Ғолибларни аниқлашда танлов комиссиялари таркибида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Администрацияси масъул ходимлари, Давлат бошқаруви академияси профессор-ўқитувчилари ҳам иштирок этди. Танловнинг якуний босқичи натижасига кўра, 50 нафар ғолиб ва 100 нафар финалчи аниқланди.

Танлов ғолиблари тегишли йўналишлар бўйича давлат ташкилотларида раҳбарлик лавозимларига тайинланади. Шунингдек, улар эндиликда танловнинг тегишли номинациялари бўйича ривожланган хорижий мамлакатларнинг соҳага оид ташкилотларида малака оширади. Финал босқичининг қолган иштирокчилари тегишли давлат ташкилотларининг бошқарув кадрлари захирасига киритилади.



Қолаверса, иш билан таъминланганидан сўнг, танловнинг тегишли номинациялари бўйича ривожланган хорижий мамлакатларнинг соҳага оид ташкилотларида малака оширади<sup>6</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан Тошкент шаҳридаги ҳақиқий лидер ёшлар ва ёш давлат фуқаролик хизматчилари учун «Келажак лидерлари» клуби фаолияти йўлга қўйилмоқда.

Клуб аъзолиги учун ҳужжат топширган номзодлар 4 босқичли очик танлов орқали сараланади:

1-босқич: Ҳужжатлар кўриб чиқилади (*танловга 20-35 ёшли олий таълим муассасалари талабалари ҳамда давлат органлари ва ташкилотларининг ёш ходимлари ҳужжат топшириши мумкин*);

2-босқич: Тест синовлари («Келажак лидерлари» платформасида тест топширилади);

3-босқич: Ёзма иншо;

4-босқич: Сухбат.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.10.2019 йилдаги ПФ-5843-сон Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида<sup>7</sup>ги Фармони янги авлод кадрларини етиштиришда яна бир муҳим қадам бўлди.

Мазкур Фармонда Давлат фуқаролик хизмати самарадорлигини ошириш, давлат органлари ва ташкилотларининг малакали кадрларга бўлган эҳтиёжини қондириш, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар [стратегиясида](#) ва Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясида белгиланган вазифаларни изчил амалга ошириш мақсадида давлат фуқаролик хизматчиси лавозимини эгаллаш, давлат фуқаролик хизматчиси фаолиятини тартибга солувчи қонун

<sup>6</sup> Қаранг <https://strategy.uz/index.php?news=611>

хужжатлари, давлат фуқаролик хизматини янада такомиллаштириш ва ислох қилишнинг устувор йўналишлари белгилаб берилди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Политология. Под общ.ред. В.С.Комаровского. -М.: Изд-во РАГС, 2006. – С. 390.
2. Президент мактаблари расмий сайти. <https://pm.piima.uz>.
3. Ортиқова Н.А. Theoretical foundations of political elite and democracy // Научно-методический и теоритический журнал Самарский государст-венный социално-педагогический университет Социосфера. – Саратов, 2018. – № 4. – С 233-238. (23 .00.00)
4. Ортиқова Н.А Элита и демократия: теоретический анализ // Interdisciplinary scientific journal «Paradigmata poznání». – Прага, Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2019/2. – С 34-39. (23 .00.00. № 17)
5. Ортиқова Н.А. Elections are an important mechanism for forming a professional political elite // An International Multidisiplinary Research Journal Academicia. – India, 2020. – Vol.10. Issue 6, June. – P. 1143-1148 .
6. Ортиқова Н.А. Политическая элита – как научная проблема // Консенсус халқаро журнали. Том 2 № 1 (2021), – С . 49-55.
7. Ортиқова Н.А. Challenges to shape political elite // Materials of the VI international scientific conference “Modern philosophic paradigms: Interrelation of the traditions and innovative approaches”. – Prague, on March 3-4, 2019. – Б.17-22.
8. Ортиқова Н.А. Formation Systems Of Political Elite: Essence, Peculiarities And Advantages // Psychology and Education (2021) 58(2). – P. 8031-8037. (Scopus. Q 4.)
9. Ортиқова Н.А. Theoretical Sources Of The Concept Of The Political Elite: A Comparative Analysis.// Palarch’s Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology 18(7) (2021). – P. 1953-1961. (Scopus. Q 3.)

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR PSIXIKASIGA UMUMIY TUSHUNCHA

*Qurbonova Nasiba*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*

*18-sonli umumta'lim maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Maktab ta'limiga bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan munosibligi haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zi:** Kichik maktab yoshi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik.

Odatda kichik maktab yoshi davriga 6 yoshdan 10 (11) yoshgacha bo'lgan boshlang'ich sinf (I-IV) o'quvchilari kiritiladi. Lekin bu yosh davrga ajratish printsipti qat'iy va mutlaq degan fikr emas, albatta. Chunki, xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi, buning uchun u, dastavval ta'lim-tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi, undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologik - jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb etilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik deganda, bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan munosibligi, bilish jarayonlari bilan shaxs xususiyatlarining o'zaro mutanosibligi nazarda tutiladi. O'quvchi maktab ta'limiga keng ma'noda psixologik jihatdan ob'ektiv tayyor bo'ladi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada taraqqiyot bosqichiga erishadi. Ushbu yoshdagi bola o'z idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, uning qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi o'quvchilardan (jumladan, o'smirlardan) ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlik ko'rayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli ravishda barqaror ko'rinishga ega, deb hisoblash mumkin. Diqqatning xususiyatlari (taqsimlanishi, ko'chishi, kuchi, barqarorligi, bo'linishi, tebranishi va boshqalar) uning roli va syujetli o'yin faoliyatlarida, rasm chizish

va ko'rish, yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan narsa yasashda, katta yoshdagilar va tengqurlari nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni bajarishda, hikoya tinglash hamda shaxsan o'zi ham tuzishda bevosita namoyon bo'ladi. Bu davrga kelib, bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga, narsa va hodisalarga yo'naltirishga, to'plashda va uni mustahkamlashda hamda taqsimlashda ma'lum darajada ko'nikmani egallagan bo'lib, o'z diqqatini boshqarish, zarur paytda, uni shaxsan tashkil qilishga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli ajoyibotlarga, g'aroyibotlarga boy, voyaga yetgan kishini taajjubga soladigan ma'lumotlar va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga egadir. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni egallab kelgan bo'lsa, endi u o'z xohish irodasi bilan, muayyan motivatsiyaga asoslangan holda zarur ma'lumotlar olishga, o'z oldiga yaqqol maqsad va aniq vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning muayyan taraqqiyot darajasiga erishganligini uning xotirasi faolligi namoyish qiladi. U o'zining uncha boy bo'lmagan shaxsiy tajribasiga asoslanib, she'r, hikoya, ertaklarni esda qoldirish uchun ularning takrorlanganligi, yod olishning qulay yo'l va usullaridan foydalanganligi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Demak, u o'qish, idrok qilish, o'zlashtirish texnikasi bilan yaqindan tanishishga erishadi.

Birinchi sinf o'quvchisi, ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyangan holda bilish faoliyatini (kognitiv holatni) tashkil etsa ham, biron bir narsa xotiraning boshqa turlarini sira istisno qilmaydi, balki aksincha, ta'lim shaxsdan so'z-mantiq xotirasini taqozo qiladi, ijodiy produktiv yo'l bilan bilimlarni egallashni talab etadi, So'z-mantiq xotirasining mavjudligi matnning ma'nosiga tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligini orttirishga keng imkoniyat yaratadi. Tajribalardan shu narsa ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra, ko'proq ma'nodor ilmiy tushuncha hamda atamalarni yaratish, tuzish va mustahkamroq esda olib qolish xususiyatlarga ega. Uning nutqi ta'limga tayyorgarlik ko'rish bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, o'zgalar fikrini uqib olish va uni maqsadga muvofiq to'g'ri idrok qilish darajasiga to'la javob bera oladi. Bola nutqining tuzilishi milliy til grammatikasi qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, rang-barang tushunchalarga boy, miqdor va ko'lam jihatdan har qanday odam bilan fikr almashish, muloqotga kirishish uchun mutlaqo etarlidir.

O'quvchi o'zi eshitgan narsalarini, voqelik to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuna oladi, o'zida mavjud bo'lgan axborotlarni (taassurotlarni) muayyan tartib bilan bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan (narsalarni taqqoslaydi, yaqqollashtiradi, guruhlarga ajratadi, hukm chiqaradi) o'rinli foydalanadi.

Yirik chet el va sobiq sovet psixologlari (J.Piaje, A.Vallon, J.Bruner, L.V.Zankov, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, V.V.Davidov, A.Sh.Amonashivili, S.F.Juykov va boshqalar) tadqiqotlarining ko'rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur'atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishga, ro'yobga chiqishga yordam beradi. Chunonchi, bolalar matematik, fizik, lingvistik, politexnik tushunchalarini o'zlashtiradilar, mustaqil ravishda uncha murakkab bo'lmagan masalalar, misollar tuzadilar, oddiyroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.

Yuqorida yuritilgan mulohazalarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalarning psixologik tayyorgarlik darajasi ta'limni muvaffaqiyatli uddalash, amalga oshirish uchun mutlaqo kafolot bera oladi. Bu o'rinda uning shaxsiy xususiyatlari shakllanganligi yuzasidan ham ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Bolada shaxsning bir qator fazilatlari va xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi; qat'iylik, nisbiy mustaqillik, o'z oldiga maqsad qo'ya olishlik, xulq-atvorni ijtimoiy jamoatchilik nuqtai-nazardan baholashga intilishlik, ahd-paymonga sodiqdik, kattalarni hurmat qilishlik, va'daga vafo qilishlik, burch va javobgarlik hislari kabilar. Shuning bilan birga maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rayotgan bola o'z his-tuyg'usi va ichki kechinmalarini boshqarish uquviga egadir, hatto u o'z-o'ziga, o'z qilmishlari, nojo'ya xatti-harakatlari, o'rinsiz luqma tashlaganligi, ixtiyorsiz o'shshayganligi uchun baholi qudrat o'z munosabatini bildirishi mumkin. Ta'kidlab o'tilgan barcha mulohazalar, sharhlar, tavsiflar maktab ta'limiga psixologik tayyorlikning asosiy omillari, shuningdek, eng muhim shart-sharoitlari bo'lib hisoblanadi.

Bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlikning sub'ektiv tomoni ham mavjuddir. Bola maktabda o'qish xohishi, intilishi, predmetlarga qiziqishi, ishtiyoqi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishning istagi mazkur tayyorlik bilan uzviy bog'liqdir. Unda bu davrga kelib o'qish, bilim olish yuzasidan turli tasavvurlar

shakllanadi. Shuning uchun u maktab jamoasining barcha a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini e'tirof etadi va ularga itoatkorlik tuyg'usi, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyillik tug'iladi. Lekin bolalarning barchasi bu narsaga bir tekis munosabatda bo'ladi, deb bo'lmaydi, shu boisdan ular o'rtasida individual farq vujudga keladi.

Shuning bilan birga o'quvchilarning akalari va opalarining maktabdagi "mash'um kechinmalar va vaziyatlar" to'g'risidagi noxush axborotlari, kino va teleekrandagi maktab hayotiga bag'ishlangan filmlardagi, kompyuterdagi vaziyatlar o'zaro umumlashgan tasavvur obrazlarini yaratib, bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. O'qishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan bolalar ta'lim muhitiga kirishishga qiynaladilar; qator ruhiy to'siqlarga duch keladilar, buning natijasida yangi vaziyatga va jamoaga, notanish odamlarga moslashish juda og'ir kechadi.

---

## O'QUVCHILARNING ANATOMIK-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Jo'raqulova Shalola*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*

*18-sonli umumta'lim maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining anatomik- fiziologik xususiyatlari haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zi:** Bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlari. Qo'zg'alish va tormozlanish. Ta'lim va bola.

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlarini, jismoniy rivojlanish darajasini, sog'ligi va qolaversa nuqsonlarini hisobga olish o'qishning muvaffaqiyat garovidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi biologik jihatdan nisbatan bir tekis taraqqiy etadi, uning bo'yi va og'irligi, o'pkasining hajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq o'quvchining suyak tizimi (ko'krak qafasi, tos, qo'l suyaklari), umurtqa pog'onasida hali tog'aysimon to'qimalar uchraydi,

bu esa mazkur tizimning yetarli darajada takomillashib bo'lmaganligidan darak beradi. Yurak muskullari ularda tez o'sadi, qon tomirlarining diametri sal kattaroq bo'ladi, miyaning og'irligi boshlang'ich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi. Miya po'stining analitik-sintetik faoliyati takomillashadi, qo'zg'alish bilan tormozlanish o'rtasidagi o'zaro munosabat (muvozanat) o'zgaradi, lekin qo'zg'alish nisbatan ustunlikka ega bo'ladi, shuning uchun o'quvchining to'g'ri o'sishiga g'amxo'rlik qilish, toliqishning oldini olish zarur, o'qish va dam olish rejimiga qat'iy rioya qilish ma'qul.

Maktab ta'limi uning turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o'zgartiradi, bolaning asosiy vazifasi o'qishdan iborat bo'lib qoladi. Yangi bilim, ko'nikma, malakalar egallashdan tabiat va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtira boshlaydi. Ta'lim o'quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo'r berishlikni, faollikni, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o'rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi. O'quvchi tengdoshlari bilan birgalikda muayyan bir sinf jamoasiga birlashtiriladi. Modomiki shunday ekan, sinf jamoasi va uning a'zolari bola oldiga ko'pchilik manfaatini himoya qilish, shaxsiy istaklarini umumjamo'a intilishlariga bo'ysundirish, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasini qo'yadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib, murakkablashib boraveradi.

Maktab ta'limining dastlabki kunidan boshlaboq kichik maktab yoshidagi bolaning taraqqiyotini harakatga keltiruvchi, kuch vazifasini o'tuvchi turli xususiyatga ega bo'lgan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtilof kabilar vujudga keladi. Ushbu holat va vaziyat zamirida o'quvchi shaxsiga, uning bilish jarayonlariga nisbatan o'quv faoliyati, o'qituvchilar va sinf jamoasi tomonidan qo'yilayotgan talablar bilan bolaning psixik kamolot darajasi va undagi mavjud insoniy fazilatlarini o'rtasidagi qarama-qarshilik yotadi. Talabning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi va bu narsa boshi berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida inson taraqqiyotida amalga oshadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining muhim xususiyatlaridan biri — bu undagi o'ziga xos ehtiyojning mavjudligidir. Mazkur ehtiyoj o'z mohiyati bilan muayyan

tartibdagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lmasdan, balki faqat o'quvchi bo'lish istagining aynan o'zidan iboratdir. Bu ehtiyoj zamirida o'qishning tashqi alomatlari (atributlari), chunonchi, forma kiyish xohishi, o'z shaxsiy portfeliga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usi kabilar yotadi, xolos. Bundan tashqari, bilimlar kunidagi (I sentyabrdagi) shodiyona ayyom, o'quvchilar safiga qabul qilishlik lavhasi, maktab ma'muriyati va o'qituvchilarning ularga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari birinchi sinf sub'ektlari his-tuyg'usiga ilk ta'sir etadi. Sinf a'zolari bilan qatorlashib, saf tortib yurishlar, yoppasiga o'yin faoliyatida qatnashish va oshxonaga birga borish, o'qituvchining (qabul qilib olgan) o'g'itlari ham ularni o'ziga rom qiladi.

Lekin kichik maktab yoshidagilar o'qishning tub mohiyatini va vazifasini tushunib etmaydilar, shuning uchun umumiy tarzda hamma maktabga borishi kerak, deb tasavvur etadilar. Vaholanki, o'quvchi o'qish ijtimoiy zaruriyat ekanligini anglab yetmasligi barchaga ayondir, biroq kattalarning ko'rsatmalariga amal qilgan holda tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketishlik real voqelikdir.

Darslar boshlanib ketgandan keyin oradan ma'lum muddat o'tgach, shodiyona lahzalar taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi, ichki belgilari o'z ahamiyatini yuqota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat ekanligini (irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsasi bilan shug'ullanish, diqqatni taqsimlash, o'z xulqini idora qilish zaruriyatini) o'quvchi anglab etadi. Agarda o'quvchi shunga o'xshash aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, u holda o'qishdan ko'ngli soviydi, umidsizlanish tuyg'usi, hissi vujudga keladi. Shuning uchun o'qituvchi bunday holning oldini olish maqsadida bola bilan ta'limning o'yin faoliyatidan farqi, qiziqarliligi yuzasidan ma'lumot berishi va shu faoliyatga uni puxtaroq, jiddiyroq tayyorlashi maqsadga muvofiq. Bu bilan o'qituvchi borliqni bilishga nisbatan jiddiy munosabatni ularda ehtiyoj sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining dastlabki natijalari uning boshqa materillarni egallash sari yetaklaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat faoliyati mahsuli shodlik, quvonch va amaliy (lazzatlanish) his-tuyg'usini keltirib chiqaradi. Hatto



ayrim o'quvchilar u yoki bu ob'ektni, mavzuni bir necha marotaba o'qishni ham yoqtiradilar. O'qish faoliyatiga nisbatan qiziqish, moyillik keyinchalik predmetning mazmuniga qiziqishni vujudga keltiradi, balkim bilim olish ehtiyojini tug'diradi, qolaversa unda o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy aloqadordir. Ushbu his o'qituvchining rag'batlantirishi orqali namoyon bo'ladi, yanada samaraliroq ishlash mayli, xohishi, istagi, ishtiyoqi o'quvchida shakllanadi. O'quvchida paydo bo'layotgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash ishiga xizmat qiladi. Shuning uchun rag'batlantirish (jazolash) o'z me'yorida bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy qiymati hamda ta'sirchanligi ortadi.

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHINING FAOLIYATINI BAHOLASH

*Gadoyeva Zilola*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*

*18-sonli umumta'lim maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash uning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini tarkib toptirish haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zi:** Og'zaki baholash.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining dastlabki natijalari uning boshqa materillarni egallash sari etaklaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat faoliyati mahsuli shodlik, quvonch va amaliy his-tuyg'usini keltirib chiqaradi. Hatto ayrim o'quvchilar u yoki bu ob'ektni, mavzuni bir necha marotaba o'qishni ham yoqtiradilar. O'qish faoliyatiga nisbatan qiziqish, moyillik keyinchalik predmetning mazmuniga

qiziqishni vujudga keltiradi, balkim bilim olish ehtiyojini tug'diradi, qolaversa unda o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy aloqadordir. Ushbu his o'qituvchining rag'batlantirishi orqali namoyon bo'ladi, yanada samaraliroq ishlash mayli, xohishi, istagi, ishtiyoqi o'quvchida shakllanadi. O'quvchida paydo bo'layotgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash ishiga xizmat qiladi. Shuning uchun rag'batlantirish (jazolash) o'z me'yorida bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy qiymati hamda ta'sirchanligi ortadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash uning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini tarkib toptiradi. Maktab amaliyotida ko'pincha bolani og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho taassurotida o'z faoliyatini faollashtiradi. Ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto o'quvchi dastlabki davrda "yaxshi" yoki "yomon" bahoning farqiga ham bormaydi, ko'proq uni nechta baho olganligi qiziqtiradi, xolos. Bu yoshda bola bahoning mohiyatini tushunib etmasa-da, lekin o'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun muhim rol o'ynaydi.

Yirik pedagog va psixolog olimlar B.A.Suxomlinskiy, Sh.A.Amo-nashvili va ularning shogirdlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib kelish nuqtai nazarini yoqlaganlar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishga olib keladi. Lekin bilimni tekshirishni boshqa usul va vositalarini qo'llash (masalan: reyting, shkala, ballar) hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki baholashning bola kamoloti uchun ahamiyatini qat'iy ravishda inkor qilish ham oqilona vosita emas, modomiki shunday ekan, baholashdan maslahat, yo'llanma, tavsiya, ko'rsatma sifatida foydalanish ijobiy omil vazifasini bajara oladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan yana bittasi - bu o'qituvchi shaxsiga nisbatan ishonch hissi va yuksak obro' tuyg'usining mavjudligi. Shuning uchun o'qituvchi bolaga tarbiyaviy, ta'limiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati shunday kattaki, uning siymosida aql idrokli, tiyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson gavdalanadi. O'qituvchi siymosida o'quvchilar ezgu niyati, orzu istagi, istiqboli, ajoyib

va g'aroyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi kamolot cho'qqisidagi shaxsni tasavvur qiladilar. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lari, tanish bilishlarining nufuzi keskin pasayadi. Go'yoki, borliqning absolyutligi, haqiqat o'lchamining namunasi, zakovatning yuksak chuqqisi, odo nazokatning avval boshi o'qituvchida o'z ifodasini topgandir. Ana shu sababdan ular o'qituvchi xulqini muhokama qilishga yo'l qo'ymaydilar, uning har bir so'zini qonun tariqasida qabul qiladilar va bu yo'lda o'zlarini haq deb hisoblaydilar. O'quvchining psixik jihatdan taraqqiy qilishi oqibatida o'qituvchining mutlaqligiga munosabati biroz o'zgaradi, buning asosiy sababi unda ongli xatti-harakat ehtiyojining tug'ilishi hisoblanadi. O'quvchida turmush va borliqqa nisbatan bir talay muammolar, savollar vujudga keladi, hamma narsa hayotda u o'ylaganday emasligiga ishonch hosil qiladi va undan qanoatlanadi, shubhalanish, ikkilanish hislari paydo bo'ladi. Bu muammolarga o'zi mustaqil javob topishga intiladi, natijada savol bilan boshqa odamlarga murojaat qilishga qaror qiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi obro'sidan oqilona foydalanib, o'quvchida uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat, diqqatni boshqarish, xulqni idora qilish, o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga tasalli berish fazilatlarini shakllantirish va intilish, faollik tuyg'ularini vujudga keltirish ta'lim jarayonida yuqori samara beradi. Pedagogik odo (takt) nazorat nuqtai nazaridan o'qituvchi obro'sini o'quvchilar davrasida to'kish yoki shaxsiyatiga tegish, mazax qilish mutlaqo mumkin emas.

Odatda o'quvchilar o'rtasida obro' orttirish uchun bir nechta tarkibiy qismlarini yaxlit bir timsol sifatida, mujassamlashtirish maqsadga muvofiqdir:

- a) o'qituvchida kasbiy qobiliyatlarining mavjudligi;
- b) uning dilkashligi va boshqa xislatlarga ega bo'lishligi;
- v) o'quv predmetlarining chuqur egallaganligi;
- g) o'qituvchi bilim saviyasining chuqurligi va ko'lamining kengligi;
- d) o'qituvchining vijdonligi, adolatgo'ylik fazilatlarini, uning statusi va rolining maqsadga muvofiq ravishda turmush jabhalarida namoyon bo'lishi, obro'sini yanada

yuksaltiradi. Chunki, soxta obro' orttirish sun'iylikni keltirib chiqaradi. Bunga ta'lim jarayonida yo'l qo'yish qator nuqsonlarni yuzaga keltiradi.

## BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURI

*Ochilova Dilso'z*  
*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*  
*18-sonli umumta'lim maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Birinchi sinf o'quvchilarining tafakkuri haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zi:** Mavhumlashtirish. Umumlashtirish usuli.

Birinchi sinf o'quvchilarining tafakkuri quyidagicha rivojlantirilsa, so'zsiz samarali natijalar berishi mumkin. O'quvchining "Bu nima?", "Nega bunday?" degan savollariga o'zi javob berishiga o'rgatish kerak. Bu o'rinda asosiy vazifa unga to'g'ri ko'rsatma berish, uni mantiqiy xatolardan qutqarish, to'g'ri mulohaza yuritishga ko'maklashishdan iboratdir. Masalan: "5" raqami qanday bo'laklardan tuzilgan? Bir juft so'zdan tuzish mumkinmi? 3 va 2 sonini yaxlitlab ko'rchi? To'rt tayoqchadan to'rtburchak yasachi? Meva xususiyatini so'zlab berchi? Yirtqich hayvonlar qanaqa bo'ladi? Eshitgan cho'pchagingdagi qahramonlarni sanab berchi?

Taqqoslash yordami bilan narsalaridagi o'xshash va farqli tomonlar aniqlanadi. Taqqoslash kishi bilish faoliyatining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon orqali beshning uchdan kattaligi, sopolning chinnidan mo'rtligi fikran solishtiriladi. Natijada o'quvchiga o'xshash va tafovutli belgilar anglashib boradi va ular yuzasidan ma'lum xulosaga keladi, unga nimani nima bilan taqqoslash kerakligini o'rgatish lozim, xolos. Aks xolda, u qanday yo'l tutishni bilmasdan dovdirab qolishi mumkin.

Mavhumlashtirish yaqqol narsalardan muhim tomonini fikran ajratib olish demakdir. Jumladan, o'quvchi oq ko'ylak to'g'risida so'z yuritgan bo'lsa, taklifimizga binoan, u qor, oq ro'mol, ohak, oqlangan imorat haqida mulohaza yuritadi. Keyinchalik esa, butunlay "oq" degan tushunchani o'ylashi mumkin. Avval o'qish kitobi, matematika,

mehnat, o'zbek tili, tabiatshunoslik tushunchalarini talaffuz qilib o'rgangan bo'lsa, asta-sekin ularni bir tushuncha bilan "kitob" deb mavhumlashtiradi.

Dunyodagi narsa va hodisalarni, jism va predmetlarni konkretlashtirish, yaqqollashtirish jarayoni mavhumlashtirish bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Yaqqol narsalar o'quvchi uchun juda yengil fikr yuritishda ustun turadi. O'quvchi hamma vaqt yaqqol narsa bilan mashg'ul bo'lishni yaxshi ko'radi. Masalan, katta, uchburchak, hajm, go'zal, harakat, elektr, parallel (yondosh) kabi mavhum tushunchalarni ular darrov tushunib ololmaydilar. Ularni yaqqollashtirgan taqdirdagina anglay boradilar. Katta ko'cha, uchburchak taxtacha, besh litr sut, go'zal o'yinchoq, parallel temir yo'l izlari va hokazolar to'g'risida ma'lumot berilgandan keyingina o'quvchilar yuqoridagi tushunchalar haqida taassurotga ega bo'ladilar. Ammo har qanday narsalarni ham yaqqollashtirish mumkin emas, chunki bu narsa odat tusiga kirib borishi, ularda mavhum tushunchalar shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Ta'lim jarayonida bunday noxush odatdan iloji boricha saqlanish shart.

Umumlashtirish usuli o'quvchi fikr yuritishining shunday jarayonidirki, uning yordamida narsalar ma'lum aniq alomat asosida fikran birlashtiriladi. "Meva" "orqali olma, shaftoli olcha kabilar to'g'risida fikr yuritsa, qoshiq, cho'mich, tovoq so'zlarini jamlab "idish-tovoq" deb nomlanadi. Narsa va hodisalarni noto'g'ri umumlashtirish ham mumkin. Jumladan, so'z "uy hayvonlari" to'g'risida gap ketsa, birinchi sinf o'quvchilari qo'y, echki, sigir kabilar qatoriga sichqon, kalamush, mushuklarni ham qo'shib aytadilar. Shunday paytlarda o'quvchiga aniq va to'la tushuncha berib o'tmoq maqsadga molik. Deylik, stol ustida traktor, raketa, samolyot o'yinchoqlari turibdi. U bu o'yinchoqlarni taqqoslash orqali yakka narsalarni umumlashtirib, "o'yinchoqlar" deyilishini anglaydi.

Kitob, daftar, qalam - o'quv qurollari; qo'g'irchoq, avtomobil, belkurakcha - o'yinchoqlar; shkaf, javon; stol, stul - uy jihozlari; uchburchak, to'rtburchak aylana - geometrik shakllar; ayiq, bo'ri, tulki, yo'lbars, arslon - yovvoyi hayvonlar; qarg'a, chumchuq, musicha - qushlar; buvi, opa, oyi, uka, aka, singil - oila a'zolari kabi so'zlar, tushunchalar orqali guruhlariga ajratishda, bola aqliy faoliyatini rivojlantirishda salmoqli turtki bo'ladi oladi. Shuning uchun ularni klassifikatsiyalashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi sinf o'quvchilaridan politexnik ta'limga oid konstruktiv topshiriqlarni bajarishni talab qilsa, u holda hech bir analiz qilmasdan, hatto xomaki rejalashtirmasdan turib amaliy ishga kirishishning guvohi bo'lamiz. Shu tufayli faoliyatni amalga oshirishda berilgan har qanday savol ularni anglashmovchilikka olib keladi. Chunki, ular o'z tashabbuslari bilan qanday analiz qilish kerakligini hali anglab etmagan bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida ayrim paytlarda hissiy-yaqqol yoki amaliy umumlashtirish usulini qo'llash hollari uchrab turadi. Bu hol, albatta, topshiriq talabiga binoan amalga oshiriladi. Narsa va hodisalarni klassifikatsiya qilish lozim bo'lib qolsa, ko'pincha shu usuldan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki, bunday chog'larda chuqur tahlil qilish, ulardan muhim belgilarni (alomatlarini) ajratish kabi murakkab jarayonlar talab qilinmaydi. Politexnik ta'lim darslarida mana shu xildagi qator vazifalarni berish mumkin. Jumladan, turli hajmda yasalgan va turli rangda bo'yalgan jismlardan bayram bezaklarini tayyorlash yoki boshqa narsalardan yashil o'simliklar, yumshoq metallar, bezakli-akvarium baliqlar, odamsimon maymunlar, qushlar, "yig'loqi" bolalar va hokazolarni tayyorlash mumkin.

Misollardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar predmet va tushunchalarni muhim bo'lmagan belgisiga asoslangan holda umumlashtirishni nazarda tutadilar. Ular hissiy-yaqqol umumlashtirish usuli yordamida vazifani bajarishga muvaffaq bo'lganlar. Bolalar ularni "qizil" "yaltiroq" "yumshoq", "bezakli", "odamsimon" kabi belgilarga ajratib klassifikatsiya qiladilar.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY TUSHUNCHALARNING TARKIB TOPISHI

*Nurillayeva Xurshida*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*

*18-sonli umumta'lim maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlari va ularni takomillashtirish yuzasidan fikr yuritildi

**Kalit so'zi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy fazilatlari. O'qituvchi shaxsi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama etuk, go'zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki, bu narsa milliy qadriyat va ruhiyatni tiklash jarayonida ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish masalasidan kelib chiqadi. Mazkur muammoni o'rganishda psixologlar oldida turgan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda boshlang'ich ta'limni ilmiy asosda to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Ma'lumki, o'quvchi shaxsini shakllantirish faoliyatini namunali yo'lga qo'yish uchun dastavval ularning xarakter xislatlarini va shaxs fazilatlarini maqsadga muvofiq tarkib topganligi darajasini aniqlash ayni muddaodir. Har bir o'quvchini axloqiy jihatdan aniqlagandan keyin alohida olingan sub'ekt bilan individual munosabatda bo'lishi imkoni vujudga keladi.

8-10 yoshli boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy fazilatlari beqaror, dunyoqarashi sodda, tashqi taassurotlarga tez beriluvchilardir, Buyuk allomalarning ta'kidlaganlaridek, kishining xarakteri hammadan ko'ra ko'prok uning hayotining dastlabki bilimlarida tashkil topadi va mazkur xislatlarida namoyon bo'lgan sifat juda mustahkam o'rnashadi va bolaning ikkinchi tabiatiga aylanadi.

Bolaning ikkinchi tabiatida ijobiy his-tuygularni, shaxs fazilatlarini tarkib toptirishda, yuksak axloqiy sifatlarni ularda shakllantirishda barcha mas'uliyat

boshlang'ich sinf o'qituvchining zimmasiga tushadi. O'quvchining ushbu yosh davrida o'qituvchining har bir aytgan so'zi, har bir xatti-harakati, ta'sir o'tkazish uslubi uning uchun haqiqat mezonini o'tadi. Chunki, o'quvchilar o'z o'qituvchisiga juda qattiq ishonadilar, uning fikr va mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatdan (taktdan) o'ta ta'sirlanadilar, qo'ygan talablariga hamisha amal qiladilar. Ana shu boisdan pedagog tomonidan berilgan barcha vazifalar, yaratilgan muammoli vazifalarni bajarishga intiladilar, ularni o'z vaqtida ado etishga harakat qiladilar. O'qituvchiga yuksak ishonch, unga bevosita taqlid insonni inson tomonidan idrok qilishni identifikatsiya bosqichiga o'xshab ketadi.

Ayni shu davrdan boshlab: 1) o'qituvchining psixikasiga tashqi ta'sir ko'rsatish, 2) atrof-mikromuhitidagi kishilarga yordam berishga undash, 3) nima bilan shug'ullanish zaruriyati to'g'risida ko'rsatma va yo'llanma berish, 4) unga oddiy individual yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan burch hissini tushuntirish, 5) uni to'g'ri mulohaza yuritishga o'rgatish, 6) ijobiy his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini quvvatlash, 7) o'qilgan kitobni, tomosha qilingan kinofilmni, sinfda sodir bo'lgan voqeani, sayohat taassurotlarini birgalashib muhokama qilish, 8) o'quvchilarni noma'qul so'z va iboralardan tiyish, ixtilofning oldini olish, 9) tabiat manzaralarini quvvatlash va musiqa tinglash ko'nikmasini vujudga keltirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu omillarning barchasi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarning to'g'ri bajarilishi, o'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbat uyushtirishi, muloqot o'rnatishi ularda chuqur taassurot qoldiradi va faollik ko'rsatish sari undaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirish jarayonida yuksak samaraga erishish uchun ularning yosh individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish taqozo qilinadi.

Ma'lumki, o'qituvchi turlicha psixologik xususiyatga ega bo'lgan yaqqol shaxs bilan shug'ullanadi. Shuning uchun biror bir o'quvchiga nisbatan muvaffaqiyatli qo'llangan interfaol ta'sir boshqa biriga kutilgan samara bermasligi mumkin. Binobarin, o'zgalarga ta'sir o'tkazish tadbirlari o'quvchi shaxsiga individual yondashish orqali amalga oshirilsa, yuqoriroq ko'rsatkichga erishiladi.



Ushbu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarning individual-tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqur o'rgangan bo'lsa, ularga shunchalik ta'sir o'tkazish kuchi sezilarli va samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ruhiy dunyosiga oqilona yo'l topa olish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mujassamlashgan axloqiy tushunchalarning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida boshlang'ich sinf sub'ektlariga o'quv yilining boshida (sentyabr oyining 3-haftasida) alohida savollar bilan murojaat qilindi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan aniqlovchi tajriba uchun "yaxshi" va "yomon" tushunchalari tanlab olindi. Ularning kundalik turmush sharoitida keng ko'lamda qo'llaniladigan tushunchalar bo'lganligi tufayli o'rganish rejalashtirildi. Axloqning alifbosi xuddi shu so'zlardan boshlanadi, chunki mazkur tushunchalar zamirida insonning murakkab axloqiy qiyofasi, yuksak xislati, barqaror maslagi, negizi yotadi. Tajribalarda o'quvchilarning hukmiga havola qilingan savollar ularning yosh xususiyatlari va hayot tajribalarini hisobga olgan holda tuzildi.

Birinchi sinf o'quvchilarida, yuqorida sanab o'tilgan, axloqiy tushunchalar darajasini aniqlash muddaosi bilan ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi: 1) Nima yaxshi-yu, nima yomon? 2) O'zidan kattalarga salom beradigan, ularning aytganlarini bajaradigan bolalar, qanday bolalar? 2) "Xo'p" degani yaxshimi yoki "Yo'q" degani yaxshimi? va hokazo.

Birinchi savolga 1-sinfning aksariyat o'quvchilari "Quyov yaxshi bo'ri yomon "Echki yaxshi, bo'ri yomon" kabi javoblar beradilar. Ammo javoblar ichida o'quvchi O'.J.ning javobi tengdoshlarinikidan mutlaqo tafovutlanib, mantiqiy izchillik asosida o'z fikrini dalillab berish tashlanadi: "Echki yaxshi - sut beradi. Tulki yomon. U bizni aldaydi". Demak, u "yaxshi" tushunchasi uchun muhim belgi sifatida insonga foyda keltirish xislati ajratilgan bo'lsa, "yomon" tushunchasi zamirida esa "aldash"lik alomati yotadi, ya'ni aldash salbiy illat ekanligini anglab yetadi. Uning yomon illatini o'z vaqtida payqay olgan va hayvonlarga, qolaversa odamlarga ziyon keltirishini asoslashga uringan. O'quvchining mulohazasidan ko'rinib turibdiki, birinchi savolga javob berishning o'ziyoq, tajribada ishtirok qilgan o'quvchilar ichida individual farqlar mavjuddir.

Yuqoridagi savollar psixologik asosga ega bo'lib, shaxsning axloq tushunchalarini aniqlashga qaratilganligi sababli atrof-muhit, ijtimoiy hayot to'g'risida, shaxslararo munosabat yuzasidan bilim va tasavvurga ega bo'lishini taqozo etadi. Bu erda "yaxshi" va "yomon" tushunchalari "go'zal" va "xunuk" singari axloqiy tushunchalar bilan uyg'unlashib ketganligining shohidi bo'lamiz. Jumladan, sinaluvchilar gullarning ochilishi, daraxtlarning gullashi, issiq nonlar - chiroyli, gullarni sindirish, shoxlarini uzib tashlash, nonlarni isrof qilish - xunuk, degan xulosaga keladilar.

Bildirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ular tushunchalar mohiyatini ochishda ham o'zaro tafovut qiladilar. Bizningcha, qayd qilingan tushunchalar yuzasidan o'quvchilar fikri mazmundor bo'lishining asosiy sabablari - bu ularning tabiatshunoslik faniga qiziqishi va anglashilgan hissiy motivlari, aqliy harakatlarida faolligi mavjudligidadir.

---

## NUTQNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O'RNI

*Mansurova Bibimariyam*  
*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*  
*18-sonli umumta'lim maktab Ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Kalit so'zi:** Nutq. Ichki nutq. Tashqi nutq. Tovush.

O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'lida ongli ravishda ovozni mashq qildirish uzoq, muntazam va individual davom etishi lozim.. Ko'p olimlar olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, past ovoz o'quvchilar tomonidan yaxshi idrok etiladi. Past ovoz ularga yuqori ovozga nisbatan yoqadi. Yuqori ovoz o'quvchilarni ham, o'qituvchining o'zini ham tez charchatib qo'yadi. O'qituvchi kasb kasalliklarining 40, 2 foizini ovoz kasalliklari tashkil etadi. Ovoz kasalligining sabablari: a) yuqori ovozda gapirish; b) ovoz apparatlaridan to'g'ri foydalanmaslik; v) ovoz gigiyenasiga amal qilmaslik; g) ovoz apparatining tug'ma kamchiliklaridir. Turli xil ovoz kasalliklarining

oldini olish maqsadida ishdan so'ng pedagog 2 3 soat davomida kam va sekin gapirishi kerak. 3 4 soat dars berishdan so'ng bir soat ovoz apparatlariga dam berish kerak.

Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. ICHKI NUTQ. O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqdir.

2. TASHQI NUTQ. (og'zaki): monolog, dialog, yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida nutqning quyidagi o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Funktsiyalari: muloqot, shaxsga ta'sir ko'rsatish, ta'lim va tarbiya vositasi.

2. Shakllari: tashqi nutq (og'zaki): monolog, dialog, yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar; ichki nuqt.

3. Nutq texnikasi: pedagog ovozinin kasbiy sifati: tembr, intonatsiya, diksiya, temporitm (bir minuda 120 ta so'z)

. 4. Nutqiy faoliyat turlari: o'qish, yozish, gapirish.

5. Nutq uslublari: ilmiy, rasmiy, so'zlashuv, badiiy, ommabop.

6. Nutqqa qo'yiladigan talablar: talaffuzning aniqligi, ifodaviylik, emotsionallik, diksiyaning tushunarligi, tovushlarning aniq talaffuz qilinishi, obrazlilik, nutq madaniyati, so'zdan foydalanish qoidalariga rioya qilish, temporitmga amal qilish.

7. Nutqni egallashda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar: monotonlik, temporitmning oshib ketishi, noto'g'ri diksiya, so'zlarni noo'rin qo'llash, til qoidalarini buzish.

O'qituvchining ovozi o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettira olishi zarur: 1) jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi); 2) keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi); 3) havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi); 4) ixchamlik, harakatchanlik; 5) chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish); 6) moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi); 7) qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi); 8)

suggetsivlik (ovozning xayajon ifodalashi va bu orqali, qanday soʻz aytilayotganidan qatʼiy nazar, tinglovchining xulqiga taʼsir qilish xususiyati)

Pedagogik faoliyatda oʻqituvchi oʻz nutqini tashkil etishda quyidagilarga jiddiy eʼtibor qaratishi zarur: 1) adabiy meʼyorlariga (sheva soʻzlarining qoʻllanilmasligi) (kadi – qovoq, pamildori – pomidor, kelutti – kelyapti, kartishka – kartoshka va hokazo tarzida) amal qilish; 2) talaffuz (o, a, u, oʻ, f, v, p, d, t, x, h, s, ts, j, sh) meʼyorlariga (onor – anor, uxshash – oʻxshash, palakat – falokat, Hamit – Hamid, xam – ham, sentner – tsentner, ijtimoiy – ishtimoiy kabi shakllar) rioya etish; 3) kelishik meʼyorlariga (Sobirni ukasi – Sobirning ukasi, oʻquvchini daftari – oʻquvchining daftari, poezdga keldim – poezdda keldim va boshqalar koʻrinishida) amal qilish .

Demak, nutq aniq va ravon boʻlishi, grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilgan boʻlishi, adabiy talaffuz qoidalariga boʻysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida oʻrga nilayotgan bilim oʻquvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun oʻqituvchilardan tinimsiz izlanish va oʻz ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

2. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diksiya, ritmika . Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri oʻqituvchining nutq malakalarini, yaʼni savodli gapirish, oʻz nutqini chiroyli va tushunarli, taʼsirchan qilib bayon etish, oʻz fikr va his tuygʻularini soʻzda aniq ifodalash malakalarini egallashdan iborat. Oʻqituvchining nutq madaniyatiga ega boʻlishi, toʻgʻri nafas olishni ishlab chiqishi eng katta – eng asosiy qiymatdir. Ogʻzaki nutq mahoratini yuksaltirish, nafaqat hikoya va tushuntirish, balki urgʻu berilgan soʻz ham pedagogik taʼsir usullaridan yaxshiroq foydalanishga imkon yaratadi.

Oʻqituvchi nutqining asosiy shakllar. Monolog – oʻqituvchining oʻziga yoki oʻquvchilarga qaratilgan nutqi (ichki va tashqi monolog) .Dialog – oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida tashkil etiladigan suhbat .Polilog – oʻqituvchi va bir nechta oʻquvchi yoki oʻquvchilar jamoasi oʻrtasidagi suhbatni ifodalovchi nutq .

Nafas olish organizmga hayot bagʻishlovchi fiziologik funktsiyani bajaradi. Shu bilan birga u nutq energiya bazasi boʻlib ham hisoblanadi. Nutq soʻzlayotganda nafas olish – fonatsion nafas olish deyiladi (rengo-tovush). Kundalik hayotdagi nutq asosan

dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi. Nutq so'zlashda qaysi mushaklarning ishtirok etishiga qarab nafas olish bir nechta turga bo'linadi.

Yuqori nafas – yelkalarining ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu bo'sh yuzaki nafas bo'lib, unda o'pkaning faqat yuqori qismi ishtirok etadi. Ko'krak nafas qovurg'alar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil bo'ladi. Bunda ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi. Diafragma ishtirokidagi nafas ko'krak nafasning bo'ylama hajmini oshishi hisobiga vujudga keladi. Diafragma qovurg'ali nafas, diafragmaning qisqarishi qovurg'alar oralig'idagi nafas mushaklari ishtirokida vujudga keladi.

Tovush – chiqarilayotgan havo hiqqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o'zining qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi: Tovush kuchi tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqalishiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi.

Nutq qobiliyatini o'stirish vositalari. Matn o'qish. Matnni baland ovozda o'qish. Bunda vaqti bilan faraz qilinayotgan auditoriyaga nigoh tashlab turing. Bunda faraziy ko'z qarashlar orqali erkin nutq hissiga erishishga harakat qiling. Shu bilan birgalikda matnning keyingi so'zlarini bir zumda oldindan o'qib xotirangizda saqlash va keyin talaffuz qilishga o'rganing. Shunda nutqingizda uzilish bo'lmaydi.

## MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIYNING ILMIY MEROSI VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI

*Samandarova Komila*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*

*18-sonli umumta'lim maktab Matematika fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Matematika fanida abstraksiya tushunchasini kengaytirilishi haqida fikr yuritildi.

**Kalit so'zi:** Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi. Algebraik qism. Geometrik qism. Abstraksiya tushunchasi.

Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy ,axloqiy jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al- Xorazmiy insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi.

Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion ,Yunoniston,Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. "Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala " asarida sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni yechish yo'llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim kiritiladi; ikkinchisi, geometrik qism-algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida ;uchunchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni "Vasiyatlar kitobi " deb ataydi.

Muhammad al-Xorazmiy matematika fanida abstraksiya tushunchasini kengaytiradi. Induktsiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal etadi, deduktsiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni yechadi. "Aljabr va-lmuqobala "

asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib ,o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlantirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy o'sha paytlarda amalda uchraydigan barcha chiziqli va kvadrat tenglamalarni jamlab, hozirgi matematik simvol orqali beriladigan olti tipga keltirdi.

Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” dir. Asar o'nlik tizim raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9 )ga bag'ishlangan.

827-yilda Xorazmiy rahbarligida yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqildi. Bog'dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli bo'lib, unda sinus, tangeneslarning o'zgarish qonuniyati ko'rsatiladi . Uning trigonometrik jadvali o'sha davr jadvallaridan farq qiladi. Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid , quyosh soatlari to'g'risida ham asarlar bo'lib , “ Tarix kitobi” xalifalik tarixiga oid xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi.

Shuni takidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari , tamoyil metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishiga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarini to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, “ Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi.

Boshqisi o'zidan avvalgilarining asarlarini sharxlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi.

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan , olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritsa , ikkinchi tomondan , o'sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o'qitishning metod vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi. Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali tajriba metodlari , bilim berishning turli vositalari , savol- javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda , vasiyatnoma tuzishda , mol taqsimlashda va adliya ishlarida , savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda , kanallar o'tkazishda , geometriyada va shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir". Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: "sezgi " orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi(samoviy ob'ektlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida yechishni ishlab chiqdi). U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini , ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, yer ishlashi , binolar qurish , kanallar ochish shunday paydo bo'lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatni matematik shaklda ifodaladi.

Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.



## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

*Студентка 2 курса Узбекского Государственного Университета физической культуры и спорта группы МБТ 01-20  
Шойсуломова Шахло Шорахимовны  
Научный руководитель: Частоедова А.Ю*

Развитие высоких технологий, научно-технический прогресс, стремление к максимальному комфорту, удобству, экономии времени и силы способствует значительным изменениям в стиле жизни современного человека. Люди все больше времени проводят у мониторов телевизоров и компьютеров, за разговорами по телефону.

Вследствие чего образ жизни современного человека становится все менее подвижным, а повседневная потребность в физической активности снижается. Разнообразные медицинские, социологические, демографические и другие данные, отражающие динамику состояния детей в последние годы, свидетельствуют о том, что так называемая гуманитарная катастрофа – уже не тревожная перспектива, которая маячит где-то в неопределённом завтра, а суровая реальность наших дней.

В современном обществе стало быстро увеличиваться число детей с ослабленным здоровьем, замедленным психическим развитием, с нарушениями речи и эмоционально-волевой сферы, много детей гиперактивных. Следовательно, задача воспитания современных детей должна состоять в создании условий для снижения гиперактивности, развития сосредоточенности и концентрации внимания, двигательного опыта и физического здоровья.

Физическое воспитание в дошкольных учреждениях - это единство цели, задач, средств, форм и методов работы, направленных на укрепление здоровья и всестороннее физическое развитие детей. Проблемы здоровье сберегающего компонента в физическом воспитании детей дошкольного возраста нашли отражение в работах В.А. Ананьевой, А.И. Баркан, Л.А. Венгер, А.М. Доронина, Т.Н. Дороновой, Н.А. Дьяченко, Б.Б. Егорова, Ю.Ф. Змановского, Г.П. Ивановой, И.М. Козлова, В.Т. Кудрявцева, Л.И. Латохиной, С.В. Меньковой, В.А. Нестерова,

М.А. Правдова, А.В. Самсоновой, Т.Д. Фершаловой, Б.В. Шеврыгина и др. В.П. Лукьяненко считает, что в занятиях по физической культуре, кроме образовательной составляющей, должна присутствовать и оздоровительная направленность, и тренировочный подход. Поэтому занятия по физической культуре должны быть: отдельно-теоретическими, отдельно - практико-методическими, и отдельно-практическими.

Девизом сегодняшнего дня для специалистов физической культуры, особенно работающих с детьми младших возрастов, должен стать лозунг: «От физического воспитания к физкультурному образованию».

Дошкольный возраст - особенно важный и ответственный период в жизни человека. Высокие темпы развития, перестройка функционирования многих систем организма, высокая пластичность и лабильность определяют большую чувствительность к воздействию факторов окружающей среды, в число которых входят обучение и воспитание. В период раннего и дошкольного детства педагогические воздействия являются не только важным условием развития психики, но и оказывают значительное влияние на формирование физического здоровья ребёнка.

Физическое воспитание детей дошкольного возраста, методика сохранения и укрепления их здоровья, не должны оставаться в стороне от прогрессивных методов обучения. Чтобы добиться хороших результатов в физическом воспитании дошкольников, привитии навыков здорового образа жизни, отвечающих новым запросам общества, нужны новые средства и построенные на их основе новые технологии обучения.

Главной целью физического воспитания дошкольников является воспитание здорового, жизнерадостного, жизнестойкого, физически совершенного, гармонически и творчески развитого ребенка. В ходе процесса физического воспитания дошкольников решаются в первую очередь оздоровительные задачи. Основными задачами являются:

- ✓ Укрепление и охрана здоровья ребенка, закаливание организма;

- ✓ Достижение полноценного физического развития (телосложения, физической и умственной работоспособности ребенка);
- ✓ Создание условий для целесообразной двигательной активности детей;
- ✓ Формирование жизненно необходимых видов двигательных действий: ходьбы, бега, прыжков, ползания и лазания, бросания, ловли и метания, ходьбы на лыжах, плавания, езде на велосипеде;
- ✓ Развитие физических (двигательных) качеств: ловкости, выносливости, скоростно-силовых качеств;
- ✓ Содействию формированию правильной осанки и предупреждение плоскостопия;
- ✓ Формирование доступных представлений и знаний о пользе занятий физическими упражнениями и играми, обоснованных гигиенических требованиях и правилах.

Также в процессе физического воспитания детей дошкольного возраста решаются образовательные задачи: формирование основных жизненно важных двигательных умений и навыков, прививание навыков правильной осанки, навыков гигиены, освоение знаний о физическом воспитании.

Основными формами занятий физической культурой в дошкольных учреждениях принято считать подвижные игры, физкультурные занятия урочной формы и упрощенные элементы спортивной подготовки.

Работа должна строиться на основе ведущей деятельности детей дошкольного возраста — игровой — это основа воспитания, оздоровления, развития и обучения детей дошкольного возраста.

Игровая деятельность обеспечивает познание своего организма, формирует осознание у воспитанников уровня ответственности по отношению к своему здоровью, воспитывает потребность ведения здорового образа жизни, формирует предпосылки учебной деятельности, обеспечивающих социальную успешность ребенка в будущем.

Физкультурные занятия - самая эффективная школа обучения движениям. При систематических физкультурных занятиях физической культурой и спортом

происходит непрерывное совершенствование механизмов, регулирующих работу всех органов и систем человека. В этом, главным образом, и заключается положительное влияние физической культуры как одного из мощных факторов укрепления здоровья.

Большая ценность физических упражнений состоит еще и в том, что, занимаясь ими, ребёнок не только укрепляет свое здоровье и получает разностороннее физическое развитие, но и приобретает ряд двигательных моральных качеств.

К первым относятся ловкость, быстрота, сила, выносливость, гибкость, ко вторым — такие ценные качества как коллективизм и товарищество, настойчивость, смелость, честность, дисциплинированность.

Для развития координации движений, ориентировки в пространстве, точности, ловкости, силы мышц используются: элементы баскетбола, футбола, элементы акробатики и гимнастики, звуковой и дыхательной гимнастики, упражнения в равновесии и лазание.

Для профилактики нарушения осанки и плоскостопия применяются: элементы йоги, художественной гимнастики, ритмической гимнастики.

На занятиях физической культуры необходимо осуществлять индивидуальный подход к каждому ребенку в зависимости от состояния его здоровья и физической подготовленности. Для решения цели физического воспитания детей дошкольного возраста, решаются основные задачи физического воспитания, которые должны решаться в комплексе и взаимосвязи с задачами умственного, нравственного, трудового и эстетического воспитания.

На основе всего вышесказанного, можно сделать вывод, что грамотное понимание педагогом специфики различных физических задач, умелый подбор двигательного материала и дифференцированная методика руководства, забота о том, чтобы ребенок не просто осваивал движения в ходе физкультурных занятий, но делал это с удовольствием, активно приобщаясь к ценностям физической культуры и спорта.

### Список использованных литератур.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi Qonuni 2015 yil
2. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-sonli Farmoniga 1-ilova)
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya fanidan dastur (bakalavr yo‘nalishi uchun). I., 2003.
5. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 tom. Darslik. ITA-PRESS. T.-2014 220 b.
6. Salamov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. 2 tom. Darslik. ITA-PRESS. T.,-2015 210 b.
7. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. Учебник. Москва. – 2010. 210 с.
8. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. Учебник. Москва. – 1991. 200 с.
9. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. Darslik. T.,- 2005. 180 b.
10. Rahmatova D.N., Xolmurodov L.Z. Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari. Uslubiy qo‘llanma. T., 2016.
11. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004.
12. Фурманов А.Г., Круталевич М.М. Теория и методика физической культуры: Учеб. Пособие. – Минск, 2014

13. Холодов, Ж. К. Теория и методика физической культуры и спорта: учеб. для студентов вузов / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – 10-е изд., испр. – М.: Академия, 2012. – 480 с.

## БОЛА ТАРБИЯСИДА ОТА-ОНАНИНГ ЎРНИ ВА ВАЗИФАСИ

*Қўлдошева Маъмура Салом қизи  
Қашқадарё вилояти Китоб тумани 7-мактаб психологи.*

Бола дунёга келган кундан бошлаб ота онанинг бола тарбияси учун жавобгарлиги ва масъуляти орта бошлайди. Азал-азалдан бола тарбияси билан асосан она шуғилланиб келган. Отанинг асосий вазифаси эса оилани боқиш бўлиб, факатгина уйда бўлган вақтда болани назорат қилиб бориш бўлган ҳолос.

Бола ўз оиласида теварак –атрофи қариндош ва яқинларига тўла бўлган муҳитда тарбияланади. Шу сабаб бу каби оилалар унинг дунё қараши ва хулқига доим ўз таъсирини ўтказиб туради, ундаги тарбиянинг шаклланишига ўзига ҳос фундаментни яратади.

Ота она аввалам бор ўз фарзандига тўғри тарбия бериб боришга бу йўлда ҳамиша изланишда бўлиб, ўқиш ва тажриба ортириш лозим яна шуниси аҳамиятлики, боладаги барча хислатлар диний ахлоқ билан камолга етади. Шу боис тарбия энг аввало гўзал фазилатли ахлоқ билан безатилмоғи даркор. Ахлоқий тарбияга эса ҳар бир инсоннинг муқаддас гўшаси, бошпанаси ҳисобланган оилада асос солинади. Бу йўлда ота оналар ўзларининг одоб ахлоқи билан ибратли бўлишлари лозим, чунки ота-оналар боланинг, илк бора кўзини очишдан то ёши катта бўлиб ақлини танигунга қадар бўлган вақтда бўлиб келган ҳаётларидаги биринчи тарбиячилари ҳисобланади. Шунини ҳам алоҳида айтиш лозимки, бола тарбиясига ҳеч бир нарса намуна каби кучли таъсир ўтказа олмайди. Оиладаги тарбия, ижтимоий, руҳий, жисмоний, хулқий, ахлоқий ва бошқа сифатларга асос

солади, теран шакиллантиради ва негиздан камол топтиради. Оила жамиятнинг кичик бир ўчоғларидан бири ҳисобланиб, бу даргоҳда келажакда катта пойдеворга асос соладиган баркамол авлод вояга етади.

Шуни унутмаслигимиз лозимки, шахснинг шакилланиши ниҳоятда мураккаб ва кўп қиррали жараёндир. Оилавий тарбия боланинг умумий ва ўзига хос ривожланишини таъминлаш билан бирга, мавжуд имкониятларини ва ақлий тафаккурини юксалтиради. Боланинг жисмонан соғлом, ақлан етук, ахлоқан пок, меҳнатсевар, маданиятли, интеллектуал салоҳиятли бўлиб ўсишдан жамиятимиз ҳам манфатдор.

Ўқув тарбиявий муассасаларнинг тарбия борасидаги ишлари қанчалик яхши йўлга қўйилишидан қатъий назар, тарбия масалаларини оила ҳал қилади. Боғча ва мактаблар таълим бериб тарбияласа, ота-оналар фақат тарбиялабгина қолмай, улар билан бирга яшайдилар ҳам. Шу имкониятлар боис боланинг тарбиясига таъсири кучли бўлиб узоқ давом этади. Ота-оналарнинг фарзанд учун фидоий бўлиши, бу ўзбек миллати менталитетининг ўзига хос бўлган ажойиб фазилатларидан биридир.

Ёшларимиз илм-фан маданият, техника санъат ва спорт юксак даражада ривожланган бир шароитда улғаймоқда. Шарқ мутафаккирларининг ғоялари тарбиявий масалаларда халқ донишмандлиги, азалий урф одатлар ва қадриятлар билан уйғунлашиб кетганлигини ҳисобга олган ҳолда ота-оналарнинг болалар тарбиясига бўлган муносабати, оиладаги ўзаро мулоқот, кекса ёшдагилар ва болаларга беминнат ғамхўрлик, каби ўй фикрлари акс эттирилгани муҳим аҳамият касб этмоқда. Оилада боланинг нутқи шакилланиши ва ривожланиши баробарида улар онгига катталарга ҳурмат, дўстлик, ҳалоллик, инсонийлик тушунчаларини сингдириб борилади. Эътибор қилган бўлсангиз, худди шу вақтда улар атрофдагиларни турли хил саволларга кўмиб ташлашади, олган жавоблари қандай бўлишидан қатъий назар уларнинг келгуси ҳаётда дастуриламал бўлиб қолади.

Худди шунингдек оиладаги ҳар кунги юмушлари давомида болаларнинг хулқ атвори шакилланиб боради ва кейинчалик ахлоқнинг ўта мураккаб шакиллари: жамоатчилик, ватанпарварлик, фаоллик каби жараёнлар давом этади.

Ота-она ўз фарзандларида мақсадга интилувчанлик, ботирлик, ишга масъулят билан ёндашиш ҳислатларини шакиллантириб бориш ҳам катта аҳамиятга эга. Бунда қизларни ёши улғайган сари оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларни янги оилада одоб–ахлоқ меъёрларига, урф-одатларига оила юмишларига ва ҳаётнинг нозик соҳаларига пухта тайёрлаб бориш вазифаси ҳам оиладан, айниқса онадан жуда катта меҳнат ва метин иродани талаб этади.

Фарзандлар мустақил оила қуришганда, янги оиласи қанчалик мустаҳкам ёки барбод бўлиши, қиз боланинг ўз оиласига олиб келган тарбиясига нечоғик боғлиқлигини кўпчилик оналар яхши англайдилар. Агар оилада ота-оналар ҳалол меҳнатлари эвазига ҳаёт кечираётган бўлсалар бундай оиладаги фарзандлар ҳаётга, ўз ҳаракатлари ва меҳнатлари билан муносиб инсон бўлиб вояга етадилар. Бола ҳаёт ҳақидаги яхшилик ва ёмонлик, фойдали ёки зарарли тушунчаларни биринчи бор оилада ота онаси, ака-укаси ва опа-сингилларидан олади. Шу жиҳатдан ота-она маънан юксак, ахлоқан пок, ростгўй ва маданиятли бўлмоғи даркор. Айниқса ҳозир тобора йўқ бўлиб кетаётган одоб намунаси билан ибрат кўрсатмоғи жуда муҳимдир.

Болани меҳнат орқали тарбиялаш ҳам алоҳида аҳамият касб этади, чунки қадим-қадимдан меҳнат тарбиянинг асосидир. Инсон тарбияси меҳнатга бўлган муносабатига қараб белгиланади.

Меҳнатсевар боланинг ота-онаси номига ҳамиша раҳматлар айтилади. Меҳнат бу ҳаёт, десак ҳам ўринсиз бўлмайди, негаки ҳаётни меҳнатсиз тасаввур қилиш қийин. Кўпчилик оиларарда болани ёшлигиданоқ хунарга, маълум бир бир касб тўғаракларига, умуман меҳнатга ўргатиб бориш одат тусига кириб, ота-боболардан қолган анъана ва удум ҳисобланган. Бу жуда қувонарли ҳол, чунки боланинг қандай касб танлаши жуда муҳим ҳаётий масала бўлиб, уни ҳал қилишда оила ёрдами аҳамиятлидир.

Оилада яхши меҳнат қиладиган болалар мактабда ҳам аьлочи, тиришқоқ ва жамоатчи бўлишади. Катта оилаларда ота-она бериш керак бўлган тарбиянинг анчагина фоизини болалар ака-укаларидан қариндош-уруқлқридан ўзлаштириб олишади. Шу сабабли бундай оилаларда жанжал тўполон эмас, балки ўзаро ҳурмат,



дўстлик, сокинлик ва осойишталик ҳуқум суради. Улар уйидаги меҳнати орқали жамоатчиликнинг дастлабки сабоғини олишади.

## TARBIYASI QIYINLIKDA OLIB BORILADIGAN PSIXOKKOREKSIYA VA PSIXOPROFILAKTIKA

*Jabbarova Barno Rustamovna*  
*Xorazm viloyati Urganch tumani 42-maktab psixologi*

O`smir xarakteridagi “og`ishlar” muammosi tadqiqotiga kompleks yondashish, undagi o`zgarishlarning kognitiv; konitiv va affektiv jihatlarini chuqurroq o`rganishga yordam beradi.

Tarbiyasi «qiyin» o`smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksiya va psixoprofilaktik chora-tadbirlar kompleksi quyidagilardan iborat. Avvalo, uning tub mohiyati tarbiyasi “qiyin” o`smir shaxsiga unda shakllangan aksilijtimoiy xulq-atvor ustanovkalarini, zararli odatlarini kelgusida yangi odatlar, bilimlar va ko`nikmalar bilan almashtirishdan iborat psixologik jihatdan asoslangan ta'sir o`tkazish tizimini yaratish. Ushbu maqsadga qaratilgan psixik ta'sir tizimini biz shartli ravishda uch bosqichga ajratdik: tayyorgarlik, qayta qurish(rekonstruktiv) va tiklovchi (reabilitatsiya).

Birinchi tayyorgarlik bosqichi bir necha kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Unda tarbiyasi «qiyin»lik darajasi — uning biologik asosi, u yashagan mikromuhit ta'siri, real shaxslararo munosabat, uning shaxsi shakllanishiga aloqador referent guruh va hokazolar, unga berilgan tavsiflar, biografik va eksperimental-psixologik usullar yordamida aniqlanadi. Uning munosabatlari va xulq-atvor og`ishlarining darajasi; o`smir xulq-atvorida guruhiy qiziqishlarning o`rni, uning ishonch va e'tiqodi, biror kichik norasmiy guruhdagi statusi, liderlikka intilishi-dagi raqobatbardoshliligi, salbiy yoki ijobiy taqlidchanlik, emantsipatsiya ko`rinishlari, qarama-qarshilik (oppozitsiya), xulq-atvor og`ishlarining kompensatsiya va giperkompensatsiya tipi va boshqalar. To`plangan ma'lumotlarni tahlil qilishda o`smirning xohish-istaklari, uning shaxsidagi qaysi ijobiy xislatlar saqlanib qolganligi,

ustunlikka ega xulq motivlari va ehtiyojlari, munosabatlarda shakllangan ishonch, e'tiqodlari, intilishlari xamda qiziqishlarining xususiyatlari aniqlanadi. Psixologik tahlildan so'ng o'smirning kelajagini belgilovchi eng samarali korrektsiya rejasi tuziladi. Ushbu rejaning tuzilishi o'smirda mavjud (qolgan) ijobiy xarakter xislatlarini saqlash va salbiy xususiyatlarni yo'qotish qonuniyatiga bo'syinadi, shuningdek, yangi ijobiy xislatlarni shakllantirishga asoslanadi. Ayni vaqda tayyorgarlik bosqichi bir qator qiyinchiliklarga ega. Bular, birinchidan, shakllangan (o'zlashtirilgan) turmush tarzini o'zgartirish, o'rganilgan guruhdan yakkalash, qa'tiy tartib bilan bog'liq salbiy hissiy kechinmalar bo'lib, ular o'smirlarda ehtiyotkorlik va ishonchsizlik tuyg'ularini qo'zg'atadi. O'quv va tarbiya jarayonidagi tartib-intizomlilikka undov, ularning ba'zan anglangan, ba'zan anglanmagan holda qarshilik ko'rsatishiga olib keladi. Ko'pchilik o'smirlarda tushkunlikka tushish, stress holati ro'y beradi. SHu-ning uchun ham bunday vaqtlarda psixologik aloqa (kontakt) o'rnatishning eng maqbul usullarini topish psixologdan katta mas'uliyat talab etadi.

Rekonstruktiv bosqich bir necha haftadan bir necha oygacha davom etadi. U suhbat, ta'sir etish (ishontirish), jazo va rag'batlantirishni qo'llash, majbur etish, ilgari o'zlari kabi bo'lgan izdoshlarining hozirgi hayotidan misollar keltirish kabi psixologik-pedagogik usul va metodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning strategik masalasi tarbiyasi «qiyin» o'smirlarda ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishga qaratilgan. Psixologik-pedagogik usul va metodlarning qo'llanilishi qat'iy individual tarzda olib boriladi va imkoniyat darajasida o'smirning faol ishtirokiga erishishga asoslanadi. Demak, bu bosqichda o'smirning individual-psixologik xususiyatlari, xulq-atvoridagi buzilishlarning sabab va mohiyatlari, ya'ni o'zligini anglashiga qaratiladi. Ayni vaqtda ushbu vaziyatdan chiqishning yo'llarini hamkorlikda izlashga e'tibor qaratiladi. Hamkorlikdagi muloxazani anglatishning vaqti va xajmi o'smirning xarakterologik xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari, yosh, jins va psixik holatiga bog'liq.

Reabilitatsiya bosqichi rekonstruktiv bosqichda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni saqlash, tashqaridan bo'ladigan har qanday nomaqbul ta'sirotlarga qarshi «immunitet» hosil bo'lishiga erishish va readaptatsiya jarayonini tezlashtirishni asosiy maqsad qilib

qo'yadi. O'smir va psixolog o'rtasidagi maqsadga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat sub'ektiv psixologik va ijtimoiy psixologik yutuqqa erishish, tarbiyasi «qiyin» o'smirlarda ijobiy xarakter xislatlarini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu bosqichdagi psixologik qiyinchiliklar o'smirning odatlanayotgan nazorat doirasidan chiqib, avvalgi nomaqbul turmush tarziga qaytishi bilan izohlanadi. Shuning uchun o'smirda readaptatsiya jarayoni uzluksiz va samarali kechishi uchun psixologik himoya tadbirlarini o'zlashtirishga erishish katta ahamiyatga ega.

O'smirlik davriga xos xulq-atvorning fenomenini chuqurroq anglash uchun «kelgusidagi kelishuv» va «nizolar paradigmi» kabi qarama-qarshi fundamental tushunchalarning ustivorligiga e'tibor qaratish kerak. «Kelgusidagi kelishuv» tushunchasi qadriyatlar va qiziqishlarni sog'lom anglashni, undan og'ishni nuqson tarzida qonunan aks ettirilishini..., «nizolar paradigmi» esa og'ish tushunchasini — o'zgalarning xulq-atvoriga nisbatan reaksiya oqibati hamda hukumatning ma'naviyat i, qiziqishlar va qadriyatlar borasidagi fikrlarining har xilligiga diqqatni qaratish kerak, degan nazariyaga asoslanadi».

Biz ham aynan shu maqsadni amalga oshirish borasida tarbiyasi «qiyinlik» fenomenining ayrim jihatlarini yoritishga harakat qilamiz. Ilmiy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, o'smirlik davrida ular tomonidan sodir etiladigan har qanday xatti-harakat aktlari: aksilijtimoiy xulq-atvor, pedagogik qarovsizlik, moslasha olmaydigan xulq, axloqsiz xulq, deviant xulq, autodestruktiv (o'zini o'zi fosh qiluvchi) xulq, destruktiv (chetlashtiruvchi) xulq va hokazolar o'tish davrining o'ziga xos odat tusiga kirib qolgan tartib shakli sifatida tan olinadi. Bu xatti-harakatlar «xavfsiz» bo'lib, yoshning ulg'ayishi bilan yo'qolib boradi. Lekin ayrim o'smirlardagi tarbiyasi «qiyin»lik bilan bog'liq xatti-harakatlar asta-sekin doimiy xususiyatga ega bo'lib, jiddiy tus oladi, barqaror xususiyat kasb etadi. Oqibatda ularda tajovuzkor xulq, delinkvent xulq, o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq yoki patologik xulq shakllanadi. Bizda tarbiyasi «qiyin»lik ma'lum bir «qolipga» xos tarzda kechadi, lekin xulq-atvorning keyingi shakllanishlari cheklanganlik xususiyatiga ega degan tasavvur hosil bo'ladi. Garchi, ushbu muammo yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilganligiga qaramay hanuz o'zining mohiyatan to'liq echimini

topgan emas. Demak, tarbiyalanganlik bilan tarbiyasi «qiyin»likning psixologik farqlanishlari chegarasini aniqlash lozim.

Ko`pgina adabiyotlar tahlilining ko`rsatishicha, IQ ning ko`rsatkich darajasi qanchalik past bo`lsa, tarbiyasi «qiyin»lik shunchalik yuqori ko`rsatkichlarga ega. Shubhasiz, bu fikrni tarbiyasi «qiyin»likning barcha tiplari uchun bir xilda deb bo`lmaydi. Hozircha tarbiyasi «qiyin»larning IQ ko`rsatkichi taxminan 8 punktga past darajada. Buni quyidagicha izoxlash mumkin. Albatta, bu hol o`quv faoliyati bilan bog`liq bo`lib, maktab tomonidan qo`yiladigan talablarga yomon reaksiya, o`quv predmetlariga nisbatan qiziqishning sustligi, fan o`qituvchilariga hurmatsizlikning ortishi, maktabga munosabatning salbiylashuvi va umuman maktabdan «bezish», ya`ni bulling holati bilan izoxlanadi. Achinarlisi, keyinchalik bu holat jamiyatga nisbatan ham o`z ifodasini topadi. Rutter maktab muhiti delinkvent o`quvchilarni «etishtiruvchi» maskanga aylanishini izoxlaydi. Belgiyalik tadqiqotchi Vettenburgning fikricha, maktabda o`qitish usullaridagi farqlar o`quvchilarning «qiyin»lik darajasiga ta`sir etadi. Shunday qilib, maktab «tajribasi»da IQ tarbiyasi «qiyin»lik ko`rsatkichi sifatida qisman bog`lovchilik vazifasini o`taydi. O`smirlarda IQ ning pasayishi faoliyatlarining turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga xalaqit beradi. Ayni paytda haq qanday shaxsning qadriyatlari va ustanovkalarini taxlil qilish samarali natija beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Umarov B.M. O'quvchilar orasida nizoli vaziyatlarning oldini olishda maktab psixologining vazifalari. //ToshDU psixologiya kafedrasida professor-o'qituvchilarining ilmiy maqolalari to'plami. –T: 1994.

2.Umarov B.M. Maktab psixologi faoliyatida psixologik tanglik xolatining oldini olishda psixotreninglardan foydalanish. //Ter.DU professor-o'qituvchilarining XXII ilmiy-nazariy anjumani ma'ruzalar bayoni 1993, 76-77 betlar.

## O'SMIRLARDA BILISH JARAYONLARINING O'SISHI VA ULAR ORASIDAGI "TARBIYASI OG'IR"LIK MUAMMOSI

*Axmedova Nozimaxon Akramjon qizi*  
*Farg'ona viloyati Furqat tumani 10-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'smirlarda bilish jarayonlarining o'sishi va psixologik xususiyatlari, shuningdek ulardagi deviant xulq muammolari, yechimlari haqida mushohadalar, ma'lumot, mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlar, bilish jarayonlari, fikr, rivojlanish, ta'lim, deviant xulq, axloq, muhit.

O'smirlar tafakkurida tanqidiylik, mustaqillik ayni shu davrida hosil bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'quv materiallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifodalash yo'lini tushuntirib berishlari lozim. O'smirlarning o'quv faoliyatida, o'quv materialini o'zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o'quvchilarni uchratish mumkin. O'quv faoliyatidagi kamchiliklar kichik sinflarda bilinmagan bo'lsa, V-VI sinflarda o'zlashtirishi keskin farqlanadigan bolalar ko'zga tashlanib qoladi.

O'smirlarda nazariy, formal va refleksiv tafakkur turlari shakllanadi. Xotira, idrok jarayonlari ham intellektualizatsiya bo'la boshlaydi, ya'ni o'smir o'quv materiallarini tushinib idrok qilish va eslab qolishni o'rgana boshlaydi. O'smirlarning o'z-o'zini anglashi sifat jihatidan o'zgaradi.

O'zi haqida o'ylash, o'zini boshqalar bilan taqqoslash o'smirning xususiyatidir. O'smir o'z kamchiligi ustida uylaydi, o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Ko'pchilik o'smirlar kattalarga o'xshaydigan o'z tenglashlariga o'xshashga harakat qiladilar. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni bir necha shartli guruhlariga ajratish mumkin

injiq tabiatli o'smirlar;

mustaqil fikrga ega bo'lmaganlar;;

orsiz, subutsiz o'smirlar va boshqalar

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni yuzaga keltiruvchi sabablarga esa:

psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;

shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;

bilish faoliyatidagi kamchiliklar;

maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar;

maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;

shaxsning biologik kamchiliklaridir.

Inson umrining o'smirlik bosqichida, bizningcha, asosan ikkita xatarli jihat paydo bo'ladi. Uning bittasi-kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi – o'smirning oilada va maktabda nazoratni chetda qolish. Shu ikki jihat katta yoshdagi odamlar e'tiboridan tashqari, o'z oqimida, maqsadga muvofiq, tarzda kechadigan bo'lsa, oqibat tarbiyasi qiyin deb ataluvchi o'smirlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Birinchi jihatni tahlil qilib ko'raylik, chunki, o'smirlik bosqichidagi o'g'il va qizlarda ilk «kattalik» hissi yuzaga keladi. Bu yoshdagi o'smir munosabat uslubini o'zgartiradi, axloq mazmuni ham keskin o'zgaradi. Kattalarning tashqi qiyofasi, yurish-turishi, ko'zga tashlanadigan ayrim tomonlari o'smir shu davrga tezroq yetish istagini uyg'otadi.

Modaga qiziqish, o'ziga aro berish, o'zgacha «madaniy» horqdiq chiqarish, mulzamat qilishga intilish kabilar.

Ular ko'pincha talablarga, katta yoshdagi kishilarga, televizor va kinolarda ko'rgandlariga taqlid qiladi. O'z tasavvurida nimani ommabop deb hisoblasa, xuddi shu narsani namuna tarzida qabul qiladi. O'smirda o'z-o'zini va o'zgalarni baholash mezonlari ana shu tariqa yuzaga keladi. Shuning uchun unda yangi his-tuyg'ular, orzu-umidlar, sevgi haqidagi kitob solish holatlari ko'zga tashlanadi.

Psixologiya fanida inson xulq-atvoridagi o'zgarish, goho chetga og'ish hodisasi ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi haqida umumiy qonuniyat mavjud. Jahon psixologlari olib borgan tadqiqotlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning paydo bo'lishiga ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixoloik omillar ham sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. O'smirlar harakatlarini izchil va uzluksiz o'rganishni, ulardagi chetga og'ish ko'rinishlari turlicha bo'lishini ta'kidlamoqda.

Tarbiyasi qiyin o'smir, axloqi butunlay ishdan chiqqan, harakat boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan, jinoyatchi emas. Shuning uchun ularning xulq motivlarini tadqiqot qilish orqali qayta tarbiyalash, shaxsda hukm surib kelayotgan ayrim illatlarni bartaraf qilish imkoniyati mavjuddir. Bu jarayon o'ta murakkab, ota-onadan, o'qituvchilardan, jamoat tashkilotlaridan, mahalla faollaridan katta kuch, sabr-toqat, uzoq mehnat va chuqur izlanishlar talab qiladi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar hatti-harakatini izchil va muntazam o'rganish, ular orasida axloq qoidalaridan chetga chiqish hollarining sabablari turlicha ekanini yaqqol isbotlamoqda.

Odatda tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy va axloqiy qonunbuzarliklar guruhiga ajratib o'rganiladi.

Maxsus tadqiqotlar qonunbuzar o'smirlardagi salbiy hatti-harakatlarning vujudga kelishi sabablariga qarab, tarbiyasi qiyin o'smirlarning taxminiy tipologiyasini tuzish imkonini beradi. Birinchi guruhga balog'atga yetmagan. Andishasiz, qaysar o'smirlar kiradi. Bunday o'smirlar shaxsiy qarashi, o'zgalarga baho berishi axloq ehtiyojlarini maktab, oila va jamoatchilik fikriga qarshi qo'yadilar.

Mustaqil ijodiy fikr yuritish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tanqid qilish singari shaxs sifatlarini shakllantirishga e'tibor berish zarur. Yo'l qo'ygan kamchiliklarini dalillar asosida ko'rsatib berish, qayta tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni guruhlarga ajratish maqsadida, individual suhbatlashish ularning savol varaqasini to'ldirishga o'rgatish. Ularni uzluksiz ravishda kuzatib borish.

Yozgan bayon yoki insholarni tahlil qilish, shaxsiy hujjatlarini izchil o'rganish, sinf rahbari yoki tarbiyachining kundalik daftarini yuritish, muammoli yoki «konflikt»li vaziyatni vujudga keltirish asosida tajriba o'tkazish, individual shaxsda yoki jamoada qanday o'zgarishlar ro'y berishini muttasil kuzatib borish, ularni qayta tarbiyalash uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Muloqotni kutish — murakkab o'ziga xos holat bo'lib, bunda o'smir shartli va shartsiz ravishda qiziqarli va muhim, takrorlanmas uchrashuv va muloqotni kutadi. Shu sababdan ular ota-onalari, atrofidagi kattalar va umuman boshqalarga diqqat va qiziqish bilan qaraydilar.

Muloqot ko`payishi natijasida do`stlik kelib chiqadi va bu do`stlik o`smir uchun o`zini mustaqil va katta odam sifatida hisoblay olishiga turtki bo`la oladi. Do`stlikning asosiy sharti esa — o`zaro bir-birini tushunish hisoblanadi desak mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. S.Herbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogika psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
2. M.G. Davaetshin, Sh.DO'stmushamedova, M.Mavlanov, S.TO'ychieva. «Yosh va pedagogik psixologiya» O'quv metodik qO'llanma Toshkent 2004 yil
3. Psychology.net.ru

---

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XOTIRASI XUSUSIYATLARI**

*Yo'ldiyeva Feruza Ostonovna  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 1-maktab o`qituvchisi*

Hozirgi davr talabi ma`naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo`lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma`naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta`lim jarayonida namoyon bo`ladi. Ta`limning sifatli tashkil qilinishi o`quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog`liq bo`ladi. Shunday ekan, o`quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o`rganilgan hamda ko`pgina tadqiqotlar o`tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo`yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib



borishi xususida ma`lumotlar olishimiz mumkin. Umumiy psixologiya darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko`pgina ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining pedagogik jarayondagi ahamiyati, o`qituvchi hamda o`quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta`lim jarayoniga ta`siri hususiyatlari o`rganilgan.

Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari, xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma`lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo`yicha o`tkazilishi mumkin bo`lgan turli yosh davrlari bilan bog`liq holda metodikalar majmuyi mavjud.

Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to`xtalгимizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarga guvoh bo`lamiz. Ularning har qaysisi o`z nuqta`i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o`tmoqdalar. Demak, bundan ko`rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi.

Shu o`rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog`liq ekanligi haqida to`xtalib o`tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o`zimizga kerak bo`lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba`zan xafa yoki ba`zan jig`ibiyron bo`lamiz va o`zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jummalarni aytamiz. Biroq unutmashligimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni ko`rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to`laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o`rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ma`lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma`lum bir sharoitda qayta namoyon bo`luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirga va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni

yanggi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi kata o'rin egallaydi. Ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyincchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi"

Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyani har xil mezonlar bilan o'lchashda o'z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo'nalishda o'rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi.

Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo'lishi shaklida o'rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo'lib, subyektlarning oldiga qo'yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta'siri ostida o'zgartirish mumkin.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirga va keng ko'lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. German Ebbingauz o'z "sof" xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayonini tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub materialni esda olib qolishning egri chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratdi.

Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o'z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini

ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan.

A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esad saqlab qolishi ta'kidlagan. Kata yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. Shuningdek ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Nemis psixologiyasida ham xotira bo'yicha turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, jumladan psixolog Vilyam Shtern bolalarda ham kattalarda ham ma'nosiga qarab tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash miqdori kam miqdor ekanligini ilmiy ishlari davomida aniqlab shu xulosaga kelgan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo'lmish xotiraning kuchli bo'lishi va ko'laminig kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qolingan narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o'qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi eslab qolish ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qolingan materialni tushunish oson bo'ladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

5. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
6. Ibduvlayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;

7. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014;
8. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya// Toshkent, 2010.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHDA DASTLABKI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

*Adizova Olima Isroilovna*

*Buxoro viloyati G‘ijduvon tuman 1-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi*

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishda ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka‘bi vazifalar belgilangan [1].

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi.

O'quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo'yadi, uni orzu qiladi, o'sha kasb egasi sifatida o'zini tasavvur qiladi.

Mazkur tasavvurning realligini ta'minlashda o'qituvchining katta o'rni bor. Negaki, o'qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go'yoki bir "sehrGAR", tengsiz murabbiydir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular:

- Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
- mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
- o'z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish;
- ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish;
- toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim [2, b. 6].

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar:

- kognitiv (axborotga ega ekanligi);
- kasbga qiziqish mezon;
- amaliy mezon [3, b. 46].

Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'prok o'z ifodasini topadi va namoyon bo'ladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O'qituvchining vazifasi — o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehhtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [2, b. 9].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin [2, b. 12-14].

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o'qtirib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo'naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir.

Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo'naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o'quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- kasbga yo'naltirishda yakka tartibda ishlashga e'tibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;
- turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo'naltirish;
- turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- madaniy tadbirlar tashkil etish;
- kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o'quvchilarni o'z vaqtida to'g'ri kasbga yo'naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi PF-4947-son Farmon. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. — 21 b.
3. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

---

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA IKKINCHI TILNI O'RGANISHGA QIYNALAYOTGAN TARBİYALANUVCHILARNI IKKINCHI TILGA QIZIQTIRISHDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH

*Mirsaidova Laylo Fazliddin qizi*  
*Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 333-DMTT Ingliz tili o'qituvchisi*

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda ingliz tilini bilish va ushbu tilda muloqot qila olish zamon talabidir. Shu sababli prezidentimiz qarorlari bilan MTTlarda ingliz tilini o'qitish yo'lga qo'yildi. Biz til o'qituvchilari o'zimizni bilimimiz va tajribamizni qo'llagan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ingliz tilidan bilim berib kelmoqdamiz. Bu albatta, juda ham qiziq va shu bilan birga juda ham mashaqqatli vazifadir. Chunki har bir tarbiyalanuvchining o'ziga yarasha hatti-harakati, qiziqishi, temperamenti bor. Darsni tushuntirish davomida guruhdagi har bir o'quvchini qiziqtirish, e'tiborini darsga qaratish kerak. Quyida biz turli xil usullarni qo'llab, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishni, darsda faol qatnashishlariga erishish usullarini ko'rib chiqamiz.

- Tilni sevdiring. O'qituvchilar va ota-onalar duch keladigan muammolardan biri bu bolaning xorijiy tilga bo'lgan munosabatidir. Ba`zida til o'qituvchilari, ota-onalar bolaning ongiga ingliz tilini majburiy, qiziqarsiz, murakkab fan sifatida, bola o'rganishga majburdek singdirilib boriladi. Xorijiy tilni o'rganish juda qattiq tartib, faqat so'z yodlash, tushunarsiz sxema, jadval sifatida bolaning ongiga kirib qolmasligi kerak. Aksincha, til bilish bola uchun butun dunyo kaliti ekanligi, chet ellik tengdoshlari bilan bemalol suhbat qila olishi uchun imkoniyat ekanligini tushuntirish kerak. Televizor yoki internet orqali ingliz tilidagi multfilmlarni, ko'rsatuvlarni bemalol tushunib, mazza qilib



tomosha qila olishi mumkinligi haqida gapirib berish kerak bo'ladi. Bu esa bolada o'z-o'zidan tilga bo'lgan qiziqishni oshirib beradi.

- Bolaga darsda turli hissiyotlar bering. O'qituvchilar har bir dars jarayonini shu darajada qiziqarli jarayondek tashkil qilishlari kerakki, bola har bir darsni intiqib kutsin. Dars davomida kichik yoshdagi bolalar e'tiborini o'ziga qaratish uchun eng yaxshi qurol bu hissiyotlar ya'ni emotsiyalardir. Aynan emotsiyalar orqali bolaga tilni o'rgatish qiziqarli mashg'ulot ekanligini ko'rsatib berish mumkin. Darsga kirib borgandagi ilk hissiyot, ya'ni "Hello Kids, how are you today, I am very glad to see you" deb baralla hursand bo'lib aytib kirish ham bolaga kayfiyat bag'ishlaydi va dars davomida juda qo'l keladi. Mavzuni tushuntirayotganda, yangi so'z o'rgatayotganingizda o'sha so'zni qandaydir intonatsiya, ko'tarinki ruh, body language bilan o'rgatish bolaga so'zni eslab qolishida yordam beradi. Masalan, "tiger" so'zini angry ko'rinishda ovozni qiribroq o'rgatish, qo'llaringizni o'tkir tirnoqli qilib ko'rsatish mumkin. Shunda body language va intonatsiya orqali bolani xotirasida "tiger" so'zi qoladi. Bear, wolf so'zlarini ham shunday usulda o'rgatish mumkin.

- Bolaga motivatsiya bering, o'qishga majburlamang. Hammamizga ma'lumki, har bir ishda, ayniqsa ta'lim sohasida to'g'ri motivatsiya berish kerak. Kichik yoshdagi bolalar uchun eng yaxshi motivatsiya bu uni – maqtash. Uyga berilgan vazifani o'z vaqtida bajarib kelgan va dars davomida juda yaxshi qatnashgan bolalarga stiker, smayliklar berish mumkin. Bolalarni bu juda rag'batlantiradi. Bolalar o'rtasida turli o'yinlar va musobaqalar o'tkazish judayam muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Ana shundagina har bir bolada motivatsiya, tilni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortib boradi. Ba'zi o'qituvchilar bonus sistemasini qo'llaydilar, bunda guruh aniq qanchadir stikerlarni yoki ballarni to'plashi kerak boladi. Bonus sifatida o'qituvchi bolalarning ingliz tilidagi sevimli qo'shiqlarini yoki ingliz tilida sevimli multfilmlaridan birini qo'yib berishlari mumkin. Yoki sevimli o'yinlarini o'ynashligi va musobaqa tashkil etishlari mumkin. Masalan, mashhur "Baby Shark" qo'shigi yaqqol misol boladi. Motivatsiyaga turli xil videoroliklar, bolalar qo'shigi va rangli sur'atlardan foydalanish ham katta yordam beradi. Bunda bolaning yoshi va qiziqishlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

- Yana bir muhim vazifa bolani qilgan xatosi uchun tanqid qilmang, ustidan kulmang va boshqa bolalar bilan solishtirmang. Dars davomida bola so'zlarni adashtirib qo'yishi mumkin. Bolani urushib tanbeh bermay xatosini to'g'rilash va bir ikki marta qaytarsa hammasi yaxshi bo'lishiligini tushuntirish lozim. Xatolari uchun bolani hech qachon urishmang. Bu yo'l bn siz bolani tilga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yishingiz mumkin. Xato – bu shunchaki ana shu mavzuga ko'proq e'tibor berish kerak va takrorlab turish kerak degan ko'rsatma ekanligini tushuntirish kerak xolos.

- Darsda turli o'qitish usullarini aralashtirib o'ting. Bola yangi so'z o'rganayotganida so'zni ko'rib, eshitib, takrorlab aytsa esida ko'proq qoladi. Agar yozishni biladigan bola bo'lsa usha so'zni yozdirib ko'rib ham mustahkamlash mumkin. Dars davomida bola so'zlarni yodladimi usha so'zlar ishtirok etgan qisqa rolik tomosha qilsin. Yoki bo'lmasa qo'shiq kuylab raqsga tushsin. Masalan, ingliz tili alifbosini olaylik. Uni shunchaki kitobga qarab yodlashdan ko'ra qo'shiq qilib aytib o'rgatish samaraliroq bo'ladi. Shu yerda yana bir narsani ta'kidlab o'tish joiz. Dars davomida bolalar zerikib qolganini, darsda unchalik faol emasliklarini sezdingizmi, o'ringizdan turib, bolalarni ingliz tilida so'zlarni takrorlab, jismoniy harakat qildiring. Masalan, Hands up-bolalar qo'llarini yuqoriga ko'taradilar va one, two, three, four, five deb aytguningizcha bolalar qo'llarini yuqoriga ko'tarib turadilar. Keyin Hands down... Shu tarzda davom etadi. 5 daqiqalik jismoniy harakat qildirish bolalarni yana faollashishiga yordam beradi.

- TPR (total physical response) – umumiy jismoniy javob metodi. Bu metod 30 yildan beri qo'llab kelinadi. Uning avtori psixolog Jeyms Asher. Bu metodni maqsadi har bir so'z o'zining jismoniy harakatiga ega ekanligidir. Har bir so'zni jismoniy harakat, tanava qo'l jesti bilan o'rgatish kerakligini anglatadi. Masalan, run so'zini yugurib o'rgatish, yoki banana so'zini pochog'ini artib yeb ko'rsatish bolani so'zni yaxshiroq eslab qolishida yordam beradi. (happy, kangaroo, giraffe, butter so'zlari misol bo'la oladi). O'qituvchi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel, kitobni och, turing, doskaga qarang kabi gaplarni ishlatganda imo-ishoralardan foydalansa bolaga bu gaplar tushunarli bo'ladi. Ushbu metodni o'yin tarzida ham

o'tkazish mumkin. Bola chiqib qaysidir harakatni ko'rsatadi va qolgan bolalar qaysi so'z ekanligini topishlari lozim.

- O'tgan mavzularni takrorlab boring. Har bir dars avvalida 1-2 daqiqa o'tilgan mavzularni umumiy savol tarzida takrorlab borish juda yaxshi samara beradi: How old are you? Can you count to 10? What color is this? Are you happy or sad? How is the weather today?

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga chet tilini o'qitishda turli usullarni, metodlarni qo'llash lozim. Til o'rganish jarayonini turli xil o'yinlar, mashqlar, she'r va qo'shiqlar orqali qiziqarli qilib tashkil etish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamalov J.J Chet tili o'qitish metodikasi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent "O'qituvchi" 1996.-368b.
2. Ваулина Ю.Е., Фрейдина Е.Л. Английский язык для студентов факультетов дошкольного воспитания / Начальный курс. М., 1994.
3. Миролубов А.А. О преподавании иностранных языков на современном этапе // Иностранные языки в школе, 1995, № 3.

---

## FARZANGLARINGIZ TAQDIRIGA BEFARQ BO'LMANG!

*X.Oripova*

*Andijon viloyati Marhamat tumani 21-maktab psixogi*

*Qizim ertalab turishi qiyin. Tursa ham darrov asabiylashib, xarxasha qiladi. Bizning jonimizni hiqiqildog'imizga keltirib yig'laydi. Na yupatganimizga ko'nadi va na tanbehimizga. Nimadan noroziligini o'ziam aytmaydi, biz ham tushunolmaymiz.*

*(Bir onaning yozg'irishidan).*

Bolaning turish-turmushini sinchiklab surishtirdim. Bog'chasidan kelarkanu, telefonga yopisharkan. Ota-onasi uning o'zi bilan o'zi ovora bo'lib ketganidan xursand,

befarq. Xatto kechki ovqati mahalida ham telefon qo'lidan tushmaydi. Turli o'yinlar, telefonda multfil'mlar ko'rish bilan ovora. Telefon zarur bo'lib qolganida ota-onalari uning qo'lidan zo'rg'a tortib olisharkan... Yarim tunda ming mashaqqat bilan uyquga yotishga majburlasharkan.

Bir tanishim harbiy vrach edi. Bolalar xonasida telefonga ko'zi tushsa rang-ro'yi o'chib ketadi. Darhol butunlay o'chirib, xonadan tashqariga chiqarib tashlaydi. Ayniqsa, homilador ayollar va chaqaloqlar bor uyda telefonning o'chirilgan bo'lsada, atigi elektr quvvati olayotgan holda turganini ko'rsayam iztiroblarga to'lib ketadi. Fojea ustidan chiqqanday ahvolga tushganday dir-dir titrayadi.

- Reaktiv samolyotning matorini o't olayotgan paytida yaqinida bo'lganmisiz? – Deydi azobdan to'g'anib, - Ovozining balandligiga, quloqni qomatga keltirishiga chidab bo'lmaydi. Harbiy xizmatda bunga bazo'r chidardik va qochgani joy topolmasdik. Keyin tinch joyga chiqqanimizda ham bosh og'rig'u miya gangishlaridan o'zimizga kelolmay yuramiz. Aslida, telefonlarning kompyuterlarning megabayti ana o'shandan o'n barobar kuchli magnit to'lqinlariga ega. Ayniqsa, elektr quvvati olayotgan paytida odamni o'ldirish darajasida elektro magnit to'lqinlari kezinishidan faqat mutaxassislargina xabardor. Bu elektro to'lqin ana o'sha reaktiv samolyot shovqinidan o'n barobar havfli shovqin hisoblanadi...

Internet tarmog'ida g'alati bir maqolani o'qib qoldim. Hojatxonaga kirganda telefondan mutlaqo foydalanmaslik, aslida olib kirmaslik tavsiya qilingandi. Tor joyda elektrotolqinlari sezilmagan holda insonga o'ta og'ir shikastlanishlarni yetkazayotganligini bilmas ekansan.

Nafaqat bolalar, balki kattalar ham yostiqlari oldiga quvvat olish uchun qo'yilgan telefon bilan uxlayotganliklaridan dahshaga tushish lozim ekan!

Hozirda atigi uch yasharlik bolasi telefonni hayratlanarli boshqarayotgani, xatto o'zi ham bilmaydigan usullarni bilishidan g'ururlanib maqtanayotgan ota-onalarni ko'rib, rosti achinasan. Kelajagidan qo'rquvga tushasan. Aslida, bolaning qo'lga bomba tutqazib qo'yganimizdan kam ahvolda emasligimizni tushuna olsak edi!..

Bolarimizning sarkash bo'lib qolgani, injiqligi, tabiati og'irligi, gapga ko'nmasligi janjalkashligi va doimiy asabda, sarkashlikda ekanining tub sabablarini

bilmay dog'damiz. Ogoh bo'ling, bolalar robotga aylanishyapti! Manqurt, deya ayuhannos solamizu, manqurtlikka bolalarimizni tayyorlab borayotganimizni sezmayapmiz. Bolalarni elektro magnit nurlanishlardan asrang!..

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, hozirda telefon o'yinlariga qiziqayotgan bolalarning aksariyati o'n besh – o'n olti yoshlarga borganidayoq ruhiy kasallar qatoriga kirib qolganday, boshqarib bo'lmaydigan mutant larga aylanib qolganini sezmay qolamiz...

Bolalar taqdiriga befarq bo'lmang, deya hayqirging keladi.

---

## ВЫСОКОДУХОВНАЯ МОЛОДЕЖЬ - ФУНДАМЕНТ БУДУЩЕГО

*Адизова Дилрабо  
Учитель русского языка, школы №1,  
Гиждуванского района, Бухарской области*

Мы проводим на высоком уровне практические реформы для развития нашей страны и укрепления всех сфер нашего общества. Изменения в системе образования, безусловно, направлены на развитие образования, а развитие образования включает в себя, прежде всего, мир нашей страны, развитие нашей страны, благополучие нашего общества, а самое главное, воспитание гармонично развитого поколения. С самых первых дней нашей независимости большое внимание уделялось укреплению нашей молодежи во всех отношениях, как физическом, так и духовном, и сегодня созданы и укрепляются все условия. Особое внимание сегодня уделяется развитию нашей молодежи как бойких, волевых людей. Духовность прививается в сознание человека с годами крепким семейным воспитанием, учением предков, чувством родины, различными уроками жизни. Как сказал Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов: «Безусловно, духовность любого народа или нации неотделима от его истории, самобытных

обычаев и традиций, жизненных ценностей. Конечно, духовное наследие, культурные богатства, древние исторические памятники являются одним из важнейших факторов в этом плане». Духовное, просвещенное, гармоничное воспитание детей формируется в результате совместной работы семьи, общества, образовательных учреждений. Семья - это оплот, место здорового воспитания. Чувство Родины начинается с семьи, чрева матери. Семья - это социальное и духовное богатство нашего общества. , является одним из важных факторов формирования и роста мировоззрение, воображение и убеждения. В одном из своих произведений наши великие ученые выражают свое отношение к каждому члену семьи следующими определениями: "Ребенок - наследник прекрасного воспитания. В таком доме царят изобилие, радость, взаимоуважение и гармония". Закон также устанавливает, что семья находится под защитой государства Родины. Глава называется «Семья», а в этой главе семейные отношения и ответственность родителей за воспитание детей в статьях 63, 64, 65, 66 , а также материальная и духовная забота родителей в старости Такое внимание к семье является причиной того, что законодательно установлено, что там, где независимость семьи основана на крепкой дисциплине и воспитании, страна и нация будут такими же сильными и стабильными. в социальной сфере или в духовно-политической сфере она оказывает свое влияние прежде всего в семейной среде.

Все мы знаем из истории, что на нашей Родине уже много лет Все мы знаем из истории, что махалля – это проверенная годами форма общественной жизни в нашей стране, махалли – небольшие территориальные единицы внутри этих районов, доставшиеся в наследство от прошлого, соседство – еще один мощный источник наших духовных ценностей. Место формирования традиционного семейно-родственного этикета. Махалля - общественная организация, занимающаяся такими вопросами, как образ жизни, духовные потребности нашего народа, мировоззренческое сознание и мышление, человеческие отношения, брак, формирующий семейные отношения. Наш кварталы, которые вместе с улицами становятся все краше, сегодня представляют собой сообщество системы управления районами мировым сообществом Она также признана важным

институтом общества. Кроме того, Президент уделяет большое внимание дальнейшему совершенствованию системы самоуправления наших махаллей, и даже 13 июля 2017 года специальным постановлением была создана «Махаля Ифтихори». Такое внимание и признание, безусловно, важны для развития и прогресса нашей страны. Неоценима роль махаллей в осуществлении благородного дела. Развитие нашей Родины основывается на национальных и общечеловеческих ценностях. В культуре нашей страны общечеловеческие ценности имеют приоритет. Как сказал Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов, «мы не можем представить свое развитие в отрыве от развития других стран, и все будет зависеть не от нас. Именно на основе своих идей он делает акцент на общечеловеческих ценностях. Общечеловеческие ценности и национальные ценности дополняют и обогащают друг друга. К общечеловеческим ценностям относятся уважение к человеку, любовь к жизни, долг, преданность, уважение к предкам, патриотизм, справедливость, просвещение, мир, согласие, дружба и сотрудничество. Приверженность общечеловеческим ценностям учит нашу молодежь правильно жить, находить свое место, мудро относиться к другим, считать свою Родину священной, ценить дружбу. Национальные ценности – это ценности этой нации, народов этой страны, которые почитаются историей и служат обогащению духовности человека. Трудолюбие, преданность исторической памяти, уважение к вере, вежливость, скромность и вдумчивость играют важную роль в национальных ценностях. В нашей стране ведется большая практическая работа по сохранению наших общечеловеческих и национальных ценностей и воспитанию нашей молодежи. Президент Шавкат Мирзиёев установил тесные связи с нашими соседями и соседями в ряде социально-экономических сфер. Например, в ходе визита Президента Афганистана в Узбекистан в декабре 2017 г. состоялось открытие образовательного центра по обучению афганских граждан при Министерстве высшего и среднего специального образования в Термезском районе Сурхандарьинской области. Кабинет Министров также подписал постановление от 13 ноября 2017 года об открытии в Термезском районе Сурхандарьинской области образовательного центра по обучению афганских

граждан, в котором будут формироваться такие качества, как коммуникабельность, хорошее сотрудничество и взаимоуважение, а у будущего поколения оставаться сильным.

В заключение хотелось бы сказать, что высокими темпами ведется практическая работа для развития нашей страны, поднятия ее на высокий уровень развития, благополучия и мира нашего народа, а также воспитания нашей молодежи. можно увидеть возрастающую роль семьи, общества и образовательных учреждений в воспитании в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, традициям и обычаям. Как сказал Президент Шавкат Мирзиёев, «Наш народ должен стремиться к ясной цели, быть богатым, быть счастливым и уважаемым, быть воином, быть слабым и униженным, нести бремя несчастья» и порабощение зависят от воспитания, которое ученый получил от своих родителей в детстве.

---

## **O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MUAMMOLLARI**

*Otamurotova Zubayda Olimboyevna  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani 39-maktab psixologi*

Bu dunyodagi barcha xatti-harakatlarimizning ibtidosi yashashga bo'lgan intilishga borib taqaladi. Aslida esa yashash uchun unchalik ko'p narsa zarur emasdek go'yo. Lekin inson ongli mavjudot bo'lgani bois shunchaki yashash, havo, suv, ozuqa, issiqlik, yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalana olmaydi. U yaxshi yashashga intiladi, ehtiyojlarini imkon qadar to'liqroq qondirish payida bo'ladi.

Odamzod dunyoga kelibdiki, yaxshi yashash yo'llarini izlaydi. Bu esa unda olamni bilishga, o'zligini anglashga intilish, qavmdoshlari bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ma'lumot almashish kabi ma'naviy ehtiyojlarni ham vujudga keltiradiki, bugun endi



aynan shu ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani farovon yashash sharti, to'kin-sochinlikning asosiy omili hisoblanmoqda. Bugungi kunda insonning o'zi xohlaganchalik umr kechirishining muhim omillaridan biri munosib kasb egasi bo'lish bilan ham belgilanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi tarbiyasi qanchalik muhim bo'lsa, uni qobiliyat va qiziqishlari asosida kasbga yo'naltirish ham bugungi kunda muxim pedogogik-psixologik muammolardan hisoblanadi. Chunki yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyat demokratik qadryatlarni mustahkamlash bilan mamlakatimiz kelajagini jaxon xam jamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari xayotga kirib kelmoqda". Yangi avlodni kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda jamiyatimiz uchun salohiyatli kadrlarni yetkazib chiqishda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish muhim masalalardan biri bo'lib, asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda, o'z hoxishi bilan kasbiy moyilligini aniqlash orqali kelgusi hayoti, faoliyati va yutug'ini ta'minlab beradigan kasb tanlashini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jaroyandir.

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongli ravishda yondoshmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumannig xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasbga o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, so'g'lig'i to'g'ri kelsagina kasbni ongli ravishda tanlash mumkin.

Kasb tanlashda mustaqillik deganda kushining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, o'zining tashabbuskorligi to'la namoyon bo'lishi tushuniladi. Lekin bu bilan o'quvchi hoxlagan kasbni o'zi tanlashi lozim degani emas, bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Kasb tanlash to'g'risidagi masalada o'quvchining va ota-onalarning fikri bir joydan chiqsa yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik bo'lmasa, o'z imkoniyatlarini chamalab, katta yoshli kishilarnning fikr mulohazalarini tahlil qilib ko'rish lozim.

Bundan tashqari o'quvchilarga mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikni bilish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligi aytib o'tildi:

1. Kasbning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga inson jamiyat taraqqiyotidagi o'z o'rniga ega bo'lish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash va avaylashga o'rgatish;
3. O'quvchilarga kasbga nisbatan muhabbatni o'rgatish;
4. O'quvchilarni kasb tanlashda ongli ravishda, vijdonan yondashishga odatlantirish;
5. Kasb tanlaganda uning hayotiy zarurat ekanligi, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
6. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
7. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hakoza.

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik insonning o'z qiziqishi qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga o'zi baho berishini taqozo etadi. Lekin har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydi. Shuning uchun fan o'qituvchilarining, murabbiylarning fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki har bir pedagog o'quvchining xulq - atvorini qiziqishlarini, mayillarini, xarakterini va mehnatga qay darajada tayyor ekani to'g'risida hammadan ko'ra yaxshiroq fikr bildiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida o'smir yoshdagi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning qiziqishi, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojga qaratish muhimdir .

O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullaridan biri esa kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo'nalganligini aniqlashdir. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda 9-sinf bitiruvchilari bilan „Qiziqishlar anketasi“, „Kasbiy motivatsiyani aniqlash“, „Deferensial-diagnostik so'rovnoma“, „O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi“, „Shaxs sifatleri va kasbiy qobiliyatlarni o'rganish metodikasi“, „Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash

metodikasi”, “Qiziqishlar xaritasi” kabi kasbiy tashxis metodikalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maktab psixologlari va kasbga yo’naltiruvchilar, mehnat va boshqa fan o’qituvchilari tomonidan turli usullar yordamida o’quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash mumkin.

Kasb tanlash katta hayot yo’lidagi eng muhim qadamdir. Inson o’zini baxtli his qilishi uchun albatta atrofida sevimli insonlar bo’lishi bilan birgalikda, o’zi qiziqqan kasb egasi bo’lishi lozim. Ba’zi yoshlar ko’p yillar orzu qilgan mutaxassislik uchun oliy ta’lim tizimiga hujjat topshirish vaqti kelganda, ikkilanish yuzaga keladi. Chunki uning o’z bilimiga nisbatan ishonchi bo’lmaydi. Shuning uchun ham bilimdan kelib chiqib kasb tanlash emas, balki bilimni maqsadga qarab oshirib borish zarur. Buning uchun esa bolaga yoshligidanoq o’zi yoqtirgan kasb haqida oilada va maktabda to’g’ri tushuncha berish va bolada qiziqish va layoqatni shakllantirib borish lozim.

O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek; ”Har kuni, har soatda fidoyi bo’lish, o’zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish –haqiqiy qahramonlik aslida mana shu ...”. Zero, umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish o’quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, iqtidorini aniqlash, ularni o’z jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos kasblarga yo’llash ularning kelgusida el-yurt ravnaqi uchun qo’shadigan hissasiga asos bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda kasbga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o’quvchilarni ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

4. Umumiy psixologiya . E. G’oziyev. Toshkent-2002
5. Turmush tarzi, ta’lim va milliy o’ziga xoslik. A.Jabborov, Sh.Bekova. Qarshi-2002
6. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal

## TA'LIM MUASSASALARIDAGI AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING O'RNI VA MUHIM VAZIFALARI

*Ruzmetova Intizor Rajabovna*  
*Xorazm viloyati Bogot tumani 34-maktab psixolog*

Maktabda o'zlarini psixolog deb hisoblaydigan shaxslar oldiga borganingizda, har xil insonlarni uchratasiz. Sizning ko'z oldingizda kam gap, hech kimga qo'shilmaydigan, uncha o'ziga tortmaydigan inson namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilanbirga, hamma bilan chiqishib ketadigan, xushchaqchaq, sergap, chiroyli inson gavdalanishi ham mumkin. Natijada siz har xil kutilmagan taassurotlar olasiz. Biroq shu narsa qiziqki, barcha insonlar turlicha kasbga, bilimga va kasbiy xulq-atvorlariga ega boisalar-da, o'zlarini psixolog deb sanaydilar. Ba'zan «Qancha insonlar mavjud bo'lsa, shuncha psixologlar mavjud», — degan gapni eshitib qolamiz. Biroq psixologiya — mualliflik kasbi bo'lib, unda insonning individualligi, ichki ruhiy dunyosini bilish qobiliyati namoyon bo'ladi. Bulardan tashqari, har bir psixologning individual kasbiy stilistika muammosi mavjud. U qanday mavzuni tanlaydi? Kasbidagi uning qiziqishlari qanday? Umuman, u nima uchun psixologiyaga kelgan? U nima bilan shug'ullanishni istaydi? Ishida qanday usulni afzal ko'radi? Qaysi yoshdagi mijozlar bilan ishlash afzal?

Har xil psixologlarning ishdagi farqi, ularning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib qolmay, «psixologiya» debnomlangan umumiy kasbiy sohadagi: **nazariy psixologiya, eksperimental psixologiya, amaliy psixologiya va psixokorreksiya** kabi kasblar bilan ham bog'liqdir. Maktab psixologi — bu o'qituvchilar bilan chiqisha oladigan, pedagogik jamoa tomonidan tan olingan, ota-onalar va o'quvchilar orasida kasbiy obro'ga ega bo'lgan psixolog amaliyotchidir. Unga maktab hayoti yaqin va tushunarli, u ko'pgina psixologik-pedagogik jamoalar bilan shug'ullanishga, psixodiagnostik va psixokorreksion ish usullarini egallashgatayyor. Boshqacha aytganda, maktab psixologi bu har tomonlama etuk va bilimli inson. Agar psixolog nazariyotchi — psixologlarning seminarlariga doimo qatnashib, turli xil psixologik assotsiatsiyalarga a'zo bo'lsa, bularning bari uning mutaxassis sifatida o'sishiga, maktab hayotidagi odatiy faktlarga yangicha qarashning shakllanishiga olib keladi. Maktab psixologi nashr qilingan

ishlarni o'qib, eksperimental tadqiqot natijalari bilan qiziqib tanishishi mumkin. Maktab amaliyotiga yaqin faktlarni bilish dunyoqarashni kengaytiradi, maktabdagi ishlarni va o'z muvaffaqiyatlarini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi. Shunday qilib, psixologiya maktabga kerak. Qanday psixologiya degan savol tug'iladi? Turli psixologiya sohalaridan maktabda amaliy psixologiya va psixopraktika ko'proq kerak. Nazariy va eksperimental psixologiya maktabga emas, maktab psixologiga mutaxassis sifatida o'sishi uchun kerak. So'ng psixolog o'z ishi uchun qanday metodikalardan foydalanishi, qanday yosh davri bilan ishlashni tanlaydi. Bunday hal qiluvchi qarorni qabul qilish uchun psixolog quyidagi harakatlarni amalga oshiradi.

1. Bildirilgan maktab kutilmalarining qaysi biri haqiqiy va asosiy hisoblanadi, qaysilari yo'q, degan savolga javob topishi zarur. Birinchi guruhga psixolog kasbi imkoniyatlari haqida tasavvurdan kelib chiqib, kutilmalarni kiritadi. Ikkinchi guruhga boshqa kasblar bilan qoniqtiriladigan kutilmalar kiradi.

2. Psixolog kasb imkoniyatlari bilan hal qilinadigan birinchi guruh kutilmalarini tahlil qilib, psixolog 2 ta ro'yxat tuzadi, ro'yxatda kutilmalar ahamiyatiga ko'ra saralanadi. Birinchi ro'yxatda maktab kutilmalari maktabning obyektiv ehtiyojlariga ko'ra tuziladi. Bunda maktabda birinchi navbatda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ro'yxat boshida turadi, ikkinchi ro'yxat u hal qila oladigan muammolardan boshlanib, hal qilinishiga ko'zi yetmaydigan muammolar bilan tugallanadi.

3. Tuzilgan ikki ro'yxatni o'z oldingizga qo'ying. Maktabni qiziqtiradigan va siz hal qila oladigan muammoni toping. Bu muammo ikki talabga javob berishi lozim: uning hal qilinishi maktab uchun zarur hamda siz psixolog sifatida muvaffaqiyatli hal qilinishiga ishonch hosil qilishingiz zarur.

**Qoida:** maktabda ishni obyektiv qiyin hal qilishga yillar kerak bo'ladigan, bir psixologning kuchi yetmaydigan, balki mutaxassislar guruhi hal qiladigan muammolardan boshlamang.

O'zingiz hal qilishingizga ishonmaydigan muammolardan boshlamang. Maktab uchun zarur bo'ladigan, o'z mahoratingizni, o'zingizga ishonchni hamda muvaffaqiyatlaringizni namoyon qila oladigan muammolardan boshlang. Bu xislatlar sizning ijtimoiy boyligingiz bo'lib qoladi va u doim sizni himoya qiladi.

Ushbu qoidaning qat'iyliги psixologning maktabdagi faoliyatida boshlang'ich davr ma'suliyatli hisoblanadi. Dastlab ish boshlaganda siz xato qilishga yoki qurbingiz yetmaydigan katta muammoni hal qilishga kirishganligingiz uchun muvaffaqiyatga erisha olmaganligingizni sabab qilishga haqqingiz yo'q. Sizga berilgan dastlabki baho uzoq vaqt esda qoladi. Vaqt o'tishi bilan sizning o'zingizga ishonmasligingiz, xatoga yo'l qo'yishingiz yo'qoladi tajriba to'playsiz, muvaffaqiyatga erishasiz, lekin maktabga kelganingizdagi baho, soyangizdek orqangizdan anchagacha ergashib yuradi.

4. Maktab kutilmalarini ijtimoiy psixologik tadqiq qilish jarayonida psixolog odamlarning psixologiya haqida nimalarni o'ylashi, psixologning maktabdagi ishi haqida hamma ma'lumot oladi. Odamlarni ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruhga % psixologga ijobiy yondashadigan, uning maktabdagi rolini to'g'ri tushunadigan o'qituvchilar, ota-onalarni kiriting. Bu guruh psixologik bilimlar olishga, psixologik mashg'ulotlarda ishtirok etishga ichdan tayyorlar. Ikkinchi guruhga psixologiyaga tanqidiy yondashadigan o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar kiradi. Bu guruhga psixologiyaga befarq qaraydigan yoki psixologiyani boshqa kasblar (vrach, narkolog, ruhoniyy va boshqa kasb) bilan almashtiradigan kishilar kiradi.

**Qoida.** Ish faoliyatingizni birinchi guruh orasida boshlang. O'z kuchingizga to'liq ishonganingizda, maktabda siz haqingizda ijobiy fikr paydo bo'lgandagina ikkinchi guruh vakillari bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Bu qoidaning muhimligi quyidagicha tushuntiriladi. Birinchidan, maktabda dastlab ish boshlashingizda, psixolog sifatida o'z kuchingizga to'liq ishonmaganingizda boshqa odamlarning qarshiligini yengish bilan bog'liq ortiqcha hissiyotga berilmang. Ikkinchidan, psixologni ijobiy qabul qiladigan birinchi guruh sizni psixologik jihatdan qo'llab-quvatlaydilar. Siz o'zingizning foydangizni his qilasiz, o'z kuchingizga ishonch hosil qilasiz. Uchinchidan, ishingiz haqidagi birinchi guruh ishtirokchilari guruhdagi insonlarning fikriga ta'sir qiladi, ularning psixologiyaga qarashlarini salbiydan ijobiyga o'zgarishiga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. V.M.Karimova, R.Sunnatova. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. Toshkent «SHarq» 2000

2. Toshimov R. G'oziev Ye. G'. "Zamonaviy individual va guruhiy psixologiya". Toshkent, "Universitet" 1999y.
3. Ye.G'oziev, SH.V.Azizova "Tashkiliy psixologiya" Toshkent-1999y.
4. M.Rajabov "Eksperemental psixologiya metodlari to'plami". Farg'ona 2012
5. Shevandrin N.I. Psixodiagnostika, korreksiya i razvitie lichnosti. – M.: Gumanit.izd.Syentr Vlados, 1998.
6. Z.T.Nishonova Psixologik xizmat T.2007.

---

## ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK VA ROLLI O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Qodirova Dilbar Zikrillayevna*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 25-umumiy*  
*o'rta ta'lim maktabi oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy ta'limni tashkil etishda didaktik va rolli o'yinlardan samarali foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

### **Kalit so'zlar**

Ta'lim, tarbiya, motivlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil

qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq - odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amadda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim - tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim - tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi.

Natijada, oldingi asrning 60 - yillari boshidan AQSH da, so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejamli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi — aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb ham nomlangan. U muammolarni quyidagicha echishga asoslanadi:

—muammoli vaziyat yaratish;

—g'oyalarni shakllantirish;

—eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va tanlash. Guruh ishtirokchilariga muammoni aniqlash va uni echish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning tayyorgarliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda didaktik va rolli o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli



texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Bunday darslar o‘quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Didaktik va rolli o‘yinli darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. SHu sababli o‘quvchilarning bilim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta‘lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyillik larini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlar alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq- odob o‘rgatish, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Didaktik o‘yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Turli o‘quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida qo‘llash nihoyatda qulay bo‘lgan bir qator o‘yinli texnologiyalar yaratilgan. Didaktik o‘yinli texnologiyalar ta‘lim jarayonining

samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, hamda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqtdan unumli foydalanish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishda shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. SHaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyish etishga imkon paydo bo'ladi, ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi, o'z – o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. Didaktik o'yinli texnologiyalar bulardan tashqari o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi. Didaktik o'yinli darslarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga amal qilish lozim:

1. Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi.
2. Muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi.
3. Barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob-axloq me'yorlariga mos kelishi.
4. O'yin strukturasi mantiqiy ketma – ketlikda bo'lishi.
5. Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflagan holda ulkan samaraga erishish kerak

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. Didaktik o'yinli darslarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatini uyg'unligiga qarab: rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini.

Guruh ishtirokchilariga muammoni aniqlash va uni echish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning tayyorgarliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil hisoblanadi.

## ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYAGA OID FIKRLARNING YORITILISHI

*G'ofurova Nigora G'uzorovna*

*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 61-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar yoritilgan. Shu bilan birga ta'li-tarbiya jarayonida o'qituvchi faoliyatiga oid qarashlari keltirilgan.

### **Kalit so'zlar**

Sharq mutafakkirlari, ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, metodlar, fanlar, do'stlik.

Sharq va Evropada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi tufayli, «Shayx – Ur - Rais» Sharqda «Olimlar boshlig'i», Evropada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim – tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qushadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zaraurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb,

bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» («Omo'zish va parvarish madrasa farzand») bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Yoshlarga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;

ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;

talabalning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

fanga qiziqтира olishi;

berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur,

Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Shu jihatdan olimning «Hay ibn Yaqzon» asari kishilarning did – farosatini

o‘stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta’lim – tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishor qiladi: «Hay ibn Yaqzon» (Uyg‘oq o‘g‘li Tirik). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini ibn Sinoning o‘zi ham ta’kidlaydi.

Demak, «Hay ibn Yaqzon» mantiq ilmiga bag‘ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql – tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o‘zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargini bo‘lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham taxlil etadi va har biriga ta’rif beradi : masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo‘ladi, yomon illatlardan o‘zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy, axloqiy hislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi – muhabbat, mo‘tadillik, aqlilik, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo‘tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g‘azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o‘zini ta’magirlikdan tiysa, mo‘tadillikka rioya qilsa, o‘zida xirsning namoyon bo‘lishini yengadi, inson yomon illatlarni yengishda o‘z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy hislatning ta’rifini beradi: mo‘tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq mayorlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

sahiylik – yordamga muxtoj kishilarga ko‘maklashuvchi insoniy quvvat;

g‘azab – biror ishni bajarishda jasurlik; chidamlilik – inson o‘z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

aqillilik – biror ishni bajarishda shoshma – shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi. Ziyraklikni narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob – uqibatga duchor bo‘lganda, ular bilan xushmuomalada bo‘luvchi insoniy quvvat; kamtarlikka xudbin ishlar bilan

shug‘ullanishdan to‘xtatuvchi kuch sifatida ta’rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to‘siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko‘rsatib o‘tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o‘tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta’riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do‘st bo‘lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do‘stona yashashga intiladi.

---

## XALQ OG‘ZAKI IJODI MA’NAVIY – AXLOQIY TARBIYA MANBAI SIFATIDA

*To‘xtayeva Ma‘rifat Xolmurodovna  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani  
67-maktab 2-toifali ingliz tili fani o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni yoritilgan.

### **Asosiy tushunchalar**

O‘zbek xalq pedagogikasi, qo‘shiqlar, ertaklar, tarbiya, dostonlar, odob-axloq.

«O‘zbek xalq pedagogikasi» qamrovi nihoyatda keng, bag‘oyat serqirra va serjilo tushuncha bo‘lib, u shu xalq paydo bo‘lgan butun davrni o‘z ichiga oladi.

Xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy- axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og‘zaki ijodi, qadrshunosligi va marosimshunosligining etakchi yo‘nalishlarini, diniy-axloqiy ta’limotni qarab olgan. U xaqimizning asrlar davomida to‘plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma’rifiy, estetik, ma’naviy va jismoniy etuklik borasidagi qarashlarni, tajriba- xulosalarni lo‘nda donishmandnamo tarzda ifodalaydi.

Xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida qo'llanma darsliklar shaklida bizga etib kelmay, xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qatida saqlanib qolingan.

Xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi og'zaki tarzda bo'lib, har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha etib kelgan.

Inson ona qornidan yaxshi, yomon bo'lib tug'ilmaydi, birday tug'iladi. Yaxshiyomonga aylanishitarbiyadan dastlab ota-ona, oila, maxallakoy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat tuzumdandir. Bunday oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi say-harakatlari ahamiyatlidir.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida yashab keldi. Ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol oynaydi.

Qo'shiqlar (lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari, «Yor-yor» lar, «Alla» lar, yig'iyoy'qlovlar, sog'in, o'rim, yanchiq, bayram-sayillar, qo'shiqlari, bolalar folklorining namunalari va boshqalar) go'zallik, samimiyat, mehr-shavqat, orzu-umid, quvonchshodlik, g'am-g'ussa, armon, ma'zunva ma'sum tuyg'ularni tarannum etish orqali har qanday kishida chuqur insoniy tuyg'ularni o'stiradi, hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

Ertaklar orqali kishilar sirli-sehrli olam bilan tanishadi, bu borada bilim va tushunchalari boyiydi. Yaxshi xislatlardan oziq olish yomon xislatlardan nafratlanish hissi shakllanadi.

Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalq pedagogikasining ham yagona tarbiya vositasi bo'lib kelgan.

O'zbek xalq pedagogikasi bola ko'rish, tarbiya jarayoni, uning jamiyatda tutgan o'rni, xalq pedagogikasida tarbiyaning tarkibiy asoslari (aqliy, axloqiy, jismoniy mehnat va nafosat tarbiyasi), milliy tarbiyani amalga oshirish usul va vositalari, yoshlarni dastlabki oilaviy odob qoidalariga odatlantirish va uni amalga oshirish yo'llari, oilaviy mehnatga odatlantirish, uni amalga oshirishda foydalaniladigan usul va vositalar, xalq pedagogikasiga maktab va hunar-talimi va boshqa tarbiyaviy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy pedagogikaning bosh maqsadi va vazifasi har jihatdan to'la kamolotga erishgan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishga qaratiladi. Barkamollik yoshlarni aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat hamda nafosat jihatdan etuklikni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi to'g'ridan-to'g'ri bola tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda.

Inchunin tez aytish-bolalar nutqini o'stirishga, maqol-bolalarning odob-axloq tarbiyasiga, qo'shiq-bolalarning nafosat tarbiyasiga, doston va ertaklar-bolaning turli tomonlama tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilib kelgan.

To'maris - O'rta Osiyoning qadimiy xalqlari orasida mashhur bo'lgan qahramon ayollar haqidagi afsona. To'marisning asli bizgacha etib kelmagan. Gerodokning «Tarix» asarida hikoya qilinishicha, Eron shohi Kir O'rta Osiyoga yovuz niyat bilan bostirib kiradi. O'rta Osiyo aholisi, ayniqsa To'maris boshchiligidagi massaget qabilalari Kirga qarshi qattiqkurashdilar. Kir qo'shini engiladi va uning o'zi 529 yilda jang maydoniga o'ldiriladi. To'maris Kirning boshini qon bilan to'lg'azilgan meshga solib, «sen umring boyi qonga toymading, men o'z ontimga amal qilib, seni qon bilan sug'ordim. Birovning yurtiga zo'ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!» deydi. To'maris harakter e'tibori bilan jangnoma tipidagi afsonalar tipiga kiradi. Qabila va yurt mudofasi afsonaning asosiy mavzusi bo'lib, uning g'oyaviy mazmunini chet el bosqinchilariga qarshi kurash, xalq va yurtni zolimlar zulmidan himoya qilish, mardlik, qahramonlik tashkil etadi.

Shiroq- jangnoma tipidagi afsonalardan biri. Mazmuni tarixiy voqealar asosiga qurilgan. Afsonani birinchi marta yunon tarixchisi Polien o'zining «Harbiy hiylalar» degan asrida keltirgan. Afsonada sak qabilasidan chiqqan otboqar Shiroqning jasorati, tadbirkorligi, vatanparvarligi, erkparvarligi kabi fazilatlari himoya qilinadi. Shiroq o'z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, o'zi Eron shohi Doro lashkarlariga qarshi chiqadi va harbiy hiyla bilan uning qo'shinlarini chalg'itib, suvsiz, dash- sahroga boshlab boradi va halokatga duchor qiladi. Qabila va xalq mudofaasi asarning bosh mavzusi bo'lib, bosqinchilarga qarshi kurash, mardlik va jasorat ko'rsatish esa uning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Asarda bosqinchilik qoralanadi, tinchlik va ozodlik uchun kurash ulug'lanadi.



Ma'lumki, millat o'z tarixini unutsa, uning milliy pedagogikasi ham o'z zaminidan ajralib qolishi tabiiy hoi. Ilg'or demokratiya, insonparvarlik asosida shakllangan xalq pedagogikasidan ajralib qolishi umumta'lim maktablari, o'rta va oliy pedagogika o'quv yurtlari, oila va keng jamoatchilikning tarbiya borasidagi faoliyatiga jiddiy ziyon yetkazdi. Xalq ona suti bilan kirib, uning qon-qoniga singib ketgan milliy odob-axloq an'analardan mahrum bo'ldi. Natijada yoshlar o'rtasida turli ko'rinishdagi axloqsizlik, jinoyat, ma'naviy qashshoqliklar tobora ko'payib bordi.

Hozirgacha nashr qilingan xalq og'zaki ijodi namunalari va folklor materiallariga bevosita bolalar ishtirok qilmagan yoki qahramonning yoshligi tasvirlangan qolgan asar ham uchraydi. Bolalar bevosita ishtirok qilgan xalq ijodi namunalari esa qay darajada bo'lmasin, xalq pedagogikasining tarbiyaviy an'analari chetlab o'tilmaydi. Demak, xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqi ijodiyoti pedagogikasining ham yagona tarbiya vositasi bo'lib kelgan va u bizning zamonimizda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

3. Alla, qo'shiq, ertak, maqollarda kasb - xunar ilm- fan chorvachilik dexqonchilikka doir g'oyalarning aks etishi.

Dostonlarning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati ularga yuksak go'zallikga va baxt saodatga erishishning birdan bir uo'lN maqsad sari qat'iy intilishdan, sabr-chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan iboratdir, degan g'oya ilgari suriladi. Shuningdek, muhabbat muhum umuminsoniy qadriyat sifatida insonning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan omil, har qandayh yovuzlik ustidan qilinadigan g'alabani ta'min etadigan, kuch insonni jasoratga undaydigan va qalbidagi barcha ezgu fazilatlarini ro'yobga chiqaradigan vosita sifatida tarannum etiladi va o'quvchini sadoqatli qahramonlar timsolida shu tuyg'uga ilhomlantiradi.

## TA'LIM JARAYONIDA O'YINLARNING SAMARADORLIGI

*Rustamova Ibodat G'ayratovna*  
*Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani*  
*50-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada o'quvchilar faolligini oshirishda o'yinlarning o'rnini ko'rsatib berilgan. O'yinlarning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Dars jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan namunalar keltirilgan.

### **Kalit so'zlar**

O'quv faoliyati, o'yinlar, darslar, faollik, bilimlarni o'zlashtirish.

Ta'lim jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar o'quv faoliyatining shakllanmaganligi bo'lib, u yashirin psixologik qiyinchiliklarga tegishlidir. O'quvchi bu holatni sezadi, lekin u nima uchun shunday bo'layotganligini tushunmaydi va ifodalab bera olmaydi, shu sababli kattalarga yordam so'rab murojaat qila olmaydi. Bunday qiyinchiliklar mavhum bo'lib, ularning tabiati tushunarsizdir.

Bunday holatlarda ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchiga yordam ko'rsatmasliklari achinarli holatdir, chunki ularning o'zlari ham o'quv faoliyati va uning tarkibiy tuzilmasining psixologik aspektlari bilan tanish emaslar. Bu nuqsonlarning yorqin belgilari – dangasalikda, qobiliyatning yo'qligida va boshqalarda nomoyon bo'ladi.

O'quv faoliyatining shakllanmaganligi ayniqsa beshinchi sinflarda, ya'ni ta'lim murakkabroq darajaga ko'tarila boshlaganda va o'zlashtiriladigan materialning o'sishi bilan ko'zga tashlana boshlaydi. O'quvchi, bu holatda qandaydir noma'lum to'siqqa duch kelganday bo'ladi.

Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quvchi yangi bilimlarni o'zlashtirishga ko'mak beruvchi o'ziga xos o'quv usullariga erishishi uchun, eng zarur shart-sharoitni yaratish, ya'ni o'quvchiga o'qishni o'rgatish lozim.

Bu vaqtga kelib, darsliklarda o‘quvchidan zarur umumlashtirishlarni amalga oshirishi, ya’ni ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajrata olish shakllangan bo‘lishi kerak. To‘rtinchi sinfga kelib, ulardan erkin foydalana bilishi lozim.

Barcha yangi-yangi talablar, yangi qoidalar, predmetlar harakatlarining yangi normalari obektlarning shu paytgacha noma’lum bo‘lgan qonuniyatlarini ochib beradi. Dunyo o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlar va tushunchalar tizimi bilan tartiblashtirilgan. O‘quvchining tafakkuri ana shu yuqorida qayd etilganlarga hamda insonlar va buyumlar bilan o‘zaro harakat tajribasiga yo‘naltiriladi.

Masalan, oy osmonda bola harakat qilgani uchun harakatlanadi degan mulohaza bolaning hayotiy tajribasi asosida, tafakkurning vositasi sifatida so‘zlardagi ifodasidir. Predmetlardagi o‘xshashliklar va farqlar so‘zlarda, nutqda aks etadi. Uni bola bevosita kuzatish orqali aniqlaydi.

O‘quvchi ilmiy tafakkurlashni umumiy o‘rta ta’lim maktabida egallaydi, ilmiy tafakkur qilish bolani umummadaniy namunalarga, normalarga, etalonlarga, atrofdagi olam bilan bo‘ladigan munosabatlar qonuniyatlariga yo‘naltiradi. Son tushunchasi, so‘z, badiiy obraz va boshqalar, ilmiy tafakkur asosini tashkil etuvchi obyektiv dunyo xususiyatlari bilan yangi harakatlar, munosabatlar bolaning shaxsiy tajribasi jarayonida ilgari egallanmaganlarini egallashga imkon beradi.

O‘yin faoliyatining ahamiyati haqida alohida e’tibor qaratishgan. Shuni anglash juda muhimki, mazkur o‘yin qanday didaktik masalani yechishga ko‘maklashadi, qanday ruhiy holatlarni, jarayonlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan”. O‘yin – bu faqatgina sirt, shakldir, uning mazmuni o‘qish, nutq faoliyati ko‘rinishlarini egallash bo‘lishi lozim.

O‘yinlar faoliyatida bola uchun juda muhim bo‘lgan to‘rtta muhim jihatlari, funksiyalari ajratib ko‘rsatilgan: motivatsion talab doirasida rivojlantirish vositasi; bilish vositasi; aqliy harakatlarni rivojlantirish vositasi; o‘zini ixtiyoriy tutishning rivojlantirish vositasi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

maftunkorlik;  
kommunikativlik;  
o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;  
davolovchilik;  
tashxis;  
millatlararo muloqot;  
ijtimoiylashuv.


Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A.SHMakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi. O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar.

O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘limini o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llanadi. O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

## “So‘z ustuni” didaktik o‘yini

O‘qituvchi sinf taxtasiga biror so‘zni yozadi va o‘quvchilarga uning har bir harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar ustuni hopsil qilishni aytadi. O‘quvchilar har bir to‘g‘ri so‘z uchun belgilangan ballni oladilar, har bir xato uchun ball olib tashlanadi. Yoki bu topshiriqni

kartochka tarzida mustaqil ish qilib topshirish mumkin. Bu paytda o'quvchilar topshiriqni bajarib, o'qituvchiga topshiradilar. Vaqtni hisobga olib ma'lum daqiqada nechta so'z yozishni o'qituvchi bolalarga e'lon qiladi va tartibni buzmay ulardan kartochkani terib oladi, tekshirib baholaydi. Quyidagicha o'tkaziladi:



O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI OSHIRISH YO'LLARI

*Hayitova Nodira Abdullayevna*  
*Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani*  
*4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini oshirish yo'llari bayon etilgan. Ona tili darslari misolida keltirilgan.

### Tayanch so'zlar

Nutq, nutq o'stirish, talaffuz, lug'at, sintaktik qurilish, bog'lanishli nutq, nutq faoliyati, nutq madaniyati, fikr, tinglovchi, og'zaki nutq, yozma nutq.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishi nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarini qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatik va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur.

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqga oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti-nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasiga asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yoritish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilini nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator usullari mavjud. Bular :

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarini adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargosidan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish . Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning manba shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi, o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqining o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1) so'z ustida ishlash.

2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash.

3) bog'lanishli nutq ystida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya ( frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi. Bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko'rsatilgan uch yonalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, zo'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bularndan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarinh izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Maktabda o'quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o'stiriladi. Bolalar ichda o'qishga o'rganadilar, turli vazifalarni o'zlari hal qiladilar, asosiysi - o'zlarining og'zaki va yozma fikrlarni tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og'zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko'rish va harakat ( qo'l harakati) sezgisi asosiy o'rin tutadi. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og'zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi, yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.



Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. Yozma nutq logik izchillikga rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo'l qo'ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhym hisoblanadi. Nutq o'stirish maktabida ona tili o'qitishning metodi bo'lib, til ustidagi ishlarning asosiysidir. Har bir ona tili darsi nutq ustirish mashqlariga qanday e'tibor berilganligiga, yuqoridagi tamoiliga qanday amalga oshirilayotganligiga qarab baholanishi zarur.

Nutq o'stirish tafakkurnu o'stirish demakdir, chunki nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirishga e'tibor bermay turib, nutqni o'stirish mumkin emas. O'qituvchining muhim vazifasi fikrning mazmunli, mantiq jihatdan to'g'ri va izchil bo'lishiga g'amxo'rlik qilishdir.

---

## “QOBUSNOMA”DA SO’Z SAN’ATIGA OID QARASHLAR

*Jo'rayeva Maryam Ergashovna  
Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada o'qituvchi faoliyatida so'zning, muloqotning o'rni yoritilgan. Sharq mutafakkiri Kaykobusning “Qobusnoma” asarida so'z san'ati va so'zlarni sihatlashga oid fikrlardan yoritilgan. Bu fikrlardan namunalar keltirilgan.

### **Kalit so'zlar**

So'z, so'z sehri, Kaykobus, nutq madaniyati, o'qituvchi kasbi, shirinsuhanlik va go'zal nutq.

Mustaqil respublikamizning oldida turgan asosiy vazifalardan biri - yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Respublikamizda taraqqiyot va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Maktablarimiz ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish

tuyg'usiga boy kishilarni tarbiyalashi kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir. Xalq ta'limi tizimida hal qiluvchi inson - o'qituvchidir. Agar o'qituvchi ijodkor va izlanuvchan bo'lsa, o'quvchining bilim darajasi ham baland bo'ladi. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak.

O'qituvchi kasbining nozikligi, mas'uliyatliligi va murakkabligi hamda sharaflilik ekanligi to'g'risida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qo'yiladigan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, munosabatga kirishish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgan. Sharq ma'naviy-madaniyatining xilma-xil jihatlari, ayniqsa Uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi o'z mahoratini so'zlar orqali ifodalaydi. O'qituvchining so'zi o'quvchining qalbidan joy oladi, bola qalbini jarohatlaydi. «Tig' yarasi ketar, so'z yarati ketmas» degan xalq maqoli bekorga aytilgan emas. Chunki so'zlash qudrati benihoya katta. Inson o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini birbirlariga so'z yordamida etkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. So'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. So'zlashuv xam o'ziga xos san'atdir. Bu san'atni mukammal o'rganish har bir iisonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o'rganmoq har bir insonning muqaddas burchidir. Tilni bilgach uni ishlata bilish san'atini egallamoq inson uchun zarurdir.

Shirinsuhanlik va go'zal nutq hech qachon, hech qaerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa tinimsiz shirin so'zlashishni mashq qilmoqlikdir. Buni esa asosan ko'p kitob o'qish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sharq mutafakkirlarining boy ma'naviy merosida so'z, uni tanlash va so'zlashish odobi xususida ko'plab fikrlar berilgan. Shu jumladan, Unsurul –Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yettinchi bobi “Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida” bobida keltirib o'tilgan.

Kaykobus axloqlilikning birinchi belgisi, suhandonlik deb biladi. U notqlikda rost so'zlash kerakligini alohida ta'kidlaydi: “Kishi suhandon, suhango'y... (notiq) bo'lishi kerak. Ammo ey, farzand suhango'y bo'lg'il, lekin durug'go'y yolg'onchi bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qoqongil, tokim biror zarurat yuzasidan yolg'on so'z aysang qabul qilg'aylar. Har bir desang ham rost degil, lekin yolg'onga o'xshagan demag'ilkim, rostga o'xshagan durug' durug'ga o'xshagan rostdan yaxshidir, ul durug' maqbul bo'lur, ammo ul rost maqbul bo'lmas”<sup>7</sup>

Kaykovus muloqot davomida so'zlar haqida shunday fikr bildiradi: “Har bir so'zni andisha bilan boshlag'il. Toki aytgan so'zingdan pushaymon bo'lmag'aysan: andishani ilgari turmoq ham bir nav karomatidir. Har bir so'zni eshitishdan diltang bo'lmag'il. Ul so'z ishingga hoh yarasin, xoh yaramasin, uni eshitg'il, to yuzingga so'z eshigi bekitilmasin va foydasi favt yo'qotish bo'lmasin”.<sup>8</sup>

Kaykovus so'zlarni to'rt xilga bo'ladi va so'zlar kabi insonlar ham to'rt xilga bo'linishini aytib o'tadi. Birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bu kishilar olimlar bo'lib ularga bo'ysunish kerak deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarni o'rgatish kerak deydi. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek ularni uyg'otish kerak deydi. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini ham tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak deydi.

So'zlarni quyidagi turlarga bo'ladi: birinchisi bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytiladigan va biladigan, uchunchisi ham bilinadi, ham bilishga zaruriyati yo'q, ammo aytsa bo'ladi. To'rtinchisi bilinadigan va aytiladigan. Eng yaxshisi to'rtinchisi bilinadigan va aytiladigan so'z.

<sup>7</sup> Kaykovus QobusnomaT. : O'qituvchi 2006, 48-bet.

<sup>8</sup> O'sha kitob. 49-bet

Shu bilan birga soʻzlaganda andishali boʻlish, sovuq soʻzli boʻlmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, bironing soʻzini diqqat bilan eshitish odoblarini alohida taʼkidlaydi: “Kishining martabasi soʻz bilan bilunur, ammo soʻzning martabasini kishi bila bilmaslar. Chunki har kishining ahvoli oʻz soʻzining ostida pinhondir. Yaʼni bir soʻzni bir iborat bila aytsa boʻlurkim, eshitgan kishining koʻngli undan tira (qorongʻu) boʻlgʻay va yana oʻshal soʻzni bir iborat bilan aytsa boʻlurkim, eshitgan kishining joni undan rohatda boʻlgʻay.”<sup>9</sup>

Kaykovus oʻz asarida rost soʻzlashning ahamiyatini, har bir soʻzni oʻz oʻrnida oʻrinli qoʻllash lozimligini, soʻzlaganda bemaʼni soʻzlarni aytmasdan soʻzlash kerakligini taʼkidlaydi.

Kaykovusning soʻz sanʼati haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Har bir pedagog oʻz faoliyati davomida Kaykovusning pedagogik merosini oʻrganib, oʻz oʻrnida qoʻllay olishi lozim.

---

## OʻQUVCHILARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK OMILLAR

*Husenova Nodira Toʻrayevna*  
*Qorakoʻl tuman 20-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oʻquvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining pedagogik-psixologik mohiyati ochib berilgan boʻlib, unda oʻquvchi-yoshlar bilan olib boriladigan taʼlim-tarbiyaishlarining muvaffaqiyati, ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda oʻquvchiyoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga taʼsir etadigan salbiy omillar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar.** Oʻquvchi-yoshlar, ijtimoiy faollik, yoshlar siyosati, taʼlim muassasalari, oʻsmirlik, psixologik xususiyatlar.

---

<sup>9</sup> Oʻsha kitob, 51-bet

Respublikamizning ijtimoiy hayotida islohotlarning davomiyligini ta'minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatni shakllantirish yoshlarimizga, xususan, ularning ijtimoiy faolligiga bog'liqdir.

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchi-yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos mazmunga ega ekanligi bilan dolzarflik kasb etadi. O'quvchi-yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishda goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlari va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr ijtimoiy faollikni tarbiyalash uchun ancha qo'l keladi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Natijada, undan kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa, bu davrning "qiyin", "murakkab" davr bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smir bilan bo'ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo'ladi. Bunda albatta, har bir o'quvchi-yoshlar bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar ijtimoiy faollikning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shaxsning psixik rivojlanishidagi

kamchiliklar, irodaning bo'shligi, aql-idrokning zaif rivojlangani, hissiyotning kuchsizligi zarur ehtiyoj vaqiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik kabi xatti-harakatlarni izdan chiqaradi.

**O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga ta'sir etadigan salbiy omillar:**

-axloqiy hislarning yetishmasligi;

-o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot;

-ishyoqmaslik;

-bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqa salbiy holatlarni vujudga keltiradi.

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirok darajasiga bog'liq bo'lib, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi. O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatdan muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolliklari ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi va shaxs umumiy kamoloti ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash ularning xulq-atvor madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Biroq axloqiy madaniyat tushunchasi faqatgina o'quvchilarning ijtimoiy faolligi bilan cheklanmaydi. U shaxsning axloqiy namoyon bo'lishining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu ma'noda axloqiy madaniyat o'ziga xos atama sifatida insonning barcha xatti-harakatlarining yuqori darajadagi puxta va aniqligini bildiradi. Axloqiy madaniyat tushunchasiga pedagoglar tomonidan insonning barcha sifat va fazilatlarini deb qaraladi. Kundalik ijtimoiy tajriba orqali o'quvchilar ijtimoiy faollikning me'yorlarini o'zlashtiradilar.

Axloqiy madaniyat mazmuni insonlar orasidagi muloqotni, nutq va tashqi ko'rinish (kiyim, gavnani tutish, imo-ishora, mimika, qadam tashlash)ni tartibga solib turuvchi me'yor va qoidalar majmuyi bilan belgilanadi.

Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, axloqiy madaniyat – bu muloqot, nutq va tashqi ko'rinish madaniyatidir. Bu madaniyatni tarbiyalash uchun o'qituvchining o'zi yuksak namuna sohibi bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirov B.M., “O‘zbek mentalligining psixologik xususiyatlari” monografiya. T.: Fan va texnologiyalar, 2011.
2. Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2013
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – М., 1940.

## KASBIY STRESSNI YUZAGA KELISHIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLAR

*Zurdinova Shaxnoza*

*Andijon viloyat Xo`jaobod tuman 11-maktab psixologi*

Ishlashga qobiliyatlilik yoki layoqatlilik (*work efficiency*) – inson faoliyatining unumdorligini hamda odamning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sharoitida quvvatini to’g’ri sarf bo’lishiga ta’sir ko’rsatadi.

Izchil tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, zo’riqib ishlash tufayli paydo bo’lgan toliqish, u xoh ruhiy, xoh jismoniy bo’lishidan qat’iy nazar u xatti-harakatlarning tezligi va aniqligi, kuch va chidamlilik, mehnatning sifatii hamda miqdoriy natijalari, xatoliklarga ta’sir qiladi. Shu sababli, ishlash qobiliyati, kasbiy yaroqlilikni aniqlash yo’lida olib boriladigan ilmiy izlanishlar inson salomatligi va farovonligi hamda ish bajarilishining samaradorligiga ta’sir etuvchi stress, jismoniy zo’riqish, zerikish va boshqa salbiy asoratlarni kamaytirishga qaratilgandir.

Ish stresining ko'rinishi.

Taxminan, ishchi o'z resurslari va atrof-muhit talablari o'rtasida nomuvofiqlik borligini sezganida ish stresini his qiladi. Eng maqbul narsa, inson va atrof-muhit o'rtasida tuzatish bo'lishi kerak edi, ammo agar bu ro'y bermasa, stressli vaziyatlar yuzaga keladi. Aksincha, stress, odam bunday sozlash yo'qligini bilganda paydo bo'ladi, chunki talablar yoki ish sharoitlari ularning qarshilik qobiliyatidan oshib ketadi.

Haddan tashqari ish yuki, ish ustidan nazoratning yo'qligi, mukofotning etarli emasligi, rol noaniqligi, toksik xo'jayin, tanlab oladigan tengdoshlar, aqldan ozgan jadvallar, zerikish, adolatsizlik hissi, turg'unlik yoki kasbiy rivojlanishning etishmasligi, muddatlari mumkin bo'lmagan vazifalar, lavozimning hissiy talablari, o'z qobiliyatlari ...

Ro'yxat cheksiz bo'lishi mumkin va har bir ishchida stressni keltirib chiqaradigan holatlar bo'lishi mumkin.

Ishning samarali bajarilishi uchun sharoit yaratish mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, inson omillarining muhandisligi, kasb psixologiyasi yoki ergonomikada asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Mehnatning unumdorlik masalasi tadqiqotlari, mehnat unumdorligini oshirish va toliqish, baxtsiz hodisalar miqdorini kamaytirish maqsadida, mehnat faoliyatini loyihalashtirish borasidagi yutuqlarga o'z hissasini qo'shadi.

Ushbu sohaning asoschisi hisoblangan, yuqorida aytilgan izlanishlarni boshlagan **F.Teylor** ta'kidlashicha, ishlash qobiliyatining unumdorligi va samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishga taalluqli barcha vazifalarni izchillik bilan o'rganish zarur. Shuningdek Teylor, xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq kelishlari va ushbu ishlarni ilmiy asoslangan yo'riqnomalarga qat'iy muvofiq ravishda bajarishga o'rgatilgan bo'lishlari lozim.

**Frenk va Lilian Gilbretlar** tomonidan, toliqish bo'yicha olib borilgan boshqa ilk ishlar natijasi sifatida, ish jarayonida zo'riqishni kamaytirishga imkon beruvchi, turli ishlar uchun maxsus kursilar yaratildi. Undan tashqari, F.Gilbret mehnat samaradorligini oshirish, toliqish muammosini hal qilishda, ishchilarning xatti-harakatlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini, o'z izlanishlari orqali ilmiy asoslab bergan. Chunki, yuqorida keltirilgan "Xatti-harakatlarning psixologik tahlili" mavzuida berilganidek, ishchilarning "tabiiy" harakatlari ichida zarur, aql-idrokka asoslangan harakatlar bilan birga xatti-harakatlar ham uchraydi va aynan mana shu tartibsiz, ortiqcha va mantiqsiz harakatlar toliqish sabablaridan biridir. Izlanish natijalaridan xulosa sifatida **F.Gilbret**, xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish va tejamkorlik g'oyasini olg'a surgan edi. Har qanday ishning unumdorligiga, yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari:

— ishning davomiyligi;



— mazkur ish bilan mashgʻul boʻlgan ishchi, xodimlarning psixofiziologik xususiyatlari;

— ishchi va xodimlar holatlarining bevosita taʼsiri borligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

1990 yilda esa, **E.A.Derevyanko** uchuvchilar faoliyatini parvoz sharoitida va laboratoriya sharoitlarida tadqiq etib, unumdorlik egri chizigʻiga taʼsir etuvchi omillarni koʻrsatgan.

Bular quyidagilardir:

- Tananing mazkur ishga nisbatan maksimal imkoniyatlari.
- Faoliyatning samaradorligi.
- Emotsional-irodaviy zoʻriqish.
- Toliqish.

Bu yerda **ishga nisbatan imkoniyatlar** deganda, ishchining psixofiziologik imkoniyatlari, yaʼni mazkur faoliyat turi boʻyicha koʻnikmalari nazarda tutiladi.

Mehnat jarayonida ishchining **emotsional-irodaviy zoʻriqish** holati ishning qanday borishini, yaʼni mehnat dinamikasini belgilaydi.

### **Kasbiy stress nima?**

Baʼzi holatlarda, mutaxassislar, bu haddan ortiq foydali deb oʻylashadi. Bu qulaylik hududidan chiqib ketishga yordam beradi, bu ish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy taʼsir etadi, bilimlarni chuqurlashtirish va oldimizda topilmagan muammolarni hal qiladi. Oʻzining his-tuygʻularini engish qobiliyati odatda nomzodga maʼlum lavozim uchun talablar roʻyxatida koʻrsatiladi: jurnalistlar, tergovchilar yoki shifokorlar ishining bir qismi sifatida qabul qilinadi.

Mehnat stresining kontseptsiyasi, ishning zavqlanishni toʻxtatadigan joydan boshlanadi. Biror ish uchun sogʻlom gʻayrat har doim yoqimli charchoqni keltirib chiqarmoqda, ammo bu uning tirnash xususiyati va xiralik bilan aloqasi yoʻq. Ish kunining davomiyligi, muddati va xoʻjayin talablarining noaniqligi bezovtalikni kuchaytiradi va asab tizimining tiklanishiga toʻsqinlik qiladi. Kasbiy stress sizni konfor hududidan uzoqlashishga majbur qiladi va faqat undan chiqmasin, u jismoniy sogʻliqqa zarar etkaza boshlaydi.

### **Kasbiy stress holati.**

**Kasbiy stress (*occupational stress*)** — odamlarning va ular tomonidan bajarilayotgan ish orasidagi o‘zaro ta’sirining natijasi bo‘lib, bunda insonlarga normal faoliyat ko‘rsatishiga halaqit beruvchi ma’lum bir o‘zgarishlar nazarda tutiladi.

Kasbiy stressning juda ko‘p individual asoratlari topilgan. Bunday jismoniy o‘zgarishlardan bir qanchasi quyidagilardir: yurak-qon tomir tizimining kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, nafas a’zolari kasalliklari, rak, artrit, bosh og‘riqlari, tana shikastlanishi, teri kasalliklari, jismoniy zo‘riqish yoki toliqish va o‘lim.

Kasbiy stressga nisbatan ruhiy ta’sirlanishga: xavotirlanish, depressiya, qoniqmaslik, zerikish, somatik darmonsizlik, ruhiy charchoq, tushkunlik va nochorlik bo‘yicha, o‘z o‘ziga past baho berish, boshqalar bilan aloqaga kirishishdan qochish, psixozlar, qahr-g‘azab, shaxsiy tuyg‘ularini ichida saqlash va diqqatini jamlashga qurbi yetmaslik kabi shikoyatlar ham ichiga kiradi.

Kasbiy stressning xulq, fel-atvorda quyidagi asoratlari kuzatiladi: shifokorlarga murojaat qilish, dori-darmonlarni qabul qilish va ba’zida keragidan ortiq dori iste’mol qilish, qattiq emotsional ta’sirlanish, yoki buning aksi, befarqlilik, imo - ishora va yurish-turishning asabiyligi, xavfli xatti-harakat, tajovuzkorlik, qo‘pollik, o‘g‘rilik qilishga moyillik, odamlar bilan yomon munosabat, suitsidal urinishlar yoki suitsid.

Ammo shuni ham ta’kidlash muhimki, konkret o‘zgarish, ta’sirlanishga taalluqli ma’lumotlar umuman olganda yetarli emasdir. Shuning uchun, quyidagicha xulosa qilish to‘g‘ri bo‘lardi: kasbiy stress odamning farovon hayotiga ziyon yetkazishi mumkin, ammo aynan mana shu salbiy ta’sir o‘zini qanday namoyon qilishi, noma’lum bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, har xil tipdagi odamlar, ta’sir kuchi jihatidan bir xil bo‘lsa ham, ularning kasbiy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan stressorlar, ya’ni stress holatini qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan har xil ta’sirlanadilar.

Kasbiy stresslarning **manbalarini 3 ta asosiy kategoriya, mezonga ajratish mumkin:**

- a) tashkiliy tavsiflar va jarayonlar;
- b) mehnat shart-sharoitlari va shaxslararo munosabatlar;
- v) ish tomonidan qo‘yiladigan talablar va rollar bo‘yicha tavsiflar.

**Tashkiliy tavsiflar** ichida stresslarga taalluqlilariga:

- yuqori darajadagi markazlashuv,
- qog'ozbozlik va ixtisoslashuv, shuningdek,
- tashkil etishning katta hajmliligi,
- xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishning murakkabligi hollari kiradi.

**Shuningdek, stressning manbalari** deb, quyidagi hollar ham hisoblanadi:

- mehnatga haq to'lashning tengsizligi,
- xodimlarni tez-tez joyini o'zgartirilishi,
- fikr almashishning juda kamayib ketishi,
- ishlab chiqarish vazifalarining aniqmasligi yoki qarama-qarshiligi,
- smenali ish,
- bajarilgan ishga nisbatan noto'g'ri qaror qabul qilish va h.k. vaziyatlar.

**Ish tomonidan qo'yiladigan talablarga** taalluqli ehtimoliy stressorlarga:

- ishning bir xilligi,
- ishni qisqa muddatda bajarilishi kerakligi,
- malakaga past talablar,
- odamlar uchun javobgarlik,
- xodimlarning to'liq bo'lmagan yoki aksincha ortiq darajada ish bilan ta'minlanganligi.

Hozirgi kunga kelib ish faoliyatida xodimlar bajaradigan rollarini o'rganish natijasida, rolli ziddiyatlar, noaniq yuklamalar va kasb faoliyatiga mos kelmagan talablarning barchasi asosiy stressorlar sifatida tan olinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

4. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
5. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
6. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
7. R.Y.Toshtemirov, E.G'.G'oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA OBODONLASHTIRISH ISHLARI VA UNI TARIX DARSLARIDA O'RGANISH

*Eshonqulov Zafar G'ayrat o'g'li*  
*JDPI Tarix fakultetining 2 kurs magistri*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida obodonlashtirish ishlari va uni tarix darslarida o'rganish masalasi ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq, tarix, siyosat, tabiat, jamiyta, falakiyat, iqtisodiyot, gandumi obi (sug'orma bug'doy), gandumi safidcha (oq bug'doy), gandumi surxoki (qizil bug'doy), gandumi surxoki bahori (bahorgi qizil bug'doy).

### **Аннотация**

В данной статье научно освещен вопрос благоустройства территории в период правления Амира Темура и Темуридов и его изучение на уроках истории.

**Ключевые слова:** народ, история, политика, природа, общество, катастрофа, экономика, пшеница вода (орошаемая пшеница), пшеница сафидча (белая пшеница), пшеница сорго (красная пшеница), пшеница сорго яровая (яровая красная пшеница).

### **Annotation**

This article scientifically highlights the issue of landscaping during the reign of Amir Temur and the Temurids and its study in history lessons.

Key words: people, history, politics, nature, society, catastrophe, economy, water wheat (irrigated wheat), safidcha wheat (white wheat), sorghum wheat (red wheat), spring sorghum wheat (red spring wheat).

Buyuk Sohibqiron Amir temur noyob aql – zakovat sohibi, islom nazariyasi, qoidalari, tarix, siyosat, tabiat, jamiyta va falakiyat sohalarida kuchli bilim egasi edi. Uning iqtisod, soliq tizimi, mulk va hazina borasidagi tushuncha va qarashlari ham tahsinga sazovor.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganida Movorounnahrda notinchlik, vayrongarchilik, tartibsizliklar, iqtisodiy qashshoqlik hukm surib, mamlakat o'ta holdan toygan bir payt edi. Amir Temur o'z siyosatini har bir ishda tartib o'rnatishdan, yurt osoyishtaligini ta'minlashdan, dehqonchilikni jonlantirish, hunarmandchilik va tijoratni rivojlantirishdan va shular asosida iqtisodni yaxshilashdan boshladi.

O'z faoliyatida xalq farovon bo'lsa – davlat boy va qudratli bo'ladi, degan aqidaga qat'iy amal qiladi. Shuning uchun ham fuqarolarning moddiy ahvolini, turmush sharoitini yaxshilash maqsadida suv omborlari, to'g'onlari qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o'zlashtirishga katta e'tibor berdi. Masalan, birgina Xuroson viloyatida Murg'ob daryosidan 20 ta kanal chiqarib dehqonvchilikning rivojlantirilishi uchun katta imkoniyat yaratdi.

Iqtisodiyotni boshqarishda “Temur tuzuklari” da ko'rsatilgandek, saltanatni boshqaruvchi yetti vazirning bari shug'ullangan. Deylik, to'rtinchi vazir saltanat idoralarining mablag'lari, kirim chiqimlari, hazinadan sarflangan harajatlar bilan, uchinchi vazir mamlakat chorvasi, savdogarlardan olinadigan too'lovlarni undirish bilan shug'ullansa, iqtisodiyotga rahbarlikning asosiy masalalari bilan bosh vazir shug'ullangan. Bosh vazir viloyatlardan olinadigan hosil, soliq – o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim chiqimlar, amlakat obodonchiligiga, aholining farovonligi ishlariga va xazinaning qanday tartibga keltirilayotganligiga mas'ul bo'lgan.

Amir Temur mamlakat iqtisodiyotida tashqi savdogaga, shuningdek, bozorlarda tartib o'rnatish, narx-navo ustidan nazorat o'rnatishga, ayniqsa Turon atrofidagi badavlat davlatlar bilan savdo munosabatlarini kengaytirishga alohida e'tibor bergan. Savdogarlar safarini yengillashtirish uchun karvon yo'llari yoqalarida karvonsaroylar qurib, ularda barcha qulayliklarni yaratgan. Temur saltanati Buyuk ipak yo'lining eng serqatnov, serdaromad, gavjum va osoyishta qismi hisoblangan. Ispaniya qirolining Temur saroyidagi elchisi de Klaviho Samarqand savdosi haqida shunday hikoya qiladi. “Samarqand va uning atrofidagi yerlar shu qadar barakali va boyki, ajablanmay iloj yo'q.” Uning boyligi faqat oziq – ovqatda emas, balki u yerda ko'plab tayyorlanadigan ipak gazlamalarda, atlasda, sandal (yog'ochi hushbo'y yashil daraxt) dan ishlangan buymlarda, mo'ynada, turli surmalar, upa – eliklarda, hushbo'y dorivorlarda, oltin va

lojuvard ranglarda va boshqa turli narsalarda. Bundan tashqari, shaharda va boshqa mamlakatlardan keltirilgan turli tovarlar ham mo'l ko'l. Rus va Tataristondan teri va shoyi, Hitoydan ipak gazmollar keltiriladi, ular u yerda hammadan yaxshi tayyorlanadi. Ayniqsa dunyoda eng yaxshi hioblanadigan atlaslar, Xitoydan boshqa hech qayerda topilmaydigan sirka, yoqut va olmos, ularning ko'p qismi o'sha yerdan olib kelinadi, gavhar ravoch va boshqa turli ziravorlar, ya'ni eng yaxshi turlari ko'p.

Hokimiyat uchun kurash va feodal urushlar ekinlarni ongli ravishda yo'q qilish bilan birga olib borildi: siyosiy raqiblar yerlarida, ayniqsa qamaldagi shahar atrofida qo'shin tomonidan yangi ekin yoki tayyor hosil ot tuyog'i bilan toptalgan.

Hokimiyatga Amir Temurning kelishi va markazlashgan davlat barpo etilishi bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga intilish kuchayadi, Temur va uning vorislaridan ayrimlari, jumladan Mirzo Ulug'bek otliq qo'shin o'tish chog'ida dehqonlarning yerlarini toptash va ekinlar yakson bo'lishidan va raiyyatlarni talon-tarojdan saqlash uchun qator choralar ko'rishdi. Tarixchilar xabar berishicha, masalan, Temur farmoyishiga muvofiq, ekinzorlar yaqiniga o'tov o'rnatish qo'shin rahbarlariga ta'qiqlangan. Biroq ayrim hollarda yem-xashak yo'q paytda, hukmdor roziligi bilan, yosh ekin va hatto yetilgan hosil otlar va mollarni boqish uchun foydalanilishi mumkin edi. Ispan elchisi Klavixo shunday hollardan birini bayon etadi: "Olampanoh bug'doylar (yem-xashak uchun) o'rib olinsin, deya buyurdi. Uning ortidan kelayotgan ko'shin esa yo'lida uchragan hamma narsani taladi..."<sup>10</sup>

Akademik V.V. Bartold Amir Temurning ziddiyatli faoliyatini shunday tavsiflaydi: "Temur ayni bir paytda beshafqat vayronakor va jonboz kuruvchi edi; uning tomonidan ajoyib bog'-rog'lari bilan muhtasham binolar qurildi, shahar va qishloqlar tiklandi, sug'orish tizimlari barpo etildi va tuzatildi; rasmiy tarixning ifoda etishicha, umuman ekin yetishtirish mumkin bo'lgan yer bekor yotmagan".<sup>11</sup> Uning o'g'li Shohruh va nabirasi Ulug'bek bu siyosatni davom ettirishga harakat qildi. Abdurazzoq Samarqandiy zamindor dehqonlarni davlat amaldorlari va qo'shin boshliqlari tomonidan zo'ravonlik va

<sup>10</sup> Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshistveya v Samirkand ko dvoru Timura (1403- 1404gg.). Perevod so staroispanского. M.,1990, s.83.

<sup>11</sup> Bartold V.V. Ulug'bek i ego vremya. Soch., t II, ch.2. M., 1964, s.60-61

adolatsizliklardan asrash necha bor taqdim etilgan hukmdorlarning farmoyishlarini keltiradi.

Mustaqillik - o'zbek xalqining tarixiy va eng buyuk yutug'i. Uni qo'lga kiritish uchun xalqimiz o'ta tahlikali va tahdidli, murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Asrlar osha xalqimiz qalbida asrab - avaylab kelingan bu buyuk orzuga ko'plab qurbonlar, tahqirlar va istiroblar bilan yetishdik. Shu sababli xalqimiz bugungi tinch va osoyishta hayotga, to'kin va farovon dasturxonga, nurafshon orzular va rejalara butkul haqli va munosibdir.

### Adabiyotlar

- 1.Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshistveya v Samirkand ko dvoru Timura (1403-1404gg.). Perevod so staroispankogo. M.,1990, s.83.
- 2.Bartold V.V. Ulug'bek i ego vremya. Soch., t II, ch.2. M., 1964, s.60-61.
- 3.Maxmudov N. Zemledeliye i agrarnne otnosheniya v Sredney Azii v XIV-XV vv. Dushanbe, 1960, s.12.
- 4.Giyassadin Ali. Dnevnik poxoda Timura v Indiyu. M., 1958, s. 98-110.
- 5.Bstger Ye.K. Izvlecheniye iz knigi "Puti i stran" Abu-l-Kazima ibn Xaukalya. Trudi SAGU. Arxeoloiya Sredney Azii, IV, Novaya seriya, vip. SXI, Tashkent, 1957, s.29.
- 6.Zaxiriddin Muhammad Bobur. "Bonurnoma", 1989, 7 b.

---

## O`ZBEKISTON TARIXINI O`RGANISHDA MAHALLIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH

*Ungarov Javoxir Baxtiyor o'g'li*  
*JDPI Tarix fakultetining 2 kurs magistri*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada etnografik bilimlar, O'zbekiston tarixini o'rganishda mahalliy materiallardan foydalanishning, O'zbekiston tarixini o'qitishda etnotoponimika manbalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, xalq, etnografiya, arxivshunoslik, etnografik ma'lumotlar, davlat kino hujjatlari, iqlim, muzliklar, tarixiy arxiv materiallar.

### Аннотация

В данной статье речь идет об этнографических знаниях, использовании краеведческих материалов в изучении истории Узбекистана, использовании этнотопонимических источников в преподавании истории Узбекистана.

**Ключевые слова:** история, народ, этнография, архивное дело, этнографические сведения, государственные кинодокументы, климат, ледники, историко-архивные материалы.

### Annotation

This article deals with ethnographic knowledge, the use of local history materials in the study of the history of Uzbekistan, the use of ethnotoponymic sources in teaching the history of Uzbekistan.

**Key words:** history, people, ethnography, archives, ethnographic information, state film documents, climate, glaciers, historical and archival materials.

O'zbek xalqi etnografiyasini ilmiy asosda o'rganish va undan O'zbekiston tarixini o'qitish jarayonida foydalanish umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishning samaradorligini oshirishda, yoshlarda vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbek xalqi etnografiyasi tariximizning eng qiziqarli, murakkab va muhim tomonlarini o'rganishga yordam beradi. Ko'p asrlik ko'hna tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi etnografiyasini to'la qamrab olgan asar hanuzgacha yaratilmagan.

Etnografik bilimlar avlod-ajdodlarimiz yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni e'zozlashga, qadriyatlarimizni asrashga va mustaqil ijodiy izlanishga o'rgatadi. Shuningdek, maktablarda etnografik ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish o'quv-tarbiyaviy ishlar saviyasini davr talablari asosida yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda tarix fani o'qituvchilariga katta yordam beradi.

Mamlakatda arxivshunoslik ishlari 1917 – yildan keyin yuzaga kelib, 20 – yillardan boshlab e'tibor ancha kuchaytirildi. Hujjatlarni saqlash va foydalanish maqsadida sobiq SSSR xalq Komissarlar Sovetining 1918 – yil iyunda “Arxiv ishini qayta qurish va



markazlashtirish” haqidagi dekretga muvofiq Moskva shahrida Davlat arxiv fondi barpo etildi. Markaziy Davlat arxiv fondi qat’iy ilmiy asosda tashkil qilingan bo’lib, xalq xo’jaligi, ilmiy tadqiqot va ilmiy ma’ruza ishlariga faol hujjatlardan aniq va tez foydalanish imkonini beradi. Hozirgi paytda Davlat arxiv fondiga rahbarlik qilish Davlat Arxiv Boshqarmasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Davlat arxiv bosh boshqarmasi va uning jamoa organlari mamlakatdagi bir qator yirik Davlat arxivlariga qaraydi.

Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan arxiv hujjatlari jamiyatimizning kundalik hayotida, xalq xo’jaligidagi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib o’tish joiz. Arxiv hujjatlarida ajdodlarimiz mehnatining samarasi o’z aksini topgan bo’lib, ularning tajribalari bugungi kunda ham foyda berishi turgan gap. Masalan, XX asrning birinchi yarmida barpo etilgan ma’muriy muhandislik inshootlarining chizma, yozma hujjatlari, bu inshootlarni ta’mirlash ishlarini amalga oshirishda muhim rol o’ynamoqda. Hozirgi davr iqlim, muzliklar, ob – havoning o’zgarishi, daryolar suvining ko’tarilib, pasayishi haqidagi tarixiy arxiv materiallar, bu borada to’g’ri qarorlar qabul qilinishida ijobiy rol o’ynashi mumkin. Bundan tashqari arxiv hujjatlari targ’ibot tashviqot ishlari va o’quv – tarbiya maqsadlarida tarixiy va badiiy film va spektakllarni sahnalashtirish, muzeylar ko’rgazmasini tashkil qilishda fuqarolarning mehnat etajlari aniqlashda va boshqa masalalarda foydalanish mumkin.

O’zSSR tarkibida Qoraqalpog’iston ASSRning tashkil bo’lishi munosabati bilan 1934 – yil 11 martda Qoraqalpog’iston ASSR Markaziy Arxiv Boshqarmasi tashkil etildi. O’zSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1935 – yil 21 dekabrda qaroriga muvofiq barcha tumanlarda, shaharlarda davlat arxivlari tashkil qilindi. 1939 – yili Respublika arxiv tashkilotlari O’zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti huzuridan O’zSSR Ichki Ishlar xalq komissariati qaramog’iga o’tkazilib, joylarda Ichki Ishlar Xalq Komissarligi boshqarmalarining viloyat arxiv bo’linmalari va viloyat davlat arxivlari tuzildi. Respublika arxiv tashkilotlari, malaka mutaxassis kadrlar bilan mustahkamlab, ularning malakasini oshirish masalasiga e’tibor kuchaytirildi. 1932-1941 – yillarda Moskva Davlat tarix instituti, Toshkent arxiv boshqarmasi qoshidagi malaka oshirish kurslarida, tuman, shahar, viloyat arxiv xodimlari mutaxassis malakasini oshirib bordilar.

Tarix darsida etnografik materiallardan foydalanish o'quvchilar bilimiga yanada aniqlik kiritib, uni mazmunan boyitadi, moziyni chuqurroq o'rganishga imkon beradi, darsda alohida mavzularni o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tarix o'qitishda etnografik materiallardan foydalanish o'quvchilarning ibtidoiy odamlarning yashash tarzi, mehnat qurollari, ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlikka o'tish jarayoni, quldorlik, feodalizm va keyingi davrlardagi moddiy va ma'naviy madaniyat, san'at, me'morchilik, xalqning turmushi va hayoti haqidagi bilimlarining yanada aniqroq va mustahkamroq bo'lishiga yordamlashadi.

O'quvchilarga o'z jonajon o'lkasi, ya'ni ular yashab turgan, mavze, qishloq, tuman, shahar, viloyatni o'rganishga sharoit yaratib berish kerak. Buning uchun tarixiy o'lkashunoslikka keng yo'l ochish, uning manbalaridan biri bo'lgan etnografik materiallardan darsda va sinfdan tashqari ishlarda samarali foydalanishga e'tiborni kengroq qaratmoq darkor.

Etnografik materiallar O'zbekistan tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa respublikamiz hududida yashovchi xalqlar etnografiyasining dunyoviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Darsda va etnografik dala ekspeditsiyalari davrida yig'ilgan ashyolar, ularning turli tarzda bajarilgan tasviri (surati) ta'limning ko'rsatmali bo'lishiga ko'maklashadi. Ko'rsatmalilik o'rganilayotgan voqeya va hodisalarni o'quvchilarga faqat mavhum so'zlar orqali emas, balki jonli mushohada yuritish orqali tushuntirishda ham qo'l keladi.

Maktablarda tarix o'qitishda etnografik materiallardan foydalanish borasida hozirga qadar ba'zi ishlargina amalga oshirildi. Ilg'or maktablarda etnografik materiallarni tanlash, maktabda tarixiy yodgorliklar bo'ylab ekskursiyalar uyushtirish, yashab turgan mavzeda, etnografik dala-ekskursiyalarini olib borish, maktabda etnografiya burchagi yoki o'lkashunoslik muzeyini tashkil etish kabi ishlar shular jumlasidandir.

Hulosa qilib aytganda o'lkamizning o'tmish boy tarixining yorqin sahifalarini faktik dalillar asosida tiklashga arxeologiyaning o'rni va ahamiyati benihoya kattadir.

### Adabiyotlar

1. Alimov I. Ergashev B. Butayev A. Axivshunoslik, Toshkent, 1997 –yil 16-bet.
2. Nabiyev A. Tarixiy o'lkashunoslik, T 1996, 265-bet.

3. Gumelov L.N. Qadimgi turklar. T. 2007
4. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. T: 1968. 97.
5. Do'simov Z., Egamov X., Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. T: O'qituvchi 1977, 174.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUAMMOLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

*Soibova Shahnoza Qudratovna*  
*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 10-maktab psixologi*

Bugungi tezkor va shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda har tomondan axborotlar ko'lamining oshib borishi va bu turli ijobiy va salbiy axborotlarni qabul qilayotgan o'quvchi yoshlar (ayniqsa, o'smirlar)ning xulq-atvori va ta'lim tarbiyasiga e'tibor berish dolzarb masalalardan sanaladi.

Ushbu metodik tavsiyada o'quvchilarni tushkun holatlarining kelib chiqish sabablari va oqibatlari yaqida bayon etilgan bo'lib, uni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan maslahatlar va tavsiyalar berilgan.

Mazkur metodik qo'llanmadan maktab amaliyotchi psixologlari, sinf rahbarlar va fan o'qituvchilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

Agarda e'tibor qilayotgan bo'lsangiz yoki dunyo xabarlari bilan muntazam ravishda tanishib borayotgan bo'lsangiz dunyoda qanchadan-qancha odamda tushkunlik deb ataluvchi psixologik ya'ni ruhiy holat tufayli stress holatlari kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'pincha insonlarni yaxshi ko'rgan ishidan, yaqinlaridan, ba'zida farzandlaridan ko'pincha hayotdan sovishlariga olib kelmoqda. Agarda biz psixologlar tushkunlik deb ataluvchi holatdan qutulish choralarini topsak, o'quvchilarni tushkunlikka tushishlarini oldini olishga oz bo'lsada o'z hissamizni qo'sha olsak, ko'pgina muammolar o'z yechimini topa oladi va biz psixologiyaning korreksiya yo'nalishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Har bir pedagog avvalo psixolog bo'lishi lozim. Ya'ni har bir o'quvchining temperamenti qandayligini bilishi, o'quvchi bugun qanday kayfiyatda darsga keldi, oilaviy ahvoli va hokazolardan xabardor bo'lishi lozim. Chunki ko'p narsa kayfiyatga bog'liq. Temperamentning xolerik, sangvinik turlari har doim o'z hissiyotlarini oshkora tutadilar. Ya'ni kayfiyatlari bo'lmasa qo'pol, kayfiyatlari yaxshi bo'lsa xushchaqchaq yuradilar. Melanxolik va flegmatik temperamentli o'quvchilar ko'pincha tushkun kayfiyatda yurishsada aslida unday bo'lmaydi. Insonlar ularning ichki go'zalligini, qalb go'zalligini ko'rishini xohlaydilar. Faraz qilamiz o'qituvchi darsda savol bilan o'quvchilarga murojaat qildi. Xolerik, sangvinik temperamentli bolalar qo'l ko'tarish bilan birga men aytay deb o'rinlaridan turib ketishadi. Ularning xayollarida o'qituvchi nima bo'lsa ham shu savolga javobni mendan so'rasinda, tartib bilan o'tirganimni inobatga olsinda degan o'y-xayollar o'tadi. Ish tajribamda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan suhbatlashganimda ularo'qituvchi baribir mendan so'ramaydi tayyorlanib kelgan taqdirimda ham deb javob bergan. Ular har doim ham o'z xohishlarini har doim ham ochiq aytavermaydilar. Ular insonlar ularni boricha qabul qilishini, aslida qanday inson ekanligini bilishni xohlaydilar.

O'quvchi qachon tushkun holatga tushadi: oddiygina o'qituvchi u bilan dars mobaynida shug'ullanmaganda, ikki baho olganda, ota-onasi ajrashganda, birovlar qo'lida katta bo'lganda, tengqurlari qatori kiyina olmaganida, ular kabi huquqlarga ega bo'lmaganida, boshqalar tomonidan kamsitilganda, mehnati qadrlanmaganda, o'z o'rnini topishga qiynalganda, boshqalar tomonidan qo'llab – quvvatlanmaganda, uni tushunishlarini xohlagan payt hech kim e'tibor qilmaganida, yetarlicha mehr- e'tibor ko'rsatilmaganida, qiz bola yigitni yoki yigit bola qizni yoqtirib qolsa-yu qiz ( yigit ) unga e'tibor qilmaganida vahokazolar.

O'quvchi yoshlarni tushkunlik holatlarini qanday qilib bartaraf qilish mumkin? Bu sabablarni birma-bir tahlil qilib ko'ramiz. O'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchi bilan individual tarzda ish olib borishi lozim, ya'ni darsga hamma o'quvchi qatnashishini nazorat qilib borish kerak. Ba'zi o'qituvchilar bu boladan so'raganim bilan baribir bilmaydi vaqtimni behudaga ketkazaman deb har doim darsga faol qatnashuvchi o'quvchilar bilan ishlaydi. Bu jarayon o'qituvchi uchun samarali kechadi ya'ni asab

tolalari toliqmaydi. O'qituvchi shu bugun besh soat darsi bo'lsa birinchi soat darsga kirganda o'z ongiga buyruq beradi bugun besh soat darsim bor birinchi soatimni fanimni yaxshi o'zlashtirgan sinfdan boshlashim kerak agar fanimni past o'zlashtirgan sinfdan boshlasam kayfiyatim buzilib asablarim toliqib chiqadi yoki shu sinfga kirgim kelmaydi, bolalar shovqin qilib meni charchatib yuborishadi deb kunni boshlashga odatlanib qolgan. Agar o'qituvchi talabchan bo'lsa, o'z bilimini o'quvchilarga yetkazib bera olsa, hech bir o'quvchi nazoratidan chetda qolmasa, o'quvchi faolligini oshirishga erishsa, tushkunlik holatidagi o'quvchini ham darsiga qiziqтира olsa, dars samarali bo'ladi.

O'quvchini ikki baho bilan jazolash to'g'rimi? O'qituvchi uyga vazifani tayyorlab kelmasa, kitob daftari uyda qolib ketsa yoki uyga vazifani tayyorlab bajarganman uyda qolib ketibdi deb bahona qilsa, o'qituvchi uni ikki baho bilan jazolaydi. O'qituvchining nazdida bu boshqa bolalarga saboq bo'ladi. Lekin o'qituvchi bu oddiygina ikkining o'quvchining ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini inobatga olmaydi. Bu holat o'quvchini tushkun holatga tushishiga sabab bo'ladi.

Ko'pincha kattalar o'z muammolari bilan o'ralashib qolib bolalarni unutib qo'yishadi. Ko'r-ko'rona turmush qurish natijasida bir-birini tushunmaslik sabab o'zlari uchun qulay va muammolardan qutulishning oson yo'li ajrimni tanlashadi. Lekin, bu bola psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatib uning tushkunlikka, stress holatiga tushib qolishiga va oxir-oqibat suitsid holatini kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Onalar bolasiga otasiz ham seni yaxshi boqa olaman deb taskin beradilar. Afsus-ki, bu fikr noto'g'riligini tushunganlaricha bola qancha stress holatlarini boshidan kechiradi. Bolani faqatgina boqish emas uning tarbiyasini o'ylash kerak. Bola tarbiyasida ham otaning ham onaning o'rni katta.

Ba'zilar farzandlarini opa-ukalari, ota-onalari, amma-xolalari qo'lga tashlab chet davlatga sarmoya orttirish ya'ni ko'p pul ishlab topsam farzandlarim hech narsaga zoriqmaydi, hech kimdan kam bo'lmaydi degan maqsadda ketishadi. Yo'q yanglishasiz bolani moddiy tomondan bekam-u ko'st qilishingiz mumkin ammo bolani mehrga zoriqtirib qo'yasiz. Tabiiy-ki hech qaysi amma-xola jiyaniga o'z bolasiday munosabatda bo'lmaydi. Bola bundan o'ksinadi, ko'pincha ota-onasini sog'inib yig'lab o'zini ovutadi. Qarabsiz-ki, bolada yana tushkun holat. Endi bolaqanday yo'l tutadi? U ko'chadan

do'stlar orttira boshlaydi, jinoyatchilik, huquqbuzarlik kabi illatlar uning eng yaqin do'stiga aylanadi. Buning oqibatida turli ko'ngilsizliklar kelib chiqadi. Agar uning irodasi sust bo'lsa bu yo'ldan qutulishning oson yo'lini ya'ni, bir necha daqiqaning o'zida barcha muammolardan qutulishni tanlaydi.

Ish tajribalarimda o'quvchilar bilan suhbatlashganimda ular oilada mening o'rnim yo'q u uyda yashagim kelmaydi, o'z o'rnim bo'lishini, boshqalar tomonidan tan olinishni va mehnatim qadrlanishini xohlayman deb aytgan. Bunday holatlarda o'quvchi yoshlar o'rtasida turli muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shunday ekan biz psixologlar, sinf rahbarlar, o'qituvchilar va ota-onalar doimi birgalikda hamkorlikda ishlab yurtimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimizga turli muammolariga yechim topishlarida yelkadosh bo'lishimiz zarurdir.

Maktabda muammoli o'quvchilar bilan ishlashning yana bir muhim usullaridan biri ularni qiziqishlari va intilishlarini aniqlab, kasb-hunarga yo'naltirib borishdir. O'quvchilar bilan tanlagan kasblari, ushbi kasbni kelajakdagi o'rni yuzasidan suhbat o'tkazib, ularga to'g'ri yo'nalish berib boriladi. Shu bilan birga ularni kelajakda o'zlari tanlagan kasbni albatta egallashlariga bo'lgan ishonchlarini oshirib borish zarur. Bunda quyidagi fikrlardan foydalanish mumkin: "Sen albatta shu kasbni yetuk mutaxasisi bo'lib yetishasan, Sen eng kerakli va to'g'ri kasbni (yoki hunarni) tanlagansan, Tanlagan kasbing senga omad va baxt keltiradi, men bunga ishonamankabi fikrlardan foydalanilsa, muammoli o'quvchilarni o'ziga va kelajakka bo'lgan ishonchlarini yanada oshirishga ko'maklashishga erishamiz.

Bola tarbiyasi bilan astoyidil shug'ullangan oilalarning bolalari maktabda o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan ko'rsata oladilar. Bola tarbiyasida ota-onaning roli muhim hisoblanadi. Tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko'zga tashlanadi. Oilada farzand tarbiyasida qo'yilgan har bir xato va kamchilik insonning kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, to'g'ri tarbiya kelajak poydevori. Bola tarbiyasi yomon niyat bilan emas balki sabr toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, sezgirlik bilan bo'lishi kerak.

Bolani hech qachon biror narsani noto'g'ri bajarding deb koyimaslik, o'z sevimli mashg'ulot yoki o'yin turini tanlashiga va o'z fikrini bayon etishiga imkon berish uni

haddan tashqari maqtamaslik, bolada har doim va hamma sohada birinchi bo'lishini, maktabda esa a'lochi bo'lishi kerakligini talab qilmang chunki maktabda a'lo baholarga o'qish har doim ham iqtidorli bo'lishga bog'liq emasligi isbotlangan. Bolaning har bir savoliga imkon qadar rost va sabr bilan javob berish, bolani faqatgina tengdoshlari bilangina emas balki kattalar bilan ham erkin va bermalol muloqot qilishga o'rgatish, bolaga har doim rost gapirish lozim agarda u foydasiz bo'lsa ham, bolangiz xato qilishga haqli ekanligini tan olishingiz, kuch bilan bolaga ta'sir o'tkazmang. Hech bo'lmaganda ba'zi - ba'zida bolaning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring, ana shundagina qanday munosabatda bo'lishingizni anglab yetasiz.

Asosan o'smirlik davrida «Men»tushunchasi kuchli rivojlanadi ya'ni «men zo'rman», «men xamma narsani bilaman», «men hammadan kuchliman» va hokazolar uning xulqining buzulishlariga sababchi bo'ladi. Bunday holatlarda maktabda o'quvchilar bilan o'ta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur. Ya'ni maktabda ta'lim olayotgan muammoli o'quvchilar bilan ularni harakter hususiyatidan kelib chiqqan holda ishlarni tashkillab borish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'quvchilar bilan ishlashda maktab psixologi, sinf rahbarlar va ota - onalar birgalikda, hamkorlikda ishlar olib borilsagina samarali natijaga erishiladi.

Maktab psixologi muammoli o'quvchilar bilan olib borgan individual suhbatlarni albatta sir saqlay olishi zarurdir.

Yuqoridagi mavzu bo'yicha o'z fikrimni yakunlar ekanman,hozirgi kunda insoniyat taraqqiyoti uchun eng muhim jarayon, ya'ni bola shaxsining shakllanishida uchraydigan muammolarni yosh avlodning xatti-harakatlarini ijobiy tomonga yo'naltirish,ularni turli salbiy og'ushlardan asrash va halos etish kabi vazifalarni amalga oshirishda katta mehnat va mas'uliyat talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maktab va hayot jurnali 2018-yil 3-son
2. Maktab va hayot jurnali 2018-yil 1-son
3. Muallafning hayotiy ko'nikmalari

## O`SMIRLIK YOSH DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Yesmurzayeva Oltin Kuvanchevna*  
*Beruniy 10-maktab psixologi*

O`smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo`lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o`smirlar o`tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o`shish oldinroq namoyon bo`lmoqda. Aksariyat o`quvchilarda o`smirlik yoshiga o`tish, asosan 5-sinflarda boshlanadi. “Endi o`smir bola emas, biroq katta ham emas” – aynan shu ta`rif o`smirlik davrining eng muhim va xarakterli tomonini bildiradi.

**O`smirlik bolalikdan katta davrga o`tish** davri bo`lib, fiziologik va psixologik jihatdan o`ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakter shakllanadi, ma`naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O`smirlik balog`atga yetish davri bo`lib , yangi hislar va jinsiy hayotga taalluqli chigal narsalarning paydo bo`lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o`smir rivojida keskin o`zgarishlar yuz bera boshlaydi. Bu o`zgarishlar fiziologik va psixologik o`zgarishlardir. O`smirlar o`zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o`zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma`lum darajada o`rtoqlari va o`qituvchilariga ko`rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo`li bilan ham osongina ko`rish mumkin. Shu sababli o`smirlik davri “o`tish davri”, “krizis davr”, “qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko`rinishlari bilan xarakterlanadi.

Chunki, bu yoshdagi o`smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o`z o`rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham ro`y beradi. O`z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni “psixik rivojlanishdagi krizis” deb nomlagan. Kichik maktab davridan so`ng bola alohida shaxs sifatida o`z-o`ziga munosabatni shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o`smirlik yoshini ikki davrga- kichik o`smirlik davri va katta o`smirlik davrlariga to`g`ri keladi. Birinchi bosqichda o`smir o`zini “bola”lardan ajratib, endi o`zini kattalar olamiga mansubligini



ta`kidlamoqchidek bo`ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o`smirlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o`zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo`lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog`liq bo`lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o`smir endi o`zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o`zini to`liq anglay boshlaydi, o`z shaxsini ulug`lab, o`ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O`smirlarni o`z shaxslari haqidagi fikrlar ko`proq qiziqtiradi.

O`smir o`zining juda ko`p istaklari, “xohlamayman” larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo`lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil bo`lishga intiladi. Tevarak atrofdagi odamlarga o`zining ahamiyatga ewga ekanini ko`rsatish uchun u kuchli, qo`rqmas va epchil bo`lishga intiladi. Ana shunday “xohlamayman” va “kerak” ortasidagi qarama-qarshiliklar ba`zan oilada, maktabda keskin ziddiyatli holatlarni yuzga keltiradi. O`smirning yangi huquqlarga da`vosi, avvalo, kattalar bilan o`zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo`ladi. O`smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya- qilish xosdir. Ko`pincha ular o`zlariga yoqadigan va tanish bo`lgan kattalarning harakatlariga imitatsiya qiladilar.

Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo`lgan o`smirga juda ko`p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo`ladi va ular o`smirda krizisni yuzaga keltiradi. Bu krizis o`smirning ma`naviy o`sishi, shuningdek psixikasidagi o`zgarishlar bilan ham bog`liqdir. Bu davrga bolaning ijtimoiy mavqei o`zgaradi, o`zining yaqinlari, do`stlari , tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzga keladi. Ko`pgina o`smirlarda o`zidan qoniqmaslik hollari yuzaga keladi.

O`smirlar haddan tashqari g`ayratli va besaranjom bo`ladilar, ular uchun bekorchilik juda og`irdir, bir xil tarzdagi ishlardan tezda toliqadilar , bir xildagi ish bilan qiziqmay qo`yadilar, bu esa ularning ta`lim jarayoni muvaffaqiyatiga ta`sir qiladi. Xulq-atvordagi og`ish muammosi markaziy psixologik va pedagogik muammolardan biridir. Axir, agar yosh avlodni tarbiyalashda hrch qanday qiyinchiliklar bo`lmaganida

jamiyatning rivojlanish vat a`lim psixologiyasiga, pedagogikasiga va xususiy metodlarga bo`lgan ehtiyoj shunchaki yo`q bo`lib ketar edi.

O`smirlik bu insoniyat rivojlanishning eng qiyin bo`lgan davrlaridan biri. Nisbatan qisqa muddat bo`lishiga qaramay, deyarli ko`p jihatdan insonning kelajakdagi hayotini belgilaydi. O`smirlik davrida xarakterning shakllanishi va shaxsiyatning boshqa poydevorlari asosan shakllanadi.

Yetakchi faoliyat:

- o`quv va professional kasb;
- professional o`zini-o`zi belgilash;

Shu vaqtgacha odobli, dilkash bo`lgan o`smir kutilmaganda, qaysar, intizomsiz, o`jar, serzarda bo`lib qoladi. O`smir xulqidagi bunday o`zgarishlar o`qituvchi yoki otionalarni qattiq tashvishga soladi, munosabatlarini o`zgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, ko`ngilsizliklar kelib chiqadi.

Xo`sh, o`smirning psixik o`shini harakatga keltiruvchi kuch nima? O`smirning psixik o`shini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini yuzaga keltirgan ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyalari o`rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo`lishidir. Vujudga kelgan qarama- qarshilik va ziddiyatlarni psixologik kamolotni ta`minlash, faoliyat turlarini takomillashtirish orqali o`smir shaxsida yangi psixologik o`zgarishlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo`qotish mumkin.

O`smirlar uchun chegaralarni belgilang. O`smirlik davrida mustaqillik va mustaqillikka erishish istagi ko`pincha jamiyatda va oilada mavjud bo`lgan qonunlarni buzish orqali amalga oshiriladi. Buning oldini olish uchun aniq, adolatli va ikkal tomondan tasdiqlanishi lozim bo`lgan chegaralarni belgilash kerak.

### **Hissiy suhbatni talab qilmang!!!**

Vaqtivaqti bilan har birimiz o`zimiz bilan yolg`iz bo`lishimiz kerak. Yoshlar bundan mustasno emas. Shuning uchun, agar siz bolaning xatti-harakatlarida o`zgarishlarni sezsangiz, giyohvandlik bilan so`roq qilishdan tashqari siz ularga o`zingizning muloqotingizni yuklamasligingiz kerak, aks holda bola siz bilan muloqot qilishdan qocha boshlaydi.

**O`smirni kattalar muammolarini hal qilishga jalb qiling.**

Kattalarning keng tarqalgan xatolaridan biri shundaki, biz bolalar kattalar muammolarini hal qila olmaydi deb hisoblaymiz.

Yaqindagina yuvosh, beozorgina bo`lib yurgan, qalb kechinmalri bilan o`rtoqlashgan bolaning bir zumda tutoqib, asbiylashib ketishi, gapga quloq solmasligi, qo`pollik bilan javob berishining sababi nimada deb o`ylanib qoladi, gohida ota-onalar. To`g`ri o`smirlar ba`zida muammo tug`dirishi mumkin, ammo davrda o`zgarishlar sizni hayaratga solmasin. Axir farzandingiz, ba`zilar uchun unchalik oson bo`lmagan o`smirlik davrini boshdan kechiryapti. Bunday paytda gormanal o`zgarishlar sodir bo`lib, bu bolaning xatti- harakatlarida aka etadi. U o`tat a`sirchan, asabiy bo`lib, ba`zan halovati yo`qdek ko`rinadi. O`smirlar ko`pincha javobsiz muhabbat, ota-ona yoki tengqurlari bilan kelishmovchiliklar, kelajak oldida qo`rquv hamda yolg`izlikdan aziyat chekishadi.

Har kuni bolangizni maktabga kuzatayotganda, nonushta qila turib, uning hayotiga qiziqishingizni bildirib turishingiz mumkin. Uning mashg`ulotlari, qiziqishlari, tanish-bilishlari, nizolari haqida so`rab-surushtirib turishingiz o`smir bola tarbiyasida ayni muddaodir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. G`oziyev E.G`.Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi).T.,O`qituvchi, 1994.
2. Davletshin M.G.,Do`stmuamedova Sh.A.,To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.
3. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent. 2000.

---

## **YOSHLARDA XULQ-OG'ISHI VA TARBIYA BUZILISHI KELIB CHIQUISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SABABLARI**

*Xolova Gulxayoxon Baxodirovna*  
*Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 41-maktab psixologi*

**ANOTATSIYA** Ushbu maqolada yoshlarda xulq og'ishi, tarbiya buzilishining sabablari, ularni oldini olish,yoshlar ma'naviy dunyosini kengaytirish,ularni katta hayotga tayyorlash hamda yoshlar tarbiyasidagi og'ishlarni batrataf etish chora-tadbirlari

yoritilgan.

**KALIT SO'ZLAR** xulq-og'ishi, delikvent xulq, tarbiya, bola, shaxs, oila, jamiyat, ontogenez, sinf jamoasi, intellekt.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakillantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishligi, ma'daniy, ijtimoiy, ma'rifiy hayotda faol ishtirok etishni ta'minlash, yosh avlodda bilim, ko'nikma, ijtimoiy tajriba va odoq-axloq normalarini shakillantirishdan iboratdir. Bizga ma'lumki, odatda har bir sohaning o'z ustasi bo'ladi. Inson qalbining ustasi esa psixologlar hisoblanadi. Bolalar qalbi va ruhiyatiga yo'l topa oladigan kishilar jumladan psixologlarga bo'lgan ehtiyoj hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida ortib bormoqda. Shuningdek, maktablarda bolalarga nisbatan ba'zan “Tarbiyasi qiyin bola” so'zi ishlatiladi. Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda, ko'p holat va vaziyatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilar ro'yhatida hisobga olingan yoki olinmagan, giyohvandlik, spirtli ichimlik ichishga qiziqishi, mayda o'g'irlik va bezorilikka moyil bo'lgan o'quvchilar nazarda tutiladi.

Tarbiyasi qiyin bolalar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishidir. Albatta, bolada bunday munosabatlarning paydo bo'lishiga boshqa sabablar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan, o'quv faoliyatining usuli, o'zlashtirish qobiliyatining sust rivojlanganligi, murakkab vaziyatlarda hukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelishligi, o'qituvchilar tomonidan o'quvchiga ob'ektiv baho bermaslik, o'qituvchi tomonidan boladagi individual-psixologik va intellektual imkoniyatlarga yetarlicha e'tibor bermaslik, o'qitish saviyasining pastligi, darslarni qiziqarsiz olib borilishi va boshqalardir. Tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalarning kelib chiqishining yana bir sababi, ularning sinf jamoasi va turli xil jamoatchilik tashkilotlari, muassasalari bilan yaxshi aloqada bo'lmasligidir. O'quvchi bilan sinf jamoasi fikrining mos kelmasligi, uning ahamiyatsizligi, jamoa ichida bolaning o'z o'rnini tobora yo'qolib borishiga sabab bo'ladi. Jumladan bolaning fikr va qiziqishlarini jamoaning qo'llab-quvvatlamasligi yoki beparvoligi uni qonun buzarlikka

undaydi va xulq og'ishining kelish chiqishiga imkoniyat yaratiladi. Buning natijasida bola uchun kelajak rejalarining poymol bo'lishligi xavfi ortadi. Shu asnoda o'qishdan va jamoadan yuz o'girgan o'smirda o'z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va jamoa faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, yangi tanishlari bilan a'loqa qilishni afzal biladi, o'zgalardan najot izlaydi. Natijada o'smir nosog'lom xulqli bolalar orasiga tushib qoladi va ular xulq-atvoriga xos bo'lgan xarakterga ega bo'ladi. Oilaviy sharoitning salbiy ta'siri ham tarbiyasi og'ir o'smirlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ayrim oilalarda ota-ona o'rtasidagi munosabatlarning nosog'lomligi, ba'zi otionalarning spirtli ichimliklarga, chekish kabi illatlarga ruju qo'yishlari ham o'smirning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari oilalarda bola uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emasligi sababli ham bola noxush holatlar bilan yolg'iz kurash olib borishdagi ichki kechinmalar bilan yashaydi hamda bola dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan paydo bo'lgan norozilik xissi kundan-kunga avj olib, ichki qo'zg'alonga aylanib boradi.

Oilada ota-onalarning alkogalizmga berilishi, bolaning ko'z o'ngida ichish, chekish va nojo'ya harakatlarni qilishi bolaga ko'rgazmali o'z ta'sirini ko'rsatadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - deganidek bola oilasida ota-onasidan ko'rgan xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Bunday vaziyatlarda avvaliga bola chekishni, ichishni o'rganib oladi, so'ngra bolada kuchliroq ta'sir etuvchi moddalarga bo'lgan qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Qarabsizki, buning natijasida oilasi va ota-onasida kuzatilgan salbiy holatlar bolada ham o'z aksini ko'rsatadi.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida g'ayriqonuniy hatti-harakatlar va o'z joniga qasd qilish holatlarining katta qismi aynan ota-onalarning qattiq-qo'lligi va adolatsiz munosabatda bo'lishligi tufayli sodir etiladi. Shu sababli, oilada bolalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, shaxslararo munosabatlarda ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishida muhim ahamiyat kabs etadi.

Og'ishgan xulq ya'ni delikvent axloq tushunchasi ilmiy terminda "delikvent" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib "nojo'ya xatti-harakat, aybdorlik" ma'nolarini bildiradi. Shu o'rinda kriminal axloq tushunchasiga ham to'xtalib o'tishimiz joizdir.

Kriminal axloq - delikvent axloqning bo'rttirilgan shakli hisoblanadi. Umuman, olganda delikvent axloq bu jamiyatning aniq ifodalangan qoida – qonunlariga bevosita davlat hayotining mavjud me'yorlariga qarshi yo'naltirilganligidir.

Yoshlarda delikvent axloq xulq og'ishining omili ontogenezning turli bosqichlarida o'ziga xos axloqni belgilaydi. Qonunbuzarliklarning yoshga bog'liqligini biz quyidagicha ta'rif etamiz. Bunda kichik maktab yoshida 6-11 yoshdagi bolalarda delikvent axloqni quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin ya'ni mayda bezorilik, maktab qoidalari va intizomni buzish, dars qoldirish, uydan qochib ketish, yolg'onchilik va o'g'rilik kabi holatlarning namoyon bo'lishligi. O'smir yoshida 11-16 yoshdagi qonunbuzarlik harakatlari anchagina anglangan va ixtiyoriy hisoblanadi, ushbu yosh davrida odatiy buzulishlar o'g'il bolalarda-o'g'irlik va bezorilik, qiz bolalarda-o'g'irlik va fohishabozlik ko'rinishlarida sodir etiladi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki ko'pchilik jinoyatchilarning yoshi 25- 35 orasida kuzatiladi, jinoyat miqdorining 14 yoshdan 19 yoshgacha o'sish surati oshadi. 29 yoshdan 40 yoshgacha asta-sekin pasayish kuzatiladi, 40 yoshdan keyin jinoyat sodir etish siyraklashadi.

V.N.Kudryavtsevning ta'kidlashicha, o'smirlarda jinoiy karera qoidadagidek yomon o'qish va maktabdan begonalashish, unga salbiy munosabat bildirish boshlanadi. Keyin oilaviy muommolar va tarbiyaning nopedagogik usuli fonida oiladan begonalashish sodir bo'ladi. Boladagi keyingi qadam esa jinoiy guruhga kirishish va jinoyat sodir qilish bo'ladi.

Yoshlarda xulq og'ishini bartaraf etishda eng avvalo bolalar va o'smirlar shaxsida salbiy illatlarning oldini olish, ularning ma'naviy dunyosi ko'lamini kengaytirish ko'plab kitob, gazeta, jurnallaro'qishliklarini nazorat qilish, shuningdek ma'naviy ongini oshiradigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishliklarini talab etish joizdir.

### **Adabiyotlar.**

- 1.Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslaxatlar. G'ayrat shoumarov, Baxriddin Umarov, Feruza Akramova Toshkent-2015.
- 2."Ijtimoiy psixologiya" V.M.Karimova. Toshkent - 2012.
- 3.Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Xakimova. Toshkent-2014.
- 4.Oila psixologiyasi. Vasila Karimova.

5. "Ijtimoiy pedagogika". Nodira Egamberdiyeva .

6. www.ziyonet.uz

## O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA UCH TOMONLAMA HAMKORLIK: OTA-ONA, SINIF RAHBAR HAMDA PSIXOLOG

*Turdibaeva G'ulnara Kewlimjaevna*  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani 1- maktab psixologi*

Bolani tarbiyalash nafaqat oila tomonidan, balki ta'lim muassasasi xodimlari tomonidan ham amalga oshiriladi, shuning uchun ushbu ta'sir doiralari o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish juda muhimdir. Faqat shundagina bolaning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasi to'liq bo'ladi. Maktab psixologi, sinf rahbari – o'quvchilar jamoasining manfaatlarini ifodalaydigan, ularning ota-onalari bilan ishlashda bolalarning tarbiyasi va rivojlanishini tashkil qiladigan muhim shaxs hisoblanadi. Ushbu hamkorlikni ta'limning boshlang'ich bosqichida, bolalar yangi jamoaga, vazifa va majburiyatlarga endigina o'rgana boshlagan paytda saqlab qolish juda muhimdir. Maktabda tarbiyasi og'ir bolalar bilan ,yoxud ruhiyatida o'zgarish bo'lgan bolalar bilan ishlashda, muammoli vaziyatga yechim topishda faqat o'qituvchi emas, ota- ona hamda maktab psixologi hamkorligida yechim topishga, muammoli vaziyatdan o'quvchini chiqarib olishga birgalikda harakat qilinadi.

**Uch tomonlama hamkorlik:** Maktabda 3 tomonlama hamkorlik: "O'qituvchi-ota- ona –psixolog " hamkorligini yo'lga qo'yish o'quvchilar tarbiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki, o'quvchi o'zini uyda boshqacha tutishi, maktabda yoxud, biror bir darsda boshqacha tutishi mumkin.Yoki maktabda sodir etilgan tartibsizlik, hurmatsizlik, darsni ataylab buzib, o'qituvchining asabiga tegish holatlari kuzatilsa, o'quvchi o'zini oqlash uchun ota-onasiga boshqacha qilib yetkazishi mumkin. Ushbu holda o'quvchi bilan birgalikda o'qituvchi, ota-ona va maktab psixologi hamkorlikda ishlab ,o'quvchini ushbu vaziyatdan chiqarib olishi muhim. Maktab psixologi sinf

rahbari bilan hamkorlikda maktabda ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar va yangiliklardan ota-onalarni xabardor qilib turishi shart. Agar bolada o'quv ko'rsatkichlarining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko'ra muammoli vaziyat yuzaga kelsa, sinf rahbari bu haqda maktab psixologi va ota-onalarga xabar berishga majburdir. Bu o'qituvchining ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning asosiy maqsadi. Agar bolaning ota-onasi bo'lmasa, unda ish uning vasiylari bilan amalga oshirilishi kerak. Hattoki eng mas'uliyatli ota-onalar ham farzandining baxtli, bilimli bo'lishiga to'sqinlik qiladigan, shuningdek, oiladagi totuvlikka ta'sir o'tkazadigan, ta'lim va tarbiyada yo'l qo'yadigan xatolardan holi emas. Bolaning o'ziga xos istaklari, fikrlari, tanlash huquqi bor. Barkamol, ruhan sog'lom shaxsni o'stirishni istovchilar, albatta, bu bilan hisoblashishi zarur. Bunda "Oila, maktab, maxalla" tamoyili, o'zaro xamkorlik albatta o'z mevasini beradi.

### **OTA-ONALAR BILAN ISHLASHNI REJALASHTIRISH**

- Maktab psixologining ota-onalar bilan ishlash rejasi bir o'quv yiliga tuziladi. Bu vaqt ichida ma'lum miqdordagi ota-onalar uchrashuvlarini, sinfdan tashqari ishlarni va maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazishi kerak. Maktab psixologi va ota-onalar o'rtasidagi suhbatlar rejadan tashqari ham bo'lib o'tishi mumkin;

- Maktab psixologining ota-onalar bilan ishlash rejasi bir o'quv yiliga tuziladi. Bu vaqt ichida ma'lum miqdordagi ota-onalar uchrashuvlarini, sinfdan tashqari ishlarni va maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazishi kerak. Maktab psixologi va ota-onalar o'rtasidagi suhbatlar rejadan tashqari ham bo'lib o'tishi mumkin;

Maktab psixologining ota-onalar bilan ishlash rejasi bir o'quv yiliga tuziladi. Bu vaqt ichida ma'lum miqdordagi ota-onalar uchrashuvlarini, sinfdan tashqari ishlarni va maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazishi kerak. Maktab psixologi va ota-onalar o'rtasidagi suhbatlar rejadan tashqari ham bo'lib o'tishi mumkin;

Ota-onalarni maktab hayotida ishtirok etishga chorlang. Uy sharoitida topshiriqlar qiyin bo'lmasligi kerak. Ota-onalarga katta hajmdagi ishlarni yuklashning hojati yo'q. Talab va topshiriqlar oddiy va foydali bo'lishi kerak. Ota-onalarga bolada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishga va e'tibor berishga o'rgating. Ota-onalarning bolaning xatti-harakatlariga noto'g'ri munosabati salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun ota-onalar o'qituvchilar bilan jamoada bolaning deviant xatti-harakatlarini



to'g'irlaydigan bir xil xatti-harakatlar taktikasini tanlashlari kerak. Bolaning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan choralarni topishda yordam bering.

### **Maktabda ota-onalar yig'ilishini tashkil etish:**

1) Har bir ota-onalar yig'ilishining mavzusi, maqsadi va vazifalari bo'lishi kerak. Maktab psixologlari bolalarni o'rganish va rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan dolzarb muammolar asosida ota-onalar bilan uchrashish rejasini tuzadi.

2) Maktab psixologlari ota-onalar bilan suhbatni tashkil qiladi va ularning savollariga javob beradi. O'zi tanlagan mavzu bo'yicha taqdimot yoki video namoyishni tayyorlashi mumkin.

3) Har bir o'quvchi uchun statistik ma'lumotlarni tayyorlash kerak.

### **MAKTAB HAYOTIDA OTA-ONALARNING FAOL ISHTIROKI**

Ko'p sonli ota-onalarning doimiy ish joyiga qaramay, ularni tadbirlarda, kontsertlarda, ko'rgazmalarda qatnashishga jalb qilishi kerak. Jozibadorlik shakli so'rov xarakteriga ega bo'lishi kerak. Haddan tashqari bosim va doimiy topshiriqlar ota-onalarni maktab bilan aloqa qilishdan qaytarishi mumkin. Ota-onalarning sinf o'qituvchisiga yordami mumkin bo'lishi kerak.

Band va kam faol ota-onalarni maktab tadbirlariga tomoshabin va muxlis sifatida taklif qilish mumkin. Ota-onalar faollari bilan hamma narsa osonroq - ular o'zlari o'qituvchilarga ta'til va tadbirlarni tashkil qilishda yordam berishga tayyor.

### **OTA-ONALAR BILAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR**

Har bir darsdan tashqari mashg'ulot ma'lum bir maqsad bilan o'tkaziladi: tanishish, ijodiy yutuqlarni namoyish etish, raqobat, etakchini aniqlash, o'zini tutish diagnostikasi va boshqalar. Har bir bola o'z mahoratini va bilimini o'zi va boshqa odamlarning ota-onalariga ko'rsatishni xohlaydi. Hamkorlik faoliyati bolalar uchun foydalidir va kattalar uchun ta'lim - bu sinf rahbari bilan psixologlarning ota-onalar bilan ishlash shakli.

Bolalar ota-onalar faoliyatini juda yaxshi ko'radilar, ayniqsa ular ota-onalar o'rtasidagi musobaqa shaklida bo'lsa. Bunday holda, bola eng yaxshi natijaga erishish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshiradi. O'yin paytida ota-ona va bola o'rtasidagi hamkorlik opsiyasi ko'pincha maktab tadbirlarini tashkil etishda qo'llaniladi. O'yinda

yutqazadiganlar bo'lmasligi kerak, aks holda jamoa yutqazsa, bolada ota-onaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi mumkin.

## **OTA-ONALARNING MAKTAB PSIXOLOGI BILAN O'QUVCHIGA O'ZARO TA'SIRI**

Agar bola uyg'un rivojlansa, sinfdoshlari bilan faol muloqot qilsa va yaxshi o'qisa, unda tashvishlanish uchun hech qanday sabab yo'q. Biroq, ko'pincha o'quv va ijtimoiy moslashuv jarayonida bolani qo'zg'atadigan, uning o'qishi yoki rivojlanishiga xalaqit beradigan turli xil vaziyatlar yuzaga keladi. Masalan: bolani tashqi qiyofasi tufayli masxara qilishadi, giperaktiv o'quvchi tengdoshlarini chalg'itadi va hokazo. Bunday holda, bolalar psixologiyasi sohasida qobiliyatsiz bo'lgan ota-onalar vaziyatni o'z-o'zidan hal qila olmaydilar. Sinf rahbarining ota-onalar bilan ishlash rejasida psixologning maslahati bo'lishi kerak. Maktab psixologi muammoning sabablarini tushunishda yordam berishi va ota-onalarga bahsli masalani hal qilish bo'yicha tavsiyalar berishga majburdir. Boshlang'ich maktabda ota-onalarga yo'naltirilgan tadbirlar majburiydir.

### **OTA-ONALAR UCHUN INDIVIDUAL MASLAHAT**

Shaxsiy suhbatni o'tkazish uchun psixolog o'quvchining uyiga kelib, yashash sharoitlarini ko'rish, oiladagi mikroiklimni kuzatish, uning ish joyini ko'rishni so'rashi mumkin. Uy muhiti bolaning rivojlanishi va akademik ko'rsatkichlariga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun shaxsning uyg'un rivojlanishiga xalaqit beradigan barcha muhim daqiqalarni aniqlash juda muhimdir. Sinf o'qituvchisi o'quvchilarning barcha ota-onalari bilan yakkama-yakka muloqot qilish uchun vaqt ajratishi kerak, ayniqsa birinchi sinfga kelganda. Psixologning ota-onalar bilan ishlashi nuqtai nazaridan oila bilan muloqotga, ota-onalarning qiziqishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Agar ota-onalar tomonidan beparvolik yoki hamkorlik qilishni istamaslik bo'lsa, siz ularni xabardor qilishingiz va rag'batlantirishingiz, ularning xatti-harakatlari bola uchun namuna ekanligini tushuntirishingiz kerak.

Ota-onalarni maktab hayotida ishtirok etishga chorlang. Uy sharoitida topshiriqlar qiyin bo'lmasligi kerak. Ota-onalarga katta hajmdagi ishlarni yuklashning hojati yo'q. Talab va topshiriqlar oddiy va foydali bo'lishi kerak. Ota-onalarga bolada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishga va e'tibor berishga o'rgating. Ota-onalarning

bolaning xatti-harakatlariga noto'g'ri munosabati salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ota-onalar o'qituvchilar bilan jamoada bolaning deviant xatti-harakatlarini to'g'irlaydigan bir xil xatti-harakatlar taktikasini tanlashlari kerak.

### **TAVSIYA**

- 1.Sinf rahbarlar va o'qituvchilar salohiyatini oshirish, "Murabbiylik" va "Sinfni boshqarish" mavzularida o'quv kurslari tashkil qilish.
- 2.Sinf rahbarlar tomonidan o'tiladigan "Ma'naviyat soatlari" ga eng asosiy dars deb qaralishiga erishish.
- 3.Ota - onalarnig psixologik bilimlarini oshirish.
- 4.Maktab psixologlari ishini kuchaytirish.

---

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**

*Xodjiyeva Nigora*

*Buxoro viloyat G'ijduvon tuman 1-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Ta'limga beriloyatgan katta e'tibor tufayli ta'lim-tarbiya sohalaridaham islohatlar va yangilanish jaroyonlari bo'lmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakillanip kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarini ta'lim jaroyanida mohirona tadbiq etaolishi, ta'limning yangidan yangi yo'l va usullarini izlash ilg'or pedagogik tajribalardani jobiy foydalana olishi juda muhimdir. Chunki hozirgi texnika asrida bola ongi va tafakkuri kattalarga niabatan tezroq, jadalroq rivojlanmoqda. Maktab yoshiga yetmasdanoq telefon, kompyuter, planshet kabi elektron gadjetlarni o'zlashtirip olmoqdalar. Bu holatni e'tiborga olgan har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishlari lozim.

Bola birinchi sinfga qadam qoygan ilk chog'ida birinchi ustoziga mexri bo'lakcha bo'ladi, bola uchun dunyoda eng blimdon, aqlli va qadrdon inson bu birinchi uztozi bo'ladi. Birinchi muallimini allomalarni ulug'lagandek ulug'laydi har bir so'zini tinglab, har bir gapini bajarishga oshiqadi. Oila a'zolaridan ham ulug' ko'radilar lekin bu holat vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi. Bola mukammal deb bilgan insonning oddiy telefon yoki komputerdan foydalana olmasligi bolada hayrat va uztozga nisbatan ishonchsizlik hisi paydo bo'lishiga olib keladi. Bola tarbiyasida va texnologiyalarni qo'llashda qolipga tushib olihs va o'zgarishlardan qochish o'qitiuvchining obro'si tushishiga sabab bo'ladi. O'zbek xalqi yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalar, shakillari o'ziga xo urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Hozirgi kunda shu meroslardan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Bir metod va usulni harkuni qo'llash bolada zerikish, bezish kabi holatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabga kelayotgan bola har kuni yangidan yangi o'yin, texnologiya va mtodlarni ko'rsa darsni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Yosh avlod erkin fikirlaydigan, o'z mulohazalarini ochiq bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabulqilaoladigan va ularning shu hislatlarini rivojlantiradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Har kuni bitta parta va bitta partadosh emas tanlash imkoniyati va hohishiga qarab joylashishi bolaning ruhiyatigaham ijobiy ta'sir qiladi.

Dehqon dalaga urug' qadashdan oldin yerga ishlov berip tayyorlab olganidek pedagoglarham bolaga bilim berishdan oldin uning ruhiy holati haqida bilimga ega bo'lishi lozim. Buyuk bobomiz Ibn Sino aytgnidek "bola darsdan darsga o'tganda huddi turli bog'ni kezkandek, turli gullar hidlagandek bo'lsin". Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolaga huddi shunday holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchi birxillikda o'zining turli hislarlarini ochib beraolmaydi. Darsda bir og'izham gapirmaydigan o'quvchi tanafus chog'ida bul-buldek sayrab, burro burro gaplar tuzip she'r va latiflar aytadi.

Har bir alohida dars darslar zanjirining bir bo'g'inini tashkil qiladi. Dars ma'lum tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Dars strukturasi deganda darsning asosiy komponentlarining maqsadli ketma – ketligi, o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Dars

strukturasining zamonaviy talqini barcha qismlarning egiluvchanligi, mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib turli bog'lanishi va ketma – ketligini nazarda tutadi. Interfaol darsning strukturasi 5 asosiy elementdan tarkib topadi: Motivatsiya (vaqtning 5%) Maqsad – o'quvchilarning diqqatini muammoga qaratish. Mavzu muhokamasiga qiziqish uyg'otish. Bu savol, iqtibos (sitata), kichik hikoya, topshiriq ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kutilayotgan natijalarni e'lon qilish (vaqtning 5%) Maqsad- o'quvchilarning o'z faoliyatlari mohiyatini tushunib yetishlarini ta'minlash, ya'ni dars yakunida ular nimaga erishadilar va o'qituvchiulardan nimani kutyapti. Zarur axborot bilan ta'minlash (vaqtning 10%) Maqsad- ta'lim oluvchilarga amaliy mashq va topshiriqlarni bajarish uchun yetarli axborot taqdim etish. Bu kichik ma'ruza, tarqatma material, uy ishini tekshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Interfaol mashqlar ( vaqtning 60 %) Maqsad- materialni amaliy o'zlashtirish, mashg'ulot (dars) maqsadlariga erishish. Bunda o'qituvchi topshiriqni tushuntiradi. O'quvchilar yakka– juftlikda kichik guruhlarda ishlaydilar, natijalarni taqdimot qiladilar. O'qituvchi kuzatishlariga asoslanib, ishni umumlashtiradi. Yakun yasash (o'rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash) (vaqtning 20%) Maqsad-refleksiya, qayta bog'lanish, mashg'ulot davomida amalga oshirilgan, faoliyatni anglash, maqsadga erishilganlik, olingan BKM larni hayotda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish. Dars strukturasi to'g'risida fikr yuritganda “dars rejasi”, “texnologik xarita”, “dars turlari” kabi tushunchalarni aniqlashtirish zaruriyati tug'iladi. Dars rejasi: Sana, Sinf, Fan, Mavzu, Maqsad, Darsturi, Metodlar, Dars jihozi, Darsning borishi.

Yuqorida dars rejasining tarkibiy qismlari ifodalangan bo'lib, dars rejasi har bir dars ishlanmasi, texnologik xaritaning ajralmas qismidir.

Texnologik xarita-bir soatlik dars ishlanmasining o'qituvchi foydalanishi uchun qulay sxemasi bo'lib, darsni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o'rganish usullari, yo'llari, ko'rsatmalari hamda ko'rgazmali – texnologik topshiriqlar yig'indisidan iborat.

Maqsad nima? Ko'pincha o'qituvchilar maqsad bu – “biz intilayotgan narsa”, “oldimizga qo'ygan reja, ish”, “orzu” deb ta'rif beradilar.

Hayotiy misol

Keling ,bu masalani kelin olish misolida ko`rib chiqaylik. Inson farzandi dunyoga kelganda “katta bo`lsa, yaxshi to`ylar qilsam” deb orzu qiladi. O`g`il farzand voyaga yetganda, nasib qilsa, to`y – tomosha qilaman, elga osh beraman” deb yana o`ylaydi, orzusi yaqinlashgandek bo`ladi ( qizlarning ishi biroz murakkab, sababi to`yning qachon bo`lishi ota – ona yoki qizga bog`liq emas).Lekin bularning barchasi hali orzu.

Orzuni qanday qilib maqsadga aylantirish mumkin?

Birinchidan, farzandingiz oila qurishga, oilani boshqarishga jismoniy va ma`naviy jihatdan tayyorligini hisobga olasiz.

Ikkinchidan, to`y qilishga moddiy ta`minot yetarli mi?

Uchinchidan, yoshlar to`ydan keyin qayerda yashaydilar?

To`rtinchidan, siz qanday oiladan, qaysi kasbdagi, ma`lumoti, yoshi qanday qizni kelin qilmoqchisiz?

Beshinchidan, to`yni qaysi oyda o`tkazmoqchisiz?(Albatta o`g`lingiz kelinni topib qo`ygan bo`lsa, ishingiz osonlashadi). Barcha savollarning javobi topilganidan keyin, orzu maqsadga aylanadi. Keyingi harakatlaringiz (qo`shimcha mablag` topish, uyni ta`mirlash, sovchilikka boorish va h.k.) maqsadni amalga oshirish, ya`ni natijaga erishishga qaratiladi.To`y kuni natijaga ega bo`lasiz.

Demak, maqsadni belgilashda biz 5 ta mezonni hisobga olishimiz zarur. Mazkur mezonlar inglizcha so`zlarning qisqartmasidan olingan bo`lib, SMART mezonlari deyiladi.

Dars maqsadi o`quvchilarning talab va ehtiyojlari, imkoniyatlari, avval egallagan bilim, ko`nikma va malakalari, o`qituvchining salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqadi.O`qituvchining o`z darsi oldiga qo`ygan maqsadi, DTS talablari asosida belgilanishi lozim.

Ta`limiy maqsad o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim hajmini belgilaydi.U quyidagicha bo`lishi mumkin: “O`quvchilar gap turlari haqida tushunchaga ega bo`ladilar” , ”Undalma haqidagi bilimlarini kengaytiradilar”, rivojlantiruvchi maqsadda o`quvchilar ega bo`ladigan ko`nikma va malakalar ko`rsatiladi. Ko`pincha o`qituvchilar aynan rivojlantiruvchi maqsadni belgilashda qiynaladilar. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda “o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish”, “so`z boyligini oshirish”, “og`zaki

va yozma nutqni o`stirish” kabi rivojlantiruvchi maqsadlarning bir soatlik dasr davomida amalga oshishi mushkulligi barchaga ayonligini ta’kidlash lozim, tarbiyaviy maqsadda bunda asosan, o`quvchilarda shakllantirilishi muhim bo`lgan fazilatlar, ularning psixologik holatiga e’tibor qaratish muhim.

Xulosa. Ilg’or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o’quvchilarning mustaqil fikirlash jarayonini shakllantiradi. O’quvchining bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o’zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G’. Yo’ldashov. S.A. Usmanov “Pedagogik texnologiya asoslari” T.O’qtuvchi 2004.
2. T.G’afforova “Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar” T.:Tafakkur 2011.

---

## **BUGUNGI TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK MUHITNING TA’SIRI**

*Trapova Farog'at Salaydin qizi  
Nurobod tumani 6-maktab psixolog*

Ma’lumki, pedagogik faoliyatning tuzilishi o’qituvchining o’z iga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlar bilan bog’liqdir. O’qituvchi faoliyati o’z aro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashqilotchilik. Konstruktiv komponenti. O’qituvchining ishida konstruktiv dars katta o’rin egallaydi, ya’ni sinfdan tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog’liq o’quv materiallarni ta’lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta’lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o’z ifodasini topadi, ya’ni: o’z faoliyatining tartibi va tizimi ta’lim

oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi. Ayni vaqtda pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o'zlashtirilishi uchun o'quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning faoliyati faol bo'lmasa, chuqur bilim va o'zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qillinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv darajalari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yug'rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar bogliqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la



aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'z i rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatleri ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rne) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status,rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl- uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Individ, shaxs va sub`ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga

e`tibor qilishi zarur: - inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari); -insoning o`ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o`zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta`sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar, Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi. Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funksional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko`nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o`zlashtiribgina qolmay balki o`zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so`z bilan aytganda, voqelikka bo`lgan ongli munosabatini hamda o`z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xattiharakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma`lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo`lgan hamda shartli ravishda to`rtta o`zaro mustahkam bog`langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi: Birinchisi - boshqaruv tizimi; Ikkinchisi - stimullashtirish tizimi; Uchinchisi - stabilizasiyalash tizimi; To`rtinchisi - indikatsiyalash tizimi. Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo`lgan barcha sifatleri ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi Birinchi tizimi hosil bilishida analizatorlar shaxsning hulq-atvori va xattiharakatlarini belgilaydi. O`rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o`ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta`kidlab, o`tganimizdek ontogenez protsessida filogenetik analizatorlar o`rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qishilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida pertseptiv tizimiga o`tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma`lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko`rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o`zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorpertseptiv uyushishning yagona funksional dinamik

tizimini yaratadi. Insonning sensor-pertseitiv jihatlari doimo takomillashib boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.:Aspekt Press, 2009.-376s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2012
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2011.

---

## TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

*Kung'irova Soxiba Berdimurotovna*  
*Samarqand viloyati Nurobod tumani 31- maktab psixologi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktab psixologlarining malakasini oshirish jarayonini innovatsiyalar asosida tashkil qilishning ba'zi jihatlari ko'rib chiqilgan. Psixologning o'z faoliyatini innovatsion tarzda tashkil qilishda hayot davomida malakasini oshirib borish masalalari keltirib o'tilgan.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami katta, yangicha va o'zgacha yondashuvlar asosida tashkil qilinmoqda. "Yangi O'zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi" g'oyasi asosida keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlarning malakasini oshirish jarayoni tubdan o'zgartirilib, "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida yo'lga qo'yildi. Rivojlangan mamlakatlardagi kabi androgogika asosida ya'ni o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumot va axborotlarni egallab olish, o'z lavozimi va kasbidan kelib chiqib ish faoliyatini samarali va ijobiy tarzda davom ettirishda asqotadigan bilimlar bazasiga qisqa muddatda ega bo'lishdek jarayon bilan mashg'ul bo'ladilar. Malaka oshirish jarayonida

maktab amaliyotchi psixologlarini yangicha ishlashga, mustaqil va ijodiy fikrlashga o`rgatish, psixolog faoliyatini amalga oshirishda zarur bo`lgan yangi mazmundagi ishlarni o`zlashtirishga psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyorlash zarurati tug`ildi.

Maktab amaliyotchi psixologlarining pedagogik, innovatsion, axborot texnologiyalarini o`zlashtirib olishlariga yordam berish uchun ta`lim tizimida faoliyat yuritayotgan psixolog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishini tashkil qilish bilan bog`liq bo`lgan muammolarni bartaraf qilish maqsadida bir qancha o`zgartirishlar kiritildi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5712-con farmoni, “O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni va “Ta`lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorida ko`rsatib o`tilgan hamda 2020-yil 30-oktabrdagi videoselektorda ta`lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bo`yicha Prezidentimiz belgilab bergan muhim vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablar asosida maktab amaliyotchi psixologlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Pedagog xodimlar hamda maktab amaliyotchi psixologlarining uzluksiz malaka oshirishining mazmun va mohiyatini zamon talablari asosida amalga oshirish uchun malaka oshirish hududiy markazlarida oliy ta`limda faoliyat yuritayotgan tayanch fakultetlardagi ta`lim yo`nalishlari bo`yicha dars berayotgan universitet professor-o`qituvchilari bilan hamkorlikda tashkil qilinishi va ular bilan shartnomalar imzolanishi, ilmiy salohiyatni yanada takomillashtirish kabi dolzarb masalalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Ta`lim sohasida faoliyat yuritayotgan o`qituvchi va amaliyotchi psixologlar faoliyati haqida barqaror va hammaga ma`qul bo`lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topmagan. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta`limga yo`naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o`rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o`tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa nazariy bilim va amaliy pedagogik

faoliyat o`rtasidagi uzilish edi. Endilikda o`qituvchining hayot davomida malakasini oshirish masalasiga o`zgacha yondashuv, asosan o`qituvchining talab va xohishlari asosida tashkil qilinishi va uning talabiga binoan qisqa va uzoq muddatli bo`lishi o`qituvchining malakasini oshirishiga bo`lgan munosabatini ham o`zgartiradi. Chunki malaka oshirishga kelgan o`qituvchi o`zi tahsil olgan fakultetida amaliyot o`tasa va o`z ustozlaridan fan yangiliklarini qaytadan yangicha talqinini eshitsu bu maqsadga muvofiq uzviy bog`lanishni yuzaga keltiradi

Ta`lim tizimiga ilg`or texnologiyalar shiddat bilan kirib kelishi bois, O`zbekistonda “Elektron ta`lim” tizimi joriy etildi. Ushbu jarayonni tashkil qilishda asosiy urg`u ta`lim sifatiga qaratildi. Pandemiya sababli o`qituvchilar o`z faoliyatlarini ONLAYN tarzda ZOOM platformasida ishlash va imkon qadar o`z faoliyatini o`zgartirishlariga erishildi. Ammo ba`zi o`qituvchi va psixologlar bu innovatsiyalarni aksariyat hollarda o`z faoliyatida qo`llay olmadilar. Chunki o`qituvchilarning ba`zilari o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida munosabat o`rnatish psixologiyasi, onlayn darslarni eshitish va idrok qilishda o`quvchilarda yuzaga keladigan kamchilik va muammolarni psixolog bilan hamkorlikda bartaraf qilish yo`llarini izlab topishi va o`quvchiga psixologik madad va ko`mak berish ishlarini tizimli amalga oshirish katta ahamiyat kasb etish jarayoni yuzaga keldi. Ushbu holat esa o`qituvchi va psixolog hamkorligini yanada takomillashtirish va bevosita amaliyotda o`zgacha yondashuvlarni tatbiq qilish jarayonini yaratdi.

Shu sababli ham o`qituvchilar va maktab amaliyotchi psixologlarining malakasini oshirishda ularga ko`rsatiladigan metodik xizmatni tizimli tashkil qilish hozirda ta`lim tizimining amaliy ehtiyojini ta`minlovchi asosiy vositaga aylanmoqda. Pedagoglar va psixologlarning malakasini oshirish jarayoniga o`zgacha yondashuvning mazmun-mohiyatini aniq rejalashtirib olish va uni amaliyotga tatbiq qilish masalasi xozirgi davrda ushbu jarayonga ijodiy yondashuv bilan bir qatorda psixolog faoliyatida qo`llaydigan fan yangiliklari, metodikalar, metodlar va vositalarning o`ziga xos bo`lgan xususiyatlari ham qaytadan ko`rib chiqish masalasi yuzaga keldi.

Maktab amaliyotchi psixologlar malakasini oshirish kurslari uchun ishlab chiqilgan tayanch o`quv rejasida amaliy psixologiyaning yo`nalishlari blokiga yangi modullar kiritilib, ular o`quvchining psixologik , emotsional holatlarini tashxislash va

ijobiylashtirishga yo`naltirilgan. Jumladan “Loy (plastelin)terapiya, ”Musiqqa terapiya”, “Artterapiya”, “Mato terapiya”,”Raqs terapiya”,”Maska terapiya” va psixoanalitik metodlarning kiritilishi amaliyotchi psixologning o`z malakasini oshirish va ushbu metodikalardan boxabar bo`lib, keltirib o`tilgan metodlarni o`tkazish texnikasi va uni interpretatsiya qilish masalalari bo`yicha kompetetnsiyalarga ega bo`lishlari talab qilinadi. Shu sababli ham “Hayot davomida o`qish”ni tizimli tashkil qilish, ularning o`z faoliyatlarini ijobiy va samarali amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Maktab amaliyotchi psixologlarining malakasi oshirishda qisqa muddatli, mualliflik va maqsadli kurslarni tashkil qilish orqali ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Ayniqsa, amaliyotchi psixolog o`z faoliyatida tarbiyachi, maslahatchi, koouch va psixoterapevt funksiyasini ham amalga oshirishi o`quvchining individual xususiyatlariga o`zgacha yondashish masalasiga diqqatini qaratish talab qilinadi. Psixologlar o`z faoliyatlarida nafaqat psixologik xizmatning olti ta yonalishi balki, jamoatchilik asosida amalga oshirilishi zarur bo`lgan masalalarga ham puhta tayyor bo`lishi shart. Bu esa, ushbu faoliyatni amalga oshirishda qo`l keladigan usullar va metodlar bilan tanishish zarurati ham tug`ilmoqda. Chunki axborotlashgan bu davrda o`quvchilarning olgan axborotlarining xilma-xilligi va rang-barangligi o`qituvchidan o`z fani va o`quvchi shaxsiga aloqador bo`lgan barcha masalalar yuzasidan to`liq informatsiyalarga ega bo`lishlik qobiliyatini talab qilmoqda.

Respublikamizda 2022-2026 yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha Milliy dastur tasdiqlandi. Uning tahlili shuni ko`rsatadiki, faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o`z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Bu esa, psixologlarning oldiga bir qancha vazifalarni keltirib chiqaradi.

- Yangi ijtimoiy talablar bilan an`anaviy me`yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me`yorining mavjud me`yor bilan to`qnashuvi natijasida vujudga keladigan barcha muammolarni yechishga ijobiy yondashish;

- Ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'ziga xos bo'lgan, kreativlikga yonaltirilgan ijtimoiy-psixologik munosabatlar mexanizmini shakllantirishga erishish;

- O'quvchining bilish jarayonlari, psixologik xususiyatlari, ta'lim olishga bo'lgan munosabati, ishtiyoqi, maqsadi, intilishlari, qiziqishlari, ustanovkalarini hamda o'quv-biluv faoliyatiga aloqador bo'lgan barcha masalalar bo'yicha ularga psixologik madad, ko'mak berib borishdan iboratdir.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

3. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat to'g'risida" gi muvaqqat Nizom – Toshkent., 2019 yil 19 avgust

4. Radjiyev A. Malaka oshirishda "hayot davomida o'qish" tamoyili amal qiladi. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil 13-dekabr, 241-son

5. Djaylavov A. Ta'lim sohasida interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish texnologiyalari (malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy qo'llanma). – A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2016.

6. Yo'ldoshev U.A., Po'latov M. Amaliy psixologning ish kitobi. – Navoiy, 2000.

## VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR XULQIDAGI NUQSONLARNI KORREKSIYALASH – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Baxbidova Sojida Abadnazarovna*  
*Mirishkor tuman 31-sonli maktab amaliyotchi psixologi*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga ko'ra voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish, jinotchilik va jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq choralar belgilangan bo'lib, bu jinoyatchilikni oilaviy munosabatlar va shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari tizimidagi o'zaro uzviy aloqasi doirasida o'rganishni taqazo etadi. Delinkventlar va ijobiy xulqli o'smirlarning oila sharoiti o'rganilganda, delinkventlarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Jinoyatchilikning kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatishicha, ikki o'zaro bog'liq omil orasidagi; a) funksional yoki xulq-atvorga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ta'sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar va b) bevosita ta'sir qiluvchi, o'zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jabhalarni ajratish mumkin. Ma'lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o'ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o'rin tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, delinkventlar va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari o'rganilganda, ota-onaning kayfiyatiga ko'ra, ko'p hollarda qattiqo'llik, jazolash, ota-onalik mehrining —tansiqlligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Biroq bu g'ayri ijtimoiy rivojlanishga sabab bo'luvchi tarbiya usullari haqiqiy baholash mezonini uchun to'liq asos bo'la olmaydi. Tarbiya ta'sirining uzluksizligi, usuli va uning mohiyati atrofidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, ayrim yondashuvlarda jazo va rag'bat usullari samarali ekanligi, kuch ishlatishdan ko'ra, kattalik mavqei kuchi, jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan jazolash, tanqid va qo'rqitish, moddiy manfaatlardan mahrum qilish, mehr tanqisligi, jismoniy kuch ishlatmay turib bolaning xulq-atvori boshqalar uchun keltirishi mumkin bo'lgan zararni xasposhlash orqali tushuntirish



kabilarning quvohi bo`lishi mumkin. Delinkvent xulqli farzandi bor oila aʼzolarining o`zaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilar ko`proq ko`zga tashlanadi. Longityud tadqiqotchilarning ko`rsatishicha, ota-ona orasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, o`zaro xusumat, shuningdek, mustahkam bo`lmagan nikoh delinkventlar xulqida yoshligidanoq o`z asoratlarini ko`rsatadi. Jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy ijtimoiy nuqsonlar kuzatiladi. Bunday ota-onalar o`z farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam eʼtibor beradilar. Ayni vaqtda farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi va hakazo. Ushbu holatlarga sof psixologik nuqtai nazardan eʼtibor berilsa, har qanday huquqbuzarlik, har qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqin qilinib, unda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va o`ziga xos qonunbuzarlik shaklida ifodalanuvchi uning psixik holati, shaxsning motivatsion jabhasi, individual-psixologik sifatleri, psixikasining xususiyatlarini, subektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida o`z ifodasini topadi.

G.Toʻlaganovanning fikricha, baʼzi hollarda ayblanuvchilar o`z ayblarini bilsalar-da, lekin harakatlarining asl mohiyatini berkitishga yoki oqlashga uringan holda (fazilatli) motivlarni o`zlashtirib olishga harakat qiladilar – bu o`ziga xos psixologik muhofaza mexanizmining bir ko`rinishidir. Shuningdek, jinoyatchilar o`zini-o`zi baholashning ikki jihati mavjud bo`lib: a) o`zi uchun (—meniga xos), b) o`zgalar va atrofdagilar, shu jumladan odil sudni chalg`itish, jazolash usullarini yumshatish maqsadidagi (ideal —meni uchun) axloqiy-psixologik funksiyani ko`rish mumkin. Qayta tiklangan ehtiyojlarning jinoiy xulq-atvorga o`tishida aniq hayotiy vaziyatning o`rni beqiyosdir. Chunki subekt hayotiy vaziyatdan foydalanishdan harakat qilish bilan birga mavjud —faoliyatning ichki shart-sharoitlarini o`zgartiradi. Biz motivatsiyaning bu jarayonida o`ziga xos uchlikni —ehtiyoj, shaxsiy manfaat-vaziyatni ko`rishimiz mumkin. Bu uchlikning o`zaro uyg`unligida faoliyat motivi —vaziyatga xos rivojlanuvchi motivatsiya tarzida shakllanib boradi. Ushbu holat – kriminogen vaziyat deyiladi. Motivlarning shakllanishida, maqsad qo`yishning psixologik mexanizmlari katta ahamiyatga ega. Harakat maqsadi motivlar bilan o`zaro solishtirilganda, uning o`z predmetiga egaligi yaqqol ko`zga tashlanishi tufayli farqlanadi. Shaxsning ehtiyojlari, intilishlari, qiziqishlari va motivlari uning faoliyati maqsadlari bir-biriga bog`liqligi bilan uyg`unlashadi.

Shunday qilib, jinoiy xulq-atvor mexanizmlari tahlilida quyidagi omillar: subektga xos individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlar, uning dunyoqarashi, qadriyatlari, yoshlarning kriminogen vaziyatga tushguniga qadar yashagan ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo`shishga qodir, jismoniy va ma`nan yetuk avlodnikamolga yetkazishda alohida e`tibor qaratilmoqda. Bu ezgu-maqсадlar Prezidentimizning —Farzandlarimiz bizdan ko`ra bilimli, - kuchli, dono va albatta, baxtli bo`lishlari shart!! degan so`zlarida mujassamdir.

Asosiy qonunimizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar davlat himoyasida ekanligi ta`kidlangan. Jinoyat va jinoiy protsessual qonunchiligida ham ularning ijtimoiy, ruhiy, fiziologik xususiyatlari e`tiborga olinib, ular tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarga baho berishda muayyan imtiyoz va yengilliklar berilgan. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarga katta ishonch bildirilgan va ularning chuqur bilim olishlari, komil inson bo`lib ulg`ayishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ammo guruch kurmaksiz bo`lmagani kabi, ana shunday yuksak e`tibor mohiyatini anglab etmayotgan yoshlarimiz ham uchrab turibdi. O`smir nega jinoyatga qo`l uradi? Buning asosiy sabablaridan biri oiladagi nosog`lom muhitga borib taqaladi. Shuning uchun ham har bir ota-ona farzand tarbiyasiga alohida mas`uliyat bilan yondashmog`i lozim. Zero, jinoyat uchun jazo muqarrarliligi - butun dunyoda tan olingan tamoyil. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to`sqinlik qilish hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida qo`llanadai. Jazo tizimida ayrim toifadagi shaxslar uchun nazarda tutilgan yengilliklar esa, eng avvalo, tarbiyaviy ahamiyatga ega. O`smirlik davrida yengil-yelpi, o`ta emin-erkin hayotga o`rgangan shaxslarda, asosan bezorilik va firibgarlik bilan bog`liq xatti-harakatlar ko`p uchraydi. Bu o`zboshimchaliklarning vaqtida oldi olinmas ekan, ulg`ayganida ular katta —ishllarga ham qo`l urishi turgan gap. “Ko`chat niholligida egiladi, bola yoshligidan tarbiyalanadi”, deyishadi.

Xalqimizga xos bag`rikenglik - qonunlarimizda ham o`z aksini topgan. Misol uchun, Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarning javobgarligi alohida bo`limda berilgan. O`n sakkiz yoshga to`lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga kodeksda belgilangan 8 turdagi

asosiy jazodan faqat ma'lum qismi qo'llanishi mumkin, qo'shimcha jazolar tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda voyaga yetmaganlarga tayinlanishi mumkin bo'lgan jarima miqdori, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining muddati qisqartirilgan. Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatga qo'l urgan, ehtiyotsizlik oqibatida yohud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi. Xususan, sudlar voyaga yetmagan shaxsning ishini ko'rishda uning shaxsini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga jismoniy rivojlanishi va salomatligini, yashash sharoitini, o'sayotgan muhiti, oilasi va atrofdagilarga munosabatini, tarbiyasini, jinoyat sodir etish katta yoshdagilarning ta'siri bor-qo'yligini aniqlashlari zarur.

Farzandi sog'lom, har jihatdan komil inson bo'lib ulg'ayishini kim ham istamaydi deysiz. Shu ezgu maqsad yo'lida jamiyatimizdagi barcha kuch va imkoniyatlarni muvofiqlashtirish lozim. Zero, yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish yurt va millat kelajagi to'g'risida qayg'urmoq demakdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimova V.M. Psixologiya. T.2004 y.
2. Raxmatullaev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.– 2001.
3. To'ychieva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar echimi.T.: 2008.

---

## **BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHIDA TARBIYANING O'RNI**

*Rahimova Shoxsanam Dilmurodjon qizi*  
*Andijon viloyat Shaxrixon tuman 39-maktab psixologi*

O'zbekistonda mustaqillikka erishgan kundan boshlab davlat va jamiyat tomonidan ta'lim-tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni xalq pedagogikasi, sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida milliy ruhda tarbiyalash ishiga jiddiy qaralmoqda. Chunki bolalarni

hayotda o'z o'rnilarini topishida, jamiyat hayotida o'zini tutishida tarbiyaning o'zni beqiyos.

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantiradi, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi va insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadrlil va abadiy kuch hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Eng katta meros-bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik esa-bu bilimsizlik" deb aytgan fikrlari tarbiyaning inson uchun qanchalik zarur ekanligining isbotidir. Tarbiya-inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi.

Tarbiya-aniq maqsadlarni ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida ota-ona, tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. 1. Tarbiya ta'sirida muhit ta'sir bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi. 2. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi. 3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlarni bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar.

Sharq mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Sharq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan bebaho odob-axloq qoidalari, qadriyatlarini qaytadan tiklash va hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biridir. Jumladan, jadid adabiyoti nomoyondalaridan biri Abdulla Avloniy "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur" ta'kidlaydi. "Tarbiya qilguvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasaliga

davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur” aytadi. Yoki «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodatyo falokat masalasidir» degan chuqur ma’noli so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunindek, Xalq pedagogikasida bolani tarbiyalashda qo‘llaniladigan juda xilma xil tarbiya usullari bor bo‘lib, ushbu usullardan foydalanish tarbiya jarayonida yaxshi samara beradi. Tushuntirish (o‘rgatish, odatlantirish, mashq qildirish) usuli orqali biz bolalarni yaxshi odatlar inson uchun qay darajada foydali ekanligi, yomon odatlar esa insonga naf keltirmasligi, uning obrosini tushishiga sababchi bo‘lishi haqida hayotiy misollar, kichik hajmdagi hikoya va masallar orqali bolalarga ma’lumot berishimiz mumkin.

Bu usulda bolalarga avvalo pedagoglar, ota-onalar o‘zlari o‘rnak bo‘lishi lozim. Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, o‘rnak bo‘lish, yaxshiliklar to‘g‘risida gapirish) usuli orqali esa ta’lim va tarbiyaviy jarayonda muvaffaqiyatga erishgan ajdodlarimizning hayot yo‘llarini gapirib o‘tish, bolalarda tarkib toptirmoqchi bo‘lgan yaxshi sifatlar avvalo pedagog va ota-onalarning o‘zlarida bo‘lishi, ular bolalarga “shaxsiy namuna” bolishi maqsadga muvofiqdir. Nasixat berish (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak, istak bildirish, ma’qullash, raxmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash) usuli orqali bolalarga to‘g‘ri yo‘lni tanlashida ko‘maklashish, muloqot va muomala madaniyatiga o‘rgatish, insonlarga yaxshiliklari uchun yaxshilik qaytarish, yomonlik qilishdan saqlanish haqida nasixatlar, maslaxatlar berishimiz mumkin.

Yaxshi inson deb faqat yaxshiliklar qiladigan insonga nisbatan emas, balki yomonlikni bilmaydigan insonga aytilishini ta’kidlashimiz lozim. Qoralash va jazo (ta’kidlash, ta’na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ont, qasam, urish, kaltaklash va h.) bu tarbiyalanuvchining harakat va faoliyatiga salbiy baxo berish usuli hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan usullar foyda bermaganida qo‘llaniladigan oxirgi usul hisoblanadi. Jazo yaxshi o‘ylab qo‘llanishi lozim, tinimsiz jazolash mumkin emas. Jazo yakka tartibda bo‘lishi kerak ya’ni har bitta jazo aybiga mos bo‘lishi shart. Yuqorida

keltirilgan tarbiya usullarini bola yoshiga va xarakter xususiyatlariga qarab qo‘llash orqali biz o‘zimiz istagan maqsadga erisha olamiz. Bolalikning yosh davrlaridan boshlab ma’naviy-axloqiy, milliy tarbiya masalalariga e’tibor berish orqali bolaning kelajakda oilasi va vatani ravnaqiga naf keltiradigan shaxs bo‘lib yetishishiga zamin hozirlagan bo‘lamiz.

### Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning 2020 yili 24 yanvar Oliy Majlisga murojatnomasida so‘zlagan nutqi. <https://www.uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-eng-katta-meros-bu-yaxshi-tarbiya-engkatta-qashshoqlik-esa-bu-bilimsiz>
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova va boshqa. “Maktabgacha pedagogika”. –T.: “Tafakkur”. 2019 yil.
3. M.Qutliyeva. Odob-axloq kitobi. Jadid adabiyoti nomoyondalari: M.Behbudiy va boshq. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2016 yi

---

## O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA METOD VA TEXNOLOGIYALARNI TO‘G‘RI TANLASH VA QO‘LLAY OLIH MASALALARI

*Razzoqov Davron Huëzovna*

*Qarshi davlat universiteti Pedagogika instituti Texnologik ta’limi kafedراس dotsenti,  
Nafosat Taymurodova Murodovna  
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

### Аnnotatsiya

Fan-texnika taraqqiyoti asrida ishlab chiqarish sohasining jadal sur’atlarda rivojlanayotganligi, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va texnologiyalashtirish, ilm-fan va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda davrning talab ehtiyojlaridan kelib chiqib kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheksiz imkoniyatlarni

yaratmoqda. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirishda metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish masalalari haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar: metod, an'ana, kasb-hunar, ta'lim, tarbiya, texnologiya.**

Modern achievements of science and technology, as well as the needs of society. In the age of science and technology, the rapid development of manufacturing, mechanization and technology of agriculture, advances in science and culture, as well as influencing the interests and abilities of young people, create practically endless opportunities for them to choose a career based on the needs of the time.

**Keywords: tradition, profession, education, upbringing, technology, metod.**

Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг маънавий, маданий кадриятлардан фойдаланишда ҳар қандай ўқув-тарбиявий тадбирлар психологик, педагогик, дидактик мақсадларга асосланган ҳолда олиб борилиши лозим. Таълим-тарбиявий тадбирлар ўқувчиларнинг келгуси ҳаётига, самарали меҳнат фаолиятига ва турли касб-ҳунарларнинг асосларини эгаллаб боришларига аҳамияти ва имконияти бениҳоя катта.

Умумий таълим тизимида ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш ишлари самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқитувчилар томонидан мос равишда метод ва технологияларни тўғри танлаш ва қўллай олиши билан белгиланади. Касбга йўналтириш ишига комплекс ёндашиш ўқувчиларни ҳар томонлама ўрганишни, ўқувчилар билан ишлашнинг оптимал метод ва шакллари аниқлашни тақозо этади.

Бугунги кунда метод, таълим методи ва улардан келиб чиққан ҳолда касб-ҳунарга йўналтириш методлари ҳам соҳа мутахассислари, амалиётчи ўқитувчилар ва психологлар томонидан турлича талқин этиб келинаётганлиги тегишли назарияларни ўрганиш ҳамда уларни таълим жараёнига татбиқ қилишда муайян зиддиятларни келтириб чиқармоқда.

Таҳлил этилган манбаларда касб-ҳунарга йўналтириш методларини аниқ таърифи учрамаганлиги боис, биз қуйидаги таърифни таклиф қилишни

лозим топдик: касб-хунарга йўналтириш методлари ўқувчи-ёшларни касб-хунарга бўлган шахсий лаёқати, қизиқишлари, қобилиятларини жамият талабларига мувофиқ равишда ривожлантиришга йўналтирилган мақсадли фаолиятни ташкил этишнинг аниқ белгиланган тартибини англатади. Қайд этиш жоизки, баъзи олимлар касб-хунарга йўналтириш ишларининг ўзини метод сифатида таърифлайдилар.

Адабиётларда амалга ошириладиган тадбирларнинг шакли билан боғлиқ равишда касб-хунарга йўналтириш методлари индивидуал, гуруҳли, оммавий турларга ажратилган. Фикримизга кўра, методларни касб-хунарга йўналтириш босқичларига мутаносиб равишда таснифлаш таълим жараёнини ташкил қилиш нуқтаи назаридан самаралироқ ҳисобланади. Бунда ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш жараёнининг қуйидаги босқичларини асос сифатида қабул қилиш мумкин:

1. *Педагогик-психологик ташхис босқичи* – ўқувчиларни кузатиш, диагностик суҳбатлар ўтказиш;

2. *Касбни асосли танловга тайёрлаш босқичи* – ўқувчилар фаолияти натижаларини таҳлил қилиш, улар шахсини ўрганиш.

3. *Касбга мослашиш босқичи* – ўқувчилар билимини ошириш, олий таълим муассасаларида ўқишни давом эттиришлари учун фанларни чуқур ўргатиш, касбий билим, кўникма ва малакаларини эгаллашга тайёрлашдан иборатдир.

Ушбу босқичларга мос равишда касб-хунарга йўналтириш методлари таркибини қуйидагича таснифлаш тавсия этилади:

**1. Педагогик-психологик ташхис методлари** – кузатиш, диагностик суҳбат, қизиқишлар харитаси, вазиятларни таҳлил қилиш, анкета сўровномаларидан фойдаланиш, қизиқишни аниқлаш методларини ўз ичига олади. Кузатиш – ўқувчиларни ўрганишнинг кенг оммалашган методидир. Бу метод муайян мақсадни кўзлайди, иш режа асосида олиб борилади, кузатишнинг яқунловчи натижалари қайд қилинади. Диагностик суҳбатлар яқка тартибда ёки жамоа тарзида ўтказилиши мумкин.



Бу методлардан фойдаланган ҳолда ўқувчиларнинг қизиқишлари, мойилликлари, қобилиятлари, индивидуал хусусиятларига кўра касб йўналиши тўғрисида хулоса чиқарилади ва уларнинг касб танлаши учун психологик-педагогик маълумот берилади.

**2. Касб танлашга тайёрлаш методлари** – касбий йўналганликни аниқлаш, касб намоёндалари билан учрашувлар, тўғарак машғулотлари, олимпиадалар, танловлар ташкил этиш, ишлаб чиқариш меҳнатига жалб қилиш, меҳнат натижаларини таҳлил қилиш, ишлаб чиқариш объектларига экскурсиялар уюштириш кабилар мисол бўла олади.

Ўқувчилар синфдан ва мактабдан ташқари ишлар жараёнида олган таасуротлари ва тўпланган материалларини ҳисоботлар, иншолар, рефератлар, стендлар, альбомлар тарзида расмийлаштирадilar. Ўқитувчи кўзда тутган натижасига эришишида қандай методни танлаши ўз ихтиёрида, чунки унинг асосий мақсади аниқ натижага эришишга қаратилган, бунда ўқувчиларнинг билим савияси, гуруҳ характери, шароит, дарс мавзуси ҳам кўзда тутилади. Бундан ташқари ўқитиш жараёнини олдиндан лойиҳалаштириши, бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини, жой ва шароитини, таълим воситаларини тўғри танлай билиши зарур. Касб-ҳунарга йўналтириш мақсадларига тўла эришиш учун ўқитувчидан ўқувчи имконият ва эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда ҳамкорликдаги фаолитни тўғри ташкиллаштириши талаб этилади.

**3. Касбий йўналганликни аниқлаш методлари** – Буларга гуруҳ билан касбга йўналтирувчи ўйинлар, оғзаки, касбий ахборотлар ҳамда касбий маслаҳатлар методлари мисол бўлади. Ўқитувчи касб-ҳунарга йўналтириш жараёнида касб ҳақида индивидуал суҳбатлар уюштиради, касбий ахборотлар тайёрлайди, реферат, иншолар ёздирди, муаммоли ёндашув, идрок қилиш, индивидуал топшириқлар, лаборатория – амалий ишларни бажариш каби методлардан фойдаланади.

Касбга доир реферат, иншолар материаллар тайёрлаш ва йиғиш, уларни ўрганиш ўқувчиларга касбни яхши билишнигина эмас, балки унга бўлган барқарор қизиқишни таркиб топтириш имконини ҳам беради.

Ҳикоя қилиб бериш, суҳбатлар ўтказиш, касб намоёндалари билан учрашиш, мультимедиали дастурлар, электрон дарсликлар, слайдларни кўриш, альбомларни кўздан кечириш, корхоналарга саёхатлар ўтказиш ўқувчилар учун фойдали ва самаралидир.

**4. Касбга мослаштириш методлари** – Касбга мослаштириш методларига қуйидагилар мисол бўла олади: ахборот бериш, амалий масалалар ечимини топишга кўрсатма бериши ёки ёзма йўл-йўриқ кўрсатиш, ўқув материалнинг долзарблигини кўрсатиш, онгли муносабат ҳосил қилиш ҳамда қизиқтириш, илғор тажрибаларни ўрганиш ва умумлаштириш.

Ўқувчилар билимининг сифати амалий мазмундаги масалалар ечимини мустақил ҳолда топишларида ўрганилаётган объект (предмет, ҳодиса, шарт-шароит ва жараён)ларни тўғри баҳолашлари, янги материални мустақил равишда ўрганишлари ҳамда улардан ижодий фойдалана олишлари кабилар орқали аниқланади. Ўқувчиларда шаклланган техник, технологик билимларнинг сифат кўрсаткичларини баҳолашда тўлиқ ўзлаштириш ва ўзлаштиришнинг тизимлилиги методларидан фойдаланилади.

Ўқувчиларни касбий фаолиятга босқичма-босқич мослашиб боришини кўзда тутган ҳолда, ушбу босқичлар мазмуни қуйидаги мезонлар орқали ифодаланади:

1. Янги вазиятда тез йўналиш олиш, дуч келган муаммони баҳолаш ҳамда уни ҳал қилишга қаратилган ечимларни ишлаб чиқиш;

2. Ўқувчи шахсини психологик – педагогик жихатдан объектив баҳолаш, уларга қизиқишлари, касбий мойилликлари ҳамда ахлоқий шаклланганлик даражасига кўра индивидуал ёндашиш;

3. Жамоа билан ҳамкорлик қилиш, ўзаро тажриба алмашиш, мулоқатга киришиш.

Ўқувчиларни касбий мослашувчанлигида касбий ўсиш истикболлари, карьера, мустақил таълим, ўз – ўзини ривожлантириш, илғор тажрибани ўзлаштириш, ижтимоий тажрибани ўзлаштириш, ижодий тажрибани ўзлаштириш, касбий маҳоратнинг шаклланиши муҳим аҳамият касб этади. Ўқитувчи ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ўрганиб, унда мавжуд истеъдод нишонларини ривожлантириш методларини қўллаш олиши, унинг хулқ – аъворидаги салбий жиҳатларини бартараф этиши ижобий ҳолдир. Баъзи ўқувчиларда касбга мойиллик аниқ намоён бўлади, бошқаларида эса у яққол ифодаланмайди.

Ҳозирги пайтда педагогик олимларимиз таълим ва ахборот технологиялари асосида дарсдан ташқари машғулотларни ташкил этишнинг турли шакл ва методларини ишлаб чиқиш борасида катта тадқиқотлар олиб боришмоқда.

Зеро, таълим жараёни педагогик технологиялар негизини ташкил этиб, таълим мақсади ва мазмуни, шакли, методи, воситалари, таълим олувчи, таълим берувчи каби унсурлардан иборат тизим сифатида намоён бўлади. Таркибий унсурлар ўзаро бирлик ва алоқадорликда таълим жараёнининг умумий моҳиятини ёритишга хизмат қилади.

---

## **O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

*Ishmamatova Guliston Mardiyevna  
Samarqand viloyati Narpay tumani 31-maktab psixologi*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri xam udan mustasno emas. Bu kabi muammolar

insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bolib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zoriqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash

masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'zligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari ko'p ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir bo'lgan asabiylashish eng ko'p tarqalgandir. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ish qancha qiziqarli bo'lsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob bo'ladi. Yana bu sabablarga qo'shimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qo'yishi, o'quvsiz ota-onaningning o'quvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas o'spirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat ko'proq natija beradi. Stressni bartarafetishda asosan inson sabr-qanoatli bo'lish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor bo'lish, o'zini chalg'itish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib

borish, hech bo'lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe'l, tavozelik bo'lish, o'zaro hurmat va xushmuomalali inson bo'lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo'l-yo'riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo'lsangiz, bu haqda kamroq o'ylashga va doimo nima bilandir band bolishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg'usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo'llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro'y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o'z ruhiyatidagi munosabatni o'zgartirish);

b) ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish )

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.

3. T.Sodiqova “Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat” qo’llanma. Toshkent 2018.

## OILADAGI NOSOG’LOM MUHITNI BOLA RUHIYATIGA SALBIY TASIRLARI

*Mirzajonov Alisher Maxamadsodiq o’g’li*  
*Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Psixologiya kafedrası*  
*1-bosqich magistranti*

Oila -jamiyatning tayanchi. Farzantlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg’ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo’lishi eng oldin manashu kichik jamiyatda o’sib unayotgan bolalarimizga bog’liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo’lga qo’yilar ekan, o’sha oila, o’sha mahalla gullab yashnaydi. Farzant tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak? Degan savol ko’pchilikni o’ylantiradi. Ko’pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Olimlarimizdan Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug’ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug’ullanish lozim, deb javob bergan.

Oila, odob-axloq va ta’lim–tarbiyaga e’tibor qon- qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo’shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan halqimizga hosdir. Manashu maqolning o’zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog’lik muhim ekanligini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko’chada nobob ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o’tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to’g’ri yo’lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go’zal xulqli bo’lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga kata ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o’z ma’suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo’ladi. Bolalarni odobli bo’lib ulg’ayishi uchun ota-onalar bilan bir qatorda mahalla–kuy ham kata ibrat maktabidir.

“Qush uyasida ko’rganini qiladi” , deb bekorga aytishmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o’zaro munosabati farzand uchun namuna vazifasini o’tab berishi kerak bo’ladi. Oila jamiyatning

negizi va tarbiyaning asosiy instituti hisoblanar ekan demak, oila farzand tarbiyasida birlamchi bo'g'in bo'lib, u bolani rivojlanishiga kata ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari yurtimizda bolalarga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kimni bilim olish huquqiga egaligi, bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi qayt etilgan bo'lsa, 45-moddasida voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasida ekanligi, 64-moddasida ota-onalar o'z farzantlarini voyaga yetkunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, davlat va jamiyat yetim va ota-onalarning vasiligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni taminlashi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Hozirgi kunda Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev Miromonovich ham yoshlarga katta etibor bergan holda yoshlarga oid davlat siyosatlarini yanada kushaytirishni, ularga yanada ko'proq e'tibor berishni maqsad qilib, yangi 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" deb nomlashi ham bejizga bo'lmadi. Kirib kelayotgan 2021-yilni bunday nomlanishida ham chuqur purmano borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev Miromonovich so'zlagan nutiqlarida ham bekorga yoshlarni ko'p tilga olmadi va ularni tarbiyasida birinchi navbatda ota-onasi mas'ul bo'lishi kerakligini aytib o'tmadi. Takitlab o'tish joizki, inson birinchi navbatda, oilada shakllanadi va voyaga yetadi. Har bir oqil insonning, jamiyat oldidagi vazifasi qobil farzandni o'stirish, ularni ham jismonan, ham ma'nan jihatdan mukammal qilib tarbiyalash. Biroq ba'zi ota-onalar farzantlar oldida janjallashadilar, oqibatda oilada salbiy muhit shakllanadi. Ota-ona o'rtasidagi doimiy janjal bolaning asab tizmiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muntazam janjal bo'lib turadigan oilada tarbiyalangan bola ruhan zaif bo'lib o'sadi va unda oilaga nisbatan ishonch, hurmat yo'qoladi. Bola uydan ertaroq chiqib ketib, kechroq kelishga harakat qiladi. Har bir ota-ona oilada o'zaro hurmat, bir-biriga nisbatan mehriq oqibatli bo'lish, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tish kabi sifatlarni yoshlar ongida shakillantirishga mas'uldir. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasda huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga qaramay, bolalar o'rtasida nazoratsizlik, ta'lim muassasalarida davomadning pasayishi, ma'mauriy



huquqbuzarliklar sodir etish hollari ko'paymoqda. Shundan kelib chiqib, yoshlarni Vatanni, o'z oilalarini sevisga, oiladagi muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishga va yoshlarni ruhiy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida quydagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- Yosh oilalarni arzmagan bahonalar bilan sodir bo'layotgan oilaviy ajrimlarga barham berish lozim. Chunki oilada ota yoki onaning yo'qligi ba'zan bolani kamroq nazorat ostida bo'lishiga, moddiy muammolarga ko'proq duch kelishiga hamda uning manfaatlari, qiziqishlari va dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi.

- Maktab hududida ham ota yoki onani o'z farzandiga mehr berayotgan partret va suratlarni ham ko'proq joylash maqsadga muvofiqdir. Chunki bola ota-onasidan uzoqlashsa uning sho'xligi ortadi va o'zining salbiy hususiyatlarini namoyon qilishga bo'lgan harakatlar kuchayadi. Shunda bola o'zining salbiy hususiyatini namoyon qilish jarayonida maktab devorlariga ilingan suratga ko'zi tushishi bilan o'z ota-onasi esiga tushadi va o'zini nazorat qilishga, boshqarishga bo'lgan harakati kuchayadi.

- Biz bilamizki oynayi jahon deb atalmish televizorlarimiz katta-yu kichikni birday o'ziga qarata oladigan kuchga ega. Kech tushishi bilanoq yosh-u qari barcha televizor qarshisida o'tiradi. Bilamizki 30 minulik serial ko'rishimiz uchun 40 minutlik reklamani ko'rishga majburmiz. Vaholanki manashu reklamalar ham ota-ona uchun ham farzand uchun tarbiya vazifasini o'tab berishi mumkin. Barchamiz sevib tomosha qiladigan seriallarimiz orasidagi reklamalarda noto'g'ri ish qilgan farzandga tanbeh berayotgan ota, mehriban farzandini kuchoqlayotgan ona yoki bo'lmasam erta tongda farzandini shirin tabassum bilan maktabga kuzatayotgan ota-ona va shu kabi ota-ona uchun ham farzand uchun ham birday ibrat bo'ladigan reklamali video ro'liklarni (huddi pepsini reklamasi singari) muntazam efitrga uzatilishi oila to'g'risidagi dunyoqarashlarini bir muncha o'zgarishga olib kelgan bo'lar edi. Biz bilamizki bir narsani ko'p ko'rish va eshitish oqibatida shu narsalarga bo'lgan qiziqishimiz ortadi va odam miyasida shartli refleks hosil bo'ladi va bu narsalarni instinkt sifatida bajarishga o'tishadi. Bu bilan farzandlarga ota-onalari borligini ota-onalarga esa farzandlari borligini doimiy esalatib turadi va bu ular uchun doimiy qo'llanma vazifasini o'tab boradi.

- Bilamizki bazi farzandlar ota-onalariga nima kerakligini ayta olmaydilar va huddi shunday ota-onalar ham o'z farzandlariga keraklicha e'tibor qarata olmaganliklari sababli ularga nima kerakligini bilmaydilar. Bunda ularga maktabdagi o'qituvchisi aloqachi vazifasini o'tab berishi kerak bo'ladi. Maktablarda o'quvchilardan ota-onanagdan nima hoхlaysan? Degan savolga yozma ravishda javob olib uni ota-nalar yig'ilishlarida o'z ota-onalariga tarqatib berish va huddi shunday ota-onalaridan ham farzandingizdan nimalar kutyapsiz? Degan savolga yozma ravishda javob olish va uni o'z farzandlariga emas balki boshqa do'stlari orqali o'qitib eshittirish va xatni kegin o'z qo'lga berish lozim. Shunda ota-ona va farzand o'rtasidagi tushunmovchiliklarga qisman bo'lsada oydinlik kiritilgan va ular o'rtasidagi munosabatlarni iliqlashib borishiga olib keladi.

Har qanday davlatning kelajagi undagi yosh avlodning tarbiyasi, ta'lim olishi, salohiyati, sog'ligi bilan chambarchas bog'liq. Yoshlarni sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayishlariga sharoit yaratish maqsadida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan qator qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, yordamga muhtoj yoshlarni davlat himoyasiga olishga jamiyat uchun kerakliy insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Nafaqat dunyoviy balki diniy jihatdan ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta etibot qaratilgan. Hususan ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) "Birontangiz o'z farzandingizni tartib-intizomga o'rgatsangiz, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir" deya marhamat qilganlar. Zero bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mrziyoyev yil yakuni nutqlari.
3. V.Karimova "Oila psixologiyasi".
4. G'.SHoumarov "Oila psixologiyasi".
5. Internet ma'lumotlar.

## STRESSLI VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK MUHOFAZANING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Ahmedova Muqaddas Nurullayevna*

*Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 85-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada stressli vaziyatlarda psixologik muhofazaning Ijtimoiy psixologik xususiyatlari sohasida olib borilgan izlanishlar asosida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda ilmiy mushohada yuritilgan bo'lib, asosan xorij psixolog olimlarining bu boradagi psixologik qarashlari o'rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi, muammoni o'rganishga oid tadqiqot metodi asosida olingan natijalar bo'yicha.

**Kalit so'zlar:** stress, distress, ratsional xulq-atvor, koping strategiya, ekstremal xulosa vaziyat, himoya mexanizmi, stressing transakt modeli beriladi

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari ayrim nizolarning sub'ektiv sabablariga bevosita ta'sir etishi mumkin. Shaxsing shaxsiy yoki guruhiiy ehtiyojlarini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik va shaxsiy yoki guruhiiy qiziqishlarini poymol qilish kabi sabablar nizoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. Ko'pincha jamoada qabul qilingan xulq-atvor formalari, ijtimoiy shakllanib borishi bilan induvid reaksiyasi aniqlanadi. Bundan tashqari, induvidning nizolarga ishtiroki, uning oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirish uchun yuzaga kelgan to'siq qay darajada halaqit berishi bilan aniqlanadi. Sub'ekt oldiga qo'ygan maqsadi qanchalik muhim bo'lsa va unga erishishni juda xohlasa, u shunchlik darajada qat'iylik bilan o'zaro nizoli vaziyatlarga va unga xalaqit beruvchi shaxsga qarshilik ko'rsatadi. Mazkur mulohazalarga asoslanib, Ivan Ognev tomonidan ishlab chiqarilgan quyidagi chizmada shaxsning nizolarda ishtiroki sabablarini shakllantirish tizimi tavsiya etiladi.

Akademyasi, Amaliy psixologiya markazi prezidenti Ivan Ognev o'z shogirdlari bilan qator ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Aytish joizki, mazkur tadqiqotlar zamirida

ham shaxsning o'zini-o'zi psixologik himoya qilish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan metodologik mulohazalar bayon etiladi.

Umuman psixologiyada individual farqlanishning 56 xil yo'nalishidagi tipi ma'lum va mashhur. Masalan, obe'ktiv va sub'ektiv tip (dastavval, A.Bine tajribalarida qayd etilgan) fikrlovchi faol tip .B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilsin , E.A.Kolubeva va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan emperik tadqidotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug'ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos qobiliyat va elementlarini vaunga ta'sir etuvchi ta'lim –tarbiya ,tashqi muhit va faoliyatning nechog'lik tashkil etilish jarayonini mukammal o'rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo'llarinibelgilash uchun kata imkoniyat yaratdi. Mazkur imkoniyatlar avvalambor insondagi u yoki bu faoliyatni bajarishga bo'lgan iqtidor kurtaklarini o'rganishni va shu asosda shaxs faoliyatini kamol toptirish uchun asos sifatida xizmat qilishi maqsadga muvofiq. Shunga asosan maxsus tadqiqotlar shuni asoslayaptiki, faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun individual xususiyatlar, ayniqsa, har bir shaxs temperamenti va individual uslubiga ham bog'liq. Ayniqsa, mehnat va o'quv faoliyati jarayonida ushbu holatni kuatish ,tahlil qilish va rivojlantirish bilan bog'liq usullar majmuasining ishlab chiqilishi psixologik muhofazaning muhim vazifasi ekanligidan dalolatdir.

Ilmiy manbalarda talqin qilinishicha, miya kata yarimsharlarining po'sti mo'tadil sharoitda po'stloqosti markazlariga boshqaruv va tormozlov yo'sinda ta'sir ko'rsatadi hamda hissiyotning tashqarida ifodalanishiga yo'l qo'ymaydi. Miya po'sti kuchli darajada qo'zg'alsa uning ta'sirida boshqaruvchanlik funksiyasibuziladi Shaxs qattiq charchasa yoki juda mast bo'lsa, irradiatsiya oqibatida po'stloqosti markalari ham qo'zg'aladi, natijada harakatni nazorat qilishi yo'qoladi. Emotsional holatlar uchun po'stloqosti tugunchalarning tarkibiga kiruvchi markazlar ham muhim ahamiyatga ega. Agarda miya kata yarimsharlari po'stlog'i harakatlarni birlshtirib, sezgilarni va sa'y-harakatlarni nozik ifoda qilib tursa, miya formqtsiyalari tashqi hamda ichki muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga organizmning javob reyaksiyalarini boshqaradi.

Stressni klassifikatsiyalashda turli xil prinsiplarga asoslangan holatda yondashiladi:

1). stressga olib keluvchi sharoit va faktorlar tahlili asosida: bular tirik organism butunligi va gomeostazning buzilishiga olib keluvchi stimullar ,individdning faoliyatini buzuvchi stimullar: individdning faoliyatini buzuvchi stimullar (maqsadning yo'qolishi, e'tiborning chalg'ishi): ijtimoiy ta'sir etuvchi stimullar (ijtimoiy konfliktlar,turmush tarzi):

2). ta'sir etuvchi kuch qanday intensivlikda ta'sir etishini hisobga olish asosida: bunda yuqori darajada ta'sir etuvchi salbiy ta'sir ruhiy emotsional jarohat chaqiradi,kam intensivlikdagi salbiy ta'sir esa frustatsiyaga olib keladi

3).stress holatida javob reyaksiyasining baholash orqali. Tug'ma salbiy shartsiz reflekslar ma'lum bir darajada stress holatini keltirib chiqaradi,shartli o'z hayotiy tajribasi davomida orttirilgan reflekslar esa boshqacha holatdagi stress holatini namoyon qiladi.

4). Zo'riqish holatidagi emotsional omilning rolini tahlil qilish asosida ham stress holati yuz berishi mumkin.

Ko'rinadiki, emotsional holatlarning ichida boshqalariga nisbatan stress inson hayotida juda ko'p sodir bo'ladigan kechinmalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham tadqiqotlarning aksariyatida shaxs emotsional holatini o'rganishda stress muammosiga alohida dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Shunday ekan,sportchilar faoliyatida ham bu muammoga yaqindan yondashish ayni haqiqatdir.

Zamonaviy psixologiyada kopeng xulq-atvor stressli vaziyatni bartaraf etishga yo'naltirilgan,ratsional xulq-atvor sifatida qaraladi. U asosan ikki omilga-sub'ekt va real vaziyatga bog'liq bo'ladi, hamda shaxs hayot faoliyatining xulq-atvor,emotsional va kognetiv darajalarida namoyon bo'ladi. Stressni yengishning asosiy vazifalari sifatida asosan inson ichki va tashqi mukammalligini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Buning uchun stressli vaziyatni va uni samarali yenga olish usullarini anglash, shuningdek,ularni shaxs xulq-atvorda o'z vaqtida samarali qo'llay bilishdir. Koping xulq-atvor psixologik xavf-xatar vaziyatini bartaraf etishga yo'naltirilgan,ya'ni

muhit talablari bilanbu sharoitlarni qoniqtiruvchi ijtimoiy – psixologik resurslar orasidagi balansni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Stress analiziga stimuli yondashuvda ko'proq egonomik tadqiqotlarga xosdir. Qo'zg'alishning psixofiziologik tushunchasini qo'llagan holda bu yondashuv tashqi muhitning faoliyatini boshqarish darajasiga ta'sirini tahlil qilish uchun intiladi. Ushbu yondashuv tarafdorlarning tadqiqotlarida psixofiziologik vaijtimoiy-psixologik usullar yordamida insonda zo'riqish (stress) ta'siri ytadqiq etilgan.

Qarab chiqilgan yondashuv doirasida “ stressogen “ deb ta'riflangan 8 ta vaziyat tiplari ajratib ko'rsatiladi: axborotni qayta ishlashning kata tezligi: guruhiiy bosim: frustratsiya,zararli tashqi ta'sirlar, boshdan kecgirilayotgan xavf-xatar, fiziologik faoliyatning buzilishi : izolyatsiya : to'siqlar.

Stimulli modellarda tasdiqlanishicha,hayotiy voqealar guruhi ko'rinishidagi stress ,stress simptomlari,ko'pincha kasalliklarga olib keladi.

Shunday qilib ,stimuli modelda asosiy diqqat-e'tibor stress omillarini yoki stressorlarni tadqiq etishga qaratiladi.

Qayta javob berish modeli tarafdorlari stressni jamiyat va atrof-muhit talablariga fiziologik javob reyaksiyasi sifatida talqin etadilar.Bu model namoyondalaridanbo'lgan G.Sele, D.Mexanik (1992) va X.Volflar (1993) ham stressni javob reyaksiyasi sifatida baholaydilar. X.Volf stressni organizmning dinamik holati sifatida talqin etib,uni moslashish talablariga javob reyaksiyasi sifatida rivojlanishi sifatida ta'kidlaydi.Bu model namoyondalari organizmning fiziologik mobilizatsiyasi stressli vaziyatlarni boshqarish uchun o'ta muhim ekanligini qayd etganlar. T.Koks (1995) ,fikricha,yuqorida zikr etilgan yondashuvlarning har ikkalasida ham bir qator kamchiliklar mavjud.Ular mexanistik xarakterda bo'lib,insonni stress ta'sirining passiv ob'ekti sifatida qaraydilar. Shuningdek ,ular ko'pincha psixologik jarayonlar kechishining individual xususiyatlariga urg'u beradilar. Bundan tashqari,mazkur modellarda stressli vaziyatlarni yengishdagi psixologik resurslar tadqiq qilinmagan.

Stressning transakt modellari o'z navbatida stressni shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'siri deb qaraydilar. Stress xarakteristikasini talqin eta turib,ular fiziologik va psixik stress xolatlarini ajratadilar, bu holatlarni tafovutlovchi asosiy xususiyat psixik

stress yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan xavf-xatarni idrok etishdir. Bu zvenoning kiritilishi stimolni baholash kognitiv jarayonlarining qatnasahuvi yordamida xavf-xatar soluvchi omillarni anglashi ,bo'lajak xavfni oldindan ko'ra oluvchi ma'lum vaziyatda xavf-xatarni his qilishning shaxs xususiyatlari va avvalgi tajribaga bog'liqligini taqozo etadi . Transakt model namoyondalari inson faolligini aniqlashda uning kognitiv qobiliyati hal qiluvchi rol

o'ynashini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, stress vaziyatida faqat ,shaxsda emas,balki atrof-muhit va shaxs o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv yuz beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Olimov . L.Ya. Maxmudova Z.M, “Ekstrimal vaziyatlarda kopeng xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Psixologiya ilmiy jurnali. 2021.yil,3-son98-106-bob

2. Elov Z.S. “Osmirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reyaksiyalarning psixologik ta'siri.2022.03.03.442-447

3. Olimov L.Ya “Shaxs psixologiyasi” “Durdona “ nashriyoti Buxoro 2019-B280

4. Olimov L.Ya. E.S.Avezov. “Psixologiya nazariyasi va tarixi” Darwslk “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti Buxoro 2019 B 280.

---

## **ФАРЗАНДЛАРИМИЗ МУАММОЛАРНИ ҚАНДАЙ ҲАЛ ҚИЛАМИЗ?**

*Жиенбаева Бахытгул Кеунимжаевна  
Канлыккол тумани 19-сонли иқтисослаштирилган давлат  
умумтаълим мактаби амалиётчи психолог*

**Аннотация.** Ушбу мақолада фарзандларимиз муаммоларини қандай ҳал қиламиз саволга жавоб бериш бўйича ота - оналар учун бир неча маълумотлар, мисоллар, психологик маслаҳатлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** фарзанд, ота – она, муаммо, муваффақиятга эришиш, насиҳат беришга, мустақил қарор қабул қилиш.

Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос манавиятини шакллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, оиланинг ва ота – онанинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оилада, ота - она бағрида шаклланади.

Муваффақият фарзандингизнинг улғайиб камал топганини, яхши фазилатларга эга бўлганини кўриш эмасми?. Шунини билишимиз керакки ҳар қандай муваффақиятга эришишнинг узи бир неча муаммоларга душ келиши, олдини олиши ва уннан туўғры ҳулоса чиқаришидир.

Олдимиздан чиққан муаммоларни учта асосий йўл билан ҳал этишимиз:

1. Имконият қидириш.
2. Муаммони қабул қилиш.
3. «Мен» сигналлари.

Фарзандларимиз, турмуш ўртоғимиз, ота – оналаримиз, опа – укаларимиз, дустларимиз ва жамиятдаги бошқа инсонлар билан баъзида муаммоли ҳолатларга дуч келамиз. Бу муаммолар баъзида шу қадар чигалки, уларни ҳал қилишга қийналамиз. Ҳаётда муаммоси бўлмаган кишининг ўзи йўқ. Инсон ҳаётдаги тўсиқлардан қай даражада ўтишимизга қараб бахтли бўламиз.

Фарзандларимизда бизга ёқмаган хатти – ҳаракатларнинг йўқолишини истаймиз. Одатда, биз бундай ҳолатларда нима қиламиз?. Дарҳол ақл ўргата бошлаймиз. Фарзандларимиз жим бўлиб қолса, муаммони ҳал қилдик деб ўйлаймиз. Фарзандларимиз билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишда уларга ақл ўргатиш ўрнига бошқа йўлларга мурожаат қилиш керак.

«Битта мусибат минга насиҳатдан яхшироқ», деган мақол бор. Бу мақолни билишимизга қарамай атрофимиздаги инсонларни ва фарзандларимизни ўзгартириш учун насиҳат беришга ҳаракат қилаверамиз. Қанча кўп насиҳат қилсак, фарзандимиз шунча оз муаммога дуч келади, деб ўйлаймиз. Бу билан олдидан чиққан муаммоларни ҳал қила оладиган инсонларни эмас, муаммолардан ўзини олиб қочадиган инсонларни улғайтирган, уларнинг ҳаётни яшаб ўрганишларига тўсқинлик қилган бўламиз. Бу билан умуман насиҳат қилмаслик



керак демакчи эмасмиз. Фарзандимизнинг бутун ҳаётини насихат бериб шакллантиришга ҳаракат қилмаслигимиз керак.

Болаларнинг мустақил қарор қабул қилишларига кўп ҳам имкон берилмайди. Ота – оналар, фарзандингизнинг ҳаётини бунчалик назорат остига олганингизда фарзандингиз баъзи нарсаларни нотўғри қилса, нима қиласиз?. Отилган ўқ нишонга тегмаса нима бўлади?. Бунинг оқибати альбатта пушаймонликдир. Ақл ўргатишнинг салбий жиҳати сизга ақл ўргатган кишидан норози бўлишидир. Ё унинг айтганини қилмайсиз ёки бунинг тескарисини қиласиз.

Бирор кишига насихат қилгансиз, унда сизга нисбатан норозилик ҳолати пайдо бўлади. Шу сабабли инсонларга ақл ўргатиш ўрнига унинг ёнида бўлишга ҳаракат қилинг. Ҳар доим қарши томонга қарши ҳаракат бўлади. Шу сабабли фарзандларингиз, турмуш ўртоғингиз ва дўстларингизнинг норозилигига сабаб бўлишни истамасангиз, аввало улар билан бир томонда эканингизни билдилинг.

Ақл ўргатишнинг иккинчи салбий томони, бажарилиши лозим бўлган ишларни фақат сиз айтаётганингиз сабабли, фарзандингиз нимани, қандай бажаришни билолмай қолишидир. Чунки доимо йўналтириб, бошқариб турдингиз. «Қани, болам, юр, тур, ўтир, ол, каби сўзлар билан фарзандингизнинг ҳар бир қилиши лозим бўлган ҳаракатини айтиб турдингиз. Аслида эса улар мустақил ҳаракатланиши учун бу ҳаракатларни бажаришга одатланишлари лозим.

Биз сизга бундай ҳолатларда қуйдаги ечимни таклиф қиламиз. Зинналардан бирма – бир босиб чиқиш лозим. Бунинг йўли ақл ўргатиш ва насихат беришдан иборат эмас. Муаммонинг қийинлигига караб бу узоқ вақт давом этиши мумкин. Нима қилишни билиб, сабр билан бу ишни амалга оширсангиз, натижага эришишингиз мумкин. Демак, муаммони ҳал этишда ҳам маълум босқичлардан ўтиш керак.

Фарзандингиз билан боғлиқ бирор муаммога дуч келсангиз, бу муаммони қандай ҳал этасиз?. Муқобил йўллари йўлаб топиш учун муаммони ҳал этишни имконият қидириш билан бошлаш мумкин. Бунинг учун сиз тутадиган йўл қўйидагича бўлиши лозим:

- Фарзандингиз нимани ҳис қилаётганини аниқланг ва ҳисларини очик ифодаланиши учун имконият яратинг;

- зеҳнингизни ишлатиб, муқабил йўлларни топинг;

- ечим топишда болага ёрдамлашинг;

- қабул қилинадиган қарорнинг натижаларини ўйлаб кўринг таъминланг;

- муаммони ҳал этиш учун маълум муддатни келишиб олинг.

Масалага ечим топишдан олдин фарзандингизнинг бунга тайёр ёки тайёр эмаслигига эътибор беринг. Чунки фарзандингиз бирор ечим топишга тайёр бўлмаслиги мумкин. Шошилманг, муаммонинг ҳар бир томони сув юзига қалқиб чиқишини кутинг.

Ечим топишда болага ёрдам бериш лозим. Турли фикрларга баҳо беришда фарзандингизга ёрдам беринг. Тажрибасизлиги сабаб фарзандингиз бирор фикрга эга бўлмаслиги мумкин. Бундай пайтда ўз фикрларингизни бошқачароқ шаклда етказишга уриниб кўринг. Масалан, «Мана бундай қилсанг, қандай бўларкин, ўйлаб кўрдингми?, Нима қилишга қарор қилдинг?, Бу қарорни қачон амалга оширмоқчисан?». Шу каби шаклда қарорнинг оқибатлари таҳлил қилиниб, умумий қарор қабул қилиниши ва тўғри муносабатда бўлиши билан фарзандларимиз муаммоларини ечимини топа оламиз.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Давлетшин М. Замонавий мактаб ўқитувчиси психологияси. Т., 1997.
2. Каримова В, Акрамова Ф. Психология. Т., 2000.
3. Расулова А. Мактаб оиладан бошланади. Т. 2013.
4. Нишонова З, Алимова Г. Болалар психологияси ва уни ўқитиш методикаси. Т., 2006.

## TURKISTONDA MILLIY DAVLAT CHEGARALANISHI O'TKAZILGANIDAN SO'NG XALQ TA'LIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR

*Xushmurodova Zokiya*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani 18-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** 1924-1941-yillarda Turkistonda xalq ta'limi va pedagogik qarashlari haqida fikr yuritildi.

В 1924-1941 годах это обсуждалось о государственном образовании и педагогических взглядах в Туркестане.

1924-1941 in Turkestan on public education and pedagogical views are discussed.

**Kalit so'zi:** Davlat chegaralanishi. Sobiq Sovet hokimiyati. Bolsheviklar mafkurasi.

1924- yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi.

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarligida respublikada adolatsiz milliy siyosat amalga oshirildi.

To'ntarishning dastlabki kunlaridan boshlaboq mamlakatda bir tamonlama madaniy inqilobning amalga oshirilishiga alohida ahamiyat berildi, maktablarda o'quv –tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o'zgardi. Din va “Qur'oni Karim” ga e'tibor umuman taqiqlandi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin qilindi. Adabiyot darslariga esa ko'proq rus yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishga katta ahamiyat berildi.

Sho'rolar tuzumi davrida kommunistik firqa qarorlari asosida pedagogika fanini shakllantirishda rus pedagoglari asarlaridan unumli foydalanib asarlar yozishga zo'r berildi. Aksariyat hollarda esa rus pedagog olimlari yozilgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o'zbek pedagogikasi markecha-lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi. Bu davrda nafaqat pedagogika , balki boshqa fanlarning ham rivojlanishi sust kechdi. Masalan, “O'zbekiston tarixi ” aslida “SSSR tarixi” darsligining ilovasi edi. “SSSR tarixi ” esa Rossiya tarixidan iborat bo'lganligi ma'lum. Xuddi shu kabi o'zbek pedagogikasi ham sovet pedagogikasining tarkibiy qismiga aylandi. O'sha

davrlarda yozilgan ko'pgina pedagogik asarlar bugungi kunda o'z ahamiyatini yuqotdi. Chunki o'zbek pedagogikasi nihoyatda siyosiylashgan edi. Pedagog olimlar tadqiqotlarida Marks, Engels, Lenin asarlaridan ko'chirmalar asosiy o'rinni ishg'ol qilardi.

Bolalar va o'smirlarga umumiy ta'lim berishni tezlashtirish hamda kattalar o'rtasida savodsizlikni tugatish harakati boshlandi. 1930-yil 14-avgustda sobiq CCP Ittifoqi Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qaror qabul qilindi. Bu qaror umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish va savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi.

30-yillarning oxirlariga kelib, umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kerishildi.

Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmadi. Mahalliy millat bolalari orasida o'qishni tashlab ketish ortib bordi. Ko'pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi yetarli bo'lmaganligi tufayli o'qish saviyasi talabga javob bermas edi. Shuningdek, maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo'lsada, ularning o'quv moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.

Ma'lumki, bolsheviklar mafkurasi negizida sinfiy kurash g'oyasi ustuvorlik qildi. O'zgacha fikrlashni "sinfiy dushman" deb baholandi.

Ta'lim sohasini "sinfiy dushman" dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilindi va bu qarorlardan natijasida 700 nafar o'qituvchidan 120 nafar o'qituvchi maktablarda ishlashga, ta'lim berishga loyiq deb topilgan.

Bunday "tozalash" dan maqsad saviyasi past bo'lsada mehnatkash tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olib, eng zakovatli omilkor kishilarni siqib chiqarib, "shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyatini" vujudga keltirishdan iborat edi. "Tozalash" da kishining qobiliyatli, madaniy saviyasi va ma'lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

Arab alefbosi o'rniga lotin alifbosi qabul qilindi. Arab yozuvining lotinlashtirilishi dinga qarshi tashviqotning bir shakli edi. Islohatning oqibatida Sharq xalqlari tarixi va

madaniyatini o'zida mujassam qilgan minglan arab yozuvidagi qimmatbaho manbalardan O'zbekiston xalqlarini mahrum qildilar.

1940-yilning may oyida O'zbekistonda "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitidan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish to'g'risida" gi qonun qabul qilindi

Mazkur siyosatlar tufayli o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odatu an'ana, umuminsoniy qadriyatlarni bilish va o'rganish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan erkin, hur fikrli alloma ma'rifatparvarlar sibirga surgun qilindi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan xulosa shuki, go'yo to'ntarish Turkiston o'lkasida ma'rifatning, ijtimoiy tuzumning, ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanishida muhim rol o'ynagan. O'lkada juda ko'plab ziyolilar yetishib chiqdi, zavod va fabrikalar qurildi, lotincha savodsizlikka barham berildi. Lekin kezi kelganda shu narsani qayd etish ham kerakki, Oktyabr to'ntarishi o'lkada, yuqorida ta'kidlanganidek, sobiq sovet ishlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etish bilan birga, o'zbek milliy qadriyatlariga putur yetkazishga, milliy xalqni ruslashtirishga harakat qilingani, ma'naviyatimizni yuqolayotganligiga, tariximizni toptalishiga urinishlar bo'lganligini hech kim inkor etolmaydi, albatta. Chunki har qanday xalq o'z milliyligi, qadriyatlari va madaniyati bilan buyukdir. O'zbek xalqining ana shu buyukligi ruslar istilosi ostida ko'p yillar davomida toptalib, oyoq osti qilindi. Endilikda shukrlar bo'lsinki, mustaqillik sharofati, tashabbuskor, xalqsevar yurtboshimiz islohatlari bilan yo'qatayozgan barcha milliy va ma'naviy boyliklarimiz, qadriyatlarimiz tiklanmoqda.

Bu albatta, shu bugungi o'zbek maktabini, uning ta'lim tarbiyasini sharqona uslubda, jahon pedagogikasining ilg'or tamoyillari asosida qayta qurishimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarimiga berilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar behisob bo'lib, yoshlarimizdan tashabbuskorlik, ijodkorlik va mehnatsevarlikni talab qiladi, holos.

## TIL VA NUTQ BELGILARI

*Xoliqova Dilfuza*  
*Navoiy viloyati Xatirchi tumani 18-maktab*  
*Ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Til va nutqning funksiyalari haqida fikr yuritildi.

Это было продумано от функций языка и речи.

The functions of language and speech are discussed.

**Kalit so'zlar:** «Nutq» tushunchasi. Til. Til funksiyalari. Nutq funksiyalari.

Til insoniyat jamiyatida tabiiy ravishda paydo bo'lgan, eng muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiluvchi ijtimoiy mo'ljallangan belgilar tizimidir. Tilning imo-ishora tizimi tovushlar to'plami (ifoda rejasi) va ma'nolar majmuasi (tarkib rejasi) o'rtasidagi muvofiqlikni o'rnatishdan iborat.

Til ikki shaklda mavjud: og'zaki va yozma. Tovush shakli yozma shaklga nisbatan birlamchi hisoblanadi.

Nutq- bu og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan o'ziga xos nutq bo'lib, uni amalga oshirish til vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

«Nutq» tushunchasi «nutq faoliyati» tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, birinchisi ham nutq jarayoni (nutq faoliyati), ham uning natijasi (nutq ishlari) tushuniladi.

Til funksiyalari:

1. Aloqa vositalari (aloqa oluvchiga qarab, bu funktsiyaning turlari farqlanadi: kommunikativ (odamlar bilan aloqa vositalari) va sehrli (Xudo yoki tabiat kuchlari bilan aloqa vositalari)).

2. Og'zaki badiiy obrazlar yaratish vositasi.

3. Tuyg'ularni, shaxsning ichki holatini va irodasini ifodalash vositasi.

4. Bilim vositalari.

5. Til quyi tizimlarining yangi birliklarini hosil qilish vositalari.

6. Ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash va saqlash vositasi.

Nutq funksiyalari:

1. Aloqa jarayonini amalga oshirish (funktsiyaning navlari: kommunikativ (odamlar bilan muloqot qilish jarayonini amalga oshirish) va sehrlil (Xudo yoki tabiat kuchlari bilan aloqa qilish jarayonini amalga oshirish)).

2. Badiiy obrazlar, asarlar yaratish jarayonini amalga oshirish (estetik funktsiya).

3. Tuyg'ularni, shaxsning ichki holatlarini va irodasini ifodalash jarayonini amalga oshirish.

4. Bilish jarayonlarini amalga oshirish.

5. Til quyi tizimlarining yangi birliklarini hosil qilish jarayonlarini amalga oshirish.

6. Jamoat tajribasi va bilimlarini to'plash va saqlash jarayonini amalga oshirish.

Til tizimi- tilning bir-biri bilan u yoki bu munosabat bilan bog'langan, ma'lum birlik va yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlari majmui. Til tizimining har bir komponenti boshqa elementlarga qarama-qarshilikda mavjud bo'lib, unga ahamiyat beradi. Til tizimi tushunchasi til darajalari, til birliklari, paradigmatika va sintagmatika, lingvistik belgi, sinxroniya va diaxroniya tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Tizim- barqaror munosabatlar bilan o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqlik bilan tavsiflangan til birliklari majmui. Bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiluvchi til tuzilishining alohida darajalari tizimlari shakllanadi umumiy tizim berilgan til. Til munosabatlari- bular darajalar va toifalar, birliklar va ularning qismlari o'rtasida joylashgan munosabatlardir. Munosabatlarning asosiy turlari paradigmatic va sintagmatic, assosiativ va giponimikdir. Paradigmatic munosabatlar til birliklarini guruhlarga, kategoriyalarga birlashtiruvchi munosabatlardir. Paradigmatic munosabatlar, masalan, undoshlar tizimi, kelishiklar tizimi, sinonimik qatorlarga asoslanadi. Sintagmatic munosabatlar til birliklarini o'zlarining bir vaqtda ketma-ketligida birlashtiradi. So'zlar morfema va bo'g'inlar, so'z birikmalari va analitik nomlar, gaplar (gap a'zolari to'plami sifatida) va murakkab jumlar yig'indisi sifatida sintagmatic munosabatlar asosida quriladi.

Assosiativ munosabatlar vaqt ichida vakilliklarning mos kelishi asosida yuzaga keladi, ya'ni. voqelik hodisalarining tasvirlari. Assosiativlarning uch turi mavjud: qo'shnilik, o'xshashlik va qarama-qarshilik bo'yicha. Bu turdagi assosiativlar epitet va metaforalarni qo'llashda, shakllanishda muhim o'rin tutadi .

Ierarxik munosabatlar - Ierarxik munosabatlar - geterogen elementlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning umumiy va xususiy, umumiy va xususiy, yuqori va quyi kabi bir-biriga bo'ysunishi. Tilning turli darajali birliklari o'rtasida, gap bo'laklariga birlashganda so'z va shakllar o'rtasida, sintaktik turlarga birlashganda sintaktik birliklar o'rtasida ierarxik munosabatlar kuzatiladi. Assotsiativ, ierarxik va paradigmatic munosabatlar sintagmatik munosabatlarga qarama-qarshidir, chunki ular chiziqli.

Shuningdek, idrok etish va farqlash funksiyalarini bajaradigan tovush birliklari (fonemalari) mavjud. Birinchisi tufayli biz nutqni idrok eta olamiz; ikkinchisi tufayli yanada murakkab xarakterdagi til birliklari bir-biridan ajralib turadi: uy-bu, u erda-shunday.

Tilning ba'zi ko'rinishlari moddiylashtirilgan, hissiy jihatdan idrok etilgan (tovushli nutq, yozma matn), boshqalari inson miyasida paydo bo'ladi va boshqa odamlarning his-tuyg'ulariga erishib bo'lmaydi (nutqni shakllantirish jarayonlari, nutqni tushunish, og'zaki xotiraga kirish mexanizmlari). Jim odam nutq jarayonida ishtirok etmaydi, lekin agar u boshqalarni tinglasa yoki keyinchalik boshqalarga aytmoqchi bo'lgan narsa haqida o'ylasa (hatto uzoq muddatda ham), uning ongida nutqiy fikrlash faoliyati sodir bo'ladi.

Nutq-tafakkur faoliyati - bu inson ongining aksessuari bo'lgan fikrlash va nutq jarayonlari.. Bu atama fikrlash va nutq mexanizmlarining aqliy birligini ko'rsatadi, lekin nutqning inson ongida fikrlash jarayonlari uchun majburiy asos bo'lib xizmat qilishini anglatmaydi.

Xuddi shu tilda gaplashadigan odamlar muhim elementlar til tizimlari va ulardan foydalanish qoidalari bir xil, ammo har bir alohida shaxsning og'zaki va yozma nutq faoliyatida doimo individual farqlar mavjud: nutq uslubi, fikrni ifodalash usullari, ovoz tembri va nutq tezligi, nutqning ifodaliligi va balandligi; individual xususiyatlar tovushlarning artikulyatsiyasi, so'z yaratish, tilning sirg'alishi, xatolar va boshqalar.

Odamlarning tildan foydalanishining turli jihatlari turli fanlar va fan bo'limlari tomonidan o'rganiladi. Fiziologlar nutq organlarini o'rganadilar. Psixologlar va psixolingvistlar nutqni yaratish va idrok etish jarayonlarini o'rganadilar. Neyrolingvistlar miyaning til sohalarini o'rganadilar. Shifokorlar va nutq terapevtlari nutq nuqsonlarini bartaraf etadilar. O'qituvchilar o'quvchilar nutqini rivojlantirish ustida ishlaydi. Adiblar,



olimlar, jamoat arboblari esa milliy tilni rivojlantirish ustida ishlamoqda. Shunday qilib, nutqiy fikrlash faoliyati ko'p qirrali va ko'p qirrali hodisadir.

## **MUOMALA JARAYONIDAGI ERKINLIK – O'SMIRLARDAGI MUSTAQIL FIKRLASHNING ASOSIY PSIXOLOGIK OMILI, PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARBLIGI**

*Abdirimova Avazjon Madrimovna  
Hazorasp tumani 13-maktab psixologi*

O'quvchining o'quv faoliyati kommunikasion tabiatga ega bo'lib, unga pedagogik ta'sirning ko'pchiligi guruhiy kommunikasiya jarayonida amalga oshiriladi. Tafakkur mustaqilligini shaxsning bilimlarini fikr predmetiga o'tkazish qobiliyati sifatida tushunish pedagogik jarayonida muomalani qulay tashkil etishni talab qiladi. Muomala ijod psixologiyasida, odamlarning o'zaro bir-biriga ta'siri va o'zaro harakati sifatida, o'zaro bir-birini tushunish va hamdardlik jarayoni sifatida o'rganiladi. Insonlar o'rtasidagi muomala insoniyat mavjudligining zarur shartidir, chunki odamlar yolg'iz qolganlarida, o'zlarini boshqacha tutishadi, o'zgalar bilan muomalaga kirishganlarida o'zlarini yanada noxush tutadilar. V.M. Bexterev guruhning shaxsga ta'siri turlicha bo'lishini ta'kidlagan: undovchi (insonning energiyasi boshqa odamlar mavjud bo'lganda ortishi), faollashtiruvchi (insonning faoliyat jarayonida guruh a'zolaridan ortda qolmaslikka intilish) va yo'qotuvchi (guruh shaxs faoliyatining individualligini namoyish qilishni tormozlashi.)

V.M. Bexterev, M.V. Lange, V. Ye. Myasishchev, F. Ollport, V. Myode, A. Myeyo, D. Morenko va boshqa psixoolarning tadqiqotlarida insonning ruhiy faolligiga, ishchanlik qobiliyatiga shaxslararo munosabatlar insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga kata ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Jamoada shaxsiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'rtoqlari faoliyati mahsullari bilan taqqoslaganda samaraliroq bo'ladi. F.D. Gorbovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ma'lum sharoitlarda jamoa bo'lib birgalikda ishlash

o'zaro harakatda ishtirok etayotgan guruhning har bir a'zosi shaxsning shakllanishiga imkon beradi. Bu birgalikdagi faoliyat jipslashgan guruhlarda ro'y beradi.

Bu haqda A.I.Berg shunday deb yozadi: «inson faqat tahqi dunyo bilan to'xtovsiz muomala qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq informasion ajralish- bu aqldan ozishning boshlanishidir. Informasion undovchi tafakkurning tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek, issiqlikdek zarur.

Fikr almashish jarayoni nutqsiz amalga oshishi mumkin emas. Nutq faoliyati fikr almashinuv, ayniqsa o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tashabbuskor nutqning rivojlanishini talab qiladi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq faoliyati maqsad hisoblanmaydi, u har doim fikr almashish jarayonining umumiy tarkibiga kiritilgandir va shu bilan birga insonlarning aqliy va amaliy faoliyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqillikka moyillikning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi.

1. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida vujudga kelishi ijtimoiy muhitga bog'liq. Bu bog'liqlik mustaqillikka bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlari sohasida va qadriyatlarda ifodalangan mustaqillik mazmuni xarakterida ifodalanadi.

2. Mustaqillikning shaxs sifatida shakllanishida individual xususiyatlar shaxs yashaydigan va mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatlarga hamda shaxsning qobiliyatlariga, uning faolligiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar o'quv faoliyatini jamoa faoliyati sifatida tashkil qilishga ko'p vaqt unchalik e'tibor berilmadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni individual jarayon deb hisoblangan. Buning natijasida pedagogik psixologiyada o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil faoliyati ishning individual shakllaridagina ro'yobga chiqishi mumkin deb hisoblangan. Lekin so'nggi yillarda Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi ilg'or o'qituvchilarning ishlarida guruhiy bilish faoliyati har bir o'quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqillikni ta'minlashini tasdiqlagan. So'nggi yillardagi tadqiqotlar tafakkur mustaqilligini individual bilish faolligi sifatida an'anaviy tushunishga jiddiy tuzatishlar kiritdi. O'quvchilarning o'zaro nazorati va javobgarligiga asoslangan guruhiy o'quv faoliyati tafakkur mustaqilligining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi aniqlangan. Biz o'smirlarda mustaqil

fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga muomala jarayonida ko'proq erkinlik berishimiz zarur.

Inson hayotida mo'tadil yashashi uchun faqat oziq-ovqat mahsulotlari yoki har xil kimyoviy elementlarni iste'mol qilishi emas, balki tashqi muhitdan ya'ni koinotdan quvvat olishi ham zarur. Har bir insonda bioenergetik maydon aura mavjud bo'lib, unda kirish va chiqish markazlari joylashgan. Mana shu markazlar orqali biz ma'lum quvvatni a'zolarga yutar va ma'lum quvvatni a'zoldan chiqarar ekanmiz. Jahl kelganda nafaqat aql balki katta quvvat ham yo'qotar ekanmiz. Insonlardagi bioquvvatni kuchli sezgiga ega bo'lgan insonlarga payqay olar ekan. Xalqimizda "Istarasi issiq ekan", "Yuzidan nur yog'ilib turar ekan" degan naqlar bor. Darhaqiqat, mehr-oqibatli, iymonli, harom bilan halolni farqiga boradigan, sermulohaza, umuman yaxshi insonlarning aurasini yuzida ufurib turadi. Inson o'z bioquvvati orqali o'zini davolashi mumkin. Buning uchun aurasini kuchaytirishi hamda bioquvvatni kopaytirishga oid mashqlarni bajarishi kerak:

-quvvatni iroda yordamida boshqarish;

-diqqatni bir joyga to'play olish;

-fikran ko'z oldiga keltirish;

-mushaklarni boshqarish;

-kundalik g'am qayg'ularni unutish;

-fikrni so'lomlashirishga qaratish.

Unutmaslik kerak, kimki chuqur bo'shshishni o'rganmasa, u bioquvvatini to'liq ishlata olmaydi.

Insonning uzoq umr ko'rishiga psixologik omillarning ta'siri kuchlidir. Inson o'z tabiiy imkoniyatlariga ko'ra 120 yil umr ko'rishi mumkin ekan. Lekin asabiylashish, nizolar, ziddiyatlar, ko'ngilxiraliklar umrimizga zomin bo'lar ekan. Shuningdek yoqimsiz faoliyat bilan shug'ullanishi, jahldorlik, befarqlik ham uning umriga ta'sir ko'rsatar ekan. Agar inson o'ziga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lsa, teran fikrlay olsa, go'zallikni his qila olsa, muammolarni yengil va osoyishta hal etadi. Agar inson o'zidan norozi bo'lsa, o'ziga ishonmasa muammolari chigallashib ketaveradi. Ba'zilar o'zini yaxshi ko'rish xudbinlikdir, deyishadi. O'z- o'zini hurmat qilish, o'zining menini tushunish, tan olish-bu boshqa odamlar sari qo'yilgan birinchi qadamdir. O'zini hurmat

qilgan odam boshqalarni ham hurmat qilishni o'rganadi. O'z-o'zini sevish hayotni ham sevishga o'rgatadi. Inson o'zini kashf etib borgani sari uning kengayib boraveradi. Bu esa o'sha insonni salbiy ta'sirlardan himoya qiladi. Agar inson hayotning qiyinchilik daqiqalarida vaziyat nechog'lik murakkab bo'lmasin, o'zini qollab quvvatlay olsa uning hayoti ijobiy tomonga o'zgaradi. Xalq hikmatlarida "Boshiga har qanday musibat tushganda ham chin inson bo'lib qolish bebaho insoniy fazilatdir", "O'tgan ish uchun hasrat va nadomat chekmoq aqlli odamning ishi emas" deyiladi. Agar inson bir varaqqa salbiy va bir varaqqa ijobiy sifatlarni yozib chiqsa, shu narsaga amin bo'ladiki, uning hayotini shakllanishida salbiy tomon ko'proq o'rin tutar ekan. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimning Sharx surasida "Bas, albatta har bir og'irlik va mashaqqat bilan birga bir yengillik ham bordir" deyiladi. Bu naql xalqimizning "oyning o'n beshi yorug' bo'lsa o'n beshi qorong'u" degan haqiqat bilan uyg'undir. Agar inson g'am qayg'ularni qalbida ardoqlab yursa bir kun emas bir kun uni jarohatlaydi. O'tmish voqealaridan xalos bo'lishning birdan bir yo'li shaxsni avf etishni o'rganishdir. Kechirimlilik ruhan yengillikka olib keladi. Hadisi sharifda "Islomda uch kundan ortiq arazlashish yo'q", "Agar bir birodar ikkinchi birodari bilan uch kundan ortiq arazlashib yursa, u birodarini o'ldirish gunohini olar" deyiladi. Insonda yomonlik tuyg'usi yo'q bo'lsa, unda hayotiy kuch quvvat ortar ekan. Muvaffaqiyatsizlik va qayg'ularning sababini tashqaridan emas, inson o'zidan izlashi kerak. Hadisi sharifda "Barmog'imizga kirgan zirapcha ham bizning gunohimizga kafforatdir" deyiladi. Inson ko'pincha aql-idrokka, mantiqqa asoslanmay, salbiy yo'l -yo'riqlarga tayanib ish ko'rar ekan. Agar inson o'ziga ishonmasa, o'zini kamsitsa, bu narsa uning hayotida quvonch va baxtni yo'latmas ekan. Inson o'zidan ko'ngli to'lmasa, o'zini inkor etsa uning botiniy kuch-quvvati zaiflashib ketar, natijada u turli xastaliklarga chalinar ekan. Oramizda ayrim insonlar borki, ular hordiq chiqarishni, madaniy dam olishni, bioquvvatini ishga solishni va ruhiy muvozanatni bilmaydilar, ular doimo g'am tashvishga botib yuraveradilar. Inson o'z bioquvvatini oshirish uchun uzlatga chekinish mashqlarini bajarishi mumkin:

-Ko'zguga qarab: Ey, o'tmishda ro'y bergan ko'ngilxiraliklar, qani yo'limdan qoching, menga halal bermang. Men hayot go'zalliklaridan quvonib yashamoqchiman.

Uzlatga chekinishda yolg'iz sayr qilish, raqs tushish, ashula aytish, yugurish chopish mashqlarini ham bajarish mumkin.

Bunday mashqlar inson ongida ijobiy dasturlarni ishlab chiqishga, insonni xotirjam bo'lishiga, ruhiyatimizning dam olishiga, bizni hayot qadriyatlarimizga yaqinlashishimizga undaydi, insonni asabiylashishini, stress holatlarini oldini oladi, bioquvvatimizni kuchaytiradi. Inson faqat jismoniy va ruhiy birlik orqaligina sog'lom hayotga erishadi.

### **Adabiyotlar**

1. Berg A.I. Kibernetika i obshestvenniye nauki –Vkn.Metodologicheskiye probleminauki. –M.: Nauka .1964.-350s.
- 2.Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –T.: Fan. 2003.- 1176.
- 3.N.P. Anikeyeva. Jamoada ruhiy muhit. Toshkent “Oqituvchi” 1993 yil.
- 4.A. Usmonxo'jayev, F.Akromova. Ruhiatni sog'lomlashtirish usullari. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2002yil.

---

## **ДИНДОР ШАХС ПСИХОЛОГИЯСИ ТЎҒРИСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

*Рузибоев Темур*

*УзХИА 1-курс магистранти*

### **АННОТАЦИЯ**

Мақолада шахсдаги диндорлик мезонларини аниқлашга доир бир қанча концепциялар таҳлил этилган. Шунингдек диндорлик феноменининг моҳиятини акс эттирувчи кўплаб мезонлар сифатида диндорлик кўрсаткичи, диндорлик даражаси ёки унинг интенсивлиги ва диндорлик турлари каби тушунчаларни ёритиб ўтишга ҳаракат қилинган. Шу билан бирга психологиянинг классик намоёндаси У.Джеймс томонидан дин феноменининг инсонга кўрсатувчи таъсири

ва аҳамиятини, шунингдек шахснинг диндорлиги хусусиятини қай тарзда талқин этканларини таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** Диндор, диндорлик мезонлари, диний эътиқод, диндор шахслар типологияси, индивидуал психологик хусусиятлари;

Шахсдаги диндорлик мезонларини аниқлаш учун бир қанча концепциялар мавжуд. Шахсда диндорликни шаклланиши ҳар қандай ижтимоий -психологик ҳодиса каби кўплаб омиллар таъсирида юзага келиши мумкин. Буларга қуйидаги омилларни мисол қилиб келтириш мумкин: тарихий, ижтимоий, сиёсий, психологик, шунингдек ўзига хос хусусиятли таъсирлар орқали. Диндорлик феноменининг моҳиятини акс эттирувчи кўплаб мезонлар мавжуд: диндорлик кўрсаткичи, диндорлик даражаси ёки унинг интенсивлиги ва диндорлик турлари.

Маълумки шахснинг диндорлиги муаммоси фаннинг кўпгина соҳаларининг кесишмасида тадқиқ этилувчи предмет ҳисобланиб албатта психология фани ҳам бундан мустасно эмас. Шу ўринда дин психологик тадқиқотларни илмий йўналиш сифатида расмийлаштирган ва шунингдек диндорликнинг психологик табиатини англашда муҳим ҳисса қўшган У.Джеймснинг дин ҳақидаги фикрларини баёт этмасликнинг иложи йўқ. Джеймс “Диний тажрибанинг хилма-хиллиги” асарида шундай хулосаларини келтириб ўтган: “ “Диннинг субъектив жиҳатдан самарадорлиги” ўта юқори-ки (диний эътиқодининг ҳолати шахсни кучли ҳаётий импульс билан таъминлайди, ички руҳий барқарорликни сақлашга хизмат қилади ва дилхираликлардан қутқаради ) ҳеч қандай ҳаттоки илмий танқид ҳам унинг инсоният маданиятида тутган ўрнига путур етказа олмайди. Диний эътиқоднинг объекти "онгли ҳаётимизнинг онгости даражасидаги давомидир", инсоннинг "онгли ўзини" кенг миқёсли ўзликнинг бевосита давомидир, бу муҳим пайтларда инсонни қутқарувчи омид бўлиб хизмат қилади ва диний тажрибага ижобий мазмун беради”<sup>12</sup>

<sup>12</sup> Вильям Джеймс . МНОГООБРАЗИЕ РЕЛИГИОЗНОГО ОПЫТА. Перевод В.Г.Малахиевой-Мирович и М.В.Шик – Москва, 1910. С 398-400

Джеймснинг фикрига кўра, шахс инстинктлар, одатлар ва шахсий танловларнинг доимий ўзаро таъсири жараёнида шаклланади. У ўз тадқиқотларида шахс хусусиятларининг фарқлари, ривожланиш босқичлари ва билишнинг субъектив диний хусусиятларини кўриб чиқди. Джеймс шахс менини 4 шаклга бўлиб талқин қилишни таклиф қилган, унга кўра :

Биринчидан, реал Мен (моддий) ўзлик-инсон ўзини шахс сифатида идентификация қилувчи барча объектларни ўз ичига камраб олувчи қатламдир. "Бироқ, энг кенг маънода, Мен инсон ўзиники деб аташи мумкин бўлган ҳамма нарсанинг йиғиндисидир: нафақат унинг танаси ва психикаси, балки унинг кийимлари ва уйи, хотини ва болалари, аждодлари, қариндошлари ва дўстлари, обрўси ва у шуғулланувчи нарсалар. Юқорида санаб ўтилган соҳаларнинг барчаси бир хил тарзла гуллаб яшнаса инсон ўзини ғолибдек ҳис этади акс холда эса шахсни тушкунликка тушиши ва унда нафрат хиссини уйғонишига сабаб бўладди . Инсоннинг эмоциялари ҳар бир элементга нисбатан тенг даражада кучли бўлиши шарт эмас, лекин улар аслида моҳиятан ўхшаш"<sup>13</sup>

Иккинчидан биологик Мен- бу бизнинг физиологик, танамизга нисбатан мавжудлигимиз. Бу бизнинг ирсиятимиз, ташқи кўринишимизнинг ўзига хослиги , бизнинг физиологик жараёнларимиздан иборат қисмимиздир. Бу моддий дунёда мавжуд бўлган туғилган пайтдан бошлаб ўлим пайтигача бизни жисмоний равишда ташувчи кемамиздир.

Учинчидан ижтимоий Мен- бу инсоннинг обрў, эътибор, дўстлик ва бошқа атрофдаги шахсларнинг ижобий баҳолашларига даъво қилувчи барча нарслардир. Инсоннинг ижтимоий Мени у учун яқин бўлган муҳит уни қандай қабул қилиши билан боғлиқ.

Тўртинчи маънавий Мен – инсоннинг ички субъектив моҳиятидир. Джеймснинг фикрига кўра, бу шахсни ташкил этувчи Менининг энг барқарор қисми бўлиб, унда бизнинг иродамиз-эътиборимиз ва хаётий саъй-ҳаракатларимиз манбаидир. Инсоннинг маънавий Менининг ифодасини унинг диний

<sup>13</sup> Джеймс У. Психология / У. Джеймс. – М.: Педагогика, 1991. 81 с.

тажрибаларида кўриш мумкин, диний эътиқод инсоннинг ўта интим қадрияти сифатида тушунилади. Эътиқод инсоннинг психологиясининг туб қисмида акс этади ва бутунлай ижтимоий, сиёсий ва ҳатто интеллектуал ҳаётга ҳам ҳар қандай таъсир кўрсатишдан тўхтайд.

Шунингдек Джеймс диндор шахслар типологияси юзасидан ҳам ўз қарашларини билдирган. У диндор шахсларни шартли равишда 2 хил ном билан атаган “бир маротаба туғилган” ва “икки маротаба туғилган” . Биринчи гуруҳга мансуб булган шахсларга Джеймс ўз тарифини қуйидагича бериб ўтган:

“Улар учун Худо қаттиққўл Ҳакам, буюк Ҳукмдор эмас балки ва дунёни жонлантирувчи , унга уйғунлик ва гўзаллик берувчи Рухдир. Уларнинг болаларча соддалик туфайли, диний кечинмалар улар учун доимо қувончли. Улар Худонинг ҳузурида подишоҳнинг олдида турган бола каби кўрқувга тушмайдилар. Улар учун Худо яхшилик ва езуликнинг тимсоли. Улар Худо ҳақидаги тасаввурларини гуноҳкор инсон дунёсидан емас, балки табиатнинг гўзал уйғунлигидан оладилар. Улар ўзларининг қалбларида деярли гуноҳ кўрмайдилар ва дуёда ҳам уни изламайдилар. Инсониятнинг турли азобли кечинмалари уларда фақат муҳр-шафқатни уйғотади Ва юксак маънавиятга ега бўлмасдан туриб, ўзларининг оддий имонларида мамнуният ва еҳтимол махсус романтик жозиба топишади”<sup>14</sup>

“Икки маротаба туғилганлар- 1-типнинг мутлоқ антиподи бўлиб улар динга боларча берилувчиларнинг аксини намоён қиладилар. Уларнинг бу дунёқарашлари руҳий оғриқлари келтириб чиқаради. Улар бу дунёда асосан зулмни , ўзлари ва бошқалардаги гуноҳларни кўрадилар, қиёмат куни ҳақида кўп фикр юритадилар. Тарихий фактлар шуни кўрсатадики бу типдаги шахслар интилувчи ёқимли бахтга эришиш учун энг ишончли йўл бу ҳаётни чуқур пессимизмда ўтказишдир”<sup>15</sup> У.Джеймс Христианлик, Буддизм ва Ислом динларига эътиқод қилувчиларни шундай гуруҳга мансуб деб ҳисоблаган.

<sup>14</sup> James W. The varieties of religious experience: A study of human nature / W. James. – М.: Nauka, 1993. 70 p.

<sup>15</sup> Қаранг: James W. The varieties of religious experience: A study of human nature / W. James. – М.: Nauka, 1993. 70 p.



У. Джеймснинг фикрларини таҳлил этишга уриниб кўрамиз. Унинг фикрига кўра диндор шахслар ўз эътиқодларига кўра 2 гуруҳга бўлинадилар. 1-гуруҳга мансуб шахслар учун диний эътиқод бу мутлоқ ижобий тушунча бўлиб улар диндан завқ оладилар ва Худони ҳам тўлиқ ижобий тарзда идрок этадилар. Иккинчи гуруҳга мансуб шахслар эса асосан диний ҳукимлар. Буюриқ ва кўрсатмаларга асосланган холда динни идрок этадилар ва уларга амал қилмасликни келтириб чиқарувчи асоратлари ҳақида кўр фикр юритадилар. Мени фикримча Джеймс айтганидек динларнинг моҳиятига кўра унга эътиқод қилувчиларни гуруҳларга бўлиш ноўрин, аксинча диний эътиқод мутлоқ индивидуал ва субъектив ходиса бўлганлиги сабабли 1 динга эътиқод қилувчи шахслар ҳам уни турлича идрок қилишлари ва ҳаётларига жорий этишлари мумкин. Бу уларнинг индивидуал психологик хусусиятлари, ижтимоий шароитлари ва роллари шунингдек таълим тарбия жараёнининг қай тарзда кечганлиги билан ҳам боғлиқ бўлиши мумкин.

### АДАБИЁТЛАР

1. Вильям Джемс. МНОГООБРАЗИЕ РЕЛИГИОЗНОГО ОПЫТА. Перевод В.Г.Малахиевой-Мирович и М.В.Шик – Москва, 1910. С 398-400
2. Джеймс У. Психология / У. Джеймс. – М.: Педагогика, 1991. 81 с.
3. James W. The varieties of religious experience: A study of human nature / W. James. – М.: Nauka, 1993. 70 p

## ПСИХОЛОГИК КОНСУЛЬТАЦИЯГА МУРОЖААТ ҚИЛУВЧИ ШАХСЛАР ТУРЛАРИ

*Гаипова Гулбаҳор Матиякубовна*

*Хоразм вилояти Гурлан тумани 35-мактаб психологи*

**Аннотация.** Жаҳонда глобаллашув жараёнининг кучайиб бориши жамиятда шахсларнинг психологик адаптацияси, рухий ҳолати, психологик саломатлигига ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Ҳозирги кунда психология соҳаларининг ривожланиши ва психологик хизмат турлари кўпайиб бормоқда, психологик консультацияга муурожаат этувчи шахсларнинг ҳам сони кундан кунга ортиб бормоқда. Турли шахс типларига индивидуал хусусиятлар хос бўлганлиги сабабли уларда ҳар хил когнитив хусусиятлар, турли кутилмалар, ҳар хил қадрият ва дунёқараш хос.

**Калит сўзлар:** шахс, шахс типлари, психологик хизмат, психологик консультация, психолог консультант, индивидуал психологик хусусиятлар.

Психологик консультацияга муурожаат этувчи шахсларнинг индивидуал-психологик ва типологик хусусиятларини инобатга олиш ёш психолог-консультантлар учун услубий йўриқнома сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, шахсларнинг типологик хусусиятларини эътиборга олиш консультатив хатоларнинг камайишига, нотўғри таъсирларни бартараф этиш, тавсиялар тайёрлашда конкретликни тақозо этади.

“Аҳолига, айниқса ёшларга сифатли психологик хизмат кўрсатиш, психологик хизмат фаолиятини бошқаришни мувофиқлаштириш, таълим муассасалари билан профилактика инспекторлари ва жамоат вакиллари ўртасидаги ҳамкорликни янги сифат даражасига кўтариш, психологик мактабни ривожлантириш ҳамда олий таълимда тор ихтисосликлар бўйича кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, давлат-хусусий шериклик асосида психологик марказлар ташкил этишни йўлга қўйиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши, Мактабгача таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот марказининг Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши қошидаги Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш маркази негизида таълимнинг барча босқичларида психологик хизмат кўрсатувчи тузилмалар учун мулоқот майдонига айланадиган, тегишли давлат идоралари билан ҳамкорликда иш олиб боровчи “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази қошида Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш республика маркази (кейинги ўринларда Марказ деб аталади) этиб қайта ташкил этиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.”

Хилма-хил психологик муаммолар манбалари ичида мактаб ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Масалан: тиббиёт мезонларига қараганда, мактаб ёшидаги болаларнинг 18-20% қисқа муддатли ёки доимий психотерапияга муҳтождирлар. Мактаб, коллежда кенг тарқалган муаммолар жуда кўп: Ўқув мотивацияси, йўқлиги паст ўзлашиши ўқитувчи тенгдошлари билан низоми муносабатлар, ўз-ўзини паст баҳолаш, жамиятга қарши группаларда иштирок этишга лаёқатлилиқ ва бошқалар. Юқори санаб ўтилган муаммоларнинг кўпайиши ҳозирги мактаб, коллежларда шахс ривожланиши босқичларини етарлича ҳисобга олмаслик, барчага бир-хилда талаб қўйиш натижасида уларнинг индивидуал психологик ва психофизиологик хусусиятларни эътиборга олмаслик сабаб бўлмоқда. Боланинг кўпгина нисбий хусусиятлари, масалан, меҳнатга, математикага, мусиқага, ва бошқаларга нисбатан эрта кўринган муваффақият ёки психологик тараққиётни, жуда олдинда бўлиши кўпгина психологик ва педагогик вазифаларнинг муаммоси келтириб чиқаради.. Шунга қараб психологик маслаҳат беришнинг умумий вазифаси бола психик тараққиётининг боришини, бу жараёндаги даврларга бўлиш ва белгиланган нормага мувофиқ тасаввурлар асосида назорат қилишдан иборат.

Психологик маслаҳат вазифалари чет элларда яхши ривожланган ота-оналар боласи тақдири билан ёшлигидан қизиқиб эътибори кучлидир. Улар ўсиши ривожланиши даврларида фарзандидаги ҳар бир ўзгаришга аҳамият бериб, ўз

вақтида психологик кўриқдан ўтиб туришади, ўз вақтида маслаҳатни олиб муаммоли вазиятни тез хал қиладилар. Бизда психологик хизматлар эндигина йўлга тушмоқда, агар ота-оналар, психолог, шифокор ва тарбиячи ва педогоглар, психологик ишларни, яъни ўз вақтида бажарилса психологик муаммолар кам учраган қанча боладаги камчиликлар, касалликлар вақтида олдини олиб, ёш авлодларимиз соғлом ақлли ва жисмонан бақувват, бўлар эди.

Мижознинг бир эмас, балки бир неча муаммолари мавжуд, уларнинг ҳар бирини хал этиш алоҳида консультацияни талаб этади.

Психолог - консультантда мижоз унинг индивидуал хусусиятлари сабабли ўз муаммосини дарҳол ва қўшимча ёрдамсиз хал эта олишига тўла ишонмайди. Агарда мижоз ўзига етарлича ишонмаса, ўз ҳаяжонлари ва хулқини бошқара олмаса, агарда унинг интеллектуал ривожланиш даражаси қийин вазиятларда оқилона, тўғри ечимни мустақил қабул қилиш учун етарли бўлмаганда бундай ҳоллар учраб туради. Психологик хизматнинг психокоррекция йўналиши психологдан инсон шахси ва индивидуаллигини таркиб топтириш жараёнига фаол таъсир ўтказишни тақозо қилади. Халқ таълими тизимидаги психологнинг вазифаси психологик хизматни муайян қоида, мезонга асосланиб ташкил қилишдан иборат бўлиб, ёш давр хусусиятларига биноан (болалар, ўқувчилар, талабалар) психиканинг ривожланиши, шахсининг шаклланиши қонуниятларини амалиётда ҳисобга олган ҳолда фаолият олиб бориш, ишчи жамоасига болалар, ўқувчилар ва талабалар таълим-тарбиясини индивидуаллаштиришда ёрдамлашиш, уларнинг қобилияти, майлининг даражасига қараб ўқитувчиларга коррекцион ишларни амалга оширишда кўрсатмалар беришдан иборат. Психологик хизматнинг ушбу йўналишида алоҳида аҳамият касб этадиган нарса - бу болалар, ўқувчилар, талабалар ўсишида (ривожланишида) кечикиш (орқада қолиш), уларда хулқнинг бузилиши, таълимда ўзлаштиришнинг ёмонлашуви ҳисобланади.

Психик тараққиётни тузатишлар «коррекция қилиш» атамаси дастлаб дефектологияда касал болаларга нисбатан ишлатилган бўлса, амалий ёш психологиясининг ривожланиши билан «тузатиш» тушунчаси нормал психик тараққиёт учун ҳам қўлланила бошлади.

## ХУЛОСА

Ҳар доим ҳам мижоз психолог-консультантдан олган тавсияларини амалга оширишга кириша олмайди. Кўпинча ўзининг тажрибасизлиги ёки билмаслиги сабабли хатога йўл қўяди ва психолог-маслаҳатчи томонидан кундалик ёрдамга мухтож бўлади. Психолог-маслаҳатчи эса мижозни тинглаб, ўзи ва у учун муаммони аниқлаштириб, уни тўғри ҳал этиш бўйича тавсиялар таклиф этиб, ўзининг профессионал бурчини тўла бажарди деб ўйлаши керак эмас. Мижознинг олган маслаҳат ва тавсияларини хатосиз амалга оширишни таъминлаш ҳам психолог-маслаҳатчининг вазифаси ҳисобланади. Тўғри, мижоз психолог-маслаҳатчидан олган тавсияларни бажаришни хоҳламаслиги ҳам мумкин. Одамлар ҳаётларида дуч келадиган муаммолар шундай бўлади-ки, улар такроран юзага келади, уларни бир маротаба ҳал қилиниши улар келажакда яна бир бор юзага келмаслигига тўла кафолат бўла олмайди. Шунинг учун мижоз билан маслаҳат бериш ишларини олиб борганда келажакда бундай муаммолар юзага келмаслигига ҳаракат қилиш керак.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Полина, Л.В. Особенности консультирования клиентов находящихся в кризисе семейных отношений Л.В Полина Вестник Костромского государственного университета им. А.Н. Некрасова. Н.В. Кузьмина, Н.П. Фетискин. 2011.

2. Бондаренко А. Ф. Психологическая помощь: теория и практика. М., 2010.

## МАКТАBLARDA O`QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Gaipova Gulbahor Matiyakubovna*  
*Xorazm viloyati Gurlan tumani 35-maktab psixologi*

Mamlakatimizda keying yillarda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson qadr qimmatini yuksaltirish, ayniqsa yoshlarimizning yuksak ma`naviyatli shaxs sifatida ulg`ayishi, har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart sharoitlar yaratishga qaratilmoqda. Shuningdek, jamiyatimizning asosi - oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirish borasida mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir yigit-qiz qanday kasbni egallashi, xarakteridan qat'iy nazar kelgusida oila qurishga, baxtli bo'lib yashashga intiladi. Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining har tomonlama uyg'un rivojlanishi, kelgusida baxtli oila qurishi, er va xotinning tinch-totuv yashashi ko'p jihatdan bolalarni yoshlikdan oilaviy hayotga tayyorlashga, ularda ijobiy odat va ko'nikmalarni qaror toptirib borishga bog'liq. Shu sababdan umumta`lim maktablarida o`quvchi yoshlarda psixologik munosabatlarni bilishi, insonni o'ylashga, mushohada yuritishga, o'zligini anglashga yordam beribgina qolmay, bir insonning boshqasi tomonidan xolisona idrok etilishini ham o`rgatib borish dolzarb muammolardan biridir.

Sababi hozirgi kunda umumtalim maktablarini tamomlagan o`quvchilar oiladagi munosabatlarga u darajada yetarli ko`nikmaga ega bo`lmay, o`z oilasidagi muhitga moslashib, kelajagiga ham to`laqonli anglab yeta olmaydilar.

Umumta`lim maktablarida "Oila psixologiyasi" fanini o`qitish tizimi joriy etilsa, o`quvchi yoshlarda oila tushunchasi, oiladagi shaxslararo munosabatlarni ta`minlashga va shu bilan birga oilada tinchlik, xotirjamlik, baxt va saodat barqaror bo'lishi

mumkinligini, bir-biriga to'g'ri psixologik yondashuv shaxsni hurmat qilishni ta'minlab, er-xotinni, xotin-erni, qaynona kelinni, kelin o'z navbatida oilaning barcha a'zolarini, kattalar kichiklarni e'zozlashni o'rganib boradilar. Bir necha shaxsning bir vaqt va makonda birga yashashini ta'minlovchi sog'lom falsafani shakllantiradi.

O'quvchi yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashdan maqsad o'quvchilarga oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni muhim masala sifatida qo'yishni taqozo etadi.

Oila psixologiyasi fanini umumta'lim maktabi o'quvchilariga o'qitishda quyidagi vazifalarni ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- oila psixologiyasi fani, uning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish, oilaning ijtimoiy kelib chiqish tarixi, uning turlari bilan tanishtirish;
- o'quvchi yoshlarni oilani muqaddas bilishga o'rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari bo'yicha tushunchalar hosil qilish;
- o'quvchilarda shaxsning shakllanishida oilaning roli haqida tasavvur hosil qilish;
- yoshlarning oila mustahkamligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishlardan saqlanishga o'rgatish;
- yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;
- yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish.

Bu o'rinda haqli ravishda: «Bu fan bizga nima beradi? Nega endi aynan hozirga kelib, bizni oilaviy hayotga tayyorlash zarur bo'lib qoldi? Axir ota-bobolarimiz bunday kurslarni o'qimay ham tinch-totuv, ahil-inoq, baxtli hayot kechirishgan-ku? Aksincha so'nggi yillarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida qanchalik ko'p gapirib, yozib, maxsus tadbirlar tashkil qilinsa ham nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortsa

ortayaptiki, kamaymayapti-ku?» - kabi savollar ro'yxatini cheksiz davom ettiraverish mumkin. Ularning har birining yuzaga kelishiga asos bor.

Xo'sh, qanday zarurat hozirgi vaqtda yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash va ularga «Oila psixologiyasi» fanining o'qitilishi zarurligini taqozo qiladi?

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tendoshlari va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu



yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bo-lalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayon-lar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda uning haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat ol-dida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz), biroq ular biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki litseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak.

## PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR

*Axmedova Dilobar Sa’dullayevna  
Qarshi shahar 44-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Shaxs tarbiyasi. uning ijtimoiy- psixologik kamolati har qanday davlatning bosh strategik maqsadlaridan biridir. Chunki shaxsni ma’lum ezgu g’oyalar, ijtimoiy psixologik va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo‘lmaydi.

**Kalit so‘zlar:** psixologik maslahat, shaxs, muloqot, autism, psixologik korreksiya, ahloq, suhbat.

Ayni dam maxsus maktab va maktab-internatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning faoliyatida o‘quvchilar ruhiy holatlarini o‘rganish. Xulq-atvoridagi — o‘g‘ishlarni oldini olishga qaratilgan choralarni ko‘rish. stress. nizo va ko‘plab salbiy emotsional kechinmalarining oldini olish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish psixologik xizmatning samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mana shunday muammoli holatlarni yo‘qotishda esa psixologik xizmat sohasida mavjud bir qancha yo‘nalishlar yordam beradi. 1. Kirish qismi: Shaxs shakllanishidagi — inqirozli davrlarning o‘quvchilar xulq-atvoriga ta’siri. Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igrilashib ketsa. goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba‘zan — inqirozli davrlarni boshidan o‘tkazayotganlar esa o‘zlarini jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog‘liq xotirjamlikni yo‘qotib qo‘yadilar. Ruhiy tushkunliklar natijasida o‘z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar. xuddi shu bois. o‘zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o‘rganar ekanmiz. bunda barcha yondashuvlarga. tamoyillarga. yo‘l- yo‘riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo‘lish jarayoni. uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamdakechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish. Psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq- atvor psixologiyasida. jumladan

jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko‘p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi. —Inqirozli davrlar orasida o‘smirlik davri o‘zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o‘smirlarni voyaga yetkazishnin o‘ziga xos qonuniyatlari. xususiyatlari. imloniyatlari. xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O‘smirlik davri taqlidchanligi. muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi. hissyotlilik. mardligi. tantililgi bilan farqlanadi. O‘smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V.Dragunovlarning ta’kidlashicha. o‘g‘il-qizlarning bu davrda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi. tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘quvchilarning to‘g‘ri va to‘liq ta‘lim va tarbiya olishi uchun oila va maktabning o‘rni beqiyosdir.

2. Muammoni bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari. Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar mavjud:

- Xulqida og‘uvchanligi bo‘lgan o‘quvchilar. ularning sinf rahbarlari. ota-onalari bilan tizimli ishlash.
- Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Psixologik profilaktika yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli va uzluksiz olib boorish.
- Psixologik diagnostika yo‘nalishi bo‘yicha olilib boriladigan ishlar.
- Psixologik korreksiya yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar,
- Psixologik maslahat yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o‘tkazish tartibi.
- Voyaga yetmagan bolalarni o‘z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyotga muntazam joriy etish.

Sinfdagi o‘quvchilar sonining tobora ortib borishi. maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o‘quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo‘lgan o‘quvchilarlardan iborat sinflar bilan ishlashga to‘g‘ri kelayotgan bir vaqtda. o‘qituvchilar talabalarni rag‘batlantirish va boshqarishning

samaradorligini oshirishga tobora ko‘proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o‘quvchilarni sinflarga qo‘shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta‘lim borasida muammolari mavjud o‘quvchilar sonining ko‘payib borayotganligi va sinflarda ta‘lim borasida muammolar mavjudligi o‘quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo‘ladi. O‘zib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz. kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak o‘quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni. jumladan xulq-atvorida —og‘ishli borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

3. Maktabda psixologik muammolari bor o‘quvchilar bilan psixologik maslahat o‘tkazish shartlari. Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o‘zgarib rivojlanib o‘zgarib boradi. bu esa individuallik. shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek. quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo‘llarini aniqlash.
- O‘smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi. hayotga munosabati. o‘z-o‘ziga ishonchi. irodaviy – hissiy o‘zini boshqarishni tahlil etib. shularga mos ravishda maslahat berish.
- Maqsadga erishishda o‘smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.
- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o‘smir hayotidagi ijtimoiy. Shaxsiy vazifalarni hal etish.
- Ayniqsa. o‘smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish. maslahat berishda aniq maqsad qo‘yish.

#### 4.Xulosa

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan. yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek : — Fikrlash. ishlash va yashash madaniyatiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasining — Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni va —Kadrlar tayyorlash milliy dasturitalablari asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqloq g‘oyalari asosida sog‘lom. har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Afsuski. bugun maktablarimizdagi bir qancha o'quvchi yoshlarimizning ruhiyatida. xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko'rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko'plab salbiy holatlarga olib keladi. bu ham o'ziga va o'zgalarga qolaversa. Butun jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o'quvchilar bilan ko'p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta'kidlaganimizdek maktab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat sohasidagi bir qator yo'nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o'quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo'ladi. Shuningdek. bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha director o'rinbosari. ota-onalar qo'mitasi. mahalla fuqarolar yig'ini. voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to'laligicha amalga oshirgan bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova T.M.Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur.2010.150-b
2. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU,2006.128-b

---

## **O'SMIRLARDA BILISH JARAYONLARINING O'SISHI VA ULAR ORASIDAGI "TARBIYASI OG'IR"LIK MUAMMOSI**

*Axmedova Nozimaxon Akramjon qizi  
Farg'ona viloyati Furqat tumani 10-maktab psixologi*

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o'smirlarda bilish jarayonlarining o'sishi va psixologik xususiyatlari, shuningdek ulardagi deviant xulq muammolari, yechimlari haqida mushohadalar, ma'lumot, mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlar, bilish jarayonlari, fikr, rivojlanish, ta'lim, deviant xulq, axloq, muhit.

O'smirlar tafakkurida tanqidiylik, mustaqillik ayni shu davrida hosil bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'quv materiallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifodalash yo'lini tushuntirib berishlari lozim. O'smirlarning o'quv faoliyatida, o'quv materialini o'zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o'quvchilarni uchratish mumkin. O'quv faoliyatidagi kamchiliklar kichik sinflarda bilinmagan bo'lsa, V-VI sinflarda o'zlashtirishi keskin farqlanadigan bolalar ko'zga tashlanib qoladi.

O'smirlarda nazariy, formal va refleksiv tafakkur turlari shakllanadi. Xotira, idrok jarayonlari ham intellektualizatsiya bo'la boshlaydi, ya'ni o'smir o'quv materiallarini tushinib idrok qilish va eslab qolishni o'rgana boshlaydi. O'smirlarning o'z-o'zini anglashi sifat jihatidan o'zgaradi.

O'zi haqida o'ylash, o'zini boshqalar bilan taqqoslash o'smirning xususiyatidir. O'smir o'z kamchiligi ustida uylaydi, o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Ko'pchilik o'smirlar kattalarga o'xshaydigan o'z tenglashlariga o'xshashga harakat qiladilar. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni bir necha shartli guruhlariga ajratish mumkin

injiq tabiatli o'smirlar;

mustaqil fikrga ega bo'lmaganlar;;

orsiz, subutsiz o'smirlar va boshqalar

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni yuzaga keltiruvchi sabablarga esa:

psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;

shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;

bilish faoliyatidagi kamchiliklar;

maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar;

maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;

shaxsning biologik kamchiliklaridir.

Inson umrining o'smirlik bosqichida, bizningcha, asosan ikkita xatarli jihat paydo bo'ladi. Uning bittasi-kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi – o'smirning oilada va maktabda

nazoratni chetda qolish. Shu ikki jihat katta yoshdagi odamlar e'tiboridan tashqari, o'z oqimida, maqsadga muvofiq, tarzda kechadigan bo'lsa, oqibat tarbiyasi qiyin deb ataluvchi o'smirlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Birinchi jihatni tahlil qilib ko'raylik, chunonchi, o'smirlar bosqichidagi o'g'il va qizlarda ilk «kattalik» hissi yuzaga keladi. Bu yoshdagi o'smir munosabat uslubini o'zgartiradi, axloq mazmuni ham keskin o'zgaradi. Kattalarning tashqi qiyofasi, yurish-turishi, ko'zga tashlanadigan ayrim tomonlari o'smir shu davrga tezroq yetish istagini uyg'otadi.

Modaga qiziqish, o'ziga aro berish, o'zgacha «madaniy» horqdiq chiqarish, mulzamat qilishga intilish kabilar.

Ular ko'pincha talablarga, katta yoshdagi kishilarga, televizor va kinolarda ko'rgandlariga taqlid qiladi. O'z tasavvurida nimani ommabop deb hisoblasa, xuddi shu narsani namuna tarzida qabul qiladi. O'smirda o'z-o'zini va o'zgalarni baholash mezonlari ana shu tariqa yuzaga keladi. Shuning uchun unda yangi his-tuyg'ular, orzu-umidlar, sevgi haqidagi kitob solish holatlari ko'zga tashlanadi.

Psixologiya fanida inson xulq-atvoridagi o'zgarish, goho chetga og'ish hodisasi ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi haqida umumiy qonuniyat mavjud. Jahon psixologlari olib borgan tadqiqotlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning paydo bo'lishiga ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixoloik omillar ham sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. O'smirlar harakatlarini izchil va uzluksiz o'rganishni, ulardagi chetga og'ish ko'rinishlari turlicha bo'lishini ta'kidlamoqda.

Tarbiyasi qiyin o'smir, axloqi butunlay ishdan chiqqan, harakat boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan, jinoyatchi emas. Shuning uchun ularning xulq motivlarini tadqiqot qilish orqali qayta tarbiyalash, shaxsda hukm surib kelayotgan ayrim illatlarni bartaraf qilish imkoniyati mavjuddir. Bu jarayon o'ta murakkab, ota-onadan, o'qituvchilardan, jamoat tashkilotlaridan, mahalla faollaridan katta kuch, sabr-toqat, uzoq mehnat va chuqur izlanishlar talab qiladi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar hatti-harakatini izchil va muntazam o'rganish, ular orasida axloq qoidalaridan chetga chiqish hollarining sabablari turlicha ekanini yaqqol isbotlamoqda.

Odatda tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy va axloqiy qonunbuzarliklar guruhiga ajratib o'rganiladi.

Maxsus tadqiqotlar qonunbuzar o'smirlardagi salbiy hatti-harakatlarning vujudga kelishi sabablariga qarab, tarbiyasi qiyin o'smirlarning taxminiy tipologiyasini tuzish imkonini beradi. Birinchi guruhga balog'atga yetmagan. Andishasiz, qaysar o'smirlar kiradi. Bunday o'smirlar shaxsiy qarashi, o'zgalarga baho berishi axloq ehtiyojlarini maktab, oila va jamoatchilik fikriga qarshi qo'yadilar.

Mustaqil ijodiy fikr yuritish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tanqid qilish singari shaxs sifatlarini shakllantirishga e'tibor berish zarur. Yo'l qo'ygan kamchiliklarini dalillar asosida ko'rsatib berish, qayta tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni guruhlarga ajratish maqsadida, individual suhbatlashish ularning savol varaqasini to'ldirishga o'rgatish. Ularni uzluksiz ravishda kuzatib borish.

Yozgan bayon yoki insholarni tahlil qilish, shaxsiy hujjatlarini izchil o'rganish, sinf rahbari yoki tarbiyachining kundalik daftarini yuritish, muammoli yoki «konflikt»li vaziyatni vujudga keltirish asosida tajriba o'tkazish, individual shaxsda yoki jamoada qanday o'zgarishlar ro'y berishini muttasil kuzatib borish, ularni qayta tarbiyalash uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Muloqotni kutish — murakkab o'ziga xos holat bo'lib, bunda o'smir shartli va shartsiz ravishda qiziqarli va muhim, takrorlanmas uchrashuv va muloqotni kutadi. Shu sababdan ular ota-onalari, atrofidagi kattalar va umuman boshqalarga diqqat va qiziqish bilan qaraydilar.

Muloqot ko'payishi natijasida do'stlik kelib chiqadi va bu do'stlik o'smir uchun o'zini mustaqil va katta odam sifatida hisoblay olishiga turtki bo'la oladi. Do'stlikning asosiy sharti esa — o'zaro bir-birini tushunish hisoblanadi desak mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. S.Herbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogika psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
2. M.G. Davaetshin, Sh.DO'stmushamedova, M.Mavlanov, S.TO'ychieva. «Yosh va pedagogik psixologiya» O'quv metodik qO'llanma Toshkent 2004 yil
3. Psychology.net.ru



## IQTIDORLILIK VA IQTIDORLI O'QUVCHILARNING IJTIMOY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Elbayeva Sayiba Rasulovna*  
*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 29-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif tomonidan iqtidorlilik va iqtidorli o'quvchilarning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari haqida bir qator ilmiy mulohazalar va fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtidor, qobiliyat, o'quvchi, ota-ona, ijodkorlik, talab, mustaqil fikr, iste'dod, ixtisoslashtirilgan maktab, hamkorlik, sharoit.

Hammamizga ma'lum bo'lgan iqtidorlilik - bu hayot davomida rivojlanadigan psixikaning tizimli sifati bo'lib, u odamning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydi; Iqtidorlilik belgilari bo'lgan o'quvchi esa u yoki bu faoliyat turida yorqin, ravshan, ba'zan ajoyib yutuqlari bilan ajralib turadigan o'quvchidir. Bugungi kunda ko'pchilik psixologlar iqtidorning rivojlanish darajasi, sifat jihatidan o'ziga xosligi va tabiati doimo irsiyat va bolaning faoliyati ya'ni o'yin, ta'lim, mehnat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muhitning murakkab o'zaro ta'siri natijasi ekanligini tan olishadi. Shu bilan birga, bolaning o'z faoliyati, shuningdek, shaxsiy iste'dodni shakllantirish va amalga oshirish asosida yotgan shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishning psixologik mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Bolalik - qobiliyat va shaxsiyatning shakllanish davri. Bu bola psixikasida uning differentsiatsiyasi fonida chuqur integratsiya jarayonlarining vaqti. Integratsiya darajasi va kengligi hodisaning o'zi - iqtidorning shakllanishi va etukligi xususiyatlarini belgilaydi.

Bu jarayonning borishi, uning kechikishi yoki regressiyasi iqtidorning rivojlanish dinamikasini belgilaydi. Iqtidorni o'rganish jarayonida shaxs iqtidorining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashga urinishlar amalga oshiriladi, Iqtidorlilik belgilari iqtidorli bolaning haqiqiy faoliyatida namoyon bo'ladigan va uning harakatlarining tabiatini kuzatish darajasida baholanishi mumkin bo'lgan xususiyatlardir. Aniq

iqtidorning belgilari uning ta'rifida belgilanadi va yuqori darajadagi ishlash bilan bog'liq. Shu bilan birga, bolaning iqtidorini "Men xohlayman" va "Men qila olaman" toifalarining birligida baholash kerak. Qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o'quvchi yuqori kognitiv faoliyati zarur, va barcha harakatlar qobiliyatlarni rivojlantirmaydi, balki faqat hissiy jihatdan yoqimli. Shuning uchun darslar do'stona muhitda o'tkazilishi kerak. Muvaffaqiyatli vaziyat yaratilishi kerak.

Uning har qanday g'oyalarini hurmat qilish va muhokama qilish kerak bo'ladi. Fikrlashning mustaqilligi, o'qituvchiga, so'ngra o'ziga berilgan savollar darslar muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismidir. O'qitish usuli haqida o'ylab ko'ring. Iqtidorli talabalar tubdan boshqacha tayyorgarlikni talab qiladi, chunki ular qayta tekshirishga, "o'zlari uchun tushunishga", tajriba o'tkazishga bo'lgan g'ayrioddiy istagi bilan ajralib turadi. Iqtidorli o'quvchi bilan ishlashda fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi jiddiy ijodiy ishlarga didni singdirishga e'tibor qaratish zarurdir. Hazil tuyg'usini rivojlantirish. Shuni esda tutish kerakki, iqtidorli bolalar juda mag'rur, zaif, sezgirligi yuqori - va unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan hazil ularni uzoq vaqt tinchlantirishi mumkin. O'quvchilarga savollar berish uchun muxit erkin bo'lsin. Agar bola nimagadir qiziqsa, demak u o'ylaydi, agar o'ylasa, o'qituvchi nimagadir erishgan. Maktabni tugatgandan so'ng, o'quvchi biron narsaga erishishi yoki shunchaki yaxshi insonga aylanishi mumkin va shuning uchun o'qituvchi o'z vazifalarini bajardi. Iqtidorli o'quvchi bilan ishlash uchun o'qituvchi uchun zarur bo'lgan fazilatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Iqtidorli o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish;

Do'stona va hamdard bo'lish;

O'quvchi diagnostik tekshiruvi natijalariga muvofiq treningni qura olish;

Hissiy jihatdan barqaror bo'lish, ya'ni har bir o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini yaxshi nazorat qilishi kerak;

Yuqori intellektual rivojlanish darajasiga, qiziqish va ko'nikmalarning keng doirasiga va doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga intilishga ega bo'lish;

Iqtidorli bolalar bilan ishlashga va maxsus bilimlarni olishga tayyor bo'lish;

Qat'iylik, maqsadga muvofiqlik va puxtalikni ko'rsatish;

O'quvchilarning bilim qobiliyatini rag'batlantirish.

Iqtidorli bolalarning ijobiy va salbiy tomonlari ham bor.

Iqtidorli bolalarning salbiy tomonlari quyidagi shaxsiy xususiyatlardir:

- ✓ Egosentrizm va boshqa odamning nuqtai nazariga qarshi tura olmaslik, ayniqsa u intellektual jihatdan zaifroq bo'lsa.
- ✓ Agar o'quv dasturi zerikarli va qiziq bo'lmagan bo'lsa, maktabni yoqtirmaslik.
- ✓ Tengdoshlari bilan taqqoslaganda jismoniy rivojlanishda orqada qolish, chunki iqtidorli bola intellektual izlanishni afzal ko'radi. Shu sababli kollektiv sport o'yinlarida ishtirok eta olmaslik.
- ✓ Muloqot madaniyatining yetishmasligi va suhbatdosh g'oyasini tugatish istagi, chunki u birinchi so'zlardan oq muammoning mohiyatini anglaydi.
- ✓ Suhbat davomida suhbatdoshni to'xtatish va tuzatish istagi, agar u mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki so'zlarni noto'g'ri ta'kidlasa.
- ✓ Muvofiqlikning yo'qligi va murosaga kelish qobiliyati tufayli har doim to'g'ri va bahsli bo'lishga intilish.
- ✓ Tengdoshlarga buyruq berish istagi - aks holda u ular bilan zerikib qoladi.

Iqtidorli o'quvchining unchalik yaxshi bo'lmagan xarakterlari, bu uning fazilatlarining davomi bo'lib, tengdoshlarning yoqtirmasligini keltirib chiqarishi va ularni o'zlaridan uzoqlashtirishi mumkin. Hech kimga sir emaski, oddiy maktabda iqtidorli o'quvchi o'qituvchilarni u allaqachon hamma narsani bilishi yoki shunchalik ko'p savollar beradiki, u o'qituvchining e'tiborini faqat o'ziga qaratishi bilan bezovta qiladi. Natijada, iqtidorli o'quvchi sinfning qolgan qismidan ajralib turadi. O'quv dasturi bo'yicha yuqori sinfga o'tish do'stlikning uzilishiga va yangi sinfda bunday aloqalarni o'rnatish qiyinligiga olib keladi. Natijada, maktabdagi ko'plab iqtidorli bolalar o'zlarini chetda qolganlar kabi his qilishadi, sinf o'qitish tizimi o'rtacha o'quvchilar uchun yaxshi rag'bat bo'lib, iqtidor egalarining yaxshilanishiga aylanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Iqtidorning ishchi kontsepsiyasi / Ilmiy. Ed. V.D. Shadrikov. - M.: IChP, "Magister" nashriyoti, 2018 yil.

2. Renzulli J.S. Iqtidorning uch halqali kontseptsiyasi: ijodiy mahsuldorlikning rivojlanish metall modeli // Iqtidorlilik tushunchalari / Ed. Stenberg R.J., Devidson J.Y.: Cambr. Univer. Matbuot, 2016 / - S. 53-92.

3. Psychology.net.ru

---

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR BILAN PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSION ISHLARNI TASHKIL QILISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING O'RNI

*Abdijabbarova Munira Rozimboyevna*  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 60-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan psixologik diagnostika va korreksion ishlarini tashkil qilish qilishda maktab amaliyotchi psixologining o'rni haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** amaliyotchi psixolog, o'quvchi, kichik maktab yoshi, muammo, yosh davri, ta'lim, tarbiya, bilish jarayonlari, muhit, o'quv faoliyati.

Ma'lumki, o'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan ham tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyalar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati o'quvchilarda o'qishda muvaffaqiyatga erishish extiyojini qondirsa, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lish imkoniyatini ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qilish mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zi erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlarining muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Bu yoshdagi

bolalarda musobaqaga kirishish motivi doimiy extiyoj sanalib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davrida boshlanib, kichik maktab hamda o'smirlik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar kattalarning u haqidagi bergan baxo va fikrlariga qarab, o'z-o'ziga beradigan baxosi, asosan, to'g'ridan to'g'ri o'qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bog'liq. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi tasirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalashga yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu davr bolaning turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiyxususiyatlarini yuzaga kelish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan birgalikda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlari mustahkamlanib boradi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan ishidan zavq olsagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa unda asta sekinlik bilan boysunuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda bazi salbiy hislatlarini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki hayotiy tajribalarni kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil ishlarni ko'proq buyurish va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shunindek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir ishni mustaqil, ijtimoiy vazifa bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktab yoshidagi bola o'zining individual xususiyatlarini anglaydi. Bolani o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzulishiga beradigan baxosi ham o'z-o'zini anglashida kata ahamiyatga ega. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz tuzilishiga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Ular o'zlarining o'quv faolayati jarayonida o'zlaridagi xulq-atvori va faoliyatini o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobilyati rivojlanadi, ongli ravishda bir

fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishni qaror toptirishga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorini motivlashtirishi ham ozgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Ahloqiy his tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolaning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun "Bola boshidan" kabi maqollar xalq o'g'zaki ijodida ko'plab uchraydi. O'smirlilik davrinig boshlanishiga kelib juda ko'pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularni bilish jarayonlarida ham ko'zga tashlanadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ayrim o'quvchilarning umumiy va mahsus layoqatlari ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Bu yoshdagi bolalarda diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq to'liq rivojlanib bo'lganligi uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Ma'lumki, o'quvchi shaxsini shakllantirish faoliyatini namunali yo'lga qo'yish uchun ularning xarakter xislatlari va shaxsiy xususiyatlarini maqsadga muvofiq tarkib toptirish ayni muddaodir. Har bir o'quvchini individual ahloqiy jihatdan aniqlagandan keyin alohida olingan subyekt bilan individual munosabatda bo'lish imkonini beradi. 8-10 yoshli bolaning shaxsiy fazilatlarini beqaror, dunyoqarashi sodda, tashqi taassurotlarga tez beriluvchandir. Buyuk allomalar ta'kidlagalaridek, kishining xarakteri hammadan ko'proq uning hayotining dastlabki bilimlarida tashkil topadi va mazkur xislatlatida namoyon bo'lgan sifat mustahkam o'rnashadi va bolaning mustahkam tabiatiga aylanadi. Bolaning ikkinchi tabiatida ijobiy xis-tuyg'ularni, shaxs fazilatlarini tarkib toptirishda, yuksak insoniy sifatlarni ularda shakllantirishda barcha ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatning ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz qolgan holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Bolaning "Ego"

muvofiqligi endi bunday ifodalanadi: “Men” – men nimaga oʻrgangan boʻlsam. Bolalar maktabda oʻqib, faol ishtirok anglangan tartib – intizom qoidalariga qoʻshiladi. Maktab tartib-qoidalari bilan bogʻliq boʻlgan odam mukammal ijrochidir.

Bu davrning qaltisligi shundaki, oʻz-oʻzidan qoniqmaslik hissini, oʻz qobiliyatlari yoki tengdoshlari orasidagi mavqeidan shubhalanish tajribasizlikni namoyon qilishdan iborat.” Z. Freyd boyicha bu yosh davri: Latent bosqich – jinsiy sokinlik 6-7 yoshdan 12 yoshgacha oʻsmirlik yoshi boshlangungacha davom etadi. Asosiy energiya kuchi oʻqish, sport, bilishga intilish asosan oʻzini jinsidagi tengdoshlari bilan doʻstlashishga yoʻnaltiriladi. Freydning odamni jinsiy shakllanishidagi bu uzilishining ahamiyatini oliy insoniy madaniyatni rivojlanishi uchun sharoit sifatida alohida taʼkidlaydi. Oʻquv faoliyati kichik maktab yoshidagi oʻquvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Oʻquvchining ushbu yosh davrida oʻqtuvchining har bir aytgan soʻzi, xar bir xatti- harakati, taʼsir oʻtkazish uslubi uning uchun haqiqat mezon boʻlib qoladi. Chunki oʻquvchilar oʻz oʻqtuvchilariga juda qattiq ishonadilar, ularning fikr va mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik taktdan oʻta taʼsirlanadilar, qoʻygan talablariga qatʼiy amal qiladilar. Ana shu tomondan pedagog bergan barcha vazifalarni, yaratilgan muammoli vaziyatlarni hal qilishga intiladilar, ularni oʻz vaqtida ado etishga intiladilar. Taʼlim olish vaqtida hal etilmagan muammolar, qiyinchiliklar, oquvchilarga bilim, koʻnikma, malakalarning yetishmasligi oqibatida oʻquv faoliyatidagi shaxslararo munosabatlar yanada taranglashadi. Oʻquvchilar oldiga ular mustaqil hal etishi lozim boʻlgan vazifalar qoʻtiladi. (oʻz bilimlarini sinash va taqqoslash, taʼlim tizimidagi yangi shart – sharoitlarga moslashish, avval bitta pedagog topshiriqlarini bajargan boʻlsa, Yuqorida aytib oʻtilgan vazifalarni toʻgʻri bajarilishi, oʻqituvchining oʻquvchilar bilan mazmunli suhbat uyushtirishi, ularda chuqur taassurot qoldiradi va faollik koʻrsatishga undaydi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarni shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonida yuksak samaraga erishish uchun ularning yosh individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish taqazo qilinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z. Isaqov O'zbekistonda sog'lom avlodni shakllantirishning ijtimoiy, pedagogik – psixologik asoslari.- Toshkent.: TDPU 2014.
2. E. G'. G'oziyev Ontogenez psixologiyasi.- Toshkent.: 2010.
3. Referat.uz

---

## KASBGA YO'NALTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Muqimova Gulchehra Jumanazarovna*  
*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 40-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada kasbga yo'naltirish va uning ijtimoiy psixologik yechimlari hamda amaliyotchi psixologlarning bundagi o'rni haqida bir qator muammolrga yechimlar, masala yuzasidan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasbga yo'naltirish, o'quvchi, ta'lim, qobiliyat, yoshlar, jamiyat, mutaxassis, ijtimoiy hayot.

Barchaga ayonki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi.



Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. Y.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritirib, Y.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir - deb hisoblangan.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi. Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro

aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar. Keyingi kasblarning tizimlash qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Talab etiladigan qobiliyatlar bo'yicha kasblarni tizimlash bo'yicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Dastlab, 1953 yilda D Paterson tomonidan taklif etilgan. Kasblar tizimlashga to'xtalib o'tamiz. U juda keng tarqalgan bo'lib, tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlar tashkil etadi. Minnesota Occupational Rating Scale yordamida kasbshunos psixologlar tomonidan 432 ta kasb tanlab olinib, quyidagi 7 ta guruhga ajratiladi. Akademik, mexanik, ijtimoiy, diniy, musiqaviy, artistlik va jismoniy guruhlardir. Bitiruv ishi natijalarini umumlashtirish natijasida 432 kasbni 214 ta namunaga keltirildi, ulardan 137 tasi bitta kasb mutaxassislikka qolgan 77 tasi ikkitadan 18 tagacha, mutaxassislikni birlashtiradi. E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi ham keng tarqalgan. 15 Mehnat obektiga ko'ra 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson – tabiat. Bu tur namoyondalari o'simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agronom, zootexnik, vetenar, mikrobiolog.

2. Inson – texnika. Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob'ektlari bilan ishlashadi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3. Inson – inson. bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o'qituvchi va boshqalar.

4. Inson - belgilar tizim. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan, dasturchi, chizmachil - kartagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muqarriri.

5. Inson - badiiy obraz. hodisalarni badiiy aks etishi dalillari - mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va boshqalar.

Bu beshta kasb turlari maqsadlar belgisiga ko'ra 3 ta sinfga bo'linadi. 1. Gnostik kasblar (G) (qadimgi yunonchadan "gnosis" bilim); 2. O'zgartiruvchi kasblar; 3. Qidiruvli

kasblar; Asosiy ish qurollariga ko'ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin. 1. Qo'l mehnati kasblari; 2. Mashina qo'l mehnati; 3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo'llanishi bilan bog'liq kasblar; 4. Funktsional ish quroli bilan bog'liq kasblar. Mehnat sharoitlariga ko'ra, YE.A.Klimov kasblarni 4 guruhga bo'ladi. Maishiy mikroiqlimga xonakiga yaqin ish. Har xil ob-havo sharoitida ochiq havoda bo'lish bilan bog'liq kasblar agranom, payvandchi, avtonazorat inspektori. Odatiy bo'lmagan sharoitlarda balandlikda, suv tagida, yer tagida baland past darajalarda ishlash: havvos, o't o'chiruvchi va hokazo. Insonlar sog'ligi, hayoti uchun yuqori mas'uliyat sharoitida ishlash: moddiy qadriyatlar, bolalar boqchasi tarbiyachisi, o'qituvchi, tergovchi. Shartli belgilarni qo'llagan holda, kasblar dunyosi "xaritasini" va ma'lum kasbning na'munaviy formulasini tuzish mumkin. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ko'pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo'lsam ekan yoki qaysi sohaning mutaxassisi bo'lsam ekan? – degan savolni o'z oldilariga qo'yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o'quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib etmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunday misollarni keltirib o'tadigan bo'lsak juda ko'p, aslida.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
2. [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz)
3. Psycholog-servis.org

## O'SMIRLARDA DELIKVENT XULQ KO'RINISHLARINI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna  
Farg'ona Davlat Universiteti  
Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, ularda delikvent xulq ko'rinishlari kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik omillari hamda profilaktik ishlar samaradorligiga erishish.

**Kalit so'zlar:** delikvent xulq, tajovuzkorlik, deviant xulq, ruhiy profilaktika.

Oilada bola shaxsini shaxs sifatida shakllanishiga, uning rivojlanishida har bir yosh davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari va qonuniyatlari mavjud, ularning shaxslararo munosabatlar orqali kamol topishi, kelajakda qanday inson bo'lib etishishi ko'p jihatdan unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar aniqlangan.

Har bir shaxs har kuni ijtimoiy istalmagan axloqning turli-tuman ko'rinishlari-tajovuzkorlik, zararli odatlar, qonunga zid harakatlar bilan to'qnash kelishi tabiiy. Shu kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi pedagog, psixologlar ko'p yillardan beri qator savollarga javob izlamoqdalar. Deviant xatti-harakatli bolalar, o'zini o'zi boshqara olmaydigan bolalar hech narsadan tap tortishmaydi, ular uchun qonun qoidalar yo'q, ular o'qituvchilarni ham, ota-onasini ham tan olmasligi mumkin. Bunday o'smirlar bilan o'z vaqtida chora ko'rilmasa, o'z hohish istaklarini jilovlay olmasa, bunday bolalar katta bo'lganda nevrotizm, psixopat yoki ba'zi hollarda qonunbuzar bo'lib etishishi mumkin. Shu boisdan ham hozirgi kunda ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik-psixologik nuqtai nazardan qarovsiz qolgan, tarbiyasi og'ir, tartibbuzar va huquqbuzarlikka moyil xatti-harakatli yoshlar bilan tarbiyaviy va profilaktik ishlarni olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya oiladan boshlanib, uzluksiz ta'lim muassasalarida rivojlantiriladi.

Oilada farzand tarbiyasidagi salbiy holatlar bilan bog'liq muammolar o'zbek va chet el olimlari tomonidan o'rganilgan. O'rganilgan tahliliy manbaalarda

o'smirlik yoshida deviantlik xulqqa ega masalalarda , eng avvalo ota-onaning destruktiv munosabati, oilaviy muloqotdagi qarama qarshiliklarni keltirib chiqarishi aniqlangan. Ayniqsa bu holat nohush oilalarda kuzatilgan. Har bir inson individual psixologik xususiyatlarga ega, lekin oiladagi munosabatlar qaysidir bolani xarakteridan kelib chiqib ko'niktirsam , boshqasi uchun esa og'ir qalb jarohatlanishi va ruhiy kasalliklar sababchisi bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda ko'pchilik ota yoki onalar Rossiya va xorij davlatlariga ishlash maqsadida ketgan. Bu kabi sharoit o'smirlarni turli tashqi omillardan saqlay oladimi. Nazoratni internet aloqa va vositalari orqali amalga oshirish sun'iy ta'sir turiga kiradi. Real vaziyatda ota-onalarning o'zaro va farzandlari bilan munosabatlari muloqotning mazmuni va xarakteriga ta'sir qilib, muloqot malakalari va munosabatlarini korrektsiya qilish, rivojlantirish imkoniyati tug'iladi. Agar oilada shaxslararo munosabatlar ijobiy bo'lsa oilaviy muloqot konstruktiv o'ziga jalb etadigan va tomonlarning qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Agar munosabatlar nizoli, emotsional salbiy bo'lsa, u holda oilaviy muloqot ham negativ tusga ega bo'ladi.

Oilaviy tarbiyaning adekvat bo'lmagan usullari ularda nevroitik, ijtimoiy qabul qilinmagan shaxs sifatlari shakllanishiga ,o'smirning jamiyatga moslashishida qiyinchiliklar paydo bo'lishiga olib keladi. Rossiya olimlari (J.Boulbi, I.S. Kon, E.O.Smirnova, A.S. Spivakovskaya) tomonidan ota-onalar va ularning farzandlari o'rtasidagi noto'g'ri psixologik munosabatlar natijasida yuzaga keladigan tarbiyaning bir necha xato tarbiya usullari ajratib ko'rsatiladi.

Deviant xulqli o'smirga ko'rsatiladigan yordam ikki yo'nalishda bo'ladi. O'smir yoshdagilar bilan psixologik profilaktika ishini olib borishning turli shakllari mavjud.

Birinchi shakl- ijtimoiy muhitni tashkil qilish. Uning asosida atrof-muhitni deviant xulqli o'smirlarga bo'lgan ta'siri haqidagi tasavvurlari yotadi. Atrofdagi muhitga ta'sir qilib, shaxsni salbiy xulqini o'zgartirish mumkin. Ushbu shakl negizida sog'lom turmush tarzini, jismoniy tarbiyani, sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish bilan deviant xulqqa bog'lanib qolishning oldini olish ham mumkin.

Ikkinchi shakl bo'yicha ruhiy profilaktikani olib borish usuli-axborot etkazish. Unda turli qiziqarli ma'ruzalar, videoroliklar, davra suhbatlari, maxsus adabiyotlardan foydalaniladi.

Uchinchi shakl ijtimoiy zarur bo'lgan ko'nikmalarni faol o'rgatishni singdirish. Bu shakl bo'yicha ishlashda guruhlarda trening o'tkazish usulidan foydalaniladi.

To'rtinchi shakl deviant xulqqa muqobil xulq-atvorni shakllantirish.

Deviant xulqli o'smirlar bilan ko'proq guruhiiy psixokorreksion dasturlar asosida ishlash tavsiya etiladi. Chunki guruhda kuchli ijtimoiy ta'sir, imitatsiya fenomeni orqali kerakli ijtimoiy psixologik bilim ko'nikmalarni o'smirlarda nisbatan osonroq shakllantirish mumkin. Asosiysi , guruhiiy faoliyat xulqi og'ishgan o'smirlar ucnun kerakli bo'lgan jamoada ishlash, kommunikativ kompetentsiyani , adekvat ijtimoiy shaxs axloq xususiyatlarini vujudga keltiradi.

O'smirlarda delinkvent xulq-atvorni kelib chiqishida ham ijtimoiy vaziyatlar muhim rol o'ynaydi. Uni shakllanishga masalan, oilada ota-onalarning ichkilikbozliklari, antisotsial oila yoki guruhlar, nazoratsizlik, noto'liq oila, oilaviy nizolar, boshqalar bilan bog'liq surunkali ixtiloflar sabab bo'ladi. O'smirlik davriga xos delinkvent xulqni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarni o'z vaqtida aniqlash, uni bartaraf etishning oqilona yo'llarini ajratish, pedagog va ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish, psixolog tomonidan ta'lim sub'ektlari bo'lmish pedagog, ota-ona, o'smirlar guruhida psixologik korreksion tadbirlarni tashkil etishni talab qiladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishida moddiy yetishmovchilik ko'pincha sabab sifatida emas, balki xulq og'ishining kelib chiqishi uchun qiziqish va shart-sharoit tarzida xizmat qilganligi kuzatiladi. Demak, aytish mumkinki, bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishida iqtisodiy yetishmovchilik omili asosiy sabab sifatida namoyon bo'lmaydi. U faqatgina xulq og'ishining kelib chiqishi uchun muayyan shart-sharoit sifatida xizmat qiladi xolos. Ayrim oilalarda bolalar va o'smirlarga yetarlicha shart-sharoit yaratib berilmasligi hamda ular faoliyatini cheklash, ularda infantillik, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishi kabilariga olib keladi. Bugungi o'smirlarning istak-ehtiyojlari oldingi o'smirlarga qaraganda ancha o'sgan. Ular yaxshi kiyinishini, dam

olishini, turli joylarni ko‘rishini, magnitolo yoki videotexnikalarga, uyali telefonga ega bo‘lishni xoxlaydilar. Oilada esa bularga ega bo‘lishlikka imkoniyat mavjud emas. Natijada ushbu ehtiyojlarni qondirish yo‘lida bolada g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni bajarish istagi paydo bo‘ladi. Bunday istaklar bolani o‘z- o‘zidan g‘ayri qonuniy harakatlarni bajarishiga majbur qiladi. Ma‘naviy olami tor, dunyoqarashi va aqliy taraqqiyoti o‘ziga yarasha o‘smir bunday paytda o‘z ehtiyojlarini qondirishning g‘ayri qonuniy tomonlarini izlaydi va o‘g‘irlik, yo‘lto‘sarlik, bosqinchilik jinoyatlariga qo‘l uradi. Ko‘pincha bunday holatlarda bolalar va o‘smirlar qonuniy yo‘l bilan pul topishni, mehnat qilib boylikka erishishni o‘ylab ham ko‘rmaydilar. Natijada bunday o‘smirlarda g‘ayriqonuniy xulq-atvorning kelib chiqishiga zamin yaratiladi .

O‘smirning fikr va qiziqishlarini jamoaning qo‘llab-quvvatlamasligi yoki beparvoligi uni 12 qonunbuzarlikka undaydi va xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada o‘smir uchun kelajak rejalarining poymol bo‘lish xavfi tug‘iladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Asadov Yu, Musurmonov. R. O‘smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari. Toshkent : 2011 y.
2. Atadjanov. M , D.A.Saliyeva. “Hulqi og‘shgan bolalar psixologiyasi”. Qo‘qon. 2020y.
3. Davletshin M.G. taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Toshkent. 1974.
4. Кондрашенко В.Т. Девиантное поведение и подростков. Минск, 1988.
5. Mendelevich V.D. Deviant xulq-atvor psixologiyasi.M: Med. Matbuot, 2001-432.

## INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR: TEMPRAMENT VA XARAKTERNING O'QUVCHILARDA O'RGANILISHI

*Madinaxon G'aniyeva Xamidjonovna*  
*Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi 9-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari va ularni o'rganishda amaliyotchi psixologning o'rni haqida bir qator imliy-psixologik ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib bu ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

**Kalit so'zlar:** Yosh avlod, o'quvchi, temperament, xarakter, oila, xususiyat, tarbiyalash, ota-ona, tarbiyaviy ish.

Har bir o'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterni tarbiyalashda katta mas'uliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar, bolalar boqchalari, kasb-xunar kollejlari va internat-maktablar tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalash shundan iboratki, tarbiyachi maktab o'quvchisiga namuna bo'lishi mumkin bo'lgan kishilarni bolaga, o'quvchiga ataylab ibrat qilib ko'rsatadi; shu kishining qilayotgan ishlari, xatti-harakatlariga tarbiyalanuvchi e'tiborini jalb etadi va bu ish xatti-harakatlarning qaysi biri yaxshi, ijobiy, qaysi biri salbiy, yomon ekanligini aytadi. Tarbiyachi bolaning xatti-harakatlaridagi yaramas qiliqlarni yo'qotish va yaxshi, foydali odatlarni mustahkamlashga yordam beradigan vositalarni izlab topadi va ularni tatbiq etadi.

Tarbiyaviy ish yana shundan iboratki, pedagog tarbiyalanuvchida muayyan ijobiy sifatlarni o'z xarakterida o'z-o'zi paydo qilish zaruriyati ongini uyg'otishi va bu ongni o'stirishi lozim. Pedagog bolalarda xarakterni tarbiyalayotganida ularda tarbiyalanadigan temperamentni bilishi, har bir temperamentning ijobiy va salbiy tomonlarini bilishi zarur. Agar temperament va uning tug'ma hususiyatlari o'z xolicha qolaversa, odamda yomon xarakter xislatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, xolerik temperament odamni cho'rtkesar, qo'pol, o'zini tuta olmaydigan qilishi mumkin. Sangvinik temperament sabotsizlikka, diqqatni bir joyga qo'ya bilmaslikka sababchi bo'lmog'i mumkin bo'lganidek, flegmatik temperament sustkashlikka, loqaydlikka olib borishi mumkin.



Melanxolik temperamentli kishida o'z kechinmalariga ortiqcha berilishlik, pismiqlik paydo bilishi mumkin. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan «almashtirishdan» iboratdir. Masalan, xolerik temperamentli bolalarni tarbiyalashda ularni o'ylab ish qilish, o'zini tuta bilish, atrofdagi odamlar bilan yaxshi muomalada bo'lishga odatlantirish va ularda shu sifatlarni o'stirishga alohida e'tibor berish lozim. Sangvinik temperamentli bolalarni sabotli bo'lishga, diqqatini bir joyga qo'ya bilishga, ishga qunt qo'ya olishga, boshlagan ishni oxiriga yetkazishga odatlantirmoq kerak. Melanxolik temperamentli bolalarni odamga ko'proq aralashishga, jamoachilikka, ildam harakat qilishga odatlantirmoq, ularda shu sifatlarni tarbiyalamoq kerak. Flegmatik temperamentli bolalarni tashabbuskorlikka, faollikka, kishilarga el bo'lishga, quvnoqlikka odatlantirmoq lozim. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotmoq uchun, ijobiy tomonlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun tarbiyalanuvchini o'z temperamentini o'zi idora qila bilishga o'rgatish lozim, uni shunday tarbiyalash kerakki, u temperamentini o'zi idora qilish zaruriyatini o'zi anglasin va haqiqatan uni idora qila olsin, temperamentiga bo'ysunmaydigan bo'lsin.

O'z temperamentini idora qila bilish xarakterning muhim ijobiy xislatidir. Xarakter tarbiyasini faqat temperamentning salbiy tomonlarini ayrim ijobiy sifatlari bilan almashtirishdan iborat deb tushunish yaramaydi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog, avvalo muayyan idealni yoki davrimizning olijanob kishilari obrazini asos qilib olmog'i lozim. Bu ma'naviy boylikni, ahloqiy soflikni va jismoniy kamolotni o'zida garmonik holda mujassamlashtirgan yangi odamlardir. Bunday yangi odam xarakterining xislati ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, ahloqiy poklik, oddiylik va kamtarlikdir. Bizga yuksak ma'naviy fazilatiga ega bo'lgan, halol vijdonli kishilar, tetik va xushchaqchaq kishilar, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, mustaqil jamiyat qurish yo'lida har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan, ularni bartaraf qilishga tayyor turgan kishilar kerak. Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyaviy roli nihoyat kattadir. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tanho hayot kechirmaydi, muayyan bir jamoada, chunonchi, muayyan oilada, maktabda, sexda, kolxozda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi zvenodir. Odamning faoliyati o'yin, o'qish va

mehnati xuddi mana shu jamoada voqye bo'ladi. Jamoa shaxsning eng yaqin konkret muhiti bo'libgina qolmay, balki shaxsni tarbiyalaydi ham. Kishi xarakterining kerakli ijobiy xislatlari faqat jamoadagina tarbiyalanmog'i mumkin va haqiqatan ham jamoada tarbiyalanadi. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir etgandagina, ijobiy natijalarga erishmog'i mumkin. Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iylik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar boqchasidayoq bola o'yinlarida tarkib topa boshlaydi. Bolada maktabgacha tarbiya yoshida tarkib topa boshlagan xislatlar maktab jamoasida o'sadi va yanada yaxshiroq mustahkamlanadi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom-sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib yetishadi. Xarakter maktab ta'lim-tarbiyaviy ishlari va o'qituvchining har tomonlama ta'sirida, o'qituvchi boshchilik qilgan o'quvchilar jamoasi, kamolot yoshlar tashkilotlari ta'sirida, ijtimoiy foydali mehnatda tarkib topadi. O'rtoqlari bilan yaqindan aloqada bo'lishda bolalarda o'z shaxsiy intilishlarini jamoa irodasiga bo'ysundirish ko'nikma va malakalarini o'stiradi, jamoachilik – o'rtoqlik va do'stlik hislarini taraqqiy ettiradi. Keyinroq –maktabni (yoki oliy o'quv yurtini) bitirgandan keyin egallangan ixtisos va mehnat jamoasi inson xarakterining tarkib topishiga o'zini tarbiyalovchi ta'sirini ko'rsatadi. Maktab va mehnat jamoasi sharoitida jamoa oldida qabul qilingan qarorni ( berilgan va'dani) yoki majbo'riyatni bajarish yuzasidan olingan o'zaro va shaxsiy majbo'riyatni xarakterni, jumladan, xarakterning irodaviy belgilarini tarannum ettirishning muhim vositasi deb hisoblamoq lozim. Kishi xakteri faqat pedagoglar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir etishning samarasi bo'libgina qolmay, balki o'z-o'zini tarbiyalashining ham mahsulidir. Shu sababli har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xakteri va uning ayrim sifatlari uchun o'zi javobgardir. O'z xakterini tarbiyalashda u kishi avvalo yaxshi fazilatlarini, shaxs idealini o'zida tarbiyalab yetkazishni ko'zda tutmog'i lozim. Shu bilan bir vaqtda kishi o'z xakteridagi salbiy tomonlarni o'zi tan olishi kamchiliklariga o'zi iqror bo'lishi kerak. Maktab o'quvchisi xakterining tarkib topishida o'z-o'zini tarbiyalash katta o'rin egallaydi. O'z-o'zini tarbiyalashga harakat qilish ko'p jihatdan atrofdagi odamlarning ta'siri va avvalo pedagogning ta'siri ostida tug'iladi va taraqqiy

etadi. Tarbiyaviy ish o'sib kelayotgan yosh avlodda, jumladan o'z xarakterida muayyan ijobiy xislatlarni o'zi tarbiyalash zaruriyatini paydo qilish va o'stirish hamdir.

O'smirlarda o'z-o'zini anglashning tarkib topishi asosida kishi shaxsiga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zlarida paydo qilish masalasi tug'iladi. O'smirlar ko'pincha o'z harakatlarida faqat katta yoshdagi kishilarga yoki o'rtoqlariga taqlid qilibgina qolmay, balki har bir ishni o'z hohlaganlaricha qilishga, mustaqillikka, boshqalarga o'xshamaslikka intiladilar. Albatta, bu davrda ham bolalarda mustaqillikni uyg'otish va uni qo'llab-quvvatlash bilan birga pedagoglar bola shaxsining tarkib topishi jarayonida ularni doim yo'lga solib turishlari kerak bo'ladi. Lekin tarbiyachilik bunda o'smirlarning o'z ijodiy faoliyatlarini, tashabbuslarini ustalik bilan yo'lga sola bilishlari va ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishda ko'rsatayotgan o'rinli qat'iyatliklarini bo'g'ib qo'ymasliklari lozim. O'smirlardagi faollik va mustaqillikka bo'lgan intilishini tegishli izga solmoq kerak. Kishi shaxsiga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zida paydo qilishga intilish yuqori sinf bolalarida yana ham kuchliroq bo'ladi. Bunday intilish o'z-o'zini anglashning yana ham o'sib borishi, ulardagi dunyoqarashning tarkib topishi va bu yoshdagi bola shaxsida g'oyaviy yo'nalishning shakllanishi munosabati bilan ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Katta yoshdagi maktab bolalari ahloq va xarakterning ijobiy xislatlari to'g'risidagi masalalar bilan juda ham qiziqadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ayzenk M. Psixologiya dlya nachinayushix. "Piter", 2000.
2. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2003y.
3. X.Alimov. Milliylik va ijtimoiy ruxiyat.-T.:2002

## YOSHLARNI MA`NAVIY QADIRYATLAR ASOSIDA TARBIYALSHNING O`RNI VA AHAMIYATI

*Xakimova Nargiza*  
*Sirdaryo tuman 14-maktab psixologi*

**Tayanchso`zlar:** Yoshlar, milliy qadriyatlar, tarbiya, ahloqiy tarbiya

**Keywords:** Youth, national values, education, moral education

**Ключевые слова:** Молодежь, национальные ценности, образование, нравственное воспитание

**Annotatsiya:** Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot» nomli ilmiy ishlar to'plamida «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim», deb ta'kidlab o'tilgan.

Qadriyatlarni teran anglagan yoshlar ota-onalari yaratib bergan imkoniyatlar va sharoitlardan foydalanibgina qolmay, o'zlari ham kelajaklari uchun harakat qiladilar. Bu borada mukammal bilim olib, uni hayotga tadbiq eta bilish katta ahamiyatga egadir. Qadriyatlar uyg'unligi insonning komil inson darajasiga yetish uchun intilishida, erkin yashashida, farovon hayot kechirishida alohida vosita hisoblanadi. Qadriyatlarni asrab-avaylash, rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir. Yoshlarda, qadriyatlarni shakillantirishni oiladan boshlashimiz kerak. Agar biz bolalarni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalasak ularda oilaga, vatanga, tabiatga, mexr muhabat shakilanadi, buning natijasida misol uchun oilalarda ajralishlar soni qisqaradi, hatoki ekologik muamolarning ham oldini olish mumkin ilmiy jihatdan mehr tushunchasi falsafa, psixologiya, teologiya, sotsiologiya kabi bir qator fan sohalari bilan bog'liq, biz masalaning ijtimoiy jihatiga to'xtalamiz. Umuman olganda insondagi mehr tuyg'usining ijtimoiy ahamiyati nimalarda o'z aksini topadi? Shaxslararo munosabatlarda u nimalarda namoyon bo'ladi? Jamiyatda mehr tuyg'usini qanday oshirish mumkin? Bu barcha davrlarda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Mehr - bu insonning borliqqa nisbatan eng yuksak va samimiy muhabbati. Jamiyatda shaxsning individual yuksak insoniy tuyg'ular - emotsiyalarini

ta'sirchan, doimiy asosda shaxslararo ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishi, deya ta'rif berish mumkin. Oilaviy munosabatlarda ma'naviy ehtiyojga asoslangan aloqalardan biri-muloqot qilish jarayoni muhim hisoblanib, shaxs shakllanishida katta rol o'ynaydigan namuna va taqlid singari shu darajada hal qiluvchi vazifani ado etadi. Chunki, kishi o'zaro shaxslararo munosabatlar jarayoniga kirishishi bilangina atrof-muhitda sodir bolayotgan voqeiliklardan xabardor bo'lib, ular o'rtasida axborot ayirboshlash yuzaga keladi. Mehribonlik esa jamiyatda shaxsni muayyan muhit – xotirjamlik, ishonch, samimiyat, erkinlik, baxtiyorlik hissini tuyish kabi tuyg'ular qamrovida bo'lishiga xizmat qiladi. Bular shaxsga baxt hamda yashashga ishonch, ezgulikka umid, intilish hissini uyg'otadi. Ayni paytda ijtimoiy munosabatlarda kelishmovchilik va nizoli jarayonlarni oldini olibgina qolmay, balki hamfikrlik, hamkorlikni rag'batlantiradi. Insonga mehr yetishmovchiligi jamiyatda bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bola xarakteridagi tajovuzkorlik (agressivlik)ni keltirib chiqaruvchi omillardan biri – onalik mehriga zorlik, ota – onalar tarbiyasiga muhtojlikdir<sup>16</sup>. Jamiyatda mehribonlik muhitini yanada mustahkamlash, shaxslararo munosabatlarda, ayniqsa bugungi kunda ota-onalarning farzandiga, farzandlarning ota-onalariga, bobo- buvilarning nevaralariga, qaynonani keliniga, aka-ukalarni, qarindoshlarni, umuman jamiyat a'zolarining bir-birlariga nisbatan mehrini oshirish jamiyatda barqarorlikni yanada mustahkamlaydi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo'lmish boshlang'ich ta'limdan boshlash ahamiyatli va foydali hamda istiqbolli ekanligi hozirda hech kimga sir emas. Chunki, bu orqali o'quvchilar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini egallagan, vatanning istiqbolini o'ylaydigan, vatan ravnaqiga, yurt tinchligiga va xalq farovonligiga munosib hissa qo'sha olish mumkinligini ongli ravishda his qila oladilar, bu tabiiyki, boshlang'ich ta'lim mazmuniga katta mas'uliyat yuklaydi. Muammoning yechimini boshlang'ich sinf o'quvchilari ongi va qalbiga ma'naviy va milliy qadriyatlarni singdirish orqali hal qilish mumkin. Bunga sabab mazkur qadriyatlar o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashi va intellektual salohiyatini kengaytirib, ularning

QiyomiddinNazarov «Falsafa: qomusiy lug'at»

Dj.,ServonD.Psixologiyalichnosti. – M.: Piter, 2003.Giddens Entoni. Sotsiologiya.Oliyo'quvyurtlariuchuno'quvqo'llanma. – T.: Sharq, 2002.

tashabbuskorlik va fidoyilik hamda ijodkorlikka bo‘lgan moyilliklarini yanada oshiradi. Zotan, donishmandlarimiz tomonidan qoldirilgan va bizgacha yetib kelgan boy milliy va ma'naviy merosimiz hamda umuminsoniy, jumladan, milliy qadriyatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirish kelajakda ularning ma'naviy barkamol shaxs bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o‘quvchilarning turli tahdid va salbiy ta'sirlar domiga tushib qolishining oldi olinadi, chunki, ma'naviy jihatdan yetuk va intellektual salohiyatli o‘quvchilar hech qachon turli salbiy ta'sirlar domiga tushib qolmaydi. Ma'lumki, ta'lim tizimida milliy qadriyatlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar har bir millat farzandiga o‘zligini anglash, xalqi, vatani uchun sadoqatli bo‘lib yetishishi uchun eng muhim tarbiya manbai bo‘lib hisoblanadi. Zero, o‘zini anglamagan, o‘z millatini, milliy qadriyatlar va an'analarini bilmaydigan inson o‘zgalarni ham, o‘zga millat an'analarini ham tushunib, qadrlay olmaydi milliy qadriyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kundalik faoliyatida odat, an'ana tusiga kirib qolgandagina, u ma'naviy shakllanishga bevosita ta'sir etadi. Qadriyatlarning bolalarga bo‘lgan ta'siri kattalarga bo‘lgan ta'siridan ancha ustun turadi, chunki kattalarning dunyoqarashi va e'tiqodlari, odatlari qaror topgan bo‘lsa, bolalarda endilikda ularning poydevori qo‘yilayotgan bo‘ladi. A.N. Leontev.. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z tabiatiga ko‘ra ta'sirchan bo‘lganliklari uchun ularga borliq va undagi voqealarning ta'siri kuchlidir. Borliqdagi voqea va hodisalar turli-tuman bo‘lganidek, qadriyatlarning shakl va mazmuni ham rang-barangdir. Ayniqsa, o‘zbek oilalarida qadim-qadimdan meros sifatida o‘tib kelayotgan o‘g‘it va nasixat qilish, rivoyatlar aytish usuli bolalarda insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi; insonlarni inson tomonidan qadrlash; insoniylik burchini anglash; halol va rostgo‘y bo‘lish; yaxshilik haqida teran fikr yuritish kabilar meros sifatida alohida ahamiyatga ega. Halq pedagogikasida quyidagi vositalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yo‘lga qo‘yish mumkin xalq milliy o‘yinlari; milliy qo‘shiq va laparlar; milliy raqslar; an'anaviy marosimlar; sayllar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli; usullaridagi musoboqalar, tadbirlar milliy qadriyatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “odobnoma”, “o‘qish”, “atrofimizdagi olam”, “mehnat”, “jismoniy tarbiya”, “musiqa”, “tasviriy san’at” kabi

darslarda milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar asosida tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, mana shunday tarbiya manbalariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, imkoniyatni kuchaytirish va kerakli shart-sharoitlarni yaratish o'quv muassasalarida pedagoglar, oilada esa har bir ota-onaning muqaddas burchidir. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga Ota-Onalarning farzandiga qancha vaqt ajratishlari bola bilan ishlashlarini taqozo etadi. Yoshlarimiz o'z fikrlash tarziga ega bo'la borgan sari o'zligini, ma'naviy merosimizning ahamiyatini anglay boshlaydilar. Shuning uchun avvalo yoshlarimiz fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Donolik insonni shahardagi o'nta hukmdordan qudratliroq qiladi. Qadriyatlartizimi, ustanovkalar, emotsional munosabatlar xarakteri, bola tomonidan kattalarning qabul qilinishi, xulq-atvorda namoyon bo'ladigan katta bilan bolaning o'zaro munosabati – bola shaxsi rivojlanishida asosiy omillar xisoblanadi. Ma'naviy–ahloqiy tarbiya, ijtimoiy munosabatlari xarakteri, oila, maxalla, milliy urf odatlarga ijobiy munosabat motivlarining shaklanishi o'quvchi ongida milliy g'urur, milliy qadriyatlarni xurmat qilish va o'z millatidan faxrlanish tuyg'ularini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi ma'lumbo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qiyomiddin Nazarov «Falsafa: qomusiylug'at»
2. Karpara Dj., Servon D. Psixologiyalichnosti. – M.: Piter, 2003.
3. Giddens Entoni. Sotsiologiya. Oliyo'quvyurtlari uchun o'quv qo'llanma. Sharq, 2002.
4. Shoumarov G'.B., Muhabbat va oila.
5. Eydemelir E.G, Yustetskiy V.V Semeynayapsixoterapiya “
6. Leningrad” 1989. Entsiklopediyasemeynoy jizni. V 2-x tomax. Donetsk: (Moskva), 1993.

## ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК МАСАЛАЛАРИ

*Хакимова Наргиза*  
*Сирдарё тумани 14-мактаб психологи*

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада, мактабда таҳсил олаётган ўқувчиларни замонавий тарбиясида психологиянинг тутган ўрни ва аҳамияти илмий асосланган.

**Калит сўзлар:** мактаб, ўқитувчи, тарбия, психология, руҳлантириш.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье научно обоснована роль и значение психологии в современном воспитании школьников.

**Ключевые слова:** школа, учитель, образование, психология, вдохновение.

### ANNOTATION

In this article, the role and importance of psychology in the modern education of students in school is scientifically based.

**Keywords:** school, teacher, education, psychology, inspiration.

### Кириш

Таълим ва таълим жараёнида боланинг ривожланиши муаммоси Ёш даврлари ва педагогик психология фанининг асосий масалаларидан биридир. Таълим ва ривожланиш муаммосига доир қатор назариялар ишлаб чиқилган бўлиб, улардан бири: Ақлий хатти-ҳаракатлар, билимлар, малака ва кўникмаларини босқичма-босқич ривожлантириш назарияси (П.Я.Галперин). П.Я.Галперин назарияси бўйича билимларни ўзлаштириш жараёни олти босқични бошидан кечириб, уларга:

1. Мотивация.
2. Тушунтириш.
3. Моддий формадаги хатти-ҳаракатларни бажариш.
4. Баланд овозда хатти-ҳаракатлар ва вазифаларни бажариш.



В.В.Давидов назарияси: Ушбу назария кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг илмий тушунчаларни ўзлаштиришини ташкил қилади. Бунда ўқувчилар томонидан таълим жараёнида назарий тушунчалар тизимини ўзлаштирилиши лозим бўлиб, бу ўз ўрнида хусусийдан умумий билимларга ўтилишини таъминлайди. Қатор назариялар муаммоли таълим билан боғлиқ бўлиб, Л.В.Занков ва А.М.Матюшкин томонидан олиб борилган тадқиқотлар таълимда муаммоли дарсларни ташкил этишга қаратилгандир.

**Асосий қисм.** Таълимнинг психологик асослари муаммоси кўпгина масалаларни камраб олади. Таълимнинг муваффақияти бир қатор психологик омилларга боғлиқ бўлади. Аввало ўқувчининг ўқишга бўлган муносабатига тўхтайлик. Бу муносабат диққатда, ҳис-туйғуларда, қизиқишлар ва иродада, шунингдек, шахснинг тутган ўрни ва фаоллигида намоён бўлади. Таълим мотивацияси ўқувчиларнинг ўқув материални яхшироқ ўзлаштиришига шахсий қизиқишини англатади. Ўқитувчининг фақат моддий қизиқишларини қондириш, ёки ишсиз қолмаслик, қисқаришга тушмаслик учунгина таълим бериши, муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси билан боғлиқ бўлиб, бунда педагогик фаолиятда яхши натижаларга эришиш мумкин эмас. Таълим маҳсулдорлигини оширишдаги дастлабки вазифа уни чуқур ва кўп мотивацияли жараёнга айлантиришдир. Ўқитувчи ўқувчиларни ўқитиш жараёнида ўз ҳаётининг асосий мазмуни ва мақсадини кўра бошлаганида таълим самарали бўлади. Таълим жараёни аввало ўқувчилар диққатини йўлга солишни талаб этади. Дарсларда кўرғазмали куруллардан, ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланиш таълим олувчида ихтиёрсиз диққатни юзага келтиради. Таълим жараёнида таълим берувчининг вазифаси дарсда ишлаш ҳолатини юзага келтиришгина эмас, балки ўқувчиларнинг дарсда ўтиладиган материални идрок этишга тайёр туришларини кузатиш ҳамдир. Дарс жараёнида ўқувчиларнинг диққати ўзгариб туради. Ўқитиш жараёнида бу қонуниятларни назарда тутиш ва ўқувчилар диққатини материалнинг асосий жиҳатларига жалб этиш ҳамда уларни такрорлаш керак. Таълим жараёнининг самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқитувчи томонидан бериладиган кўрсатмаларга ҳам

боғлиқ. Ўқитувчининг роли шандан иборатки, у ўқувчиларга тегишли кўникмани ҳосил қилиши, нимани вақтинча умрбод эсда олиб қолиши кераклигини, нимани бутунлай эсда олиб қолмасдан, фақат тушуниб олиш кифоя қилишини, нимани сўзма-сўз эсда олиб қолиш зарурлигини кўрсатиб ўтиши лозим. Кузатишлар кўрсатадики, бундай кўрсатмалар берилмаганда, ўқувчиларда кўпинча нотўғри тасаввурлар вужудга келади. Ўқитишнинг эмоционаллиги таълимнинг муваффақиятлилигини таъминловчи омиллардан биридир. Таълим жараёни эмоционал жараён. Агар ўқувчиларга берилаётган ахборот уларда ҳеч қандай ҳис-туйғу уйғотмаса, уни ўқувчилар яхшилаб эсда олиб қолмайдилар. Гап ўқувчиларнинг психик ҳолатлари, яъни уларнинг муайян бир пайтдаги кечинмалари ҳақида ҳам бориши керак, албатта. Улардаги қувончли, оптимистик кайфият ўқув фаолиятини жуда самарали қилади. Ўқувчилар эмоционал руҳдаги материални дурустроқ ўзлаштириб оладилар. Ўтказилган тажрибалар ўқувчилар ҳеч қандай ҳис-туйғу уйғотмайдиган материалга қараганда, эмотсионал руҳдаги материални яхшироқ эслаб қолишларини кўрсатади. Ўқитувчи ўқув жараёнининг эмоционал томони ҳақида ғамхўрлик қилиши керак. Бу муаммо жуда муҳим аҳамиятга эга. Чунки, биринчидан, таълимнинг мазмуни ниҳоятда мураккаблашиб, ҳажми эса ғоят катталашиб кетган. Унинг муваффақиятли ўзлаштирилишига эришиш учун ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини кучайтириш лозим. Ижобий туйғулар ўқув меҳнатининг самарадорлигига кучли таъсир этади. Ҳафсала билан бажарилган беғараз мунозара пайдо бўлади, баҳслашилади, бефарқ қараган ёки ундан ҳам салбий муносабатда бўлган ишга эса, ҳеч қандай ҳафсала бўлмайди.

Жамиятимиздаги меҳнат – ҳақиқий ижод, қувонч манбаи. Мактаб ўқувчиларида ўқув меҳнатига ижобий муносабат уйғотиб, меҳнатнинг ҳақиқий ижодга, қувонч манбаига айланишига кўмаклашиши керак. Қадимда греклар жуда ажойиб иборани қўллаганлар: — Ўқувчи – тўлдирилиб турилиши керак бўлган идиш эмас, балки ёқиб турилиши лозим бўлган машъалдир. Бу фикрнинг тагида чуқур маъно бор. Зеро, ўқитувчи биз юқорида таъкидлаб ўтган таълим методлари: муаммоли таълим, қисман изланиш методи ва тадқиқот

методларидан кенг қўлланиши керак. Таълим жараёнини бугунги кундаги асосий талабларидан бири эркин фикрловчи, мустақил тафаккурга эга бўлган шахсни шакллантириш бўлиб, юқорида айтиб ўтилган методлардан фойдаланиш учкунлардан катта машъаллар пайдо бўлишини таъминлаб беради. Психологияда қизиқиш- бу шахснинг ўзи учун қимматли ёки ёқимли бўлган муайян нарса ёки ҳодисаларга муносабатидир. Қизиқишлар шахснинг муҳим ва индивидуал хусусиятларидан бири бўлиб ҳисобланади. Қизиқишлар ўқувчилар ҳаётида катта рол ўйнайди. Улар ўқув фаолиятини фаоллаштирувчи асосий турткилар – мотивлардир. Қизиқишлар мактаб ўқувчисига фан асосларини дурустроқ ўзлаштириб олишларига, ақлий қобилиятларининг ўсишига, билим доирасининг кенгайишига имкон беради ва ўз иродаларини мустақамлашга ёрдам беради. Ирода бу шахснинг ўз олдига қўйган мақсадининг аниқлиги, уни амалга ошириш учун интилиши, мақсад йўлида маълум бир қарорга келиш тезлиги ва уни ўз вақтида ижро этиши билан белгиланадиган сифатидир.

### **Хулоса**

Таълим жараёнида ўқув материалига бўлган диққатнинг барқарор бўлишида иродавий зўр беришнинг аҳамияти ниҳоятда каттадир. Таълимда ирода ўқувчида мактаб ва уйда ўтказиладиган машғулотларга тайёр туришда намоён бўлади. Ўқув материални ўрганиш, эслаб қолиш ва ўқувчининг иродавий зўр беришига боғлиқ. Ирода ўқувчининг фикрлаш фаолиятларида ва ўқув материални ўзлаштиришида акс этади. Ўқув муассасасидаги таълим жараёнининг ўзи ўқувчилардан иродани ўстириш омилларидан биридир. Бунда ўқувчиларнинг кундалик режими, ўқиш ва ақилона дам олишини бир-бири билан тўғри алмаштириб туриш катта рол ўйнайди. Таълим жараёнида билиш жараёнларини шакллантиришга алоҳида эътибор бериш лозим. Зеро, билиш жараёнлари жуда мураккаб фаолият бўлиб, унда жонли мушоҳададан мавҳум тафаккурга, мавҳум тафаккурдан эса амалиётга ўтилади, ана шундан сўнг объектив ҳақиқат билиб олинади. Бу орқали идрок қилиш жараёнига ўтиш бошланади яъни идрок нарса ва ҳодисаларни сезги органларига таъсир этиши натижасида уларнинг киши психикасида яхлит образини пайдо бўлиши бўлиб,

идрок этиш жараёни эса таълимда турли формаларда ўқитувчининг оғзаки ҳикоя қилишида, суҳбат ўтказишда, маъруза ўқишида, кинодарс, телевизион парча, схемалар ва кўргазмали қуроллар кўрсатиш, экскурсиялар ўтказиш, ўқувчининг ўзига дарсликлар ҳамда бошқа қўлланмаларини ўқитиш тарзида ўтиши мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Замонавий таълим асослари тўғрисидаги илмий журнали тўплами.
2. Ёшларнинг инновацион фаоллигини ошириш ва таълим соҳасида олиб борилаётган методлари журнали тўплами.
3. Психология телеграм каналлари.

---

## **МАКТАВ О‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

*Razzoqov Davron Niyozovich*

*Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti Texnologik ta'limi kafedراسи dotsenti,*

*Nafosat Taymurodova Murodovna*

*Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

Mamlakatimizda mustaqillik davrining ilk yillaridan ta'limtarbiyaga katta e'tibor qaratila boshlandi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi – yurtimiz kelajagi uchun munosib kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Ta'lim jarayonidagi islohotlar tufayli qisqa davr ichida O'zbekiston ta'lim sohasida jahondagi yetakchi mutaxassislar e'tirof etgan yutuqlarga erishdi. Kelajak avlodga ta'limtarbiya berishdan asosiy maqsad, pirovard natijada ularni jamiyatga foyda keltira oladigan kasb egalari etib tayyorlashdir. Zero, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish biror-bir kasbni egallash orqaligina amalga oshadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar,

pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma – xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi hodimlarning e'tiborida turgan muammolardandir.

Shu boisdan kasbga yo'naltirish sohasidagi o'z faoliyatida o'zlariga ma'lum bo'lgan metodlarga, muammoga yondoshuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa ba'zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug'diribgina qolmay, kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarning qo'yilishida bir qancha amaliy masalalarni tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababdan ham kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo'naltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning shartidir.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosiga oid e'lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o'quvchilarning e'tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo'naltirishga doir yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarni alohida qaratilish lozim. Bular:

a) yuqori sinflarning o'quvchilarni ishchi kasblarini hisobga olib, umumta'lim maktablari uchun kasbga yo'naltirish tadbirlarini ishlab chiqarish;

b) mintaqa sharoitlarini, milliy an'analarini hisobga olib, umumta'lim maktablari uchun kasbga yo'naltirish tadbirlarini ishlab chiqish;

v) kasbga yo'naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan 5-7; 8-9;

sinflar o'quvchilarning unumli mehnat, politexnik yo'nalishi va kasbiy tayyorgarligi o'rtasida uzviy aloqaning yo'qligi muammolaridir.

Bugungi kunda mehnatga layoqatli aholi, ayniqsa, yoshlar migratsiyasi, ularning chet ellarda ish qidirib, turli jinoiy to'dalar ta'siriga berilib qolayotganligi va bu borada ota-onalar, mahalla faollari hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik ishlari g'oyatda dolzarb masalaga aylandi. Ko'pgina ota-onalar, pedagoglar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ota-ona, o'qituvchi, mahalla faollarining mas'uliyatini e'tirof etishadi-yu, kasb tanlashda – eng muhim mas'ul shaxs, ya'ni o'quvchi haqida deyarli fikr bildirmaydilar. Vaholanki, kasb-hunar tanlash avvalo har bir yoshning o'zi hal qilishi kerak bo'lgan masaladir. Buning uchun katta yoshdagi ustozlar, mahalla-kuy,

oila a'zolari o'smir va o'spirin yoshdagilarga kasb tanlashida adashmaslikka zamin yaratishlari lozim.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishlariga monand, har xil kasblar bo'yicha bilimga kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Shaxsda kasbga yo'naltirish maxsus amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o'quvchining inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi. Shaxs har tomonlama kamol topishi uchun aqliy, jismoniy, ma'naviy, ruhiy jihatdan tarbiyalangan bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan shaxsning shakllanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Kasbga yo'naltirish ishida ijtimoiy muammolar muhim o'rin tutadi. Bular orasida xalq xo'jaligini rivojlantirish va kadr muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq tarzda talabalarning mustaqil mashg'ulotlarda ko'rib chiqishi tavsiya etiladi.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy va taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra ustun.

Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash umuminsoniy ahloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga tayyorlash ta'lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvafaqiyat ko'p jixatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlashiga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining obyektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishni va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi.

Maktab o'quvchilarning kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy muddolarini qondirish lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur,

hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari obe'ktiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalga oshirilmoqda. Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligini ilm-fan, texnikasi va madaniyatini yuksaltirish sohasidagi muvafaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-extiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi, umumiy ta'lim maktabida mehnat politexnika ta'limi sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy xal qilish uchun shart-sharoitlar mavjud.

Yosh avlodda mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishini tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir. Qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo'ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat xarakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shu yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi.

Bu narsa qayta qurish yangi marralarni yil sayin tobora keng avj oldirayotgandir. Birgina O'zbekistonning o'zida yaqin kelajakda bir nechta yangi sanoat va qishloq xo'jalik obyektlari paydo bo'ladi va mavjudlari kengaytiriladi, bularda mehnat faoliyatining yangi turlari va mutaxassisliklar, binokorlar, keng profildagi kasblar paxtakor – mexanizator, chorvador operator, yengil va og'ir sanoat eng yangi zamonaviy korxonalari kasblari va bir qancha yangi obyektlardagi kasblar ommalashib qolgan bo'lib, ular O'zbekistonda xalq xo'jaligi tarmoqlarini belgilab bermoqda. Yangi kasblar va mutaxassisliklar soni yil sayin ko'payib bormoqda.

O'quvchi tanlagan kasb og'zaki tushunchagina bo'lib qolmasligi o'quvchi o'z qobiliyatlarini yangi kasbda og'zaki tushunchagina bo'lib qolmasligi o'quvchi o'z kasbini sinab ko'rishi, ushbu kasb to'g'risidagi tushunchasi qanchalik to'g'ri ekanligini xolisona tekshirib ko'rishi lozim. O'z-o'zidan ma'lumki, bunga o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bilimlarini ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli

mehnat bilan chambarchas bog‘langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin.

Har qanday kasbda eng muhimi uning mehnat borasida mehnatsevarlikni, urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat jo‘shqinligini ko‘chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e‘tiboran bolalarni bo‘lg‘usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunga bolalarning qiziqishlari, mayillari qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak.

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, ijtimoiy, ahloqiy mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma‘lumotni ola turib, shu asosda o‘zlarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashlari

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchi shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi quyidagi manbalar aniqlandi;

Ma‘naviy fazilatlar;

Kasbiy fazilatlar;

Pedagogik bilimlar; 4. Psixologik bilimlar.

Bugungi kasb tanlashga yo‘llash ishlarida shaxs sifatlarini chuqurroq o‘rganish asosida mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning individual imkoniyatlari asosida ta‘lim berish o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Individual yondashuv asosidagi ta‘lim o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko‘ra muayyan kasb-hunar yuzasidan chuqur ma‘lumotlar olishi va kelajakda tanlagan kasbi bo‘yicha kasb-hunar kollejariga o‘qishga borishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda ta‘lim sifatini oshirish uchun barcha fanlarni maxsus joylarda, tabiat qo‘ynida, sayrlar asosida, real vositalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda ta‘limning noan‘anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara, davra suhbat, amaliy konferensiya, seminar va boshqalar muayyan predmetning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish



uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, o'qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A. Muslimov., A.I. Usmanov. Mehnat va kasb ta'limi yo'nalishlari bo'yicha umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish muammolari. Ilmiy ishlar to'plami. Toshkent 2005y
2. I.Karimov, B.U. Olimov Mehnat ta'limiy darslarida fanlararo bog'lanishlar. Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008y
3. Muslimov.N.A,Sharipov.Sh.S. va b. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.Toshkent, 2009.
4. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qoysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent.: 2014 y.
5. <http://www.istedod.uz/>

---

## НОТЎЛИҚ ВА МУРОСАСИЗ ОИЛА БИЛАН ИШЛАШ ПСИХОЛОГИЯСИ

*Оллаберганов Сардорбек Махсуд ўғли  
Богат тумани 28-мактаб психологи*

Маълумки, оила – бу ижтимоий тарихий белгига эга бўлган, муайян тузилишига эга бўлган ижтимоий гуруҳнинг кўринишидир, чунончи унинг аъзоларини қариндош уруғчилик, никоҳ, турмуш шароити бирлиги, одоб-охлоқ умумийлиги, маънавий эҳтиёжлиги каби алоқалар ўзаро боғлаб туради. Оила мураккаб ижтимоий гуруҳ бўлиб, биологик, ижтимоий, ахлоқий, идеологик ва психологик муносабатларнинг узвий бирлашуви натижасида вужудга келади. Шу сабабдан турмушдош ва оила-аъзоларининг ўзаро моддий-маиший, иқтисодий негизи ўзгаришига бевосита боғлиқдир.

Оилавий муносабатлар таъсирида илк болалиқдан тортиб мустақиллик, истиқболга нисбатан содиқлик, ватанпарварлик, шукроналик, анъана шахсий

қизиқишни жамият, мамлакат қизишига бўйсундириш хислати, қатъийлик, қадр-қиммат хисси каби юксак инсоний хислар шакллана бошлайди. Аста-секин туғишганларга ғамхўрлик, ака-укалик ва опа-сингиллик меҳри, ота-онага муҳаббат ва шафқат сингари теранлик туйғулари намоён бўла боради. Оилавий турмушдаги самимий ва оқилона муносабатлар, илиқ психологик муҳит таъсири натижасида оила аъзоларида камтарлик, кўнгиллилик, илтифотлик, сабрлилик, тўғрилиқ, яхшилик, уятчанлик, юмшоклик, дилкашлиқ, меҳрибонлик, талабчанлик, меҳнатсеварлик, виждонлилик, меҳнатга маъсулиятлилик, озодалиқ, иззат-нафслилик, тежаб-тергашлик каби шахс хислатлари таркиб топади. Агарда оилавий турмуш муносабатлари кўполлик, андишашизлик негизига кўрилган бўлса у ҳолда оила аъзолари рухий дунёсида кеккайганлик, писмиклик, жамоатчилик маъқуллаган нарсаларни ва кўпчилик томонидан қабул қилинган хатти-ҳаракат қоидаларини сезмаслик, ялқовлик, маъсулиятсизлик, ифлослик, шухратпарастлик, мағрурлик, ўзини катта олиш, димоғдорлик сингари иллатлар юзага келади ва шаклланади.

Оилавий тарбиянинг яна бир шакли - мурасасиз тарбия. Бунда оила аъзоларнинг ҳар бири битта болага нисбатан турлича тарбия усулларини кўзлайди, масалан, отаси ўта қаттиққўл, она ўта меҳрибон, ёки ота-она боланинг хулқини жуда назорат қилиб, маъсулият билан унинг ахлокий тарбияси билан шуғуллаланади, бувилари эса аксинча, уни эркалатиб, издан чиқиб кетишини - "хали ёш, катта бўлганда ўзи яхши бўлиб кетади", кабилида мақуллайверади. Бундай беқарор тарбия услублари ўрганилиб, унинг оқибатида болада салбий характер хусусиятлари, масалан, қайсарлик, обрўли шахсларнинг тазйиқини нотўғри баҳолаш кабилар шаклланишини исботлаганлар. Ота-она тарбиядаги беқарорликнинг оқибатларини тасаввур қилсаларда, унинг олдини олишни билмайди. Кўпинча бу -болаликка хос сифатлар эканлиги фикри уларни тинчлантиради. Аксарият ота-оналар боласини йўқотиб қўйиш ёки унинг кўнгли қолишишидан кўрқиб ҳам нотўғри тарбия йўллари тутади. Шунинг учун оилавий тарбия ўта мураккаб жараён бўлиб, унда ота-оналар олдиндан психологик жиҳатдан тайёр бўлишлари керак.

Ёлғиз ота-оналар. Ота ёки онадан бири мавжуд бўлган оилаларнинг пайдо бўлишига турли сабаблар бор: ажрим туфайли биттаси қолади, никоҳсиз пайдо бўлган оила шароити, бунда онанинг ёши катта бўлиши ҳам (ёши ўтиб бораётганлигидан никоҳсиз бўлса ҳам битта фарзанд туғиб, уни ёлғиз ўзи катта қилади), жуда ёш бўлиши (тасодифан ёшлик қилиб қиз мактаб ёшидаёқ она бўлиб қолган ҳолатлар) ҳам мумкин.

Одатда турли сабабларга кўра ёлғизланиб қолган нотўлиқ оила аъзолари жамиятдан анча айри яшашга, ёлғизликка маҳкум бўлади, бундай оилалар молиявий инқирозларга ҳам учрайди. Айрим шундай оила фарзандлари жуда ёшлиқдан ота қилиши лозим бўлган уй-юмушларининг бир қисмини: ўз елкасига олишга мажбур бўлади. Тенгқурлари орасида одамови, гапга ҳам, айрим ишларга ҳам нўноқ бўлгани учун унинг дўстлари кам бўлади. Асосий мулоқот объекти она бўлиб, у ҳам кўпинча турмуш ташвишлари билан боласига етарли эътибор беролмайди. Айниқса, ўсмирлик ва илк ўспиринлик ёшидаги болалар ота-онанинг айрилиғини жуда кўнгиларига яқин олади, асабийлашадиган, салга жанжал кўтарадиган, онаси билан ҳам, бошқа яқинлари билан ҳам келишолмайдиган, агрессив бўлиб қолади. Инжиқ болани ёлғиз ўзи тарбиялашга мажбур бўлган оналарда одатда депрессия ҳолати кузатилади. Кўпинча бундай она ўзини омадсиз, турмуш вазиятларининг қурбонидай ҳис қилади, кўпинча хафа бўлиб қолади ва ич-ичидан ўзини болалари олдида гуноҳкор ҳис этади, истиқболда уни ва фарзандларини нима кутаётганлигини билмай ташвишланади, ёлғиз ота-оналарнинг шахсига қўйилган талаблар уларнинг реал имкониятларидан ортиқ бўлиб, нихоятда ишчанликни талаб этади. Бунга афсуски, ҳамма ҳам чидайвермайди.

Лўнда қилиб айтганда боланинг катта бўлгандаги хулқи бизнинг унга болалигида қилган муомаламизнинг акс этишидир. Тарбияда қаттиққўллик юмшоқ кўнгилликка нисбатан бир неча баробар ортиқ зиён келтиради. Юқорида айтганимиздек болага қандай муомала қилсак, шавқатсизлик қилсак шавқатсизлик, кўполлик қилсак кўполлик, бефарлик қилсак бефарлик, лоқайтлик қилсак лоқайтлик қайтади. Чунки бола қайси тажрибани ўзлаштиради, ҳаётда ҳам шу тажрибани қўллайди.

Аmmo , афсуски, кўпгина ота оналар боланинг бебош қилиб қўймаслик учун бу ажойиб инсоний туйғудан чўчийдилар. Улар бола ўзини севишларини яхши билиб олса, у тантиқ, шахсиятпарвар бўлиб қолади деб ўйлайдилар. Шу хилдаги жуда кўп салбий хусусиятлар бола ота-онанинг тўғри эркалинишидан, эътиборидан махрум бўлган шароитларда вужудга келади. Шунинг учун ҳам болада ўзини севишга, ўзига ғамхўрлик кўрсатилишига ишонч хосил қилиш ота-онанинг муҳим вазифасидир. Ҳеч қачон болада ота-онанинг унга бўлган мухаббатига шубҳа пайдо бўлмаслиги керак. Болага аввало ота-оналарнинг меҳрибонлиги зарур.

Ота-оналар учун фойдали маслаҳатлар

— Фарзандингизнинг қизиқиши, ижодкорлигини, фикрлар оригиналлигини қўллаб-қувватланг;

— ҳеч қачон болага бошқалардан ёмонроқсан деб айта кўрманг, уни бошқа болалар билан таққосламанг;

-боланинг ҳар бир саволига имкон қадар рост ва сабр билан жавоб бериш лозим;

-ҳар куни фарзандингиз билан ёлғиз қолиш учун вақт ажратишга ҳаракат қилинг;

-болани фақатгина тенгдошлари билангина эмас балки катталар билан ҳам эркин ва бемалол мулоқот қила олишга ўргатинг;

-болага нисбатан ўз ҳиссиётларингизни баҳолашда ростгўй бўлинг;

-болага ҳар доим рост гапиринг, агар бу сиз учун фойдасиз бўлса ҳам;

-болани айби учун жазоламоқчи бўлсангиз (масалан, бирор бир нарсани синдириб қўйса ёки кийимини ифлос қилиб келса) унга айна вақтдаги айби учун танбех беринг;

-куч билан болага таъсир ўтказманг, мажбур қилиш боланинг маънавий тарбиясига, шахсини ривожланиши учун салбий таъсир кўрсатади;

-болангиз хато қилишга ҳақли эканлигини тан олинг;

-боланинг ёдида фақат бахтли онлар муҳрланиб қолишига ҳаракат қилинг;

-ҳеч бўлмаганда баъзи-баъзида боланинг ўрнига ўзингизни қўйиб кўринг, ана шундагина болага қандай муносабатда бўлишингизни англаб етасиз.

Фарзандларимизнинг тарбиясига салбий ва ижобий таъсир этадиган қуйидаги фикрларга кундалик турмушимизда амал қилсак, келажак авлоднинг мустақил

фикр эгаси, маънан ва ақлан баркамол бўлиб етишишига, давлат ва жамиятимизнинг равнақиға муносиб ҳисса қўшишиға эришамиз.

### Фойдаланган адабиётлар.

1. Расулов Абдумумин Ибрагимович. Психодиагностика. (Ўқув – методик қўлланма) Тошкент-2009.
2. Р.М.Махмудов, Б.Н.Сирлиев. Педагогик психология. Тошкент-2011.
3. Онтогенез психологияси. Эргаш Ғозиев. "Noshir" Тошкент 2010.
4. Тиббиёт психологияси. Зарафбой Ибодуллаев. Тошкент, "Истиқлол" -2006.

## ТАРБИЯСИ ОҒИР ЎҚУВЧИЛАР, УЛАРНИНГ СИНОФ РАҲБАРЛАРИ, ОТА-ОНАЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР

*Оллаберганоў Сардорбек Махсуд ўғли  
Богат тумани 28-мактаб психолоғи*

Ўқувчилардағи психологик хусусиятлар, ривожланишида ўзига хос томонлар, улар ўртасида салбий одатларни олдини олиш ва бошқа масалалар доирасида умумтаълим мактаблари амалиётчи психолоғлари томонидан қатор тадбирлар, яъни психотренинг ва психокоррекция ишлар олиб борилади. Мактабларда болаларға нисбатан баъзан “тарбияси қийин бола” жумласи ишлатилади. Асосан тарбияси қийин болалар деганда кўп ҳолатларда вояға етмаганлар билан ишлаш кузатилади.

Тарбияси қийин болалар келиб назоратчилари ик ва ўғрилиққа мойил ўқувчилар назарда тутилади. Кузатишлардан маълум бўлишича, тарбияси қийин болалар тарбия жараёнида педагогик таъсирларға қаррўйхатида ҳисобға олинган, гиёҳвандлик ва спиртли ичимлик ичишға, безорилшилиқ кўрсатади, уларнинг ҳулқида ўзини биз ҳоҳлагандай тутмаслик ҳолатлари чиқишининг асосий сабабларидан бири уларда ўқишға нисбатан салбий муносабатнинг пайдо бўлишидир. Одатда бундай муносабатнинг пайдо бўлишиға бошқа сабаблар ҳам

таъсир кўрсатиши мумкин. Жумладан ўқув фаолияти усули, малакалари тўла таркиб топмаганлиги сабабли нисбий билим олиш билан қаноат ҳосил қилиш, ўзлаштириш қобилиятининг суст ривожланганлиги, муайян вазиятларда ҳукм ва ҳулоса чиқаришда қийинчиликка дуч келиш, ўқитувчилар томонидан ўқувчига объектив баҳо берилмаслиги, ўқитувчи томонидан боланинг индивидуал-психологик ва интеллектуал имкониятига етарлича эътибор берилмаслиги, ўқитиш савиясининг пастлиги, дарсларнинг қизиқарсиз ўтилиши, ўқувчининг синф жамоаси билан яхши алоқада бўлмаслиги ва бошқалар. Ўқувчи билан жамоа фикрининг мос келмаслиги унинг жамоа ичида ўз ўрнини борган сари йўқотиб боришига сабаб бўлади. Жамоа аъзолари бундай ўқувчининг қарашларини вақти-вақти билан ҳисобга олишлари яхши натижа бериши мумкин. Ўқувчининг фикр ва қизиқишларини жамоанинг қўллаб қувватламаслиги ёки бепарволиги уни қонунбузарликка ундайди ва гиёҳвандлик каби салбий ҳолатларнинг келиб чиқиши учун имконият яратади. Натижада бола учун келажак режаларининг поймол бўлиш хавфи туғилиб, ўқишдан ва жамоадан юз ўгирган ўсмир ўз келажagini, орзу-умидларини мактаб ва тенгдошлари фаолиятига боғлашдан кўра, янги “дўстлари” билан алоқа қилишни афзал кўради ва бошқа кишилардан нажот излайди. Бунинг натижасида ўсмир носоғлом ҳулқли болалар тўдасига тушиб қолади ва улар ҳулқ – атворига хос бўлган характерга эга бўлади.

Бундан ташқари, оилавий шароитнинг салбий таъсири ҳам тарбияси оғир ўсмирларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Айрим оилаларда бола учун зарурий имкониятлар мавжуд эмаслиги сабабли бола ноҳуш ҳолат билан ёлғиз кураш олиб бориш кечинмалари билан яшайди. Ўсмир дунёсида оилавий шароитга нисбатан пайдо бўлган норозилик ҳисси кундан кун авж олиб, ички қўзғолонга айланиб боради. Бундан ташқари, ота-она ўртасидаги муносабатларнинг носоғломлиги, баъзи ота-оналарнинг спиртли ичимликларга ружу қўйишлари ҳам боланинг руҳий дунёсига таъсир кўрсатади. Кўпинча, ўқувчилардаги тарбияси қийинлик оиладаги ва таълим тизимидаги педагогик қаровсизлик натижасида юзага келади.. Педагогик қаровсизлик қуйидаги даражаларда тавсифланади:

1.Паст. Ҳатти-ҳаракат, хулқ-атвордаги беқарорлик. Ўз “мен”ига ортиқча баҳо бериш. Асосан ёшига хос бўлган характер белгиларининг устунлик қилиши.

2.Ўрта. Катталар ва тенгқурлари билан алоқанинг бузилиши. Ўқиш ва меҳнатга қизиқмаслик, низолар эгоистик йўналишга асосланиши. Педагогик таъсир чоралари тўғри қабул қилинган ҳолда унга амал қилмаслик.

3.Юқори. Салбий характер хусусиятлари яққол намоён бўлади. Ҳуқуқбузарлик ошқора қилинади. Катталар билан ўзаро муносабатда тажовузкор бўлади. Ўзлари тўғри деб қабул қилган “ахлоқ нормалари”ни оқлашга уринадилар. Улар ҳуқуқбузарлик чегараларини тушуниб етмайдилар.

4.Криминал. Вояга етмаган ҳуқуқбузарлар бўлиб, уларнинг хулқ-атворини бошқариб бўлмайди. Бундайлар ҳар қандай тарбия воситаларига қаршилиқ кўрсатадилар. Ҳатти-ҳаракатларида тажовузкорлик кўпроқ учрайди. Улар ўзларининг ҳуқуқбузарлик мотивларини ўзлари белгилаган “ахлоқий меъёрлар” билан ўлчайдилар, натижада жинойтга қўл урадилар.

Амалиётчи психолог аввало болаларнинг оилавий аҳволини ўрганиш, мактаб билан ота-она ўртасида узвий алоқани ўрнатиш, фан ўқитувчилари билан алоқани мустаҳкамлаш, ўқувчининг дарсга қатнашини кузатиш, дарсдан ташқари фаолиятини назорат қилиш, турли савол-жавоблар ўтказиш орқали тарбияси оғир болалар билан ишлаш дастури ва режаларини белгилаб олиши лозим.

Тарбияси қийин бўлган болалар билан ишлашда интервью методидан фойдаланиш.

1. Синф раҳбари билан суҳбат.
  - Тарбияси қийин бўлишнинг сабаблари?
  - Уйдаги ва мактабдаги интизоми.
  - Ўзлаштириши
  - Тарбиянинг асосий қийин томонлари ва кўрилган чоралар.
  - Оилавий шароити
2. Тарбияси қийин ўқувчи билан суҳбат.
  - Мактабни тугаллагач қайси касбни эгалламоқчисан?
  - Қайси фанлар сенга кўпроқ ёқади?

- Қандай китоблар ўқишга қизиқасан?
  - Дўстларинг кимлар ва улар ҳақида қандай фикрдасан?
  - Ўзингнинг ҳулқинг ва ўқишингдан қониқасанми?
  - Жамоат ишларида қатнашасанми?
  - Сен ёқтирган машғулот (уйда в мактабда)?
  - Ҳаётда энг зарур ва қизиқарли нарса нима деб ҳисоблайсан?
  - Ота-онангга муносабатинг қандай ва нима учун?
  - Катталарга муносабатинг?
3. Фан ўқитувчилари билан суҳбат.
- Сизнинг дарсингизда ўқувчининг ҳулқи ва ўзлаштириши қандай?
  - Ўқувчи тартибсизлигининг энг ёмон томони ва сизнинг маслаҳатингиз?
  - Унинг ўқиш ва ишдаги қобилияти, имконияти қандай?
4. Дўстлари билан суҳбат.
- Қачондан бери дўстсизлар?
  - Сизлар ёқтирган машғулот ва ишлар?
  - Дўстингнинг нимаси сенга ёқади?
  - Дўстингнинг қайси томони ёқмайди ва нима учун?
  - Унга қандай ёрдам қиласан?
  - Сизларнинг келажак режаларингиз?
5. Ота-оналари билан суҳбат.
- Фарзандингизнинг ўқиши ва ҳулқидан қониқасизми?
  - Унинг ўқиши ва ҳулқидаги қайси томонлар сизни безовта қилади?
  - Сиз унга қандай ёрдам берасиз?
  - Унинг кун тартиби қандай?
  - Уйда нималар билан шуғулланади?
  - Уй ишларида сизга ёрдамлашадими?
  - Келажакда қандай касб танлашини маслаҳат берасиз?
6. Синф сардори билан суҳбат.
- Синфдошинг ҳақида қандай фикрдасан?
  - Унинг ҳулқида қандай нуқсонлар бор?



- Синфдошларга муносабати қандай?
- Жамоат ишларида қатнашадими?
- Синфдошлари томонидан унинг намунали ўқувчи бўлишига қандай ёрдам кўрсатилди?

#### 7. Хулоса

- Тарбияси қийин ўқувчига тавсифнома
- Уни тарбиялаш юзасидан оила, мактаб ва синфдошларининг имкониятлари ва баҳоси.
- Тарбияси қийин ўқувчилар билан яққа ва гуруҳли тартибда ишлаш учун режа ва дастур.

## БОЛАЛАР ПСИХОЛОГИЯСИНИ ЎРГАНУВЧИ МЕТОДЛАР

*Собирова Махсуда Мадаминовна*

*Наманган вилояти Норин тумани 23-мактаб бошланғич фани ўқитувчиси*

Ҳар бир фаннинг ўз предметига қараб бир қанча ўрганиш ва текшириш методлари бўлади. Метод лотинча — метҳодас сўзидан олинган бўлиб, маълум бир фаннинг предметини текшириш, ўрганиш ва тушунтириб бериш усулларининг ёки воситаларининг йиғиндисидир.

Болалар психологияси умумий психологиянинг махсус соҳаси бўлгани туфайли, у ўз предметини ўрганишда умумий психологиянинг деярли ҳамма методларидан фойдаланади. Лекин умумий психологиянинг методларидан болаларнинг асосий фаолиятларига мослаштириб қўлланилади.

Умумий психологиянинг методлари — кузатиш, эксперимент, суҳбат, фаолият маҳсулини ўрганиш кундалик ва биографик материалларни ўрганиш, социометрик метод, тест ва шу каби методлардир.

Болаларнинг бутун ақлий, яъни психик тараққиётлари уларнинг турли-туман фаолиятларида содир бўлади. Ана шунинг учун болалар психологияси юқоридаги методларни болаларнинг асосий фаолиятларига мослаштириб қўллайди.

Кузатиш методи. Болалар психологиясида субъектив кузатиш методидан деярли фойдаланилмайди. Болалар психологиясининг асосий методларидан бири — объектив, яъни болаларни ташқаридан кузатиб ўрганиш методидир. Тарбиячи ёки текширувчи психолог болаларнинг турли хил фаолиятларини табиий шароитда тизимли тарзида кузатилади. Бунда болаларнинг хулқ-атворлари, хатти-ҳаракатларига доир характерли моментларни қайд қилиб боради. Ҳар қандай кузатишнинг аниқ мақсади бўлиши керак. Бошқачароқ қилиб айтганда, тарбиячи болаларнинг хулқ-атвори ёки хатти-ҳаракатларига доир нималарни кузатмокчи эканини олдиндан аниқлаб олиши керак. Масалан, болалар диққатининг барқарорлигини ёки тафаккур жараёнлари билан боғлиқ бўлган анализ қила олиш қобилиятларини кузатишни олдиндан бошлаб олиш мумкин.

Шуни эсдан чиқармаслик керакки, кузатиш табиий шароитда олиб борилар экан, болалар ўзларининг кузатилаётганликларини мутлақо билмасликлари керак. Кузатишни болалар ўрганган тарбиячининг ўзи кузатгани маъқул. Агар кузатишни болалар кўзи олдида бегона одам ўтказса, болаларнинг хатти-ҳаракатидаги табиийлик бузилади. Уларнинг хулқ-атворлари ва хатти-ҳаракатларини бегона киши кузатишига тўғри келса, у вақтда яширин кузатиш методларидан фойдаланиш лозим. Бунда кузатувчи болаларга кўринмайдиган жойдан туриб кузатади. Болалар психологиясида кузатиш методидан фойдаланилганда, болаларнинг турли ўйин фаолиятлари, дидактик машғулотлари ва қуриш-ясаш ҳамда ижодий машғулотларида хилма-хил психик жараёнларининг намоён бўлиши ва қанча давом этиши каби жараёнларни қайд қилиш мумкин. Бундан турли ёшдаги болаларни бир-бирига таққослаб, улардаги психик жараёнларнинг тараққиёти ўрганилади. Кузатиш методи узлуксиз ва бу фаолиятни танлаб вақти-вақти билан ўрганилганда уларнинг барча феъл-атворлари ва хатти-ҳаракатлари кундалик фаолиятлари давомида умумий ҳолда ўрганилади. Узлуксиз кузатиш бир неча кун ёки бир неча ой давомида давом этгандан сўнг тўпланган маълумотлар таҳлил

қилиниб, болага психологик характеристика бериш мумкин бўлади. Вақти-вақти билан танлаб кузатилганда боланинг барча хулқ-атвори ва характерлари эмас, балки фақат маълум ҳаракатлари, яъни диққати ёки хотираси, ё бўлмаса, унинг нутқи билан боғлиқ бўлган томонлари ўрганилади.

Болалар психологиясида кенг қўлланадиган иккинчи метод — эксперимент методидир. Эксперимент методи — кузатиш методига нисбатан фаол метод ҳисобланади. Агар кузатиш методидида у ёки бу психик жараённи қайд қилиш учун психолог шу психик жараённинг қачон ва қандай шароитда пайдо бўлишини пойлаб юрса, эксперимент методи эса мутлақо бунинг аксидир. Эксперимент методидида у ёки бу психик жараён юзага келадиган шароитни текширувчи психологнинг, яъни экспериментаторнинг ўзи ташкил қилади. Бунда экспериментатор ўрганаётган психик жараёнларни болаларда бир неча марта юзага келтириб ўрганади. Биз умумий психологиядан биламизки, эксперимент методи 2 хил бўлади: лаборатория эксперименти ва табиий эксперимент. Болалар психологиясида экспериментнинг ҳар иккала туридан кенг фойдаланилади. Бирок, бу методлардан болалар психологиясида фойдаланишнинг ўзига хос томони шундаки, мактабгача тарбия ёшидаги болалар лаборатория шароитида ўтказиладиган тажрибалар билан табиий шароитда ўтказиладиган тажрибанинг унчалик фарқига бормайдилар. Ҳар иккала ҳолда ҳам тажрибалар вазифа тарзида эмас, балки ўйин тарзида ўтказилса натижа яхши чиқади. Масалан: кичик ва ўрта гуруҳ ёшидаги болаларга бири иккинчисидан бир оз узунроқ бўлган таёқча кўрсатилиб, улардан қайси бири узунроқ эканлигини сўралса, болалар ҳеч эътибор бермай, тасодифан биттасини кўрсатаверадилар. Агар бундай фарқлаш уларнинг ўйинларига айлантирилса, болалар дарҳол эътибор билан қарайдилар.

Кузатиш ва эксперимент асосий методлар ҳисобланади, лекин булардан ташқари бир қатор ёрдамчи методлар ҳам мавжуд. Масалан: фаолият маҳсулотларини ўрганиш методи, социометрик ва тест методлари. Фаолият маҳсулотларини ўрганиш методи ҳақида гап борар экан, шуни айтиш керакки, болалар ҳам жуда катта одамлар сингари доим маълум фаолият билан машғул бўладилар. Катта одамлар бошқа одамлар учун керак бўладиган ижтимоий фойдали

нарсалар ишлаб чиқариш фаолияти билан банд бўлсалар, болалар ўз фаолиятларида деярли ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдилар.

Боғча ёшидан болаларнинг фаолиятлари — ўйин, расм чизиш, пластилин ёки лойдан бирор нарса ясаш, аппликация, қуриш-ясаш ва шу қабилардан иборат бўлиши мумкин. Болалар одатда, катта кишиларнинг топшириқ ва таклифлари билан маълум фаолиятга киришадилар. Айрим ҳоллардагина болаларнинг ўзлари мустақил равишда у ёки бу фаолиятни бажарадилар. Ҳар икки ҳолатда ҳам болалар фаолияти маълум натижага эга бўлади. Кўпинча болалар фаолиятининг маҳсулоти улар чизган расмларга, лой ёки пластилиндан ясалган нарсага қараб ўрганилади. Кўпинча болаларнинг чизган расмларида улар идрокининг хусусиятлари ва онгида юзага келаётган турли тасаввурлар ҳамда атрофларидаги нарса ва ҳодисаларга бўлган муносабатларида ўз ифодасини топади. Ана шу жиҳатдан болаларнинг чизган расмларидан фаолият маҳсулотини ўрганиш сифатида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Турли ёшдаги болаларнинг ишлаган расмларини анализ қилиш орқали уларнинг айна пайтдаги эҳтиёжларини, майл-истаклари, қизиқишлари, қобилияти ва лаёқатларини ўрганиш мумкин. Шу сабабли, бу методдан ҳам болалар психологиясида кенг фойдаланилади.

Сўраш — суҳбат методидан болалар психологиясида анча чекланган ҳолда фойдаланилади. Бу методни боғча ёшидаги болаларга нисбатан деярли қўллаб бўлмайдди, чунки бу ёшдаги болаларда турмуш тажрибаси жуда оз, тафаккурлари ҳали яхши ривожланмаган бўлади. Шу сабабли кичик ёшдаги болалар катталарнинг берган саволларига ўйламай-нетмай жавоб қайтараверадилар. Сўраш методидан фойдаланилганда одатда жуда содда ишланган айиқчалар, узоқ ва яқин қилиб ишланган уйлар ва дарахтлар ва х.к. Болалардан қайси айиқ катта, қайси айиқча кичик ёки қайси уй узоқ, қайси уй яқин деб сўралади.

Болалар психологиясида сўнгги йилларда қўллана бошлаган методлардан бири, тест методидир. Тест сўзи инглизча сўз бўлиб, у ўлчаш деган маънони билдиради. Тест методи орқали болаларнинг умумий ақлий тараққиёт даражалари ва айрим психик жараёнларнинг (тафаккур, хаёл, хотира каби) қанчалик ривожланганлик даражаси аниқлаб, таққосланади. Тест методи ёрдамида

болаларнинг ўз ёшларига нисбатан нормал тараққий этганликлари ёки орқада қолганликларини ҳам аниқлаш мумкин. Масалан, тест методидан болаларга топшириладиган вазифалари бир неча вариантда бўлиб, улар кучлари етган вариантдаги вазифаларни бажарадилар. Ҳар бир бажариладиган вазифага балл системасида баҳо қўйиб борилади. Вазифалардан қанчаси бажарилганлиги ва тўплаган баллига қараб, болаларнинг ўртача тараққиёти белгилаб берилади.

## **ТАРБИЯСИ ҚИЙИН ГУРУХГА МАНСУБ АГРЕССИВ ХУЛҚЛИ БОЛАЛАР ВА УЛАРНИНГ ОТА-ОНАСИ БИЛАН ИШЛАШ МУАММОЛАРИ**

*Тагонова Санобар Қўзибоевна  
Хоразм вилоят Қўшқўпир туман 6-мактаб психологи*

Тарбия узлуксиз жараён бўлиб, инсон дунёга келишидан бошлаб, то умрининг охиригача давом этиб боради. Бу жараён давомида атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисаларнинг шахсга салбий ёки ижобий ақс таъсир этиши унинг инсоний фазилатлари қай даражада шаклланганлагини белгилайди. Бугунги кунда таълим соҳаси олдида турган энг долзарб муаммолардан бири ҳам айнан, шу мақсадга қаратилган бўлиб, келажак авлодни комил шахс сифатида шаклланишини таъминлашдан иборатдир.

Афсуски, барча мамлакатларда бўлгани сингари бизнинг ўсиб келаётган ёшларимиз орасида ҳам тарбияси оғир ва ноқобил фарзандлар мавжуд бўлиб, уларнинг тарбиясига алоҳида эътибор ва ёндашувни талаб этади.

Маълумки, ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси билан оила, маҳалла, таълим муассасалари, оммавий ахборот воситалари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ташкилотлар, илмий-педагогик кадрлар шуғулланадилар. Тарбия жараёнида барча иштирокчиларнинг баҳамжихатлиги таъминлансагина, у ўзининг ижобий натижаларини бериши мумкин.

Тарбияси оғир болалар билан ишлаш азалдан энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган.

Бу муаммонинг юзага келиш сабабларини чуқур таҳлил қилар эканмиз, энг аввало, туғилган боланинг уни дунёга келтирган шахсларнинг кимлиги, иккинчидан, у қандай ижтимоий муҳитда туғилиб вояга етиб, улғаётганлигига эътиборни қаратишимиз лозимдир.

Агар биз фарзандларимизни ҳар томонлама етук қилиб тарбияламоқчи бўлсак, яъни комил инсонни вояга етказишимиз учун уни, аввало ҳар томонлама ўрганишимиз лозим. Тарбияси қийин болаларнинг ҳатти-ҳаракатларини психологик таҳлил этиш ва уларга амалий жиҳатдан кўмак бериш, мазкур йўналишда ҳеч бўлмаганда содда ва бажарилиши осон бўлган амалий машғулотлар ўтказиш кўникма ва малакаларига эга бўлишимизни талаб этади.

Бу жуда мураккаб ишлардан бири ҳисобланади. Агрессив хулқли болаларнинг ота-оналари тез-тез болага нисбатан ёқимсиз ҳиссиётни бошдан кечирадилар ва болага ёрдам бериш учун эмас, балки болани «юввошлантириш» учун психологик консультацияга мурожаат қиладилар. Улар боланинг тинчлантирилишини ва бола уларни хафа қилувчи ишларини тугатишини истайдилар.

Кўп ҳолларда агрессив хулқли боланинг ота-онаси тушкунликка тушган ва ҳаётдан норози одамлар бўлишади. Кўпинча собиқ агрессив хулқли болалар ўзларининг психологик қийинчиликларини ўз болаларига ўтказадилар. Шу сабабли психолог биринчи навбатда боланинг ота-онаси билан психотерапевтик иш олиб бориши лозим. Психолог қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиши лозим.

Биринчидан, ота-онанинг қадр – қимматига негатив таъсир этишдан қочиш лозим (Сиз ўз болангизнинг шахси бузилиши ҳақида ҳеч нима билмайсиз, ҳозир мен сизга тушинтириб бераман). Ота-онанинг шахсиятига тегмаган ҳолда вазиятни аниқлаб олиш лозим. Ота-оналар баъзан ўзлари ҳаётида эришолмаган нарсаларига фарзандлари эришишини ҳохлайдилар ва ундан талаб қиладилар (Масалан, мен таниқли рассом, врач ёки бирор бошқа касб эгаси бўла олмадим, болам бўлиши керак).

Иккинчидан, ота-она болага бўлган установакани ўзгаритириши лозим. Улар агрессив хулқли болани ношукур деб ҳисоблашади. Ўзларининг жаҳли ва таъна маломатларига жавобан боланинг айбдорлик туйғусини ҳис қилишини, афсусланишини, кечирим сўраши ва уларни тинчлантиришини кутадилар. Бу юз бермаганидан улар аччиқланади ва болани «беъмани, бузилаган, ёмон» ҳисоблашади. Ота-онани болага ачинишга чақириш лозим ва кўрсатиб ўтиш керакки, ҳар доим агрессив бола биринчи навбатда бахтсиз бола. Ота-онага психолог ғазабнинг намоён бўлиш механизмларини ва яна агрессивликни эмоционал бузилиш сифатида кўрсатиб ўтиши лозим.

Учинчидан, ота-онага ўзларининг болалик хотираларини, ўша даврдаги агрессив қилмишларининг сабабларини эслатиш керак. Балки бу кўпгина шахсий комплексларни очиши мумкин. Бу ҳолатда уларга психик ёрдам кўрсатиш ва шахсиятини барқарорлаштириш керак бўлади. Болалар муаммоси ҳар доим оилавий муоммоларни кўтаради. Болани ўраб турган одамлар ёрдамсиз унинг ўзига алоҳида ёрдам кўрсатиш деярли мумкин эмас. Боланинг ўзини алоҳида ажратиб олиб ёрдам кўрсатилганда ҳам бу яхши самара бермайди, чунки оиладаги муаммолар агрессиянинг яна қайтарилишига сабаб бўлиши мумкин.

Тўртинчидан, бола туғулгунча ва чақалоқлигининг биринчи ойларида ота-онанинг унга бўлган муносабатини аниқлаб олиш лозим. Баъзан бола онанинг «мажбурий» ёки «тасодифий» хомиладорлиги асосида дунёга келган бўлиши мумкин. Бу ҳолатда ота-она қатгий бир қарорга келиши лозим. Агар бола уларнинг ҳохишисиз туғилган бўлса ҳам барибир ота-она унга ғамхўрлик қилишга бурчли. Мабодо ота-она унинг дунёга келишини хоҳлаган бўлсалар ҳам, аммо у «жаҳлдор, қулоқсиз, чидаб бўлмайдиган бўлиб қолганидан кейин унга бўлган муносабатини ўзгартирган бўлсалар, уларнинг шахсиятини ерга урмаган ҳолда шуни кўрсатиш керакки, бола ўзининг хулқи билан уларнинг ҳаракатларига жавоб беряпти холос.

Агрессив хулқни «ёмон» билан бир хил ҳисоблаш мумкин эмас. Оғир, хавфли вазият пайдо бўлганида агрессивлик ҳимоя, баъзида эса вазиятни бартараф этувчи функцияни бажаради. Агрессив хулқ айниқса болада ёшга хос бўлган ўтиш даврида кузатилади. Бу шундан далолат берадики, ёш даврлари кризиси пайтида боланинг

яшаши қийинлашади, ҳар қандай мураккаб вазиятда бола қийинчиликни ҳис қилади ва шу сабабли агрессив хулқнинг элементларини кузатиш мумкин. Бу нормадаги болага ҳам, агрессив хулқли болага ҳам бирдек тегишли. Аффектив бузилиш бўлганида агрессия одатий ҳодисага айланади, ҳатто хулқ-атворнинг бирдан бир шакли бўлиб қолади. Бироқ бунга қарамасдан, бола хулқида агрессивликнинг бор бўлиши улар билан ўзоро муносабатда қийинчилик туғдиради. Агрессив тенденцияларни тасодифий салбий ҳолат деб баҳолаб бўлмайди.

Шуни эсда тутиш керакки, аффектив тараққиёт жараёнида бола активлиги қонуний равишда ошиши мумкин. Одатда, катталар ёрдамида ўтказилган психокоррекциянинг бу зарурий босқичида бола ўзини қуршаган реаллик билан нисбатан адекват турдаги мулоқотни ўзлаштириши мумкин.

Бола агрессиясини коррекция қилишни унинг сабабини аниқлашдан бошлаш лозим. Агар агрессия эмоционал мотивацион сферанинг бузилиш сабабли бўлмаса коррекцион фаолиятни уни йўқотишга эмас, балки салбий оқибатларга олиб келувчи агрессив хулқни юмшатиш ва унинг намоён бўлишига йўл қўймасликка қаратиш лозим. Шу билан бирга катталарни унинг агрессив реакциясига адекват идрок қилишга тайёрлаш лозим.

Бошқа ҳолатда, яъни агрессия эмоционал мотивацион сферанинг бузилишини намоён бўлиши бўлса, психолог ёки тарбиячи ҳаракати боланинг мустақамланмаган агрессив ҳаракатига йўналтирилиши лозим.

Коррекцион методиканинг қўлланиши тўлиқлигича агрессив хулқнинг сабабига боғлиқ бўлади. Коррекция методи конкрет ҳодиса ва конкрет болани ҳисобга олган ҳолда танланади. Бу куйида шарҳланган коррекция методларини диққат билан кўриб чиқишни тақозо этади.

1. Агрессияга мойилликни эътиборга олмай қўйиш, унга атрофдагиларнинг диққат қаратмаслиги.

2. Агрессив ҳаракатларни ўйин мазмунига киритиш ва унга янги эмоционал мазмун бериш. Бу орқали боланинг атрофдагиларга зарар етказмаган ҳолда



агрессив мойиллигини чиқариб юбориш (масалан, қароқчи ва казаклар ўйинида агрессив хулқли болага қароқчи ролини бериш).

## ЁШЛАРНИНГ ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Тағонова Санобар Қўзибоевна  
Хоразм вилоят Қўшқўпир туман 6-мактаб психологи*

Ҳар қандай одам ҳам ўсмирлик чоғида, эндигина вояга етиб келаётган даврида жамиятдан муносиб ўрнини топиши керак. Акс ҳолда бу нарса нохуш оқибатларга ҳам сабаб бўлади. Ёш йигит – қизларимизнинг ишда, турмушда, оила ва жамоа орасида ўз ўрнини тополмаслик ҳолатлари уларнинг жамиятда ўз қадрини йўқотишига олиб келади. Ўз қадрига, ўз шанига эга бўлмаган инсон ҳаётда кўп – кўп тўсиқларга дучор бўлади, унинг шахс сифатидаги емирилиши ҳам тез кечади.

Дин ниқобидаги мафкуравий тахдидларнинг намоён бўлиш шакиллари. Ёшларнинг фаол ижтимоий кучга айланиб бораётгани бугунги кунда уларнинг турли мафкуравий таъсир ва тазийқларнинг бош объектига айланишига олиб келди. Бунда уларнинг жамиятнинг ҳали етарли тажрибага эга бўлмаган, ташқи таъсирларга тез берилувчан ва айни пайтда, энг ҳаракатчан қатлами экани инobatга олинмоқда. Ёшларнинг турли оқимларга кириб қолишлари сабаблари қаторида уларнинг билимлари, шу жумладан, диний илимларни эгаллашга бўлган қизиқиш ва интилиши ҳамда ишонувчанлиги, бирданига ва ҳамма нарсага ( бойлик, шон-шуҳрат, мартаба ва ҳ.к ) эга бўлишга ҳаракат қилиши, илмий тилда айтганда максимализм каби маънавий – руҳий омилларни алоҳида ажратиш кўрсатиш лозим. “Сен бу ташкилотга кириш ёки мана бу вазифани бажариш билан алоҳида, ҳар кимга ҳам насиб қилавермайдиган шарафли ишга қўл урган бўласан, керак бўлса, сен миллат, дин, инсониятнинг халоскорига айланасан!” , - деган қарашларни сингдириш жараёни айнан мана шу каби хусусиятларга алоҳида эътибор

берилаётганини кўрсатади. “Ёшларнинг онгида қандай кайфият устунлигини айтсанг, мен сенга кейинги авлоднинг табиати қандай бўлишини айтиб бераман”, - деб ёзган эди сиёсий арбоблардан бири. Шу нуқтаи назардан қараганда, диний экстремистик оқимлар ҳам жамиятнинг эртанги кунини белгилаб берадиган авлод онгини эгаллаш, назорат қилишни кўзлаб иш юритмоқда дейиш мумкин. Айниқса, ғоялар кураши авж олган бугунги кунимизда ёшлар маънавиятига тажовуз солаётган таҳдидлар қаторида, динни ниқоб қилиб, диний қадриятларимизни оёқости қилишга уринаётган экстремистик ва миссионерлик ҳаракатларининг фаоляти жиддий ташвиш уйғотмоқда. Шунинг билан бирга, диндан сиёсий мақсадларда фойдаланишга уриниш баъан мудҳиш ҳолатларнинг юз беришига олиб келмоқда.

Замонавий ижтимоий тармоқлар. Бугунги кунда дунё турли соҳаларда ўзгариб, шиддат билан ривожланиб бормоқда. Илм олиш, касб-кор билан шуғилланиш, инсонларнинг ўзаро мулоқат ва фикр алмашинувида ҳам янги янги ўзгаришлар бўлаётгани ҳеч кимга сир эмас. Интернет, уяли телефон, ижтимоий тармоқ орқали мулоқат ва ахборот алмашинувида хизмат килувчи фейсбук, твиттер, вайбер, телеграм, инстаграм каби дастурлар шулар жумласидандир. Илм-фаннинг ютуғи бўлмиш бу янгиликлар инсонларнинг узоғини яқин, мушкулини осон қилаётгани, олис масофадан туриб илм олиш, дунё янгиликларидан бир зумда воқиф бўлиши ва маълумотларни осон тарқатиш имконини бераётгани шубҳасиз. Бироқ, кейинги йилларда мазкур тармоқларнинг ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатаётган жиҳатлари ҳам кўзга ташланаётгани кўпчиликни ташвишга солиши табиий. Чунки келажагимиз пойдевори бўлган ёшларнинг соатлаб бу тармоқларда мақсадсиз ўтиришлари илм олиш, касб-хунар эгаллаш ва бошқа хайрли ишларга сарфланиши керак бўлган гулдек умрининг беҳуда ва бесамар кетишига сабаб бўлмоқда. Қолаверса, бугунги кунда ижтимоий тармоқларда тарқалаётган маълумотларнинг катта қисмини ёшлар маънавиятининг тубанлашувига туртки бўлувчи, миллий ва диний қадриятларимизга зид бўлган хабарлар, урф-одатлар ташкил этади. Интернет ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланувчи ўзига-ўзи назоратчи бўлмоғи лозим. Чунки Интернет шундай

мулоқат муҳити, унда ижтимоий назорат ҳам, ён-атрофдагиларнинг назорати ҳам йўқ. Бунинг устига ҳозирда Интернет тармоғидаги кўплаб саҳифаларга фойдаланувчини асл мақсадидан чалғитишга мўлжалланган спам шаклидаги турли беҳаё суратлар, реклама видеороликларнинг жойлаштирилиши одатий ҳолга айланиб қолди. Бундай шароитда ўзини-ўзи назорат қила олмайдиган, иродаси суст ёшларнинг виртуал тармоқдаги беҳуда ва бешарм саҳифаларга чалғиб кетиш эҳтимоли катта. Шунингдек, Интернет орқали нотаниш суҳбатдош билан мулоқатда бўлаётган ёшлар учун тақиқланган мавзулардан гап очиш, хиссий, эҳтиросли суҳбатга берилиб кетиш хавфи бор. Бу эса, беҳаёлик, бузуқчилик каби турли кўнгилсиз ҳолатларга сабаб бўлиши мумкин.

Оммавий маданият. Ғарб дунёсида ўтган асрнинг иккинчи ярмида шаклланди. Мазкур тушунча турли ғоя, дунёқараш, мен, имиж ва бошқа ижтимоий феноменлар тўпламига нисбатан қўлланилади. Бу масалани тадқиқ этган мутахассислар фикрига кўра, “Оммавий маданият” феномени вужудга келишида реклама, мода, масс – медиа муҳандислиги, дизайн, хуллас онгга таъсир этувчи воситаларнинг аҳамияти катта. “Оммавий маданият” иллатининг мамлакатга кириб келиш оқибатида унинг қуйидаги кўринишларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин:

- ахлоқий бузуқлик ва зўравонлик;
- индивидуализм;
- эгоцентризм ғояларини тарқатиш, керак бўлса, шунинг ҳисобидан бойлик орттириш;
- бошқа халқларнинг неча минг йиллик анъана ва қадриятлари, турмуш таъризининг маънавий негизларига беписандлик, уларни қупоришга қаратилган ҳаракат.

Юқоридаги сингари вазиятларни ҳисобга олган ҳолда, халқимиз, айниқса, ёш авлодни маънавий таҳдидлардан сақлаш, уларда соғлом дунёқарашни шакллантириш ва шу асосда оламда содир бўлаётган воқеа- ҳодисаларга тўғри муносабатни билдира олиш куникмасини ривожлантириш бугунги кундаги асосий вазифамиздир.

Ўзбекистон Республикаси биринчи президенти Ислон Каримовнинг “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида муаллиф буюк тарих, маданият ва маънавият эгаси бўлган халқнинг фарзанди, бугунги дунёда кечаётган глобал жараёнларининг маъно – мазмунини теран англайдиган, унинг мафкуравий, геосийсий манзарасини аниқ тасаввур этадиган улкан тафаккур соҳиби, атоқли давлат ва сиёсат арбоби сифатида кўпчиликни ўйлантираётган мураккаб муаммоларни холис ва ҳаққоний таҳлил қилиб берди. Ҳозирги шиддатли ва шавқатсиз замоннинг ҳар қайси миллат, жумладан, бизнинг халқимиз олдида қўяётган талабларини очиқ баён қилади: “Биз халқимизнинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслиги, фарзандларимизнинг биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлиб яшаши учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этаётган эканмиз, бу борада маънавий тарбия масаласи, ҳеч шубҳасиз, беқиёс аҳамият касб этади. Агар биз бу масалада ҳушёрлик ва сезгирлигимизни, қатъият ва масъулятимизни йўқотсак, бу ўта муҳим ишни ўз ҳолига, ўзибўларчиликка ташлаб қўядиган бўлсак, муқаддас кадриятларимизга йўғрилган ва улардан озиқланган маънавиятимиздан, тарихий хотирамиздан айрилиб, охир- оқибатда ўзимиз интилган умумбашарий тараққиёт йўлидан четга чиқиб қолишимиз мумкин”.

Болада муомала маданиятини шакллантириш, тарбия бериш, тўғри йул кўрсатишга ота-она масъул ва бурчлидир. Бу бизнинг миллий ва диний қарашларимизда ўз аксини топган. Ислон дини таълимотида инсонлар ўзаро ҳамиша ширинсуханлик ва самимийлик асосида муомала қилишлари лозимлиги таъкидланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ислон Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч” Т “Маънавият” 2008 й.
2. Ислон Каримов: “Ёшлар бугунги ва эртанги ҳаётимизнинг ҳал қилувчи кучидир” Тошкент “Маънавият” 2015 й.
3. Олим Тошбоев: Маънавий юксалиш йўлида Тошкент “Маънавият” 2008 й.

## МАКТАБ О'QUVCHILARIDA KUZATILADIGAN STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Toshmatova Guldon*  
*Qo'rg'ontepa tumani 52-maktab psixologi*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri ham undan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bo'lib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zo'riqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor

bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'zligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga

qattiq ta‘sir ko‘rsatadi. Haddan tashqari ko‘p ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir bo‘lgan asabiylashish eng ko‘p tarqalgandir. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, ish qancha qiziqarli bo‘lsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob bo‘ladi. Yana bu sabablarga qo‘shimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qo‘yishi, o‘quvsiz ota-onaningning o‘quvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas o‘spirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat ko‘proq natija beradi. Stressni bartarafetishda asosan inson sabr-qanoatli bo‘lish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor bo‘lish, o‘zini chalg‘itish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib borish, hech bo‘lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe‘l, tavozelik bo‘lish, o‘zaro hurmat va xushmuomalali inson bo‘lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta‘sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo‘l-yo‘riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo‘lsangiz, bu haqda kamroq o‘ylashga va doimo nima bilandir band bo‘lishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg‘usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo‘llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro‘y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o‘z ruhiyatidagi munosabatni o‘zgartirish);

b) ko‘proq jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish )

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.
3. T.Sodiqova "Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat" qo'llanma. Toshkent 2018.

---

## **ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ**

*Маматқулова Камолахон Баходировна  
Дангара тумани 25 мактаб психологи*

Ватанимиз келажаги ислохотларнинг тақдири ва уларнинг натижалари, халқимизнинг билим даражаси давр талабига ва тарраққиётига қанчалик мослигига, қандай мутахассислар етказиб бериб, ўрнимизни эгаллашларига боғлиқдир. Шунинг учун мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев барча соҳаларни жумладан таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишга катта эътибор қаратаётгани таълим тизими соҳасида туб бурилаш ясамоқда десак муболаға бўлмайди. Шунга кўра, юқори малакали кадрлар тайёрлаш давлат сиёсати даражасидага кўтарилмоқда.

Психология фанида қобилият тушунчасини таҳлил қилишда шахс шақлланишига таъсир этувчи уч омил ҳисобга олинади. Яъни шахсга ота-она томонидан ўтган ирсий белгилар, шахс шақлланган ижтимоий муҳит ва шахсга



бериладиган таълим-тарбия натижаси. Демак қобилият тушунчасини таҳлил қилишда юқоридаги уч омил таҳлили асосий ўринда туради.

Психологик луғатларда қобилият шахснинг муайян фаолият турини муваффақиятли бажаришга бўлган лаёқат даражасини ифодалайдиган, турмуш жараёнида ҳосил қилинган индивидуал хусусиятлари йиғиндисидир деб таъриф берилади.

Билим, кўникма, малакалар орттириш шу хусусиятларга боғлиқ бўлади, лекин шу хусусиятларнинг ўзлари мазкур билим, кўникма, малакаларга тааллуқли бўлмайди. Қобилиятлар билим, кўникма, малакаларни эгаллашда намоён бўлса ҳам, билимлар ва кўникмаларни эгаллаш билан боғланиб қолмайди. Қобилиятлар ва билимлар, қобилиятлар ва малакалар, қобилиятлар ва кўникмалар айнан бир-бирига ўхшаш нарса эмас.

Қобилиятлар билим, малака ва кўникмаларнинг ўзида кўринмайди, балки уларни эгаллаш динамикасида намоён бўлади, яъни, бошқача қилиб айтганда, мазкур фаолият учун муҳим бўлган билимлар ва кўникмаларни эгаллаш жараёни турли тенг шароитларда канчалик тез, чуқур, осон ва мустаҳкам амалга оширилишида намоён бўлади. Худди ана шу ўринда юзага чиқадиган фарқлар бизга қобилиятлар ҳақида гапириш ҳуқуқини беради.

Ақлий истеъдод даражаси баланд болалар изланувчан, ҳар нарсага қизиқувчи ва уйғоқ қалбли бўладилар. Қобилиятлилиқ шахснинг ақл-фаросат, характер, хотира ва рухий кечинмалари билан бевосита боғлиқдир. Психологияда қобилиятларни миқдор жиҳатдан ўлчаш муаммоси узоқ тарихга эгадир. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида қатор психологлар (Кеттел, Термен, Спирмен ва бошқалар) оммовий ихтисослар учун касб танлашни амалга ошириш зарурияти билан боғлиқ бўлган талаблар таъсири остида таълим олаётганларнинг қобилиятини аниқлашни тақлиф қилиб чиқдилар. Уша пайтларда қобилиятларни ўлчаш усули сифатида ақлий истеъдод тестларидан фойдаланилди.

Киши ўзида муайян фаолиятга қобилият бор ёки йўқлигини сезиш ёки сезмаслигини билдирадиган омил таълим методикаси ҳисобланади. Таълим методикаси қаерда ожиз бўлса, ўша ерда қобилиятларнинг туғма эканлиги

ҳақидаги гаплар пайдо бўлади. Ўз-ўзидан маълумки, методика доим такомиллашиб боради, бу эса «туғма қобилиятлар» доирасини торайиб боришига олиб келади. Қобилиятлар ва истеъдодларни шакллантириш муаммоси катта ижтимоий ва давлат аҳамиятига эга бўлган масаладир.

Дастлабки қобилиятлар ижтимоий муҳит таъсирида оилада, мактабгача таълим муассасаси ва мактаб таълимида босқичма-босқич ривожланиб боради.

Психологлар ўқувчи қобилиятларини диагностика қилишда ўқувчининг асосий етакчи фаолият хусусиятларини инобатга олиши керак чунки, қобилият фаолиятда намоён бўлади.

Психологиянинг методологик асосининг кўрсатишича, қобилиятлар – имкониятлар тизимидан ташкил топган бўлиб, у ёки бу фаолиятдаги зарурий маҳорат даражасидир.

Ташкилотчилик қобилиятларини эса узоқ вақт Л.И.Уманский ўрганган. Қобилият муайян табиий борлиққа боғлиқ бўлсада, лекин улар фақат табиатнинг инъоми эмас, балки инсоният тарихий тараққиётининг бебаҳо (қимматли) маҳсулидир. Шунинг учун ҳам қобилиятларнинг намоён бўлиши шахслар томонидан ижтимоий эҳтиёжларни қондириш давомида ижтимоий шартланган билимлар ва кўникмаларни таркиб топтиришнинг яққол усулларига бевосита боғлиқдир.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки Ўзбекистонда бугунги кунда ўсмир ёшларнинг қарийб 70 % интернетдан кенг фойдаланиб келади, лекин уларнинг қанчаси бу тармоқдан тўғри мақсадда фойдаланиши бизнинг энг оғрик нуқтамиз бўлиб қоляпти. Чунки дунёдаги барча бузғунчилик ҳаракатларининг келиб чиқиш сабаблари вертуал олам орқали ёшларимизга бузғунчи ёд ғояларни уларнинг онгига таъсир этиш орқали амалга оширилмоқда. Бизнинг мақсадимиз уларда юқоридаги келтириб ўтилган қобилиятлар билан бир қаторда танқидий фикрлаш қобилиятларини ҳам шакллантириб боришимиз керак.

Ойнани ҳар икки тарафи бўлгани каби ижтимоий тармоқларда маълумотларнинг барчаси ҳам инсон учун манфаатли бўлавермайди. Ёшларимиз бу тизимдан фойдаланар экан ҳар бир материалларни салбий ва ижобий

томонларини чуқур тафаккур қила олиши, нима учун кераклиги, қандай мақсадни кўзлаб веб сайтларга жойлаштирилганини онгли тарзда фаҳмлашлари керак.

Президентимиз таъбири билан айтганда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун ёшларимизга таълим-тарбия жараёнида, оилада, ОАВларда ва ахборот ҳавфсизлигига оид тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришда ижтимоий тармоқларнидан фойдаланишни чекламасдан улардан тўғри ва мақсадли фойдаланиш маданиятини шакллантириб боришимиз керак.

Билдирилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, қолган барча қобилиятлар тузилиши ҳам махсус хусусиятларга эга бўлиб, ўзига хос касбий аҳамият касб этиши билан кўп жихатдан характерлананишини мактаб амалиётчи психологларимиз эътиборга олишлари керак бўлади.

#### Адабиётлар:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболнинг асосий тамойиллари. Т.: 1995.
2. М.ТДавлетшин. Укувчиларда қобилиятнинг таркиб топиши. "Ўқитувчи".Т., 1965.
3. Умумий психология. А.В. Петровский таҳририда. Т. 1992й.

---

## TUSHKUNLIK VAZIYATIDA QOLGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO`RSATISH USULLARI

*Egamnazarova Shaxnoza Ilhomjon qizi  
Andijon tumani 33-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda yuzaga kelayotgan tanglik vaziyati, taglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlik, tanglik vaziyati, psixika, bilish jarayonlari, referent guruhlar, o'tish davri, kompensatsiya, giperkompensatsiya, agressivlik.

Bugungi kunda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiy sogʻlom, maʼnaviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal surʼatlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki oʻsib kelayotgan yosh avlodning taʼlim-tarbiyasiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida oʻquvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari oʻquvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda.

Tanglik vaziyati-shaxsning psixikasida roʻy beradigan hissiy zoʻriqishlarni kuchli darajada namoyon boʻlishidir. Bunday holat shaxsning bilish jarayonlariga, aqliy faoliyatiga, shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan oʻrniga bogʻliqdir. Shuningdek, bu holat shaxsdagi xulq-atvor meʼyorlarida ham oʻziga xos oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi.

Oʻsmirlarni tengdoshlari oʻrtasida uni qoniqtiradigan oʻziga xos oʻrinni egallashga intilish xulq-atvor meʼyorlariga va referent guruhlar qadriyatlariga yuqori darajada qiziqish bilan qoʻshilishi kuzatiladi. Oʻsmir psixikasidagi oʻtish davri unda bolalik va kattalik xususiyatlarini birgalikda bir vaqtda mavjud boʻlishi bilan izohlanadi. Oʻsmirlik yoshida odatda kichikroq yoshdagilar uchun xarakterli boʻlgan xulq-atvor reaksiyalariga moyillik koʻpincha saqlanib qoladi. Ularga quyidagilar taalluqli:

**1.Voz kechish reaksiyasi.** U xulq-atvorning oddiy shakllaridan munosabatlar, uydagi majburiyatlar, oʻqish va boshqalardan voz kechishida ifodalanadi. Aksariyat hollarda odatiy hayot sharoitlaridan keskin uzilishlar (oiladan uzilish, maktabni oʻzgartirish) sabab boʻladi.

**2.Qarshilik, qatʼiy norozilik, eʼtiroz reaksiyasi.** U oʻz xulq-atvorini talab qilinayotganlarga qarama-qarshi qoʻyishida namoyon boʻladi: namoyishkorona mardlik, sababsiz darsga kelmaslik, qochish, oʻgʻrilik qilish va hatto norozilik sifatida amalga oshiriladigan bir qarashda beʼmani boʻlgan xatti-harakatlar.

**3.Taqlid qilish reaksiyasi.** U odatda bolalik yoshiga xos boʻlib, tugʻilgan va yaqin insonlarga taqlid qilishda namoyon boʻladi. Taqlid reaksiyasi asotsial muhitdagi shaxs sifatida kamolotga yetgan oʻsmirlar guruhi uchun xosdir.

**4.Kompensatsiya reaksiyasi.** U o`zining bir sohadagi muvaffaqiyatsizligini boshqasidagi muvaffaqiyatlari bilan to`ldirishga intilishida ifodalanadi. Masalan, o`zlashtira olmayotgan o`smir sinfdoshlari hurmatiga, qo`pol, nojo`ya xatti-harakatlari orqali erishishga harakat qilishi mumkin.

**5.Giperkompensatsiya reaksiyasi.** Bola yoki o`smir ko`proq muvaffaqiyatsizlikka duch keladigan sohalardagina aynan muvaffaqiyat qozonishga intilishi bilan asoslanadi.

O`smir uchun xos bo`lgan psixologik reaksiya ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta`sir asosida yuzaga keladi. Masalan, o`smirning ozodlikka intilishi. Bu holatda o`smirning mustaqillikka, kattalar vasiyigidan xalos bo`lishga intilishini aks etadi. Buning natijasida o`smirning uy yoki maktabdan qochishi, ota-onalar, o`qituvchilarga qaratilgan salbiy munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlar davolash ya`ni korreksiyasini talab qiladi. Xulq-atvor buzilishlarining patologik va patologik bo`lmagan shakllarini o`z vaqtida farqlash juda muhim, chunki ular turli shakldagi pedagogik va ijtimoiy yordamga muhtoj ayrim vaziyatlarda doir-darmon bilan davolashni talab qilinadi. O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning muhim yo`nalishi muammo va qiyinchliklarni bartaraf qilish usullarini shakllanish bilan bog`liq. Ulardan ayrimlari bolalikdanoq murakkab bo`lmagan vaziyatlarni hal qilish uchun shakllanadi va odatga aylanadi.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalari quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to`playdi:

**1.Nosog`lom oila muhiti.** Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand o`rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo`lishi oilaviy muhitning ta`sir darajasiga bog`liq hisoblanadi.

**2.Tengdoshlar guruhi.** Bolalar oiladan tashqarida o`z tengqurlari bilan bo`lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o`zlariga singdiradilar. Ko`pgina hollarda bolalar tengdosh do`stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o`zlarini agressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar o`z tengdoshlari orasidan siqib

chiqariladilar. Bunday bolalar o`zlarini ho`rlangandek his qilib, o`zlari kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammoning ustiga yana muammo tug`dirmasdan qolmaydi.

**3.Ommaviy axborot vositasi.** Bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli quoldir. Bu borada internetning ta'siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o`zlarining xususiyatlariga to`g`ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o`rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil'mlar, ko`rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta'sir qilmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o`smirlar guruhidagi tanglik holatini bartaraf etish uchun quyidagi psixologik trening mashg`ulotlaridan foydalanishni tavsiya qilaman.

### **O`smir shaxsida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening mashg`ulotlari**

#### **“Mening kayfiyatim nimaga o`xshaydi?” mashqi**

**Maqsad:** shaxsda emotsional holatlarni anglash, ularni boshqarish va nazorat qilish ko`nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu mashq shu turdagi mashg`ulotlar uchun faollashtiruvchi o`yin vazifasini o`tashi mumkin. U ishtirokchilarga o`zlarining emotsional holatlarini anglash va ularni “shu yerda va hozir” tamoyili asosida obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi.

**Ko`rsatma:** o`zingizga quloq soling. Sizning hozirgi kayfiyatingiz qanday rangga o`xshaydi?

#### **“Hissiyotlarni sanaymiz” mashqi**

**Maqsad:** ishtirokchilarning emotsiya borasidagi so`z boyligini oshirish

**Ko`rsatma:** keling, kim turli hislarni anglatuvchi so`zlarni ko`proq bilishini aniqlab olamiz. Navbat bilan so`zlarni ayting va ularni vatmanga yozib boring.

Trener uchun ma'lumot. Ushbu mashqni guruhning tayyorgarlik darajasiga qarab musobaqa yoki “aqliy hujum” shaklida tashkil etish mumkin.

Ishtirokchilarning vatmanini butun mashg`ulot davomida yordamchi vosita sifatida qo'llash mumkin. Qolaversa, mashg`ulotlar davomida ushbu “lug`at” yangi so`zlar bilan boyitib borilishi mumkin. Shunga alohida e'tibor qaratinglarki, ro`yxatda u yerda asosiy

emotsiyalar (g`azab, g`am, quvonch, qo`rquv, xafagarchilik) qolib ketmasligi kerak. Agar ishtirokchilardan biri yozilganlarning emotsiyalarga tegishliligiga shubha qilsa, qolganlardan buni izohlab berish so`raladi.

Mashg`ulot yakunida ishtirokchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: “Oxirgi marta nazorat ishi yozganingizda o`zingizni qanday his qildingiz?”, “Nojo`ya ish qilib qo`yganingizda o`zingizni qanday his etasiz?”.

Muhokamada “Sizningcha, eng yoqimsiz his qaysi?”, “Qaysi biri eng yoqimlisi?”, “Quyida sanab o`tilgan hislardan qay biri sizga yaxshi tanish?” kabi savollarga javob berish taklif qilinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. R.Y.Toshtemirov, E.G'.G'oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.

---

## O'QUVCHILAR BILAN O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK KONSULTATSIYA USULLARI

*Saparova Nafosat Abdiyevna*  
*Qashqadaryo viloyat Kasbi tumani 56-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab psixologining o`quvchilar bilan o`tkazadigan individual suhbat usullari haqida ma`lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** individual, hissiy holat, xulq-atvor, aloqa o`rnatish, tinglash, pozitsiya, o`smir, tajovuzkorlik, liderlik.

Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari ish faoliyatida uchrab turadigan eng katta kamchiliklardan biri o`quvchilar bilan individual ishlashda nimalarga e`tibor berish lozimligi haqida to`liq bilimga ega emasliklaridir. Individual suhbatda amaliyotchi

psixolog eng avvalo suhbatni qanday o`tkazishni bilishi kerak, o`quvchi suhbat jarayonida o`zini qiynab turgan muammoni bemaolol ayta olishi, psixologga ishonishi, uni yordam bera olishi, muammoni bartaraf etish yo`llarini topib berishiga ishonch hosil qilishi kerak. O`quvchi bilan individual suhbat jarayonida u bilan faqatgina tabiiy, ishonchli munosabatlarni o`rnatish zarur.

Avvalo suhbat olib borilayotgan bolaning hissiy holatini his qila bilish kerak. Masalan, bolaga jarohat yetkazishi mumkin bo`lgan savollarni bermaslik, xulq-atvorini his qila bilish, o`zining bolalikdagi tajribasiga tayangan holda, uni o`zidek qabul qila olish qobiliyati, bolaning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, xulq-atvorning yosh va individual xususiyatlarini e`tiborga olish kerak.

Agar bolaning jamiyat bilan aloqalari buzilgan bo`lsa, u bilan aloqa o`rnatishning birgina usuli – u yashayotgan muhitni o`rganish. O`quvchiga sezdirmagan holda uning ota-onasi bilan suhbatlashish, oilaviy sharoitini o`rganish, shundan keyingina o`quvchi bilan individual suhbat o`tkazish kerak.

Suhbatni o`tkazishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

Nima?, Qayerda?, Qachon? kabi savollarini berib ma`lumot olishga harakat qilish lozim. Birinchi suhbatlashganda Nima uchun? tarzidagi savollarni bermaslik kerak. Bola balki bu haqida o`ylab ham ko`rmagandir va bu tariqa savol uni o`zini noqulay his qilishiga olib kelishi mumkin. Balki javobni bilar va u o`zida ichki qarshiliklarni his etib, bu haqida gapirishni istamas. Bola o`zi hohlamagan ma`lumotlarni berishi, hamda bunday savol uni keyingi uchrashuvga kelishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Birinchi suhbatda bola bera olishi mumkin bo`lgan ma`lumotlarnigina so`rang - uning his-tuyg`ulari va nafsoniyati bilan ehtiyotkorona munosabatda bo`lish lozim.

Individual suhbat o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

*1. Aloqa o`rnatish.* Aloqa o`rnatish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinishi zarur: Faol tinglash, pozitsiya, pozani suhbatdoshga nisbatan moslashtirish, samimiylik, suhbatdoshga, uning noverbal reaksiyalariga yo`naltirilgan diqqatlilik, suhbatga yo`naltirilgan e`tibor.



2. *Tinglash* – bolaga shunchaki o'z e'tiborini qaratish emas, balki o'zini haqiqatan ham uni tinglab, to'g'ri tushunayotganligingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish lozim.

Tinglayotgan bolaning ro'parasiga o'tirish. Bolani haqiqatan ham to'liq tinglash uchun, uni albatta ko'rib turish kerak. Bundan tashqari, u ham bizni ko'rib turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro'parasida o'tirish maqsadga muvofiqdir.

Ochiq bo'lish. Chalishtirib turilgan oyoq va qo'llar o'z o'rnida himoyalalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi, qulayroq o'tirib olib, qo'l va oyoqlarni chalishtirmay, o'zini erkin tutib o'tirgan ma'qul.

Tinglayotgan bola tomoniga biroz og'ib o'tirgan ma'qul. Bunday harakat, odatda, suhbatdoshda bizning unga, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bo'layotganimizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishimiz darajasidan dalolat beradi.

3. *Oila haqida suhbat*. Oila haqida suhbatlashayotganda bola o'z oilasi deb bilgan yoki bir uyda yashovchi insonlar haqidagi gapirib bergan kerakli ma'lumotlarni yozib olishdan boshlash mumkin. So'ng oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga shoshmasdan ohista o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi: kim uni qo'llab-quvvatlaydi, kim esa teskarisi, ko'mak bermasdan ruhini tushirib yuboradi.

3. *Munosabatlar haqida suhbat*. O'smir bilan muloqot o'rnatishda bunday so'zlashuv juda muhimdir. Ushbu suhbatda o'smirning harakteri, o'zaro munosabatlari, liderlik fazilatlarining mavjudligi, tajovvuzkorlik qay darajadali, spirtli ichimliklarga va chekishga bo'lgan munosabati, vaqtini o'tkazish uslubi, norasmiy guruhlardagi me'yorlar va unga bo'lgan munosabatlari haqida bilib olish mumkin.

4. *Maktab haqida suhbat*. O'smir bilan maktab haqida suhbatlashish juda muhimdir. Maktabdagi ta'limi haqida savollar berish mumkin: agar maktabni o'zgartirgan bo'lsa qachon va nima sababdan, barcha fanlar bo'yicha o'zlashtirishi qay darajada, maktabdan so'ng qayerda o'qimoqchi, qaysi fanlar yoqadi, shular haqida so'rashi mumkin.

5. *Qiziqishlari haqida suhbat*. Suhbatning aynan ushbu bosqichida, ayniqsa o'smirlar bilan aloqa o'rnatish osonroq bo'ladi. Hayotda unga haqiqatdan ham o'z

tanlovi bo`yicha sodir bo`layotgan qiziqarli narsalar haqida gapiradi. U o`zida hamohang bo`lmaganlikni topishga va u haqida ozgina gapirib berishga qodir bo`ladi.

6. *Huquqbuzarlik haqida suhbat.* Ushbu mavzu bo`yicha suhbatni oxirgi bosqichda bundan oldingi mavzulardan so`ng olib borgan yaxshi. Birinchidan, o`smir tashqaridan o`zini qanchalik hotirjam ko`rsatmasin vaziyat u uchun yetarlicha jarohatli bo`lishi mumkin. Ikkinchidan, bizni unga munosabatimiz emas, o`z qilmishiga bo`lgan shaxsiy fikri, munosabati qiziqtiradi. Uchinchidan, odatda ushbu bosqichda aloqa deyarli o`rnatilgan bo`ladi. Suhbatdoshingizni mana shularga ishontirib, unga yordam bera olishingizga ishontirsangizgina u o`zining muammolarini siz bilan o`rtoqlashadi va maslahatlaringizga amal qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. G`oziyev E.G`.Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi).T.,O`qituvchi, 1994.
5. Davletshin M.G.,Do`stmuhamedova Sh.A.,To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogic psixologiya.
6. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent. 2000.

---

## **ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЗЎРАВОНЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА КОРРЕКЦИЯ ҚИЛИШ**

*Халилова Ойдиннисо Эркиновна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 1-сонли ХТЧУИДМ психологи*

**Анотация:** Ўсмирлар орасида “Буллинг” яъни “Зўравонлик”ни келиб чиқиши, унинг салбий оқибатлари ҳамда муаммонинг ечими тўғрисида”

**Калит сўзлар:** “Буллинг”, низонинг келиб чиқиши, унинг турлари ҳамда профилактикаси.

Истиқлолнинг дастлабки йилларидан таълим Ўзбекистон Республикаси ижтимоий тараққиётининг устувор йўналиши деб эълон қилинди. Президентимиз ташаббуси ва бевосита раҳнамолигида жаҳоннинг бу борадаги илғор тажрибалари ҳамда халқимизнинг кўп асрлик миллий қадриятларини ўзида акс эттирган янги таълим тизими ҳаётга татбиқ этилмоқда. Мамлакатимизда баркамол авлодни шакллантириш, ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларни олиб борилаётган ислохотларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда. Юксак маънавиятли, қатъий ҳаётий позиция, кенг дунёқарашга эга бўлган фидойи ва ватанпарвар ёшларни тарбиялаш, ўқувчи-ёшларни ижтимоий муҳофаза қилиш, ижтимоий эҳтиёжманд оилалар фарзандларини моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш, ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, улар ўртасида ҳуқуқбузарликлар ва жиноятлар содир этилишининг олдини олиш ҳозирда таълим-тарбия жараёнида энг олий мақсадлардан бири ҳисобланади. Шунингдек, таълим тизимида **зўравонликни олдини олиш** ҳам энг муҳим вазифалардан бири саналади.

Ўтган асрларда “Зўравонлик”лар тўғрисида ёзиб қолдирилган бадиий асарлар мавжудлигига қарамасдан, ушбу мавзуга етарлича аҳамият берилмаган. “Зўравонлик” ҳақида дастлаб, 70-80 йилларда Норвегия давлатида тадқиқот ўтказилган ва илк маротаба БМТда 2006 йил глобал мавзу сифатида муҳокама қилинган. Ҳозирги кунга келиб оммавий ахборот воситалари ҳамда ижтимоий тармоқлар орқали муаммонинг мавжудлиги ҳамда аҳамиятга эгалиги яққол сезилиб қолган.

Таълим соҳасида фаолият олиб бораётган педагог ходимларнинг етарлича малакага эга бўлмаганликлари ёки юзага келган муаммони бартараф этишга ўқувсизлиги сабабли мактабда ўқувчи билан ўқитувчи, ўқувчи билан юқори синф ўқувчиси, ўқувчи билан синфдош ўртоғи (тенгдоши), ўқувчи билан ота-онаси ва айрим ҳолларда ўқитувчи билан ота-оналар орасидаги “Зўравонликлар”ни учратиш мумкин. Ушбу ҳолатларнинг олдини олиш учун таълим муассасаларида малакали психологлар фаолиятини йўлга қўйиш, психологлар билан ўқитувчилар, синф раҳбарлар орасида яқин муносабатларни ўрнатиш, юзага келган муаммога

холисона ёндашиш, ота-оналар билан ишончли алоқаларни ўрнатиш ўта муҳим ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, болаларга, ўспиринларга, ўсмирларга нисбатан ишлатилган “Зўравонлик”ни оқлаш ёки сабабини излаш, кечириш умуман мумкин эмас. “Зўравонлик”ларнинг ҳар-хил турини учратиш мумкин. Масалан, бир марталик “Зўравонлик”, доимий, мунтазам равишда ўтказилган тазйиқ, куч ишлатилган “Зўравонлик” ёки ҳақоратомуз сўзлар орқали етказилаётган “Зўравонлик”лар мавжуд. Тазиққа учраган ўсмир ҳар доим ҳам яққол кўзга ташланмайди. Чунки, тенгдошлари, ўқитувчилари ҳамда ота-онаси олдида “шарманда” ёки “ожиз”, “заиф” бўлиб кўринишдан чучийди.

БМТнинг маълумотига кўра ҳар йили дунёда 246 миллион ўсмир “Зўравонлик”дан азият чекиб келмоқда. Энг ачинарлиси “Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш” тўғрисидаги Концепцияларнинг қабул қилинишига қарамасдан ушбу кўрсаткич кундан кунга ўсиб бормоқда. Инсонни шахс сифатида камол топиши учун тўсиқ бўлиши мумкин бўлган омиллардан бири “Зўравонлик”нинг келиб чиқиши оқибатида ўқувчи ҳаётга бўлган ишончини йўқотади.

“Зўравонлик”ка учраган болага психологик ёрдам кўрсатишда ота-оналар билан ҳам ишлаш жуда муҳим ҳисобланади. Масалан, болага ҳар доимги ҳатти-ҳаракатини такрорламаслиги, йиғлаш ёки қўл кўтариш ўрнига ҳафа қилган тенгдошини кўзига тик боқиш муҳимлиги, юзага келган тушунмовчиликни кулгу орқали енгиш мумкинлиги ҳақида тушунчалар (маслаҳатлар) берилиши мумкин. Шунингдек, боланинг психик саломатлигига жуда ҳам кучли таъсир қилган “Зўравонлик” ишлатилган бўлса, тазйиқ ўтказган тенгдошлари, ўқитувчилари билан вақтинча мулоқотни тўхтатиш шартлиги ҳақида ҳам маълумот бериш керак. Болага нисбатан ортиқча сўзларни ишлатмаслик, уни айбдор қилиб, қанчалар омадсиз эканлиги, ҳар доим уларга муаммо туғдираётганлиги ҳақида эмас, аксинча, фарзандларини маънавий қўллаб-қувватлашлари таъкидланиши жоиз. Маълум вақт ўтгандан кейин боладаги ўзгаришни аниқлаш мақсадида унга руҳияти билан боғлиқ бўлган саволларни (Ўзингни қандай ҳис қиляпсан?, Энди нима қилмоқчисан? каби) бериш фойдадан ҳоли бўлмайди.

Ота-оналар орасида фарзанд тарбиясида етарли тажрибага эга бўлганлари юзага келаётган муаммоларни осонлик билан ҳал қилиб, фарзандларига кераклича ёрдам кўрсатиб, уларга суянчиқ булаётганликлари кўпчиликини ташкил қилади. Лекин, уқувсиз ота-оналар, фарзандини тақдирига бепарқ бўлаётганлари, уларнинг келажаги билан қизиқмаётган ота-оналарни ҳам тажрибада кўриш мумкин.

### **Катталарнинг ўрнатилган бўлишлари.....**

- Психологик томондан кучли ҳамда меҳрибон бўлиш;
- Ҳис-туйғуларни бошқара олиш;
- Ҳар доим маслаҳат, қўллаб-қувватлаш, ёрдам бериш;
- Тўғри мақсадлар сари интилиш

каби сифатлар орқали болаларга шахсий намуна кўрсатиш лозим. Бола учун доим очиқ мулоқотга тайёр бўлиш, дўстона суҳбатлашиш, ҳар доим муаммонинг ҳажмидан қатъий назар уни ҳал этишда ёрдамга тайёр бўлиш, юзага келган салбий ҳолатга профессионал ёндашиб, ҳазил-мутойиба йўли орқали, ҳақорат сўзларни ишлатмаган ҳолда суҳбатлашиш тавсия этилади.

Ота-оналар, фан ўқитувчилари, синф раҳбарлар ҳамда мактаб психологлари психик саломатлигида нуқсон бор ўқувчилар, “Зўравонлик”ка учраган болалар, тазйик остида қолган ўсмирларни “Кечиримли” бўлишга ундашлари, улар билан содир бўлган ҳолат бошқа тенгдошлари билан ҳам содир бўлиши мумкинлиги, айб кимда бўлишидан қатъий назар “Узр” сўраган одам энг кучли одам ҳисобланиши, ҳаётини мисоллар билан болани шу ҳолатдан чиқаришлари керак. Агар, юқорида кўрсатилган тавсиялар натижа бермаса унда ўз вақтида психиатр ёрдамидан фойдаланиш зарур.

Фикримиз сўнгида ота-она фарзанди учун энг яқин инсон эканлиги, улар фарзандларига фақат ўрнатилган бўлиш кераклиги билан бирга, уларга ҳаётда қоқилмасдан мустаҳкам шахдам қадам ташлашлари учун таянч бўлишлари ўта муҳим саналишини таъкидлаб ўтамыз.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Л.А.Глазырина, М.А.Костенко, Е.В.Лопуга ларнинг «Предотвращение насилия в образовательных организациях. Информационно-методическое пособие для

руководителей и педагогических работников образовательных организаций (2-ое дополненное издание) Барнаул-2017.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

*Насреддинова Камила Мурадовна  
Психолог школы № 168 г.Ташкента  
Магистр педагогических наук*

**Аннотация:** в данной статье освещены основы формирования духовной культуры у учащихся старших классов средних общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** духовность, нравственность, образование, воспитание, формирование.

**Аннотация:** куйидаги мақолада умумталим мактабларнинг юкори синфларда манавиятин ишакиллантириш тугрисида сузюритилади.

**Калит сузлар:** манавият, мъарифат, талим, шакиллантириш, тарбия.

**Annotation:** the article is devoted to the base formation of the spiritual culture of students of ordinary secondary schools.

**Key words:** spirituality, morality, education, upbringing, formation.

С момента приобретения независимости наше государство выбрало свой, особый путь развития, что потребовало крупномасштабных реформ, коренных преобразований, охвативших все сферы жизни.

Ощутимые перемены произошли и в народном преобразовании, поскольку социально – экономический и культурный прогресс любого общества неразрывно связан с его духовным потенциалом. Человек должен жить великими устремлениями, благими мыслями и стремиться к нравственному совершенствованию, овладеть общей культуры. Известно, что культура – общественное, общечеловеческое и национальное явление. Она охватывает

совокупность всего, созданного человеком в области производства, общественной и духовной сферы.

Формирование духовной культуры – это основная часть духовно – нравственного воспитания. Понятие « духовно-нравственное воспитание» охватывает широкий круг вопросов и включает в себя совокупность общенародных и национальных духовно- нравственных ценностей, национальных качеств личности, которые проявляются в сложных нравственных отношениях человека к Родине, труду, собственности, людям, окружающей природе и к самому себе.

Решение проблем формирования духовной культуры –реализация одной из важнейших задач, поставленных перед обществом в целом и школой в частности. Изучение теоретических источников и педагогическое наблюдение за поведением учащихся старших классов показали недостаточную исследованность и жизненную необходимость реформирования процесса формирования духовной культуры у учащихся 9-11 классов, как актуальной проблемы.

Анализ психолого-педагогической, философской, научной литературы по вопросам формирования духовной культуры показал, что в научной литературе, энциклопедиях, словарях и учебниках неданно однозначного определения понятия «духовно-нравственное качество», «духовность» и «нравственность». В нашей статье, предпринята попытка раскрыть сущность и содержание нравственности, духовности, дать более конкретное определение. Нравственность – неотъемлемая часть личности, обеспечивающая добровольное соблюдение существующих норм, правил и принципов поведения. Они находят отражение в отношении к Родине, обществу, коллективу и отдельным людям, к самому себе, труду и результатам труда. Духовность – социальное явление, проявление «человеческого в человеке», возвышающее его над собственными физиологическими потребностями, эгоистическим расчётом.

Педагогикой обоснованы организационные формы и методы данной проблемы. Проектируемые духовно нравственные качества практически

формируются в процессе решения конкретных задач. Содержание духовно-нравственных качеств, формируемых у учащихся, в значительной степени определяется потребностями независимого развития Республики Узбекистан, в условиях рыночных отношений, опирающихся на общечеловеческие национальные и духовные ценности.

В древнейших устных памятниках тюркского народа отражены первые представления о совершенстве человека, которые стали основой развития идеи о совершенной личности. А в древних просветительских источниках, например «Авесте», совершенство человека рассматривалось в единстве развития его интеллектуальных, нравственных и физических способностей.

В научных трактатах учёных, мыслителей Востока, уделено большое внимание вопросам умственного, духовного, физического и эстетического воспитания личности. Они также выдвинули идею о важности науки для формирования личности и межличностных отношений. В творческом наследии мыслителей Востока большое место занимает данная ими классификация наук. Они утверждали, что для всестороннего развития человек должен, в первую очередь, овладеть научными знаниями, а основу умственного развития составляет сообразительность, способность рассуждать и мыслить.

Обучение – это важнейший фактор формирования духовной культуры учащихся. Воспитательное воздействие преподавания происходит в процессе усвоения учащимися содержания учебного предмета и зависит от целенаправленной организации учебного процесса и личности преподавателя, обратной связи между учащимися и педагогом.

Традиционные формы обучения не учитывают того обстоятельства, что развитие духовно-нравственных чувств, нравственная образованность, духовная культура, формирование духовно-нравственного сознания обогащается лишь при применении целенаправленного, современного подхода к внеурочным формам работы с учениками старших классов. На основе научного материала, произведений мыслителей Востока, изучения их жизни и деятельности, обычаев



и традиций узбекского народа, содержащих высокие образцы духовно-нравственных идей.

На основе вышеизложенного можно предположить, что имеет место необходимость дополнения и дальнейшего реформирования процесса формирования духовной культуры у учащихся старших классов. Усовершенствовать планы, программы по формированию духовной культуры, воспитания увеличить издание методических рекомендаций, наглядных пособий, что поможет улучшить уровень духовной культуры у учеников 9-11 классов.

### Литература.

1. Антология педагогической мысли – сост. С.Р.Ражабов. Педагогика, 1986
2. “Как выбирают профессию” Алимова Е.А. М.Просвещения 1999 г.
3. Основы духовности. Кучкаров В. Янгиюл полиграф сервис 2017г
4. Продуктивная педагогика. Подласый И.П. Народное образование, 2003г.

## BUGUNGI GLOBALLASHGAN SHAROITDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH OMILLARI

*Yuldasheva Gulnozaxon Abdumannobovna  
Andijon viloyati, Paxtaobod tumanidagi  
46-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada bugungi tezkor rivojlanayotgan sharoitda yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik himoya qilish omillari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, axborot, jamiyat, psixika, ong, salbiy ta'sirlar, xulqatvor, xatti-harakat, sharoit, muhit.

Sir emaski, jahonda globallashuv jarayoni tobora shiddatli tus olayotgan, dunyo mamlakatlarning inson manfaatlariga xizmat qiladigan tom ma'nodagi demokratik yo'lni tanlab olishga bo'lgan intilishlari kuchaygan bir sharoitda axborotning roli kun

sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish rivojini axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy axborot tizimi kompyuter va axborot tizimi, mahalliy va global tarmoqlar, internet tarmog'i, multimediali texnologiyalar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ular jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Insoniyat axborotlashuv sohasida inqilobiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bir so'z bilan aytganda, axborotlashgan jamiyatda yashamoqdamiz. Xo'sh, ayni damda ushbu shiddat bilan kechayotgan jarayonning inson psixikasiga ta'siri qanday? degan savol tug'iladi. Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan esa buning tamomila aksidir. Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u barcha sohalarda bo'lgani kabi yoshlar ongi, psixikasi hamda ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan yoshlar madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar ham insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalar, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm kabi tushunchalar bilan zaharlovchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga aylanmoqda. Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan «ommaviy madaniyat» niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab har qachongidan ko'ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg'or

g'oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e'tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo'layotgan olamshumul o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum bo'lmoqda. Shu o'rinda ulug' alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar. «Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p. Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rnashib qolib, go'yoki unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuvchi fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi». Qarang, bundan o'n asr avval yashab o'tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi, ayniqsa, o'zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy so'z bilan aytganda, «jurnalist» deb yurgan ayrim kimsalarga bahs berib o'tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi. Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va kompyuter tizimlari xavfsizligini ta'minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. «Bugungi kunda, - degan edi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi». Kurashning bu turida eng samarali qurol - axborot. Shu bois, axborotni o'z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig'ish bosqichlari o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya'ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Mutaxassislarning xulosalariga qaraganda, rahbarlar, boshqaruv xodimlari axborotlar bilan ishlashga o'z vaqtlarining 30

foizdan 80-95 foizgachasini sarflashar ekan. Bu tabiiy holat. Chunki o'z vaqtida va ishonchli axborotlarga ega bo'lish hamda ularni o'z vaqtida yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta'minlashning sharti hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli - axborot xurujlari bo'lsa, eng samarali vosita - axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi. Hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotlarning asl maqsadi-yoshlarimizning qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan. Ushbu axborot tahdidlarining salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani uzviy holda, birga olib borish zarur. Ta'lim berish jarayonida maqsadga muvofiq tarbiyalab borish, tarbiyalash jarayonida ta'limga oid ma'lumotlar, usullardan o'rinli foydalanish har doim ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida asosiy e'tiborni talabalarda tanqidiy tafakkurning rivojlantirilishiga, shuningdek ularda axborotpsixologik xavfsizlikning ta'minlanganligi, psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganligiga qaratish darkor. Ayniqsa, yosh davrlari bilan bog'liq shaxs inqiroz holatlari mavjudligini ota-onalar inobatga olishlari, mazkur holatlar o'smirlik davrida alohida e'tibor talab qilishini bilishlari zarur. Globallasuv sharoitda farzandlarimiz tarbiyasini virtual olam ixtiyoriga berib qo'yish esa yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Jamiyatimizning, mamlakatimiz fuqarolarining jismoniy, psixologik, axloqiy, ma'naviy, madaniy jihatdan sog'lom bo'lishi barchamizga bog'liqligini e'tibordan soqit qilmasligimiz zarur. Bunda esa albatta, oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik, fuqarolik institutlari hamkorligi kuchaytirib borilishi, barcha faol fuqarolik pozitsiyasini egallashi muhim ahamiyatga egadir. bugungi kunda yoshlarni turli yot g'oyalar, virtual olamning salbiy ta'sirlaridan himoyalash e'tiborga molik, davlat siyosati darajasidagi masala ekanligidan kelib chiqib, bu yo'nalishdagi ishlarni susaytirmaslik, izchil va tizimli olib borish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish keng ilmiy jamoatchilik, ota-onalar va har bir ongli fuqaro oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda: - ularda, turli xildagi

ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish; - yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish; - yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim. Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz desak to'g'ri bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Рустамов, Ш. Ш. (2022). Корреляционный анализ пример по психологии. Корреляции в психологии. Science and Education, 3(3), 1100-1106.
2. Ахмедов, А. А., & Зикиряева, М. М. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ВООБРАЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ. Новый день в медицине, (1), 151-154.
3. Hozir.org

---

## **SOG'LOM TURMUSH TARZI VA ZARARLI ODATLARNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**

*Xoshimova Gulsara Nig'matovna  
Toshkent viloyati qibray tumani 4-maktab psixologi*

**Tayanch so'zlar:** sog'lom inson, kun tartibiga rioya etishi, faol harakat, gigiyenik qoidalar, nikotin oqibatlari.

Sog'lom turmush tarzi farovon hayot asosidir. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish ko'plab muammolarning oldini oladi. Buning asosida baxtli va uzoq umrli hayot yotadi. Zero, xalqimiz "Sog'lom inson uzoq va baxtli hayot kechiradi", deb bejizga

aytishmagan. Chunki inson sog'lom bo'lishi uchun har doim sport bilan shug'ullanadi, kun tartibiga qat'iy rioya qiladi, ovqat ratsioniga ham katta e'tibor beradi va albatta ijobiy kayfiyatda yuradi. Sog'lom turmush tarzi — insonning kun tartibiga rioya etishi, faol harakat asosida organizmini chiniqtirishi, sport bilan shug'ullanishi, to'la va sifatli ovqatlanishi, gigiyenik qoidalarga amal qilishi, zararli odatlardan o'zini tuta bilishidir. Serharakatlilik organizmni tabiiy ravishda rag'batlantirib turadi. Shuning uchun serg'ayrat, tinib-tinchimaydigan odamlar doimo tetik, bardam, keksayganlarida ham baquvvat va shijoatli bo'ladi.

Inson tabiati yangilikka tashna. U xoh foydali, xoh zararli yangilik bo'lsin, uni o'z hayotida, albatta, qo'llab ko'rgisi keladi. Globallashuv shiddati ong-qalbimiz va hayotimizda shunday o'zgarishlar sodir etmoqdaki, undagi foydali jihatlardan ko'ra, zararlilari tez orada o'z aks ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugun har bir yoshu qari chekish – bu zararli odat ekanligi, salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini biladi. Zamonaviy tibbiy tadqiqotlar tufayli olimlar nikotinni kam dozada iste'mol qilish holatida ham quyidagi nuqsonlarni keltirib chiqarishini isbotlashdi:

O'pka va boshqa organlar saratoni paydo bo'lishi xavfini oshiradi;

Ham erkaklar va ham ayollarda reproduktiv funksiyalarni buzadi;

Umumiy salomatlikni yomonlashtiradi;

Immunitetni zaiflashtiradi;

Qon tomirlarini toraytirishi oqibatida, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Eng dahshatlisi, chekish – bu maqsadli ravishda orttirilgan odat hisoblanadi. Inson organizmi chekish uchun yaratilmagan. Birinchi marta tamaki chekishda organizm yo'tal ko'rinishida unga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ammo, biz baribir, bu zararli narkotikni ichimizga tortishga harakat qilaveramiz.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda kashandalik oqibatida har yili 5,4 million, har 6 soniyada 1 kishi hayotdan ko'z yumadi. Mutaxassislarning fikricha, zudlik bilan zarur choralar ko'rilmasa, 2030 yilga borib kashandalik har yili 8 million kishining hayotdan bevaqt ko'z yumishiga sabab bo'ladi. Dunyoda chekuvchilar soni bo'yicha birinchi

o‘rinda Xitoy, keyin Hindiston va Indoneziya turadi. Chekish oqibatida kelib chiqadigan yillik iqtisodiy zarar 200 milliard AQSh dollaridan oshib ketmoqda.

31 may – Butun jaxonda chekishga qarshi kurash kuni Insonning zamonaviy hayot tarzida chekish ko‘pgina surunkali kasalliklarni keltirib chiqaruvchi, ish qobiliyatini pasaytiruvchi, nogironlikni va o‘limning ko‘payishiga sabab bo‘luvchi xavfli omillarning asosiylaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Jamiyatning sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy vazifalaridan biri, chekmaydiganlarning huquqini himoya qilish, ya’ni ijtimoiy ahamiyatga ega joy, ob’ekt va transport vositalarida chekishni taqiqlash, ayniqsa, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdan iboratdir. Biroq yoshlar, ayollar va o‘smirlarning milliy qadriyat, an’ana va odob qoidalariga zid bo‘lgan bunday zararli illat domiga ilinayotgani masalaning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Kashandalikning psixologik jihatlari ham borki, undan voz kechish inson irodasi, psixologiyasi bilan bog‘liq holat. Kashandalik, asosan, zerikish, band bo‘lmaslik, o‘z hayotidan norozilikdan kelib chiqadi. Avval qiziqishdan boshlangan bu holat yillar o‘tib chuqurlasha boradi. Chekuvchi real emas, noreal hayotni ma’qul ko‘ra boshlaydi. Noreal hayot — kashandalik, giyohvandlik va ichkilikbozlik ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Kashandaning irodasi zaiflasha boradi. Iroda markazining to‘silishi esa muammolarni hal qilolmaslikka, qaramlikka olib keladi. Shu bois, yoshlarda, avvalo, irodali bo‘lishni tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish lozim. Shunda biz irodasi mustahkam, iymoni butun, keng dunyoqarashli, hech qanday ta’sirlarga qaram bo‘lmagan avlodni tarbiyalashga erishamiz. Shuningdek, yoshlarda kattalarga taqlid qilish, ular hatti-xarakatini takrorlashga intilish kuchli bo‘ladi. Ota-onasining odatlari, vaqt o‘tib farzandida takrorlanadi. Bu jarayonda kattalar ibrati ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalarni chekishni cheklash to‘g‘risida”gi qonun loyihasining qabul qilinishi orqali bu holatga chek qo‘yish, albatta, o‘z natijasini beradi. Hozirgi vaqtda tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish va tarqatishni cheklash “Tamaki va alkogol mahsulotlarni iste’mol qilish va tarqatishni cheklash to‘g‘risida”gi qonun va boshqa alohida normativ hujjatlar bilan tartibga solingan. Mazkur qonunda tamaki mahsulotlarini balog‘at yoshiga yetmagan shaxslarga sotishni taqiqlash, tamaki

va alkohol mahsulotlarining inson salomatligiga salbiy ta'siri to'g'risidagi ogohlantiruvchi yozuvning bo'lishi, bunday mahsulotlarda inson sog'lig'i va hayotiga zararlilik darajasiga ruxsat beruvchi normaning kiritilishi, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni reklama va targ'ibot qilishga yo'l qo'ymaslik, jamoat joylarida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni taqiqlash to'g'risidagi talablar mavjud. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks tamaki mahsulotlarini jamoat va transportning ruxsat etilmagan joylarida iste'mol qilishni man etadi.

“Reklama to'g'risida”gi qonun tamaki va tamaki mahsulotlarini reklama qilishni taqiqlaydi. Kelajagimiz uchun daxldor qonun loyihasi aholi salomatligi, farzandlarimiz tarbiyasi va millat genofondi uchun muhim masalalarni hal etishda dolzarb ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.
2. Asadov Y.M. “Ruhiiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi”. – T., 2000
3. Akramova F.A. “Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanmasi”. – T., 2007. – 166 b.

---

## **MAKTAB O'QUVCHILARINING AXLOQIY KAMOLOTIDA BAXT HAQIDAGI TASAVVURLARNING O'RNI**

*To'xtamishov Xolmurod Murodovich*

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Xalq Ta'limi Bo'limi metodist psixologi*

**Annotatsiya.** Yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va komil insonni tarbiyalash ancha murakkab va mashaqqatli muayyan davrni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” deb aytgan so'zlari



hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mazkur maqolada esa yoshlarimizni ruhan va ma'nan barkamol etib tarbiyalashda, ularning psixologik sog'lomligiga erishish borasida milliy qadriyatlarning ahamiyati o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, baxt, Qadriyat, ruhiy barkamollik, yoslar tarbiyasi, ma'naviyat, mafkuraviy poligon, ma'naviy barkamollik, xalq og'zaki ijodi.

O'zbek xalqi azaldan boshqa xalqlar qatori o'z kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratildi. Xuddi shu an'ana hozirgi kun ta'limi va tarbiyasida ham ustuvor bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan yuksak ma'naviyatli, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi islohotlar buning isbotidir. Maktab ta'limi jarayonida o'qituvchining vazifasi faqat fanni o'qitishdangina iborat bo'lib qolmasdan, o'quvchining odob –axloqi, ma'naviy qiyofasi, qolaversa unda komil insonga xos fazilatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlab, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishdan iborat bo'lishi kerak. Bugungi kunda olimlarning millat qadriyatiga bergan ta'riflari mukammal bo'lishiga qaramasdan, qadriyat ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ehtiyojning natijasi va mahsuli ekanligi, biroq qadriyatning ruhiy barkamollik sifatidagi funksiyasiga kam e'tibor qaratilgan. O'zbek xalqi qadim o'tmishdan bugungi kungacha o'zining boy tarixi, ma'naviy qadriyatlari, milliy urf-odatlariga ega bo'lib, zamonlar osha uni o'z qalbi va ma'naviyatida saqlab kelib avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda. Unda millatning orzu-umidlari, u yashayotgan tabiiy geografik, ijtimoiy muhit, xalq istidodi, malakasi, qobiliyati, etnik xususiyat hamda belgilari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham shaxs tarbiyasida va ruhiy barkamollikiga asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri milliy qadriyalar ham o'rin egallaydi.

Farzand tarbiyasi inson qalbidagi eng oily maqsadlardan biri bo'lib, ota – ona o'z hayotlarini shular orqali davom ettiradilar. Mutafakkir shoirlardan biri: “Farzandlar qalbimiz mevasi, bellarimiz tayanchidir. Biz ular yurishlari uchun zamin va soyabon osmondirmiz degan edi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida mahoratli o'qituvchilarni qo'llabquvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mahoratli o'qituvchilarni aniqlash maqsadida turli tanlovlar tashkil etilmoqda.

Xususan “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” Respublika ko'rik tanlovi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan fan o'qituvchilariga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo'lsa, “Yil maktabi” Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko'rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, Respublika miqyosida, pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kirita olgan o'qituvchilar ta'lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasi “Xalq ta'limi a'lochisi” ko'krak nishoniga sazovor bo'lmoqdalar.

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasi bo'yicha o'rta qayilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagog shaxsiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish

### **1. Yoshlarni psixologik sog'lom va tarbiyali etib ulg'ayishidagi muhim omillar.**

Har bir tarixiy davr inson ma'naviy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi murakkab masalalarni ko'ndalang qo'yaveradi. Hozirgi ichki va tashqi tahdidlarga boy, o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda tarbiya Farzand tarbiyasi ham go'yo nihol parvarishidek nozik. Kishi oila qurib, farzandli bo'ldimi, uning kelajagi to'g'risida qayg'urishi shart. Bolani nafaqat moddiy ta'minlash, unga ta'lim-tarbiya, mehr berishi, turli yot g'oyalardan saqlashi ota-onaning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki farzand katta bo'lganda ota-onaga yo rahmat eshitiradigan komil inson bo'ladi, yo g'am-tashvish keltiradigan nokas kimsaga aylanadi.

### **2. Yosh avlodning psixologik nosog'lom bo'lib ulg'ayishida milliy tarbiyaning yetishmasligi asosiy sabab sifatida.**

Bilasizmi hozirgi kunda javobi o'ylantirib kelayotgan bir qancha savollar ko'payib borayapti. Nega yoshlar o'rtasida o'z joniga suiqasd qilish holati tobora yosharib bormoqda? Nima uchun yoshlar erta balog'atga yetmoqda? Oilaviy ajrimlar bola

ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazmayaptimi?! "Ommaviy madaniyat"ning ko'rinish va illatlaridan birinchi navbatda kim saqlashi kerak?! Erta turmush va uning salbiy oqibatlariga kim sababchi? Yoshlarning odam savdosi qurboni bo'lishida yoxud yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishida eng avvalo kim aybdor? Bola va uning tarbiyasi, bandligini kun davomida avvalo kim nazorat qilishi kerak: ota-onami, maktabdagi ustozlarmi, qo'shnilarmi, yoki mahalla posbonimi? Internetdagi nazoratni-chi? kabi savollar ko'pchilikni chuqur o'ylarga tildirishi tabiiy. Aynan mana shu savollarga javob tariqasida yoshlarning oilada milliy tarbiyaning kamayayotgani uchun desak noto'g'ri aytmagan bo'lamiz. Bu ham bir bo'shliq sifatida to'ldirishimiz kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak» – degan edi. Ta'limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e'tibor berilar ekan, psixologiya sohasining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, ya'ni shaxsiy fazilat, xislatlarini bilgan tarzda ta'lim-tarbiya faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir.

Xulosa qilib aytganimizda maktabdagi tarbiya ,ota- ona va bolaning o'zaro munosabatidagi o'ziga xoslik avloddan – avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar va urf – odatlar , shuningdek , milliy stereotiplarga bog'liq bo'ladi .Shuni aytib o'tish joizki , yuqoridagi fikrlarimizning isboti , ko'plab psixologik , pedagogik asarlarda ko'rishimiz mumkin.Shuningdek , ko'plab Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga oila, maktab ,ota – ona , bola munosabatlarida hamda bu munosabatlarning bola shaxsi shakllanishiga ta'sir etish muammosi muhim o'rin egallagan .

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Toshkent. O'zbekiston 2010 yil.

2. A. A'zamov A. Yusupov, "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish", Toshkent, "O'qituvchi", 2002-yil

3. Nishonova Z. O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O'quv qo'llanma. T., Sharq. 2003. B. 25-26.

4. Yodgorova G.T. Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash. T.. 2007.

5. G'oziev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.

---

## СОВРЕМЕННЫЙ СПОРТ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

*Студенты Узбекского Государственного Университета Физической Культуры и  
Спорта: Шойсуломова Шахло Шорахимовна,  
Махсудов Бобохон Шокирхон ўгли,  
Шодмонова Маржона Суннатилло қизи*

Современный спорт представляет собой мощную индустрию, включающую особую систему производства спортивных рекордов. В ней задействованы наряду со спортсменами и тренерами менеджеры, спортивные врачи, психологи, научные сотрудники. Средства массовой информации постоянно «раскручивают» широкомасштабные соревнования до уровня главных событий жизни общества. Тем не менее, не следует представлять современный спорт как единый феномен, имеющий одну цель, функции и общие закономерности развития. Современный спорт многолик и разнообразен. В систему спорта входят такие его разновидности, как массовый, детско-юношеский, школьный, студенческий спорт решающие задачи оздоровления и формирования спортивной культуры подрастающего

поколения. Спорт высших достижений (олимпийский и профессиональный спорт) направлен на достижение высоких спортивных результатов и побед. Эти разновидности объединяют общие функции: зрелищная, политическая, экономическая. Спорт высших достижений транслирует особый образец стиля жизни, путь достижения успеха, демонстрирует высокую спортивную технику, умение обыграть соперника. Для многих зрителей эта модель становится эталоном для подражания не только в спорте, но и в других сферах жизнедеятельности. Однако спорт высших достижений породил большое количество противоречий, которые не позволяют современному спорту позитивно развиваться, зачастую дискредитируют его и формируют негативное отношение людей, особенно родителей, к спортивным занятиям. Все чаще общественное мнение оценивает современный спорт как опасную для человека сферу деятельности. Цель исследования: провести социологический анализ противоречий современного спорта и предложить пути их преодоления.

**Ключевые слова:** современный спорт, спорт высших достижений, олимпийский и профессиональный спорт.

К наиболее острым противоречиям развития спорта в современном обществе относится миф о том, что спорт – это едва ли не единственный и главный фактор сохранения и укрепления здоровья. Никто не оспаривает профилактического значения занятий физическими упражнениями. Однако необходимо понимать, что это – лишь один из факторов, составляющих здоровый стиль жизни. Кроме занятий спортом на здоровье человека влияют экологическая обстановка, режим и качество питания, наличие вредных привычек, уровень жизни, наследственность и т. д. Поэтому не стоит напрямую связывать состояние здоровья и занятия спортом. Кроме этого, известны трагические случаи, произошедшие с выдающимися молодыми спортсменами из-за травм и высоких спортивных нагрузок. Достаточно привести пример трагической судьбы Алексея Черепанова, когда на хоккейном матче остановилось сердце молодого и перспективного спортсмена. Уже стала привычной картина, когда легкоатлеты, лыжники, биатлонисты после прохождения дистанции «замертво» падают на дорожку стадиона или на трассе [1].

Спорт высших достижений сопряжен с риском и необходимостью воздействия предельно допустимых физических нагрузок на организм. К сожалению, в силу ряда обстоятельств (настроенность на победу любой ценой, прием допинга) спортсменов переходит грань допустимого и наносит ущерб своему здоровью, а иногда и здоровью соперника.

В настоящее время стремительно увеличивается число новых видов спорта, особенно экстремальных: маунтинбайк, квадроциклы, фристайл, скутеры и многое другое. Экстремальные виды спорта порой вытесняют классические – лыжный спорт, легкую атлетику, гимнастику.

Однако нельзя запретить человеку заниматься любым видом спорта и познавать возможности собственного организма. Тем более, что зачастую в жизни мы сталкиваемся с ситуациями, когда только полная концентрация сил позволяет нам избежать опасности. И чем больше физических сил у человека, тем с меньшими потерями для здоровья он выходит из трудной ситуации. Спорт помогает моделировать проблемные ситуации и находить пути выхода из них. Поэтому каждый человек должен решать, к какому уровню спортивных достижений ему стремиться.

Разрешить противоречие, связанное со спортом и здоровьем спортсмена, можно путем совершенствования спортивного инвентаря, правил соревнований, улучшения материально-технического оснащения спортивных баз, профилактики здоровья, медицинского контроля за здоровьем спортсменов, а также повышения качества профессиональной подготовки тренерского состава. Однако пока проблема «спорт и здоровье» остается неразрешенной.

Следующее противоречие в сфере спорта высших достижений состоит в том, что многие виды спорта стали стремительно «молодеть». Рекордных результатов добиваются подростки, почти дети, например, в таких видах спорта, как художественная и спортивная гимнастика, фигурное катание. В других видах спорта возраст победителей также имеет заметную тенденцию к снижению (О. Корбут, М. Филатова, Л. Мухина, Т. Лепински, Ю. Липницкая добились высших результатов в 14 лет). Понятно, что и юные спортсмены могут побеждать на

соревнованиях самого высокого ранга. Однако суть проблемы в том, что идет форсированная подготовка юного спортсмена без учета возрастных показателей его развития.

Усугубляет эту проблему наличие системы отбора талантливых детей, когда подбирается не спорт для ребенка, а ребенок для спорта. Селекционный отбор является серьезным психологическим стрессом для многих детей и родителей, что зачастую навсегда отталкивает ребенка от занятий спортом. Использование специальных технологий, «отработанных» на взрослом контингенте, без адаптации их к методике детско-юношеского спорта приводит к преждевременной «накачке» юного спортсмена, и о спортивном долголетии не может быть и речи. Это противоречие в сфере детско-юношеского спорта в конечном итоге искажает сущность спорта, калечит спортсменов физически и нравственно. Еще одно противоречие, серьезно подрывающее основы спорта, порождено системой договорных побед, которые организуются в гостиничных номерах судей, в кабинетах управленцев, т. е. вдалеке от спортивных залов, площадок, полей. Вытеснение фактора соревновательности приобрело значительные масштабы, особенно в игровых видах спорта. По данным исследователей, немалое число матчей футбольных и хоккейных чемпионатов заранее бывают «проданы». Это, конечно, сказывается на нравственных устоях спортсменов, а также на зрелищности спорта. Поэтому мы нередко видим полупустые трибуны и разочарованных болельщиков.

В профессиональном спорте, как и в шоу-бизнесе, «крутятся» большие деньги. Но борьба за «чистоту» спорта, безусловно, должна вестись.

Не менее сложная ситуация складывается в фармакологической службе спорта. Использование допингов, начавшееся еще в 1970–1980-е гг., распространилось во всех видах спорта. Проблема допинга неоднозначно воспринимается в обществе. Конечно, таким образом спорт выигрывает в зрелищности, но гораздо больше проигрывает в гуманности. Ведь при условии применения допинга речь не идет о выявлении сильнейшего, в данном случае идет борьба между медиками и фармакологами, которые могут наиболее удачно

«накачать» спортсмена. В настоящее время разрешить эту проблему вряд ли возможно, поскольку в современном спорте тенденции завоевания победы любой ценой лишь усиливаются и развиваются.

Допинг – не частная практика спортивных врачей, а хорошо продуманная система научно-методического и медицинского сопровождения.

В то же время не вызывает сомнения тот факт, что современный спортсмен испытывает колоссальные тренировочные нагрузки и его организм не в состоянии быстро восстановиться без помощи фармакологических средств. Если не использовать поддерживающие препараты, спортсмен будет не в силах тренироваться в современных объемах и заданных режимах интенсивности, а негативные последствия нагрузок приведут к патологическим изменениям в его организме и психике. Поэтому спортивные врачи требуют узаконить некоторые фармакологические средства, которые помогут спортсменам справиться с непомерным напряжением и нагрузками, повысят сопротивляемость организма при простудных заболеваниях, повысят болевой порог при лечении спортивных травм. Никто не запрещает людям экстремальных профессий (шахтерам, нефтяникам, космонавтам) восстанавливать работоспособность с помощью фармакологических средств. Тогда почему же профессиональному спортсмену нельзя помочь сократить время восстановления после травмы или непомерных тренировочных нагрузок?

Деятельность специально созданных организаций по борьбе с допингом не оправдала надежд: в обществе не стихают допинговые скандалы. Спортсменам, уличенным в приеме допинга, надолго закрывается дорога в большой спорт, их лишают спортивных наград, они становятся в ряд людей, которые отвергаются обществом.

Таким образом, путь решения этих и других социальных противоречий современного спорта в усилении образовательной, научной и культурологической составляющих спортивной деятельности. Становление и интенсивное развитие спортивной культуры могут существенно повысить потенциал современного



спорта и формировать позитивное общественное мнение, позволяющее изыскивать новые ресурсы для массового вовлечения людей в спортивное движение.

### Литература:

1. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004.
2. Фурманов А.Г., Круталевич М.М. Теория и методика физической культуры: Учеб. Пособие. – Минск, 2014.
3. Холодов, Ж. К. Теория и методика физической культуры и спорта: учеб. для студентов вузов / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – 10-е изд., испр. – М.: Академия, 2012. – 480 с.
4. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. Учебник. Москва. – 2010. 210 с.
5. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. Учебник. Москва. – 1991. 200 с.

---

## OILAVIY HAYOTGA TAYYORGARLIKNI MAKTAB O`QUVCHILARIDA SHAKLLANISH

*Qodirova Nigoraxon Xamidovna*  
*Farg`ona viloyati Furqat tumani 4-IDUM psixologi*

Oila inson hayotidagi birinchi ijtimoiy guruh bo`lib, ular tufayli madaniyatqadryatlari bilan tanishadilar, shaxs sifatida rivojlanadilar va birinchi ijtimoiy rollarni egallaydilar. Oila qadryatlarning tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari o`z umrini tugatgan oila-urug` munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muommalari hamisha davlatning diqqat-e`tibori va himoyasida bo`lib kelmoqda.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – Yoshlarning oilaviy hayotiga bo'lgan tayyorlikni shakllantirish muammosining ko'p jihatlari orasida, zamonaviy jamiyatda oilaviy va nikohning ijtimoiy rolini, fuqarolik da'volari mavjudligini eng muhim tushunchalar qatorida.

Hozirgi vaqtda jamiyatda tashkil etilgan va jamoa tongida mustahkamlangan oiladagi xatti-harakatlarning normalari va standartlarining tartibga soluvchi ta'siri sezilarli darajada zaiflashad Bu, birinchi navbatda bu haqiqat zamonaviy sharoitlar Ba'zi muhim funktsiyalar an'anaviy oilada muhim rol o'ynashi mumkin edi. O'tmishda bo'lgan erkak va turmush o'rtog'iga xos bo'lgan ayolning odati sezilarli darajada o'zgargan va funktsional o'zgargan.

Maktab o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorgarligini shakllantirish ijtimoiy, axloqiy, huquqiy, psixologik, fiziologik va gigiyenik, pedagogik va iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi onaga, otaga, oilaga bo'lgan hurmatni tarbiyalash uchun ko'p ishlarni amalga oshirishi, mumkin. Bolalarda oilaga nisbatan e'tabor, oilaviy g'urur hissi paydo bo'lishi kerak. Insonlarga muhabbat onaga, otaga, ona va otaning ota-onalariga bo'lgan muhabbatdan, ya'ni oiladan boshlanadi. Ammo bunday tuyg'uni tarbiyalash nozik va dolzarb masaladir.

Oila-maktab o'rtasidagi o'zaro bog'liklik muhim holatdir. Jamiyatda axloq munosabatlari hukm surayotgan bir paytda aksariyat yoshlar ko'pincha eng oson, yo'lini bosib, haqiqiy oilaviy baxtdan voz kechib, oson vaqtinchalik munosabatlar va erkin turmush tarzini tanlaydilar. Shu sababli maktab o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorgarligini shakllantirish nafaqat maktabning balki, butun jamiyatning vazifasidir.

Inson hayoti davomida nikoh va oilada asosan samimiy va norasmiy muloqot uchun ularning ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib kelmoqda.

Oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayoni murakkab, ko'p tomonlama. Shuning uchun ota-onalar bilan oilaviy hayot muammolari haqida suhbatlashish kerak. Bolalarning to'liq psixoseksual rivojlanishi ota-onalarning harakatlariga bog'liq. Bu ota-onalar bolani psixoseksual rivojlanish bosqichlarida saqlashlari kerak. Tug'ilishdan boshlab boladagi bolalarning tarbiyasi kelajak ota-onasifatida bo'lishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik muloyimlik va mushaklarning ma'naviy munosabatlarini anglash, bola rivojlanishi uchun psixologik qulay muhitni yaratish, oilaviy hayotdagi yoshlarning muvaffaqiyatli tayyorlanishi ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan zarur sharoitlar yaratadi.

Bolaga salbiy ta'sir va onalik muhabbati: Unga butun qalbi bilan bog'langan, u hasadga aylanadi va shu bilan, avvalambor, befarqlik yoki noroziliklarga qarshi qaratilgan.

Farzandlar adolat, xolislik, oqsoqollarning mehribonligiga ishonganlarida ota-onalarga ishonish paydo bo'ladi. Keyin ularga taqlid qilishga intilishadi.

Bolalarning o'zlarini baholashga ko'ra, ota-onalar o'rtacha qat'iy, talabchan, adolatli bo'lishlari kerakligi uchun hurmat qilinishi kerak yaxshi maslahat, aqlni to'g'ri baholang, ko'rsating, ishda yordam bering.

Ota-onalar ko'p va'da qilinganda, agar ularning niyatlarini bajarmasalar. Bu bolalarning adolatiga va oqsoqollarning samimiyligiga ishonishni to'xtatadi va o'zlari ham o'zlarini qilishlari mumkin deb hisoblashadi. So'z va ish o'rtasidagi tafovut nafaqat ota-onalarning shaxsiy idoralariga, balki bolalarning axloqiy targ'ibotiga katta zarar etkazadi.

Oilada ruhoiy iqlim, totuvlik doimo barqaror bo'lishi uchun oilaning qadryatlari, ota-onalarning o'z farzandlarini ruhiy dunyosini bilishlari va ularning o'z farzandlarining ruhiy dunyosini bilishlari va ularning o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olib ish tutishlari maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bu ma'naviy ta'limdir.

Bolaning ma'naviy ehtiyojlari juda rivojlanmoqda bolalik. Bolalar g'ayrioddiy tabiiy tabiiy poklik va ochiqlik bilan ajralib turadi, shuning uchun ota-onalar bolalarning ichki dunyosini boyitishga intilishlari kerak. Ularning ruhiy faoliyati bu tun oilaga xos bo'lgani kabi, uning aks ettirishi uchun o'zlarini namoyon qilishi kerak. Avvalo ota-onalarning g'amxo'rliqi butun dunyoning dunyosining shakllanishi kerak – bu butun hissiy sohani rivojlantirish, chunki his-tuyg'ular qalbda sodir etilgan ushbu jarayonlarni aks ettiradi. Biz hali ham o'sishga qodirmiz, chunki his-tuyg'ular insonga hayotni tushunishga va to'g'ri baholashga yordam beradi, chunki insonning ruhiy sog'lig'i

hissiyotlarning salomatligiga bog'liq. Agar bolalar noto'g'ri, kichik bo'lsa. Zaharli tuyg'ular, undaylarda ruhiy hayot bo'lmaydi.

Oilaviy munosabatlarda yana bir muhim narsa bu, oila boshliqlari, ya'ni ota-onaning ma'lumoti, kasb-kori, bilim saviyasi muhim rol o'ynaydi. Ota-ona munosabatidagi yaqinlik, ichki birlik, o'zini yengil his qilish, faxmlashdir. Bu omillar oilaning tinchligini ta'minlaydi. O'zaro totuvlik, o'zaro tushunish yuzaga keladi.

Hayotda o'z dunyoqarashiga, maslagiga, e'tiqodiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash nafaqat maktabning, balki, mahalla-ko'y, oilaning birgalikdagi olib boradigan sermahsul faoliyati hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ham qayd etish kerakki, shaxslararo munosabatlarda oila a'zolarining asab tizimi, hissiy irodaviy xususiyatlari katta ahamiyatga egadir.

---

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA EKSTREMAL VAZIYATLAR MUAMMOLARI

*Jo'rayeva Mahbuba Abdusattor qizi*  
*Andijon viloyati Baiqchi tumani 51-maktab psixologi*

Stress — inson organizmining haddan tashqari zo'riqish, salbiy emotsiyalar yoki oddiygina zerikishga bo'lgan javob reaksiyasidir. Stress chog'ida inson organizmi yechim izlashga undaydigan adrenalin gormoni ishlab chiqaradi. Kichik miqdordagi stress hamma uchun kerak, chunki bu kishini fikrlashga, muammodan chiqish yo'lini topishga undaydi, stressiz hayot zerikarli bo'lar edi. Boshqa tomondan, agar stress juda ko'p bo'lsa, tana zaiflashadi, kuchsizlanadi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qotadi. Ushbu muammoga bir qancha ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Stressning paydo bo'lish mexanizmlari batafsil o'rganilib chiqilgan va juda murakkabdir: ular bizning gormonal, asab va qon tomir tizimlarimiz bilan bog'liq. Ekstremal vaziyatlar inson psixikasiga kuchli ta'sir etishi natijasida unda jarohatli stress paydo bo'ladi. Jarohat

stressning psixologik oqibatlari jarohatdan keyingi stress buzilishlarida namoyon bo'ladi. Jarohatdan keyingi stress buzilishlari jarohat stressini boshdan o'tkazish natijasida yuzaga keladigan psixologik oqibatlardir, shu bilan birga jarohatdan keyingi stress buzilishlari jarohatli stressi vaziyatini boshdan kechirgan 20 % insonlarda yuzaga keladi. Bugungi kunda jarohatdan keyingi stress buzilishi termini ko'p hollarda tinchlik davridagi ofatlarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan: tabiiy (iqlim, seysmik), ekologik va texnogen ofatlar, yong'inlar, terroristik harakatlar, baxtsiz hodisalar, oilaviy dramalar, jinsiy zo'rlash.

Jarohatdan keyingi stress sohasida tadqiqotlar stress borasidagi tadqiqotlarga bog'liq bo'lmagan holda rivojlangan, hozirgi kunga kelib ham bu ikki sohaning umumiy tomonlari kam. 1936-yilda Gans Sele tomonidan taklif etilgan stress konsepsiyasining asosini organizmni o'z-o'zini saqlash va stressorga qarshi tura olish uchun resurslarning mobilizatsiya qilish tashkil qiladi. Organizmga barcha ta'sirlarni u stressning spetsifik va nospetsifik stereotipiga ajratgan, o'z o'rnida bular umumiy adaptasion sindrom ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu sindrom o'z rivojlanishida uch bosqichni o'taydi:

- 1) Havotirlanish bosqichi
- 2) Rezistentlik bosqichi
- 3) Sarf qilinganlik bosqichi

Selye adaptatsion energiya tushunchasini kiritdi. Uning sarflanishi organizmni qarishiga va o'limiga olib keladi.

Umumiy adaptatsion sindromning psixik ko'rinishi "emosional stress" orqali namoyon bo'ladi. Stressni yengish o'z ichiga psixologik hamda fiziologik mexanizmlarni oladi. Agar kelib chiqqan muammoli vaziyatdan chiqish harakatlari samarali bo'lmay, stress davom etsa patologik reaksiyalarga va organik jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Ayrim hollarda stress jiddiy buzilishning sababi bo'lishi mumkin. Emosional stress ta'sirida yurak qon -tomir tizimi, oshqozon- ichak kasalliklari, immun tizimning buzilishlari paydo bo'lishi mumkin. Jarohatdan keyingi stress buzilishi bilan ishlayotganda quyidagi 2 jihatga: qo'rquvni pasaytirish va atrofdagi bo'layotgan narsa va hodisalar uning nazoratida ekanini singdirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Shuningdek, JKSBini boshidan o'tkazgan mijoz psixoterapevt bilan og'ir munosabatga

kirishadi, chunki jarohatdan so‘ng shaxslararo munosabatda ularda ishonchsizlik, nafrat, tobelik namoyon bo‘ladi. Jarohat bilan ishlaganda mijoz hissiyotlarni o‘ta jadal tarzda kechiradi, shuning uchun ham bu psixoterapevtidan yuksak mahorat talab qiladi. Gorovisaning ishlarida mijozning jarohatga reaksiya fazalari ajratib ko‘rsatilgan. Ular:

Stressorlar odatda fiziologik (og‘riq, ochlik, chanqoq, yuqori va past harorat va hokazo) hamda psixologikka (xavf, yo‘qotish, aldanganlik, xafagarchilik) bo‘linadi. Psixologik o‘z o‘rnida emosional va informasionga bo‘linadi.

Stressorlarning ta‘siri psixik sohaning buzilishiga olib kelagan vaqtda stress jarohatliga aylanadi. Bunday paytda mavjud konsepsiyalarga muvofiq dunyoning kognitiv modeli, affektiv soha, nevrologik mexanizmlar buziladi.

Jarohat stressini boshdan o‘tkazish ayrim insonlar uchun kelajakda ularda jarohatdan keyingi stress buzilishini paydo bo‘lishiga sabab bo‘lib qoladi.

Jarohatdan keyingi stress buzilishi (JKSB) — jarohat stressiga javob reaksiyasi bo‘lib, deyarli hamma odamlarda psixik buzilishni keltirib chiqarishi mumkin.

Jarohat stressi keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan 4 ta jarohatlar xarakteristikasi:

1. Sodir bo‘lgan holat inson tomonidan anglanadi, ya‘ni odam u bilan nima yuz berganini va shuning natijasida uning psixologik holati yomonlashganini biladi.
2. Bu holat tashqi omillar bilan bog‘liq.
3. Boshdan o‘tkazilgan holat odatiy hayot tarzini buzilishiga olib keladi.
4. Yuzaga kelgan vaziyat dahshat (vahima) ni va noshudlik hissini uyg‘otadi.

Jarohat stressi — odam va tashqi dunyoning o‘zaro ta‘siri natijasidir. Bu normal bo‘lmagan vaziyatga normal reaksiya bo‘lib, odatiy holda inson tajribasida uchramaydigan vaziyatga munosabat natijasida paydo bo‘ladigan holat.

Jarohat stressi uyg‘otuvchi buzilishlar doirasi juda ham keng bo‘lib, o‘z hayoti yoki yaqin kishisining hayotiga, jismoniy salomatlikka yoki "Men" obraziga xatarli bo‘lishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алиев Х. Защита от стресса. Как сохранить и реализовать себя в современных условиях. — М., 1996.
2. Бадхен А.А. (ред.). Методическое пособие по работе с

посттравматическим стрессовым расстройством. Михайлова Т.И., Певзнер М.М. (сост.). СПб., ин-т ГАРМОНИЯ, 2001.

3. Василюк Ф.Е. Психология переживания: анализ преодоления критических ситуаций. М.: Изд-во Моек, ун-та, 1984.

G'oziyev E. G'. Ontagenez psixologiyasi.-T.:Noshir.2010.

## YOSHLARNING MA'NAVIY TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

*Saparova Sayyora Xolmamatovna*  
*Andijon viloyati Xo`jaobod tumani 15 maktab psixologi*

**Annatsiya:** Yosharni ma'naviy tasurotlarini shakllanishida atrof muxit, oila, maxalla va maktabning ta'siri va yoshlarning orzu intilishlari, didi, dunyokarashi xissiy kechinmalarini tushunish ,ularga yakindan yordam berish kerakligi makolamda yoritilgan.

**Kalit so`zlari:** O`qituvchi faoliyati, tarbiyachi, ota-onalar ma'sulyati, shaxs rivojlanish ko`nikmlari.

Kishilik jamiyatining taraqqiyotida yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyati muhim rol o`ynaydi.

Yoshlarning kamoloti uchun xalaqit berayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni ilmiy asosda o`rganish va ularni hal etish, yoshlarning orzu-intilishlari, didi, dunyoqarashi, hissiy kechinmalarini tushunish, ularga yaqindan yordam berish, mamlakatimizning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega.

Turli psixologik tadqiqotlarga ko'ra, maqsad va unga erishish yo'llarini anglash o'rtasida muhim bog'lanish mavjudligi aniqlandi.

Inson o'zligini ro'yobga chiqarishi o'ziga bog'liq ekanligini qancha tez tushunib yetsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi va oldiga muhimroq maqsadlar qo'yadi. Jamiyatimizda yoshlarni tarbiyalashda ular ruhiyatiga ezgu his-tuyg'ularni singdirish

muhimdir. Bu tuyg‘u biologik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. Chunki, bu tuyg‘u insonning ma’naviy shakllanishi jarayonida voyaga yetadi.

Sivilizasiyalı taraqqiyot o‘zining tub mohiyati bilan shaxslarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan to‘la zabt etishni emas, balki ma’naviy-ruhiy jihatdan zabt etishni, ularni ongli intizomga bo‘ysundirishni, g‘oya orqali boshqarish va faollikka undashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Psixologik yetuklikka ega shaxs turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay oladi. Bu hushyorlik amaliylik, voqelikni to‘g‘ri baholay olish, shaxsda o‘zining yutuq va kamchiliklarini bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha obyektiv baholay olishda ham namoyon bo‘ladi.

Bunday shaxs o‘z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila bilishi, yaoni ichki intizomni yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanib turadi. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma‘lum darajada bo‘liq. Bu o‘z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo‘lga qo‘yilishiga, oilada, turli guruhlarda ijobiy munosabatlarning o‘rnatilishiga imkon beradi.

Yoshlarda psixologik yetuklikni shakllantirishda ko‘rgazmali va og‘zaki psixologik targ‘ibot usullaridan foydalanishimiz mumkin. Ko‘rgazmali psixologik targ‘ibot usulidan foydalanish uchun bizga vatanparvarlik, totuvlik, mehribonlik kabi sifatlar aks etgan, yoshlar ruhiyatida chuqur iz qoldiradigan tarqatma materiallar plakatlar kerak bo‘ladi.

Og‘zaki psixologik targ‘ibotning ma‘ruza qilish, turli chiqishlar, hisobot berish, suhbat, uchrashuvlar o‘tkazish, munozara shakllari mavjud. Jan Piaje «bolaning ijtimoiylashuvi» jarayonini o‘rganar ekan, uning o‘z tengqurlari bilan turli mavzularda qiladigan munozara yoki bahslari, undagi egoistik, shaxsiyatparastlik mohiyatini susaytirib va shu tariqa o‘z-o‘zini anglash bilan bir qatorda o‘zgalarning mavqelarini anglash va o‘zida shaxsga xos sifatlarni o‘stirishni aniqladi.

Har qanday odamda buyuklikka intilishi bo‘ladi. Bunday intilish yoshlarni o‘z ustida ishlashga, o‘z faoliyatini va xulq-atvorini tahlil qilishga olib keladi. Bunda insonning tafakkur jarayonida o‘ziga o‘zi «Bugun men qanday bilim va tajribalarni o‘zlashtirdim?», oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘lida «Bugun men nima qildim va



nimalarga erishdim?», o‘z ruhiy holatidagi o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida «Bugun mening kayfiyatim qanday bo‘ldi, ruhim nimalarga moyil bo‘ldi?», boshqalarga yordam, xizmat ko‘rsatish maqsadida «Bugun men boshqalarga nima yordam berdim?», tetiklik va jismoniy bardamlik holatini saqlash maqsadida «Bugun mening ahvolim qanday bo‘ldi, men sog‘ligim uchun nima qildim?» kabi savollarni berish va o‘zini o‘zi taftish qilish har bir insonning umr boyligi bo‘lgan vaqtni tejashga o‘rgatdi. Inson kamoloti u vaqt tuyg‘usini egallagandan keyingina boshlanadi. Inson vaqtni his eta boshlagan paytdanoq o‘z-o‘zini nazorat qila boshlaydi. Kelajakka intilib yashayotgan shaxs o‘z vaqtidan samarali foydalanadi, o‘zida ma’naviy barkamollikni namoyon etadi.

Buyuk Suqrot o‘z falsafiy bahslarining birida o‘zlikni anglash haqida «avval o‘zingni bil» deb daovat qiladi. Demak, bilish jarayonida muhim bosqich yoki bilimning muhim oboyekti insonning o‘zidir. O‘zlikni anglash orqali insonning ma’naviyati shakllanadi.

Bolaning o‘z-o‘zini idrok qilishini uni ijobiy ishlarga yo‘naltirish orqali o‘stirish kerak. Bunda o‘quvchilar ijobiy tajriba orttirsin, ya’ni o‘ziga, oilasiga, guruhiga, jamoasiga manfaatli ish qilib, olqish olsin. Bolalarni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim. Bolaning o‘zini shaxs sifatida anglashi, o‘z ijobiy va salbiy sifatlarini tahlil qilishi, boshqa shaxslar ichida o‘z shaxsini alohida ajratish kabi muhim ijtimoiy - psixologik sifatlarni shakllantiradi. Bu esa shaxsda o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimini yuzaga keltiradi.

Psixologik bilimdonlik shaxsni o‘z-o‘zini qo‘lga olishga, o‘z-o‘ziga buyruq berishga, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash va o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi.

Shaxs shakllanishining muhim shartlaridan biri-baholash qobiliyatining rivojlanishidir. Bu qobiliyat shaxsiy xarakter xususiyati hisoblanib, shaxsning ma’naviyati va har tomonlama rivojlangan bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

Har bir insonning ruhiy quvvati atrofdagilar ruhiy quvvati bilan bevosita bog‘liq ekan, yoshlarni ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishlarida o‘zi hamda o‘zgalarga to‘g‘ri va odilona baho berishga o‘rgatishimiz zarur.

Buning uchun o'quvchilar bilan verbal va noverbal ijtimoiy psixologik treninglar, breynshtorminglar, davra suhbatlari o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Maqsadli treninglar yoshlarni ma'naviy jihatdan boyitishi, ularning nutqi va fikrlashini kengaytirish bilan bir qatorda, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ayniqsa, yoshlar tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifat jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, maxalla, oila instituti o'rtasida mustahkam aloqa bog'lanishi kerak.

Yoshlarning qiziqishlari, hayotiy muammolari o'rganilib, ular o'rtasida ko'proq suhbat, badiiy kecha, uchrashuv va muloqotlarni uyushtirish, turli xil to'garak, sport seksiyasi, ilmiy tadqiqot uyushmalarini ko'paytirish, tanlov, anjuman, munozara, bahs va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkillash lozim.

Yoshlarning ma'naviyatini tarbiyalashda axloqiy qadriyatlardan foydalanish va bunda axloqiy ta'sir ko'rsatish texnologiyasini joriy etish muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T., 2010.
3. Fish Radiy. Jaloliddin Rumi. T., 1997.
4. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy proseslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. T., 2004.

---

## **1-SINF O'QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHISHLARI UCHUN METODIK ISHLANMASI**

*Chotanova Feruzaxon*  
*Marhamat tumani 22-sonli maktab psixologi*

**Annatsiya:** Mazkur qo'llanma 7-yoshli bolalarni maktabga moslashishi, bolalarni qiziqishini oshirish ularni psixologik imunitetini kuchaytirish va ularni bilm olishiga ko'maklashish maqolada bayon etilgan.

Maktabning boshlanishi har bir bola va uning ota-onasining hayotida muhim ahamiyatga ega. Odatda, 7 yoshdagi bolalar talabaniing maqomiga qiziqish bildiradilar va bu rolga intilishga tayyor. Biroq, bu tayyorlik va bolaga maktab bilan bog'liq bo'lgan barcha ravshan umidlar ko'pincha har bir yangi birinchi sinf o'quvchisi muqarrar ravishda duch keladigan stress devoriga qarshi sindiriladi. Hayot sharoitida, kun tartibida, etakchi faoliyat turida o'zgarish barcha tana resurslarining katta shafqatsizligini talab qiladi. Bolalarga yordam berish uchun birinchi marta maktab eshigini kesib o'tishdi, birinchi sinf o'quvchilarining maxsus moslashuv dasturlari o'qituvchilar va psixologlar tomonidan yaratilib, takomillashtirilmoqda. Biroq, eng muvaffaqiyatli va tezkor moslashuv uchun ota-onalarning faol ishtirok etishlari muhimdir. U bolani bu muhim daqiqada zarur yordam va yordam bilan ta'minlashi mumkin.

### **Moslashuv nima?**

Uyatish organizmni yangi hayot sharoitlariga moslashtirishi hisoblanadi. Birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirish 2 oydan 6 oygacha davom etadi va uch asosiy komponentdan iborat:

1. **Birinchi sinf o'quvchilarining psixologik moslashuvi.** Maktab jamoasida bolaning o'zi ham o'zini shaxs sifatida his qila boshlaydi. U o'z-o'zini baholash, maktabda muvaffaqiyatga erishish uchun talablar darajasini, boshqalar bilan xatti-harakatlar normalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, muhim bir nuqta, o'yin faoliyatidan, etakchi sifatida, o'quv faoliyatiga o'tishdir. Barcha bolalarda boshlang'ich akademik tayyorgarlikning turli darajalari bor, shuning uchun ham psixologik noqulaylik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun birinchi sinf o'quvchilarini moslashtirish davrida belgilardan saqlanish yaxshiroqdir.

2. **Birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirishning ijtimoiy xususiyatlari.** Bolaning yangi kollektivga moslashishi, muloqot qilishni o'rganishi, paydo bo'lgan odamlarning muammolari va nizolarni hal qilish. Bolaga muloqotda bo'lgan qiyinchiliklarga to'g'ri munosabatda bo'lish va ularni bartaraf etishga yordam berish kerak.

3. **Birinchi sinf o'quvchilarining fiziologik moslashuvi.** Tadqiqotlar bolaning hayot tarzida, shu jumladan, jismoniy jihatdan tubdan o'zgarishlarga olib keladi. Bolaning uzoq

vaqt davomida bir joyda o'tirishi odatiy holdir, odatiy jismoniy faoliyati va harakat erkinligi yo'q. Kunlarning rejimini to'g'ri tashkil etish, yuklarni tez-tez almashtirib turish muhimdir.

### **Ota-onalar uchun birinchi sinf o'quvchilarini moslashtirish bo'yicha tavsiyalar**

Birinchi sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirishning barcha qiyinchiliklarini birgalikda bartaraf etish uchun ishtirok etish va tushunishni namoyon etish muhimdir. Quyidagi oddiy maslahatlar sizga va farzandingizga mashg'ulotning boshida barcha testlarni sharaf bilan topshirishga yordam beradi va bundan keyin ham muvaffaqiyatga erishish uchun kalit bo'ladi.

- Bolaga ortiqcha yuklamang, unga bir muncha vaqt qolish imkoniyatini ber. Ota-onalarning hamma narsani qoplash istagi va tez-tez ko'pincha qo'shimcha doiralar va bo'limlar bilan ishlaydigan bola doimiy ravishda ishlamoqda, bu esa ta'lim faoliyatining samaradorligini, izolyatsiyasini va asabiylashish darajasini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun agar sport yoki musiqa juda muhim bo'lsa, birinchi o'quv yili boshlanishidan ancha oldin bolani haydashni boshlash yoki boshqa yilni kutish yaxshiroqdir;

- iloji bo'lsa, birinchi sinfda uzayishni oldini olishga harakat qiling, chunki u bolaning qo'shimcha stress omiliga aylanadi;

- bola dam olish kerak. Maktabdan keyin uni dars uchun o'tirmaslik kerak - u kontsentratsiyani tiklashga vaqt kerak. Sinfdan so'ng eng yaxshi variant - faol yurish, birinchi sinf o'quvchilari uchun kunduzgi uyqu uchun ham muhimdir. Topshiriq uchun eng yaxshi vaqt - kechki - 17 dan 19 soatgacha;

- Farzandingizga imkon qadar tez-tez maqtov. Bir she'rning unutilgan chizig'i yoki notebookda bolaning o'zini benuqsonligini kamaytirish uchun sabab bo'lmaydi tanqid qilish;

- Bolaning maktabga oid hikoyalariqa diqqat bilan quloq soling, bizga mulohazalar bildiring. Agar birinchi sinf o'quvchisi biror narsa desa, unda bu uning uchun juda muhim va shuning uchun siz diqqatga sazovor.

- bolani diqqat bilan kuzatib boring - agar u uyqu, tuyadi, maktabga borish istagi yo'qolgan bo'lsa, u moslashuv ancha silliq emasligini tasdiqlovchi belgidir;

▪ Maktabga taalluqli bo'lgan har bir narsada qulay muhit yaratish - qalam idishni tanlashdan, sochlar bilan bezashni. Ta'lim muassasasi eng yaxshi ijobiy his-tuyg'ular bilan bog'lanishi va keyinchalik sizni muvaffaqiyat bilan qoniqtirmaydi.

### **Foydanlanilgan adabiyotlar**

1. E.G'ozdiyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov "Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y1. E.G'ozdiyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
3. Y.Jumanazarov "Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y
4. Fayziyev. Ya.M. "Umumiy va tibbiy psixologiya" Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000

---

## **ОТА-ОНАЛАРНИНГ ЎЗ БОЛАЛАРИГА ЭЪТИБОРИНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ**

*Жабборова Чаман Файзуллоевна  
Термиз туман 1-мактаб психологи,  
Тўраева Нилуфар Алламуродовна  
Термиз туман 19-мактаб психологи*

Жамиятда оиланинг роли ўзининг кучи бўйича бошқа ҳеч бир ижтимоий институтлар билан тенглаштириб бўлмайди. Айнан оилада инсоннинг шахси шаклланади ва ривожланади Оилада инсоннинг маънавийлигига асос солинади, ҳулҳийҳ оидалари юзага келтирилади, шахснинг ички дунёси ва индивидуал сифтлари очиб берилади.

Бугунги кундаги энг долзарб масала сифатида жамиятда ёшларнинг ҳулқ-атворидаги салбий ўзгаришлар намоён бўлмоқда. Ўсмирлардаги бу ўзгаришлар агриссив хатти-ҳаракатларда ўз ифодасини топмоқда.

Хўш, бундай агриссив ҳулқ атвори юзага келтирувчи асосий омил нима?  
Буни қандай йўл билан олдини олиш мумкин?

Аввало, оиладаги тарбия жараёни, ўсмир шахсида хулқ-атворни юзага келишининг бирламчи омили ҳисобланади. Оиладаги муҳит ота-она ўз маъсулиятларини ҳис қилиши билан барқарор бўлади. Болаларнинг одобли бўлиб улғайиши учун ота-она билан бир қаторда маҳалла-куй ҳам катта ибрат мактабидир. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деб бежиз айтмаган халқимиз.

Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш туриши, муомаласи, бошқалар билан ўзаро муносабатида олижаноб фазилатларни намоён эта билиши керак. Чунки бола табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Шунинг учун унинг атрофдагилари ўз одатлари билан баъзан ўзлари сезмаган ҳолда уларга таъсир қиладилар. Оиладаги кўпол муносабатлар, кўп ёлғон гапириш, ёқимсиз хатти-ҳаракат бола тарбиясига салбий таъсир қиладиган носоғлом муҳитни келтириб чиқаради. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг муомаласи муҳим ўрин тутди. Бола ота-она томонидан кўпол, дағал сўзлар эшитиб, калтак еб катта бўлса, бу унинг табиатига салбий таъсир қилади. Бу эса ўз навбатида оиладаги носоғлом муҳитда тарбияланаётган боладан “маънавий касал” инсонлар шаклланади. Улар эса жамият маънавиятига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Болаларга етарли даражада эътибор берилмаслиги, уларда меҳр етмаслик ҳолатини юзага келтирмоқда. Психолог олимларни таъқидлашча, шахсда меҳрга бўлган эҳтиёжни қондирилмаслиги, ундаги жиддий камчиликлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин экан. Ҳар бир инсонга ўз эҳтиёжларини қондириш, шахсий ва умумий мақсадларга эришиш учун бошқа одамлар билан бирлашишга интилиш хосдир.

Бола шахсидаги меҳрга бўлган эҳтижни қондирилишда меъёрга амал қилиш муҳим. Зеро, эътиборнинг ҳаддан ортиқ даражаси ҳам салбий ҳолатлар сабабчиси бўлиши мумкин. Оиладаги ҳаддан зиёд ўсмир эркинликларини чеклаш ёки аксинча ота она томонидан сурункали бефарқлик ҳам шунингдек агрессив хулқ кўринишларини шаклланишга олиб келади. Агрессив хулқ оилада ўсмирнинг эркинликлари ҳаддан зиёд чегараланганда ёки унга ҳаддан зиёд эркинликлар берилганда ҳам шаклланиши мумкин.

Агар ўсмир оилада барча эҳтиёжларини тезлик билан қондирилдишига ўрганиб қолган бўлса, тенгдошлари жамоасида унинг эҳтиёжларига тўқинлик қилганга нисбатан агрессив муносабат билдиради

Оилада эмоционла инкор этилганлик ҳолатларида ҳам ўсмирлар ўзларининг агрессив хулқа кўринишлари билан ўзларига оила аъзоларининг эътиборини қаратишга ҳаракат қиладилар Ота -оан ўсмир хулқидаги ўзгаришлар сабабини излаш ўзаро муносабатларни ўзгартиришга ҳаракат қиладилар

Агар ўсмир оила аъзолари мунтазам тарзда ўзаро низолар , бақириқлар орқали таъсир ўтказиш асосида муаммоларини хал этишга ўрганган бўлсалар, бошқа ижтимоий вазиятда айнан ўзни шундай тўтишга интилади.

-шахсий муаммолар (физиологик ва психологик характердаги муаммоларни келиб чичишига сабаб бўлувчи пубертат даври хусусиятларининг намоён бўлиши ) Ўзининг ташқи кўринишидан норози бўлиш ( Терзит комплекси )катталар томонидан ноадекват идрок қилиниши Ўсмир ўзини каттадек хис этади, унга болалар каби муносабат бўлишлари ёқмайди. Ўсмирдаги таффакурнинг танқидийлиги катталар хатти ҳаракатига нисбатан шубха билан қараш,улардаги ахлоқий меъёрларга нисбатан эътироз хисларини шаклланишга олиб келади.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, шахснинг агрессив хатти - ҳаракатига таъсир этувчи хусусиятларидан бири - бу фрустрацияни кўтара олмаслик қобилиятидир. Маълумки, фрустрация эҳтиёжларни қондиришда ёки мақсадга эришиш йўлида пайдо бўлган тўсиқлар туфайли келиб чиққан ҳолатдир. Худди шу пайтда ўсмир шахсида ҳам ота - она ва яқинлари уни тушунмаслиги ва аксинча унга нисбатан қаттиққўллиги натижасида агрессив хатти - ҳаракатлар, ўсмир хулқида оғишлар намоён бўишини кўзатишимиз мумкин.

Демак, ўсмирнинг агрессив хулқи шаклланишида асосан ота - она таъсири кўзатилади ва оила тарбиясидаги қуйидаги омиллар катта рол ўйнайди:

- ўсмир ҳаракатидан қониқмаган ота - она реакцияси;
- ўсмирлар ва ота - оналар ўртасида муносабатнинг характери;
- ака - ука, опа - сингиллар ўртасидаги муносабатлар характери;
- ота ёки она ёки икковлари билан бўлган ёмон муносабат.

Шунингдек, ўсмир ота - оналарнинг қўллаб - қувватламаслиги ва уларнинг қизиқишларига бепарволигини сезса, қуйидаги вазиятлар юзага келиши мумкин:

- жинойтчилик фаолиятига кириб кетиш;
- бошқа ўсмирларга қарши чиқиш;
- ўз ота - онасига нисбатан ўзларини агрессив ҳолда тўтиши мумкин.

Ўсмир хулқидаги оғишлар асосини аввало оила муҳити ташкил қилиши ва оиладаги ўзаро бир - бирини психологик томондан тушунмаслиги натижасидир. Ўсмирлик кескин ўзгаришлар даврилигини ҳисобга олган ҳолда, уларга алоҳида эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир. Акс ҳолда эса, юқоридаги салбий хусусиятлар ўсмир характерини, унинг хатти - ҳаракатини тубдан ўзгартириб юборади.

Хулоса қилиб айтганда, тарбияда энг муҳим восита бу меҳр ва ширинсўзлик билан тарбиялашдир. Бу икки восита бир бўлиб, болани шакллантиради. Шу жумладан, таълимни ҳам ғазаб ва жазолаш билан амалга оширмаган маъқул. Зеро, зўрлаб берилган таълим бола хотирасидан тезда ўчиб кетади. Оқибатда унинг шу соҳага нисбатан қизиқиши сўниши мумкин. Бундан кўринадики, таълимнинг аввали ҳам яхши тарбиядан бошланади.

Яна шу нарсани таъкидлаб ўтиш жоизки, ота-она, яқинлари томонидан меҳр-эътиборни етарли даражада, ўз вақтида берилиш бола шахсдаги барча ижобий ҳислатларни шакллантиради. Ҳар хил тобелик ҳолатларини (интернетга, видео ўйинларга, қарама-қарши жинс вакиллари тобелик) олдини олади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Гонеев А.Д., Лифинтсева Н.И., Ялпаева Н.В. Коррекцион педагогика асослари / Эд. В.А.Сластенина . - М., 1999 йил.
2. Запорозхетс АБ, Лисина М.Н. Мактабгача ёшдаги болаларда мулоқотни ривожлантириш. - М., 1974 йил.
3. Карпова С.Н. Онтогенезда психик ривожланишнинг о'зига хослиги (ривожланиш психологиясининг долзарб муаммолари). - М., 1978 йил.



## AGRESSIV XULQLI BOLA BILAN KORREKSION ISHI

*Toxirova Sabohat Yo'ldosh qizi*  
*Xorazm viloyati Bog'ot tumani 2-IDUM psixologi*

**Annatatsiya.** Agressiv xulqli bolalar bilan oilada va maktabda korreksion ishlarning olib borilishi to'g'risida ma'lumot va tavsiyalar berilgan. Ushbu maqoladan psixologlar, agressiv bolalar bilan ishlashda ( suhbatlar, trening va mashg'ulotlar ) dan foydalanishlari mumkin.

Agressiv xulq- atvor deganda shaxsning buzg'unchilikka intilishi bilan xarakterlanuvchi hususiyat bo'lib asosan subyektlararo munosabatlar sohasida namoyon boladi. Agressiv og'ir havfli vaziyat paydo bo'lganida agressivlik himoya bazida esa vaziyatni bartaraf etuvchi vazifani bajaradi. Agressiv hulq ayniqsa bolada yoshga hos bo'lgan o'tish davrida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, yosh davrlari krizisi paytida bolaning yashashi qiyinlashadi, har qanday murakkab vaziyatda bola qiyinchilikni his qiladi va shu sababli agressiv hulqning elementlarini kuzatish mumkin. Bu normadagi bolaga ham agressiv huquqli bolaga ham birdek tegishli. Affektiv buzilish bo'lganda agressiya odatiy hodisaga aylanadi, hatto hulq-atvorning birdan bir shakli bo'lip qoladi. Biroq bunga qaramasdan, bola hulqida agressivlikning bor bo'lishi ular bilan o'zaro munosabatda qiyinchilik tug'diradi. Agressiv tendensiyalarni tasodifiy salbiy holat deb baholab bo'lmaydi.

Shuni esda tutish kerakki effektiv taraqqiyot jarayonida bola aktivligi qonuniy ravishda oshishi mumkun. Odatda, kattalar yordamida o'tkazilgan psixakarreksiyaning bu zaruriy bosqichida bola o'zini qurshagan reallik bilan nisbatan adeqvat turdagi muloqotni o'zlashtirishi mumkin.

Bola agressiyasini korreksiya qilishni uning sababini aniqlashdan boshlash lozim. Agar agressiya emotsional mativatsion sferaning buzilishi sababli bo'lmasa korreksion faoliyatni uni yo'qotishga emas, balki salbiy oqibatlariga olib keluvchi agressiv xulqni yumshatish va uning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka qaratish lozim. Shu bilan birga kattalarni uning agressiv reaksiyasiga adekvat idrok qilishga tayyorlash lozim.

Boshqa holatda, ya'ni agressiya emotsional motivatsion sferaning buzilishini namoyon bo'lishi bo'lsa, psixolog yoki tarbiyachi harakati bolaning mustahkamlanmagan agressiv harakatiga yo'naltirilishi lozim.

Karreksion metodikaning qo'llanishi to'liqligicha agressiv hulqning sababiga bog'liq bo'ladi. Karreksiya metodi konkret hodisa va konkret bolani hisobga olgan holda tanlanadi. Bu quyida sharhlangan karreksiya metodlarini diqqat bilan ko'rib chiqishni taqozo etadi.

1 Agressiyaga moyillikni e'tiborga olmay qo'yish, unga atrofdagilarning diqqat qaratmasligi.

2 Agressiv harakatlarni o'yin mazmuniga kiritish va unga yangi emotsional mazmun berish. Bu orqali bolaning atrofdagilarga zarar yetkazmagan holda agressiv moyilligini chiqarib yuborish (masalan, qaroqchi va qazaqlar o'yinida agressiv hulqli bolaga qaroqchi ro'lini berish).

Agressiv hulqli bolaning ota-onasi bilan ishlash. Bu juda murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Agressiv hulqli bolalarning ota onalari tez- tez bolaga nisbatan yoqimsiz hissiyotni boshdan kechiradilar va bolaga yordam berish uchun emas, balki bolani "yuvvoshlantirish" uchun psixologik konsultatsiyaga murojat qiladilar. Ular bolaning tinchlantirilishini va bola ularni hafa qiluvchi ishlarini tugatishini istaydilar.

Ko'p hollarda agressiv hulqli bolaning ota-onasi tushkunlikka tushgan va hayotidan norozi odamlar bo'lishadi. Ko'pincha sobiq agressiv hulqli bolalar o'zlarining psixologik qiyinchiliklarini o'z bolalariga o'tkazadilar. Shu sababi psixolog birinchi navbatda bolaning ota -onasi bilan psixaterapevtik ish olib borishi lozim. Psixolog quyidagilarga alohida et'ibor qaratishi lozim.

Birinchiidan, ota -onaning qadr -qimmatiga negativ ta'sir etishdan qochish lozim (siz o'z bolangizning shaxsi bo'lishi haqida hech nima bilmsaysiz, hozir men sizga tushuntirib beraman). Ota-onaning shaxsiyatiga tegmagan holda vaziyatni aniqlab olish lozim. Ota-onalar bazan o'zlari hayotida erisholmagan narsalariga farzandlari erishishini hohlaydilar va undan talab qiladilar ( masalan, men taniqli rassom, vrach yoki biror boshqa kasb egasi bo'la olmadim, bolam bo'lishi kerak).

Ikkinchidan, ota- ona bolaga bo`lgan ustanovkasini o`zgartirishi lozim. Ular agressiv hulqli bolani noshukur deb hisoblashadi. O`zlarining jahli va ta`na malomatlariga javoban bolaning aybdorlik tuyg`usini his qilishini, afsuslanishini, kechirim so`rashi va ularni tinchlantirishini kutadi. Bu yuz bermaganidan ular achchiqlanadi va bolani "be'mani, buzilagan, yomon"xisoblashadi. Ota-onani bolaga achinishga chaqirish lozim va ko`rsatib o`tish kerakki, har doim agressif bola birinchi navbatda baxtsiz bola. Ot - onaga psixolog g`azabning namoyon bo`lish mehanizmlarini va yana agressivlikni emotsional buzilish sifatida ko`rsatib o`tishi lozim.

Uchinchidan, ota-onaga o`zlarining bolalik xotiralarining, o`sha davrdagi agressiv qilmishlarining sabablarini eslatish kerak. Balki bu ko`pgina shaxsiy komplekslarni ochishi mumkin. Bu holatda ularga psixik yordam ko`rsatish va shaxsiyatini barqarorlashtirish kerak bo`ladi. Bolalar muammosi har doim oilaviy muammolarni ko`taradi. Bolani o`rab turgan odamlar yordamisiz uning o`ziga alohida yordam ko`rsatish deyarli mumkin emas. Bolaning o`zini alohida ajratib olib yordam ko`rsatilganda ham bu yaxshi samara bermaydi, chunki oiladagi muammolar agressiyaning yana qaytarilishiga sabab bo`lishi mumkin.

To`rtinchidan, bola tug`ilguncha va chaqaloqligining birinchi oylarida ota-onaning unga bo`lgan munosabatini aniqlab olish lozim. Ba`zan bola onaning "majburiy" yoki "tasodifiy" homiladorligi asosida dunyoga kelgan bo`lishi mumkin. Bu holatda ota-ona qattiy bir qarorga kelishi lozim. Agar bola ularning hohishsiz tug`ilgan bo`lsa ham baribir ota-ona unga g`amho`rlik qilishga burchli.

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” **A. Avloniy.**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash G. T. Yodgorova. Toshkent 2007 yil

## ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА УЧРАЙДИГАН ПСИХОЛОГИК ИНҚИРОЗЛАР ВА УНИНГ ФАОЛИЯТГА ТАЪСИРИ

*Янгиева Дилафруз Бекмуротовна  
Олот туман 23-мактаб психологи*

Ҳозирги вақтда психологик инқирозли ҳолатларни ўқувчи томонидан бошдан кечирилиши натижасида, ҳаёт мазмуни ва мақсадини қайта англаш ва қайта қуриш, ўз ҳолатини турлича баҳолаш, етакчи мотивларнинг бар்தараф этилиши ёки ўзгаришида намоён бўлади.

Турли тоифадаги шикастланиш вазиятлари ўсмирлар учун аҳамиятлилик даражасига кўра турлича таъсир кўрсатади. Бунда ўқувчи шахсида шаклланган турғун, аҳамиятли хусусиятлар бузилишларига олиб келувчи омиллар шаклланганда ҳимоя механизмлари ишга тушади. Кучли психологик шикастлантирувчи омилларни ҳис этган ўсмир уларни такрорланишидан хавотирланади, салбий эмоционал кечинмаларни пайдо бўлишига сабаб бўлади, натижада ўқувчи шахс ўз-ўзини идора эта олмайди, турли хатоларга йўл қўяди. Уларда хотира, диққат координациясининг бузилиши ўқишдаги ўзлаштириш даражасига пасайиб кетишига сабаб бўлади.

Эмоционал зўриқишлар ўсмирларда психосоматик бузилишлар негизида келиб чикувчи жисмоний соғломлик ҳолатига салбий таъсир кўрсатади. Узоқ давом этган стрессли вазиятлар ўқувчиларда ўзини тинчлантиришнинг сунъий йўлларини излаб топиш эҳтиёжини келиб чиқиши натижасида улар эрта чекиш, турли токсик моддалар, алкоголь ва наркотик моддаларни истеъмол қилишни бошлайдилар. Шикастлантирувчи вазият таъсирида ўсмирда ўтмиш, ҳозир, келажакни тўғри идрок эта олмайдилар, натижада ўқувчи шахс ўзини шикастлантирувчи вазиятдан олдинги қандай ҳолатда бўлса шундай ҳолатда идрок этади. Масалан, шикастлантирувчи вазият 14 ёшда юзага келган бўлса ўсмир шахс ўзини узоқ вақт мобайнида айнан ўша ёш юзасидан идрок қилади. Ўсмир шахсининг шикастлантирувчи вазиятлар натижасида шаклланивчи эмоционал кечинмалари унинг вазиятни ҳал этиш усуллари ҳақидаги иллюзияларнинг бузилишларига олиб

келади. Ўсмир ўзидаги шахс сифатида психологик имкониятларни етарлича баҳолай олмайди.

Психолог олимлар инсон психологик инқирозларини (кризис)ни қуйидаги икки турга ажратишади:

1. Салбий кечинмалар, можароли ҳолатларни ошириб, ўз жонига қасд қилиш ҳатти-ҳаракатларнинг содир бўлиш эҳтимолини оширувчи аста-секин ўсиб борадиган психологик инқироз.

2. Руҳиятга таъсир этувчи, қутилмаганда содир бўлган воқеа натижасида тўсатдан содир бўладиган психологик инқироз. Айниқса, бу ҳолатнинг воқеадан кейинги дастлабки соатларда ва биринчи суткадан кейин содир бўлиш эҳтимоли мавжуд.

Психологик инқирознинг икки ҳолатида ҳам кучли кечинмалар, хаяжонланиш таъсири остида воқеа, айрилиқ ёки можаронинг ички аклий “ҳазм қилиш” жараёни кузатилади. Шахсда мураккаб ички инқироз ва қарама-қаршилик ҳамда ҳаётбахш омиллари ўртасида зиддиятли кураш кечади.

Тўсатдан психологик инқироз ҳолати содир бўлганда, психик жараёнда унинг кечишининг 4 та босқичи кўзга ташланади:

- руҳий жароҳатланиш босқичи ёки “руҳий шок” (2-3 соатдан 2-3 суткагача давом этади);

- шахснинг парокандаликка учраш босқичи (1 суткадан икки ҳафтагача давом этади), мазкур босқич қалтис босқич ҳисобланади, чунки унинг якунидан кейин ёки соғайиш бошланади (бунда воқеликни тўғри қабул қилиб, вазиятга кўникади) ёки бўлиб ўтган воқеага берилиб, стрессдан кейинги ҳолатга тушиб қолинади;

- “қабул” қилиш босқичи, яъни айрилиққа кўникиш (бир неча ҳафта давом этади); - тикланиш босқичи (бир неча ҳафтадан бир неча ойгача давом этиши мумкин).

Шуни таъкидлаш лозимки, психологик инқироз ҳолати инсонда тезкор ижобий ёки салбий ўзгаришлар содир бўлишига сабаб бўлади.

Ўсмирларда психологик инқирозни келтириб чиқарувчи бир нечта сабабларни келтирамиз:

Суюкли инсон (оила аъзоси)нинг вафоти. Яхши кўрган инсонларининг вафотидан улар шу даражада изтироб чекишадик, хаттоки ўлимда у билан бирга бўлиш хиссини туядилар.

Бундан ташқари оиладаги мотам, бахтсизлик ўсмирга бўлган эътиборни сўнгги даражага суриб қўяди. Аксарият катталар, ёшлар яқинларининг ўлимини улар каби чуқур хис эта олишмайди, деб ҳисоблайдилар.

Ажримлар. Ота-оналарнинг бирини йўқотиш ўсмирга кўпроқ азият етказиш мумкин. Кўплаб ўсмирлар оиланинг бузилишида масъулият хис этадилар. Эр-хотиннинг ажримлари ҳар хил салбий таъсир кўрсатиб уларда ҳақиқий кўрқувни тасаввур қилиб бўлмайдиган азобни ҳам шакллантиради.

Ўқув юртидаги босим. Юқори баҳо олишга интилиш; бир варакайига бир нечта қийин топшириқларни бажариш; жамоат ҳаётида ўта фаол қатнашиш; жисмоний мусобақаларда қатнашиш талаблари; дарс қолдирмаслик.

Тенгқурлар томонидан босим. Тенгқурлар томонидан қабул қилиниш; гуруҳ қизиқишлари; кийинишида мос келиш; спиртли ичимлик истеъмол қилиш; чекиш; мусиқий қизиқишлар; қарама - қарши жинсга қизиқтиришга ундаш.

Ота-оналар босими. Муваффақият; пул; ўқув юртини танлаш; яхши дўстлар; керакли таълим; назорат остида бўлиш талаби ва мустақил бўлиш истаги ўртасидаги низо; ота-оналар ўртасидаги келишмовчиликлар; кийиниши; мусиқа; ота-оналарнинг “дўст” бўлиш истаклари; намуна бўлишдан кўра кўпроқ насихат қилиш.

Кўримсизлик. Ўзидан қониқмаслик ҳисси нафақат жисмоний нуқсонни бор ёшларни, балки соғлом болаларни ҳам психологик инқирозига сабаб бўлиши мумкин.

Кийиниши. Тенгдошлари ўртасида урф бўлган кийимлар ва ўзининг кийиб юрганларини доимий равишда таққослаб боришга мажбур бўлади.

Ўқишдаги қолоқлик. Кўпинча катта опа-акаларнинг “даҳо”ликлари ўсмирга доимий ёқимсиз эслатма бўлиб хизмат қилади.

Мулоқотнинг етишмаслиги. Кўп ўсмирлар ўзларини шунчалар ёлғиз ва ажратилган деб хис этишади-ки, сўнгги ўн йиллик ичида ёшлар бир дунё таниш ва дўстлари орасида ўзларини ёлғиз хис этишлари мунтазам кузатилмоқда.

Ишончсизлик. Айрим ҳолларда ўсмирлар келажакка умид билан боқишнинг ўрнига иложсизлик ҳиссидан тушкунликка тушадилар.

Одатда ўсмирлар ўзларининг ташқи кўринишларига ўта эҳтиёткор муносабатда бўлишади. Тенгдошлар ўртасида эса ҳар қандай ташқи кўринишдаги нуқсонлар, даволаб бўлинмайдиган касалликлар болалар томонидан масхара қилинади. Кўпинча уларга шундай муносабатда бўлиш уларнинг ота-оналари томонидан қўллаб-қувватланади, “бундайлар билан юрма, унинг касали бор”, “у чўлок, кулоғи оғир, семиз, кўзойнак ва ҳ.к.” Оқибатда, бундай сўзлар билан ҳақоратланаётган ўсмир кучли психологик инқирозга учрайди.

Тўғри олиб борилган тушунтириш, оиладаги самимийлик туфайли кўпинча одамларнинг бундай тарбиясизлиги билан курашишда улар ўзларида куч топадилар ва ҳаётда ташқи кўриниш муваффақият гарови бўла олмаслиғни исбот қиладилар.

Эмоционал реакциялар. Ўсмир доим ўзининг фикрига кўмилиб юрган бўлади. Бундай ҳолатнинг сабабини билмоқчи бўлганларга кўполлик ва кўрслик қилади.

Тушкунлик ҳолати. Бунда борлиқ рангсиз, тушкун ҳолда акс этади, атрофдаги барча воқеликлар, одамлар фикрлари умидсизлик ҳолатида қабул қилинади, ҳар бир нарсанинг охирида салбий натижа ётади.

Жинсий тарбиянинг етарли эмаслиги. Етуқлик давридаги физиологик ўзгаришлар ҳақида керакли маълумотларга эга бўлмаслик жуда кўп тушунмовчиликларга олиб келади. Ҳозирги кунда ўсмирлар кўп маълумотларни интернет ёки яхши билимга эга бўлмаган “ақлли”, “тажрибали” ошна-оғайниларида олишга ҳаракат қиладилар.

Жазоланишдан кўрқиб. Катталарнинг болаларига айтаётган “ёмон иш қилсанг, мендан кўрасан”, “ножўя қадам қўйсанг, сендай болам йўқ», “агарда ундай, агарда бундай...” каби гаплари уларни чинакам кўрқувга солиб қўяди.

Юкорида ўсмирларнинг ўткинчи қийинчиликлар таъсири остида инқирозли ҳолатларни бошдан кечишларининг сабаблари кўрсатиб ўтилди.

Хулоса ўрнида турли нохуш ҳолатларни олдини олишда ҳар бир ўсмирга индивидуал психологик жиҳатдан ёндошиш, аввало ота-оналар, таълим муассасаси устоз-мураббийлари, психологлар ўсмирларни мунтазам кузатиб боришлари уларга чин маънода маслаҳатчи дўст бўла олишлари лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. С.Х Жалилова, Н.А Ғайбова. “Умумий диагностика”. Тошкент 2018
2. Жалилова С.Х. “Мактабгача ёшдаги болалар психологияси”. Тошкент 2017
3. З.Т.Нишанова, Н.Г Камилова, Д.У Абдуллаева, М.Х.Холназаров. “Ривожланиш психологияси. Педагогик психология”. Тошкент-2018.
4. М.ТДавлетшин. Ўқувчиларда қобилиятнинг таркиб топиши. "Ўқитувчи".Т., 1965.
5. Умумий психология. А.В. Петровский таҳририда. Т. 1992й.

---

## **FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALARNING PSIXOLOGIK BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI OSHIRISH VA PSIXOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH LOYIHASI**

*Xamitjonova Gulzoda Aminjon qizi  
Andijon viloyati Asaka tumani 11-maktab psixologi*

Har qanday jamiyat uchun yosh avlod tarbiyasi,uning taraqqiyotida beqiyos o'rin egallaydi.Tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek,farzand uchun ota-ona butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.Farzandlarning sog'lom bo'lishi,ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi shaxs sifatida shakllanib kamol topishida ota-onaning tutgan o'rni beqiyosdir Bugungi kunda farzand tarbiyasi dolzarb masalaga aylanmoqda .Chunki



kelajak avlodni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash har birimizning burchimiz hisoblanadi. Ota-ona va maktab o'rtasida muloqat munosabatlarini shakllantirishni yanada yo'lga qo'yish kerak. Bunda bizga ota-onalar yig'ilishini tez-tez o'tkazish yoki yig'ilishga kelmagan ota-onalarning uylariga borib tushuntirish ishlari olib borish zarur.

Nima sababdan biz farzand tarbiyasida ota-onalarga ko'proq murojaat qilamiz?

Chunki oila bizning hayotimizdagi eng aziz va muqaddas dargoh! Faqat oilagina insonning baxtli bo'la olishi, o'zini kimlargadir kerakli his eta olishi yoki bo'lmasa o'zini ezilgan omadsiz sezishiga sabab bo'la oladi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, uning inqirozig olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oila va ota-onaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom psixologik muhitli, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan ham mehr oqibatsiz, shavqatsiz, zolim xudbin, yurt manfaatlariga zid, tashqi kuchlar tasiriga oson beriluvchan shu asosda esa o'z oilasi o'z xalqi o'z yurti uchun xavfli odam bo'lib yetilishi mumkin.

Yig'ilish jarayonida tarbiyasi va bilimi muhokamaga qo'yiladi. Tarbiyasi og'ir o'quvchilarning ota-onalari bilan maktab ma'muriyati suhbatlashib muammoni hal qilish yo'llarini topadilar. O'quvchi maktabda 6 soat vaqtini o'tkazadi, qolgan vaqt davomida ota-onasi va yaqinlari bag'rida bo'ladi. Demak, bolaning ko'p vaqti oilada o'tadi, olingan tarbiyani maktabda ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlarda ba'zi holatlarda ota-onalar farzandlar manfaatiga zid chiquvchi ba'zi vaziyatlarni yuzaga keltiradilar, bolalarning fikrlarini hisobga olmaydi, ularning tarbiyasi va ta'limiga oid masalalarni o'zicha hal qiladi va farzandlar o'rtasida nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ota-onalar ba'zida farzandlariga munosabatlarini o'zgartiradilar.

Shu sababli oiladagi kelib chiqadigan barcha muammoli vaziyatlar bola psixologiyasiga tez ta'sir qiladi. Ota-ona bolaning yoshi va jinsini hisobga olgan holda munosabatda bo'lishi kerak. Bugungi kunda jizzaki, tarbiyasi og'ir bola bilan ishlash o'qituvchi uchun murakkab. Bu jarayonning yechimini topish uchun 3 tomonlama hamkorlik o'rnatish kerak. Maktab ma'muriyati ota-ona va psixolog hamkorligida oyda bir marta yig'ilish o'tkazish zarur.

Bunda psixolog tarbiyasi og'ir bolaning oilaviy muhiti va ota-onasining psixologiyasini o'rganadi. Avvalo ota-ona dunyoqarashi keng va saviyasi baland bo'lishi kerak shundagina u o'z farzandining tarbiyasida muammolarga uchramaydi. Oilada ijobiy psixologik muhitni bir me'yorda saqlash oila a'zolarining barchasiga taalluqli hodisadir. Shu sababli ham oilalarda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilish uchun har bir oila a'zosi mas'uliyatni his qilishi, iloji boricha, ko'proq samimiy va ochiq muloqot, munosabat va faoliyat turini tanlashi lozim. Muammolarning oldini olish maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

1. Emotsional-psixologik madad, emotsional yordam berish shaxslarning hissiyotlarini barqarorlashtirish va ularning psixologik terapiyasini o'tkazish.
2. Oila a'zolarining harakatlarini ma'naviy tartibga solish.
3. Oila a'zolari barchasining o'rtasidagi mas'uliyat va majburiyatlarini tartibga solish.
4. Oila a'zolarining bir-birlarini qo'llab- quvvatlashlari.
5. Yuqorida keltirilgan vazifalar oilada ijobiy-psixologik muhitni saqlashga yordam beradimi.
6. Ochiq, samimiy muloqot munosabat va faoliyat deganda nimani tushunasiz.

Ota-onalar va fazandlar munosabatini o'rganish metodi

Ota-onalar va farzandlar munosabatini ifodalovchi insonning psixologik holatlari oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiluvchi jarayondir. Ko'pgina tadqiqotchi olimlar oilaviy munosabatlarda ota-onaning farzandlarga bo'lgan munosabatlari namoyon bo'lishiga shaxsiy sifat , fazilat va xususiyatlarning ustuvorligi hamda ularning namoyon bo'lishiga shaxsiy ustanovkalar, tajriba, yo'nalish va qarashlarni sababchi qilib ko'rsatadi.

Ota-ona bolalarni o'z jinslariga aloqador bo'lgan psixologik muammolar va masalalar bilan muntazam tanishtirib va tushuntirib boorish ko'zda tutiladi. O'g'il bola va qiz bolalarning differensial o'ziga xosliklari va psixofiziologik xususiyatlarini mukammal bilishga qaratilgan ishlarni tashkil qilish lozim.

Xulosa.

Prezidentimiz yosh avlodning har tomonlama barkamol va yetuk shaxs bo'lib rivojlanishi uchun turli xil islohotlarni amalga oshirmoqda. Misol tariqasida “5 tashabbus”ni olshimiz mumkin. Bu yoshlarning iqtidori yanada oshishiga yordam beradi. Barkamol shaxs tarbiyalashda ota-ona muhim ahamiyat kasb etad. Avvalo ota-onaning psixologiyasini dunyoqarashini o'stirish kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishamiz. Biz buning uchun maktab rahbariyati va ota-ona hamda psixolog hamkorligini yo'lga qo'yishimiz zarur. Olib borilgan tushuntirish ishlari o'z samarasini bolaning tarbiyasi va psixologiyasi yaxshi tomonga o'zgarishida ko'rsatadi. Kerakli maslahat olgan ota-ona albatta bola tarbiyasida yo'l qo'yayotgan kamchiliklarini o'ylashga majbur bo'ladi va tarbiya usullarini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Ota-onasi tomonidan rag'batlantirilayotgan bola o'z-o'zidan o'zgarishi tabiiy holat. Buni psixolog kuzatib boradi ya'ni bolaning sinfdoshlari, ustozlari, do'stlari bilan muomalasida ko'rishimiz mumkin. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi psixologik pedagogik bilimlarini yanada rivojlantirish maqsadida maktab psixologlari tomonidan “Ota-onalar maslahat”to'garaklarini tashkil qilishni taklif qilaman. Bunda ota-onalar sinflar kesimida haftada bir kun chaqiriladi, maktab psixologi tomonidan tavsiya darslari o'tib boriladi. Dars ota-onalarga turli metodikalar asosida olib boriladi, hikoyalar, rivoyatlardan keltirib boriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bozorov .O ., Majidov N ., Abdullayeva Sh. Sog'lom ma'naviy muhit kushandasi. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2013.
2. Entoni Giddens . Sotsiologiya. –Toshkent : Sharq, 2002.
3. Ahloq-odobga doir Xadis namunalarini.-T., 1990
- 4 Ibroximov A. Va boshqalar. Vatan tuyg'usi. – T., “O'zbekiston”, 1997

## O'QUVCHILARNI KASB TANLASHLARIGA PSIXOLOGIK KO'MAKLASHISH

*Tojiboyeva Shohsanam Baxromovna*  
*Andijon viloyati Paxtaobod tumani 51-IDUMI psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning kasb tanlash muammolari va ularga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son qaror bilan respublikamizda uch bosqichli professional ta‘lim joriy etilishi talablarida belgilangan talablariga kompleks yondashish kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samaradorligini ta‘minlaydi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi va mutahassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsning taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutahasissining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki inson umrining asosiy qismini sarflaydigan faoliyat hamdir. Kasb tanlayotgan shaxs undan talab qilinadigan bir qator jihatlarga ham alohida e'tibor qaratishi lozim:

- umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimga ega bo'lish;
- kasb tushunchasining ta'rifini, tabiatini, xususiyatlarini, kasblar sonini va turlarini bilishi;
- kasbni inson hayotida qanchalik muhim ekanini tushunishi, u haqda ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishi;
- kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi;
- o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi;
- kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi kasb-hunarga yo'naltirish yakuniy ideal natijasi- bu har bir o'quvchida mustaqil va ongli ravishda kasbiy o'zlikni anglashning shakllanganligidir. Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy me'zonlardan biri sifatida quyidagi bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin:

4. Kasblar olami haqidagi aniq ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri. Bu Davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv-biluv faoliyatida o'quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi.

5. O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq, ularda yangi yetakchi faoliyat tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo'ladi.

6. O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zligini anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

Yoshlar o'z kelajagini anglagandagina, qiziqish va manfaatlarini anglab olgandagina, hayotidagi ehtiyojlarini tushungandagina kasb tanlashi oson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi. Bu asosni tanlashda beriladigan quyidagi tavsiyalar va bir qator jihatlar foydadan holi bo'lmaydi.

O'quvchilar uchun tavsiyalar:

-o'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab oling (bunda maktab psixologi sizga yaqindan yordam beradi);

-turli kasbiy yo'nalishlar istiqbolli soha va mutahassislik to'g'risida bilimlaringizni mustahkamlab boring;

-9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlarda o'tkaziladigan "ochiq eshiklar kuni"da ishtirok eting;

-adabiyotlar,onlayn platformalardan yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot oling;

-istaklaringiz, qiziqish va qobiliyatlaringiz, salomatligingiz va maqsadlaringizni muvofiqlashtiring;

-imkoniyat bo'lsa kasb tanlash bo'yicha malakali mutahassis bilan maslahatlashing;

-tanlayotgan kasbingizdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

-qanday kasb tanlashni farzandingizni o'ziga qo'yib bering;

-siz tomoningizdan berilayotgan maslahatlar zarur va foydali, lekin ular yakuniy qaror bo'lmasligi yordamchi ta'sir bo'lishiga e'tibor qarating;

-farzandingizni qiziqish, qobiliyat va layoqatini yoshligidan kuzatib, rivojlantirib boring;

-farzandingizni istak va maqsadlari bilan o'rtoqlashing;

-farzand otasi yoki onasining kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi, lekin bunga uni siz majburlamang;

-farzandingizni kasb tanlashi va kasbiy yetuklikka erishishi uchun iloji boricha yetarli sharoit yaratib bering;

-farzandingiz kasb tanlashida o'z imkoniyatlari va shaxsiy sifatlaridan kelib chiqishi to'g'risida maslahatlar bering.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kasbiy yo'nalishi yoshlarda hozirgi iqtisodni, menejment boshqarish nazariyasini, bozor muhitidagi marketing faoliyati va mo'ljalni, patent olishga kirishni, ma'lumotlarni bilishi va ularni mohiyatini tushunish- buning uchun informatika va informatsiyalar asoslarini egallagan bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'smirni kasb tanlashida o'zini aniq maqsadlarini anglab olishi va kasbga ega bo'lishga intilishi- bu ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda 3 ta asosiy omillar birlashishi va ularga moslashishi kerak bo'ladi. Bular:

Men xohlayman, Men eplay olaman, Men qila olaman omillaridir.

"Xohlayman" -bu shaxsning intilishi, qiziqishi, xohlashi.

"Eplay olaman" - bu insoniy imkoniyatlar (fiziologik va psixologik, shuningdek shaxsning ta'lim resurslari).

"Qila olaman"-mehnat bozorining ehtiyojlari, insonni jamiyat, odamlar, oilasi va shu kabilar oldidagi majburiyatlari.

Asosiysi tarbiyachi bo'lgan ota-onalar o'z bolalariga kasb tanlashida yordamchi hisoblanadilar. Ular bilan ochiq suhbat bolalar qaysi kasbga qiziqishlarini bilib olishlari va ularga yordam berishlari zarur. Agar bola tanlagan kasb ota-onaga yoqmasa uni ra'yini qaytarmagan holda nima uchun bu kasbni tanlagani va buning asosida nimalar yotganini bilib olishlari zarur.Asosiy omilni bilib olgach, o'z maslahatlarini berishlari mumkin bo'ladi. qo'llab -quvvatlash, ishonch bildirish va o'z maslahatlarini berishdan iborat.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi bu kasbga yo'natirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi faoliyatining natijasi o'quvchilardagi psixologik ko'rinishda o'z aksini topadi, ya'ni ularning bilimlarida, uddalay olishlarida, malakalarida, shaxsga xos tomonlarini ko'rinishida, dunyoqarashlarida, ma'naviy ehtiyojlarida o'z aksini topadi.

O'quvchilar faoliyatining natijasi- bu aniq bir kasbni tanlab olishlarida, uni bajarishni uddalay olishlarida, shu sohani olib borish imkoniyatlarida ko'rinadi.

Unutmang, inson kasbida jon saqlashi emas, balki shu kasbda yashashi kerak. Shundagina qilayotgan ishi haqiqiy sevimli kasbi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. E.G'.G'oziyev. K.K.Mamedov "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003
2. F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami.Toshkent. 2020.

## **БОЛАЛАР ВА ЁСМИРЛАРДА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИНING КЕЛИБ ЧИҚИШИДА ИЖТИМОИЙ МУҲИТ ВА ОИЛАВИЙ ТАРБИЯНИING ЎРНИ**

*Тожибоева Шоҳсанам Бахромовна  
Андижон вилояти Пахтаобод тумани 51-ИДУМИ психологи*

Оиладаги носоғлом психологик муҳит ва оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда таълим жараёнида кузатилаётган нуқсонлар, болалар ва ёсмирлар яшаётган маҳаллалар ҳаёти, уларнинг психологик муҳити вояга етмаганларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди. Маълумки, объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ёсмирнинг онги, хоҳиш иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши, шахс сифатида шаклланиш ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Учинчидан эса ғайриқонуний йўл-йўриқлар ва роллар тақсимооти ёсмирда аста-секин ижтимоий муҳит талаб ва меъёрларига нисбатан деформациялашувнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Қолаверса, ўз ноқонуний ҳаракатларининг жавобсиз қолишини, катталар томонидан маъқулланишини ҳис этган ёсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги биледи. Бу эса ёсмирга янги-янги ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради. Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ёсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига баъзан сабаб бўлиши мумкин. Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, хусусан юртимизда кечаётган ислоҳотлар, бозор муносабатларига ўтиш, кишиларда кундалик турмуш ташвишларига барҳам бериш, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қараш лаёқатининг етишмаслиги ва шу кабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг бироз сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандлари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда.



Шу боисдан юртимизда оиладан ташқарида фарзандлар камолоти, тарбияси билан машғул бўладиган турли хил машғулотларга, (спорт, касб-хунар) тўғарақларга нисбатан бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, бу борада мамлакатимизда олиб борилаётган тадбирлар мақтовга сазавордир. Аммо бу соҳада ҳали қилинадиган ишлар ҳам бисёрдир. Оилада етарлича тарбия кўрмаган болалар турмуш қийинчиликларидан қоқилади. Турли хил низоли вазиятларга дуч келади. Тарбиясизлик ўсмирни яхши ўртоқларидан, давралардан айиради. Оқибатда ўсмир учун бирдан-бир йўл носоғлом хулқли ўсмирлар даврасига қўшилиб кетиш бўлиб қолади. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омиллардан яна бири оилавий тарбияда приметив (эскирган, номаъқул) усуллардан фойдаланиш ҳисобланади. Бундай тарбия усулида тарбия ўта қаттиққўллик, авторитар, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмаслик асосида олиб борилади. Бундай усулда болаларни тарбиялашнинг нотўғри эканлигини бугун ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Чунки бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақлан етук ёшлардир. Оқибатда ўзига маъқул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қилади. Бу муҳит ўзининг характериға кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин. Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларға кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

Маълумки, ўсмирлик (12-14 ёш) даврида кескин психофизиологик ўзгаришлар содир бўлади. Ушбу ўзгаришлар кўпинча ўсмир руҳиятиға ҳам таъсир ўтказади. Бу ўсмирда тажанглик, серзардалик, инжиқлик, таъсирланувчанлик ҳолатларининг келиб чиқишиға сабаб бўлади. Ўсмир руҳий дунёсида пайдо бўлган бундай ўзгаришлар балоғат даври ўтиши билан бир меъёрга келиб қолади. Шунинг учун балоғат ёши даврида ота-оналар ўсмирлар тарбиясига алоҳида эътибор беришлари, уларда кечаётган психофизиологик ўзгаришларни ҳисобға олишлари мақсадға мувофиқдир. Кўпинча оилавий

тарбияда болаларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларининг инобатга олинмаслиги уларнинг нотўғри, ёмон йўлларга кириб кетишларига сабаб бўлади. Оилада ота-оналар кўпинча фарзандлари бирон бир ёмон иш қилиб қўйса, уни қаттиқ жазолаш, тақиқлаш ва уларни уйдан чиқармай қўйиш усуллари орқали тарбияламоқчи бўладилар. Фарзанди ўзларига ёқадиган ишга қўл урса уни ҳаддан ортиқ мақтайдилар ва мукофотлайдилар. Ўзлари қўллаётган усулларни қай бири тўғри, қай бири нотўғри эканлигини англаб етмайдилар. Ўзларича тарбия шундай берилади, деб ўйлайдилар. Натижада ўзлари билмаган ҳолда болаларининг тарбиясига салбий таъсир кўрсатадилар. Шунинг учун отаона энг аввало, оилада болаларни тарбиялаш тўғрисидаги назарий ва амалий билимларга эга бўлиши лозим бўлади. Бунинг учун эса улар тарбия тўғрисидаги педагогик ва психологик китобларни, газета ва ойномаларни кўпроқ ўқишлари зарур бўлади.

Бугунги кунда ўзбек оилаларида ота-оналарнинг ёки оиланинг катта аъзоларининг рад этиш, таъқиқлаш, руҳсат этмаслик асосидаги тарбиялаш усули ҳам болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши ва баъзан ўз жонига қасд қилиш ҳолатларига сабаб бўлаётганлиги кузатилмоқда. Бу хилдаги тарбия усулида болаларнинг хоши-истаги, ўй-хаёллари, орзу ва интилишлари, фикр ва мулоҳазалари инобатга олинмайди. Бундан ташқари бундай тарбия усулида болаларга ўз фикр мулоҳазаларини очикча баён этиш, мустақил қарорларга келиш ва муайян вазиятларга ўз нуқтаи назарини билдириш имконияти чекланади. Бундай тарбия усулида баъзан болаларнинг хатти-ҳаракатлари мажбурий тарзда тақиқлаш усуллари билан бошқариб борилади. Уйда бу нарсага тегиш мумкин, бу нарсага тегиш мумкин эмас, бу кийимни киясан, бунисини киймайсан қабилидаги муносабат ўрнатилади. Боланинг қизиқиши, эркинлиги, ўзига ёққан кийимни кийиши, кўнгли истаган иш билан машғул бўлиши, қизиққан китобини ўқиши ва хоҳлаган спорт тури билан шуғулланиши ота-она ихтиёри билан амалга оширилади. Шунингдек, уларда нутқнинг суст ривожланиши ҳолати ҳам кузатилади. Бундай болалар бутун умр давомида

бировларга тобе бўлиб яшайдилар. Уларда раҳбарлик, бошқарувчанлик қобилиятлари суст ривожланган бўлади. Улар бировларнинг гап-сўзларига тез учадилар. Шунинг учун улар алдовлар, кўзбуймачиликлар, таъмагирликлар қурбонига айланиб қолмоқдалар. Қолаверса, улардаги фикрлаш қобилиятининг суст ривожланганлиги низоли вазиятларга тез-тез тушиб қолишликка сабаб бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. С.Х.Таджиева, Д.Ф.Сабилова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б
2. Ғозиев Э.Ғ. Ўқувчиларнинг умумлаштириш усулларига ургатиш ва уларнинг аклий тараккиёти. Т., "кит" 1983 й.
3. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154
4. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

---

## O'QUVCHI-YOSHLARNING TO'G'RI KASB TANLASHLARIGA KO'MAKLASHISH

*Yormatova Mohira Abdusattor qizi  
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 6-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarning to'g'ri kasb tanlashlariga ko'maklashish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'spirinlik, dunyoqarash, tasavvur, emotsional, component, kasbiy o'zlik, moyillik, qiziqish, qobiliyat, piktogramma, individ.

Bugungi kunda yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish bilan birgalikda, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish hayotiy zarurat hisoblanadi. Bunda xalq ta'limi bo'limi kasb-hunarga yo'naltirish ishlari xodimlari o'rni beqiyosdir. Xalq ta'lim bo'limi va unga tegishli umumta'lim maktablari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorlikda o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratish zarur.

Har qanday o'quvchi o'z hayotini yaxshilashi uchun, birinchidan, kasb egallashni hohlashi, ikkinchidan, bunga o'zi tayyor bo'lishi va yana, bunga erishish uchun harakat qilishi kerak.

O'spirinlik yoshi-o'zligini anglash va dunyoqarashning shakllanish davri. O'quvchini "Men kimman?", "Qanday odamman?", "Men nimaga intilyapman?" degan savollar o'ylantirishi tabiiy hol. O'zligini anglash – bu o'z ichki dunyosini kashf qilish, u haqda yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'z-o'ziga emotsional munosabat, aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlarini baholashdir.

O'spirinlik yoshida o'zlikni anglashning juda muhim komponenti - o'z hattiharakati uchun javobgarlik va uning natijasiga faqat o'zi sababchi ekanligini his qilish xususiyati shakllanadi. Bu yoshda «Kim bo'lsam ekan?» savoli o'spirinning o'y-fikrini qamrab oladi.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik xarakterga ega bo'lcada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Chunki, barcha pedagogik tadbirlar o'quvchining kasbiy o'zligini anglash va ongli kasb tanlashi uchun xizmat qiladi, uning kasbiy o'zligini anglash jarayoni esa psixologik qonuniyatlar asosida kechadi.

Hozirda umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan kasbga yo'naltirish ishlarining yakuniy bosqichida bitiruvchilarga o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tayyorlov yo'nalishlariga tavsiyalar beriladi. O'quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashga tayyorlash ishlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi yana bir omil – ularni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoniga interfaol psixologik, pedagogik

texnologiyalarni tadbiq etish va kasbiy psixologik-pedagogik tashxisning uzluksizligiga erishishdir.

Kasbiy psixologik-pedagogik tashxis faqat bitta-ikkita metodikani o`tkazish bilan emas, balki kasblar to`g`risida ma`lumot berish va kasbiy maslahat ishlari bilan uyg`unlashib ketgan, korreksion-rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo`lgan jarayon sifatida amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun quyidagi kasbga yo`naltirish o`yinlari va mashqlari tavsiya etamiz.

### **Kasbga yo`naltirish o`yinlari va mashqlari**

#### **“Mo`jizalar maydoni”**

*O`yinning maqsadi:* kasblar olamining turli-tumanligi to`g`risidagi tasavvurlarni shakllantirish, kasblarning nomlarini bilish.

*O`yinning borishi:* Ishtirokchilar uch kishidan komandalarga bo`linadilar. Birinchi komanda o`yinni boshlaydi, biror bir kasbning nomini o`ylaydi va qolganlarga faqat shu kasbning nomi nechta harfdan tuzilganligini aytadi. Soat strelkasi bo`yicha keyingi komanda harf aytadi. Agar bunday harf kasb nomida bo`lmasa birinchi komanda bu haqida ma`lum qiladi va o`yinni keyingi komanda davom ettiradi. Agar aytilgan harf so`zda bo`lsa, unda birinchi komanda bu harfning nechtaligini va uning so`zdagi o`rnini aytadi. Shu komanda keyingi harfni aytadi. Kasb nomini topgan komanda keyingi kasb nomini o`ylaydi va o`yinni davom ettiradi.

*O`yinning davomiyligi:* 20-30 minut

#### **“Piktogramma” (ramziy belgilar)**

*O`yinning maqsadi:* turli kasblar vakillarining mehnat sharoitlari va mazmuni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

*O`yining borishi:* Boshlovchi ishtirokchilarni uchtdan guruhlariga bo`ladi. Har bir guruh biror bir kasbning nomini o`ylaydi va uni piktogramma yordamida qog`ozda aks ettiradi. Tanlangan kasbni tasniflashda faqat rasmlardan foydalanish mumkin, raqamlar va harflardan foydalanish taqiqlanadi.

Kasbning piktografik rasmi tayyor bo`lganda, keyingi guruhga beriladi va ular aks ettirilgan tasvirni tahlili qiladilar va kasb nomini aytadilar. Kasb nomini topishda uchta urinish ruxsat beriladi.

Boshlovchi kasbni tasvirlashga va topishga vaqt chegaralanganini aytib o`radi. Guruhlarning bir qismi tasvirlangan kasbni topgandan keyin o`yin boshidan boshlanadi, lekin bu safar piktografik tasvir uchinchi guruhga beriladi. Shu tariqa, o`yin bir necha marta takrorlanadi. O`yinni muhokama qilishda ishtirokchilar tasvirlash jarayonida va kasb nomini topishda qanday qiyinchiliklar bo`lganini, qanday kasblarni topish qiyin bo`lganini, shuningdek vazifani bajarishga nima yordam berganini aniqlaydilar.

*O`yinning davomiyligi:* 30-45 minut

Uzluksiz kasbiy psixologik-pedagogik tashxis, o`quvchilarning tug`ma layoqat, qiziqish va qobiliyatlarini o`rganish davomida, ularning kasbiy motiv, shaxsiy rejalarini ham korrektsiyalab borish imkonini beradi. Bundan tashqari, psixologik-pedagogik tashxis kasb-hunarga yo`naltirish mazmunini belgilash, natijani tahlil etish va navbatdagi bosqichda amalga oshirilishi kerak bo`lgan ishni asosli rejalashtirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida 2016 yil 14 sentyabr, O`RQ-406-son.
2. Gorbushina O.P. Psixologicheskiy trening. Piter, 2007.
3. Praktikum po sotsialno-psixologicheskomu treningu. Sankt-Peterburg, 1994.

---

## **PSIXOLOGIYASINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Xayitova Yayra Xoliyarovna*  
*Samarqand viloyati Bulung`ur tumani 21-maktab psixologi*

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o`smirlik davri va bu yoshdagi o`quvchilar psixologiyasining o`ziga xos xususiyatlari haqida bir qator ilmiy-nazariy hamda psixologik ma`lumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar:** O`smirlik davri, xulq-atvor, ota-ona, o`qituvchi, o`shish, kattalik, bola, inqiroz, o`qish jarayoni, muhit, ta`lim, tarbiya.

Ma'lumki, o'smirlik davri insonni bolalikdan-yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5—8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11—12 yoshdan 14—15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1—2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O'smir o'quvchilarda bu davrning og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kasb etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o'zgaradi. Bu davrdagi o'quvchilar uchun o'z «men»i va shu «men» ning ahamiyati ortadi. O'smirlik davrida esa bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o'zini o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa, o'zi imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan ondan boshlab, u onasi va atrofida qilarning emotsional, hissiy qo'llab-quvvatlashiga, mehr-muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi. Shuning uchun ham ilk bolalik yoshidagi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyib, erkalab ularni quchib, boshini silab, yoqimli gaplar va muomala bilan ularga hissiy yaqinlik namoyon qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo'ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Buni yosh bolalarning onasiga suykalishi, ularning pinjiga suqilishi, ularga erkalanishi hollarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida nizo-

tortishuvlarga duch kelganida va ayniqsa, tengdoshlaridan «jabrlanganda», «engila boshlaganidan», ota-onasidan va atrofidagi yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy qo‘llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi. Agar o‘z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o‘zini erkin, tetik, g‘olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi. O‘zining kichkinagina hayotida duch kelgan «muammolari»ni hal qilishda kattalar yordamiga muhtojlikni his qiladi, ulardan muntazam foydalanishga intiladi. O‘smirlik davrida esa aksincha, o‘smir endi «yosh bola» emas, endi u «katta odam». Katta odam esa mustaqil bo‘lishi, o‘z muammolarini o‘zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi va buni o‘smirning o‘zi ham xohlamaydi. Bu davrda o‘smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko‘rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o‘zlarini erkalab, silab-siypashlarini, «arzimagan narsalar» uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni «yoqtirmaydilar». Endi ular atrofdagilarni hissiy qo‘llab-quvvatlashlaridan xoliroq bo‘lishga, o‘z muammolarini o‘zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko‘chada, bog‘chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so‘ragan bo‘lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu xaqda ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onasi uning «ishlariga» aralashmasliklarini xohlaydi. Bularning barchasi o‘smirlarda bevosita kuzatiladigan emotsional avtonomiyaning alomatlaridir. O‘smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko‘ra, o‘smirlar imkon qadar o‘z xonasida yolg‘iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo‘lgan vaqtlarida imkon qadar yolg‘iz bo‘lishga ayniqsa, ota-onasi, oila a‘zolari nazaridan chetroqda bo‘lishga, o‘z uy-xayollari bilan mashg‘ul bo‘lib vaqt o‘tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham, asosan o‘z tengdoshlari, yaqin o‘rtoqlari bilangina muloqotda bo‘lib o‘z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo‘lishga intilib, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib qoladi. Ayni vaqtda, o‘smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda ko‘proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda, ularning avtonomiyasiga «bostirib kiradilar». Buni esa o‘smirlar yoqtirmaydi. Bunday holatlar o‘smirlar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarida



kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Yuqorida qisman to'xtalib o'tganimizdek, o'smir ruhiyatida kuzatiladigan xarakterli xususiyatlardan biri ularning o'ta ta'sirlanuvchan, jizzaki, qo'rs, sal narsaga xafa bo'lishi undagi hissiy noturg'unlikning ifodasidir. Bunday holatlarning yuzaga kelish sabablaridan biri bevosita jinsiy balog'atga yetish, ichki sekretsiya bezlari, ayniqsa, jinsiy bezlar funksiyalarining faollashuvi va shular bilan bog'liq holda, o'smir organizmida ro'y beradigan psixofiziologik o'zgarishlardir. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida tilga ayniqsa, o'z- o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bo'lgan e'tibori kuchayadi. O'smirlik davrida shaxs egotsentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda, eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bo'lib qoladi. Shu davrda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining hatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardozi-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi. Biroq bu davrdagi endokrin sistemasi faoliyati, epofiz, jinsiy sekretsiya bezlari ajratib chiqaradigan garmon ta'siri ostida o'smir organizmida va tana tuzilishida o'zgarishlar ro'y beradi. Uning tana tuzilishi proporsiyasi buziladi ya'ni u nisbatan beso'naqayroq bo'lib qoladi, tovushlari o'zgarib, do'rillab qoladi. Jinsiy balog'atga yetishning boshlanishi bilan yuzlariga husnbuzar chiqa boshlaydi. Bularning barchasi o'smir uchun kutilmagan, uncha xush kelmaydigan holatlardir va aynan ana shu holat o'smir ta'sirlanuvchanligining, jizzakiligining ortishiga olib keladi. Shu davrda o'smirning tashqi ko'rinishi, shaxsiyatiga oid bildirilgan arzimagan nojo'ya gap uning uchun jiddiy salbiy kechinmalarning yuz berishiga asos bo'lishi mumkin bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991
2. Davlyetshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O'quv metodik qo'llanma TDPU. 2014
3. Psychology.net.ru

## KICHIK MAKTAB YOSHI INQIROZI VA UNI OLDINI OLISH HAMDA BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI

*Nematova Lobar Ramazonovna*  
*Buxoro viloyat G`ijduvon tumani 25-maktab psixologi*

Maktab hayotining birinchi bosqichi uchun shu narsa xarakterliki, bola sinfdagi va uydagi xulqini nazorat qiluvchi o'qituvchining yangi talablariga bo'ysunadi, shuningdek, o'quv fanlarining mazmuniga qiziqqa boshlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari boshdan kechiradigan uch asosiy qiyinchilik bor:

1. Boladan erta uyg'onish, maktabga o'z vaqtida kelish, barcha darslarda bir joyda qimirlamasdan o'tirish, uy vazifalarini vaqtida bajarish kabi irodaviy vazifalar talab etiladi. Bungacha doimiy harakatda bo'lgan va hech qanday mas'uliyat yuklanmagan bola uchun bu o'ziga xos jarayon bo'lib, bu unda ba'zida stresslarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

2. Ikkinchi tur qiyinchilik o'qituvchi, sinfdoshlar va oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatidan kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan farqli ravishda bu munosabatlarda ham bola ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi ( masalan, uy vazifasini bajarmaganligi yoki darsda tinch o'tira olmagan uchun jazo olishi mumkin).

3. Qiyinchiliklarning uchinchi turi – o'quv yili o'rtalaridan o'quv materiali oshib boradi. Hali maktab sharoitiga to'liq moslashib ulgurmagan bola uchun o'quv yuklamasining ortib borishi ham unda moslashish jarayonining qiyin kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar: moslashuvchanlikdagi qiyinchiliklar, bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda irodaviy jarayondagi qiyinchiliklardir.

Maktabga qadam qo'yish bilan bola hayotida muhim psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o'zlashtiradi, o'qituvchi va o'rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o'rnatadi. O'quv materiali mazmuniga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish asosida unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bunda yuqorida sanab o'tilgan qiyinchiliklar bolada maktabga va bilim olishga nisbatan

salbiy munosabatning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Fan tilida kichik maktab yoshi inqirozi nomi bilan ma'lum bu kabi holatlar kelgusida yanada kattaroq va kengroq muammolarni yuzaga keltiradi. Fanlarni o'zlashtira olmaslik, muntazam dars qoldirish, dars jarayonida o'qituvchining dars o'tishiga va sinfdoshlariga xalal berish- bu muammolarning boshlanishi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning maktab sharoitiga moslashuvi hamda o'quv materiallarini oson o'zlashtirishlarida korreksion-psixologik treninglarning ahamiyati katta. Muntazam va izchillik bilan olib borilgan korreksion-psixologik treninglar yuqorida aytib o'tilgan kichik maktab yoshidagi bola duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etibgina qolmay, balki normal darajada moslashgan bolalarni ham aqliy va hissiy jihatdan rivojlanishlariga ko'maklashdadi. Bunda trener bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchililarning har uch turi yuzasidan bir nechta korreksion o'yinlarni tanlab olib , bitta yaxlit trening sifatida tashkil etadi hamda ana shu bitta mashg'ulot orqali bir nechta muammolarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan:

Kirish qismi.

Treningning borishi.

-Treningning qoidalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish:

Qoidalar:

-faollik

-ko'ngilli ishtirok

-belgilangan vaqtga rioya qilish:

-boshqalar fikrini hurmat qilish:

-qo'l ko'tarish qoidasi.

1-mashq Tanishuv.

**“Mening yoqtirgan narsam” mashqi.**

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida ijobiy psixalogik muhitni yaratish,diqqat va xotirani rivojlantirish.

Mashqni borishi:Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi har bir ishtirokchiga koptok otadi.

Koptokni ilib olgan o'quvchi o'z ismi va yoqtirgan narsasini nomini aytib bo'lishgach, o'quvchilarining bir-birlaridan boshqalarining yoqtirgan narsalari yoki biron bir sanab o'tilgan narsani kim yoqtirilishi so'raladi.

Muhokama.

Xulosa.

## **2-mashq .**

“Suv,havo,yer” mashqi.

Maqsad :Guruh a'zolari o'rtasida eshitish va harakat sezgilarini,diqqatini rivojlantirish.

Mashqni borishi:Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Boshlovchi o'yin sharoiti bilan tanishtiradi:

agar u “yer” desa , hamma qo'lini pastga tushirishi kerak,”suv” desa, qo'llarini o'ngachapga harkatlantiradilar. Havo” deganda ,qo'llarini osmonga ko'taradilar. O'yin bir necha marotaba takrorlanadi.

Muhokama.

Xulosa.

Refleksiya .

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mashqlarning har ikkalasi ham bir vaqtning ham guruhda ijobiy muhitning yuzaga kelishiga ham bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham bolaning hissiy jarayonlariga ijobiy ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. Albatta bir – ikki marta o'tkazilib, so'ng to'xtab qolgan mashg'ulotlar natijaviylikka ega emas. Bu mashg'ulotlar muntazam ravishda va izchillikka rioya etilgan holda o'tkazilsagina, natijalar ko'zga tashlanadi. Sodda til bilan aytganda, ma'lum bir dastur asosida tuzilgan, yil davomida haftada bir yoki ikki marta tashkil etiladigan mashg'ulotlarga ko'zlangan natijani berishi mumkin. Bunda maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni katta. Chunki bunday mashg'ulotlarni faqat ular tashkil etish imkoniyatiga ega. Buning uchun maktab amaliyotchi psixologida boshlang'ich sinflarning har biri uchun taxminan quyidagi mazmunda ish reja mavjud bo'lishi lozim:

## 1-sinf o'quvchilari bilan yil davomida olib boriladigan pedagogik –psixologik ishlar

№	O'tkaziladigan tadbir nomi	Tadbir o'tkaziladigan vaqt	Tanlangan metodika, tadbir va treninglar manbasi	Tadbir o'tkazilishidan maqsad	Tadbir o'tkazilgan vaqt	Kutiladigan natijalar
1	1-sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini o'rganish uchun Kern Yerasikning "Test suhbatlari" metodikasini o'tkazish.	Sentabr	K.Yerasikning "Test suhbatlari" metodikasi	Psixodiyagnostika		O'quvchining maktab ta'limiga tayyorgarligi haqida ma'lumot to'planadi
2	6-6,5 yoshli o'quvchilarning rivojlanishini aniqlash: A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasini o'tkazish.	Sentabr	A.Vengerning "Grafik diktant" metodikasi	Psixodiyagnostika		
3	1-sinf o'quvchisini maktabga moslashtirishga qaratilgan trening mashg'ulotini o'tkazish "Baliq, qush, eshik..."	oktyabr	72 soatga mo'ljallangan Psixologik salomatlik dasturi.	Psixokor reksiya		
4	O'quv faoliyati kommunikativligi darajasini aniqlash: "Qo'lqopchalar" metodikasi (hamkorlikni tashkil etish jarayonida faoliyatni shakllantirish)	oktyabr	Maktab psixologi rasmiy telegram kanali	Psixokor reksiya		

Keltirilgan taxminiy ish rejada psixolog 2 haftada bir marta mashg'ulot o'tkazilishi nazarda tutilgan. Bunda mashg'ulotlarni boshlashdan oldin muammolarni diagnostika qilish uchun hamda bir nechta mashg'ulotlardan keyin natijaviylikni ko'rish uchun psixodiyagnostik metodikalarni olish ham ko'zda tutilgan. Albatta, bu mashg'ulotlar 1-sinf o'quvchilari uchun haftada bir marta oshirilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Biroq maktabda psixolog o'z mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun alohida soat ajratilmaganligi sababli bu imkonsiz. Chunki 1-sinf o'qituvchilari o'z dars soatlarini har hafta bera olmaydilar. Bu kabi mashg'ulotlarni 2-3-4-sinf o'quvchilari uchun ham oyda 2 marta tashkil etilsa,

o'ylaymanki, biz yuqori sinflarda duch kelishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina muammolarning oldi olingan bo'lar edi.

## КАК ВЫ ДУМАЙТЕ ПОЧЕМУ ЛЮДЯМ НЕ ВЕЗЁТ?

*Юсупова Латофат Рашиановна*

*Психолог школы №42 Ташкентской области Чиназского района*

Ученые сделали вывод, что неудачников не очень хорошо развиты отношения с внешним миром. Их внимание слишком зафиксировано на работе или на своих проблемах. И события окружающей действительности они почти не замечают. Вездесущие британские ученые провели психологический эксперимент с 2 группами людей. Каждый участник перед исследованием отметил в анкете, везет ему в жизни или нет. Представителям обеих групп было дано задание - искать в газетах определенные фотографии. При этом в каждом номере газеты был размещен текст: «Кто увидит это объявление, тот получит 250 фунтов стерлингов». Интересно то, что почти все везунчики прочитали это и получили вознаграждение. Никто из группы невезучих людей не обратил на объявление никакого внимания: они сосредоточенно выполняли задание и не придавали значения посторонним раздражителям.

**Невезунчики-их можно назвать ещё «Сизифы».** В жизни бывает так, что человек стремится к чему-то и при этом как будто выполняет «сизифов труд». На пути к достижению цели все время встречаются нелепые припятствия: то программа не скачивается, то вдруг человек, с которым договорились о партнерстве, неожиданно отказывается от сотрудничества. Человек никак не может достичь хотя бы промежуточных результатов, потому что процесс постоянно буксует. Если это происходит с вами, то стоит хорошенько подумать: а ваше ли это дело? Объяснение происходящему может быть двойное. С одной стороны, ваше подсознание может сопротивляться тому, что вы делаете, и вы неосознанно

действуете так, что припятствия в работе просто не могут не возникать. С другой стороны, ваше способности в выбранной области могут быть очень средними, поэтому и шишек, которые вы набиваете, приобретаая бесценный опыт, больше, чем обычно. Конечно, если человек очень сильно хочет добиться успеха, он может преодолеть даже длинную череду невезений. Но чтобы светлая полоса в вашей деятельности наступила быстрее, надо все-таки очень трезво оценивать соотношение своих потребностей и способностей к выполнению той или иной работы.

**Невезунчики с душевной болью-** Накопленные негативные эмоции, переживание стрессовых ситуаций, унижение личности в течение длительного времени отрицательно влияет на психику человека. Обиженные люди считают себя жертвами, и такое мироощущение приводит к тому, что они практически обрекают себя на невезение. Дело в том, что любой человек, который общается с обиженным, на подсознательном уровне чувствует его душевное неблагополучие и не слишком торопится оказать поддержку. Срабатывает элементарный инстинкт самосохранения. В такой ситуации необходимо перестать бесконечно жалеть себя и постараться хотя бы поверхностно проанализировать события своей жизни. Обязательно найдется решение: как в дальнейшем избегать негативного влияния на психику. В результате такой работы над собой человек снова начинает радоваться жизни и замечать новые возможности. У каждого из нас жизнь бывает «в полоску». Но отличие неудачника от более успешных людей в том, что последние не замыкаются на своих идеях или проблемах, не предъявляют претензии другим людям или правительству, а используют те возможности, которые дает им жизнь. У каждого человека таких возможностей бывает в достаточном количестве, нужно только настраивать себя на то, чтобы их замечать. Везунчики в британском эксперименте заметили объявление о вознаграждении, а значит, и любой человек в состоянии увидеть и использовать свои шансы на удачу. Если человеку не везет пожизненно, ему может просто не хватает дисциплины. Он может заниматься многими вещами, будучи не в состоянии сосредоточиться на

чем-то одном. Такой человек не может планировать свою жизнь, за него это делает кто-то другой. Неудачник часто не знает, чего именно он хочет достичь в жизни.

Если человек умеет справляться с жизненными трудностями, он обязательно выйдет из любой полосы неудач: он составит себе план выхода из этих трудностей, предварительно проанализировав ситуацию и взяв ответственность за происходящее на себя. Успешные люди берут ответственность за свои неудачи на себя. Неудачники же сетуют на судьбу и обстоятельства...

---

## TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYASIDA NUQSONI BOR QIZLAR BILAN ISHLASHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING O'RNI VA VAZIFALARI

*Karimova Mardona Ulug'bekovna*  
*Xorazm viloyati Shovot tumani 4-maktab amaliyotchi psixologi*

Qiz bola-odobi bilan go'zal!

Qadimdan o'zbek oilalarida qiz bola dunyoga kelsa, uning tarbiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Qiz bolaga tug'ilgan paytidan sizlashgan, uning tarbiyasi davomida qattiq ovoz ko'tarilmagan, qo'l yugurtirilmagan. Qiz bola o'sib voyaga yetar ekan 5-6 yoshlarga kelganda kuchi yetadigan uy-ro'zg'or ishlariga solingan. Har-bir oilada qizlar onasiga yordamchi, uy sarishtalari sifatida qadrlangan. Oila boshchilari tomonidan ularning kiyinish madaniyatiga ham alohida ahamiyat berilgan. O'zbek milliy oilada dunyoga kelgan qizlar sochini silliq qilib ikki o'rib, boshiga do'ppi kiyib yurishgan. Ikki yoqali ko'krak burma ko'ylak va lozim kiyishgan. Qizlar bo'sh vaqtlarida momolardan kashta to'qish, do'ppi tikish, quroq qurash, kiyim tikish, zardo'zi to'qish sirlarini o'rganishgan. Qiz bolalar bundan tashqari pazandachilik sirlaridan ham qunt bilan o'rganishgan. Qizlar voyaga yetib turmushga chiqqan vaqtida ushbu o'rgangan hunarlari hayoti davomida foydalanishgan. Hattoki hunarlarni qunt bilan maromiga yetkazib o'rgangan qizlar, katta chevar bo'lib yetishgan. Hozirgi rivojlangan internet asrida har-bir



qiz bola tarbiyasiga alohida ahamiyat berish lozim. Qiz bola bor oilalarda yashaydigan erkaklar qiz bolani hurmat qilishi unga qattiq ovozda gapirmasligi lozim. Qiz bola qalbi guldek nozik bo'ladi, agar bu qalbni sindirsa u qayta to'g'irlanishi uchun ko'p yillar kerak bo'ladi. Qiz bola qadimdan oilalarda gulga, oyga, quyoshga o'xshatiladi. Qiz bola tarbiyasi oilada shakllanadi. U oilada onasidan, buvisidan, yangasidan ko'rgan narsalarini hayotga taqdim qiladi. Shunday oilalar borki qiz bola tarbiyasiga oilalarda ahamiyat berilmaydi, nazorat qilinmaydi, ularga qo'l ko'tariladi, qiziqishlari vaqtida aniqlanmay hunar o'rganishi uchun sharoit yaratib berilmaydi. Shunday oilalarda o'sib ulg'ayayotgan qizlarni ta'lim muassasida maktab psixologlari metodikalar, dars analizlari, sinf rahbarlari, metodika natijalari asosida aniqlab alohida ro'yhatga olib qo'yadi. Qizlar bilan turli xil mavzularda davra suhbatlari, treninglar o'tkaziladi. Muammosi bor qizlarni sinfdagi lider qizlarga biriktirib qo'yiladi. Liderlar haftada bir marta maktab psixologiga ma'lumot berib borishadi. To'plangan ma'lumotlar asosida psixolog qizlarni qiziqishiga qarab ikki guruhga ajratadi. 1-guruh agressiv hulqqa ega va tajovuskorlar: 2- guruhga ruhiy stress olgan va jismoniy zo'riqishga uchragan qizlar: Qizlar guruhlarga ajratilgandan keyin ular bilan psixolog alohida suhbat o'tkazadi va malumotlar asosida anketa to'ldirib qo'yadi. Anketada ishtirokchilarning yil boshidagi ruhiy holati, oilaviy ahvoli, fanlardan bilish darajasi, maktab tadbirlarida ishtiroki haqida ma'lumotlarni qayd qilib qo'yadi. Ishtirokchilar haqida ma'lumot yig'ilgandan keyin 5-6 tadan guruhchalarga bo'lib haftada ikki yoki uch marta Artterapiya (matoterapiya) mashg'ulotlari o'tkaziladi. Trener tomonidan Artterapiyaning matoterapiya yo'nalishi bo'yicha davomli 3 oylik mashg'ulotlar rejasi ishlab chiqiladi. Mashg'ulot olib boriladigan xona keng va yorug' bo'lishi kerak. Stolda mashg'ulotga kerakli barcha jixozlar tayyor xolatda bo'lishi kerak. Birinchi trening mashg'ulotni boshlaganimizda tanishuv treningini o'tamiz. Tanishuv treningini birinchi bo'lib trener boshlab beradi. Ismi va o'zi haqida ma'lumot aytadi. Keyin ishtirokchilar birin ketin davom qiladi. Shu tarzda tanishib olgandan keyin trener mayin musiqa qo'yib qo'yadi. Keyin "Moviy qush" testini o'tkazamiz. Qizlarga Moviy qush hikoyasini aytib beramiz. Hikoyadan keyin qizlarning javoblari tinglanib natija o'qib eshittiriladi. Ushbu test o'z-o'zini bilishga yordam beradi. Mato qirqimlari ishtirokchilarga taqdim

qilinadi. O'zlari xoxlagan qirqimdan foydalanishi mumkin. Trener tikish-bichish sirlari haqida ma'ruza o'qib eshittiradi. Jixozlar bilan tanishtiradi. Keyin ishtirokchilar trener yordamida mashqni boshlaydi. Mashg'ulot o'yin kulgu tarzida olib boriladi. Chunki, ishtirokchilar o'zlari to'liq ochilishi va bajarayotgan ishidan ilhom olishlari uchun. Mashg'ulot davomida trener qizlar kayfiyatiga qarab savol-javob qilishi mumkin. Trener diqqat bilan ishtirokchilarning yaratayotgan asarlarini kuzatib borib ma'lumotlar ba'zasi yaratadi. Ikki soatlik (90 daqiqa) mashg'ulot vaqti tugagandan keyin ishtirokchilar yaratgan asarini taqdimot qiladi. Har bir ishtirokchi taqdimoti tinglangandan keyin Trener yakunlash so'ziga chiqadi. Ishtirokchilarning yaratgan asarlari haqida to'xtalib, ularning har-birida o'ziga xoslik borligini, qiz bola millat oila davomchilari, farzand tarbiyachisi, ro'zg'or farishtalari ekanligini va bo'sh vaqtlarida tikish bichish ishlari bilan shug'ullanishlarini aytib mashg'ulotni yakunlaydi. Trener 1-mashg'ulot tugagandan keyin ikkinchi mashg'ulot uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuboradi. Yuqorida ko'rsatilgan trening mashg'ulotimizni men o'zimning ish faoliyatim davomida olib borganimda ishtirokchilarda 8 martalik mashq davomida ularda ijobiy tomonga og'ishlar kuzatila boshladi. Ishtirokchilar sinfda o'zlarini erkin tuta olishi, o'z fikrini to'liq bayon qila olishi, fanlarga bo'lqan qiziqishi ortishi, hayotga to'g'ri va go'zal ko'z bilan qarashga o'rganishi, stress xolatlaridan to'liq chiqib ketganliklari, muloqotchanliklari oshgani to'liq o'z aksini topib natijasi ijobiy bo'lganligini ishtirokchilar sog'lom hayotga qaytgani o'z aksini topdi.

Shu bilanbirga, hamma bilan chiqishib ketadigan, xushchaqchaq, sergap, chiroyli inson gavdalanishi ham mumkin. Natijada siz har xil kutilmagan taassurotlar olasiz. Biroq shu narsa qiziqki, barcha insonlar turlicha kasbga, bilimga va kasbiy xulq-atvorlariga ega boisalar-da, o'zlarini psixolog deb sanaydilar. Ba'zan «Qancha insonlar mavjud bo'lsa, shuncha psixologlar mavjud», — degan gapni eshitib qolamiz.

Har bir psixologlarning ishdagi farqi, ularning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib qolmay, «psixologiya» deb nomlangan umumiy kasbiy sohadagi: **nazariy psixologiya, eksperimental psixologiya, amaliy psixologiya va psixokorreksiya** kabi kasblar bilan ham bog'liqdir. Unga maktab hayoti yaqin va tushunarli, u ko'pgina psixologik-pedagogik jamoalar bilan shug'ullanishga, psixodiagnostik va

psixokorreksion ish usullarini egallashgatayyor. Boshqacha aytganda, maktab psixologi bu har tomonlama etuk va bilimli inson. Agar psixolog nazariyotchi — psixologlaming seminarlariga doimo qatnashib, turli xil psixologik assotsiatsiyalarga a'zo bo'lsa, bulaming bari uning mutaxassis sifatida o'sishiga, maktab hayotidagi odatiy faktlarga yangicha qarashning shakllanishiga olib keladi. Turli psixologiya sohalaridan maktabda amaliy psixologiya va psixopraktika ko'proq kerak. Nazariy va eksperimental psixologiya maktabga emas, maktab psixologiga mutaxassis sifatida o'sishi uchun kerak. so'ng psixolog o'z ishi uchun qanday metodikalardan foydalanishi, qanday yosh davri bilan ishlashni tanlaydi. Bunday hal qiluvchi qarorni qabul qilish uchun psixolog quyidagi harakatlarni amalga oshiradi.

Psixolog kasb imkoniyatlari bilan hal qilinadigan birinchi guruh kutilmalarini tahlil qilib, psixolog 2 ta ro'yxat tuzadi, ro'yxatda kutilmalar ahamiyatiga ko'ra saralanadi. Birinchi ro'yxatda maktab kutilmalari maktabning obyektiv ehtiyojlariga ko'ra tuziladi. Bunda maktabda birinchi navbatda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ro'yxat boshida turadi, ikkinchi ro'yxat u hal qila oladigan muammolardan boshlanib, hal qilinishiga ko'zi yetmaydigan muammolar bilan tugallanadi.

Tuzilgan ro'yxatni o'z oldingizga qo'ying. Maktabni qiziqtiradigan va siz hal qila oladigan muammoni toping. Bu muammo ikki talabga javob berishi lozim: uning hal qilinishi maktab uchun zarur hamda siz psixolog sifatida muvaffaqiyatli hal qilinishiga ishonch hosil qilishingiz zarur.

Xulqi og'ishgan qizlar bilan ishlashda maktab uchun zarur bo'ladigan, o'z mahoratingizni, o'zingizga ishonchni hamda muvaffaqiyatlaringizni namoyon qila oladigan muammolardan boshlang. Bu xislatlar sizning ijtimoiy boyligingiz bo'lib qoladi va u doim sizni himoya qiladi.

Ish faoliyatingizni birinchi guruh orasida boshlang. O'z kuchingizga to'liq ishonganingizda, maktabda siz haqingizda ijobiy fikr paydo bo'lgandagina ikkinchi guruh vakillari bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Bu qoidaning muhimligi quyidagicha tushuntiriladi. Birinchidan, maktabda dastlab ish boshlashingizda, psixolog sifatida o'z kuchingizga to'liq ishonmaganingizda boshqa odamlarning qarshiligini yengish bilan bog'liq ortiqcha hissiyotga berilmang. Ikkinchidan, psixologni ijobiy qabul qiladigan

birinchi guruh sizni psixologik jihatdan qo'llab-quvatlaydilar. Siz o'zingizning foydangizni his qilasiz, o'z kuchingizga ishonch hosil qilasiz. Uchinchidan, ishingiz haqidagi birinchi guruh ishtirokchilari guruhdagi insonlarning fikriga ta'sir qiladi, ularning psixologiyaga qarashlarini salbiydan ijobiyga o'zgarishiga olib keladi.

Zero-ayol baxtga loyiq, unga baxtli hayotni qaytaring!

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Toshimov R. G'oziev Ye. G'. "Zamonaviy individual va guruh psixologiya". Toshkent, "Universitet" 1999y.
2. Ye.G'oziev, SH.V.Azizova "Tashkiliy psixologiya" Toshkent-1999y.
3. M.Rajabov "Eksperimental psixologiya metodlari to'plami". Farg'ona 2012
4. Z.T.Nishonova Psixologik xizmat T.2007.

---

## **O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLLARI**

*Axmatqulova Muqaddasxon Murodovna  
Farg'ona viloyati Buvayda tumani 24-maktab psixologi*

Bu dunyodagi barcha xatti-harakatlarimizning ibtidosi yashashga bo'lgan intilishga borib taqaladi. Aslida esa yashash uchun unchalik ko'p narsa zarur emasdek go'yo. Lekin inson ongli mavjudot bo'lgani bois shunchaki yashash, havo, suv, ozuqa, issiqlik, yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalana olmaydi. U yaxshi yashashga intiladi, ehtiyojlarini imkon qadar to'liqroq qondirish payida bo'ladi.

Odamzod dunyoga kelibdiki, yaxshi yashash yo'llarini izlaydi. Bu esa unda olamni bilishga, o'zligini anglashga intilish, qavmdoshlari bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ma'lumot almashish kabi ma'naviy ehtiyojlarni ham vujudga keltiradiki, bugun endi aynan shu ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani farovon yashash sharti, to'kin-sochinlikning asosiy omili hisoblanmoqda. Bugungi kunda insonning o'zi xohlaganchalik

umr kechirishining muhim omillaridan biri munosib kasb egasi bo'lish bilan ham belgilanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi tarbiyasi qanchalik muhim bo'lsa, uni qobiliyat va qiziqishlari asosida kasbga yo'naltirish ham bugungi kunda muxim pedogogik-psixologik muammolardan hisoblanadi. Chunki yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyat demokratik qadryatlarni mustahkamlash bilan mamlakatimiz kelajagini jaxon xam jamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari xayotga kirib kelmoqda". Yangi avlodni kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda jamiyatimiz uchun salohiyatli kadrlarni yetkazib chiqishda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish muhim masalalardan biri bo'lib, asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda, o'z hoxishi bilan kasbiy moyilligini aniqlash orqali kelgusi hayoti, faoliyati va yutug'ini ta'minlab beradigan kasb tanlashini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jaroyandir.

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongli ravishda yondoshmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumannig xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasbga o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, so'g'lig'i to'g'ri kelsagina kasbni ongli ravishda tanlash mumkin.

Kasb tanlashda mustaqillik deganda kushining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, o'zining tashabbuskorligi to'la namoyon bo'lishi tushuniladi. Lekin bu bilan o'quvchi hoxlagan kasbni o'zi tanlashi lozim degani emas, bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Kasb tanlash to'g'risidagi masalada o'quvchining va ota-onalarning fikri bir joydan chiqsa yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik bo'lmasa, o'z imkoniyatlarini chamalab, katta yoshli kishilarning fikr mulohazalarini tahlil qilib ko'rish lozim.

Bundan tashqari o'quvchlarga mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikni bilish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligi aytib o'tildi:

8. Kasbning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga inson jamiyat taraqqiyotidagi o'z o'rniga ega bo'lish;
9. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash va avaylashga o'rgatish;
10. O'quvchilarga kasbga nisbatan muhabbatni o'rgatish;
11. O'quvchilarni kasb tanlashda ongli ravishda, vijdonan yondashishga odatlantirish;
12. Kasb tanlaganda uning hayotiy zarurat ekanligi, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
13. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
14. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hakoza.

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik insonning o'z qiziqishi qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga o'zi baho berishini taqozo etadi. Lekin har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydi. Shuning uchun fan o'qituvchilarining, murabbiylarning fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki har bir pedagog o'quvchining xulq - atvorini qiziqishlarini, mayillarini, xarakterini va mehnatga qay darajada tayyor ekani to'g'risida hammadan ko'ra yaxshiroq fikr bildiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida o'smir yoshdagi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning qiziqishi, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojga qaratish muhimdir .

O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullaridan biri esa kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo'nalganligini aniqlashdir. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda 9-sinf bitiruvchilari bilan „Qiziqishlar anketasi“, „Kasbiy motivatsiyani aniqlash“, „Deferensial-diagnostik so'rovnoma“, „O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi“, „Shaxs sifatleri va kasbiy qobiliyatlarni o'rganish metodikasi“, „Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash metodikasi“, „Qiziqishlar xaritasi“ kabi kasbiy tashxis metodikalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maktab psixologlari va kasbga yo'naltiruvchilar, mehnat va boshqa fan

o'qituvchilari tamonidan turli usullar yordamida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash mumkin.

Kasb tanlash katta hayot yo'lidagi eng muhim qadamdir. Inson o'zini baxtli his qilishi uchun albatta atrofida sevimli insonlar bo'lishi bilan birgalikda, o'zi qiziqqan kasb egasi bo'lishi lozim. Ba'zi yoshlar ko'p yillar orzu qilgan mutaxassislik uchun oliy ta'lim tizimiga hujjat topshirish vaqti kelganda, ikkilanish yuzaga keladi. Chunki uning o'z bilimiga nisbatan ishonchi bo'lmaydi. Shuning uchun ham bilimdan kelib chiqib kasb tanlash emas, balki bilimni maqsadga qarab oshirib borish zarur. Buning uchun esa bolaga yoshligidanoq o'zi yoqtirgan kasb haqida oilada va maktabda to'g'ri tushuncha berish va bolada qiziqish va layoqatni shakllantirib borish lozim.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch“ asarida ta'kidlaganidek; „Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish –haqiqiy qahramonlik aslida mana shu ...“. Zero, umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, iqtidorini aniqlash, ularni o'z jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos kasblarga yo'llash ularning kelgusida el-yurt ravnaqi uchun qo'shadigan hissasiga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda kasbga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Umumiy psixologiya . E. G'oziyev. Toshkent-2002
2. Turmush tarzi, ta'lim va milliy o'ziga xoslik. A.Jabborov, Sh.Bekova. Qarshi-2002
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA INGLIZ TILINI O'RGATISH

*Turgunova Fazilat Abduljabarovna*  
*Yunusobod tumani DMTT- 519 Ingliz tili fani o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasida o'sib kelayotgan yosh avlodning har sohada yetuk bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz O'zbekiston fuqarolari so'ngi yillar ichida o'zgarib turadigan dunyoda yashayapmiz va siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ko'plab o'zgarishlar jarayonini kuzatyapmiz. O'zgarishlar ta'lim sohasini ham chetlab o'tmadi. Hozirgi davrda yuz berayotgan globalashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ulardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish ota-onalar tanlagan eng keng tarqalgan yo'nalishlardan biri bolmoqda.

Bu bir qancha sabablarga bog'liq bo'lib, ulardan biri zamonaviy jamiyatda aloqa vositasi sifatida ingliz tilini bilish zarurligidir.

Maktab yoshidagi bola xotirasi juda ko'p nasralarni saqlab qoladi, ular aql bovar qilmaydigan darajadagi ma'lumotni yodlashlari mumkin. Biroq ularning xotirasi faqat "o'rganish zarur" bo'lgani uchun saqlab qolmaydi. Bolaning miyyasi o'zi uchun qiziqarli bo'lganlarnigina saqlab qoladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish bir qarashda juda oson ishdek tuyulishi mumkin, lekin bolalarga e'tibor bilan ularni qiziqishlarini aniqlovchi testlar, rasmi testlar, har xil savollar bilan ularni qiziqishlarini aniqlab olish zarur. Har bir bola bilan gaplashib qiziqishlarini aniqlab bo'lgach ularga mos qo'shiqlar, o'yinlar, diqqatni jalb qiluvchi qiziqarli va rangli, multfilm qahramonlaridan iborat tarqatma materiallar bilan darsni boshlash lozim.

Birinchi navbatda bolalar bilan salomlasha oladi va yangi mavzuni tushuntirishdan avval mavzuga oid bolalar bilan kichik suhbatlar olib boriladi, ularni fikri tinglanadi, mavzuga oid qo'shiqlar va o'yinlar bilan boshlanadi. Chunki bolalarda mavzuga oid tushuncha paydo qilibgina darsni oson tushunishlariga erishish mumkin. O'yinlarni qo'llagan holda tarqatma materiallar beriladi. Misol uchun: bolalarni sevimli



rangi yoki yoqtirgan multfilm qahramonlarini so‘rab berish ham mumkin. Tarqatma materiallarni berib bo‘lgach, ularni ko‘rib nimalarni tasavvur qilishganini so‘rab, so‘ng mavzu tushuntiriladi. Kichik yoshdagi bolalarni diqqati tez bo‘linishi mumkin, yoki tez zerikib qolishmasliklari uchun har xil o‘yinlar bilan qiziqtiroladi. Bola uchun o‘yin ham o‘yin-kulgi, ham ishdir. Uning yaxshi kombinatsiyasi xususiyatlari, uning funksiyasi bilan izohlanadi: ko‘ngilochar (bu asosiy funksiya o‘yinlar — ko‘ngil ochish, zavqlanish, ilhomlantirish, qiziqish uyg‘otish); kommunikativ: muloqot dialektikasini o‘zlashtirish; o‘yinda o‘zini o‘zi anglash inson amaliyoti uchun sinov maydonchasi; o‘yin terapiyasi: yengish hayotning boshqa turlarida yuzaga keladigan turli xil qiyinchiliklar; diagnostika: me‘yoriy xatti-harakatlardan og‘ishlarni aniqlash, o‘yin davomida o‘zini o‘zi bilish; tuzatish funksiyasi: ijobiy qilish shaxsiy ko‘rsatkichlar tarkibidagi o‘zgarishlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning e‘tibori juda beqaror. Turli xil boy ta‘minot. didaktik, mobil, til, barmoq roli o‘yinlar yordamida qiziqishni rag‘batlantirishga va saqlashga erishish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun quyidagi o‘qitish usullarini mashg‘ulotlarda qo‘llash yaxshi samara beradi.

#### 1. Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli.

Kundalik hayotimizda uchraydigan belgilar so‘z boyligini targ‘ib qilishning usullaridan biri. U rasmdan so‘zga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yordam berishini o‘rgatadi. Ya‘ni bu bolalarni yangi tillarni tez va oson o‘zlashtirishida juda katta yordam beradi

#### 2. Ovozni tanib olish va moslashtirish usuli.

Ushbu tadbir uchun kartondan kesilgan bir nechta katta harflar va shu harflar bilan boshlanadigan bir nechta kichik, ammo unchalik katta bo‘lmagan predmet va rasmlar kerak bo‘ladi. Masalan, agar sizning harflaringiz H va D bo‘lib, sizda tovuq va it bo‘lsa. Bolaga tovuq chiqaradigan ovozni aytishdan boshlang. Keyin, bolani xuddi shu tovush bilan boshlanadigan narsani topishga undab, uni harfga yopishtiring. Bunday rasmlar, predmetlar xonada turishi lozim, chunki kun davomida bola ularni ko‘radi va yodida qoladi, yoki ota-onalar bilan bo‘lishish uchun uyga olib kelinishi mumkin. Bu mashg‘ulot bolalarning sevimli narsasidir, chunki bu ularga o‘z bilimlarini o‘rganishda amaliy yordam beradi.

### 3. Tabiat dunyosi bilan o‘rganish usuli.

Bolalar darslarni tabiat muhitida o‘zlashtirishga juda qiziqishadi. Odatda, ularni hovli bog‘ orqali tabiat dunyosi to‘g‘risida ma’lumot berish ajoyib usuli bo‘lishi mumkin. Bu usul o‘simlikni urug‘dan yetilguncha o‘stirish bolalarga o‘z o‘sishi haqida ma’lumot beribgina qolmay, ularni chet tilidagi so‘zlarni tez va oson o‘zlashishda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu usul stressni yengillashtiradi va nozik vosita mahoratini oshirishga ham yordam beradi.

### 4. O‘z faoliyatini o‘quvchilarga moslashtirish usuli.

Bog‘chada yodlagan o‘qituvchilar qo‘llanmasiga yoki odatiy darslarga qaytish oson bo‘lishi mumkin. Biroq, ba’zi bolalar uchun bu muammolar tug‘diradi. Gretzingerning aytishicha, bolalar an’anaviy bo‘lmagan uy sharoitidagi bolalarga nisbatan sezgir bo‘lishlari kerak. O‘quvchilarga o‘z oilalari rasmlarini chizishlarini so‘rashdan oldin ikki marta o‘ylab ko‘rish — asrab olingan bola yoki ota-onadan ajralgan farzand qanday his qilishi mumkinligi va boshqa bolalar qanday munosabatda bo‘lishlari haqida o‘ylab ko‘rish kerak. Inklyuziv faoliyat bilan shug‘ullanish biroz ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin, ayniqsa yil boshida siz barcha o‘quvchilaringizni tanimasligingiz mumkin, ammo bolada xijolat hissini aks etishi tartibsizlikni saqlaganingizda bilinadi. Bunda tarbiyachi o‘z yaratuvchanligini davom ettirishi kerak.

Chet tilini o‘rgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun rag‘batlantirib borish talab etiladi. Ularda eshitib, bajarib, ritmik va ko‘rib farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez o‘rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir o‘yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Dars jarayoni bu nafaqat kommunikativ, balki kelajakda o‘rgangan bilimlarni qo‘llay olish imkoniyatini beradigan kompetensiyalarni qamrab olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktab yoshidagi bolalarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg‘ulot tarzida ularni qiziqishlarini inobatga olgan holda olib borilishi, turli samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun cheksiz imkoniyatlar berishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o‘rganish qanchalar muhimligini to‘g‘ri tushuntirib borilishi kerak. Chunonchi, buyuk mutafakkirlar, olimlar,

yo'zuvchilar ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan, hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat buyuk allomalarning dunyo ilm-fanini o'rganishlariga, buyuk ishlarni amalga oshirishlariga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Til bilgan — el biladi, el bilgan — til biladi".

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til. — M.: Mozaika-sintez, 2009 y.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab: uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.
3. Корноушенко Н. В. Английский язык с ребенком [Электронный ресурс]. URL: <https://english4mybaby.ru/> (дата обращения: 19.04.2021).
4. Елисеева М. Курс для детей "My English baby" [Электронный ресурс]. URL: <https://myenglishbaby.ru/> (дата обращения: 19.04.2021).
4. Zemchenkova
5. Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. — M.: AST: Astrel, 2009 y.
6. Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). — Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y.
7. Kozina S.V. Ingliz tilida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'til. — M.: TC Sphere, 2008 yil.

---

## ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA TARBIYA VA INSONPARVARLIK MASALALARI

*Choriyeva Zulfiya Tirkashevna*

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 24-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham e'tibor berdi. U o'z «Xamsa»sida, «Maxbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarida, shuningdek, «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis un-nafois»,

«Muhokamat ul - lug‘atayn» kabi asarlarida Adurahmon Jomiyning “Arba’in” nomli asari tarjimasida «Chihil hadis («Qirq hadis)da tarbiyaga oid o‘z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, usullarini bayon etdi.

V. Zohidov ta’kidlaganidek, «Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yashashi, zarur jamiyat masalalaridir».

Alisher Navoiyning qarashlariga ko‘ra inson tabiatan tabiat bilan bog‘liq, shunga ko‘ra xudoning mevasi sanaladi, chunki tabiatning o‘zini ham Olloh yaratgan. Shuning uchun ham u hayotda hamma narsadan yuqori turadi, borliqning, butun mavjudotning bebaho boyligi sanaladi. Inson o‘ziga xos xislatga, xulqqa, xatti-harakatga ega bo‘lganligi uchun ham boshqa mavjudotlardan farq qiladi.«Bular xush ovoz bilan kuy kuylashdan, yoqimli soz chalishdan tortib, to do‘stga vafodorlikkacha, ilm-u hunar o‘rganib tog‘ni tolqon qilishdan, tabiatni o‘z manfaatlarini xizmatiga qo‘yishdan, qahramonlikdan tortib, to halol, o‘z kuchi bilan mehnat qilib, shod-xurram yashashlikgacha, insofli, vijdonli bo‘lishdan tortib, to qanoatli sabrli, matonatli bo‘lishigacha, ozodlikni, hurlikni sevishdan tortib, to inson uchun zararli bo‘lgan yomonlikni nafratga uchratishgacha, shafolatli, shafqatli, adolatli bo‘lishdan tortib, to razillarga ayovsiz kurash e‘lon qilishgacha, shirin so‘zlikdan tortib, to ochiq ko‘ngillikgacha, sofdillikgacha..», - namoyon bo‘lmadi, deydi V. Zohidov yuqoridagi fikrini davom ettirib.

Shuning uchun ham Alisher Navoiy butun umri davomida yiqqan tajribasi asosida «Mahbub ul-qulub» («Ko‘ngillarning sevgani») asarini yozadi va ana shu asarida o‘zining «Hayrat ul-abror», «Nazm ul- javohir» va boshqa ta’limiy-axloqiy asarlaridagi axloqiy qarashlarini rivojlantiradi.

Uning mazkur asarni yozishdan maqsadi ham muqaddimada bayon etilgan: "har ko‘cha-ko‘yda yuguribman va olim ahlidan har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe‘l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarni tajriba qilibman". Alisher Navoiy muqaddimada kishilarni ikki guruhga «munosib kishilar» va «nomunosib kishilar»ga bo‘lib, hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o‘zlarini tiyishi va

yaxshi-yomonni ajrata olishda «Mahbub ul-qulub»dan foydalanishi zarurligini ta'kidlaydi. Demak, Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo'lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asaridan foydalanish mumkin, deydi.

Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko'rdim. Xasislar va karamlilar yetkazgan yara va bergan malhamni ko'nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba'zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do'stlar bu hollardan xabarsiz va ko'ngillari bu yaxshilik va yomonlikdan asarsizdir... Bu xildagi hamsuhbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogoxlantirmoq lozim ko'rindiki, har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va tabaqaning ahvolidan bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so'z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o'yinchoq bo'lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir». Asar uch qismdan iborat bo'lib, Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, birinchi qismi har xil toifa odamlar fe'l-atvori va ahvoli, kayfiyati; ikkinchi qism yaxshi fe'llar va yomon xislatlar xosiyati; uchinchi qism esa xilma-xil foydalar va hissalar ko'rinishi, ya'ni yaxshi fe'llar va xislatlarga oid tanbehlardan iboratdir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifat allomasi sifatida inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql va idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi.

Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlariga ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat ham kiradi. Chunki baxtli hayotga intilgan Navoiyning ijodkor, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni «Nazm ul-javohir» asarida:

Kim olim esa nuktada barhaq de oni.

Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.

Har kimsaki yo'k ilm anga ahmoq de oni.

Majlisdaki ilm bo'lsa uchmoq de oni.

«Hayrat ul-abror» dostonining o‘n birinchi maqolatida ilmni shunday sharhlaydi: «Ilm sehrining baland axtarligidakim, jahl tunin yoritmoq uchun «ayn»i, quyoshdan «lom»i oydin va «mim» kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig‘idakim, g‘aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada saxovatdin fasona aytur. Va olimning bovuji falokat quyoshdek sarv balandligi va johilning bovuji ganj-u mol tufroq aro najandlig‘i». Bunda arab tilida aynning ma’nosi quyosh, lomning ma’nosi esa oy bo‘lib, yana lom shaklli oyga o‘xshaydi va abjad hisobida «o‘ttiz»ni bildiradi. Mim esa kunduz ma’nosini bildiradi.

Alisher Navoiy ilmni quyosh va oy hamda kunduzga o‘xshatib, u insonni baxt-saodatiga eltadi demoqchi bo‘ladi, ya’ni bu maqolat «ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunni yoritish uchun «ayn» quyosh, «lom» oy, «mim» kunduz belgilarini ko‘rsatadi; bilimsizlik shomining qorong‘i ko‘rinishi haqidakim, g‘aflat chaqini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi joxilning esa butun borlig‘i boylik, mol bo‘lsa ham tuproqdek xorligi» haqida fikr bayon etadi.

Demak, Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson ham faqat ilmi bo‘lishi bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni haqiqiy inson sifatida ta’riflashga yana sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, tavoze’, adab, ishq-vafo va hakovolar ham asos bo‘ladi. Navoiy insonning axloqiy xislatlari-yaxshi fe‘l-atvorlar xususida to‘xtalib o‘tar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning ta’rifini beradi.

U yaxshi fe‘llarga qanoat, sabr, tavoze’ va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko‘ngillik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta’rifidan so‘ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o‘z fikrini tomdiradi. Navoiy asarda mazkur xislatlarga ta’rif berish bilan birga, ularga qarama-qarshi bo‘lgan yomon illatlardan qutulish yo‘llarini bayon etadi.

Axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritir ekan. «Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod

bahramand bomadi. Adab kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi...» - deb ta’kidlaydi.

Demak, yaxshi xulq asosi - odob Navoiy tahsilida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog‘liq ravishda ta’rif beriladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar - qanoat, sabr, tavozu, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko‘ngillik) xuddi shu odobli kishida tarkib topadi.

Masalan, «qanoat-buloqdir-suvi olgan bilan qurimaydi, xazinadir-naqdini sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir-urug‘i izzat va shavkat mevasini beradi; daraxtdir-shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi» - deb ifodalaydi.

Navoiy qanoatni tomdiruvchi insoniy fazilatlardan sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat, bir-biriga hamkor va g‘amxo‘r bo‘lishini, bularni inson shaxsini ulug‘lashga yetaklaydigan, uni sof va pokiza inson darajasiga ko‘taradigan xislatlar sifatida ko‘rsatib o‘tadi. «Sabr achchiqdir - ammo foyda beruvchi, qattiqdir - ammo zararni daf’ etuvchi... Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

Achchiq so‘zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsad hosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so‘nggida sog‘liq yuz beradi.»

Saxiylik esa insoniylikning haqiqiy mezoni sifatida ta’rif beriladi. Saxovatni Navoiy odamlarning mushkulini oson qilishda unga beriladigan minnatsiz yordam sifatida tushunadi va shunga da’vat etadi. qimmatlilik, muruvvat, karam saxovatning tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi. «Yaxshilik, karam-bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og‘irligini ko‘tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o‘sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og‘izga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik», - deb, uning asl mohiyatini yoritib beradi. Muruvvatni esa ana shu «karamning urug‘-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bomsa izzat va hurmatga sazovor bo‘ladi», - deydi alloma. U karam va muruvvatni ota-onaga o‘xshatsa, vafo va xayoni egizak farzandlarga o‘xshatadi. Lekin alloma har bir qanday ehsonni saxiylik deb tushunmagan. Saxovat deb isrofgarchilik qilishni, minnatni qoralagan.

Ularni (saxovat, himmatni) tor ma'noda olmagan, aksincha, chuqur ijtimoiy ma'noda, keng ko'lamda olgan, ularda, bir tomondan, aqliy, yirik didaktik qoidalardan, jamiyatni tuzatadigan vosita va odamlar ulug'langan tekinxo'rlar qoralangan.

Qanoatni — sharaf va izzatning tantanasi desa, davlatli ta'magirni xor va pastkash deb ataydi. Shuning uchun ham yoshlikning qadriga yetish, eng yaxshi xislatlarni o'zida tarkib toptirish, nafs istagidan o'zining tiyishini ulug'laydi, takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, yolg'onchilik, nodon va johillik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, shoshma-shosharlik, yalqovlik, haromdan hazar qilmaslik kabi illatlarni qoralab, ulardan xalos bo'lish yo'llarini ham bayon etadi.

Uning quyidagi ruboiysi ana shu yomon illatlar insonni ma'naviy olamga olib borishi mumkinligi haqidagi hukmiddek tuyiladi:

Uch fe'l erur kishiga qotil oxir,

Qotillik aro zahri halohil oxir.

Buxl atla birin, birin havo bil oxir,

Kil ujbin ham alarga dohil oxir.

Demak, Alisher Navoiy o'zining asarlari bilan bir qatorda, Ilmiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan insonga xos axloqiy fazilatlar deb qanoat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, ilm, rostgo'ylik, tavozu', adab va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonda yomonlik, razillik bo'lmasligi, unday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishishi mumkin deb hisoblagan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Hoshimov K, S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: O'qituvchi, 2010.
2. Xasanboyev J, To'raqulov X., Xaydarov M, Xasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009.– 672 b.
3. Kaldbekova A.S Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. T.: 2013
4. A.Sohibov. Milliy pedagogika taraqqiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 2004 yil.
5. Niyozov G'. Axmedova M . Pedagoika fanidan seminar mashg'ulotlari. T.: Noshir. 2010.



## KASBIY YO`NALTIRUV ISHLARINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGNING O`RNI

*Aminov Anvar Majidovich*

*Qamashi tumani XTB Bolarni ijtimoiy psixologik himoya qilish markazi metodisti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning kasbga yo'naltirishda psixolog kasbining ahamiyati, o'rni va amalga oshiradigan ishlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: kasb-hunar, professional targ'ibot, kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish, psixolog, kasbiy axborot.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются значение, роль и роль профессии психолога в профориентации.

Ключевые слова: профессия, профессиональная адвокатура, профессиональное консультирование, профориентация, психолог, профессиональная информация.

Ключевые слова:

**Annotation:** This article discusses the importance, role and role of the profession of psychologist in career guidance.

Keywords: profession, professional advocacy, professional counseling, career guidance, psychologist, professional information.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular orasida kasb tanlash jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu insonning hayot yo'lining bir qismi, uning keyingi kasbiy taqdirini belgilaydigan bir qator qarorlarni qabul qilish jarayoni. Kasb tanlash jarayoni har doim shaxs hayotidagi hal qiluvchi daqiqadir va bu qandaydir psixologik yordamni talab qiladi. Kasbiy yo'l-yo'riqlar tizimi bunday ko'makni ta'minlashga mo'ljallangan.

Kasb-hunarga yo'naltirish deganda insonni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashga, uning qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatlariga muvofiq ravishda va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashda yordam beradigan chora-tadbirlarning ilmiy asoslangan tizimi tushuniladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning aniq yaqin maqsadlari jonli mehnatdan oqilona foydalanish, ishchilar sifatini oshirishda ifodalanadi; tibbiy qarshi ko'rsatmalarni aniqlash va kasbiy rejalarini tuzatish orqali yoshlarning sog'lig'ini saqlashda; kelajakdagi kasbiy sohaga eng mos keladigan shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

Kasb-hunar ta'limi talabalarning kasblar dunyosi, kasbiy tanlov qilish usullari va shartlari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy ta'limning ikki shakli mavjud: kasbiy ma'lumot va kasbiy targ'ibot.

Professional ma'lumot bu yoshlarga asosiy kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot. Maktab o'quvchilariga mehnatning mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit sharoitlari, moddiy rag'batlantirish tizimi, mehnat va dam olish tartibi, ushbu kasbni rivojlantirish istiqbollari, o'qitish shakllari va muddatlari, rasmiy va malakaviy o'sish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi. Ushbu kasb inson salomatligi holatiga, uning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga, shaxsiy xususiyatlariga va umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik darajasiga qo'yadigan asosiy talablarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy axborot faoliyati nafaqat passiv tanishish, balki faol ta'lim funksiyasini ham bajaradi. Shuning uchun, ba'zi hollarda, nafaqat kasblar haqida ma'lumot almashish, balki ularning ayrimlarini targ'ib qilish ham muhim o'rin egallaydi.

Professional targ'ibot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki rekonstruksiya qilinishi sababli kadrlar etishmasligi yoki ularning tayyorgarligini kengayishi kutilayotgan kasblar bilan shug'ullanadi. Professional targ'ibot, agar to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, o'z vaqtida kasbni tanlash muammolariga faol munosabatni shakllantirishga, yoshlarning o'z tanlovini qilish istagini faollashtirishga yordam beradi.

Davlat va xususiy korxonalar, universitetlarning ish jarayonida turli xil bosma materiallarni nashr etish, ochiq eshiklar kunlarini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida turli kasb vakillari chiqishlari, televizion filmlar va reklama roliklarini yaratish va namoyish etish kabi kasbiy ta'lim shakllari eng keng tarqalgan. Jamiyat hayotining keng kompyuterlashtirilishi Internet-resurslarni ushbu ish bilan bog'lashga imkon berdi.

Shu bilan birga, ta'lim ishlarining samaradorligi axborotni taqdim etish sifati va shakliga bog'liq. Ushbu turdagi ishlarda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun professional ma'lumotlarga qo'yiladigan bir qator talablarga rioya qilish kerak. Ma'lumot:

- keng qamrovli. Kasb haqidagi bilimlarning sarhisobida kasbiy hayotning barcha jabhalariga e'tibor berish kerak, alohida e'tibor - ushbu professional sohada o'sish istiqbollari;

- ishonchli. Kasblar haqida ma'lumot ishonchli manbalardan olinishi kerak, ular bosma nashrlar, mutaxassislardan olingan ma'lumotlar, faoliyatni psixologik tahlil qilish ma'lumotlari va hk.;

- ob'ektiv. Kasbning barcha afzalliklari va qiyinchiliklari bilan haqiqiy rasmini berish kerak. Kasb-hunarga mavjud bo'lmagan xizmatlarni ta'kidlab, ayrim partiyalarning haddan tashqari reklamasi qabul qilinishi mumkin emas.

Kasbiy konsultatsiya insonga kasbiy faoliyat sohasini tanlashda yordam berish uchun uni psixologik tekshirish tadbirlari tizimini o'z ichiga oladi. Kasbiy maslahatlashuvning asosiy maqsadi insonning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini, uning har xil sharoitdagi xulq-atvorining xususiyatlarini o'rganishdir. Professional konsultatsiya bir qator funktsiyalarni bajaradi, ular bir tomondan uning asosiy maqsadini aks ettiradi, boshqa tomondan uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kasbiy maslahatning uchta asosiy vazifasi mavjud:

- o'quvchiga kasbning o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy rejalarini amalga oshirish usullari va usullari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga olgan axborot;

- diagnostika - sog'liqni saqlash holatini va insonning psixologik xususiyatlarini rivojlanish darajasini kasb talablariga muvofiq ravishda tekshirish;

- tuzatuv, bu tegishli kasbiy faoliyat sohasi va undagi aniq kasblar bo'yicha optik mutaxassisni (kasbni tanlagan kishini) tavsiya etish, shuningdek, kasb talablari va shaxsiyat xususiyatlari o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda professional rejalarini tuzatishdan iborat.

Biror kishi bilan professional maslahatchining o'ziga xos ishi individual ravishda amalga oshiriladi va bir qator majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ bosqich optik bilan aloqa o'rnatishni, maslahat berish jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning samaradorligi, bir tomondan, maslahat berishga kelgan maktab o'quvchilarining munosabatiga, boshqa tomondan, kommunikativ mahoratga va maslahatchining psixologik taktik darajasiga bog'liq.

Kasbiy konsalting ishining psixodiagnostik bosqichi - bu sub'ektning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini ifodalash darajasini o'rganishga asosiy e'tibor beriladigan bosqich. O'quv predmetlari:

- qiziqishning xususiyatlari, qiymat yo'nalishlari va optant sifatida kasb tanlashning boshqa motivlari, ularning mazmuni, chuqurligi va barqarorligi berilgan shaxsning motivatsion sohasi;

- sub'ektning qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari. Asosiy aqliy jarayonlar (xotira, diqqat, fikrlash) xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi, psixomotor fazilatlar, shaxsiy xususiyatlar o'rnatiladi;

- shaxsiyatning tayyorligi. Ilm-fan va amaliyotning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilim, qobiliyat va ko'nikmalar baholanadi. Faqatgina bilimlarni ko'paytirishga emas, balki uni muayyan muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatiga ham alohida e'tibor beriladi;

- o'zini o'zi qadrlash va kasbiy rejalarni shakllantirish xususiyatlari. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish haqiqati, hayotiy rejalarning mazmuni va asosiligi, ularni qurishda mustaqillik darajasi aniqlanadi.

Tuzatish bosqichi uning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq professional sohani topish nuqtai nazaridan optant bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning asosiy nuqtasi - bu faoliyat printsiptiga rioya qilishdir, unga ko'ra kasb tanlash bo'yicha qarorni optikning o'zi qabul qilishi kerak va maslahatchining vazifasi uni bunga olib borishdir. Ushbu bosqichda kasb talablarini shaxsiy xususiyatlar va optantning kasblar dunyosidagi yo'nalishi bilan yanada samarali ravishda bog'lash uchun kasb tasniflari keng qo'llaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. .Klimov E.A Professional o'zini o'zi aniqlash psixologiyasi Rostov-Don 1996.
2. Klimov E.A Kasbni qanday tanlash kerak –M. Ta'lim, 1990

3. Rogov E.I Kasb tanlash: Professional bo'lish. –M. Vlados 2003.
4. [WWW.instudy.uz](http://WWW.instudy.uz)
5. [www.info-tashxis.uz](http://www.info-tashxis.uz)

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM OLAYOTGAN O'QUVCHI-YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGIGA ERISHISHDA MAKTAB PSIXOLOGLARINING ROLI

*Matvaliyeva Nodira Abdulhoshim qizi  
Tòraqòrgon tuman 58-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarning psixologik barqarorligiga erishishda maktab psixologlarining o'рни va amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim-tarbiya, emotsional rivojlanish, psixologik barqarorlik, psixologik xizmat, pedagogik jarayon, nazoratsizlik, huquqbuzarlik, profilaktika, reabilitatsiya, nochor, kam ta'minlangan, internet kafe, kompyuter, reklama, ma'ruza,

Hozirgi davrning shiddat bilan rivojlanishi va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar nafaqat kattalar, balki bolalar oldiga ham yuqori talablarni qo'ymoqda. Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda umumta'lim maktablarining vazifasi har bir bolaga to'g'ri yo'lni tanlashga, hayotda o'z yo'lini topishga yordam berishdan iborat. Maktab oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanib, u ijobiy, ijtimoiy xulq qoidalarini o'quvchilar ongiga singdirishi, bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga imkoniyat tug'dirishi kerak. Bu vazifalar o'quvchi-yoshlarning ta'lim va tarbiya olishi, psixologik barqarorlikka erishishi jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'quvchi-yoshlarning psixologik barqarorligiga erishishda albatta maktab psixologlarining o'рни juda muhimdir.

Psixologik barqarorlik deganganda o'zgaruvchan sharoitlarda insonning optimal ishlashini ta'minlash tushuniladi. Psixologik barqarorlik asab tizimining (tug'ma bo'lgan) turiga, insonning hayot tajribasiga, kasbiy tayyorgarlik darajasiga, jamiyatda o'zini tutish qobiliyatiga, faoliyat turiga va boshqa omillarga bog'liq. Psixologik barqarorlikni oshirish uchun birinchi navbatda, hayot uchun qulay shart-sharoitni yaratish lozim. Ikkinchidan asab tizimi uchun dam berish lozim. Uchinchidan, inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va hayotiy prinsplaridagi qarama-qarshiliklarni ko'rib chiqishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni olib tashlashi lozim. Ushbu tizimli jarayonlarni amalga oshirishda psixologik xizmat muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim tizimida psixologik xizmat hozirgi zamon ta'lim tizimining ajralmas komponenti bo'lib, bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ularning aqliy va shaxsiy potentsialini, bolada mavjud qobiliyatlarni, qiziqishlarni va intilishlarni o'z vaqtida aniqlash va ulardan maksimal to'liq ravishda foydalanishni ta'minlab beradi. Psixologik xizmat shuningdek o'quvchilarning psixologik rivojlanishdagi rezervlarni o'z vaqtida aniqlab berishni, hamda ulardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat yechadigan navbatdagi muhim vazifa - pedagogik jarayonining bevosita ishtirokchilari: bolalar, o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim tizimidagi rahbarlarga psixologning amaliy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Bu vazifa ushbu odamlarga ta'lim va tarbiya jarayonida bevosita psixologik yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Bu yerda psixolog pedagog, psixoterapevt, konsultant, korrektor rollarida faoliyat ko'rsatadi. Yurak qon tomir tizimi, oshqozon ichak trakti tizimi bilan bog'liq kasalliklarning ko'pchiligi psixogen asosga ega ekanligini hozirgi kunda isbotlangan. Xuddi shunday odamning endokrin tizimi ham, hatto xulq-atvori ham shunday asosga ega. Bu soxada amaliy ish bilan shug'ullanar ekan, psixolog bu ko'rinishdagi kasalliklarning paydo bo'lishi va zo'rayishini oldini olishga harakat qiladi, kasallikni davolash uchun yaxshi organik reaksiyalar chaqirish maqsadida odamning psixologiyasiga va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan maxsus metodlarni qo'llaydi.

Psixologik barqarorlikka erishishda albatta hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Psixolog o'quvchi bilan ishlashda ota-onalar, sinf rahbari va pedagoglar bilan hamkorlik olib

borishi lozim. Hozirda umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni psixologik barqarorligini ta'minlashda duch kelinayotgan eng katta muammolardan biri bu voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning ko'payib borayotganligidir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etilishga imkon beradigan sabablarni aniqlash, yakka tartibdagi profilaktika ishlari;

- ijtimoiy jihatdan havfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etishining oldini olish;

Bu vazifalarni amalga oshirishda maktab ma'muriyati, maktab o'qituvchilari, o'quvchilar, ota-onalar, turli jamoatchilik tashkiloti vakillari, jumladan mahalla qo'mitalari, huquq targ'ibot tashkilotlari ishtirok etadi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkillashtirishda ularni keng ko'lamda sport bilan shug'ullanish, badiiy ijodiyot, to'garaklarga jalb etish – bolaning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, kitob o'qishga o'rgatish tarbiyaviy faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Amaliyotdan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash joizki, uzoq vaqt davomida surunkali dars qoldiruvchi va keyinchalik o'qishdan orqada qolib ketishga moyilligi bor oila farzandlari quyidagi shartli guruhlarga taalluqlidir.

1. Nochor va kam ta'minlangan oila farzandlari.

Bunday oilalarda ota-onalar aniq ish-joyiga ega emas, kunlik ish haqi hisobiga ishlaydilar. O'tmishda sudlanib chiqqan, ichkilikka berilganlar. Bunday oilalar farzandlarining o'qishi va tarbiyasi borasidagi qiyinchiliklar ota-onalarning maktab bilan muloqotga layoqatsizligi va hohishi yo'qligi sababli kuchayib boradi.

2. To'liq bo'lmagan oila farzandlari.

Bunday oilalarda oilaning hayot tarzini bir maromda saqlash, shuningdek, farzand tarbiyasi vazifalari birgina inson (ko'proq ona) zimmasiga tushadi. Farzandining vaqtini

qanday o`tkazilishini nazorat qilish, o`qish jarayonida ko`maklashishi kerak. Ota-onaning layoqati ko`p hollarda cheklangan bo`ladi, sababi vaqtning yetishmasligi, shaxsiy hayotdagi omadsizlik, oiladagi og`ir ruhiy holatni barqaror emasligi farzandlarga o`z ta`sirini o`tkazadi.

3. Qarindoshlar qaramog`ida bo`lgan bolalar.

Ota-onalar u yoki bu sabalarga ko`ra (ko`p bolali oila, ota-onalari safarda bo`lganda) farzandi tarbiyasini yaqin qarindoshlar zimmasiga yuklaydilar.

4. Ota-onalari ishlash maqsadida chet elga ketgan oila farzandlari.

Bunday holatlarda bolalar ota-ona talabiga ko`ra kattalar o`rnida qolib, uyni qo`riqlaydilar, uy ro`zg`or ishlarini yuritadilar va uka-singillariga qarab turadilar.

5. Notinch oila farzandlari

Bunday oilalarda doimiy ravishda janjallar bo`lishi natijasida bola uydan bezib ko`chaga chiqib ketishi, dadasining ichkilik ichib janjal qilishidan, onasini taxqirlashidan bezib turli noxush holatlarni sodir etishi kuzatilgan.

Ta`lim va tarbiya jarayoniga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan eng dolzarb omillardan biri – bu o`quvchilarni o`ziga tortuvchi va ularga kuchli ta`sir etuvchi turli “jalb etuvchi” joylar – internet-kafe va kompyuter o`yinlari zallari. Bu maskanlar nafaqat kechqurun, balki kunduzi ham ishlaydi. Dars vaqtida kompyuter o`yini zallariga borish dars qoldirishga olib kelishi mumkin, bunday bolalarni e`tiborga olish kerak.

Ushbu tavsiyalarga rioya qilinganda, qanday natijalarga erishish mumkin?

1. Sababsiz dars qoldiruvchi o`quvchilar sonining kamayishi.

2. Ta`lim muassasalarining huquqbuzarlikni oldini olish bo`yicha olib boradigan ishlari samaradorligini oshishi.

3. Bilimida bo`shliqlar bor o`quvchilar sonining kamayishi.

4. Voyaga yetmaganlarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

5. Huquqbuzarlik, nazoratsizlik, giyohvandlik, va boshqa salbiy xulqqa moyilligi bor voyaga yetmagan yoshlar sonining kamayishi.

Albatta, huquqbuzarliklarni oldini olish, dars qoldirish va o`zlashtirmaslik kabi muhim vazifalarni hal etishda maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalarning birgalikdagi harakati katta rol o`ynaydi. Bunday o`zaro harakat natijasi o`smirni hayotda



o`z o`rniga ega bo`lishiga, jamiyatga kerakli inson bo`lishida, egri yo`ldan qaytib o`z hayot yo`lini tanlashiga yordam beradi.

Ta`lim muassasalarida psixologik xizmatni rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi:

1. Ta`lim muassasasida mutaxasisi psixolog kadrlar ishlashi lozim. Chunki psixolog faoliyati murakkab jarayon bo`lib buni faqat mutaxasisi psixologgina samarali amalga oshirishi mumkin.

2. Maktab psixologi o`zini doimo reklama qilishi zarur, ayniqsa ish faoliyatining boshlanishida reklama bilan faol shug`ullanish maqsadga muvofiq, o`zini-o`zi reklama qilish 4 asosiy bosqichdan iborat.

O`zini-o`zi reklama qilishning birinchi bosqichi. Maktabda olib boriladigan ish rejasi va jadvalni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Psixolog darslarga qatnashadigan, o`qituvchilar bilan suhbatlashadigan, psixologik tadqiqotlar o`tkazadigan, maslahatlar beradigan va psixotreninglar o`tkazadigan kunlar va soatlarni aniq belgilab olishi zarur. Psixologning ish vaqti haqida kamida uchta joyda: psixolog xonasi eshigida, o`qituvchilar xonasida hamda maktabga kiraverishda ilingan bo`lishi maqsadga muvofiq.

O`zini-o`zi reklama qilishning ikkinchi bosqichi - kichik va o`rta, katta sinf o`quvchilari bilan uchrashib psixologiya haqida ommaviy shaklda suhbat o`tkazish zarur. Psixologiya haqida hikoyalar o`quvchilar individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish kerak, masalan, boshlang`ich sinf o`quvchilarida ko`rish illyuziyalari yoki guruhiy suggestiya fakti mavjudligini isbotlovchi tajribalarni o`tkazish mumkin.

O`z-o`zini reklama qilishning uchinchi bosqichida bolalarni oilada tarbiyalashning umumiy muammolari, oilaviy munosabatlardagi qiyinchiliklar va ularning bolaning psixik taaqqiyoti hamda o`qishdagi o`zlashtirishga ta`siri haqida gapirib beradi. Ota-onalar bilan suhbat savol - javob hamda hohlovchilarni psixologik maslahatga taklif etish bilan tugallanadi.

Psixologning o`zini-o`zi reklama qilishning to`rtinchi bosqichida u o`qituvchilarga psixolog maktabda nima bilan foydaliligi haqida tushuntiradi, ma`ruza qiladi. Maktabdagi ish rejalari, g`oyalari haqida gapirib beradi (masalan, pedagogik klub tashkil

etish haqida). O`qituvchilar oldida o`zini ijodiy hamkorlikka hamda mahsuldor dialogga intilishini namoyon qilishi zarur.

3. Maktab psixologi psixologik ma`ruzalar o`tkazib borishi lozim.

Ma`ruzalarda maktab muammolarini hal qilishda amaliy psixologiyaning imkoniyatlari haqida so`zlab beradi. Ma`ruza qilishning ijobiy tomoni shundaki, qisqa vaqt ichida barcha maktabdagi guruhlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`ladi. Psixologik ma`ruzalarni o`qish uchun ko`pincha o`qituvchilar uchun qulay vaqtni tanlash zarur. Psixologik ma`ruzalar 15 daqiqadan bir soatgacha davom etishi mumkin. Psixolog ma`ruza mavzularining dasturini tuzishda tinglovchilar tarkibi hamda ularning qiziqishlarini hisobga olish zarur. Ma`ruza tayyorlashda maktab ma`muriyatining qiziqishlarini, boshlang`ich sinf o`quvchilarining qiziqishlari, o`rta sinf o`qituvchilarining qiziqishi, yuqori sinf o`quvchilarning qiziqishlari, o`quvchilarning ota-onalarini qiziqishlarini hisobga olishi zarur.

4. Maktab psixologi hamkorlikda ish olib borishi lozim.

Amaliyotchi psixolog avvalo bolalarning oilaviy ahvolini o`rganish, maktab bilan ota-ona o`rtasida uzviy aloqani o`rnatish, fan o`qituvchilari bilan aloqani mustahkamlash, o`quvchining darsga qatnashini kuzatish, darsdan tashqari faoliyatini nazorat qilish, turli savol-javoblar o`tkazish orqali tarbiyasi og`ir bolalar bilan ishlash dasturi va rejalarini belgilab olishi lozim. Bundan tashqari psixolog maktab shifokori, tashxis markazi shifokori bilan hamkorlikda bolaning tibbiy varaqasi bilan ham tanishib chiqishi kerak bo`ladi. Agar bola sog`lom rivojlangan bo`lsa-yu, maktab va oila tarbiyasiga bo`ysunmasa, bunday vaziyatlarda psixolog yordamga kelishi va. avvalo bola bilan suhbatlashib, nima uchun uning hulqida bunday o`zgarishning yuzaga kelganligi, ko`cha ta`siriga berilishi, salbiy norasmiy guruhlarga a`zo bo`lib qolishi, darsni sababsiz qoldirishi, past o`zlashirishi, jamoat ishlarida qatnashmaslik sabablarini aniqlaydi. IIB profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik ham o`quvchi-yoshlar o`rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik holatlarini oldini olishga katta yordam beradi.

5. Maktab psixologi o`z ustida ishlashi.

Maktab psixologi doimiy ravishda o'z ustida ishlab, malakasini oshirib, rahbar hodimlar, o'quvchilar, pedagoglar va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqishi lozim. Pedagog hodimlarni malakasini har 3 yilda oshirish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

6. Maktabda psixologning o'quvchilar bilan ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.

7. Psixolog tomonidan turli xil tadbirlar o'tkazilishi lozim.

Ushbu tadbirlarda ota-ona va farzandlar, o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi munosabatlaridagi muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan korreksion ishlarni amalga oshirish lozim. Ushbu tadbirlarga malakali psixologlarni mehmon sifatida jalb qilib hamkorlikda ishlashi mumkin.

8. Psixologik soatlar tashkil qilish lozim. Chunki psixolog o'quvchilar bilan ishlashi, ular bilan korreksion mashg'ulotlar olib borishi uchun albatta qulay vaqt zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Asab va ruhiyat" "Zamin nashr" nashriyoti 2018
2. "Tibbiyot psixologiyasi" Toshkent 2010
3. B.N.Sirliyev, N.Ismoilova, I.M.Xakimova "Stress va agressiya" Toshkent 2014
4. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. T.-1995 yil
5. G'oziyev Ye. va boshq. Psixologiya muammolari. T.-O'qituvchi, 1996 yil
6. Davletshin M.G., Psixologiyadan izohli lug'at. T.-1998 yil

---

## **MAKTAB O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA MAHALLA VA MAKTAB PSIXOLOGI HAMKORLIGI**

*Jummayev Shuxrat Eshboyevich*  
*Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 13-maktab psixologi*

**Annotatsiya.** O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining

o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarning faoliyati katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** to'g'ri kasb tanlash, axloq, omil, texnologik ta'lim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik, o'z-o'zini baholash, kitobxonlik, stress.

Maktab o'quvchilarining kasb-hunar egallashdagi muammolari, qiyinchiliklarining oldini olishda birinchi navbatda oiladagi to'g'ri tashkil qilingan intizom muhim ahamiyatga egadir. Aksariyat oilalarda ota-onalar farzandning ma'naviyati, axloqi, bilimi bilan qiziqmaydilar. Ular farzandni moddiy tomondan ta'minlashnigina o'z burchlari deb biladilar. Ota-onalarning farzandga e'tibori quyidagi omillarda ko'rinadi:

1. Ustozlar bilan aloqa o'rnatish;

Bu o'quvchining ta'lim jarayonini nazorat qilish barobarida oiladan tashqaridagi atvoridan boxabar bo'lish imkonini beradi.

2. Bolaning do'stlari haqida suhbatlashish;

3. Oilada kitobxonlik muhitini yaratish, oila kutubxonasini tashkil qilish;

4. Farzandga to'g'ri maqsad qo'yishda yordam berish va uni tanlagan yo'li sari rag'batlantirish;

Bu jihatdan ota-onalarning o'zlari bilan ishlash ham juda muhim. Tabiiyki, mazkur vazifa maktab psixologi faoliyati doirasiga sig'maydi. Demak, mahalla tomonidan alohida shtat tashkil qilinishi kerak. Mahalla psixologi har bir ko'cha aholisi uchun belgilangan tartibda majlislar tashkil qilishi, farzandni tushunish, to'g'ri yo'naltirish va muammoli vaziyatlar yuzasidan tavsiyalar berish, namunali shaxslar nutqini tashkil qilish, notinch oilalar bilan ishlashni maqsad qilib qo'yadi.

Aksariyat o'zlashtirishi past yoki xatar guruhiga mansub bolalarning oilasi notinch bo'lishi tajribalar orqali bizga ma'lum bo'lib, ota-onalar farzand bilan deyarli qiziqmaydilar. Ba'zan esa modddiy tashvishlarning bir qismini voyaga yetmagan bola gardaniga yuklab qo'yadilar. Bunday o'quvchilar bilan so'rovnoma o'tkazilganda ularning o'z tengdoshlariga nafrat bilan qarashi aniqlangan. Gap shundaki, o'smir yoshidagi bola hali bunday qiyinchiliklarga tayyor bo'lmaganligi sababli unda davomiy

stress holati paydo bo'ladi va bu atrofga xolis munosabat bildirishga to'sqinlik qiladi. Endi u "baxtli" tengdoshlaridan nafratlana boshlaydi.

Demak, bunday jiddiy vaziyatlarni hal etishda mahalla maktab psixologlari bilan hamkorlik o'rnatib, oila muhitini isloh qila olsa, boladagi ruhiy zo'riqishlar hamda uning natijasida kelib chiqadigan nosoz tarbiyaning oldi olingan bo'ladi. Chunki farzand 80% tarbiyani o'z oilasida olishi mutaxassislar tomonidan isbotlangan.

Bolani kasbga yo'naltirishdagi muammolar ham aynan oila muhitiga borib taqaladi. Ota-onalarning ko'pchiligi farzandining 11-sinfgacha bo'lgan vaqtda oladigan bilimiga sayoz diqqat qiladilar. Ular bilan suhbat uyushtirganda, 9- sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan davrlarda qo'shimcha mashg'ulotga berishlarini aytishadi. Birinchidan, bola 6 yilga mo'ljallangan ma'lumotni bir necha yilda o'zlashtira olmaydi. Ikkinchidan, bu holat maktabda beriladigan ta'limga hurmatsizlik hisoblanadi. Bundan tashqari o'quvchining 5-sinfdan 8-sinfgacha bo'lgan davri chinakam axloqiy va ta'lim jarayonlarini qabul qilishda juda muhim davr bo'lib, ayni vaqt bolaning o'z kasbini tanlashi davridir. Ana shu muhim davrda o'quvchi ikki toifa ( maqsadlilar va maqsadsizlar) ga ajraladi. 9-sinfdan boshlab har qaysi guruh o'z yo'nalishi bo'yicha keta boshlaydi. Endi o'smirni boshqa doiraga o'tkazish nihoyatda mushkul. Shu sababli o'quvchilar 5-8- sinf davrida ota-ona yo'l-yo'rig'i va ustozlar tavsiyasiga muhtoj bo'lishlarini hisobga olgan holda ularga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va turli xil kasblar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu davrdagi o'smir yoshlarning kasb tanlashida nihoyatda e'tiborli bo'lish kerak. Mazkur vaziyatda bolani to'g'ri yo'naltirish yuzasidan ota-onalarga quyidagi tavsiyalarni havola etamiz:

1. Bolani tanqid qilishdan tiyilish. Tanqid uning bor imkoniyatlarini ham yo'qqa chiqaradi. O'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Ishtiyoqini yo'qotishga olib keladi.
2. O'qish va jismoniy faoliyatdagi harakatlarini rag'batlantirish.
3. Ishonchni namoyon etish.
4. Maqsad sari muntazam motivatsiya berish.

5. Farzandga bo'lgan mehrni namoyon etish. Bolani bag'riga bosish orqali unga kata miqdorda energiya berish mumkin. Bu odat mehr-oqibat rishtalarini ham yuqori darajada mustahkamlaydi.

Shunday qilib, o'quvchining ta'lim-tarbiyasi oilaviy va maktabdagi muhitga bog'liq ekanligini hisobga olgan holda maktab – oila – mahalla uchburchagi asosida faoliyat olib borish samarali natijalarga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.F.Ziyayeva “Kasbga qiziqish va kasb tanlash” Kasb hunar ta'limi j., 2001y 5-son., 15-17 b
2. J.A.Po'latov “Kasb hunar kollejarining xatar g., 2014y 14-22 b

---

## УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИДА ДИҚҚАТНИ ЖАМЛОВЧИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Муниса Зокирова*

*Самарқанд вилояти ПастДарғом туман 11-мактаб ўқитувчиси*

**Аннотация:** Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Билим олиш жараёнида мустақил ақлий меҳнат қилиш, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш иродавий зўр бериш жараёнида ихтиёрий, онгли диққат таркиб топади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шакллана бошлайди.

**Калит сўзлар:** Таълим жараёни, кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар, ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққат, билим, жараён, мустақил ақлий меҳнат, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш, ихтиёрий, диққат, ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, тақсимлаш, бошқариш.

Бошланғич синф ўқувчиларида даққатни иродавий зўр бериш билан бошқариш ва вазиятга мослаш имконияти яхши бўлмайди. Бунинг асосий сабаби, уларда ихтиёрий диққатнинг кучсизлиги ва беқарорлигидир. Болаларда ихтиёрсиз диққат кўпроқ ривожланган бўлади. Бошланғич синф ўқув материалларининг яққоллиги, эркинлиги, жозибadorлиги, ўқувчида беихтиёр хис-туйғулар уйғотади, иродавий зўриқишсиз, осонгина фан асосларини эгаллаш имконини беради. 1-2 синф ўқувчилари даққатининг ўзига хос хусусиятларидан бири, унинг етарлича барқарор эмаслигидир. Шунинг учун ҳам улар диққатларини муайян нарсаларга қарата олмайдилар ва диққат объектда узоқ тура олмайди. Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шакллана бошлайди.

Кичик мактаб ёшидаги бола маълум даражада ўз фаолиятини ўзи мустақил ривожлантира олади. У ўз режасини, у ёки бу ишни қандай кетма-кетликда бажаришини сўз билан ифодалаб бера олади. Режалаштириш сўзсиз боланинг диққатини ташкил эта олади ва ривожлантиради. Уларда ихтиёрсиз даққат устунлик қилади. Кичик мактаб ёшидаги болалар сўзсиз ўз диққатларини интеллектуал масалаларга қарата оладилар, лекин бу жуда катта иродавий кучни ва юқори мотивацияларни ташкил этилишини талаб қилади. Боланинг диққати теварак-атроф таасуротлари, тасвирий санъат асарларини етарли даражада акс эттиришда вужудга келади. Кичик мактаб ёшидаги бола ўқитувчиси билан мустаҳкам эмоционал боғлиқ бўлади. Мактаб таълими ўқувчининг турмуш тарзини ижтимоий мавқеини синф жамоаси ва оила муҳитидаги аҳволни ўзгартиради, унинг вазифаси ўқишдан, билим олиш, кўникма ва малакаларини эгаллаш, ўзлаштиришдан иборат бўлиб қолади. Кичик мактаб ёшидаги боланинг муҳим хусусиятларидан бири унда ўзига хос эҳтиёжларнинг мавжудлигидир. Бу эҳтиёжлар ўз моҳияти билан муайян билим, кўникма ва малакаларни эгаллашга қаратилмай, балки фақат ўқувчилик истагини акс эттиришдан ҳам иборатдир. Шу эҳтиёжлар асосида ўз портфелига, шахсий ўқув қуролларига дарс тайёрлаш

бурчагига, китоб қўйиш жавонига эга бўлиш, катталардек ҳар куни мактабга бориш истаги ётади.

Кичик мактаб ёшидаги бола ўзининг туб моҳияти ва вазифасини тушуниб етмайди, балки ҳамма мактабга бориши керак деб тушунади. Аммо у катталарнинг кўрсатмаларига амал қилиб тиришқоқлик билан машғулотларга киришиб кетади. Орадан маълум вақт ўтгач шодиёна лаҳзаларнинг таассуроти камайиши билан мактабнинг ташқи белгилари ўз аҳамиятини йўқота боради ва бола ўқишни кундалик ақлий меҳнат эканлигини англайди. Шунда бола ақлий меҳнат кўникмасига эга бўлмаса, унинг ўқишдан кўнгли совийди, унда умидсизлик ҳисси вужудга келади. Ўқитувчи эса бундай ҳолнинг олдини олиш учун болага таълимнинг ўйиндан фарқи, қизиқарлилиги ҳақида маълумотлар бериши ва уни шу фаолиятга тайёрлаши керак. Таълимнинг мазмуни ўқувчининг билимларни эгаллашга қизиқиши ўз ақлий меҳнати натижасидан қаноатланиш ҳисси билан узвий боғлиқдир. Бу ҳис ўқитувчининг рағбатлантириш билан амалга оширилади ва ўқувчида самаралироқ ишлаш мойили, истаги ва иштиёқини шакллантиради. Болада пайдо бўлган фахрланиш ўз кучига ишониш ҳислари билимларни ўзлаштириш ва малакаларни ривожланишига хизмат қилади.

"Бола-катта" муносабати, "бола-ота-она" муносабатидан ташқарида юзага келади. Чунки, ўқитувчи болага ота-онага нисбатан кўпроқ равишда норматив талаблар қўяди. Биринчи бор мактабга келган бола ҳали ўзини тўлик англаши ва ўзи ҳатти-ҳаракатларини аниқ билиши қийин. Бошлағич синфда ўқувчилар ўқитувчи томонидан қуйиладиган янги шартларни қабул қиладилар ва уларнинг қоидаларига тўла амал қилишга ҳаракат қиладилар. Бола учун ўқитувчи унинг психологик ҳолатини белгилаб берувчи асосий фигура ҳисобланиб. Бу ҳолат унинг нафакат синфдаги балки умуман тенгдошлари билан бўладиган муносабатига бу муносабат эса ўз ўзидан оиласидаги муносабатларига таъсир кўрсатади. Шунингдек, бу муносабатлар, унинг ўқув фаолияти муваффақиятини ҳам белгилаб беради. Бу даврда болаларнинг билимлари кенгаяди ва чуқурлашади, кўникма ва малакалари такомиллашади.



3-4 синфга бориб кўпчилик болаларда умумий ва махсус лаёқатлар кўзга ташланади. Кичик мактаб даврида ҳаёт учун ниҳоятда аҳамиятли бўлган мувафаккиятга эришиш мотиви мустаҳкамланади, бу эса ўзўзидан бошқа лаёқатларни жадал ривожланишига олиб келади. Бу ёшдаги болаларда идрок, диққат, хотира, тафаккур ва нутқ тўлиқ шаклланиб бўлгани учун ҳам уларга таълим беришда катталарга қўлланиладиган услублардан фойдаланиш мумкин. Кичик мактаб ёшидаги болалар психик ривожланишда, уларнинг атрофидаги шахслар, ота-онаси ва айниқса ўқитувчи билан бўладиган муносабати орқали эришиши мумкин. Хулоса қилиб, шуни айтамикки ўқувчилар ўртоқлари билан муносабатларини, катталар таълим-тарбия мақсадларида фойдаланишлари мумкин. Бу ёшдаги болалар соатлаб ёлғиз ҳолда сеvimли машғулотилари билан шуғулланишлари мумкин ва шу асосда уларда меҳнатсеварлик ва мустақиллик фазилатлари шаклланади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Нишанова З.Т., Психодиагностика ва экспериментал психология 2014.й
2. Нишанова З.Т., Ходжақулова Д.И., Алимова Қ.Г. Психогигиена. Баёз нашриёти. Тошкент 2013 йил.

---

## O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

*Tolipova Rohila Qahramonovna*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 14- maktab psixologi*

**Annotatsiya:** O'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlari, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o'quvchi psixologiyasi, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Oʻqituvchi, oʻquvchi, kasb-hunarmaktabi, kasb, kasbga yoʻnaltirish, davlat, taʼlim.

Jamiyatda taʼlim tizimini rivojlantirishning strategik yoʻnalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham taʼlimdagi islohotlar jarayonida mustaqil taʼlimni ragʻbatlantirish muhim yoʻnalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida oʻz ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda oʻqituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olgʻa surganlar. Oʻz navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin taʼkidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida toʻgʻri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qoʻyadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, Oʻzbekiston xalq xoʻjaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shart-sharoitlari, vositalari, fani, maqsadi boʻyicha shajaralanishi, oʻquvchilarni oʻz qiziqish va moyilliklari, oʻz xarakterining oʻziga xos xususiyatlarini, oʻz nerv tuzilishi, psixikasi, oʻz qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar toʻgʻrisida maʼlumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning oʻzgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbga mos kelishi, hududda joylashgan oʻrta maxsus, kasb-hunar oʻquv yurtlarida taʼlim yoʻnalishini ixtiyoriy tanlashi; oʻqishni davom ettirish imkoniyatlari. Kelgusi mavqeini bilishi zarur.

Oʻquvchilar kasblarni tahlil qila olishi; oʻzlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini toʻgʻri baholay olishlari, kasblarning insonga qoʻyadigan talablari bilan oʻzlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

O`quvchilar Xalq xo`jaligi asoslari bo`limi bo`yicha xalq xo`jaligi sohaslarini, xalq xo`jaligida ro`y berayotgan islohotlarni, bozor iqtisodiyoti talablarini, davlat xususiy korxonalarini, kooperasiya, firma, shirkat, konsernlar, ularda ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, texnologik jarayonlar, mahsulotlarni tayyorlash bosqichlari, tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta`siridan muhofaza qilish, mahsulot qiymatini arzonlashtirish yo`llari, qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishning davriyligini, maromli, oqimligi; ishlab chiqarishni rejalashtirish, irrigasiya va meliorasiya ishlarini; mehnat qonunchiligini.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma'rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasida ham bir qator o'zgarishtirishlar kiritilmoqda. Bu o'zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllantirish, ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi" tashkil etilgan. Bu markaz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o'quvchilarning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko'maklashadi. Ushbu markaz o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibga amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining kasb-hunarga yo'naltirish respublika

tizimini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot- ma'lumot va dasturiy ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralari ko'rish, tegishli dasturlar, me'yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish; mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish va hayotga tadbiq etish; barcha bosqichdagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta'lim muassalaridagi kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish; umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining hayotiy va kasbiy o'zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishlash respublika tashxis markazining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda o'quvchilarni kasb-hunarlar bilan tanishtirish, ular orasidan har bir o'quvchining qiziqishi, moyilligi, qobiliyati, jismoniy imkoniyatlari shu bilan birga, tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib borish, istiqbol rejalariga muvofiq ravishda kasb-hunar tanlashga pedagogikpsixologik yordam ko'rsatib borilmoqda. Hozirgi kunda kasbga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadi - o'quvchilarning kasb-hunar tanlashlarini ilmiy asoslarda, pedagogik-psixologik talablarga muvofiq ravishda tashkil qilish va bu jarayonning uzluksizligini ta'minlashdan iborat. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasidagi asosiy amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi.: Tarbiya va ta'lim jarayonining ijtimoiy hamda pedagogik-psixologik muammolari: taklif va yechimlar, moyilliklari, qobiliyati, jismoniy imkoniyatlariga muvofiq kasb-hunar tanlashga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish; - kasbga yo'naltirish va kasb tanlash masalalari bo'yicha o'quvchilarga va ota-onalarga zarur maslahatlar berib borish; - yuqori sinf o'quvchilariga o'zlarining kelajakdagi kasblarini ongli ravishda tanlashlariga yordam berish; - o'quvchilarning kelgusidagi o'z kasblarini ongli tanlashlari uchun psixologik tayyorliklarini shakllantirish va shu kabilar.

Kasbga yo'naltirish ishlarining asosiy mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning o'z kelajaklari to'g'risidagi xohish va imkoniyatlarini anglashlari; o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, intellektual va shaxsiy xususiyatlarini tadqiq qilishlari; kasb tanlashning asosiy tamoyillari bilan tanishishlari; zamonaviy mehnat bozori xususiyatlari

bilan tanishishlari; o‘z imkoniyatlarini tanlanayotgan kasb talablari bilan taqqoslashlariga yordam berish; kasbiy maqsadlarga erishishdagi qiyinchiliklarni anglash va ularni yengish yo‘llarini topishda yordam berish va boshqalar. Kasbga yo‘naltirish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanish lozim: Kasb tanlashning ongliligi ; tanlanayotgan kasbning insonning qiziqishlari, layoqatlari ,qobiliyatlariga va jamiyatning ehtiyojlariga mosligi; kasbning inson tomonidan faol tanlanishi; kasbning inson rivojlanishi uchun imkoniyat berishi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etishni taklif qildi. O‘zbekistonda maktab o‘quvchilarini 7-sinfdan boshlab kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirish, yuqori sinflarda zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda yoshlar orasida o‘zini -o‘zi band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qaror loyihasi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish taklifi berilmoqda. Unga ko‘ra tizimni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o‘quvchilarni 7-sinfdan boshlab, kasb-hunar egallash va o‘zini o‘zi band qilish orqali xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o‘quvchilarning ma‘lumotlar bazasini yaratish. Vazirlik bu ko‘nikma, oily ta‘lim muassasasiga kira olmagan bitiruvchilarning bandigini ta‘minlash uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishiga ishonmoqda

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. K.Jo‘raboyev. “O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha psixologikpedagogik o‘yinlar mashqlar va metodikalar“. Toshkent 2017
2. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent 2002
3. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik pedagogik tashxis metodikalari. Toshkent 2006

## O'RTA MAKTAB O'SMIR O'QUVCHISINING PSIXOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

*Rahmatova Dilfuza Nurmatovna*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 14-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Chiroyli tarbiya berish ota-onaning farzandi oldidagi burchlaridandir. Bu haqni ado etish o'z-o'zidan bo'lmaydi, insondan katta mas'uliyat, mashaqqat talab etadi. Farzandlar tarbiyasi eng avval oiladan boshlanadi. Oilaning asosini esa ota-ona tashkil etadi. Tarbiyada ota-onaning rolini qushning ikki qanotiga qiyoslash mumkin. O'ng qanot misolida otani tasvirlasak chap qanot (yordamchi) qanot misolida onani tasvirlar ekanmiz.

Ma'lumki, bolalik (ya'ni bolaning tug'ilishidan 18 yoshgacha bo'lgan vaqt) ma'lum bir yoshdagi psixofiziologik xususiyatlarning sifat jihatidan o'ziga xosligi bilan tavsiflangan davrlarga bo'linadi. Aksariyat psixologlarning (L.S.Vygotskiy, I.S.Kon, D.I.Feldshteyn) fikricha, o'smirlik davri inson hayotining bolalikdan o'smirlik davrigacha bo'lgan davrini qamrab oladi, ya'ni. 10-12 yoshdan 13-15 yoshgacha. Bu davr "bo'ron" va "hujum" davri deb ataladi. Etakchi faoliyat - barcha maktab yoshidagi "harakatlantiruvchi kuch" ta'limdir, ammo har bir maktab yoshining o'ziga xosligi o'rganish jarayonida bolaning qaysi faoliyat aspektlarini rivojlanishi bilan belgilanadi. Bu har bir maktab yoshining etakchi faoliyatini belgilaydi. (Vygotskiy 2006) Kelajakda biz Vygotskiyning ushbu yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari haqidagi fikrlariga amal qilamiz. faoliyatning mazmuni, maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Ilgari etakchi rol o'ynagan faoliyatlar, masalan, o'ynaydi, o'z-o'zidan uzoqroq yashay boshlaydi va ikkinchi o'ringa tushadi. Faoliyatning yangi turlari paydo bo'ladi, eskilarining ierarxiyasi o'zgaradi, aqliy rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik - bu o'smirning oilasi bilan bo'lgan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish davri. Bu davrda o'smir tengdoshlari bilan munosabatlarini qadrlay boshlaydi. Umuman olganda, asosiy muammo Yoshlik o'zini bilish zaruratidir. (Markova 1995) O'z navbatida, A.K. Markova o'smirlik rivojlanishining uch turini ilgari

suradi. Birinchi turi o'tkir, bo'ronli, inqirozli kurs bilan tavsiflanadi, o'smirlik ikkinchi tug'ilish sifatida boshdan kechiriladi, buning natijasida yangi "men" paydo bo'ladi. Rivojlanishning ikkinchi turi - o'smir qo'shilganda silliq, sekin, asta-sekin o'sishdir kattalar hayoti o'z shaxsiyatida chuqur jiddiy siljishlarsiz. Uchinchi tur - bu rivojlanish jarayoni o'smirning o'zi faol va ongli ravishda o'zini-o'zi shakllantiradi va tarbiyalaydi, ichki tashvish va inqirozlarni iroda kuchi bilan engib o'tadi. Bu o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish darajasi yuqori bo'lgan odamlarga xosdir. (Obuxova 2004). J. Piaget o'smir tafakkurini rasmiy operatsiyalar darajasida fikrlash deb ta'riflagan. Ushbu yangi turdagi ma'lumotlarni qazib olish mavhum, spekulativ va bu erda va hozirdan ozoddir. Rasmiy operatsiyalar darajasida fikrlash imkoniyatlar haqida o'ylashni, shuningdek, haqiqatni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan voqealar bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi. Rasmiy operatsiyalar darajasida fikrlash gipotezalarni shakllantirish, sinab ko'rish va baholash qobiliyatini talab qiladi, nafaqat tekshirilishi mumkin bo'lgan ma'lum elementlarni, balki faktlarga zid bo'lgan narsalarni ham manipulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi. O'smirlarda rejalashtirish va oldindan ko'rish qobiliyati ham oshadi. O'smirlik davridagi kognitiv rivojlanish quyidagilarni o'z ichiga oladi: Axborotni qayta ishlashning individual mexanizmlaridan samaraliroq foydalanish, masalan, uni xotirada saqlash va uzatish. Muammolarni hal qilishning har xil turlari uchun yanada murakkab strategiyalarni ishlab chiqish. Axborotni olish va uni ramziy shaklda saqlashning yanada samarali usullari. Rejalashtirish va qaror qabul qilishni o'z ichiga olgan yuqori darajadagi ijro etuvchi funktsiyalarni (metafunktsiyalarni) ishlab chiqish va kengroq stsenariylar bazasidan usullarni tanlashda moslashuvchanlikni oshirish. Yangi bilimlarning paydo bo'lishi va eski kognitiv ko'nikmalarning takomillashishi tufayli o'smirlarning fikrlash doirasi ancha kengayadi, tafakkur mazmuni boyib boradi va murakkablashadi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, muammoli o'qitish rasmiy operatsiyalar darajasida fikrlash bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlash mumkin, bu Piaget nazariyasiga ko'ra, muammoli o'qitish usuli qo'llaniladigan chet tili darslarida tasdiqlangan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'rta maktab yoshida kognitiv rivojlanish jarayoni faol davom etmoqda. Ular axloqiy, siyosiy va kichik o'quvchining aql-zakovati uchun amalda mavjud bo'lmagan boshqa mavzularda

nisbatan erkin fikr yuritadilar. O'rta maktab yoshidagi eng muhim intellektual egallash farazlar bilan ishlash qobiliyatidir. (Obuxova 2004) O'smirlik davrida diqqat rivojlanadi, bu katta hajm va barqarorlik bilan emas, balki o'ziga xos selektivlik bilan ajralib turadi. Diqqatning uchta asosiy turi mavjud:ixtiyorsiz (o'z-o'zidan, iroda harakatlarisiz sodir bo'ladi) - bu tur maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati uchun xosdir;o'zboshimchalik (odamdan ixtiyoriy sa'y-harakatlarni talab qiladi) - yoshga qarab, o'ynash, o'rganish, kattalar bilan muloqot qilish jarayonida shakllana boshlaydi);izchil.O'smirlik davrida bolaning e'tibori kuchayadi, ya'ni.qisqa vaqt ichida u ongli ravishda ongli ravishda o'z ongida ushlab turishi mumkin Ko'proq ob'ektlar. Yuqori, boshlang'ich maktab o'quvchilari bilan solishtirganda, o'smirlarda vadiqqatning barqarorligi, barcha begona narsalardan chalg'itish qobiliyati. Maktabning o'rta sinflarida maktab o'quvchilarining kognitiv jarayonlarining rivojlanishi shunday darajaga etadiki, ular kattalarning aqliy mehnatining barcha turlarini bajarishga deyarli tayyor.shu jumladan eng qiyinlari. Maktab o'quvchilarining kognitiv jarayonlari ularni mukammal va moslashuvchan qiladigan fazilatlarga ega bo'ladi va bilish vositalarining rivojlanishi shaxsiy rivojlanishdan biroz oldinda. N.D.ning so'zlariga ko'ra. Galskovaning so'zlariga ko'ra, ushbu guruhdagi maktab o'quvchilarining manfaatlari barqarorlashmoqda. Aynan shu yoshdan boshlab kasbiy yo'nalish shakllana boshlaydi, bu nihoyat yuqori sinflarda aniqlanadi. (Galskova 2004) Bu yoshda ko'plab aniq tushunchalar o'zlashtiriladi, maktab o'quvchilari turli muammolarni hal qilish jarayonida ulardan foydalanishni o'rganadilar.N.S.ning so'zlariga ko'ra. Leites, o'smir xotira rivojlanishida o'zgarishlarga uchraydi. Bu izchil, mantiqiy xarakterga ega. Materialni o'zlashtirish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda maqsadli kuzatish, asosiy narsani topish istagi, yodlash va takrorlashni osonlashtiradigan kuchli tomonlarni ajratib ko'rsatishga ko'proq ahamiyat beriladi. (Galskova 2004) O'rta maktab yoshida xotira miqdori sezilarli darajada oshadi va bu nafaqat materialni yaxshiroq eslab qolish, balki uni mantiqiy tushunish bilan ham bog'liq. O'smirning xotirasi ham e'tibor kabi, asta-sekin uyushgan, tartibga solinadigan va boshqariladigan jarayonlar xarakterini oladi. (Kon 1987 O'rta maktab yoshining muhim xususiyati - faol, mustaqil,ijodiy fikrlash. Bu yoshda, J. Piagetning fikricha, shaxs nihoyat shakllanadi, hayot dasturi quriladi. Hayot dasturini yaratish uchun gipotetik-deduktiv,



ya'ni rasmiy fikrlashni rivojlantirish kerak. (Piaget 2008) Vygotskiy ham J.Piaje kabi o'smirlik davrida tafakkurni rivojlantirishga – o'smirning xotirani shakllantirish jarayonini o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratgan, bu esa intellektual faoliyatning eng yuqori normasiga, yangi xulq-atvor usullariga olib keladi.

Shunday qilib, o'smirlar uchun dialog hal qiluvchi rol o'ynaydi va muammoli ta'lim tamoyillaridan foydalangan holda dialogik nutq ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkinligini ta'kidlash mumkin. O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishini yo'lga qo'yishi, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas, balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu Yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqillikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir Yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga yo'llash orqali amalga oshirish mumkin, o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda echish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez yo'llab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni echishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida iitellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bolshoy psixologicheskiy slovar/ Podredaksiy B.G.Mещerikova, V.P.Zinchenko. –3-e izd., dop. i pererab. – SPb.: PRAYM-EVROZNAK, 2006. – 672 s.
2. Venger L.A., Muxina V.S. Psixologiya: Ucheb. Posobie dlya uchashixsya ped uch-щ. – M.: Prosvещenie, 1988. – 336 s.

3. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya studentov ped. in-tov/ V.V.Davydov, T.V.Dragunova, L.B.Itelson i dr.; Pod red. A.V.Petrovskogo. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Prosveshchenie, 1979. – 288 s.

## **SALBIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

*Tilloeva Sarvinoz Barotovna*  
*Buxoro viloyati Shofirkon tuman 21 maktab psixologi*

Jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'luvchi biologik (irsiy) va ijtimoiy-psixologik omillarni to'g'ri anglash hamda har tomonlama o'rganish jinoyatchi psixologiyasini, uni jinoyatga undagan ehtiyojlar, motivlar va boshqalarni anglashga yordam beradi. Mamlakatimizda o'tkazilgan tadqiqotlardan birining natijasiga ko'ra, jinoyat sodir etgan bolalarning oilalari o'rganilganda quyidagilar aniqlangan:

- Oilada tarbiyaviy ta'sir vositalarining noto'g'ri qo'llanilishi;
- Bolalarning ota-onalar, maktab, mahalla nazoratidan chetda qolganligi;
- Oilasidagi ma'naviy muhit nosog'lom va noto'liq oilalar.

Ko'p hollarda jinoyat sodir etgan shaxslar o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitga moslasha olmagan bo'ladi, buning asosiy sababi esa o'z-o'zini boshqarishning buzilishi bilan bog'liqdir. O'z-o'zini boshqaruvning buzilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, asab va psixologik tez, kuchli toliqish natijasida tashqi ta'sirlarga haddan ziyod e'tibor berish. Nerv-psixik jarayonlarning sustligi, kam harakatliligi (rigidlik)dan odamovilik, jamoaga qo'shilmalik, o'zini odamlarga qarshi qo'yish. Haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik, hayajon, impulsiv harakat, uzoq vaqt xafagarchilik, jahli tezlik, tez xafa bo'lish, shafqatsizlik, berahmlik, arzimagan narsaga janjal chiqarish, o'ziga yuqori baho berish yoki juda past baho berish, egoistlik. O'ta konformlik (asotsial kishilar ta'siriga tez tushib qoladi), xarakterning kuchsizligi,

intellektning chegaralanganligi, o'z-o'zini tanqid qilishning yo'qligi, aqliy kam harakatlilik.

Shaxsning ijtimoiylashuvi qanchalik past darajada bo'lsa, unda shunchalik biologik omillar ta'siri yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shaxsda psixik rivojlanishlar qanchalik chegaralangan bo'lsa, uning xulq-atvorida motivlar iyerarxiyasidagi "quyi" motivlar yetakchilik qiladi. Shaxsning irsiy sifatleri uning psixik mohiyatiga ta'sir etishini yuridik amaliyotda doimo e'tiborga olish zarur. Afsuski, ko'p hollarda jinoyatchi shaxsida psixik anomaliyalar bor yoki yo'qligiga e'tibor berilmaydi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, qonunbuzarlar orasida psixik anomaliyasi mavjud shaxslar 70% ga yaqin ekan. Psixik anomaliya-shaxsning irsiy kamchiliklari bilan bog'liq bo'lgan, ammo asab va ruhiyatning patologik bo'lmagan buzilishlaridir. Psixik anomaliyalar o'z-o'zidan jinoyatga sabab bo'lmaydi. Ammo, ma'lum bir salbiy muhitda yoki holatda jinoiy xatti-harakat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Psixik anomaliya – psixikaning chegara holati, ya'ni nopatologik psixikaning buzilishi bo'lib, shaxs psixoz holatiga yetmagan bo'ladi. Psixik anomaliyalarga quyidagilar kiradi: psixopatiya, xarakterning aksentuatsiyasi, oligofreniya, nevroz va jinsiy buzuqlik.

Nopatologik psixik anomaliyalar (buzilishlar): psixopatlar, yengil shakldagi debillar (aqli zaiflar), xarakter aksentuatsiyasining deformatsiyasi – shaxsning ichki strukturalarini (hissiyot, iroda, psixik jarayonlari va boshqalarni), motivlar va qadriyatlarining buzilishiga (deformatsiyasiga) sabab bo'ladi. SHu bilan birga ular bu kamchiliklarni sog'lom odamlar kabi fikr, muammolarni solishtirish bilan emas, balki salbiy emotsionallik, agressiya va boshqa yo'llar bilan hal etadilar, ya'ni ularda "kompensatsiya" jarayoni o'ziga xos bo'ladi.

Psixopatiya – tug'ma yoki orttirilgan shaxs anomaliyasi bo'lib, bu oliy asab faoliyatining buzilishidan kelib chiqadi va shaxsning psixik nomukammalligiga sabab bo'ladi.

Psixopatiyaning kechish darajasiga ko'ra turlicha: isterik, qo'zg'aluvchan va psixoastenik, paranoyyal turlari bo'ladi.

Psixopatiya asab tizimining biologik kamchiliklari va tashqi muhit (oilalar va boshqalar)ning o'ta salbiy ta'sirini qo'shilishidan kelib chiqadi. Asosiy nuqson hissiy iroda

sohasidagi yetishmovchiliklar (disgarmoniya)dir, ammo intellekt saqlangan bo‘ladi. Psixopat shaxsning asosiy xususiyati shundaki, u ijtimoiy muhitga moslashishga (adaptatsiya) qiynaladi. Agar bunday shaxs janjalli, nizoli vaziyatlarga (asab va ruhiyatiga salbiy ta’sir etuvchi muhitga) tushsa, u o‘zini bosa olmaydi, qonunni buzuvchi xatti-harakat qilib qo‘yishi mumkin bo‘ladi. Bunday shaxslarning nuqsonlarini tuzalmas deb bo‘lmaydi. Agar ularni qurshab turgan ijtimoiy muhit tinch, xotirjam bo‘lsa, psixik anomaliya belgilari kamayib ketadi, biroq psixologik muammoli vaziyatlarda (stress, nizo, kelishmovchiliklar) u o‘zini nazorat qila olmaydi va jinoyat sodir etishi mumkin.

*Isterik psixopatlar.* Oilada bolani haddan ziyod erkalash, uning barcha istaklarini bajarish, uni oshirib maqtash, uni adekvat baholamaslik bu boladan isterik shaxs shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bunday shaxslarda egoistik tendensiyalar yuqori bo‘lib, ular birovlardan doimo maqtoov eshitishni yaxshi ko‘radilar. O‘zlarini ko‘rsatishni, xammaning ularga e’tibor berishlarini yoqtirishadi. Ko‘pincha yolg‘on gapirishadi. Isterik kulgi (baland ovozda, e’tiborli, kuchli kulgi) va ovoz chiqarib yig‘lash ularga xos. Hayotdan ko‘p noliydilar. Bunday shaxsda infantillik yuqori bo‘lib, o‘z-o‘zini tanqid qilish xususiyati shunchalik past darajada bo‘ladi.

*Psixoastenik psixopatlar.* Ularda xavotirlanish, qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik yuqori. Har narsaga, hatto arziyas voqealarga ham o‘ta hayajonlanadilar. Ularning hayotiy rejalari real hayotga to‘g‘ri kelmaydi, bo‘lmag‘ur g‘oyalarga yopishib oladilar. Motivlari bir narsada qotib qolgan. Ular o‘zlarini himoya qila olmaydi. Ularning asab tizimi kuchsiz, ular tez charchab qolishadi. Nerv hujayralari kuchsiz, tez toliqadi va bu asab tizimining ishdan chiqishiga, buzilishiga olib keladi. Psixoastenik psixopatlar hammaga, hamma narsalarga shubha bilan qaraydi, ba’zi bir fikrlar xech miyasidan ketmaydi.

*Qo‘zg‘aluvchan psixopatlar.* Ular o‘ta hayajonlanuvchan, ta’sirchan, doimo psixik qo‘zg‘alishda, ba’zan ular da hissiy portlashlar yuz beradi va o‘zlarini nazorat qila olmay qolishlari mumkin. Ular atrofdagilarga nisbatan o‘ta talabchan, o‘ta egoist va o‘zini sevuvchi bo‘lishadi. Odamlarga ishonmaydi va hammadan shubhalanadi. Tez-tez o‘z-o‘zidan disgarmoniya –kayfiyatning tushishi, norozilik holatiga tushib, sababsiz janjal paydo qiladilar.

*Paranooyal psixopatlar.* Ularda “qimmatli g’oyalar” mavjud bo‘lib, ular shu g’oyalarni amalga oshirishda to‘sqinlik qiluvchilar bilan doimo kurashadilar. Aslida esa bu g’oyalar puch, qimmatga ega bo‘lmagan fikrlardir. Ular o‘zlarining “ixtiro” va “ijod” larini yuqori baholaydilar. Ularning intellektual qobiliyatlari tor bo‘lib, real vaziyatni tushunmaydi. Fikrlash qobiliyati bir tomonlama bo‘lib, o‘zining “g’oyasini” tanqidiy tahlil eta olmaydi. Tashkilotlar, rahbarlar ustidan doimo shikoyat xatlar yozishdan charchamaydi.

Umuman olganda psixopatlarga xos xususiyatlar: janjalkashlik, kelishmovchilik, nizo, kuchli agressiya, impulsivlikdir. Psixopatlarning hissiy turg’un emasligi – ularning konfliktlarga va agressiv xulq-atvoriga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, qo‘zg‘aluvchan psixopatlarda:

- 1) ijtimoiy identifikatsiyaning sustligi (o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ya olmaslik);
  - 2) refleksiya qobiliyati (o‘z kamchilik va yutuqlarini ko‘ra olish);
  - 3) empatiya (birovning hissiy holatini sezish va unga hamdard bo‘la olish)
- qobiliyatining yo‘qligi og‘ir jinoyatlarga olib keluvchi sabablardan hisoblanadi.

Psixopatlarda ruhiy zo‘riqish va deprivatsiyaga nisbatan tolerantlik o‘ta susaygan bo‘ladi. Ular har qanday sharoitda ham o‘z istak-xohishlarini qondirishga intilishlari ham jinoyatga sabab bo‘lishi mumkin. Psixopatlarda oliy his-tuyg‘ular rivojlanmaganligini barcha tadqiqotchilar qayd etadilar. Ularning shaxs xususiyatlarida fuqarolik burchi, ijtimoiy javobgarlik, mas’uliyat kabi sifatlar yetishmaydi. Ammo maqsad shakllanishida va maqsadga yetishda quyi his-tuyg‘u, ehtiyojlar yetakchi rol o‘ynaydi. Ozgina muvaffaqiyatsizlik ham ularda agressiv holatga olib boruvchi affektivlik paydo qiladi, o‘z-o‘zini boshqarish keskin pasayib ketadi. Kriminal xulq-atvoriga sabab bo‘luvchi biologik omillardan genetik anomaliyalardan biri - Klaynfelter sindromi hisoblanadi (“x” yoki “u” xromosomalardan birining ortiqcha bo‘lishi). Bunda ortiqcha X- xromosoma yuqori darajadagi agressivlik bilan aloqador bo‘lsa, ortiqcha U- xromosoma maqsadga erishish, xulq-atvorni irodaviy boshqarish sohasidagi anomaliyalar bilan bog‘liq hisoblanadi. Biologik-genetik anomaliyalarning o‘zi kriminal xulq-atvoriga sabab bo‘lmaydi, balki bu omil ijtimoiy salbiy omil bilan qo‘shilib kelsa, kriminal xulq-atvoriga sabab bo‘lishi mumkin. Jumladan, agressiv shaxs shakllanishida genetik omillar ta’siri mavjud bo‘lishi

mumkin. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni qanchalik past darajada kechgan bo'lsa, unda *agressivlik* darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Xavotirlanish darajasi yuqori, impulsiv shaxslarda stressorlarga qarshi himoya kuchsiz shakllangan bo'ladi. Bu esa shaxsning nizoli vaziyatlarda, kelishmovchiliklar, salbiy psixologik muhit mavjud bo'lgan vaziyatda o'zini tuta olmasligi atrofdagilarni haqorat qilishi, urushishi, umuman qonunbuzarlik holatlarini sodir etishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jinoyatni o'rganishda tizimli yondashuv darkor, bunda asosiy holatlarga:

Huquqbuzarning shaxsini o'rganishda jinoiy hulq-atvor va uning shakllanishiga asosiy e'tibor;

Jinoyatchining ijtimoiy muhiti bilan birgalikda o'rganish (u yashagan va ishlagan joyi, mehnat jamoasi va h.k);

Ayniqsa, shaxsni o'rab turgan mikro muhitga asosiy e'tibor qaratilmog'i lozim bo'ladi.

---

## KASBIM-FAXRIM

*Mansurov Iskandarbek Abdullo o'g'li  
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 36-maktab psixologi*

*Sayyoramizning ertangi kuni farovonligi farzandlarimiz  
qanday inson bo'lib kaolga yetishi bilan bog'liq. **Sh. M. Mirziyoyev***

Yurtboshimiz aytganlaridek kelajak yoshlarimiz qo'lida shunday ekan yurtimizga, xalqimizga foydasi tegadigan munosib kadrlarni tayyorlash jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Tanlangan kasbkishini bir-umrlik hamrohi hisoblanadi. Shuning uxhun kasb tanlashdagi o'smirlarning savollariga javob topishda yordam berib boorish lozimdir.

Kasb tanloviga qo'yiladigan talabalarga quyidagilar kiradi.

1. Umumta'lim maktablarida berilayotgan ta'lim darajasidagi bilimlarga ega bo'lish.
2. Kasb tushunchasining ta'rifini, uning tabiatini, xususiyatlarini, sonini va turlarini bilish.
3. Kasbning inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.
4. Kasb tanlash uchun idrok etilgan xohishning mavjudligi.

Kasb- ma'lum darajada tayyorgarlikni talab etadigan davlatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, bajaruvchiga iqtisodiy foyda keltirishi imkoniyati mavjud bo'lgan alohida faoliyat turidir.

Kundalik faoliyatimizda kim bilan muloqot qilsak yoki tanishsak har doim bizni “Kim bo'lib ishlaydi?” - degan savol qiziqtiradi. Yoki biror inson bizda havas uyg'otsa uning kasbi nima ekanligi qiziq tuyiladi. Bularning hammasi bejiz emas. Har qanday shaxs hayotning xotirjamligi va moddiy farovonligining asosi uning kasbidir. Demak har qanday inson o'zining hayoti davomida muvaffiqiyatlarga erishishni xohlasa, to'g'i tanlangan o'z kasbining egasi bo'lishi kerak. Faqat muvaffaqiyatni xohlamagan befarqlar uchungina kasb tanlash muhim tuyulmaydi. Har qanday muvaffaqiyatga erishganlar o'zining kasbidan faxrlanishi shart. Buning uchun kasbining nima ekanligi yuzaki emas, chuqur his qilgan holda tushunib olish talab etiladi.

Har kim o'z hatti-harakatlarini amalga oshirishda erkindir, faqat bunday erkinlik boshqalarning huquqlarini poymol etmasa bo'lgani. Kasb tanlashda esa erkinlikni jamiyat beradi, boshqacha qilib aytsak siz jamiyatning mehnat bozorida mavjud bo'lgan kasblardan birini tanlashingiz zarur bo'ladi.

Bitiruvchi sinf o'quvchilaridan “Qiziqishlar xaritasi”, Kasbiy faoliyatning asosiy motivlarini aniqlash usuli”, “O'quvchilarning kasbga yo'nalganligi aniqlash savollar to'plami”, “Shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash”, “Qaysi kasbga mosligingiz bilasizmi”, “Qobiliyatni aniqlash” metodikalarini o'tkazish bilan o'quvchilarni qanday kasbga moyilligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Har bir shaxs o'z-o'ziga “kelajakda men kim bo'laman” degan savolni bergan. Ushbu savolni chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, u bir qator kichik savollarni o'z ichiga qamraganligini bilamiz. Jumladan “Men nimaning hisobiga yashayman?”,

“Qanday tarzda yashayman?”, “Farovon hayotga qanday erishiladi?” vahokozo. Shu kabi savollarga maktab bitiruvchilari javobining to’liq shakillangan bo’lishi qanchalik muhim ekanligi barchamizga ayon.

Shaxning qiziqishi va qobilayatini aniqlashda aynan uning o’zi asosiy belgilovchi qarorni qabul qilishi shart. Agar masala maktab bitiruvchilari unda 15-16 yoshli o’quvchida kasb tanlash sohasida tajriba yetmaydi degan fikr keltirilishi mumkin.

Nima qilmoq kerak? Har qanday ijobiy fikr yashashga haqli. Shu o’rinda bir fikr: agar o’quvchi o’zining qiziqishi va qobiliyatlariga mos kasbni mustaqil tanlasa yuqori samaraga erishish imkoniyati mavjud deb hisoblasak, unda ularga bunday tanlovni amalga oshirish va bu sohada mustaqil qaror qabul qilishlari uchun zarur bo’ladigan xatti-harakatlarni o’rgatishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi.

Kasbni tanlash ayniqsa qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofdagilar ko’z o’ngida o’zini ifoda etishni va hayotda o’z o’rni, qadr-qimmatini topishini xohlagan imkoniyatlarini yuqori baholashga moyil bo’lgan o’quvchilarga xos jihatdir.

Farovon hayot kechirayotgan shaxslardan qanday erishganlariklari bilan qiziqib ko’ring, ularning javobi bitta bo’ladi: bilim, mehnatsevarlik va tirishqoqlik.

Hayotda norozi bo’lganlardan so’rang, qanday qilib shunday holatga tushib qoldilar? Ularning javobi ming xil so’zdan tashkil topsada lekin ularning orasidan yuqoridagi uchta so’zni topish amrimaholdir.

Birinchi fazilat bilimga chanqoqlikning namoyon bo’lishi uchun “zaruriy” shart tegishli bilim manbalarning mavjudligidir.

Ikkinchi fazilat mehnatsevarlikni namoyon etish uchun qanday shart bajarilishi kerak. Mehnatsevarlikning ro’yobga chiqaruvchi “zaruriy”shart ruhiy ilhomlanishdir. Ruhiy ilhomlanish insonga qanot bag’ishlaydi, ulg’laydi, yuksaklikka ko’taradi, shon-sharaf keltiradi.

Uchinchi fazilat tirishqoqlik namoyon bo’lishi uchun qanday “zarur” shart bajarilishi kerak? Tirishqoqlikni ro’yobga chiqarish uchun shart va sharoitlar haqida gapirish ancha jiddiy masala. Tirishqoqlik biror ishni amalga oshirayotganda, toki u muvaffaqiyatli natijaga erishgunga qadar shaxs tomonidan ushbu ishni bajarishga ko’p marta urinishdir.



Shu o'rinda quyidagi rivoyatni aytib o'tishni joiz deb bildim.

Shukrona va baxt. Bir kuni tuproq yo'ldan ketayotgan sayyoh, quyosh tikka tushib turgan joyda xarsang toshni yo'nayotgan odamni ko'rib qoldi. U tosh yo'narkan, achiq-achiq ko'z yosh to'kardi. Sayyoh undan nima sababdan yig'layotganini so'radi. U dunyodagi eng baxtsiz odamligini, ishi esa dunyodagi eng og'ir ish ekanligini aytdi. U har kuni katta toshlarni yo'nishga majburligini, evaziga esa arzimagan xaq to'plashini, bu pul qorin to'ydirishga arang yetishni aytdi.

Sayyoh indamasdan, unga tanga berib, yo'lida davom etdi. Sayyoh keyingi muyilishda yana bir kishini ko'rdi. U ham katta toshni yo'nar, lekin yig'lamas, biroq butun diqqat e'tiborini ishga qaratgan edi. Sayyoh undan ham nima qilayotganini so'radi. Tosh yo'nuvchi ishlayotganini, har kuni shu joyga kelib, tosh yo'nishni aytdi. Bu og'ir ishligini, lekin u shu ishning borligidan ham, xursand ekanligini, mehnatiga to'lanayotgan pul esa, oilasini boqishga yetib turgani haqida mamnuniyat bilan so'zladi.

Sayyoh uni maqtab, ikki tanga berdi-da, yo'lida davom etdi.

Keyingi muyilishda sayyoh yana bir tosh yo'nuvchiga duch keldi. U havoning issiqligiga qaramay toshni yo'narkan, sho'x, quvnoq bir qo'shiqni hirgoyi qilardi. Sayyoh ajablanadi.

- Nima qilyapsan? – so'radi u. Tosh yo'nuvchi boshini ko'tarib unga qarardi. Shunda sayyoh uning baxtiyor yuzini ko'rdi.
- Ko'rmayabsanmi? Men baxtiyorman. Chunki, men baxtli odamlarning uyiga ustun yasayabman,- deb javob berdi, tosh yo'nuvchi...

(“Ajdodlar o'giti” kitobidan) Jaloliddin Rumi.

Xulosa qilib aytsak, omadli bo'lish farovon hayot kechirish uchun

- Egallangan kasb nafaqat trikchilik, balki ijod manbai bo'lishligini;
- Bilimni oshirish, bilimsiz hayot mazmunga ega emas, kitob o'qish kerakligini;
- Kichik maqsadlar emas, oldimizga katta maqsadlar qo'yishlikni;
- Tanlangan kasbingizni egallash uchun vaqt va kuch talab etilishini, lekin bu sarflar o'zini beqiyos darajada oqlashini qiziqishni va qobiliyatingizga mos kasbini tanlash lozimligini u kasb egasiga ulug'lik, ma'mnuniyat va farovonlik keltirishni o'z shaxsiy fikrini har doim to'g'ri qo'llay olishni o'rgatishdan iboratdir;

Hurmatli bitiruvchilarimizga o'quvchi yoshlarimizga to'g'ri kasb tanlashning dastlabki, ko'nikmalarini shakillantirish lozim.

Ko'pchilik o'quvchilar kasbni atrofdagi yaqinlari ota-onasi aka-opalari, qarindoshlarining kasb-koriga qarab tanlaydilar, lekin barcha ham kasbni oson tanlay olmaydilar. Buning uchun nima qilish darkor biz psixologlar doimiy pedagogik jamoa bilan maktab psixologlari bilan birgalikda kasbga oid tadbirlar tashkil etish. Kichkina guruhlarda ham kasblar turlari haqida faoliyati, yo'nalishi, kelajakdagi mavqei haqida ko'plab ma'lumotlarni berish lozim. Ommaviy axborotlardan internetlardan, kasbga oid kitoblar bilan o'quvchilarni ta'minlash kerak. Eng muhimi o'quvchi kasbini qiziqishiga ko'ra tanlashi lozim.

Yosh ota-onalarga shunday maslahat bergan bo'lardim, farzandining kasbga oid ko'nikmalarni kichik (3-7) yoshligidan shakillantirish, ya'ni kasbga oid o'yinchoqlar bilan ta'minlash, masalan shifokorlik anjomlari o'yinchoqlar majmuasi, harbiylar uchun harbiylar o'yinchoqlarini yoshligidan olib berish lozim. Kasbga oid savollariga doim javob berishlari darkor. Ana shundagina farzandlarimiz bizdan ko'ra baxtli, kuchli bo'lib rivoj topadi.

---

## **KASBIY STRESSNI YUZAGA KELISHIDAGI PSIXOLOGIK VAZIYATLAR**

*Mansurov Iskandarbek Abdullo o'g'li  
Andijon viloyati Paxtaobod tumani 36-maktab psixologi*

Izchil tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, zo'riqib ishlash tufayli paydo bo'lgan toliqish, u xoh ruhiy, xoh jismoniy bo'lishidan qat'iy nazar u xatti-harakatlarning tezligi va aniqligi, kuch va chidamlilik, mehnatning sifatiiy hamda miqdoriy natijalari, xatoliklarga ta'sir qiladi. Shu sababli, ishlash qobiliyati, kasbiy yaroqlilikni aniqlash yo'lida olib boriladigan ilmiy izlanishlar inson salomatligi va farovonligi hamda ish

bajarilishining samaradorligiga ta'sir etuvchi stress, jismoniy zo'riqish, zerikish va boshqa salbiy asoratlarni kamaytirishga qaratilgandir.

Ishning samarali bajarilishi uchun sharoit yaratish mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, inson omillarining muhandisligi, kasb psixologiyasi yoki ergonomikada asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Mehnatning unumdorlik masalasi tadqiqotlari, mehnat unumdorligini oshirish va toliqish, baxtsiz hodisalar miqdorini kamaytirish maqsadida, mehnat faoliyatini loyihalashtirish borasidagi yutuqlarga o'z hissasini qo'shadi.

Ushbu sohaning asoschisi hisoblangan, yuqorida aytilgan izlanishlarni boshlagan **F.Taylor** ta'kidlashicha, ishlash qobiliyatining unumdorligi va samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishga taalluqli barcha vazifalarni izchillik bilan o'rganish zarur. Shuningdek Taylor, xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq kelishlari va ushbu ishlarni ilmiy asoslangan yo'riqnomalarga qat'iy muvofiq ravishda bajarishga o'rgatilgan bo'lishlari lozim.

**Frenk va Lilian Gilbretlar** tomonidan, toliqish bo'yicha olib borilgan boshqa ilk ishlar natijasi sifatida, ish jarayonida zo'riqishni kamaytirishga imkon beruvchi, turli ishlar uchun maxsus kursilar yaratildi. Undan tashqari, F.Gilbret mehnat samaradorligini oshirish, toliqish muammosini hal qilishda, ishchilarning xatti-harakatlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini, o'z izlanishlari orqali ilmiy asoslab bergan. Chunki, yuqorida keltirilgan "Xatti-harakatlarning psixologik tahlili" mavzuida berilganidek, ishchilarning "tabiiy" harakatlari ichida zarur, aql-idrokka asoslangan harakatlar bilan birga xatti-harakatlar ham uchraydi va aynan mana shu tartibsiz, ortiqcha va mantiqsiz harakatlar toliqish sabablaridan biridir. Izlanish natijalaridan xulosa sifatida **F.Gilbret**, xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish va tejamkorlik g'oyasini olg'a surgan edi. Har qanday ishning unumdorligiga, yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari:

- ishning davomiyligi;
- mazkur ish bilan mashg'ul bo'lgan ishchi, xodimlarning psixofiziologik xususiyatlari;
- ishchi va xodimlar holatlarining bevosita ta'siri borligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Olimlar tomonidan smena davomida unumdorlik egri chizig'iga ta'sir etuvchi omillarni ajratish harakat qilingan. Bunday ishlar ichida birinchilardan bo'lib, E.Krepelin tomonidan aqliy faoliyat unumdorligining egri chizig'ini tahlilini ko'rsatish mumkin. 2002 yilda rus psixologi **E.Krepelin** tomonidan mehnat unumdorligi egri chizig'i bog'liq bo'lgan 5 ta omilni ko'rsatilgan:

- Mahorat.
- Toliqish.
- Ishga ko'nikish.
- Rag'batlantirish (stimullash).
- Irodaviy zo'riqish.

Bunda mahorat ish unumdorligini oshirsa, toliqish esa pasaytiradi. Rag'batlantirish mehnat faoliyatiga undaydi, irodaviy zo'riqish esa uni tez-lashtiradi. Dam olish ijodiy quvvat quyilib kelishiga va mahsuldorlikni oshiradi.

1990 yilda esa, **E.A.Derevyanko** uchuvchilar faoliyatini parvoz sharoitida va laboratoriya sharoitlarida tadqiq etib, unumdorlik egri chizig'iga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatgan.

Bular quyidagilardir:

- Tananing mazkur ishga nisbatan maksimal imkoniyatlari.
- Faoliyatning samaradorligi.
- Emotsional-irodaviy zo'riqish.
- Toliqish.

Bu yerda **ishga nisbatan imkoniyatlar** deganda, ishchining psixofiziologik imkoniyatlari, ya'ni mazkur faoliyat turi bo'yicha ko'nikmalari nazarda tutiladi.

Mehnat jarayonida ishchining **emotsional-irodaviy zo'riqish** holati ishning qanday borishini, ya'ni mehnat dinamikasini belgilaydi.

### **Kasbiy stress holati**

**Kasbiy stress** (*occupational stress*) — odamlarning va ular tomonidan bajarilayotgan ish orasidagi o'zaro ta'sirining natijasi bo'lib, bunda insonlarga normal faoliyat ko'rsatishiga halaqit beruvchi ma'lum bir o'zgarishlar nazarda tutiladi.

Kasbiy stressning juda ko‘p individual asoratlari topilgan. Bunday jismoniy o‘zgarishlardan bir qanchasi quyidagilardir: yurak-qon tomir tizimining kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, nafas a‘zolari kasalliklari, rak, artrit, bosh og‘riqlari, tana shikastlanishi, teri kasalliklari, jismoniy zo‘riqish yoki toliqish va o‘lim.

Kasbiy stressga nisbatan ruhiy ta’sirlanishga: xavotirlanish, depressiya, qoniqmaslik, zerikish, somatik darmonsizlik, ruhiy charchoq, tushkunlik va nochorlik bo‘yicha, o‘z o‘ziga past baho berish, boshqalar bilan aloqaga kirishishdan qochish, psixozlar, qahr-g‘azab, shaxsiy tuyg‘ularini ichida saqlash va diqqatini jamlashga qurbi yetmaslik kabi shikoyatlar ham ichiga kiradi.

Kasbiy stressning xulq, fel-atvorda quyidagi asoratlari kuzatiladi: shifokorlarga murojaat qilish, dori-darmonlarni qabul qilish va ba’zida keragidan ortiq dori iste’mol qilish, qattiq emotsional ta’sirlanish, yoki buning aksini, befarqlilik, imo - ishora va yurish-turishning asabiyligi, xavfli xatti-harakat, tajovuzkorlik, qo‘pollik, o‘g‘rilik qilishga moyillik, odamlar bilan yomon munosabat, suitsidal urinishlar yoki suitsid.

Ammo shuni ham ta’kidlash muhimki, konkret o‘zgarish, ta’sirlanishga taalluqli ma’lumotlar umuman olganda yetarli emasdir. Shuning uchun, quyidagicha xulosa qilish to‘g‘ri bo‘lardi: kasbiy stress odamning farovon hayotiga ziyon yetkazishi mumkin, ammo aynan mana shu salbiy ta’sir o‘zini qanday namoyon qilishi, noma’lum bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, har xil tipdagi odamlar, ta’sir kuchi jihatidan bir xil bo‘lsa ham, ularning kasbiy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan stressorlar, ya’ni stress holatini qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan har xil ta’sirlanadilar.

Kasbiy stresslarning **manbalarini 3 ta asosiy kategoriya, mezonga ajratish mumkin:**

a) tashkiliy tavsiflar va jarayonlar;

b) mehnat shart-sharoitlari va shaxslararo munosabatlar;

v) ish tomonidan qo‘yiladigan talablar va rollar bo‘yicha tavsiflar.

**Tashkiliy tavsiflar** ichida stresslarga taalluqlilariga:

- yuqori darajadagi markazlashuv,
- qog‘ozbozlik va ixtisoslashuv, shuningdek,
- tashkil etishning katta hajmliligi,

- xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishning murakkabligi hollari kiradi.

**Shuningdek, stressning manbalari** deb, quyidagi hollar ham hisoblanadi:

- mehnatga haq to‘lashning tengsizligi,
- xodimlarni tez-tez joyini o‘zgartirilishi,
- fikr almashishning juda kamayib ketishi,
- ishlab chiqarish vazifalarining aniqmasligi yoki qarama-qarshiligi,
- smenali ish,
- bajarilgan ishga nisbatan noto‘g‘ri qaror qabul qilish va h.k. vaziyatlar.

**Ishlab chiqarish stressorlari** deb esa, mehnatning quyidagi shart-sharoitlari hisoblanadi:

- tiqilinchlik,
- yolg‘iz qolishning imkonsizligi,
- yuqori darajadagi shovqin,
- haroratning pastligi yoki aksincha balandligi,
- yoritilganlikning yetarlicha emasligi,
- ko‘zni qamashtirgudek yoki lipillab turuvchi chiroq,
- havoni ifloslantiruvchi zaharli kimyoviy mahsulotlar yoki boshqa narsalar.

Shuningdek,

- o‘zaro hurmat,
- xayrixohlik va ishonch yo‘qligi,
- raqobat va ziddiyatlar kabi shaxslararo munosabatlar ham stressni yuzaga

kelishiga olib keluvchi sabablar deb hisoblanadi.

**Ish tomonidan qo‘yiladigan talablarga** taalluqli ehtimoliy stressorlarga:

- ishning bir xilligi,
- ishni qisqa muddatda bajarilishi kerakligi,
- malakaga past talablar,
- odamlar uchun javobgarlik,
- xodimlarning to‘liq bo‘lmagan yoki aksincha ortiq darajada ish bilan

ta‘minlanganligi.

Hozirgi kunga kelib ish faoliyatida xodimlar bajaradigan rollarini o'rganish natijasida, rolli ziddiyatlar, noaniq yuklamalar va kasb faoliyatiga mos kelmagan talablarning barchasi asosiy stressorlar sifatida tan olinmoqda.

## **ART-TERAPIYANING ERTAK TERAPIYA USULI ORQALI BOLAGA TA'SIR ETISH YO'LLARI**

*Narzilloeva Nodira Nasilloevna*  
*Buxoro viloyat Romitan tuman 41-IDU maktab psixologi*

Atrof muhit muhofazasi nafaqat, davlat, jamiyat, balki har bir fuqaroning vazifasidir. SHunday ekan maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalarning bolalik davridan atrof-olamni anglash, uni muhofaza qilish, atrof-olamga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, atrof muhitni iflos qilmaslik haqida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilangan vazifalar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilashda, atrof-olamga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ongli idrok qilish, borliqni xis qilishda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni avvalo oiladan boshlab maktabgacha ta'lim muassasalarida davom ettirishni taqozo etmoqda.

Kengroq mushohada yuritadigan bo'lsak, millat barkamolligi, Vatan taraqqiyoti farzand tarbiyasi bilan bog'liqdir. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda u mustaqillikka o'rgatib boriladi. Endigina tetapoya qilib qadam qo'yishni, yurishni o'rgangan bola qo'lini qo'yib yuborishni xohlaydi. Tili chiqib gapirishni o'rganishi bilan "Men kattaman" deydi. Bolaning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan erkinlikni chegaralanishi o'z navbatida ota-onalar uchun ham ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam

hisoblanib, juda tez o`shish, rivojlanish va o`zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Ertakterapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir.

Ertakterapiya atrof-muhit bilan o`zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to`g`rilashda foylaniladigan usuldir.

Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz, uningichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilib beramiz, xayolini o`stiramiz.

Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg`usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo`lmasin, yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko`radi. Barcha sinovlardan mufaqqiyatli o`tgan, o`zining barcha ijobiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo`ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko`rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo`lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi.

Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: "Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g`am-tashvishi uchun qayg`urish, o`zganing shodligi uchun xursand bo`lish, begona insonning taqdirini xuddi o`ziniki kabi boshdan o`tkazish kabi insoniylikni qanday bo`lmasin tarbiyalashdan iboratdir". E'tibor bering-a, bu yerda ikki insonning o`zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g`amxo`rlik qilishi haqida gap bormoqda.

Ertaklarga o`z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar murojaat qilganlar. Ertaklardan bolalar adolat va adolatsizlik haqida o`zlarining ilk tasavvuriga ega bo`ladilar. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg`urishgamajbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to`qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi.

Aynan xotira bilan uyg`ulashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to`g`ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xattiharakatlarini misli ko`rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba'zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o`zidir. Hayotda boshi berk ko`chalar bo`lmaydi. Ko`pincha inson shunchaki, ulardan chiqib ketishga tayyor bo`lmaydi.

Ertakterapiya bolaga nima beradi?



1. Ertakterapiya yordamida xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko'ngil xotirjamligiga erishiladi.

2. Bola o'zgaralar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o'z xatti-harakatlarida qo'llashni o'rganadi.

3. Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatiladi.

4. Ertakterapiya kattalarga ham o'z fobiya, qo'rquvlarini yengishga yordam beradi, ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi.

Ko'pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo'lib, bu aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg'aytiradi.

Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo'lsa, samarasi yaxshi bo'ladi.

Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1. Bu ertak nima haqida?

2. Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o'xshaydilar?

3. Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?

4. Bosh personaj qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi? Buni uning o'zi uddalaydimi yoki unga bu ishda kimdir yordam beradimi?

5. Qahramonlarning xatti-harakatlari atrofdagilarga nima beradi – quvonchmi, qayg'umi? Qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday?

6. Ertak, uning ayrim qismlari qanday tuyg'ularni uyg'otadi?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o'stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo'qotib, o'ziga ishonchni orttiradi. N.L. Kryajeva qizg'anchiq, egoist bolalarga – “Baliqchi va baliq” haqidagi ertakni, qo'rqqoq bolalarga – “Qo'rqqoq quyonlar: haqidagi ertakni, ishonuvchanlariga „Buratinonaning sarguzashtlari”ni, qaysar bolalarga “No'xat ustidagi malika” ertagini, tinib-tinchimas bolalarga esa “Etik kiygan mushuk” ertagini aytib berishni taklif qiladi.

Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o'zimizning o'zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi.

“Zumrad va Qimmat”ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, “Ur to'qmoq” ertagi yolg'onchilikka, “Susambil” ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana

ko'plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bola qalbiga ezgulik urug'ini sochadi.

1-1,5 yoshdagi bolalar uchun ertak mazmuni tushunarsiz bo'lishi mumkin, lekin ertakdagi “bobo”, “buvi”, “sichqoncha” kabi so'zlar biroz tanish bo'lib, bu ertakni bola uchun qiziqarli qiladi hamda uyqu oldidan aytib berish uni tinchlantiradi. 3yoshdan keyin bolada obrazli tafakkur shakllana boshlaydi, u endi tasavvur qila oladi. Ularga endi murakkabroq mazmundagi sehrli ertaklarni taklif qilish mumkin.

Ota-onalarga maslahatlar:

1. Ota-onalar farzandiga ertakni o'qib emas, balki aytib bersalar maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ota-onaga dilbandining ertakga qanday munosabat bildirganligini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, ota-ona farzandi bilan birgalikda ertaklar olamiga sayr qiladi, bu esa bolaning unga yolg'iz sayohatidan ko'ra avzaldir.

2. Bolalar o'zgaralar tomonidan tasvirlangan obrazlarni yaxshiroq qabul qilish qobiliyatiga ega.

Shuning uchun farzandingizga ertak aytib berish chog'ida unda yozilgan barcha manzaralarni tasvirlab berishga harakat qiling.

3. Bolangizga ertakni o'zi tanlash imkonini bering. Agar u o'n martalab “Qizil qalpoqcha” haqida eshitishni xohlasa, demak bu bekorga emas. Bu ertak uning ongi shakllanishiga nimadir bermoqda, unda qandaydir jarayon sodir bo'lmoqda.

Ertak-terapiyaning maqsadi va vazifasi bolalardagi aggressivlik kayfiyatini yo'qotish, o'z-o'zini emotsional boshqarish va o'zgaralar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdir. Buning uchun ertak terapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo'lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo'lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishlash yo'llaridan foydalaniladi.

Har bir bolabir yoki boshqa ertakni o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda kata ta'surot qoldiradi, boshqasi esa uning his-tuyg'ularini qo'zg'atmay, yonidan o'tib ketadi. Lekin bu “Hayotiy vaziyatlar daftarchasi yana bir katakchaga ko'paymadi” degani emas, u shunchaki bola bu kabi muammoga, masalan, kuyov va qaynona, kelin va qaynona o'rtasidagi tanlov muammosi, biror bir muhim va aziz narsasini yo'qotish yoki o'g'irlatish va hokazolarga duch kelmaguncha ta'sir kuchiga ega bo'lmaydi.

Ertak nafaqat insonning ongiga, balki ongostiga ham ta'sir qiladi, „ajdodlar xotirasi”ga yoki genetik xotiraga tayana olar ekan, syujetning murakkabligidan qo'rqish kerak emas. Xatti-harakatdagi emotsional salbiy o'zgarishlarni to'g'rilashga qaratilgan ertaklarda syujetni chuqur anglash emas, balki insonlarning o'zaro munosabatlarini, ularning ko'rsatgan qahramonliklarini, u yoki bu tanlovning natijasini, o'zining ma'lum bir vaziyatga shaxsiy munosabatini, o'zining shaxsiy hayoti bilan o'zaro aloqalarini voqea va qahramonliklari yordamida eshitayotgan, o'qiyotgan insonning qalbidadir. Buni

hisobga olish zarur, zero ko'p holatlarda ota-onalar o'zlarining shaxsiy qo'rquvlarini bolaning qo'rquvi deb ta'kidlaydilar. Hayotiy qo'rquv kabi o'lim oldidagi qo'rquv ham nafaqat bolalarga, aksincha, bolalardan ko'ra, ko'proq ota-onalarga xos bo'ladi. Shu bilan birga bu hayotda o'z o'rmini topmaslik qo'rquvi, turmush o'rtog'ini yo'qotish oldidagi qo'rquv, oilaning buzilishidan qo'rqish, ishda obro'-e'tiborga ega bo'lmaslikdan qo'rqishdi. Bu siz bilan bizning qo'rquvimiz, ularni bolalarimizniki deb hisoblash kerak emas. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o'yinlar, o'yinchoqlar bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san'at yordamida ham to'g'rilasa bo'ladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir.

To'g'ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko'plab muammolar – qo'rquv, injiqlik kabilarni yo'qotish, bolada qat'iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo'llamay, balki oila davrasida muntazam qo'llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini o'tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim. Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish (metodik majmua).
2. Стрелкова Л.П Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст.
3. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст.

---

## **O`SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BO`LGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Asila Oxunjonovna Majidova*  
*Andijon viloyati Baliqchi tumani 3-maktab psixologi*

O'smirlik 10-11 Yoshlardan 14-15 Yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan,

5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga etish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi Bu Yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Bo‘yga o‘sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o‘ssalar, o‘g‘il bolalar 5-10 sm o‘sadilar. Bo‘yiga karab o‘sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro‘y beradi.

Og‘iz bo‘shlig‘i va halqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o‘zgaradi. Bu o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘prok darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminrok bo‘lib qoladi, do‘rillaydi.

Garchi bu davrda mushaklar tez sur‘at bilan o‘ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur‘ati orqada qoladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning beso‘naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo‘pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo‘ladi.

Fiziologik o‘zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo‘ladi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi. Ko‘krak qafasi ham gavdaning bo‘y o‘sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o‘smirlarning elkasi, ko‘kragi tor bo‘lib qoladi, bu esa o‘z navbatida kislorod

etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smirda ba'zi qon bosimining ortishi ro'y beradi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «o'tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu Yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta Yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining Yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar.

O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, Shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda

o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda katta Yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta Yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta Yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epcil bo'lishga intiladi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini

xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev E. G'. Ontagenez psixologiyasi.-T.:Noshir.2010.
2. Maxsudova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. T.:TDPU,2004.
3. Radugina A. A. Pedagogika I psixologiya.M., 2007.
4. Shermuhammedov S, Ochildiyev A Madaniyat va sivilizatsiya. Farg'ona:2000.

---

**VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR XULQIDAGI NUQSONLARNI  
KORREKSIYALASH – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Sultonova Nazokat Amonovna  
Buxoro viloyat Shofirkon tuman 21 maktab psixologi*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga ko'ra voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish, jinotchilik va jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq choralar belgilangan bo'lib, bu jinoyatchilikni oilaviy munosabatlar va shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari tizimidagi o'zaro uzviy aloqasi doirasida o'rganishni taqazo etadi. Delinkventlar va ijobiy xulqli o'smirlarning oila sharoiti o'rganilganda, delinkventlarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Jinoyatchilikning kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatishicha, ikki o'zaro bog'liq omil orasidagi; a) funksional yoki xulq-atvorga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ta'sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar va b) bevosita ta'sir qiluvchi, o'zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jabhalarni ajratish mumkin. Ma'lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o'ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o'rin tutadi va bu

bolaning ijtimoiylashuviga taʼsir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, delinkventlar va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari oʻrganilganda, ota-onaning kayfiyatiga koʻra, koʻp hollarda qattiqoʻllik, jazolash, ota-onalik mehrining —tansiqliligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Biroq bu gʻayri ijtimoiy rivojlanishga sabab boʻluvchi tarbiya usullari haqiqiy baholash mezonini uchun toʻliq asos boʻla olmaydi. Tarbiya taʼsirining uzluksizligi, usuli va uning mohiyati atrofdagi maʼlumotlarni umumlashtirib, ayrim yondashuvlarda jazo va ragʻbat usullari samarali ekanligi, kuch ishlatishdan koʻra, kattalik mavqei kuchi, jismoniy kuch ishlatish yoʻli bilan jazolash, tanqid va qoʻrqitish, moddiy manfaatlardan mahrum qilish, mehr tanqisligi, jismoniy kuch ishlatmay turib bolaning xulq-atvori boshqalar uchun keltirishi mumkin boʻlgan zararni xaspoʻshlash orqali tushuntirish kabilarning quvohi boʻlishi mumkin. Delinkvent xulqli farzandi bor oila aʼzolarining oʻzaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilar koʻproq koʻzga tashlanadi. Longityud tadqiqotchilarning koʻrsatishicha, ota-ona orasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, oʻzaro xusumat, shuningdek, mustahkam boʻlmagan nikoh delinkventlar xulqida yoshligidanoq oʻz asoratlarini koʻrsatadi. Jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy ijtimoiy nuqsonlar kuzatiladi. Bunday ota-onalar oʻz farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam eʼtibor beradilar. Ayni vaqtda farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi va hakazo. Ushbu holatlarga sof psixologik nuqtai nazardan eʼtibor berilsa, har qanday huquqbuzarlik, har qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqin qilinib, unda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va oʻziga xos qonunbuzarlik shaklida ifodalanuvchi uning psixik holati, shaxsning motivatsion jabhasi, individual-psixologik sifatleri, psixikasining xususiyatlarini, subektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida oʻz ifodasini topadi.

G. Toʻlaganovning fikricha, baʼzi hollarda ayblanuvchilar oʻz ayblarini bilsalar-da, lekin harakatlarining asl mohiyatini berkitishga yoki oqlashga uringan holda (fazilatli) motivlarni oʻzlashtirib olishga harakat qiladilar – bu oʻziga xos psixologik muhofaza mexanizmining bir koʻrinishidir. Shuningdek, jinoyatchilar oʻzini-oʻzi baholashning ikki jihati mavjud boʻlib: a) oʻzi uchun (—meniga xos), b) oʻzgalar va atrofdagilar, shu jumladan odil sudni chalgʻitish, jazolash usullarini yumshatish maqsadidagi (ideal



—meni uchun) axloqiy-psixologik funksiyani ko`rish mumkin. Qayta tiklangan ehtiyojlarning jinoiy xulq-atvorga o`tishida aniq hayotiy vaziyatning o`rni beqiyosdir. Chunki subekt hayotiy vaziyatdan foydalanishdan harakat qilish bilan birga mavjud —faoliyatning ichki shart-sharoitlarini o`zgartiradi. Biz motivatsiyaning bu jarayonida o`ziga xos uchlikni —ehtiyoj, shaxsiy manfaat-vaziyatni ko`rishimiz mumkin. Bu uchlikning o`zaro uyg`unligida faoliyat motivi —vaziyatga xos rivojlanuvchi motivatsiya tarzida shakllanib boradi. Ushbu holat – kriminogen vaziyat deyiladi. Motivlarning shakllanishida, maqsad qo`yishning psixologik mexanizmlari katta ahamiyatga ega. Harakat maqsadi motivlar bilan o`zaro solishtirilganda, uning o`z predmetiga egaligi yaqqol ko`zga tashlanishi tufayli farqlanadi. Shaxsning ehtiyojlari, intilishlari, qiziqishlari va motivlari uning faoliyati maqsadlari bir-biriga bog`liqligi bilan uyg`unlashadi. Shunday qilib, jinoiy xulq-atvor mexanizmlari tahlilida quyidagi omillar: subektga xos individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlar, uning dunyoqarashi, qadriyatlari, yoshlarning kriminogen vaziyatga tushguniga qadar yashagan ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo`shishga qodir, jismoniy va ma`nan yetuk avlodnikamolga yetkazishda alohida e`tibor qaratilmoqda. Bu ezgu-maqsadlar Prezidentimizning —Farzandlarimiz bizdan ko`ra bilimli, - kuchli, dono va albatta, baxtli bo`lishlari shart!! degan so`zlarida mujassamdir.

Asosiy qonunimizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar davlat himoyasida ekanligi ta`kidlangan. Jinoyat va jinoiy protsessual qonunchiligida ham ularning ijtimoiy, ruhiy, fiziologik xususiyatlari e`tiborga olinib, ular tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarga baho berishda muayyan imtiyoz va yengilliklar berilgan. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarga katta ishonch bildirilgan va ularning chuqur bilim olishlari, komil inson bo`lib ulg`ayishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ammo guruch kurmaksiz bo`lmagani kabi, ana shunday yuksak e`tibor mohiyatini anglab etmayotgan yoshlarimiz ham uchrab turibdi. O`smir nega jinoyatga qo`l uradi? Buning asosiy sabablaridan biri oiladagi nosog`lom muhitga borib taqaladi. Shuning uchun ham har bir ota-ona farzand tarbiyasiga alohida mas`uliyat bilan yondashmog`i lozim. Zero, jinoyat uchun jazo muqarrarligi - butun dunyoda tan olingan tamoyil. Jazo mahkumni axloqan

tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llanadai. Jazo tizimida ayrim toifadagi shaxslar uchun nazarda tutilgan yengilliklar esa, eng avvalo, tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'smirlik davrida yengil-yelpi, o'ta emin-erkin hayotga o'rgangan shaxslarda, asosan bezorilik va firibgarlik bilan bog'liq xatti-harakatlar ko'p uchraydi. Bu o'zboshimchaliklarning vaqtida oldi olinmas ekan, ulg'ayganida ular katta —ishllarga ham qo'l urishi turgan gap. “Ko'chat niholligida egiladi, bola yoshligidan tarbiyalanadi”, deyishadi.

Xalqimizga xos bag'rikenglik - qonunlarimizda ham o'z aksini topgan. Misol uchun, Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarning javobgarligi alohida bo'limda berilgan. O'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga kodeksda belgilangan 8 turdagi asosiy jazodan faqat ma'lum qismi qo'llanishi mumkin, qo'shimcha jazolar tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda voyaga yetmaganlarga tayinlanishi mumkin bo'lgan jarima miqdori, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining muddati qisqartirilgan. Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatga qo'l urgan, ehtiyotsizlik oqibatida yohud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi. Xususan, sudlar voyaga yetmagan shaxsning ishini ko'rishda uning shaxsini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga jismoniy rivojlanishi va salomatligini, yashash sharoitini, o'sayotgan muhiti, oilasi va atrofdagilarga munosabatini, tarbiyasini, jnoyat sodir etish katta yoshdagilarning ta'siri bor-qo'yiligini aniqlashlari zarur.

Farzandi sog'lom, har jihatdan komil inson bo'lib ulg'ayishini kim ham istamaydi deysiz. Shu ezgu maqsad yo'lida jamiyatimizdagi barcha kuch va imkoniyatlarni muvofiqlashtirish lozim. Zero, yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish yurt va millat kelajagi to'g'risida qayg'urmoq demakdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O'quv metodik qo'llanma TDPU. 2004.
2. Karimova V.M. Psixologiya. T.2004 y.
3. Raxmatullaev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.– 2001.

## IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

*Rustamova Hurriyat Abdullayevna*  
*Farg'onaviyoyati Beshariq tumani 5-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy-psixologik muammolar, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik holatlari va ularni oldini olish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy xulq, emotsional rivojlanish, nazoratsizlik, qarovsizlik, g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar, profilaktika, daydilik, tilanchilik, ekologiya, norattsional.

Hozirgi davrning shiddat bilan rivojlanishi va jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar nafaqat kattalar, balki bolalar oldiga ham yuqori talablarni qo'ymoqda. Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda umumta'lim maktablarining vazifasi har bir bolaga to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishdan iborat. Maktab oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanib, u ijobiy, ijtimoiy xulq qoidalarini o'quvchilar ongiga singdirishi, bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga imkoniyat tug'dirishi kerak. Bu vazifalar tarbiyasida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiya olishi jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki bu bolalar o'z ijtimoiy vazifalarini bajarmaydigan oilalarda yashaydilar.

Bugungi kunda umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy-psixologik muammolardan eng asosiysi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olish masalasidir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etilishga imkon beradigan sabablarni aniqlash, yakka tartibdagi profilaktika ishlari;

- ijtimoiy jihatdan havfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti- harakatlar sodir etishining oldini olish;

Bu vazifalarni amalga oshirishda maktab ma'muriyati, maktab o'qituvchilari, o'quvchilar, ota-onalar, turli jamoatchilik tashkiloti vakillari, jumladan mahalla qo'mitalari, huquq targ'ibot tashkilotlari ishtirok etadi.

O'quvchilarning o'zlashtirmaslik va darsga kelmasligining oldini olishda hamkorlikda ish olib borish lozim. Shuni yodda tutish kerakki, agar o'quvchi bir kun dars qoldirsa va bunga o'z vaqtida chora ko'rilmasa, ushbu o'quvchida jazolanmaslik tuyg'usi paydo bo'ladi. U bo'sh vaqtini bozorda, kompyuter klublarida o'tkaza boshlaydi, oson pul topish ilinjida daydilik va tilanchilikka ham qo'shilishi mumkin. Bunday o'smirni giyohvandlik va jinoiy faoliyatga jalb etish juda ham oson bo'ladi.

Sog'lom turmush tarzi targ'ibotini olib borish lozim. Hozirgi vaqtda o'quvchilarning jismoniy holati bir qancha sabablarga ko'ra tashvishlidir. Ekologiyaning yomonligi, norattSIONal ovqatlanish, kam harakatlilik, o'z sog'ligiga bo'lgan e'tiborsizlik – bolalarning jismoniy sog'ligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Huquqiy tarbiya berish. Voyaga yetmaganlar va ota-onalarning huquqiy masalalarga alohida e'tibor qaratishi bolalarda o'z hatti-harakati uchun mas'ullikni kuchaytiradi.

Amaliyotdan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash joizki, uzoq vaqt davomida surunkali dars qoldiruvchi va keyinchalik o'qishdan orqada qolib ketishga moyilligi bor oila farzandlari quyidagi shartli guruhlarga taalluqlidir.

Nochor va kam ta'minlangan oila farzandlari.

Bunday oilalarda ota-onalar aniq ish-joyiga ega emas, kunlik ish haqi hisobiga ishlaydilar. O'tmishda sudlanib chiqqan, ichkilikka berilganlar. Bunday oilalar farzandlarining o'qishi va tarbiyasi borasidagi qiyinchiliklar ota-onalarning maktab bilan muloqotga layoqatsizligi va hohishi yo'qligi sababli kuchayib boradi.

To'liq bo'lmagan oila farzandlari.

Bunday oilalarda oilaning hayot tarzini bir maromda saqlash, shuningdek, farzand tarbiyasi vazifalari birgina inson (ko`proq ona) zimmasiga tushadi. Farzandining vaqtini qanday o`tkazilishini nazorat qilish, o`qish jarayonida ko`maklashishi kerak. Ota-onaning layoqati ko`p hollarda cheklangan bo`ladi, sababi vaqtning yetishmasligi, shaxsiy hayotdagi omadsizlik, oiladagi og`ir ruhiy holatni barqaror emasligi farzandlarga o`z ta'sirini o`tkazadi.

Qarindoshlar qaramog`ida bo`lgan bolalar.

Ota-onalar u yoki bu sabalarga ko`ra (ko`p bolali oila, ota-onalari safarda bo`lganda) farzandi tarbiyasini yaqin qarindoshlar zimmasiga yuklaydilar.

Ota-onalari ishlash maqsadida chet elga ketgan oila farzandlari.

Bunday holatlarda bolalar ota-ona talabiga ko`ra kattalar o`rnida qolib, uyni qo`riqlaydilar, uy ro`zg`or ishlarini yuritadilar va uka-singillariga qarab turadilar.

Notinch oila farzandlari

Bunday oilalarda doimiy ravishda janjallar bo`lishi natijasida bola uydan bezib ko`chaga chiqib ketishi, dadasining ichkilik ichib janjal qilishidan, onasini taxqirlashidan bezib turli noxush holatlarni sodir etishi kuzatilgan.

Yuqoridagi ko`rsatgichlarni inobatga olib, ish faoliyatimizni ko`proq e'tiborni mana shunday oila farzandlariga qaratamiz. Ijtimoiy-havfli sharoitdagi oilalar va voyaga yetmaganlar haqidagi ma'lumotni biz turli manbalardan olishimiz mumkin. Masalan, oilaga tashrif buyurib, boladan, maktab o`quvchilaridan, jamoatchilikdan.

Albatta, huquqbuzarliklarni oldini olish, dars qoldirish va o`zlashtirmaslik kabi muhim vazifalarni hal etishda maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalarning birgalikdagi harakati katta rol o`ynaydi. Bunday o`zaro harakat natijasi o`smirni hayotda o`z o`rniga ega bo`lishiga, jamiyatga kerakli inson bo`lishida, egri yo`ldan qaytib o`z hayot yo`lini tanlashiga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Karimov I.A Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti 2008

2.Karimova V.M Oilaviy hayot psixologiyasi. O`quv qo'llanmasi, T.: 2006

3.E.G'oziyev Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperiment tahlil. Monografiya. "Noshir". Toshkent: 2010

## OILA VA MAKTABNING BOLA TARBIYASIDAGI ROLI

*Bo'riboeva Nafisa Nurmatjonovna*  
*Farg'ona viloyati Beshariq tumani 49-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar tarbiyasi, oila va maktabning bola tarbiyasidagi o'rnini haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, odob-axloq, o'smir, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, axborot, sintez, siyosiy, ijtimoiy, ekologik, tarbiyasi og'ir.

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga, uning ma'naviy yetukligiga, jahon andozalariga mos keladigan kadr bo'lib yetishishiga mamlakatimizda katta ahamiyat berib kelinmoqda. Shu bilan birga uning jismoniy salomatligi, aqliy rivojlanishi, ruxiy osoyishtaligi uchun bo'lgan say-harakatlar jamiyatimiz tomonidan e'tiborga olinib, barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Biroq, tan olish kerakki, o'smir psixologiyasini hisobga olmasdan u bilan muloqotga kirishish yoki oilada pedagogik-psixologik mahoratning yetishmasligi oqibatida voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik holatlari yuzaga kelmoqda. Zero, har bir pedagog va ota-onalar Jan Jak Russo fikri bilan aytganda, "Ikkinchi tug'ilish davri", ya'ni o'smirlik davrining murakkab va serqirra tomonlari, muammolari bilan doimiy ravishda to'qnash keladi. Shunday ekan, yosh avlodning rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi ayrim salbiy holatlarni diagnostika qilish, uning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish, har birimizning mas'uliyatli vazifamizga aylanishi darkor.

Kishilar o'rtasida shunday gaplar yuradi, kimdir "Tarbiya bu, xammaga ma'lum narsaku, vaqti kelsa, xudo hohlarsa o'z-o'zidan yaxshi odam bo'lib ketadi" deydi. Lekin, shuncha tajribalardan ko'rishimiz mumkinki, hech bir bola yoshligidan noto'g'ri yo'ldan

borib ulg`ayganda o`z-o`zidan to`g`ri yo`lga tushib ololmaydi, niholni yoshligida qaysi tomonga egsak, u nihol o`sha tomonga qarab egri o`sadi, katta bo`lib daraxtga aylanganda ham o`shanday egriligicha qoladi. Biz farzandlarimizni turli havf-hatarlardan asrab, o`zimiz yemay- yedirib, o`zimiz kiymay - kiydirib, komil inson qilib tarbiyalab voyaga yetkazishga harakat qilsagu, lekin farzandimiz turli xil nopok insonlarga qo`shilib, turli illatlarga giriftor bo`lib, yaxshi va farovon hayotga osongina yetishishni o`ylab turli jinoyatlar sodir etishdan ham qo`rqmasa, ota-onaga, atrofdagilarga ozor bersa. Xo`sh, bunga kim aybdor, ota-onami, mahallami, o`quv muassasalarimi yoki jamiyatmi?

Shu o`rinda bir hikmatni aytib o`tsam: bir kuni o`rmonda bolta daraxtlarni kesa boshlabdi. Daraxtlar eng katta daraxtdan so`rabdi:

-Bizni kim kesyapti?

- Bir parcha temir,- deb javob beribdi daraxtlar.

-U nimaga o`rnatilgan?- deb so`rabdi katta daraxt.

-Daratdan kesib olingan yog`ochga,- debdi.

Shunda katta daraxt:

- O`zingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga,- degan ekan. Daraxtga og`riq berayotgan narsa bolta emas, balki boltaning sopi o`zining shoxidan ekanligidir.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda yovuz kuchlar o`smirlarning ongini, ruhiyatini zaharlab, ularni aldab, turli oqimlarga jalb qilmoqdalar, oqibatda o`smirlarimiz o`zlari tug`ilib o`sgan vatanini, ota-onasini, farzandlarini ham unutib mudhish jinoyatlarni sodir etmoqdalar. Bugungi kunda o`smirlar, voyaga yetmaganlar o`rtasida jinoyatchilik ko`plab sodir bo`lmoqda. Yoshlarimiz, farzandlarimiz bo`sh vaqtlarida turli kamyuter o`yinlari, turli internet oqimlariga bilmasdan kirib qolmoqdalar. Natijada yoshlarimiz o`zlari bilmagan holda turli nopok kishilarga ergashib jinoyatlar sodir etmoqdalar.

Psixologlar fikricha har bir insonda qaynab turuvchi energiya, ya`ni kuch mavjud. Mana shu kuch o`ziga yo`l topa olmasa, sho`xlik, axloqsizlik va turli yomon illatlarni o`zida namoyon qiladi. Atrofdagilarning salbiy ta`siri, ota-onaning befarqligi, nazoratsizligi bolani to`g`ri yo`ldan adashishiga sabab bo`ladi.

Quyidagi sabablar o`smirlar tarbiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatib, unda turli yomon illatlarni keltirib chiqaradi:

- ilk yoshdanoq maqsadga yo`naltirilgan tarbiyaning yo`qligi;
- farzandning qiziqishi va hohishini bilmaslik;
- siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik be`qarorlik;
- g`ayrima`daniy ta`sirning ustunligi;
- nosog`lom oilaviy munosabat va oilaviy ajrimlar;
- e`tiborsizlik, bolaga beriladigan jazoning yumshoq yoki o`ta qattiqligi;

Albatta bunday salbiy holatlarga faqatgina oila yoki maktab aybdor desak to`g`ri bo`lmaydi. Chunki, o`smirni o`rab turgan muhitning sog`lomligiga ham ko`p narsa bog`liq. Befarq va loqayd odamlar orasiga tashlab qo`yilgan bola o`zini yolg`iz, keraksiz his etadi, murg`ak qalbida kattalarga, jamiyatga nisbatan e`tiroz hissi paydo bo`ladi. Shunday ekan har birimiz voyaga yetmagan farzandimizni, o`quvchilarimizni qalbiga yo`l topishimiz, u bilan do`stona munosabatda bo`lishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “O`zbekiston” nashriyoti 2016
- 2.Rean A.A “Prakticheskaya psixodiagnostika lichnosti” Piter 2001

---

## **XULQ – ATVOR VA ODATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI**

*Qurbonova Shoira Mannonovna*  
*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 1-maktab psixologi*

Shaxsga taaluqli bo`lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob`ekt, ham sub`ekt bo`lishlikdir. Shaxsga taaluqli bo`lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta`sirlarni o`z ongi va idroki bilan qabul qilib, so`ngra shu



ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub'ekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi : siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'surotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqalar.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar

talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakoza. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbex berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi

qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi.

Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyaliq qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. N.Ismoilova, D.Andullayeva-“Ijtimoiy psixologiya”.Toshkaent-2013.
2. V.Karimov, O.Xayitov-“Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi”.Toshkent-2007.
3. Library.tersu.uz.
4. Science.i-edu.uz.

## ЎҚУВЧИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Уразбаева Ёрқиной Атаназаровна*  
*Хоразм вилояти Янгибозор тумани 4-мактаб психологи*

Мақолада ўқувчилар қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантириш бўйича психологик қонуниятларга асосланиб, ўқувчиларда лаёқат, маҳорат, педагогик, коммуникатив, дидактик, авторитар, перцептив, танқидий фикрлаш ва умумий қобилиятлар атрофлича таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Қобилиятлар, ақлий истедод, тестлар билан ишлаш, кўникма ва малака.

Давлат тараққиёти ва жамият равнақи кўп жиҳатдан халқнинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки, илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади.

Республикаимиз биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлагинидек, Ватанимиз келажаги ислохотларнинг тақдири ва уларнинг натижалари, халқимизнинг билим даражаси давр талабига ва тарраққиётига қанчалик мослигига, қандай мутахассислар етказиб бериб, ўрнимизни эгаллашларига боғлиқдир.[1.2]. Шунинг учун мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев барча соҳаларни жумладан таълим тизимини тубдан ислох қилишга катта эътибор қаратаётгани таълим тизими соҳасида туб бурилаш ясамоқда десак муболаға бўлмайди. Шунга кўра, юқори малакали кадрлар тайёрлаш давлат сиёсати даражасидага кўтарилмоқда.

Психология фанида қобилият тушунчасини таҳлил қилишда шахс шақлланишига таъсир этувчи уч омил ҳисобга олинади. Яъни шахсга ота-она томонидан ўтган ирсий белгилар, шахс шақлланган ижтимоий муҳит ва шахсга бериладиган таълим-тарбия натижаси. Демак қобилият тушунчасини таҳлил қилишда юқоридаги уч омил таҳлили асосий ўринда туради. Психологик луғатларда қобилият шахснинг муайян фаолият турини муваффақиятли бажаришга

бўлган лаёқат даражасини ифодалайдиган, турмуш жараёнида ҳосил қилинган индивидуал хусусиятлари йиғиндиси [2.95] деб таъриф берилади.

Билим, кўникма, малакалар орттириш шу хусусиятларга боғлиқ бўлади, лекин шу хусусиятларнинг ўзлари мазкур билим, кўникма, малакаларга тааллуқли бўлмайди. Қобилиятлар билим, кўникма, малакаларни эгаллашда намоён бўлса ҳам, билимлар ва кўникмаларни эгаллаш билан боғланиб қолмайди. Қобилиятлар ва билимлар, қобилиятлар ва малакалар, қобилиятлар ва кўникмалар айнан бир-бирига ўхшаш нарса эмас.

Қобилиятлар билим, малака ва кўникмаларнинг ўзида кўринмайди, балки уларни эгаллаш динамикасида намоён бўлади, яъни, бошқача қилиб айтганда, мазкур фаолият учун муҳим бўлган билимлар ва кўникмаларни эгаллаш жараёни турли тенг шароитларда канчалик тез, чуқур, осон ва мустаҳкам амалга оширилишида намоён бўлади. Худди ана шу ўринда юзага чиқадиган фарқлар бизга қобилиятлар ҳақида гапириш ҳуқуқини беради.

Ақлий истеъдод даражаси баланд болалар изланувчан, ҳар нарсага қизиқувчи ва уйғоқ қалбли бўладилар. Қобилиятлилиқ шахснинг ақл-фаросат, характер, хотира ва рухий кечинмалари билан бевосита боғлиқдир. Психологияда қобилиятларни миқдор жиҳатдан ўлчаш муаммоси узоқ тарихга эгадир. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида қатор психологлар (Кеттел, Термен, Спирмен ва бошқалар) оммовий ихтисослар учун касб танлашни амалга ошириш зарурияти билан боғлиқ бўлган талаблар таъсири остида таълим олаётганларнинг қобилиятини аниқлашни тақлиф қилиб чиқдилар. Уша пайтларда қобилиятларни ўлчаш усули сифатида ақлий истеъдод тестларидан фойдаланилди.

Ақлий истеъдод тестлари мазмун жиҳатдан қатор саволлар ва масалалардан ташкил топгандир. Уларни ечиш муваффақияти (сарфланган вақтни ҳисобга олиб) балл ёки очколар йиғиндиси билан ҳисобланади. Масалан, ўн бир ёшлиқ болаларнинг ақлий қобилиятларини аниқлаш учун инглиз мактабларида қуйидагича тест қўлланган: “Петр Жеймсга қараганда баландроқ, Эдвард Петрдан пастроқ. Ҳаммадан кўра ким баланд? Савол тагига қуйидаги жавоблар ёзиб қўйилади: 1.Эдвард, 2. Жеймс, 3. Петр,” Айта олмайман ёки бошқача тест: қизил,

яшил, кўк, хўл, сариқ. Бу ерда бола туркумга кирмайдиган сўзни аниқлаши керак ва хоқозо.[3.102]. Болалар тестлар тўпламини бажариб бўлгандан кейин уларнинг натижаларини стандартлаштирилган йўл билан, яъни хар бир синалувчи олган очколар миқдорини ҳисоблаш билан шуғулланишади. Қобилият бу кишининг бирор бир фаолиятга лаёқатлилиги, яроқлилиги ва бу фаолиятни муваффақиятли суратда амалга ошириш маҳоратидир. Киши ўзида муайян фаолиятга қобилият бор ёки йўқлигини сезиш ёки сезмаслигини билдирадиган омил таълим методикаси ҳисобланади. Таълим методикаси қаерда ожиз бўлса, ўша ерда қобилиятларнинг туғма эканлиги ҳақидаги гаплар пайдо бўлади. Ўз-ўзидан маълумки, методика доим такомиллашиб боради, бу эса «туғма қобилиятлар» доирасини торайиб боришига олиб келади. Қобилиятлар ва истеъдодларни шакллантириш муаммоси катта ижтимоий ва давлат аҳамиятига эга бўлган масаладир.

Дастлабки қобилиятлар ижтимоий муҳит таъсирида оилада, мактабгача таълим муассасаси ва мактаб таълимида босқичма-босқич ривожланиб боради. Психологлар ўқувчи қобилиятларини диагностика қилишда ўқувчининг асосий етакчи фаолият хусусиятларини инобатга олиши керак чунки, қобилият фаолиятда намоён бўлади.

Психологиянинг методологик асосининг кўрсатишича, қобилиятлар – имкониятлар тизимидан ташкил топган бўлиб, у ёки бу фаолиятдаги зарурий маҳорат даражасидир. Шундан келиб чиққан ҳолда ўқувчида мактаб таълим – тарбия жараёнида ўқувчиларда қобилиятнинг қуйидаги турларга бўлиб ўрганилади:

1. Мусиқага оид;
2. Математикага доир;
3. Бадиий ёки адабиётшуносликка доир
4. Тасвирий санъатга доир;
5. Спортга оид;
6. Актёрлик санъатига оид;
7. Ташкилотчилик;
8. Педагогик;

9. Илмий ва интеллектуал қобилиятлар намоён бўлади.

Муסיқавий қобилиятлар - Б.М.Теплов томонидан ўрганилиб, «Психология музыкальных способностей» китобида болада намоён бўлган муסיқий қобилият унинг муסיқачи бўлиши учун бирон бир даражада гаров бўла олмайди. Боланинг муסיқачи бўлиши учун унга махсус таълим берилиши, педагог ва бола намоёиш қилган қатъийлик, саломатликнинг яхши бўлиши, муסיқа асбоби, ноталар ва бошқа кўплаб шарт-шароитлар бўлиши зарур. Буларсиз қобилиятлар ривожланмай турибоқ сўниб кетиши мумкин. [4.103].

Математик қобилиятлар - Крутецкий томонидан ўрганилган. У “Математик қобилиятлар психологияси” монографиясида математик қобилиятлар ва уларнинг тизимини кенг ёритиб берган. Идрок, тафаккур, хотира, хаёлнинг индивидуал хусусиятларини аниқлаб, уларни математик фаолиятда намоён бўлишини тадқиқ қилган. Математик қобилиятга математик материалларни умумлаштириш, мулоҳаза юритиш жараёнини қисқартириш, математик ишламалларни камайтириш, масалани идрок қилиш билан натижаси ўртасида алоқа ўрнатиш, тўғри ва тескари фикр юритишдан энгилга ўтишлик, масала ечишда фикр юритишнинг эпчиллиги каби чуқур мулоҳазалар билдирган.[5.106].

Адабий қобилият эса нафосат ҳисларининг юксак тараққиёт даражаси, хотирада ёрқин кўргазмали образларнинг жонлилиги, “тил зеҳни”, беҳисоб ҳаёлот, руҳиятга қизиқувчанлик, ўзи ифодалашга интилувчанлик ва бошқаларни ўзида ифодалайди. Ажратиб кўрсатилган қобилиятлар таркибидан кўриниб турибдики, математик ва адабий қобилиятлар ўзаро бир-бирига ўхшамаган талаблари билан тафовутга эгадир.

Тасвирий санъатга хос қобилиятларни - В.И.Криенко ўрганган бўлиб, у “Тасвирий фаолият қобилиятлари психологияси” китобида тасвирий қобилиятларни психологик таҳлили ҳақида маълумотлар берган.

Табиий қобилиятлар - бу идрок, хотира, тафаккур ва бошқа оддий психик жараёнида намоён бўлиш қобилиятидир. Инсонда ижтимоий муҳитга мослаша олиш қобилияти мавжуддир. Бу умумий ва махсус ақлий қобилиятлар, нутқ ва мантиқдан фойдаланганда шахслараро, предметлараро муносабатларда намоён

бўлади. Умумий қобилиятлар - инсонни турли фаолият йўналишларида муваффақиятини таъминлайди.

Махсус қобилиятлар - инсонни бирор бир махсус фаолият йўналишидаги муваффақиятини таъминлайди ва унинг намоён бўлиши учун махсус лаёқат бўлиши лозим. Бундай қобилиятларга мусикавий, математик, техник, педагогик ва бошқалар киради.[6.107].

Ташкилотчилик қобилиятларини эса узоқ вақт Л.И.Уманский ўрганган.

Қобилият муайян табиий борлиққа боғлиқ бўлсада, лекин улар фақат табиатнинг инъоми эмас, балки инсоният тарихий тараққиётининг бебаҳо (қимматли) маҳсулидир. Шунинг учун ҳам қобилиятларнинг намоён бўлиши шахслар томонидан ижтимоий эҳтиёжларни қондириш давомида ижтимоий шартланган билимлар ва кўникмаларни таркиб топтиришнинг яққол усулларига бевосита боғлиқдир. Шахс қобилиятларини ривожлантиришда барқарор, турғун, касбий махсус қизиқишлар муҳим омиллар, воситалар тариқасида хизмат қилади.[7.108].

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки Ўзбекистонда бугунги кунда ўсмир ёшларнинг қарийб 70 % интернетдан кенг фойдаланиб келади, лекин уларнинг қанчаси бу тармоқдан тўғри мақсадда фойдаланиши бизнинг энг оғриқ нуқтамиз бўлиб қоляпти. Чунки дунёдаги барча бузғунчилик ҳаракатларининг келиб чиқиш сабаблари вертуал олам орқали ёшларимизга бузғунчи ёд ғояларни уларнинг онгига таъсир этиш орқали амалга оширилмоқда. Бизнинг мақсадимиз уларда юқоридаги келтириб ўтилган қобилиятлар билан бир қаторда танқидий фикрлаш қобилиятларини ҳам шакллантириб боришимиз керак. Ойнани ҳар икки тарафи бўлгани каби ижтимоий тармоқларда маълумотларнинг барчаси ҳам инсон учун манфаатли бўлавермайди. Ёшларимиз бу тизимдан фойдаланар экан ҳар бир материалларни салбий ва ижобий томонларини чуқур тафаккур қила олиши, нима учун кераклиги, қандай мақсадни кўзлаб веб сайтларга жойлаштирилганини онгли тарзда фаҳмлашлари керак.

Президентимиз таъбири билан айтганда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун ёшларимизга таълим-тарбия жараёнида, оилада, ОАВларда ва ахборот ҳавфсизлигига оид тарғибот-ташвиқот ишларини олиб



боришда ижтимоий тармоқларнидан фойдаланишни чекламасдан улардан тўғри ва мақсадли фойдаланиш маданиятини шакллантириб боришимиз керак.

Билдирилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, қолган барча қобилиятлар тузилиши ҳам махсус хусусиятларга эга бўлиб, ўзига хос касбий аҳамият касб этиши билан кўп жihatдан характерлананишини мактаб амалиётчи психологларимиз эътиборга олишлари керак бўлади.

#### Адабиётлар:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. Т.: 1995.
2. М.ТДавлетшин. Уқувчиларда қобилиятнинг таркиб топиши. "Ўқитувчи".Т., 1965.
3. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
4. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
5. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
6. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
7. Умумий психология. А.В. Петровский таҳририда. Т. 1992й.

---

## 9-11-SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O`QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA MASALALARGA YECHIM TOPISH

*Komilova Nargiza Shuxratovna*

*Farg'ona viloyati Furqat tumani 22-maktab matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematika fani o`qitish metodikasi o`quvchilarga muammoli ta`lim uslubini 9-11-sinf o`quvchilarga qanday qo`llash yoritilgan. Zamonaviy uslublar orqali matematika fanini o`qitishning qiyinchiliklari va boshqa fanlarga matematikaning bog`liqligi eslatib o`tilgan. Matematikada masala yechishning bosqichlari to`liq tushintirilgan.

**Kalit soʻzlar:** matematika, muammoli taʼlim, jarayon, masala, yechim, mantiqiy fikrlash, oʻqituvchi.

Matematika mustaqil fan sifatida vujudga kela boshlaganda uning bundan keyingi rivojlanishiga matematik bilimlarning oʻzi ham taʼsir eta boshladi. Shulardan baʼzilarini qayd etib oʻtaylik. 1) Nyutonning (differentsial va integral hisobining ilk qadamlari) funksiyalarni hisoblash usuli darhol mexanik masalalarini hal qilishni umumiy metodi darajasigacha koʻtarildi. 2) Lagranj algebraik tenglamalarni radikallarda hal qilish muammosini izlaganda tenglama ildizlarini — gruppalash masalalarini qaragan edi. Keyinroq esa E.Galua gruppalar nazariyasini rivojlantirib, yuqoridagi muammoni hal etdi. Soʻng XIX asrda A.Keli gruppaga taʼrif berdi. S.Li esa uzluksiz gruppalar nazariyasini yaratdi. 1890 yilda E.S.Fedorov gruppalar nazariyasi kristollografiyaga tatbiq etdi. Hozirda esa gruppalar nazariyasi kvant fizikasining ilmiy quroliga aylangan. Bulardan koʻrinadiki matematika nafaqat oʻz-oʻzini rivojlantiradi, balki boshqa fanlarning rivojlanishiga va aksincha boshqa fan yutuqlari asosida oʻzi ham rivojlanadi. Matematika metodlarini tabiiy fanlarga tatbiqi: 1) U yoki bu hodisani mazmuniga mos keluvchi matematik masalani bayon etish, yaʼni matematik modelini vujudga keltirish va uni yechishning metodini topish; 2) Matematik modelni yechish, uning forma va metodlarini takomillashtirish hamda mantiqiy kamolotga intilish. Soʻngi yillarda fan va texnikaning jadal rivojlanishi (kibernetika, hisoblash texnikasi,...) ekonomika, boshqarish sistemasi, psixologiya sohalarda matematikaning roli yanada kuchayib ketdi. Matematika tarixi matematikaning rivojlanish jarayonida koʻpdan – koʻp yorqin dalillar bilan bir qatorda qorongʻu zulmat davrlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Haqiqatdan, ham din peshvolari din taʼlimotiga mos kelmagan har qanday yangilikning yoʻq qilishga yoki boʻgʻishga intilganlar.

Faqat ayrim olimlarning katta jasoratigina fanni ilgari siljishi uchun imkoniyatlar yaratib bergan. Oʻrta maktablarda matematika oʻqitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi: 1. Matematika oʻqitishning umumtaʼlimiy maqsadi; 2. Matematika oʻqitishning tarbiyaviy maqsadi; 3. Matematika oʻqitishning amaliy maqsadi.

Matematika oʻqitishning umumtaʼlimiy maqsadi oʻz oldiga quyidagi vazifalarni qoʻyadi: a) Oʻquvchilarga maʼlum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish.

Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak. b) O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir; c) O'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagilarni qo'yadi: a) O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi. b) O'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash. Bizga ma'lumki, matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Matematika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir. d) O'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari

rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolik tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi. Muammoli ta'lim – bu didaktik tizim bo'lib o'quvchilarni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi deb isbotlaydilar. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi. Vaziyat - bu ilmiy baxs- munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir. Muammoli jarayon – o'zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratasa va javob berishda o'quvchidan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda o'quvchilar e'tibori savollarning yechilishiga to'liq yo'naltiriladi, o'quvchilarning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'irlanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Masalani yechish jarayonini batafsil ko'rib chiqamiz.

«Masalani yechish» termini – psixologik-pedagogik adabiyotda turli ma'nolarda ishlatiladi. Turli matnlarda masalani yechish deganda turlicha tushuniladi: - masalaning maqsadiga yetganda, olingan natija; - shu natijaga olib keladigan, mantiqiy o'zaro bog'langan xarakatlarning ketma-ketligi; bunda ketmaketlik imkoniyat boricha «tejamli» bo'lib, hech qanday yo'naltiruvchi mulohazalarsiz tahmin etiladi, (mantiqiy tugatilmagan yechim): - shaxsning masalani qabul qilib olganidan to to'liq natijaga erishguncha bo'lgan jarayondir. Bunda natija masala maqsadi (yechish jarayoni)dir. Shunday qilib, uslubiy adabiyotda masalani yechish deganda shu masala bilan bog'lik bo'lgan butun faoliyat shu masalani qabul qilishdan to boshqa masalaga o'tish yoki umuman boshqa ish turiga o'tishgacha bo'lgan faoliyat tushuniladi «Yechish» terminini shunday tushungandagina masalaning ustida ishlashning ma'lum bo'lgan to'rt bosqichga ajratilishi ma'noga egadir. Ushbu bosqichlarni qisqagina ta'riflab o'tamiz. Birinchi bosqich – axborotni qabul qilishda, masalaning shart va maqsadlarini anglashda ifodalanadi. Ushbu bosqichni masalani tahlil qilish bosqichi deb ham atashadi. Ikkinchi

bosqich – yechimini topish - ko‘p murakkablikni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqich masalani yechish rejasini topib olishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha yechimini topish faoliyati yechish jarayonini egallab bir necha shakllar guruhlarini o‘z ichiga oladi: holatning tahlili, yechish rejasining paydo bo‘lishi, rejani bajarishga intilish, muvaffaqiyatsizlikning sababini aniqlash. Yechimini topish jarayoni to‘liq bajarildi deb, shundagina aytish mumkin-ki, qachon yechimi to‘liq topilsa yoki bajarilishi uchun bir necha aniq harakatlar qolganligida va ushbu harakatlar o‘quvchida shubha tug‘dirmasa. Shunday qilib, yechimni topish bu, bir rejani topishda emas, balki maqsadga olib keluvchi rejani topishda to‘liq bajariladi. Ushbu bosqich har bir masala ustida ishlaganda ishtirok etadi. Ammo ko‘p holatlarda masala yechuvchi tomonidan ushbu bosqich anglanmay qoladi, chunki bu bosqich yashirin xarakterda namoyon bo‘ladi. Uchinchi bosqich – yechimning shakllanishi, rejaning bajarilishi – shaxsning fikricha eng tejamliroq, masala shartlaridan maqsadga olib keluvchi harakatlar ketma-ketligini bajarishdan iborat. Bunda ma‘lum bo‘lgan chorasiz yo‘llar tushirilib qolinadi. Bu yo‘llar bundan oldingi bosqichda ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsada ushbu bosqichda tushirilib qoldiriladi. Ikkinchi va uchinchi, birinchi va ikkinchi bosqichlarning chegaralari taxminiy bo‘lsada, masala yechilayotganda ushbu chegaralar aniq namoyon bo‘ladi. Ushbu bosqich qisqartirilgan xarakterda bo‘lishi mumkin; oxirgi harakat shundagina o‘rinli bo‘ladi, qachon natijaga olib keluvchi hamma harakatlar oldingi bosqichda bajarilgan bo‘lsa, o‘quv amaliyotida uchinchi bosqich o‘quvchi tomonidan masalaning og‘zaki yoki yozuvda yechilish jarayonida tashqi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib ushbu bosqichda «tugallangan», «oxirgi», «toza nusxali» u yoki bu uslub orqali ob‘ektlashgan yechim xosil bo‘ladi. To‘rtinchi, so‘nggi bosqich. Masalaning ustida ishlashning ushbu bosqichi kelib chiqqan natijaning to‘g‘riligini tekshirish va chamalab ko‘rmoqni (ammo tekshirish yechimning ajralmas qismi bo‘lib kelmaydi), boshqa yechim imkoniyatlarini topishni, ularni taqqoslash, topilgan yechimning foydasi va kamchiligini aniqlash, masalani yechish jarayonida foydalanilgan va kelajakda foydalanish mumkin bo‘lgan usul va uslublarni ajratish va ularning o‘quvchi yodida qolishi, topilgan natijaga ko‘maklashuvchi matematik xarakterdagi natijalarni aniqlashni tahlil qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov M., Mirzaahmedov M. Mantiqiy fikrlashga o'rgatish («Matematika» darsligi asosida)
2. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil
3. ziyonet.uz

## ТАРБИЯНИНГ ПСИХОЛОГИК МУАМОЛАРИ ВА УНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Тожиева Маҳлиё Яшнаржоновна*  
*Наманган вилояти Поп тумани 38 мактаб психологи*

Тарбия деб тарбиячи томонидан тарбияланувчида барқарор ахлоқий хислат ва хулқий фазилатларни таркиб топтириш шакллантириш мақсадида тарбияланувчининг онгига аниқ мақсад йулида тарбиявий таъсир этиш жараёнидир.

Болалик ва мактаб ёшида шахс тарбиянинг хал қилувчи таъсири остида таркиб топади. Тарбия маҳсус фаолият сифатида муайян программанинг, англаб олинган мақсаднинг мавжудлиги билан, таъсир кўрсатишнинг маҳсус ишлаб чиқилган ва асослаб берилган воситалари, формалари ҳамда методларининг тасодифий ёки стихияли таъсирлардан ажралиб туради. Маълумки тарбиянинг энг муҳим вазифаси ёш авлодда мустаҳкам эътиқод ва ҳис-туйғулар ҳамда уларга асосланган маънавий хулқ-атрофни хосил қилишдир. Бу вазифани шахсни актив ва муайян мақсадни кўзлаган ҳолда таркиб топширишнинг психологик қонуниятларни билишга таянган, шунингдек, боланинг индивидуал хусусиятларини билишга таянган тақдиргагина ҳал этиш мумкин.

Машҳур олим Гербарт тарбиянинг мақсад ва вазифалари ҳақида қуйидаги фикрларни олга суради. Гербарт тарбия мақсадини белгилаб олишга катта аҳамият беради. У тарбиянинг мақсади яхши фазилатли кишини таркиб топтиришдан

иборат деб ҳисоблайди. Гербарт тарбия ишида ақлий таълимга тарбиянинг энг катта ва асосий воситаси деб билиб, таълимсиз тарбия бўлмайди деб ҳисоблаган.

Тарбия аввало оилада, кейинчалик таълим- тарбия муассасаларида таълим билан биргаликда узлуксиз равишда бериб берилади. Шахснинг қарор топишининг энг муҳим вазифаси ўқувчида ахлоқ талабларига жавоб берадиган эътиқод ва идеаллар таркиб топтиришдир. Ўқувчи шахснинг шаклланишдаги бундан кейинги жараён шундан иборатки унда юзага келган ахлоқий эътиқод ва идеаллар системаси яъни унинг маънавий онг ҳукмронлик қилувчи омилга унинг ижтимоий фаоллигини белгилаб берувчи омилга айланади.

Шахснинг ижобий йуналишини таркиб топтириш учун мактаб ўқувчиларини барча вазият ва ҳолатларда тўғри йул тутишини исташи ҳамда тўғри йўл тутиши учун униг нима қилишни билиши ўзи ҳам тўғри хулқ атворли бўлишни машқ қилиш зарур.

Билимлар - ахлоқий тасаввурлар ва тушунчаларни муайян системасини эгалламасдан туриб ҳақиқий эътиқодлар таркиб топтириб бўлмайди. Ўз-ўзидан бу билимлар ахлоқий хулқ атворни белгиламасдан туриб унга муҳим таъсир кўрсата олмайди. Психологик тадқиқотларда шу нарса аниқланганки, ахлоқий тушунчаларни ўзлаштириш жараёни жуда мураккаб жараён булиб унга махсус раҳбарлик қилишни талаб этади. Ўқувчиларнинг тасодифий ҳоллар кўчадагиларнинг бемаъни таъсири, катталарнинг ярамас хатти-харакатлари таъсирида таркиб топадиган ахлоқий тушунчалари тарбиячилар ва жамоа томонидан тугри ғоявий раҳбарлик қилинмаса хато, нотўғри, бузуқ тушунчаларга айланиб ўқувчининг тарбиясини бузишга олиб келади. Ахлоқий онг таркиби топтиришнинг энг муҳим йўли ўқувчиларнинг ўзларида тўғри хулқ атворнинг юзага келтириш билан ахлоқий тарбияни бойитиш ва умумлаштириш йўлидир албатта. Ўқувчиларнинг ахлоқий билимининг турли туман фармонлари, уларнинг онг ва хис туйғуларига жонли, ёрқин оташин сўзнинг таъсири бу ишни анча тўлдириши мумкин. Махсус тадиқиқотлар, шунингдек ўқитувчиларнинг тажрибалари кўрсатгандек, юқорида санаб ўтилган барча методлар ўқувчиларга ахлоқий тарбия бериш соҳасида катта фойда келтиради, бироқ улар асло қуруқ,

зерикарли, жонга тегадиган ҳамда насихатга айланиб қолмаслик керак. Муайян принциплар ишлаб чиқилган бўлиб, ахлоққа доир суҳбатлар уша принциплар асосида тузилиши керак. Бу принциплар қуйидагилар:

Ахлоққа доир суҳбатлар мазмуни жихатдан тегишли ёшдагиларга тушунарли бўлиши лозим мавхум ва абстракт тушунчалар, мураккаб мулохазалар билан толиктириб қўйишга йўл қўйиб бўлмайди.

Одатда, суҳбат ўтказиладиган коллективни, унинг йўналишини бу коллектив аъзоларини ўзаро муносабатларини, ўқитувчига ўқиш ва бошқаларга яхши муносабатини билдириш зарур.

Бадий суҳбатларни нихоятда тез-тез ўтказиб турмаслик керак. Агар суҳбатлар конкрет сабаблар билан мамлакат ёки коллектив ҳаётидаги бирор воқеага, мактаб ҳаётидаги бирор ижобий ёки салбий воқеага тўқрилаб ўтказилса жуда яхши натижа беради.

Суҳбатни ёрқин, яхшилаб танлаб олинган конкрет мисолларни ҳаётини воқеалар ёки адабий асарлардаги фактларни ҳамда кузатишларни таҳлил қилишдан бошлаб умумлаштириш ҳамда хулосалар чиқаришга ўтишни тавсия этади.

Эмоционал тарзда келтирилган ёрқин ва таъсирчан образга оқилона таяниш зарур.

Ўқувчиларни онгига сингдирилган қоидаларни яхшилаб асослаб бериши исботланган бўлиши муҳим аҳамиятга эга. Бу ҳамма нарсани тушиниб олишга ва бунинг асосланганлигига ишонч ҳосил қилишга оқилона исботларга рози бўлишга қодир бўлган ўсмирлар ва катта ёшдаги ўқувчилар билан ўтказиш пайтда жуда муҳимдир.

Ўқувчиларда максимал активлик уйғотиш ёки жонли равишда фикр алмашиш истагини уйғотиш уларнинг фикрини авж олдириш ва ўзларини ахлоқ масалалари устида ўйлаб кўришга мажбур қилишлари зарур. Ўқувчиларга тайёр ҳақиқатни зўрлаб қабул қилдириш ярамайди, ахлоқ нормалари ҳақидаги хулосаларни уларнинг актив иштирокида чиқартириш керак. Бунинг учун суҳбат жараёнида муҳокамага қўйилиши керак бўлган масалаларни олдиндан таёрлаб қўйиш тавсия этилади.



Ўқувчиларда чуқур ва таъсирчан эмоциянални уйғотишга интилиш лозим. Бунда ўқитувчи суҳбатни бефарқ, шавқ ва завқсиз эмас балки эмоционал тарзда жонли қилиб ўтказилгандагина эришиш мумкин. Ўқитувчи ўзининг эхтиросли эътиқодида ўқувчиларга ўтишини унутмаслик даркор.

Юқорида айтилган фикрлардан ўқитувчилар ва ота оналар ўзларига ҳамда ўз хулқ-атворларига нисбатан жуда қаттиқ талаблар қўйиши, ўнлаб болаларнинг синовчан кўзлари уларнинг кузатиб турганликлари хеч қачон унутмасликлари керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Гозиев Э. Психология. Т. 1994
2. Гозиев Э Олий мактаб психологияси Т. 1997
3. Азизов Ю.П. Искусство воспитывать М. 1985
4. Давлетшин М. Ёш психология ва педагогик психология Т. 1974

---

## **YOSHLARDA STRESSOGEN VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

*Irmatova Nilufar Xolmatovna*  
*Namangan viloyati Pop tumani 23 maktab psixologi*

Jahon miqiyosidagi mutaxassislar stress bugungi kunda “asr kasalligi” bo’lib qolayotganligini ta’kidlashmoqdalar. Zero, shaxsning stress holatiga tushishi nafaqat uning yuritayotgan faoliyatiga, uning ruhiy jismoniy salomatligiga ham jiddiy salbiy ta’sir etadi. So’ngi yillarda hayot tarzining tezlashuvi, axborotlar oqimining ortib borishi, iqtisodiy o’zgarishlar, emotsional zo’riqishlar, bularning barchasi bugungi kun shaxsiga o’zining salbiy ta’sirini o’tkazayotgani ma’lum. Shunga bog’liq holda bugungi kun kishisida stresslarning kuzatilayotgani keng ilmiy-jamoatchilik diqqat markazida bo’lgan asosiy muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Butun Jahon Sog’liqni Saqlash

Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra (2020-2021-yillar) mavjud kasalliklarning 65%i stress bilan bog'liq ekanligi ta'kidlandi. Demak, kelajakning asosiy kuchi bo'lgan yoshlarda stressga tushishlari tufayli turli somatik va psixosomatik kasalliklarni orttirib olish ehtimoli keng jamoatchilik uchun ham jiddiy e'tibor ob'ekti bo'lishiga asos bo'lmoqda.

Stress jismoniy, ruhiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin bo'lgan zo'riqish holatlarini o'z ichiga oladi. Chidamlilik so'zining ma'nosi "bardoshlilik".

**Stressga chidamlilik** –stressga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. Bu his-tuyg'ular va stressli voqealarni yengish qobiliyatining o'lchovidir. Bugungi kunda yoshlarimiz orasida stress holatlari ortganini ko'rishimiz mumkin. Stress ortida har doim sabab bor. Stressni sababini tushunganingizdan so'ng, shunga mos ravishda qarshi choralar haqida o'ylashingiz mumkin.

### **Yoshlardagi stress sabablari:**

#### **1. Hammaga birdek yoqaman degan fikr.**

Odamlar turli xil qarashlarga ega. Ba'zi bir narsalarni yoqtirishsa, ayrimlarini yoqtirishmaydi. Misol uchun ko'pchilikka yoqadigan taom ma'lum miqdordagi odamlarga yoqmasligi mumkin. Har bir inson ham hammaga birdek yoqavermaydi. Agar hamma sizni yoqtirishi mumkin emasligini tushunmasangiz, siz hammaga birdek yoqaman deb o'ylaysiz va harakatlanasiz. Bu esa stress manbayi hisoblanadi. Chunki hammaga birdek yoqish mumkin emas.

#### **2. O'qish faoliyatida yoki o'qishni tugatgandan so'ng maqsadsiz holat.**

Maqsadsiz barcha qiyinchiliklar stressga aylanadi.

#### **3. Vaziyatni o'zgartira olmaslik hissi.**

Hayotda yoshlarimizga mos kelmaydigan qoidalar, ularning haqiqatlaridan farq qiladigan haqiqatlar va atrofdagilar bilan o'zlarini solishtirishlari. Bu vaziyatlarni o'zgartira olmasliklariga ishonish ham stressni keltirib chiqaradi. Hamma narsa ularning ideallariga to'g'ri kelmaydi.. Ammo bu ular vaziyatni umuman o'zgartira olmaydilar degani emas. Biroq, "vaziyatni o'zgartirish mumkin emas" deb o'ylashlari stressni yaratib beradi.

#### **4. Kechalari yaxshi uxlamaslik.**

Kechasi yaxshi uxlamaslik chidamlilikni pasaytiradi. Miya uxlash orqali his-tuyg'ularni tetiklashtiradigan funksiyaga ega. Tartibsiz va stress tufayli uxlay olmaslik funksiyaning to'g'ri ishlamasligiga sabab bo'ladi. Yaxshi uxlamaslik stressni kuchaytirishi tabiiydir. Bundan tashqari uyqu yetishmasligi kognitiv funksiyani pasaytiradi.

### **5. Stressga qarshi garmonlarning pasayishi.**

Stressga qarshi garmonlarning pasayishi stressga moyillikni oshiradi. Stressga qarshi garmonlar jismoniy mashqlar yetishmasligi, uyqu yetishmasligi va tartibsiz hayot tufayli yetishmaydi. Bugungi kunda zamonaviy odamlar kamroq jismoniy mashqlar va uyquga ega bo'lganligi sababli, bu stressga qarshi garmonlarning kamayadigan muhitini yaratadi.

#### **Stressga chidamlilikka ta'sir qiluvchi omillar:**

**Sezish qobiliyati-** Sezgi qobiliyati qanchalik past bo'lsa, stressga chidamlilik shunchalik yuqori bo'ladi.

**Qochish qobiliyati-**bu stress omillarini qabul qilmasdan oldini olish qobiliyatidir. Stressli vaziyatlarga moslashuvchan javob bera oladigan odamlarning stresslardan qochish qobiliyati yuqori bo'ladi. Tanangiz va ongingiz qanchalik sog'lom bo'lsa, undan qochish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

**Stress omillari bilan kurasha olish kuchi-** stress bilan samarali kurasha oladigan odamlar stressga nisbatan ancha chidamli bo'lishadi. Masalan: sizda muammo ko'p bo'lsa, bu muammoni bartaraf etishni o'ylash, muammolarni hal qilishingiz mumkin.

**Stressni ijobiy narsaga almashtirish qobiliyati-**bu stressli vaziyatlarni ijobiyga almashtirish qobiliyatidir. Misol uchun: biror narsa noto'g'ri bo'lsa, "bu juda qimmatli o'rganish imkoniyati edi" deyish yaxshi fikrdir.

**Tajriba** – bu insonning o'tmish tajribasi. Agar siz o'tmishdagi stresslarga o'rganib qolgan bo'lsangiz, siz kamroq stressga duch kelasiz.

**Imkoniyatlar-** sizdagi imkoniyatlar qancha stressni saqlashingiz mumkinligidir. Agar stressga tushganingizda, imkoniyatlaringiz ko'p bo'lsa, stressga chidashingiz mumkin bo'ladi. Agar sizda imkoniyatlar kam bo'lsa, stressga chidamligingiz kam bo'ladi. Agar siz jismoniy va rihiy jihatdan yomon bo'lsangiz, siz juda ko'p stress holatlariga moyil bo'lasiz.

Psixologik chidamlilik uchun, hayotning go'zal tomonlariga e'tibor qaratib, biz istamagan vaziyatlarga tayyor yashash muhim nuqtai nazardir. Agar biz stressga to'g'ri munosabatda bo'lsak, bu stress bizda asta sekin kamayadi. Insonlar stress haqida gap ketganda salbiy fikrda bo'lishadi, ammo stressing o'zi yomon emas. Stress shunchaki kuchlanish va dam olishdir. Inson qiyin vaziyatlarda stressni his qiladimi yoki u buni shaxsiy qiyinchilik uchun imkoniyat sifatida ko'radimi bu odamning o'ziga bog'liqdir. Stress o'sishga, muvaffaqiyat tuyg'usiga va ishonchga olib keladi.

Stressga chidamlilikni oshirish imkoniyatlari:

- Yaxshi uyqu va to'g'ri ovqatlanish.
- Sevimli mashg'ulot va qadrlaydigan narsalar.
- Boshqalar bilan maslahatlashish- oilangiz, do'stlaringiz va yaqinlaringiz bilan tashvishlaringiz va muammolaringizni o'rtoqlashing.
- Mashg'ulotlardan so'ng dam olish, kichik tanaffus qilish, kofe ichish.
- Siz chora ko'rishingiz kerak. Mashq qilish, musiqa yoqish va raqsga tushish, yurish kabi rag'batlantiruvchi harakatlar bilan stressni engish osonroq.
- Nafas olish mashqlari va meditatsiya ham stressni boshqarishda juda samarali usullardir.
- Sog'lom turmush tarzini qabul qilish: sog'lom oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, spirtli ichimliklar va chekishdan voz kechish, muntazam uyqu.

### **Stressni boshqarish texnikasi:**

**1-qadam:** Stress belgilarini sezganingizda, avvalo, qilayotgan ishni to'xtating. Tanangiz sizga nima demoqchi ekanligini tinglang. Bir muncha vaqt tinchlik va osoyishtalikka vaqt ajrating. Siz tinchlantiruvchi tushni tasavvur qilishingiz yoki tinchlantiruvchi so'zlarni yoki iboralarni takrorlashingiz mumkin. Agar siz ma'lum bir tinchlantirish texnikasini muntazam ravishda mashq qilsangiz, o'zingizni osongina tinchlantirishingiz mumkinligini tushunasiz. Dam olish va stress darajasini pasaytirgandan so'ng, siz aniqroq fikrlashni boshlashingiz mumkin.

**2-qadam:** Ishning qaysi bosqichida xafa va g'azablanganingizni aniqlang. Keyin o'zingizdan nima o'tganini va o'zingizga nima deganingizni so'rang.

**3-qadam:** Boshingizdan qanday mantiqsiz fikrlar o'tayotganini aniqlashga harakat qiling. Nima va qaysi fikrlar sizni bezovta qilayotganini aniqlaganingizdan so'ng, bu

fikrlarni ko'rib chiqing va o'zingiz bilan biroz suhbatlashing. Haqiqiy bo'lmagan va mantiqsiz g'oyalaringizni ko'rib chiqing.

**4-qadam:** Ko'proq mantiqiy va oqilona g'oyalarni ishlab chiqish uchun o'zingiz bilan bahslashing. Endi siz aniqroq va mantiqiy fikr yuritishingiz mumkin, qanday xatti-harakatlar stressni keltirib chiqarayotganini bilib olishingiz mumkin.

**5-qadam:** Eski, muvaffaqiyatsiz odatlardan voz kechish va yanada samarali xulq-atvor namunalarini qabul qilish uchun yangi narsa qilishga tayyor bo'ling. Muxtasar qilib aytganda, sizni yanada muvaffaqiyatli qiladigan yangi xatti-harakatlarga ega bo'lish xavfini oling.

**6-qadam:** Stressga bo'lgan nuqtai nazariningizni o'zgartirish stressni boshqarishga yordam beradi. Vaziyatni qabul qiling va uni qayta ko'rib chiqing.

Har birimiz hayotning turli sohalarida va bosqichlarida son-sanoqsiz stress omillari va kutilmagan oqibatlariga duch kelamiz, va shunga qaramay biz yashashni davom ettirish ma'suliyatining og'irligini his qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova V.M Salomatlik psixologiyasi.-T.: Yangi asr avlodi. 2005.-71 b.
2. Samarov .R.S. Shaxs va stress. O'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent,2004-40b

---

## **РАБОТА С НЕУСПЕВАЮЩИМИ (НИЗКО МОТИВИРОВАННЫМИ) УЧАЩИМИСЯ**

*Нигматова Дилором Ахмаджановна  
психолог специализированной средней общеобразовательной школы №103  
Чиланзарского района города Ташкента*

Чтобы найти средство для преодоления неуспеваемости, надо знать причины, порождающие ее. Это может быть низкое качество мыслительной деятельности ребенка, отсутствие у него мотивации к учению, несовершенство организации

учебного процесса. Определив, чем вызвана школьная неуспеваемость, педагог сможет оказать учащемуся квалифицированную помощь по ее преодолению.

Проблема неуспеваемости беспокоит всех: и взрослых, и детей. Очевидно, что на свете нет ни одного психически здорового ребенка, который хотел бы плохо учиться. Когда же мечты об успешных школьных годах разбиваются о первые "двойки", у ребенка сначала пропадает желание учиться, а потом он просто прогуливает уроки или становится "трудным" учеником, что чаще всего приводит к новым негативным проявлениям и в поведении. Неуспевающие учащиеся начинают искать людей, в кругу которых они не будут чувствовать себя ничтожными. Так они оказываются в дворовых компаниях, пополняя армию хулиганов, наркоманов.

### **Что же такое неуспеваемость?**

Неуспеваемость - это отставание в учении, при котором за отведенное время учащийся не овладевает на удовлетворительном уровне знаниями, предусмотренными учебной программой, а также весь комплекс проблем, который может сложиться у ребенка в связи с систематическим обучением (как в группе, так и индивидуально).

### **Причины и характер проявления неуспеваемости:**

Низкий уровень развития учебной мотивации (ничто не побуждает учиться). Влияют: обстоятельства жизни ребенка в семье; взаимоотношения с окружающими взрослыми

Неправильно сформировавшееся отношение к учению, непонимание его общественной значимости. Нет стремления быть успешным в учебной деятельности (отсутствует заинтересованность в получении хороших отметок, вполне устраивают удовлетворительные)

Интеллектуальная пассивность как результат неправильного воспитания. Интеллектуально пассивные учащиеся - те, которые не имели ни правильных условий для умственного развития, ни достаточной практики интеллектуальной деятельности, у них отсутствуют интеллектуальные умения, знания и навыки, на основе которых педагог строит обучение. При выполнении учебного задания,

требующего активной мыслительной работы, отсутствует стремление его понять и осмыслить.

Вместо активного размышления - использование различных обходных путей: зазубривание, списывание, подсказки товарищей, угадывание правильных вариантов ответа. Интеллектуальная пассивность может проявляться как избирательно в отношении учебных предметов, так и во всей учебной работе. Вне учебных занятий многие из таких учащихся действуют умнее, активнее и сообразительнее, чем в учении

Неправильные навыки учебной работы - со стороны педагога нет должного контроля над способами и приемами ее выполнения. Учащиеся не умеют учиться, не умеют самостоятельно работать, потому что пользуются малоэффективными способами учебной работы, которые требуют от них значительной траты лишнего времени и труда: заучивают текст, не выделяя логических частей; начинают выполнять практические задания раньше, чем выучивают правило, для применения которого эти задания задаются; не проверяют свои работы или не умеют проверять; выполняют работу в медленном темпе

Неправильно сформировавшееся отношение к учебному труду: пробелы в воспитании (нет постоянных трудовых обязанностей, не приучены выполнять их аккуратно, не предъявлялось строгих требований к качеству работы; избалованные, неорганизованные учащиеся);

Неправильная организация учебной деятельности в УО. Нежелание выполнять не очень интересное, скучное, трудное, отнимающее много времени задание.

Небрежность и недобросовестность в выполнении учебных обязанностей.

Невыполненные или частично выполненные домашние задания.

Неаккуратное обращение с учебными пособиями

Отсутствие или слабое развитие учебных и познавательных интересов - недостаточное внимание к этой проблеме со стороны педагогов и родителей. Знания усваиваются без интереса, легко становятся формальными, т. к. не отвечают потребности в их приобретении, остаются мертвым грузом, не

используются, не влияют на представления школьника об окружающей действительности и не побуждают к дальнейшей деятельности

Детей с проблемами школьной успеваемости можно условно разделить на несколько групп:

1 группа. Низкое качество мыслительной деятельности (слабое развитие познавательных процессов - внимания, памяти, мышления, несформированность познавательных умений и навыков и т. д.) сочетается с положительным отношением к учению.

2 группа. Высокое качество мыслительной деятельности в паре с отрицательным отношением к учению.

3 группа. Низкое качество мыслительной деятельности сочетается с отрицательным отношением к учению.

1. Верьте в способности «слабоуспевающего» ученика и старайтесь передать ему эту веру.

2. Помните, что для «слабоуспевающего» необходим период «вживания» в материал. Не торопите его. Научитесь ждать.

3. Каждый урок – продолжение предыдущего. Каждый вносит свою лепту в изучаемую тему. Многократное повторение основного материала – один из приёмов работы со слабыми.

4. Вселяя слабым веру в то, что они запомнят, поймут, чаще предлагайте им однотипные задания (с учителем, с классом, самостоятельно).

5. Работу со «слабоуспевающими» не понимайте примитивно. Тут идёт постоянное развитие памяти, логики, мышления, эмоций, чувств, интереса к учению.

6. Не гонитесь за обилием новой информации. Умейте из изучаемого выбрать главное, изложить его, повторить и закрепить.

7. Общение – главная составляющая любой методики. Не сумеете расположить ребят к себе – не получите и результатов обучения.

8. Научитесь управлять классом. Если урок однообразен, дети сами найдут выход – займутся своими делами.



9. Начав целенаправленно работать со слабыми, помните: спустя короткое время их среда вновь расколется – на способных, средних и... «слабоуспевающих».

10. Научитесь привлекать к обучению слабых более сильных ребят. Изложив материал, опросили сильных – посадите их к слабым, и пусть продолжается учёба.

Рекомендации по работе со слабоуспевающими детьми.

1. При опросе слабоуспевающим школьникам даётся примерный план ответа, разрешается пользоваться планом, составленным дома, больше времени готовится к ответу у доски, делать предварительные записи, пользоваться наглядными пособиями.

2. Ученикам задаются наводящие вопросы, помогающие последовательно излагать материал.

3. При опросе создаются специальные ситуации успеха.

4. Периодически проверяется усвоение материала по темам уроков, на которых ученик отсутствовал.

5. В ходе опроса и при анализе его результатов обеспечивается атмосфера благожелательности.

6. В процессе изучения нового материала внимание слабоуспевающих концентрируется на более важных и сложных разделах изучаемой темы, учитель должен чаще обращаться к ним с вопросами на понимание, привлекать их в качестве помощников, стимулировать вопросы учеников при затруднении в освоении нового материала.

7. В ходе самостоятельной работы слабоуспевающим даются упражнения, направленные на устранение ошибок, допускаемых ими при ответах или в письменных работах: отмечаются положительные моменты в их работе для стимулирования новых усилий, отмечаются типичные затруднения в работе и указываются способы их устранения, оказывается помощь с одновременным развитием самостоятельности.

8. При организации домашней работы для слабоуспевающих школьников подбираются задания по осознанию и исправлению ошибок: проводится

подробный инструктаж о порядке выполнения домашнего задания, при необходимости предлагаются карточки-консультации, даются задания по повторению материала, который потребуется для изучения нового. Объём домашних заданий рассчитывается так, чтобы не допустить перегрузки школьников.

## МАТЕРИАЛ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ НЕУСПЕВАЕМОСТИ УЧАЩИХСЯ

### Признаки отставания – начало неуспеваемости учащихся

1. Ученик не может сказать, в чём трудности задачи, наметить план её решения, решить задачу самостоятельно, указать, что получено нового в результате её решения. Ученик не может ответить на вопросы к тексту, сказать, что нового из него узнал. Эти признаки могут быть обнаружены при решении задач, чтении текстов и слушании объяснения учителя.

2. Ученик не задаёт вопросов по существу изучаемого, не делает попыток найти и не читает дополнительных к учебнику источников. Эти признаки проявляются при решении задач, восприятии текстов, в те моменты, когда учитель рекомендует литературу для чтения.

3. Ученик не активен и отвлекается в те моменты урока, когда идёт поиск, требуется напряжение мысли, преодоление трудностей.

Эти признаки могут быть замечены при решении задач, при восприятии объяснения учителей, в ситуации выбора по желанию задания для самостоятельной работы.

4. Ученик не реагирует эмоционально (мимикой и жестами) на успехи и неудачи, не может дать оценку своей работе, не контролирует себя.

5. Ученик не может объяснить цель выполняемого им упражнения, сказать, на какое правило оно дано, не выполняет предписаний правила, пропускает действия, путает их порядок, не может проверить полученный результат и ход работы. Эти признаки проявляются при выполнении упражнений, а также при выполнении действий в составе более сложной деятельности.

6. Ученик не может воспроизвести определения понятий, формул, доказательств, не может, излагая систему понятий, отойти от готового текста: не

пони­мает текста, постро­енного на изученной системе понятий. Эти признаки проявляются при постановке учащимися соответствующих вопросов.

В данном случае указаны не те признаки, по которым делаются выводы об ученике, а те, которые сигнализируют о том, на какого ученика и на какие его действия надо обратить внимание в ходе обучения, с тем, чтобы предупредить развивающуюся неуспеваемость.

### Литература:

1. Липкина А.И. Самооценка Школьника. М., «Знание», 2006
2. Ананьев Б.Г. Психология педагогической оценки. Л., 2006
3. Бабанский Ю.К. Об изучении причин неуспеваемости школьников. - «Советская педагогика», 1972, №1
4. Блонский П.П. Школьная успеваемость. Избр. Пед. Произв. М., 1961
5. Божович Л.И., Морозова Н.Г., Славина Л.С. Психологический анализ значения отметки как мотива учебной деятельности школьников. - «Известия АПН РСФСР», 1972, №36
6. Гельмонт А.М. О причинах неуспеваемости и путях ее преодоления. М, 1954.

---

## O'SMIRLIK DAVRIDA IJTIMOIIY QO'RQUV HOLATLARINING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA KORREKSIYA QILISHDA AMALIY TAVSIYALAR

*Bekmirzayeva Nafisa Odiljanovna*  
*Namangan viloyati Namangan tumani 19 -IDUM maktab psixologi*

Ushbu maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari va bu davrda ijtimoiy qo'rquvning yuzaga kelish sabablari, shu bilan birgalikda o'smirlik davrida yuzaga keluvchi ijtimoiy qo'rquv holatlarini oldini olish va bartaraf etishda psixolog hamda ota-onalarga amaliy tavsiyalar berilgan.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar barkamol inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning yetakchiligini ta'minlashni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg'ularini e'tiborga olib, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos psixologik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish va diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb etadi, ularni rivojlantirish esa zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Mana shunday psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'smirlik davrida inqirozlarning og'ir kechishi va shaxslararo munosabatlarda yuzaga kelayotgan konfliktlar xisoblanadi. O'smirlik davri "o'tish davri", "og'ir davr", "inqiroz davri" ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Aynan o'smirlik davrida o'z vaqtida aniqlab bartaraf etilmasa, shaxsning kamolotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ba'zi qo'rquv turlari mavjud. Ya'ni bu holat o'smirning o'z-o'ziga beradigan bahosining yanada pasayib ketishiga, nevroz holatlarining vujudga kelishiga va hatto psixik buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilgan o'smirlarning psixologik xususiyatlari turli xildagi biologik yoki ijtimoiy omillar ta'siri ostida bu davrda ijtimoiy qo'rquvlarni vujudga keltiradi. Bunday holatlarning namoyon bo'lishida muammoli oilalardagi omillar sabab bo'ladi:

- Tizimsiz oila (oila a'zolari munosabatlarining nomuvofiqligi, ular o'rtisida surunkali janjal va kelishmovchiliklar);
- To'liqsiz oila (ota-onalardan birining yo'qligi) oilada turli o'ziga xos oilaviy munosabatlarni keltirib chiqaradi;
- Rigid (axloqiy prinsiplarga qattiq rioya qiluvchi) oila, oila a'zolaridan biri tarbiyaviy qattiq qonun-qoida asosida talab qiladi. Oilada qattiqqo'llik o'rnatilgan;
- Bo'lingan oila (ya'ni ota-onalardan biri oilasidan chiqib alohida yashaydi, lekin o'z burchlarini bajarib, oilasidan xabardor, shu bilan birga unga nisbatan qattiq emotsional tobe'lik hukm suradi.);
- Ota-ona tomonidan yo'l qo'yiladigan tarbiyaviy xatoliklar, ya'ni, bunda ota-onalar farzandlarining xatolari va muvaffaqiyatsizliklarini doimo takroriy eslataverishadi,

natijada bola butun diqqat e'tiborini o'z xatti-harakatidagi kamchiliklariga qaratishga o'rganib qoladi. Bu vaziyat shu darajaga borib yetadiki, o'zini tutishi, aqliy rivojlanishi, tashqi qiyofasi normal insonlar ham o'zlarini xunuk, beo'xshov, nodon deb hisoblay boshlaydilar;

- Bolaga yoshligidanoq atrofidagi odamlar tomonidan qo'pol va noxaq munosabatda bo'lingani hamda omadsizlikka duch kelganlarida yaqinlari tomonidan ko'p tanqid va tanbeh berilganligidir. Natijada esa odamlar orasida shaxsda o'zini tuta bilish, nutq so'zlash malakalari rivojlanmaydi, o'zining qobiliyatlarini namoyish qila olmaydigan kishi jiddiy vazifalarni bajara olmaydi, shaxslararo munosabatlarda ham o'z o'rnini topishga qiynaladi. Chunki bunday insonlar odamlar to'planadigan, do'stlik munosabatlarini o'rnatish mumkin bo'lgan joylarga bormaslikka harakat qiladi. Bunday holat insonning yashash tarzi va turmush doirasini chegaralab qo'yadi va o'zlarini juda ham yolg'iz sezishadi. Natijada depressiyani yuzaga keltiradi va ko'pincha alkogol va narkotik moddalardan najot izlaydilar.

Maktab o'quvchilarida bezovtalanishlarning rivojlanishiga olib keluvchi omillar:

1. O'quv jarayoning o'zi psixologik (xastalik) jarohat yetkazuvchi omillar:

Maktab yuklamalari (ayniqsa katta sinflarda) insondagi har qanday faol aqliy faoliyat bezovtalanish bilan kechadi. Agar bezovtalanish yaxshilikka yo'naltirilgan bo'lsa, bola qiyinchiliklarni o'zi yenga olsagina boladagi bilim olish davri oson kechadi.

2. O'qituvchi tomonidan bezovtalanishning kelib chiqishi: Ko'p hollarda o'qituvchilar hukmronlik (diktatorlik) holatida ish yuritishadi, bu esa mustaqillikni va yangi g'oyani taklif etish imkoniyatini cheklaydi. O'quvchilarga nisbatan qilingan e'tiborsizlik, kamsitish, noto'g'ri baholash, o'rtoqlari oldida ustidan kulish kabi holatlar ularda o'ziga nisbatan ishonchsizlikni o'g'ir holatlarida esa suitsidga moyillik keltirib chiqaradi.

**O'smirlik qo'rquvini qanday yengish mumkin?** Eng avvalo o'smirning otanasini, yaqinlari yoki o'qituvchilari tomonidan bu vaziyat jiddiy ekanligini anglagan holda psixolog mutaxassisga murojat qilishi va birgalikda ish olib borish kerak. O'smiringa muloqotga kirishishda suhbatni qanday boshlashi va tugatish kerakligini, turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o'z fikrini bildirish, omma oldida namoyon qilishga o'rgatish lozim. Balki

o'yin shaklida - psixologik trening jarayonlarida mashq qilish orqali ham o'smirda o'ziga bo'lgan ishonchni orttirish mumkin.

**Quyidagi ko'rsatmalar o'smirlarda ijtimoiy qo'rquvlarni korreksiya qilishda yordam beradi:**

1. Ko'z bilan ko'z aloqa qilish mashqi. O'quvchingiz yoki farzandingiz bilan suhbatlashayotganingizda o'smirning ko'z bilan aloqa qilish qobiliyatini rivojlantirish, buning uchun – “Menga qara”, “Ko'zlarimga qarab javob ber”, “Men sening ko'zlaringni ko'rmoqchiman” iboralarini qo'llash va suhbat jarayonida uni rag'batlantirib turish, bu o'smirning boshqa odamlar bilan muloqotini osonlashtiradi.

2. Qo'rquvni vizualizatsiya qilish mashqi – o'smirda qo'rquyotgan ob'yektini, tasavvurini qog'ozga chizish va bu qog'ozni g'ijimlash, kesib maydab tashlash, suvga oqqizish, yoqib yuborish kabilar qo'rquvni yengishga imkon beradi.

**Ota – onalarga farzandlari bilan birgalikda qo'rquvni yengishda ushbu tavsiyalar yordam beradi.**

❖ Farzandingizni o'zi uchun qiziqarli va uni muvaffaqiyatga olib boruvchi mashg'uloti bilan band qilish;

❖ Ham ruhiy ham jismoniy dam olish;

❖ O'zini – o'zi yetarli darajada baholashga o'rgatish, imkoniyatlarini ochib berish va rag'batlantirish;

❖ O'smirning shaxsiy fikrlariga qo'shilish;

❖ Oiladagi mavqei va haq – huquqlarini tan olish.

Demak, o'smirlilik davridan shakllanib boruvchi, shaxs kamolotiga salbiy ta'sir etuvchi, ko'p qirrali ijtimoiy qo'rquvlar hozirgi kunda keng tarqalgan, o'rganilishi lozim bo'lgan muammolardan biridir. Aynan mazkur jarayonni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, psixologlar, ota – onalar uchun voyaga yetmagan bolalarini qiynayotgan tashvish va qo'rquvlarini anglay bilish hamda bartaraf etish usullarini topish va buni keng jamoatchilikka tadbiiq etish juda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'oziev E.G'. “Ontogenez psixologiyasi”. Toshkent 2012.

2. Karimova V.M. “Ijtimoiy psixologiya asoslari”. Toshkent 1994.

3. Nishonova Z.T. “Psixik taraqqiyot diagnostikasi”. Toshkent 2004.

## **MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

*Axmedova Ra'noxon Ismoilovna*

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 28-maktab psixologi*

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, bolalarga chuqur bilim berish maktabgacha va boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirildi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Mamlakatimizni olib borayotgan mazkur siyosati maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglardan g'oyat katta ma'suliyat hamda o'qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so'z boyligi oshishi ravon gapirishi va o'z fikrini to'lik ifoda etib, aytib bera olishga o'rgatish masalaning dolzarbligini ko'rsatib beradi. Nutq o'stirish metodikasi

pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'qirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan. Bolajon tayanch dasturini o'qirish jarayoniga joriy etish, nutq o'qirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'qirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq meyorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. Demak, nutq o'qirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda nutq o'qirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim beradi.

Nutq o'qirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'qirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi. Nutq o'qirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni uzluksiz bolalar nutqini o'qirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, "o'z-o'zidan harakatga kelishi" bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi.

“Avval nima bo'lgan edi” o'yini



Bu o‘yin shartiga ko‘ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo‘lganini aytishlari kerak. Masalan: jo‘ja-tuxum, ot - toychoq, kapalak – qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko‘p ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug‘doy, uy - g‘isht - loy, stol - yog‘och - daraxt - urug‘, ko‘ylak - mato - ip - paxta - chigit tarzida o‘yin davom etaveradi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili bolalarda mantiqiy fikrlash, lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so‘z yasalishi va gramatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim.

Ma’lumki, ona tili darsida ham lug‘at ishlarini o‘tkazish bolalarda o‘zi uchun notanish bo‘lgan so‘zni izohi haqida qiziqish paydo bo‘ladi. Bu so‘zlarning izohini topishda o‘quvchining o‘zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod bolalarning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug‘at bilan ishlashga ham o‘rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha bolalar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi bolalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Bolalarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Tarbiyachi bunday texnologiyani puxta bilishi hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, bolalarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Demak, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda MTT, oila, mahalla, maktabning roli juda katta. Ular birgalikda bolaga ham ta’lim va tarbiya beradilar. Uzluksiz ta’limda izchillik esa o‘z navbatida Vatanga sadoqatli, imon-e’tiqodi butun, o‘z mustaqil fikriga ega, har tomonlama qobiliyatli, o‘z kelajagini o‘zi qura oladigan shaxslarni tarbiyalashda dasturul amal hisoblanadi.

Bola tarbiyasida mustqil fikrlash uning komil inson darajasida intilib, orzu-umidlar va ezgu maqsadlar yo'lida yashashga undaydi, vijdon oldida soflikni ta'minlaydi. Faqat MTT-oila-maktab hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgandagina, har bir oilada badiiy adabiyotga qiziqish ortgandagina, jamiyatda o'sish va rivojlanish sezilarli darajada o'z kuchini ko'rsatadi. Inson ma'naviyatli va madaniyatli bo'lib tug'ilmaydi, u bilim olish jarayonida shakllanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta masalalardan bir esa, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun qo'limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir. Zero, ertangi kun O'zbekiston taraqqiyoti bilimli, salohiyatli, oqil va odil shaxslar qo'lida bo'lishi har doim muhim vazifa hisoblanib kelingan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni, bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'stirish fanining o'rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. -T.: O'qituvchi, 1993.
2. Babaeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2016.
3. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. -T. 4.2004.
4. G'oziyev M. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2004.
5. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari.T.;1995

## МАКТАБДА ТАРИХ ФАНИНИ О'QITISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

*Qurbonova Nigora Mannonovna*  
*Toshkent shahar Yashnobod tumani 255- maktab tarix fani o'qituvchisi,*  
*Tayanch maktab metodisti*

Tarix va ijtimoiy fanlarni o'qitish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Maktabda tarix o'qituvchisi uchun uslubiy tavsiyalar Maktabda tarixni o'rganishga zamonaviy yondoshuvlarni belgilovchi omillar orasida va shunga mos ravishda maktab o'quvchilarining ta'lim sifatini baholashda eng muhimlarini ta'kidlash kerak: Mavzuni o'rganishning maqsad va vazifalari ma'lum bir jamiyat uchun ustuvor bo'lgan, keng ijtimoiy kontekstda namoyon bo'ladigan qadriyat yo'nalishlari va shaxsiy xususiyatlar to'plami shaklida shakllantiriladi. Maktab tarixini o'qitishning asosiy maqsadi yosh avlodga o'z mamlakatining, butun insoniyatning tarixiy tajribasini idrok etish, shu asosda zamonaviy dunyoda o'zligini va qadriyat ustuvorligini anglash imkoniyatini berishdir. Ushbu maqsadga muvofiq fanni o'rganish vazifalari "tarix", Davlat ta'lim standartida shakllantirilgan bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar.

Ushbu talablar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, dunyoqarash va ma'naviy rivojlanish, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashini tekshirishga qaratilgan. Maktab o'quvchilarining tarix fanidan tayyorlanish darajasi "bilim", "munosabat", "faoliyat" toifalarining o'zaro ta'sirida faoliyat va malakaga asoslangan yondashuvlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Vazifalar asosiy bilim, ko'nikma, faoliyat usullarini o'zlashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan; ko'nikmalar - ularni amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "tarix" fanining mazmuni ikkita kursni o'z ichiga oladi - o'qish vaqti bo'yicha ustuvor o'rinni egallagan "Rossiya tarixi" va "Umumiy tarix". Rossiya tarixi kursi Rossiya tarixining o'ziga xosligi va o'ziga xosligini, shuningdek, jahon tarixining etakchi jarayonlari bilan bog'liqligini ochib bergan holda, Vatanning tarixiy yo'lining asosiy bosqichlari haqida tushuncha beradi. Umumiy tarix kursi maktab o'quvchilarini atrofda dunyo xilma-xilligining tarixiy shartlilik, asosiy voqealarni bilish va tushunish, turli tarixiy davrlarning xarakterli xususiyatlarini anglashda muhim rol o'ynaydi. Imtixon

materiallari milliy tarix kursida yaxlit bilimlarni tekshirishga qaratilgan, biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, bir qator fanlar umumiy tarix kursida bilimlarni jalb qilishni talab qiladi. O'qituvchilik amaliyotida rus tarixi va umumiy tarix kurslari sinxron - parallel ravishda o'rganiladi.

O'quv jarayonini rejalashtirishda o'qituvchining o'zi alohida mavzular va syujetlarni ko'rib chiqish uchun muayyan pedagogik vaziyat uchun maqbul ketma-ketlikni aniqlay oladi. Bir qator hollarda ichki va umumiy tarix syujetlarini (xalqaro munosabatlar tarixi va Rossiya tashqi siyosati, jahon urushlari tarixi, madaniyat tarixining ayrim masalalari va boshqalar) o'rganishni birlashtirish tavsiya etiladi. Yuqoridagi muammolarni hal qilish va talabalarni "Tarix" fanidan imtihon topshirishga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etishning bir qator yo'nalishlarini nomlaylik. Faol kognitiv faoliyatni tashkil etish, barcha turdagi o'quv ma'lumotlarini kiritish, kognitiv muammolarni hal qilish amaliyotini kengaytirish, muammoli yondashuvni amalga oshirish kerak. O'quv jarayonida GIA versiyalariga kiritilgan barcha turdagi vazifalarni o'qitish, keyin esa nazorat qilish sifatida keng qo'llash asoslanadi.

Maktab o'quvchilari, shuningdek, imtihon ishining rejasi, unda taqdim etilgan materiallarning qabul qilingan davriyligining xronologik doirasi bilan tanishishlari kerak. Taklif etilayotgan tavsiyalar tarix fanini o'qitishning butun jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari kompleksini rivojlantirish va ta'lim standarti talablarida keltirilgan fan mazmunini o'zlashtirish bo'yicha samarali ishlarni tashkil etishga qaratilgan. FIPI veb-saytida joylashtirilgan quyidagi materiallar o'qituvchiga uslubiy yordam berishi mumkin: 2010 yilda asosiy maktabda tarix fanidan davlat (yakuniy) attestatsiya uchun nazorat o'lchov materiallarini ishlab chiqishni tartibga soluvchi hujjatlar (tarkib elementlarining kodifikatori, imtihon ishining spetsifikatsiyasi va demo versiyasi); 9-sinf bitiruvchilarining imtihon ishlariga batafsil javob berilgan topshiriqlarning bajarilishini tekshirish uchun hududiy fan komissiyalari a'zolari va raislari uchun o'quv-uslubiy materiallar; FIPI ishtirokida ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalar ro'yxati; "FIPI ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida foydalanishga ruxsat etilgan" belgisi bilan o'quv qo'llanmalar ro'yxati. Natijalarni tahlil qilish Rossiya

Federatsiyasining bazaviy mintaqalaridan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash asosida amalga oshirildi. Mualliflar o'qituvchilar kundalik amaliyotida duch keladigan maktab tarixi ta'limining dolzarb muammolarini samarali hal qilishni taklif qiladilar. Mualliflar maktabda tarix o'qitish metodikasi klassik syujetlarini zamonaviy o'qish bilan ajralib turadi. Yangi uslubiy echimlarni izlashda mualliflar jahon pedagogik amaliyotining zamonaviy yutuqlariga tayanadilar, shu bilan birga eng yaxshi rus o'qituvchilarining merosini unutmaydilar.

Nostandart xronologik vazifalar. Taklif etilgan masalalarni yeching va ularning standart masalalardan qanday farq qilishini tushuntiring. 1. Iskandar Zulqarnayn 105-Olimpiada yilida tug'ilgan. Bu qaysi nasroniy yili edi? 2. 6367 yilning yozida «dengiz o'lkasidan kelgan Varangiyaliklar Chudidan, Novgorod slovenlaridan, Maryamdan, barcha Krivichilardan soliq undirdilar, xazarlar esa o'tloqlardan, shimoliylardan. va Vyatichidan kumush tanga va tutundan sincap ". Bu qaysi nasroniy yili edi? 3. Muhammad ishini davom ettirgan xalifalar milodiy 89 yilda Shimoliy Afrika va r havzasi Ispaniyani bosib oldilar. Indus va 40 yildan keyin ular Talas daryosida xitoylarni mag'lub etishdi. Bu voqealar Masih tug'ilgandan keyin qaysi yillarda sodir bo'lgan? Bu yillarda G'arbiy va Sharqiy Evropada nima sodir bo'ldi?

Ko'p yillar davomida o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga bilim berish, ularning o'zlashtirilishini ta'minlash va nazorat qilish deb hisoblangan. Biroq, turli tadqiqotlar natijalari rus maktab o'quvchilarining bir vaqtning o'zida fanning turli sohalaridagi bilimlarni qo'llashni talab qiladigan sof amaliy muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklarini va ba'zan oddiy aqlni, o'z fikrini mulohaza yuritish va bahslashish qobiliyatini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan rus ta'limini modernizatsiya qilish doimiy o'zgarib turadigan zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Yangi maktabning vazifasi - o'rganishga o'rgatish va fikrlashga o'rgatish, maqsad qo'yish va tanlangan yo'nalishda malakali harakat qilishga o'rgatish. Shu bilan birga, bilim olish o'z-o'zidan maqsad emas, balki belgilangan maqsadga erishish vositasiga aylanadi. Qobiliyatlarni shakllantirish esa amaliy faoliyat jarayonida sodir bo'ladi. Shuning uchun maktabda ta'limning faol shakllarini tizimli ravishda joriy etish zarur. So'nggi yillarda joriy etilgan tarix darslarida

o'qitishning faol shakllari tizimi xilma-xildir. Ammo ikkita shakl alohida e'tiborga loyiqdir - guruh amaliy ish (jamoani rivojlantirish o'yini, biznes o'yini) va individual amaliy ish (amaliy test, kognitiv muammolarni hal qilish bo'yicha seminar). Hozirgi vaqtda tarix darsining ustuvor vazifasi turli murakkablikdagi kognitiv va amaliy muammolarni hal qilish jarayonida tarixiy ma'lumotlarni qidirish va ular bilan ishlash usullarini o'rgatish, biznes va shaxsiy muloqot, mustaqil va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. . Ushbu muammoni hal qilish variantlaridan biri sinfda o'qitishning guruh shaklidan foydalanishdir. Kichik guruhda ishlash yangi ma'lumotlarni samarali o'zlashtirish va mavjud ma'lumotlarni aktuallashtirishga, ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruh ishi bolalarning o'tmishni o'rganishga, o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga, faollik-muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, sinfdagi psixologik iqlimni yaxshilashga yuqori motivatsiya beradi. Sinfdagi guruh amaliy ishlarini chinakam samarali qilish uchun bir qancha umumiy tamoyillarga amal qilish kerak: 1) Darsda ishning guruh shakllarini joriy etish tizimli bo'lishi kerak, ya'ni. guruh shakllari vaqti-vaqti bilan qo'llanilmasligi kerak, lekin vaqti-vaqti bilan va aniq ular maksimal samara berishi mumkin. Eng yaxshi variant - o'quv yili davomida teng ravishda kichik guruhlarda to'liq huquqli, intensiv mashg'ulotlar, har bir katta tematik blokda 1-2 sinf. 2) Guruh amaliy ishi, ayniqsa, yangi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga yoki ko'nikma va malakalarni mashq qilishga bag'ishlangan darsda, takroriy-umumlashtiruvchi darsda, shuningdek, agar ushbu material talabalarga yaxshi ma'lum bo'lsa, yangi materialni o'rganish darsida samarali bo'ladi. maktab tarixi darsidan tashqari. 3) Guruhlar ushbu sinfnings psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. 4) Talabaning darsdagi faoliyatini baholash uning shaxsiy faoliyatini va butun guruh faoliyatini baholashdan iborat bo'lishi kerak. Guruhning barcha a'zolariga, ularning ishdagi shaxsiy ishtirokidan qat'i nazar, bir xil baho berishga yo'l qo'yilmaydi. Dars oxirida har bir o'quvchining ishini baholashni avvalo guruhning o'zi, so'ngra har bir bahoning mantiqiy asosini sinf oldida muhokama qilish kerak. Har bir talaba boshqalarning ishini baholar ekan, inson o'z ishini albatta baholaydi. Shunday qilib, talaba nafaqat bilish, balki o'zini ham bilish imkoniyatiga ega

bo'ladi. 5-7-sinflarda raqobatbardosh elementni o'z ichiga olgan eng samarali jamoaviy rivojlanish o'yinlari va 8-11 sinflarda - biznes o'yinlari va seminarlar.

### ADABIYOTLAR

- 1.Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. -T.: “ Sharq”, 2010.
- 2.O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. -T.: “Fan” 2005.
- 3.O'zbekiston tarixi va madaniyati. -T.: 1992.
- 4.N.Jo'rayev, H.Sodiqov. O'zbekiston tarixi. 1-2-3 tom. T., 2012 y.

---

## BOLALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISHDA PSIXOLOGNING YORDAMI

*Ulzada Muratbekovna Erlepsova*  
*Qoraqolpo'g'istan Respublikasi Kegeyli tumani 39-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar psixologiyasida musiqiy ijodkorlik qobiliyatining qay darajada shakllanganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari bolalar musiqiy qobiliyatini musiqa mashg'uotlari jarayonidagi faoliyat turlari orqali shakllantirishi haqida, fikrlar keltirilgan. Shuningdek musiqa ta'lim tarbiyasi vositasida Bolalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlanishini diagnostik tahlil qilinishini qisqacha mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qobiliyat, sensor, motorika, dinamika, talant, idrok, primitiv, faoliyat turlari, badiiy obraz.

Qobiliyat – ma'lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subyektiv sharti bo'lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat – bilim, malaka va ko'nikmalar emas, balki ularga erishish dinamikasidir. Qobiliyat faoliyat usullari va yo'llarini egallash tezligi, chuqurligi vapuxtaligida aniqlanadi.

Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo'luvchi imkoniyatdir. Masalan, agarinson musiqiy faoliyat uchun zarur ko'nikmalarni egallamagan bo'lsa, uning musiqiyqobiliyati haqida gapirish mumkin emas. Psixologiyaning ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron – bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbayi layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda, kishiga ta'sir etadigan tashqi voqiyalar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Bola psixologiyasida, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti – harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l – atvor –shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Bolalar psixologiyasida musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri – ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki, musiqiy qobiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emosional ta'sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi.

Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi» – deb ta'kidlagan. Psixologiyada qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkoni qobiliyatidir. " Shu o'rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy



qobiliyati bo'lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo'ladi, degan fikrga qo'shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaga layoqat bo'lishi mumkin, lekin shundaylayoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy – axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikrdoirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi vatashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Respublikamizdagi har bir maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda hozirgi kunda musiqiy estetik tarbiyaga psixologiyasi shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Qobiliyat – ko'nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o'zlashtirish dinamikasidir. Qobiliyatlar -faoliyat davomida namoyon bo'ladigan imkoniyatdir. Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin. Faqat musiqagina insonning musiqiy hislarini uyg'otadi. Musiqiy ta'lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo'lmaydi. Chunki ular musiqiy bilimlarni o'zlashtirmaganlar.

Nazariya va amaliyotga asoslangan holda shuni aytish joizki, musiqiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish ijtimoiy muhit, tabiatdan berilgan iste'dod, iqtidor, shaxsning iroda kuchi, faolligi, jismoniy va aqliy jarayonlarga ham bog'liqdir. Demak, bolalarda musiqiy qobiliyatlar erta namoyon bo'lishi, shuningdek ularning qobiliyatlari ta'lim – tarbiya va atrof – muhit ta'siri ostida shakllanishini hisobga olgan holda biz quyidagi xulosaga keldik. Uzluksiz ta'lim tizimidagi musiqa mashg'ulotlarida ijrochilik malakalarini rivojlantirishda musiqiy qobiliyatlar muhim omil bo'lib xizmat qilarkan. Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg'ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi, musiqiy qobiliyatini oshirish uchun ko'rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur. Mashg'ulotni tashkillashda musiqa rahbari va maktab psixologi bilan quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- ◆ mashg'ulot bayoni, yangi qo'shiq, raqs xarakatlari, foydalaniladigan cholg'u asboblari uchun tayyorlangan ko'rgazmalar;
- ◆ qismlarni bir-biriga uzviy bog'lay olish;
- ◆ bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda sodda va past ohangda muloqatda bo'lish;
- ◆ texnika vositalaridan foydalana olish;
- ◆ topishmoqlar va boshqotirmalar yordamida bolalar bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borish;
- ◆ musiqaviy xarakatli o'yinlarni atributlar va o'yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.
- ◆ musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompozitor portretlaridan, xilmaxil rangdagi shakllardan foydalanish;
- ◆ ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko'rgazmali qurollardan, tarqatma rasmlardan foydalanish;
- ◆ qo'shiq aytishda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;
- ◆ laparlar va raqslarda atributlar (gullar, lentalar, bayroqchalar, koptoklar v.b) foydalanish;

Musiqali xarakatli va obrazli o'yinlarni o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rin egallaydi. Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi. Musiqaviy – sensor qobiliyatlar Musiqa mashg'ulotlarida bolaning – sensor qobiliyatlar tovushning balandligi, tembri, kuchi – hissi, musiqaviy eshitish; ritm tushunchasi; mahsuldor faoliyatning qobiliyati; ijodiy ijro mahorati rivojlanadi.

Ularni to'laroq ko'rib chiqamiz:

1. Musiqaviylik musiqaviy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo'ladigan sifat komplekslaridan tashkil topadi, uning barcha elementlari ularning struktura munosabatlarida ko'rinadi.

2. Barcha qobiliyatlar emotsional va eshitish komponentlarining sintezligi bilan xarakterlanadi. Musiqaviy faoliyat barcha turlari emotsional rang – baranglik bilan xarakterlanadi.

3. Emotsional eshitish komponentlari bazasida birgalikda quyidagi asosiy musiqaviy qobiliyat yotadi: qayg'urish qobiliyati, fikrlash, tasavvur qilish va baland munosabatlarni eslash, qayg'urish qobiliyati farqni ajratish, musiqaviy ritmni tasavvur qilish va eslash. Ushbu asosiy musiqaviy qobiliyat istalgan musiqaviy faoliyatni bajarish paytida doimo kerak bo'ladigan narsadir.

4. Musiqaviylik qobiliyatlar kompleksi kabi turli musiqaviy faoliyat jarayonida ko'rinadi. Masalan: musiqaviy idrok qilish sostaviga asosiy musiqaviy qobiliyat va boshqalar: ijro etish uchun vosita – instrument bilan, ovoz bilan – musiqa mazmuni kayfiyatini ifodalashga yordam berish, hayajonli jarayonlar, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, texnik qobiliyatlar – qo'shiqchi intonasiyasining tozaligi, motor apparatning pastligi – kiradi. Ijodiy qobiliyatlar sostaviga ijro etuvchilikni xarakterlovchi komponentlar: ifodalilik, to'g'rilik, samimiylik komponentlari va unumli ijodning farqlanishi komponentlari kiradi. Musiqaviylik musiqaviy qobiliyat kabi bolada boshdan juda primitiv (qo'pol) boshlanadi va turli musiqaviy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Bola rivojlanishning birinchi bosqichlarida unda barcha asosiy musiqaviy qobiliyatlar ko'rina boshlaydi va birining ikkinchisidan ustunligi faqat keyinroq ma'lum bo'ladi. Musiqaviy qobiliyatlarning ayrim bolalarda erta paydo bo'lishi ularni zehniga bog'liq deb ataladi. Lekin boshqalarda kechroq boshlanishi ularning orqada qolib ketishlaridan dalolat bermaydi. Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan, musiqiy his – tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiy musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xulosa urnida shini aytishimiz kerakki har qanday qobiliyat ham e'tibor qilinmasa, rivojlantirilmasa sunadi.

Ayniqsa musiqiy qobiliyatni maxsus mashgu'otlar orqali shakllantirish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda mavjud bulgan musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish esa musiqa mashg'ulotlarining asosini tashkil qiluvchi jadvalda keltirilgan faoliyat turlari orqali olib borish maqsadga muvofiqdir..

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov.R.G' . Musiqa psixologiyasi. - Toshkent.; 2005 .(O'quv qullanma)
2. Yusupova N. Musiqa savodi metodikasi va ritmika.- Toshkent.; 2010.“Musiqa” nashriyoti. .(o'quv qo'llanma)
3. Boltayev B. ”Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tarbiyasi”.-“SamDU” nashriyoti .(o'quv qo'llanma) -2019 .
- 4.SoipovaD.”Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi”.- Toshkent.; 2009. (o'quv qo'llanma)
- 5.Vetlugina N.A. “Metodika muzыkalnogo vospitaniya v detskom sadu”.M.: 1989
6. Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
7. Psixologiya. Qisqach izohli lug`at. T.: 1997 yil

---

## MAKTABGACHA TALIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKALARI

*Uljayeva Dilbar Normuminovna*  
*Navoiy viloyati Navoiy shahri 23-DMTT ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha talim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikalariga berilgan katta ahamiyat, hamda ularni organish uchun zarur bolgan zamonaviy o'qitish usullarini o'z ichiga qamrab olgan.

**Kalit soʻzlar:** Maktabgacha taʼlimda chet tili, filand oʻqitish sistemasi, belgi va rasm usuli, ovozni tanib olish va moslashtirish usuli, tabiat dunyosi bilan organish usuli, oʻz faoliyatini oʻquvchilarga moslashtirish usuli.

**KIRISH.** Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish konikmasi professional talimning ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha taʼlim jarayonini ham chetda qoldirgani yoʻq. Yoshlar taʼlimi davomida xorijiy tillarni oʻrgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, kata oʻqituvchi Natalya Kireeva “Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik koʻramiz. Birinchisini tanlaymiz.” deb takidlab oʻtdi. Yaqinda u mahalliy taʼlim tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya taʼlimi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi toʻgʻrisida oʻz fikrlari bilan oʻrtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha taʼlimga etibor berish, davlantning ijtimoiy, iqtisodiy va maʼnaviy jihatdan rivojlantirish demakdir [Finlandiya talim tizimidagi qiziqarli malumotlar]. Shuni ham takidlab oʻtishim kerakki, muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun maktabgacha tarbiya mutaxassislaridan erta bolalik taʼlimi jarayonida eng sevimli oʻqitish strategiyalari bilan oʻrtoqlashishini sorab qolamiz.

Maktabgacha yoshdagi sinf uchun oʻqitish strategiyalarining ushbu roʻyxati oʻqituvchi sifatida taraqqiy etish va oʻrganish uchun juda yaxshi oʻtish imkoniyatlarini beradi.

#### 1. Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli.

Kundalik soʻz boyligini targʻib qilishning usullaridan biri – Touchtime Internationalning direktori doktor Eleyn Fogel Shneyderning soʻzlariga koʻra:

“Bolalarga umumiy brendlar va belgilarga ogʻzaki yorliq qoʻyishdir.” U rasmdan soʻzga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yordam berishini tushuntiradi. Yani bu bolalarni yangi tillarni tez va oson oʻzlashtirishida juda katta yordam beradi.

#### 2. Ovozni tanib olish va moslashtirish usuli.

Ushbu tadbir uchun kartondan kesilgan bir nechta katta harflar va shu harflar bilan boshlanadigan bir nechta kichik, ammo unchalik katta boʻlmagan narsalar kerak boʻladi. Masalan, agar sizning harflaringiz M va K boʻlib, sizda mushuk va fil boʻlsa.

Bolaga mushuk chiqaradigan ovozni aytishdan boshlang. Keyin, bolani xuddi shu tovush bilan boshlanadigan narsani topishga undab, uni harfga yopishtiring.

Bezatilgan harflar sinfda saqlanishi yoki ota-onalar bilan bo'lishish uchun uyga olib kelinishi mumkin. Shnaydarning ta'kidlashicha, bu mashg'ulot talabalarning sevimli narsasidir, chunki bu ularga o'z bilimlarini o'rganishda amaliy yordam beradi.

Bundan tashqari, bu “shoh asar” ni keltirib chiqaradi.

### 3. Tabiat dunyosi bilan o'ganish usuli.

Bolalar darslarni tabiat muhitida o'zlashtirishga juda qiziqishadi. Odatda, ularni hovli bog' orqali tabiat dunyosi to'g'risida ma'lumot berish ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Bu usul o'simlikni urug'dan yetilguncha o'stirish bolalarga o'z o'sishi haqida ma'lumot beribgina qolmay, ularni chet tilidagi so'larni tez va oson o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu usul stressni yengillashtiradi va nozik vosita mahoratini oshirishga ham yordam beradi.

### 4. O'z faoliyatini o'quvchilarga moslashtirish usuli.

Bog'chada yodlagan o'qituvchilar qo'llanmasiga yoki odatiy darslarga qaytish oson bo'lishi mumkin. Biroq, ba'zi bolalar uchun bu muammolar tug'diradi.

Gretzingerning aytishicha, bolalar an'anaviy bo'lmagan uy sharoitidagi bolalarga nisbatan sezgir bo'lishlari kerak. O'quvchilarga o'z oilalari rasmlarini chizishlarini so'rashdan oldin ikki marta o'ylab ko'rish - asrab olingan bola yoki ota-onadan ajralgan farzand qanday his qilishi mumkinligi va boshqa bolalar qanday munosabatda bo'lishlari haqida o'ylab ko'rish kerak. Inklyuziv faoliyat bilan shug'ullanish biroz ko'proq vaqt talab qilishi mumkin, ayniqsa yil boshida siz barcha o'quvchilaringizni tanimasligingiz mumkin, ammo bolada xijolat hissini aks etishi tartibsizlikni saqlaganingizda bilinadi. Bunda tarbiyachi o'z yaratuvchanligini davom ettirishi kerak.

Maktabgacha ta'lim - yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani oylab organishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida otkazilishi, bolishi kerak. Bolalar chet tilni hikoyalarni tushunish yoki oyinlarda galaba qozonish orqali osonroq organadilar.

Agarda xohlasalar, ozlari ishtirokidagi oyinlar orqali organgan malumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bogliq bolishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak. O'quvchilar dars davomida ozlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida xuddi asar qahramonidek ozlarini tutishadi, harakat qilishadi. Boshlangich sinflarda, odatda, chet tillarni organish hayotiy situatsiya va oyinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda organilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli boladi. Agar oyinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili orgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda osha situatsiyaning bir bolagi ekanligini his etishadi. O'quvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, oz sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun sinfda muloqot imkoni bolsa, osha chet tilida bolishi kerak . Bolalar nafaqat yoriqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili orqali oz ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan shaxs(ona ili ingliz tili bolgan)lar bilan muloqot qilishi, sinfga taklif etish ham foydali hisoblanadi. Konstruktiv yondashuvga kora, bolalar imkon qadar koproq tilda ozlari sozlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil talim uslublariga ega.

Bolalar uchun moljallangan talim barcha talim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik organish turlari o'quvchidan alohida etibor talab qiladi. Boshlangich maktablarda o'quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boladi. Chet tilini organish, shuningdek, organuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bogliqdir. Chet tilini orgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun ragbatlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va visual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez organishadi, lekin tezda unutishadi.

Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir oyin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Kurslar spiral bolib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismidir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli orgatish

keng qamrovli usullarni talab qiladi. Muloqotga kirishishning miqdori va sifati tilni tezroq organishning asosiy sabablari hisoblanadi.

XULOSA. Shuni xulosa qilib aytib o'tish kerakki, farzandlarimiz yetuk kadr bo'lib yetishlarida avvalambor, maktabgacha talimning orni ahamiyatlidir. Biz ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy talim tizimi bilan taminlashimiz talab etiladi. Maktabgacha talim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, ya'ni ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bolib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimiz talimiga koproq e'tibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali ularning organishlariga komaklashishimiz zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.

2. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in: Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001

---

## O`SMIRLIK DAVRIDAGI DEVIANT XULQ-ATVORNI PSIXOLOGIK TASHXIS QILISH

*Tursunova Saidaxon Rafikjonovna  
Paxtaobod tumani 6 - maktab psixologi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlik davrida yuzaga keladigan deviant xulq-atvorni tashxis qilish masalalarida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Deviant, xulq-atvor, o'smirlik davri, meyor, og'ishish, individ, shaxs, yosh davrlari, tarbiyasi qiyin, fenomenologiya, dezadaptatsiya, frustratsion, psixoanalitik, bexivioristik tadqiqotlar.

Tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, inson dunyoga kelishidan boshlab to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning



shaxsga salbiy yoki ijobiy aks taʼsir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda taʼlim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan, shu maqsadga qaratilgan boʻlib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini taʼminlashdan iboratdir.

Insonning xulq-atvori oʻzgaruvchan va rang-barang boʻlib, uning individual xususiyatlari, oʻziga xos “uslublari”ning mavjudligi hech qachon va hech kimda hech qanday shubha tugʻdirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning oʻzaro muloqoti, oʻzaro munosabati, ularni saqlanishi zaruratdir. Maʼlumki, har bir jamiyat oʻzining qatʼiy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, anʼanalar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan meyorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi, shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar jarayonida jamiyatda turli ijtimoiy oʻzgarishlar, yangilanishlar yuz bermoqda. Mazkur yangilanishlar jarayoni jamiyatning qadriyatlar tizimiga hamda u orqali shaxslarning hatti-harakatlari va xulq-atvoriga turlicha, ayrim hollarda salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Bu holatga ayniqsa, ruhiy-fiziologik jihatdan ham murakkab oʻzgarishlar davrini boshidan kechirayotgan 14-17 yoshlardagi oʻsmirlarda yaqqolroq namoyon boʻlmoqda. Ushbu muammolarning nazariy asoslarini tadqiq etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlarning oʻsmir yoshlar xulq-atvoriga salbiy taʼsir qilish mumkin boʻlgan jihatlari, ayniqsa ularda kuzatiladigan ijtimoiy deviantlik holatlarining psixologik xususiyatlarini oʻrganish asosiy maqsadni tashkil etadi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sogʻlom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta eʼtibor berilmoqda. Insonning xulq-atvori oʻzgaruvchan va rang-barang boʻlib, uning individual xususiyatlari, oʻziga xos “uslublari”ning mavjudligi hech qachon va hech kimda, hech qanday shubha tugʻdirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning oʻzaro munosabati, ularni turli ijtimoiy guruhlariga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Maʼlumki, har bir jamiyat oʻzining qatʼiy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, anʼanalar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan

meyorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi,shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega.Unga muvofiq ravishda har qanday harakat “to`g`ri” yoki “noto`g`ri” ”yaxshi” yoki “yomon” deb tavsiflanadi.Bunday tushunishda me`yorning tabiiy bog`lanishi,yani unga aloqador tushuncha “buzulish”atamasi bo`lib hisoblanadi.

Odatda “buzulish” atamasi har qanday “kasal” va “kasallik” xususida mulohaza yuritilganda ham ishlatiladi.Chunki buzulish aniq termin bo`lmasdan, balki bu tushuncha orqali xulq-atvor yoki uning simptomlari bilan bog`liq belgilar tushuniladi.Lekin psixik buzulishlar guruhiga alohida ijtimoiy og`ishlar yoki shaxsiyatsiz vazifalar kirmaydi.Har bir shaxs o`z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko`rsatiladigan ko`plab iqtisodiy siyosiy,huquqiy,axloqiy ta`sirlarning obykti hisoblanadi.Shaxsning xarateri,temperamenti,qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda,mehnat faoliyatida,turmushda o`zini namoyon etadi.Demak,psixik jarayonlar,psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzulishini tashkil etadi.Afsuski,biz ba`zan inson haqida fikr yuritganimizda sog`liq,kasallik va uchinchisi sog`liqqa ham,kasallikkka ham qo`shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to`g`ri keladi.

Jahon fani,xususan tabobat ilmu taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan Abu Ali ibn Sino o`zining “Tib qonunlari” kitobida sabablar to`rt xil bo`ladi: moddiy, faol (ta`sir qiluvchi),shakily va tugallovchi sabablarni ko`rsatib o`tadi.Moddiy sabablar sog`liq va kasallik negizlarida paydo bo`ladi.Eng yaqin negiz a`zo ruhdur.Ta`sir qiluvchi sabablar odam gavdasining holatlarini o`zgartiruvchi yoki o`zgarmagan holda saqlovchi sabablardir.Jumladan uyqu va uyg`oqlik ham sabablardan biridir.Bir yoshdan boshqa bir yoshga o`tish,yosh,jins e`tabor bilan farqlash ham ta`sir qiluvchi sabablardandir.Shakliy sabablar mijozlar ulardan keyin paydo bo`ladigan quvvatlar va tarbiyalardir.Tugallovchi sabablar faoliyat (ishlar)dir.O`smirlik davriga xos deviant xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik(dezadaptatsiya) muammosi kuchayib boorish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdur.Bunday o`smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma`naviy axloqiy meyorlarni tanolmasligi ta`lim-tarbiya bilan shug`ullanuvchi oila,maktab,mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni

yuklaydi. Mazkur muammoning tadqiqi bilan shug'ullangan bir qator olimlarning fikricha, sodir etilgan har o'nta jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf qilish orqali samarali amalga oshirish mumkin. Hozirgi zamonda turli yosh davrlariga xos deviant xulqining psixologik korreksiyasi va uni bartaraf qilishga oid yangi texnologiyalar yaratish xususidagi masalaga oydinlik kiritishga e'tabor haddan ziyod ortgan. Zamonaviy psixologiya fanlarida ushbu muammoga bag'ishlangan psixoanalitik, frustratsion, hamda bexivioristik tadqiqotlarning o'rni hamsalmoqlidir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi qiyin o'smirlarning patalogik xulq mexanizmlari, mazkur "qiyin"lik tasnifiga asoslangan tipologiyaning modelini yaratish dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Deviant xulqning fenomenologiyasi, ya'ni deviant xulqning tasnifi, bu o'zgarishlar nafaqat o'smir uchun, balki ijtimoiy guruh va jamiyat uchun ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Insonning deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan meyorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzulishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan meyorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan meyorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy meyorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi. Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh urug'lari va do'stlarining kunglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Katta yoshdagi individ avval boshdanoq ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo'lib, shunga ko'ra faolligining barcha ko'rinishlari yuzaga chiqadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiya T.2002 y 105-b.
2. Kamilova N.G. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi T.2012.244-b.
3. E.G'oziyev. Xulq-atvor motivatsiyasi va faoliyat 1994 y.178-b.

## ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ

*Турсунова Саидахон Рафикжоновна  
Пахтабод тумани 6 - мактаб психологи*

Республикамиз аҳолисининг аксарияти аграр хўжалик соҳаси билан шуғулланаётганлиги туфайли унинг тармоқларига оид мутахассисларни тайёрлаш учун касбнинг психологик хусусиятлари, меҳнат кўникмалари ва малакалари билан бўлғуси ихтисос эгаларини қуроллантириш муҳим ижтимоий вазифалардан биридир. Бўлғуси мутахассисларни касбий тайёрлаш, касб-ҳунар олдига қўйиладиган талабларга мутаносиб инсонлар қилиб шакллантириш давлат аҳамиятига молик муаммо бўлиб ҳисобланади. Ўзбекистоннинг иссиқ иқлим шароитининг биологик-тиббий жиҳатлари бирмунча ўрганилганлигига қарамай, уларнинг механизмлари, акселерация ҳодисаси, қишлоқ аҳолисининг жисмоний ривожланиши, меҳнаткашларнинг иссиқ шароитга мослашишлари, меҳнатни ташкил қилишнинг оқилона йўллари, меҳнат унумдорлигини оширишнинг самарали усуллари, экологиянинг ўзгаришига ўхшаш муаммолар қарийб ўрганилмаган. Қуйидаги мавзулар юқоридаги муаммоларнинг аксариятига жавоб беришга хизмат қилади. Ўқув-касбий фаолиятнинг моҳиятини кучайтириш, таълим жараёнига инновацион технологияларини жорий этиш ҳамда таълим олувчининг шахс сифатида ўзи-ўзини бошқара олиш кўникмалари. Иш жойини қидириш, ишга жойлашиш, малакавий талаблар ва лавозим мажбуриятларини қабул қилиниши, янги ижтимоий касбий вазифани англаб олиш. Ёш мутахассис томонидан янги ижтимоий, касбий талаблар ва масъулиятларини қабул қилиниши. Касбга кириб бориш орқали касбий тажрибага эга бўлиш, ҳаётда янги тартиб, ижтимоий-иқтисодий вазиятларга мослашиш. Касб танлаш қисқа вақтда ҳал этиладиган иш бўлмасдан, балки қатор босқичлардан иборат жараёндир. Бу босқичларнинг давоимийлиги ташқи омилларга ва касб танлаш субъектининг индивидуал хусусиятларига боғлиқ ҳолда кечади. Касб танлашга йўллаш- бу касб таълими психологиясининг асосий муаммоси – шахснинг касбга яроқлилигини аниқлаш, уни тайёрлаш, меҳнат фаолиятига йўллаш масалаларидир. Касб танлашга

йўналтириш давлатнинг тадбир – чоралари тизимидан иборат бўлиб, инсон томонидан танланади, ўз ҳаёт йўлининг илмий асосланганлигини таъминлашга хизмат қилади, у турмушда ўз ўрнини аниқлайди ва қўйидаги шаклларда амалга оширилади:

1. мактабда касбий маълумотлар бериш;
2. касб – ҳунар маорифи билан шуғулланиш;
3. радио, телевидение, кино, матбуотда барча касблар тўғрисида ташвиқот қилиш;
4. касб юзасидан ўқувчиларга маслаҳатлар бериш;
5. касбга саралаш (қобилиятига биноан);
6. касбга мослашиш бўйича ўқувчиларга маслаҳатлар бериш.

Касб танлаш, касбга йўналтириш, касбни эгаллаш ва мутахассис сифатида ишлаш ва тажрибали мутахассис бўлиб камол топиш узлуксиз ҳамда бир-бирини тўлиқ изчиллигини тақазо этадиган жараён дир. Шу боис ушбу жабҳаларнинг ҳар бири юзасидан илмий изланишларга доимо зарурат туғилади. Биз касбий мутаносиблик масаласини психологик тадқиқ этишда дастлаб талабаларнинг касбга йўналганлик ҳолати ва тасаввурларини таҳлил қилишга эътиборимизни қаратишимиз керак. Мазкур вазифани амалга оширишда (Б.Р.Қодиров) “Ёшларни касбга йўналтириш” анкетасидан фойдаланилди. Анкета социал-психологик характерга эга бўлса-да, унинг имкониятлари бундан кенгроқ эканлигини инобатга олган ҳолда муаммони ёритишда ундан фойдаланишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Анкета 15 та банддан иборат бўлган саволлардан тузилган бўлиб, ёшларни касбга йўналтиришдаги баъзи бир жиҳатларни аниқлашга ёрдам беради

1. Келажакка қаратилган шахсий режаларингизни амалга ошириш учун нималар қилмоқчисиз?(Бир неча жавобни белгилаш мумкин)

1. Ўқишни муваффақиятли тугалламоқчиман.
2. Мутахассисликни мукамал эгалламоқчиман.
3. Пул тўпламоқчиман.
4. Зарур инсонлар билан яқинлашмоқчиман.
5. Ота-онам ва қарингдошларимдан фойдаланмоқчиман.
6. Динга берилмоқчиман.

7. Бошқа нима? (Ёзинг) \_\_\_\_\_

2. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида касб ўрганиш ёки касбга эга бўлиш ёшларнинг ҳаётга киришишидаги аамиятга эгами?

1. Катта аҳамиятга эга
2. Аҳамиятга эга эмас.
3. Билмайман.

3. Сиз олийгоҳга ўқишга кирганингиздан бери анча вақт ўтди. Сиз келгуси касбингизни тўғри танлаганингизни айта оласизми?

1. Ҳа, айта оламан
2. Йўқ адашганман.
3. Касбим эмас, танлаган олийгоҳим хато бўлган.
4. Жавоб беришга қийналаман
4. Агар сиз танлаган касб хато бўлса, қандай чора кўрмоқчисиз?

1. Шу

касб бўйича ўқийман ва келгусида ишлайман.

2. Шу олийгоҳни битираман, кейин бошқа касбда ишлайман.
3. Яқин орада бошқа факультетга ўтмоқчиман.
4. Ўқишни ташламоқчиман.
5. Жавоб беришга қийналаман.

5. Қуйидаги касбларнинг қайси бири сизнингча обрўли? (Жавобларни фақат 1 тасини белгиланг)

- |                      |              |                     |
|----------------------|--------------|---------------------|
| 1. Инженер           | 6. Сотувчи   | 11. Милиционер      |
| 2. Врач              | 7. Бухгалтер | 12. Бизнесмен       |
| 3. Олим              | 8. Ишчи      | 13. Менежер         |
| 4. Оўюда домла       | 9. Юрист     | 14. Бошқасини ёзинг |
| 5. Мактаб ўқитувчиси | 10. Ҳарбий   |                     |

6. Касб танлашни қачондан бошлаш керак деб ўйлайсиз?

1. Мактабдан
2. Лицей ва коллеждан
3. Институтдан

7. Сизнингча, касб танлашда нималарга эътибор бериш керак? (Жавоб фақат 2 тагача)

1. Инсоннинг табиат ином этган қобилиятига
2. Бор касбларни илмий асосда талил қилишга.
3. Дўстлар маслаҳатига
4. Оммавий ахборотларга
5. Ота-она касбига.
6. Яшаш муҳитига,
7. Ўқитувчи маслаҳати

8. Касб танлашда асосан нималар керак деб ўйлайсиз?

1. Инсонларни қизиқишини аниқловчи мезонлар керак.
2. Инсонларнинг қобилиятлари-реакцияларини аниқловчи механизмлар-психологик тест-дастурлар.
3. Кўп йиллик кузатув учун социолого-психологик дастурлар.
4. Мактаб ва ота-она биргаликда.

9. Касб танлашни неча ёшдан бошламоқ лозим деб ўйлайсиз?

1. 1-3 ёшдан 3. 6-7 ёшдан 5. 11-15 ёшдан
2. 4-5 ёшдан 4. 8-10 ёшдан 6. 16-20 ёшдан.

10. Сиз ўзингиз касбни неча ёшдан танлагансиз?

16 ёшда

11. Касб танлаганингизда кимларнинг ёрдами теккан? (Ёзинг)

1. \_\_\_\_\_

12. Сизнинг касбингизни танлашдаги фикрингиз?

1. Тўғри танлаганман
  2. Унчалик тўғри эмас.
  3. Нотўғри танлаганман.
13. Касбингиздан мамнунмисиз?
1. Ҳа
  2. Йўқ.

14. Сизнингча, тахминан неча фоиз ёшлар касбини нотўғри танлаяпти?

1. 10фоиз

2. 15 фоиз

3. Ундан юқори \_\_\_\_\_ фоизгача.

15. Ёшларни касб танлашда Сизнингча, конкрет нима ишлар қилмоқ керак?

1. Ўрта макта, лицей ва коллежларда ОЎЮда касб танлаш ва касбга йўналтириш бўйича алоҳида мутахассислар ишлаб туриши керак.

2. Касб танлаш бўйича китоблар яратиш керак.

3. Касбий марказ ишини такомиллаштириш керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. С.Х.Таджиева, Д.Ф.Сабирава “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011й.

2. Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. - 176 с: ил. - (Серия «Практическая психология»).

3. Захаров В.П., Хрящева Н.Ю. Социально-психологический тренинг. Л., 1990.

4. Практикум по социально-психологическому тренингу. Под.ред. Б.Д.Парыгина. Санкт-Петербург, 1994.

---

## **ZO'RAVONLIK VA UNING BOLA TARBIYASIGA TA'SIRI**

*Marasulova Shoxsanam Abdumalikovna*  
*Farg'ona viloyati Beshariq tumani 52-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oiladagi zo'ravonlik, zo'ravonliksiz maktab yaratish, zo'ravonlikdan saqlanish uchun psixolog tavsiyalari, zo'ravonlikka qarshi kurashish haqida ma'lumot berilgan.



**Kalit so'zlar:** zo'ravonlik-bulling, ta'qib, agressiv, travma, patologiya, genotip, krizis, korreksiya, meditatsiya.

Bugungi kunda zo'ravonlik holatlari haqida ko'p bor eshitmoqdamiz. Zo'ravonlik holatlari natijasida farzandlar ta'lim-tarbiyasida turli salbiy o'zgarishlarga duch kelmoqdamiz. Zo'ravonlik-bulling bu majburlash, tahqirlash, izzat-nafsiga tegish, jismoniy, g'ayriqonuniy o'zboshimchalik harakatlaridir.

Oiladagi zo'ravonlik oila a'zolaridan birining boshqalar ustidan hukmronlik qilishi, oila a'zolariga nisbatan muntazam agressiv, dushmanona harakatlar oqibatida zo'ravonlik ob'yektiga zarar, jarohat yetkazishi, tahqirlashi tushuniladi. Oiladagi zo'ravonlik turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, erning ayoliga nisbatan, ayolning eriga nisbatan, ota yoki onaning bolaga nisbatan, katta yoshlilarning kichiklarga nisbatan va keksalarga nisbatan zo'ravonlik bo'lishi mumkin.

Oiladagi zo'ravonlikni psixologik jihatdan olib qarasaq uning mohiyatida ehtiyojlarga, hohishlariga, hissiyotlariga nisbatan zo'ravonlik, bolani tahqirlash va uning hohish-istagiga zid bo'lgan harakatlarga majburlash kabi holatlar kuzatiladi. Agar har bir tahqirlash, haqorat va kaltaklashlarni hisobga olsak har bir bolaning hayoti davomida ota-onasi va boshqalar tomonidan shafqatsizlikka uchrashini kuzatamiz. Ota-onalar o'z ehtiyojini o'ylagan holda bolani hohish-istagini inobatga olmaydi.

Ko'pchilik ota-onalar tarbiya jarayonida shafqatsizlikdan foydalanadilar. Bunday shafqatsizlik natijasida bolada jismoniy travmalar, hattoki o'lim holatlari ham kuzatilmoqda. Jismoniy jazo natijasida bolalarda o'zini past baholash, uydan va ota-onadan uzoqlashish, o'ch olish hislari paydo bo'ladi.

Ko'pincha bekorchi, ota-ona nazoratisiz qolgan yoki oilaviy muhiti yaxshi bo'lmagan bolalar bezorilik, o'g'rilik, guruh bo'lib mushtlashish kabi jinoyatlarni sodir etadi. Bunga sabab jamoatchilik nazoratining sustligi, ta'limning sifatsizligi, pedagoglarning e'tiborsizligi hamda mas'uliyatsizligi, bolaga tarbiya berayotgan va ularning ta'minoti bilan shug'ullanayotgan ota-onaning mas'uliyatsizligidir.

Shuningdek, aksar kinolar, mul'tfilmlar va kliplar yoshlar o'rtasida zo'ravonlikni, yakka hukmronlikni, xudbinlik, manmanlik va janjalkashlikni targ'ib qilayotganligini

alohida ta'kidlash mumkin. Haqiqatan, bu insonni insoniylikdan chiqarib, vaxshilikka undaydi. Urush-janjal, mushtlashuvlar tasvirlangan sahnalarni ko'rgan murg'ak qalblarda o'zini bo'rilardek his qilish, insonga o'ljadek tashlanish, o'zini boshqara olmaslik, g'azab va kuchli nafrat bilan hech narsadan tap tortmaslik boshlanadi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarimizda zo'ravonlikka qarshi kurashish choralari kuchaytirilmoqda. Zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan korreksion ishlarni amalga oshirishda eng katta mas'uliyat sinf rahbarlari va psixologlar zimmasiga yuklanadi.

Sinf jamoasida ahillik va ijobiy munosabatni shakllantirish albatta sinf rahbariga bog'liqdir. Sinfda zo'ravonlik, ta'qib ko'proq jismoniy va aqliy rivojlanishi past bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Ta'qib deganda odatda tahqirlash, ustidan kulish, ataylab e'tibor bermaslik, kamsitish va kaltaklash tushuniladi. Ko'p hollarda zo'ravonlik-bulling bir martalik hodisa emas. Faqatgina «g'alati» yoki «zaif» bo'lgan bolalargina emas, har qanday bola bulling qurboni bo'lishi mumkin. Odatda, ta'qibning sababi – sinfdoshlar orasida hukmronlik qilishga intilishdir.

Zo'ravonlikka uchragan o'quvchida jamoadan uzoqlashish, sababsiz dars qoldirishlar, jamoadan ajralish, o'zini kamsitilgandek his qilish holatlari yuzaga keladi. Bu holatlarni korreksiya qilishda sinf rahbari sinf soatlarida turli tadbirlarni tashkil etishi mumkin. Masalan, bolalar zo'ravonlikka uchragan o'quvchi uchun tilaklar yozilgan qiziqarli narsalar yasashi, xatlar yozishi mumkin: “Biz seni hurmat qilamiz”, “Sinfda o'ring boshqacha”, “Sen bilan birga o'ynamoqchimiz”, “Birga sayohatga chiqamiz” kabilar. Bu kabi korreksion tadbirlar natijasida vaziyat ancha yaxshilanib, bola sinfga qaytarish mumkin. Bundan tashqari sinf jamoasi bilan birgalikda sayohatlar uyushtirish, muzeylarga borish, tanlovlar, ko'rgazmalarda qatnashish ham yaxshi samara beradi. Bu bolalar o'rtasidagi tajovuzkorlik darajasini pasaytiradi.

Bullingdan qanday himoyalanish mumkin?

Bullingni to'liq yo'q qilish imkonsiz, bu jamiyatda doimo u yoki bu shaklda davom etaveradigan hodisa.

O'quvchi-yoshlar o'rtasida zo'ravonlik-bullingning oldini olish va unga qarshi kurashishda ota-onalar muhim rol o'ynaydi. Kelajakni kafolatlashni istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan harakat va vaqtlarini farzandlarini ulg'aytirish uchun ajratsa,

yomon bo`lmasdi. Boshqa ishlar uchun sarflangan harakatlar zoye ketishi mumkin, biroq farzand kamoli uchun qilingan harakatlar eng xolis amallardandir. Farzandining qalbi va ruhini unutgan ota-onani johil kimsalarga, bunday xatolar qurboni bo`lgan farzandni esa baxtsiz va omadsiz insonga qiyoslash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zarifboy Ibodullayev “Asab va ruhiyat” “Zamin nashr” nashriyoti 2018
2. Zarifboy Ibodullayev “Tibbiyot psixologiyasi” Toshkent 2010

---

## **AJDODLARIMIZ MEROSI TA'LIM-TARBIYANING MUHIM OMILI**

*Raximova Ra'no*  
*Qashqadaryo VXTXQTMOHM o'qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar bayon etilgan. Xalq pedagogikasidagi tarbiya metodlari ko'rsatib berilgan.

### **TAYANCH SO'ZLAR**

Xalq pedagogikasi, ma'naviy boyliklari, o'zbekona axloq-odob, tarbiya usullari, umuminsoniy qadriyatlar.

Xalqimizning ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari xalqimizning ma'naviy boyliklaridan biri bulib, u tarbiyaning maqsad va vazifalarini, shaxs kamolatini rivojlantirishda muhim yo'nalishlarni ifoda etuvchi bir qancha vositalarning majmuidir. Chunki unda xalqning avloddan – avlodga o'tib kelayotgan tajribalari va pedagogik bilimlari namoyon etilgan. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq-odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'ziga mujassamlantirgan.

O'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida, oilaviy turmush tarzida bola tarbiyasida qo'llangan usul va tadbirlarda namoyondir.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vosita tadbir shakllari, urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar-xayotiy tajribalar o'zbek xalq pedagogikasida mujassamdir.

Xalq pedagogikasining bosh ob'yekti – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonidir. Shuning uchun xalq tarbiyaning mohiyatini qanday tushunishi, tarbiya jarayonida qanday metod va usullardan foydalanishi, tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini qanday talqin etishi haqidagi masalalar qiziqarlidir. Shuningdek, xalq asrlar davomida to'plangan, ilmiy-pedagogik tushunchalar bilan boyib borgan bilimlarni oilaviy tarbiyaga qanday tadbiq etganligini ham tahlil etish zarur.

Xalq hamisha yosh avlod tarbiyasi mohiyatini to'g'ri talqin etgan. Bu yo'ldagi qiyinchiliklar va quvonchlarni, uning bebaho ish ekanligini to'g'ri anglab yetgan. Shuning uchun: “Tarbiya – bebaho boylik” deganlar. Turkmanlar: “Bola-aziz, odobi undan aziz” desalar, o'zbeklar: “Aql bahosiz, tarbiya esa chegarasiz” deb bejiz aytmagan. Chunki tarbiya jarayoni tarkibiga ko'plab yo'nalishlar kiradi. Ammo, bunda eng muhim yo'nalishni aqliy tarbiya tashkil etadi. Shuningdek, tarbiya jarayoni g'oyat murakkab ish, u alohida e'tibor, bilim va malakani talab etadi. Xalq inson tarbiyasini ona qornidayoq boshlash zarurligini allaqachon anglab yetgan. Agar bola tarbiyasida vaqt o'tkazib qo'yilgan bo'lsa, yoki tarbiya noto'g'ri olib borilgan bo'lsa, qayta tarbiyalash zarurligi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan.

Xalq pedagogikasi manbalarida bola tarbiyaviy sifatlarining shakllanishi bevosita ota-onaga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlangan. Chunonchi: “Bolaning qadami oiladan boshlanadi”, “Yomon o'g'il uchun ona, yomon nabira uchun buvi javobgar”, “Sababi otada, natijasi bolada” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino ham bola tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rnini yuqori baholab, “Tadbiri manozil” asarida: “Agar oila tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalansa, u hayotda baxtga erishadi. Oilada bosh tarbiyachi – otadir, onaning yumshoq ko'ngilliligi bola xarakterini buzadi”, - deydi.

Xalq bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ham hayratlanarli darajada to'g'ri tushunadi. Shuning uchun yomon xislatli bolalar muhiti bola tarbiyasini buzib qo'yishi mumkinligi quyidagiga takidlanadi: “qovun-qovundan rang oladi”, “Oriyatsiz

odamdan qoch!” “Yomon bilan yursang qolarsan uyatga, yaxshi bilan yursang yetarsan murodga”, “Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqor” kabilar. Shuning uchun Ibn sino pedagogik jarayonni yaxshi xulqli bolalar jamoasida olib borishni tavsiya etib: “Barcha turdagi o’quv mashg’ulotlarini jamoada olib borish zarur. Chunki bolalar jamoa muhitida do’stlashadilar, bir-birlarini hurmat qilishni o’rganadilar, yaxshi xislatlarni ham bir-birlaridan o’rgandilar”-degan edi. (“Tadbiri monozil” asaridan).

Bola tarbiyasida yomon tomonga og’ish yuz berishi ham mumkinligini to’g’ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: “Buyumni suv bilan, insonni o’rgatish bilan tozalashadi”. Lekin, Rudakiy ta’kidlaydiki: “Agar kim olmasa hayotdan ta’lim, unga o’rgatolmas hech bir muallim”. Yoki: “Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo’q.”, “Toptalgan o’tloqda ham gul unadi” va boshqalar shular jumlasidandir.

Har bir jamiyatda yashagan xalq ruxi, do’stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g’oyalari, ota-onalarning o’zaro axiligi, ular bilan farzandning o’zaro mexr-muxabbati, qadr-qimmat, insoniy eng yaxshi fazilatlarini u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlarda tarannum etgan. Bu yodgorliklar o’z muxtasarligi, qiziqarliligi, rovonligi, oxangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi) g’oyaviyligi bilan, g’oyatda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Xalq pedagogikasining eng qadimgi yozuv paydo bo’lishidan oldin shakllandi. Shunga ko’ra, u ilmiy pedagogikaning boshlanishi hisoblandi. Xalq pedagogikasi inson, xalq bunyod bo’lgan davrdan boshlab mavjuddir. Jamoatchilik xususiyati, xayotiylik, xayotiy ifodalilik-xalq pedagogikasining asosiy xususiyatidir.

Xalq pedagogikada turli xil tarbiya usullari va vositalardan foydalaniladi, bu usulvositalar nihoyatda rang-barang bo’lib, ko’p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki bu usullar ilmiy pedagogikani shakllanishida ham o’z ta’sirini o’tkazgan. Xalq pedagogikasida qo’llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o’rganish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so’rash, yaxshiliklar haqida so’zlash, o’rnak bo’lish).

3. Nasihat berish o'g'itlar undan (ko'ndirish, iltimos qilish, tilak, istak bildirish, maqullash, rahmat ayitish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).

4. Jazolash (ta'qiqlash, gina, tanbeh berish, koyish, ayblash, uyaltirish, va hokozolar).

Agar sinchkilab qaralsa yuqorida keltirilgan to'rt xil usul umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va xodisalarga tushuntirishlarda tarbiyachi namuna vositasini o'taydi. Ya'ni yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Unda ham tushunmagan kattalarni nasihati, o'giti orqali narsa va xodislarning mohiyatiga yotadigan bo'lishadi.

Bordi-yu bunda ham tushunmasa, yoki tushunishni istamasa unda qoralash va jazo usullaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora aniq kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan. Xalq pedagogikasining nodir namunalari tarbiyaviy usullari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan.

Hasharlar, turli gurunglar, tug'ilgan kunni nishonlash, qizlar bazmi, yigitlar bazmi, musobaqalar, turli marosimlar va boshqalar o'ziga xos tarbiyaviy vosita vazifasini bajargan. Yoshlarni tarbiyalashda milliy an'analar umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Bular o'z navbatida yangicha tarbiyaning o'zgacha muvofiq uslub va shakllarni taqozo etadi. Inson qalbiga ekilgan yaxshilik orada o'n yillar unib chiqadi. Buni ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilish kerak.

Xalq pedagogikasi kishi aqli va qalbiga ta'sir etib, ularning ishida va turmushida, fe'l-atvori va odobida, mehr-shavqat, odillik, poklik, olijanoblik, xaqgoylik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirgan.

Milliy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- xalq og'zaki ijodi.
- milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar.
- xalq oyinlari va oyinchoqlar.
- diniy ta'limot.
- xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.
- milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, milliy cholg'u asboblari.
- tasviriy san'at.

- tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik.
- xalq raqs san'ati.
- yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish.
- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari.

Xalq pedagogikasi o'quvchilarni xalqimizning urf-odatlariga, qadriyatlariga, diniga, tiliga, Vataniga, milliy va umuminsoniy boyliklariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashning asosidir.

Xalq pedagogikasida dunyoning moddiyligi, ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi, sabab va oqibatlari, shakl va mazmuu birligi, qarama-qarshi kuchlar kurashiga doir falsaiy qonuniyatlarga amal qilinganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "Har bir qiyinchilikning rohati ham bor", "Oldinga ketgan xalinchak orqaga ham qaytadi", "Quvonch kelmasdan qayg'u ketmas"... kabi ifodalar shular jumlasidandii.

Xalq bola fe'li va ruhiyatini gydakligidan kuzatish oqibatida uning axloqiy sifatlarini bilib olgan. Shuning uchun tarbiyani ona qornidayoq boshlash lozimligini tavsiya etgan. Chunonchi, "Bola boshidan, meva kyhatidan bilinadi", "Bolani beshikdan tarbiyalash kerak", "Uch yoshlining amali sakson yoshda ham saqlanadi" kabi maqollar va hikmatli so'zlar fikrimizning dalilidir.

Vujudimiz va qadriyatlarimizda neki bo'lsa, barchasi o'tmishdoshlarimiz va buyuk ajdodlarimiz rihiyajtida jamlanganligini har bir o'qituvchi va o'quvchi chuqur bilmog'i va his etmog'i darkor. Zero, milliy pedagog-kadrlarni tayyorlashni ushbu omillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

## XALQ PEDAGOGIKASIDA ILM VA UNI EGALLASHNING AFZALLIGI XUSUSIDA

*Yuldasheva Yulduz Javliyevna*  
*Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM*  
*Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedراسi o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq pedagogikasida ilm va uni egallashning afzalligi xususida ma'lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birga ilm va uni egallashning afzalligi xususidagi fikrlardan namunalar keltirilgan.

### KALIT SO'ZLAR

Xalq pedagogikasi, ilm va uni egallash, yosh avlod tarbiyasi, Sharq mutafakkirlari.

Kelajagi buyuk Vatanimizning baxtli sohiblarini insoniyat daholari yaratgan ilm-fan yutuqlari bilan qurollantirish davr talabidir. Buning uchun yosh avlod ongiga ilmning inson uchun, mehnat samarasini, Vatan va xalq qudratini oshirish uchun eng zarur omil ekanligini singdirish zarur. Bu ishda bizga xalq pedagogikasi yaqindan yordam bera oladi.

Yosh avlodga aqliy tarbiya berish, ularning ongini ilm bilan qurollantirish barcha davrlarda xalqning diqqat markazida bo'lgan. Keng xalq ommasi o'tmishda ommaviy tarzda ilm egallash imkonidan mahrum bo'lsada, hamisha bolalarni ma'lumotli, fan yutuqlaridan xabardor kishilar qilib tarbiyalash orzusi bilan yashagan. Shuning uchun: "Ilm – aql chirog'i", "Ilmsiz ish topilmas, ishsiz qorin to'q bo'lmas" singari maqollar yaratilgan.

Xalq hamisha ilm – tafakkur quroli, dalillarni ma'lum maqsadga ko'ra o'rganish, tushuncha va qonunlarni o'zlashtirishdan iborat ekanligini tasavvur qilgan. Bu tushuncha va tasavvurlarda tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari aks etganligini bilgan.

Ilmning ahamiyati xalqning bo'rttirilgan tarzdagi "Ovqat topib yeyishning o'zi uchun o'n million turdagi bilim zarur", - degan maqolida yaxshi ifodalangan. Ushbu maqolda ilm-fan yo'nalishlari va turlari juda ko'p ekanligiga ishora qilingan.



Etnopedagogika manbalarida ilm barcha boyliklardan ustun qo'yiladi, uning yordamida albatta baxtga erishish, dushmanni va turmush qiyinchiliklarini yengish mumkinligi ta'kidlanadi: "Bilim puldan qadrli, qilichdan o'tkir, to'pdan kuchli", yoki: "Bilim – aqlning yarmidir", - deyiladi. Xalq ommasi haqiqiy boylik moddiy buyumlarda emas, balki ilmni egallashda ekanligi targ'ib etiladi. Ularda ilm yirtilmas kiyimga, tunganmas buloqqa o'xshatiladi. Shuningdek, bilim qancha ko'p sarflansa ham u tugamaydi, balki ko'payib boradi. Ilmni o'ziga jo etuvchi ong shunday idishga o'xshaydiki, qancha ko'p ilm egallasang ham u kengayib boraveradi, lekin yorilib ketmaydi. Boylik ko'payganda esa uni sig'dirib bo'lmay qolish ham mumkin.

Jamiyatda kishi odamlarni yangi kiyimi bilan emas, balki bilimi bilan hayratlantirish lozim deyiladi. Jumladan: "Aqldan qimmatli narsa yo'q", "Aql bozorda topilmaydi", "Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar", "Olamni quyosh, insonni bilim charog'on etadi" va b..

Xalq pedagogikasida qadimdan ilm sohiblariga nisbatan hurmat, ehtirom ko'rsatish targ'ib etilgan. Ilmli kishilar ulug'langan. Hokimlar, shohlar o'z yonlarida ilmli kishilardan maslahatchilar saqlaganlar. Bilimni bolalikdan o'rgatish tavsiya etilgan. O'z bilimini boshqalarga o'rgatmaslik "yomg'irsiz bulut" ga qiyoslangan. Shuningdek, ilm o'rganish oqimga qarshi suzishga o'xshatilgan va uni muntazam olib borish kerakligi ta'kidlangan: "Yoshlikda o'rganilgan bilim toshga o'yilgan yozuv", "Bir marta saboq ol, o'n marta takrorla" va hokazo.

Donolarni, ustozlarni hurmatga chorlovchi manbalar ham ko'p: "Ustozing uchun xanjar yut", "Chiroqni yog' yoritar, bilimni ustoz", "Ustoz – otangdan ulug'", "Ustozning qattiqqo'lligi, otaning maqtovidan yaxshiroq" va b..

Xalq pedagogikasida aqliy tarbiya berishni an'analar (dehqonchilik, astronomik ...) bilan bog'lab olib borish tavsiya etiladi. Chunonchi, eski yil hisobi, oy nomlari; hamal, savr, chilla .... kabilar. Ilm, fan, ma'rifat –insoniyat, jamiyat rivojlanishining asosi hisoblanadi. Ilmga ega bo'lish shaxsga atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan to'g'ri munosabatning qaror topishi hamda shaxsning zimmasidagi burch va mas'uliyatlarni anglagan holda bajarishi uchun zamin bo'ladi.

Jamiyat qo'ygan talablarga javob bera olish hamda yuqori malakali kadr bo'lib yetishish uchun birinchi navbatda mavjud bo'lgan ilmlarni puxta va aniq egallash lozim hisoblanadi. Chunki, chuqur bilimga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra olish va baholashga imkon yaratadi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya masalalari, ilm egallash va uning afzalliklari Sharq mutafakkirlarining asarlarida alohida o'rin egallagan. Chunki ular ilm-fanni jamiyat ravnaqiga eltuvchi yo'l deb hisobalashgan. Biz ilm-fan haqidagi qarashlarni Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy va Husayn Voiz Koshifiy asarlari orqali qay tariqa bayon etilganini ko'rib chiqamiz.

**Abdurahmon Jomiy** XV asrda yashagan, insonni va uning yuksak axloqiy xislatlarini, go'zal fazilatlarini olqishlab ular orqali baxt-saodatga erishishni madh etgan alloma hisoblanadi. U o'z asarlarida insoniy yuksaklikni ta'rif etadi hamda o'zining ta'limiy-axloqiy qarashlarini "Bahoriston", "Oltin tizmalar" dostonlarida ifodalaydi.

Abdurahmon Jomiy inson kamolotining birinchi mezonini ilm va uni egallashida deb hisoblaydi. "Oltin tizmalar" dostonida har bir yosh o'z umri davomida bilim olish kerakligini hamda bilim olgandan so'zning unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Qo'llanilmagan ilm behuda deb uqtiradi:

Ilm yo'lga qadam qo'y, chunki shu yo'l farovon,

Ammo umringning yo'li, g'oyatda qisqa bir on.

Har bir kishiga bo'lmas qayta yashash muyassar,

Egalla sen ilmni, mangu turar muqarrar.

Bilim egalladingmi, unga doim amal qil,

Ilming amalsiz bo'lsa, sen oni bir zahar bil.

Abdurahmon Jomiy ilm olish jarayonida kitobning o'rnini alohida ta'kidlab o'tadi, kitob bilan do'st bo'lish kerakligi haqida shunday to'xtaladi:

Kitobga yuz o'girgin, ey jigarim farzandim,

Kitobga ulfat bo'lgin, quloqqa ol bu pandim.

Tanholikda munising, bilsang agar kitobdir.

Bepul, beminnat senga, chigallaringni yechar.

Kitobdir yaxshi hamdam, teri yopingan olim.

Abdurahmon Jomiy bilimlarni egallagan kishi johil bo'lmasligini va nodonlikka qarshi kuarasha olishini mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

"Yuksak qobiliyat egasi" nomi bilan mashhur bo'lgan va o'zining butun boyligini ilm-fan ravnaqiga sarflagan **Jaloliddin Davoniy** o'z asarlarida ta'lim-tarbiya haqidagi qimmatli fikrlarini keltirib o'tgan. Davoniyning pedagogik qarashlarida ilm va uni egallash haqidagi fikrlar alohida o'rin egallaydi. Ilm-fan, -deydi. Davoniy jamiyat va davlatning ravnaqida alohida o'ringa ega. Insonni komil inson bo'lishida ilmni egallash, ma'rifatli bo'lish muhim vosita bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda, uni go'zal xulqli, odobli bo'lishida ilm-fanning o'rni beqiyosligini, shu bilan birga davlatni boshqaruvchi podshohning yonida bilimli, ilmli kishilar doimo bo'lishi kerakligini uqtiradi.

Davoniyning ilm-fan haqidagi fikrlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Ilm-fan:

- kishilarning sofdil, mehr-shafqatli, insonparvar, kamtar va saxiy bo'lishiga olib keladi;

- tuban illatlar, yovuz niyatlarga qarshi kurashishga yordam beradi;

- baxtli hayot sari yetaklaydi;

- kishi olgan ilmni hayotga tadbiiq eta olsagina, mehnati zoe ketmaganini biladi va xalqqa yordami tegadi;

Ilmli kishilar axloqiy fazilatlarni egallab bora boshlaydi.

Davoniyning ilm va aqliy tarbiya haqidagi fikrlaridan shunday xulosa chiqarish lozimki, ilm-fan insonlarning baxtli hayot kechirishi va jamiyatning taraqqiy topishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi lozim.

Sharq mutafakkirlarining ilm va uni egallash borasidagi qarashlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yosh avlodni ma'rifatli, ilmli insonlar etib tarbiyalashda biz ulardan doimo va o'z o'rnida foydalanishimiz shart hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq pedagogikasi ilmi har bir xalqning hayotiy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida asrlar osha to'planib, avlod-dan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. U xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribalari mahsuli bo'lib, hayot sinovlarida o'zini oqlagan empirik bilimlar majmuidir. Shu bilan birga yosh avlodni ilm egallashga o'rgatishda xalq pedagogikasi g'oyalaridan keng foydalanish lozim.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARI FAOLLIGI VA RIVOJLANISHTIRISH YO'LLARI**

*G'aniyeva Aziza*

*Qashqadaryo viloyati Koson tumani 7-DMTT ingliz tili o'qituvchisi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofikdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar

diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi. Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu Yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo'lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat qiladi. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga biron kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular

tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga etadi. Demak, bog'cha Yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, Maktabgacha yoshdagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmashliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan buladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Qolaversa, bu yoshdagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o‘yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo‘lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko‘rinadi.

Maktabgacha Yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma‘naviy axloq me‘yor va qoidalarini, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me‘yorini egallaydilar. Bunday me‘yorlarni egallash bu Yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirishi uchun syujetli-rolli o‘yinlar yordam berishi mumkin. Bog‘cha Yoshining oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, Shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e‘tiborli, mehribon bo‘lish xususiyati ham shakllanadi. Katta Yoshdagi bolalar ko‘p hollarda o‘z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 Yoshlar oralig‘ida bolalar o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o‘zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 Yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 Yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, Shuningdek o‘zlari haqida ma‘lum bir xulosani bera olmaydilar. O‘z-o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha Yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?», «Men katta bo‘lganimda kanday bo‘laman?» singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo‘lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o‘rta bog‘cha Yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. SHu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog‘cha Yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bolaning

atrofidagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlarining faolligini yaxshilashda ota-ona va tarbiyachilarning o'rni, ma'suliyatni his qilish, ularga vaqt ajratish nihoyatda muhim bo'ladi. Bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Shuningdek, bu yoshdagi bolalardagi xayoli ham asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi,1994.
2. Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.

---

## **ЎҚУВЧИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ**

*Каримова Шоҳиста Абдуманнобовна  
Тошкент вилояти Оққўрғон тумани 14-мактаб психологи*

Мақолада ўқувчилар қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантириш бўйича психологик қонуниятларга асосланиб, ўқувчиларда лаёқат, маҳорат, педагогик, коммуникатив, дидактик, авторитар, перцептив, танқидий фикрлаш ва умумий қобилиятлар атрофлича таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Қобилиятлар, ақлий истедод, тестлар билан ишлаш, кўникма ва малака.



Давлат тараққиёти ва жамият раванқи кўп жиҳатдан халқнинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки, илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади.

Республикаимиз биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлагинидек, Ватанимиз келажаги ислохотларнинг тақдири ва уларнинг натижалари, халқимизнинг билим даражаси давр талабига ва тарраққиётига қанчалик мослигига, қандай мутахассислар етказиб бериб, ўрнимизни эгаллашларига боғлиқдир.[1.2]. Шунинг учун мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев барча соҳаларни жумладан таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишга катта эътибор қаратаётгани таълим тизими соҳасида туб бурилаш ясамоқда десак муболаға бўлмайди. Шунга кўра, юқори малакали кадрлар тайёрлаш давлат сиёсати даражасидага кўтарилмоқда.

Психология фанида қобилият тушунчасини таҳлил қилишда шахс шақлланишига таъсир этувчи уч омил ҳисобга олинади. Яъни шахсга ота-она томонидан ўтган ирсий белгилар, шахс шақлланган ижтимоий муҳит ва шахсга бериладиган таълим-тарбия натижаси. Демак қобилият тушунчасини таҳлил қилишда юқоридаги уч омил таҳлили асосий ўринда туради. Психологик луғатларда қобилият шахснинг муайян фаолият турини муваффақиятли бажаришга бўлган лаёқат даражасини ифодалайдиган, турмуш жараёнида ҳосил қилинган индивидуал хусусиятлари йиғиндиси [2.95] деб таъриф берилади.

Билим, кўникма, малакалар орттириш шу хусусиятларга боғлиқ бўлади, лекин шу хусусиятларнинг ўзлари мазкур билим, кўникма, малакаларга тааллуқли бўлмайди. Қобилиятлар билим, кўникма, малакаларни эгаллашда намоён бўлса ҳам, билимлар ва кўникмаларни эгаллаш билан боғланиб қолмайди. Қобилиятлар ва билимлар, қобилиятлар ва малакалар, қобилиятлар ва кўникмалар айнан бири-бирига ўхшаш нарса эмас.

Қобилиятлар билим, малака ва кўникмаларнинг ўзида кўринмайди, балки уларни эгаллаш динамикасида намоён бўлади, яъни, бошқача қилиб айтганда, мазкур фаолият учун муҳим бўлган билимлар ва кўникмаларни эгаллаш жараёни турли тенг шароитларда қанчалик тез, чуқур, осон ва мустаҳкам амалга

оширилишида намоён бўлади. Худди ана шу ўринда юзага чиқадиган фарқлар бизга қобилиятлар ҳақида гапириш ҳуқуқини беради.

Ақлий истеъдод даражаси баланд болалар изланувчан, ҳар нарсага қизиқувчи ва уйғоқ қалбли бўладилар. Қобилиятлилик шахснинг ақл-фаросат, характер, хотира ва рухий кечинмалари билан бевосита боғлиқдир. Психологияда қобилиятларни миқдор жиҳатдан ўлчаш муаммоси узок тарихга эгадир. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида қатор психологлар (Кеттел, Термен, Спирмен ва бошқалар) оммовий ихтисослар учун касб танлашни амалга ошириш зарурияти билан боғлиқ бўлган талаблар таъсири остида таълим олаётганларнинг қобилиятини аниқлашни тақлиф қилиб чиқдилар. Уша пайтларда қобилиятларни ўлчаш усули сифатида ақлий истеъдод тестларидан фойдаланилди.

Ақлий истеъдод тестлари мазмун жиҳатдан қатор саволлар ва масалалардан ташкил топгандир. Уларни ечиш муваффақияти (сарфланган вақтни ҳисобга олиб) балл ёки очколар йиғиндиси билан ҳисобланади. Масалан, ўн бир ёшлик болаларнинг ақлий қобилиятларини аниқлаш учун инглиз мактабларида қуйидагича тест қўлланган: “Петр Жеймсга қараганда баландроқ, Эдвард Петрдан пастроқ. Ҳаммадан кўра ким баланд? Савол тагига қуйидаги жавоблар ёзиб қўйилади: 1. Эдвард, 2. Жеймс, 3. Петр,” Айта олмайман ёки бошқача тест: қизил, яшил, кўк, хўл, сариқ. Бу ерда бола туркумга кирмайдиган сўзни аниқлаши керак ва хоқозо.[3.102]. Болалар тестлар тўпламини бажариб бўлгандан кейин уларнинг натижаларини стандартлаштирилган йўл билан, яъни ҳар бир синалувчи олган очколар миқдорини ҳисоблаш билан шуғулланишади. Қобилият бу кишининг бирор бир фаолиятга лаёқатлилиги, яроқлилиги ва бу фаолиятни муваффақиятли суратда амалга ошириш маҳоратидир. Киши ўзида муайян фаолиятга қобилият бор ёки йўқлигини сезиш ёки сезмаслигини билдирадиган омил таълим методикаси ҳисобланади. Таълим методикаси қаерда ожиз бўлса, ўша ерда қобилиятларнинг туғма эканлиги ҳақидаги гаплар пайдо бўлади. Ўз-ўзидан маълумки, методика доим такомиллашиб боради, бу эса «туғма қобилиятлар» доирасини торайиб боришига олиб келади. Қобилиятлар ва истеъдодларни шакллантириш муаммоси катта ижтимоий ва давлат аҳамиятига эга бўлган масаладир.

Дастлабки қобилиятлар ижтимоий муҳит таъсирида оилада, мактабгача таълим муассасаси ва мактаб таълимида босқичма-босқич ривожланиб боради. Психологлар ўқувчи қобилиятларини диагностика қилишда ўқувчининг асосий етакчи фаолият хусусиятларини инобатга олиши керак чунки, қобилият фаолиятда намоён бўлади.

Психологиянинг методологик асосининг кўрсатишича, қобилиятлар – имкониятлар тизимидан ташкил топган бўлиб, у ёки бу фаолиятдаги зарурий маҳорат даражасидир. Шундан келиб чиққан ҳолда ўқувчида мактаб таълим – тарбия жараёнида ўқувчиларда қобилиятнинг қуйидаги турларга бўлиб ўрганилади:

1. Муסיқага оид;
2. Математикага доир;
3. Бадиий ёки адабиётшуносликка доир
4. Тасвирий санъатга доир;
5. Спортга оид;
6. Актёрлик санъатига оид;
7. Ташкилотчилик;
8. Педагогик;
9. Илмий ва интеллектуал қобилиятлар намоён бўлади.

Муסיқавий қобилиятлар - Б.М.Теплов томонидан ўрганилиб, «Психология музыкальных способностей» китобида болада намоён бўлган муסיқий қобилият унинг муסיқачи бўлиши учун бирон бир даражада гаров бўла олмайди. Боланинг муסיқачи бўлиши учун унга махсус таълим берилиши, педагог ва бола намоёиш қилган қатъийлик, саломатликнинг яхши бўлиши, муסיқа асбоби, ноталар ва бошқа кўплаб шарт-шароитлар бўлиши зарур. Буларсиз қобилиятлар ривожланмай турибоқ сўниб кетиши мумкин. [4.103].

Математик қобилиятлар - Крутецкий томонидан ўрганилган. У “Математик қобилиятлар психологияси” монографиясида математик қобилиятлар ва уларнинг тизимини кенг ёритиб берган. Идрок, тафаккур, хотира, хаёлнинг индивидуал хусусиятларини аниқлаб, уларни математик фаолиятда намоён бўлишини тадқиқ

қилган. Математик қобилиятга математик материалларни умумлаштириш, мулоҳаза юритиш жараёнини қисқартириш, математик ишламаларни камайтириш, масалани идрок қилиш билан натижаси ўртасида алоқа ўрнатиш, тўғри ва тескари фикр юритишдан енгилга ўтишлик, масала ечишда фикр юритишнинг эпчиллиги каби чуқур мулохазалар билдирган.[5.106].

Адабий қобилият эса нафосат ҳисларининг юксак тараққиёт даражаси, хотирада ёрқин кўргазмалли образларнинг жонлилиги, “тил зеҳни”, беҳисоб ҳаёлот, руҳиятга қизиқувчанлик, ўзи ифодалашга интилувчанлик ва бошқаларни ўзида ифодалайди. Ажратиб кўрсатилган қобилиятлар таркибидан кўриниб турибдики, математик ва адабий қобилиятлар ўзаро бир-бирига ўхшамаган талаблари билан тафовутга эгадир.

Тасвирий санъатга хос қобилиятларни - В.И.Криенко ўрганган бўлиб, у “Тасвирий фаолият қобилиятлари психологияси” китобида тасвирий қобилиятларни психологик таҳлили ҳақида маълумотлар берган.

Табиий қобилиятлар - бу идрок, хотира, тафаккур ва бошқа оддий психик жараёнида намоён бўлиш қобилиятидир. Инсонда ижтимоий муҳитга мослаша олиш қобилияти мавжуддир. Бу умумий ва махсус ақлий қобилиятлар, нутқ ва мантиқдан фойдаланганда шахслараро, предметлараро муносабатларда намоён бўлади. Умумий қобилиятлар - инсонни турли фаолият йўналишларида муваффақиятини таъминлайди.

Махсус қобилиятлар - инсонни бирор бир махсус фаолият йўналишидаги муваффақиятини таъминлайди ва унинг намоён бўлиши учун махсус лаёқат бўлиши лозим. Бундай қобилиятларга мусиқавий, математик, техник, педагогик ва бошқалар киради.[6.107].

Ташкилотчилик қобилиятларини эса узоқ вақт Л.И.Уманский ўрганган. Қобилият муайян табиий борлиққа боғлиқ бўлсада, лекин улар фақат табиатнинг инъоми эмас, балки инсоният тарихий тараққиётининг бебаҳо (қимматли) маҳсулидир. Шунинг учун ҳам қобилиятларнинг намоён бўлиши шахслар томонидан ижтимоий эҳтиёжларни қондириш давомида ижтимоий шартланган билимлар ва кўникмаларни таркиб топтиришнинг яққол усуллариغا бевосита

боғлиқдир. Шахс қобилиятларини ривожлантиришда барқарор, турғун, касбий махсус қизиқишлар муҳим омиллар, воситалар тариқасида хизмат қилади.[7.108].

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки Ўзбекистонда бугунги кунда ўсмир ёшларнинг қарийб 70 % интернетдан кенг фойдаланиб келади, лекин уларнинг қанчаси бу тармоқдан тўғри мақсадда фойдаланиши бизнинг энг оғрик нуқтамиз бўлиб қоляпти. Чунки дунёдаги барча бузғунчилик ҳаракатларининг келиб чиқиш сабаблари вертуал олам орқали ёшларимизга бузғунчи ёд ғояларни уларнинг онгига таъсир этиш орқали амалга оширилмоқда. Бизнинг мақсадимиз уларда юқоридаги келтириб ўтилган қобилиятлар билан бир қаторда танқидий фикрлаш қобилиятларини ҳам шакллантириб боришимиз керак. Ойнани ҳар икки тарафи бўлгани каби ижтимоий тармоқларда маълумотларнинг барчаси ҳам инсон учун манфаатли бўлавермайди. Ёшларимиз бу тизимдан фойдаланар экан ҳар бир материалларни салбий ва ижобий томонларини чуқур тафаккур қила олиши, нима учун кераклиги, қандай мақсадни кўзлаб веб сайтларга жойлаштирилганини онгли тарзда фаҳмлашлари керак.

Президентимиз таъбири билан айтганда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун ёшларимизга таълим-тарбия жараёнида, оилада, ОАВларда ва ахборот ҳавфсизлигига оид тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришда ижтимоий тармоқларнидан фойдаланишни чекламасдан улардан тўғри ва мақсадли фойдаланиш маданиятини шакллантириб боришимиз керак.

Билдирилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, қолган барча қобилиятлар тузилиши ҳам махсус хусусиятларга эга бўлиб, ўзига хос касбий аҳамият касб этиши билан кўп жихатдан характерлананишини мактаб амалиётчи психологларимиз эътиборга олишлари керак бўлади.

### Адабиётлар:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иктисодий истикболининг асосий тамойиллари. Т.: 1995.
2. М.Т.Давлетшин. Укувчиларда қобилиятнинг таркиб топиши. "Ўқитувчи".Т., 1965.
3. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.

4. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
5. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
6. Психология: Дарслик. - Тошкент, 2009.
7. Умумий психология. А.В. Петровский таҳририда. Т. 1992й. \_\_

## КОМИЛ ИНСОН КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ТАСАВВУФДА ТАЛҚИН ЭТИЛИШ ЖИҲАТЛАРИ

*Сапаров Мурод Юлдашович*

*Ўзбекистон давлат жаҳон тиллири университети  
“Педагогика ва психология” кафедраси ўқитувчиси*

Комил инсон ҳақида тасаввуф намаёндачилари ўзларининг турли қарашларини билдириб ўтишган. Айрим тадқиқотчилар (профессор Қ.Б.Бўронов) тасаввуф таълимотининг назарий ва амалий соҳаларини фарқлаш зарурлигини таъкидлаб, бу ўринда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг сўфийликни мутассавифдан ажратганлигига ишора қилади. Ўзларини тасаввуф аҳлига мансуб деб биладиган, тариқат (тасаввуфдаги йўл – йўриқ) нинг мухлиси бўлган, энг муҳими - амалиётини ўтаган кишиларни суфийлар, деб атаган. Тасаввуфнинг ғоявий – назарий жиҳатларини қабул қилиб олган, лекин тариқат амалиётини ўтамаган одамларни мутассавиф, деб ҳисоблаган.

Тасаввуф соҳасида Ғарб олимлари катта илмий тадқиқот ишларини амалга оширишган. Туркиялик олим Муҳаммад Сарҳинд Тайшийнинг афсусланиб таъкидлашича, ғарб олимларининг тасаввуф мавзусида ёзган асар ва мақолалари ўн минггага яқин бўлган ҳолда, ислом оламида бу мавзу етарли даражада тадқиқ этилмаган.

Француз шарқшунослиги XVII асрдан шакллана бошлаган. Бунинг бош сабаби ўша даврда Европада Шарқ мамлакатларига, уларнинг бой тарихи, маданияти ва динига қизиқишнинг ортиб бориши билан изоҳланади<sup>17</sup>.

Француз шарқшуноси Анри Маэсси 1963 йилда “Ислам” номли китобида ислом динининг келиб чиқиши, Пайғамбаримиз Муҳаммад (САВ) ҳаёти ва фаолиятлари ҳақида ёзган. Тасаввуф илми ислом дини замирида шаклланган ва ривожланиб борган. Исламнинг дастлабки даврларида фикх, ақоид, ҳадис ва бошқа исломий илмлар каби тасаввуф ҳам алоҳида фан сифатида ажралиб чиқмаган.

Нажмиддин Комиловнинг эътироф қилишича, тасаввуф ислом дини бағрида етишиб чиққан бўлса ҳам айрим ўринларда шариатдаги диний ақидапарастлик ва мутаассибликка, ҳоким қатлам вакилларининг дабдабали турмуш тарзи, манфаатпарастликларига қарши боргани учун ҳам оддий меҳнаткаш аҳоли ўрта табақа зиёлиларнинг кўпчилиги қатламини ўзига ром қилган. Бу ўринда бир тарихий ҳақиқатни айтиб ўтиш жоиз ҳисобланади. Пайғамбаримиз (САВ) вафотларидан кейин мусулмонлар ўртасида бўлиниш юз бера бошлади. Мусулмонликни қабул қилган айрим араб қабилалари исломни тарк эта бошладилар. Қудратлироқ бўлган ғайридин қабилалар мусулмон жамоаларига қарши бирлаша бошладилар. Халифа Абу Бакр ва Умар (р.а.) даврида бу хил хуружлар муваффақиятли даф қилинди. Мусулмон жамоалари кенгайиб, бир қанча мамлакатлар фатҳ (забд) қилинди. У мамлакатлардаги бойлик ислом халифалигига оқиб кела бошлади. Худди шу даврларда, яъни халифа Усмон (р.а.) замонида ҳоким табақа ўртасида бойликка берилиш, зеб – зийнатли кийим – кечаклар кийиш, совға саломлар билан бир бирларини сийлаш каби ҳолатлар авж олди.

Шу тариқа, дунёдан кўнгил узган, аммо зоҳидлардан фарқланувчи, ақлу аросатда беназир, аммо файласуфларга ўхшамаган, шариат илмини яхши биладиган, тоат - ибодатда барқарор, аммо оддий номозхонлардан фарқланадиган ажойиб ҳислатли кишилар тоифаси пайдо бўлган эдики, уларни “руҳ кишилари “деб

---

<sup>17</sup> Ўша асар. 12- бет.

атардилар. Уларни авлиё, аҳли ҳол, арбоби тариқат, дарвеш, қаландар, фақир номлари билан атаганлар. Лекин уларни кўпроқ суфий деб номлашган<sup>18</sup>.

Бунга шайх Нажмиддин Кубронинг XIII асрда босқинчи мўғулларга қарши олиб борилган курашга бошчилик қилганини мисол келтириш мумкин. Нима учун Нажмиддин Кубро уни қайтармади?

Шайх Нурий “Тасаввуф – нафс лаззатларидан воз кечишдир” дейди. Шайх Сафий Алимшоҳ “Тасаввуф - нафс манзилларини босиб ўтишдир”, деб таъриф берган.

Шайх Ревим “Тасаввуф - Худо йўлида нафсдан кечмоқдир”, деб,

Сўфий шоир Бобо Тохир эса “Тасаввуф – нафсоний - ҳайвоний ҳаётда ўлмоқ ва инсоний ҳаётда яшамоқ” деб таърифлайди<sup>19</sup>.

Сўфийлик ўз моҳият - эътибори билан реакцион таълимотдир. У кишиларни ижтимоий – фойдали меҳнатдан, умуман жамият ҳаётидан четга тортади. Актив фаолиятини сўндиради. Инсон моҳияти ва мақсадларини бузиб кўрсатишга интилади. Собиқ иттифокда сўфийлик ҳаракати XX асрнинг 20 – йилларида барҳам топган. Ҳозирги даврда Шарқ мамлакатларининг айримларида сўфизм ғоявий куч сифатида муайян роль ўйнаб келмоқда. Прогрессив кучлар уларга қарши мунтазам кураш олиб бормоқдалар<sup>20</sup>.

Тариқатнинг бошланишидаёқ сўфий маънавий устози муршид раҳнамолигида сўфийлик илмини ўзлаштиришга киришиши лозим. Устозсиз мурид соғлиги ва ақл – ҳушини йўқотиши мумкин. Тасаввуф таълимотига кирган ҳар бир солиқ мўмин қуйидаги босқичлардан ўтиб комилликка эришади: аввал муридлик, дарвешлик, олимлик, орифлик йўллари босиб ўтгач, пиру комил бўлади: тариқат шайхи мақомини олади. Сўнг валийлик даражасига кўтарилади.

Ундан юқори мақом набийлик бўлиб, валий қанчалик буюк бўлмасин, авлиё пайғамбар деб тан олинмайди. Муҳаммад ( С.А.В.) охириги пайғамбар бўлиб, улардан кейин пайғамбар келмайди. Тасаввуфда мурид ( арабча ирода қилувчи)нинг руҳий камолотга эришишида ўзининг босқичлари мавжуд. Булардан бири - шариат

<sup>18</sup> Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тошкент.; 2009. 3 - 10 бетлар

<sup>19</sup> Қ.Б.Бўронов. Тасаввуф фалсафаси хусусида.Т.;2000.31 - бет

<sup>20</sup> Атеистик энциклопедик луғат. Т.; 1988й. 363 – бет.



илмидир. Шариат - арабча йўл, илоҳий йўлни англатиб, мусулмончиликда қонунчилик маъносини билдиради. Исломда шариат ҳукмлари Қуръони Карим, суннат, ижмо ва қиёсдан олинади. Унда соф ҳуқуқий масалалардан ташқари, ахлоқий ва маънавий нормалар, амалий диний талаблар қонун даражасига кўтарилган. Ислом шариатининг бош мақсади динни, жонни, ақлни, насл ва мулкни асрашдан иборат бўлиб, уларни муҳофаза қилиш учун зарур чоралар белгиланган. Илк ислом давлати ташкил топганда, жамият шариат нормалари билан бошқарилган. Шариатда дастлаб барча ҳатти – ҳаракатлар икки турга : ҳалол ва ҳаромга ажратилган.

Бундан ташқари макрух, арабча рад этилган, номақбул маъноларини беради. Қатъиян таъқиқ қилинмаган, лекин номақбул ҳисобланган амаллар макрух ҳисобланади; (исрофгарчиликка йўл қўйиш, номозни бузувчи амаллар, бидъат амаллар..), бешинчиси ҳаром – арабча, таъқиқланган маъносини билдириб, шариатда қатъий равишда ман қилинган нарса ва амаллар. Сўфийлар, аввало шариатнинг зикр қилинган барча талабларини яхши ўрганиб, амал қилиб, ундан кейин, иккинчи босқич – Тариқатга кўтарилади. Тариқат ( арабча -йўл -усул) сўфийлик йўлининг муайян босқичи бўлиб, мурид ўз пири муршидига итоат этиши, шахсий истакларидан воз кечиб, ўзини устозга топшириши шарт. Сўфийлар олдида қўйиладиган бир қанча талаблар мажмуаси мавжуд бўлиб унда хилма- хил жисмоний –руҳий ҳатти - ҳаракатлар қамраб олинади, бу босқичдан ўтганлар, юқорирок, учинчи босқичга, маърифатга кўтариладилар.

## FARZAND TARBIYASIDA OTA - ONANING O'RNINI

*To'rayeva Saida Adxamjon qizi  
Yangiqo'rg'on tumani 8-maktab psixologi*

**Annotatsiya.** Dunyoga kelgan har bir yosh avlod kelajakning poydevorlaridir. Ota-ona esa bu poydevorning muhandisi hisoblanadi. Poydevorning qay darajada mustahkam va pishiqligi bevosita ota-onaga bog'liq masaladir. SHundan kelib chiqqan holda ota-onalar shuni unutmasliklari kerak-ki, farzand dunyoga keldimi ularning zimmasiga katta ma'sulyat yuklanadi. Ota-ona voyaga yetkazayotgan har bir shaxs uchun vatan oldida xalq oldida o'z ma'sullik hisini tuyishlari kerak. Chunki poydevori mustahkam bulgan yurtgina gullab ravnaq topishi va yuksak marralarni zabt etishi mumkun.

Ota o'z farzandiga go'zal odobidan ko'ra yaxshiroq narsa bermaydi. Farzandiga odob bergin chuki sen farzandiga odob berish va uni ta'lim tarbiyali qilishga ma'sulsan. Bu masullik esa farzanding kun kelib senga yaxshilik qilishiga masuldir. Manashu ma'sullik hisini tuygan ota-onagina kelajakda farzandining o'lkan marralarini ko'rishi va faxir tuyg'usini his etishi mumkun.

**Kalit so'zlar** Oila, ota-ona, farzand, ta'lim, tarbiya, muomila mehri, kelishmovchilik, oilaviy nizolar, halollik, poklik, rostgo'ylik, sabir toqat, o'rnak, rag'bat.

**Kirish** Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiri. Bir oilada farzand dunyoga keldimi ota-ona uni ham moddiy ham ma'naviy jihatdan ta'minlovchisi hisoblanadi.

Farzand uchun ota-ona kim? U haddi sig'ib har qanday istagi va sirini ayta oladigan, xoxlaganicha suyana oladigan eng yaqin kishisidir. Etibor berilsa farzand qalbi og'risa onasiga murojat qilad. Xoxlaganicha sirini ayta oladi. Adolatsizlik zulimni yengib utishda qiblagohi otasiga suyanadi. Bir so'z bilan aytganda ota-ona farzand uchun suyanchiq, qalqon va dardkash bula oladigan yagona insondir. Ota-ona farzandidan hechqachon mehrini va vaqtini ayamashligi lozim. Aks holda farzand mehri boshqadan izlashi vaqtini esa bekorchi narsalarga sariflashi mumkun. Bugungi kunda farzand tarbiyasida ota-ona o'rnining dolzarbligi va ahamiyati shunda-ki farzand hayotining katta

qismini oilada ota-ona bag'rida o'tkazadi. Ilk tarbiya samimiy munosabat go'zal muomila oilada ota-onalarning namunasi timsolida shakillanadi. SHu sababli ota-ona farzandiga har jihatdan o'rnak va namuna bula olishlari lozim. Avvalmbor oilada ota-ona o'rtasidagi munosabat chiroyli yulga qo'yilgan bo'lishi kerak. Ota –ona o'rtasidagi hurmat, izzat, mehri-muhabbat kabi tuyg'ular shakillangan bulsa bu bevosita farzandlar tarbiyasida ham o'z aksini topadi. Bola hechqachon kattalarga quloq solmasa ham ularga taqlid qilishda hech qachon xatolikka yul quyishmagan. Zero xalqimizda qush uyasida ko'rganini qiladi degan naqil bor. Bazi ota-onalar farzandlaridan mening o'g'lim otasi kabi ish yoqmas, yoki onasi kabi palapartish deb nolishadi. Aslida bu genga irsiyatga bog'liq holat bulmasdan tug'ilgandan boshlab olingan tarbiyaga ko'proq aloqadordir. Misol tariqasida Yunonistonning mashhur davlat arbobi va notig'i bulgan Demosfen tug'ma kar va duduq bulgan. Lekin to'g'ri olingan ta'lim va tarbiya orqali u Yunonistonning mashhur siyosatchisi va notig'iga aylanadi. Shu o'rinda shuni aytish kerak-ki, bolaning xulqidagi yaxshi va yomon amallar gendan o'tuvchi bulib emas balki ta'lim tarbiya va muhit tasirida shakillanadi. Ota onaning vazifasi farzandni dunyoga keltirish uni voyaga yetkazib turmushga berish yoki uylantirishdan iborat deb hisoblamasliklari lozim. Ota-ona bolaning xoxish istagi, qiziqishlari bilan o'rtoqlashishi, uning kelajagi uchun hayolida o'ylangan puxta rejaga ega bo'lshi lozim. Oilaviy nizolar farzandlar yonida muhokama qilinmaslig hatto-ki, bolaning kelajagi haqida ham ota-ona o'zaro yakka holda suhbatlashishlari kerak. Bazida ota-onalar farzandlarining qiziqishlariga dunyo qarashlarining turfa xil bulganligi sababli qarshi bulishadi. Unutmang siz bugunning odamisiz farzandlaringiz esa kelajakniki shu sababli farzandingizni tushunmoqchi bulsangiz farzandingizni o'zingizni hayotingizga moslashtirishga emas aksincha siz uning hayotiga moslashishga uruning. Ota-onadan yetarli e'tibor mehri ko'rgan farzand kelajakda imonli, sofdil,. mehribon inson bulib voyaga yetadi va kamdan kam holatlarda xato qiladi.

**Asosiy qism** Bizning o'zbek xalqimizda asosan ota oilaning moddiy taminotchisi bulganligi sababli asosiy vaqti kuchada o'tadi. Ona esa farzand tarbiyasiga asosiy masul shaxs sifatida qaraladi. Aslida bu notug'ri. Farzandning tarbiyasiga ona bilan bir qatorda ota ham masul hisoblanadi. Chunki farzand ota-onadan turlicha tarbiya oladi. Ota-onalar

yana shuni bilishlari kerak-ki, hechqachon muommolar oldida o'zlarini yuqotib quymasliklari lozim Chunki farzandlar ota-onaga idial shaxs sifatida qarashadi va o'zlari uchun ulardan andoza oladi. Bazida ota-onalar biron muommoning yichimi yuzasidan boladan ham o'z fikr mulohazalarini bildirishni surashlari va bildirilgan fikr bolalarcha bulsada rag'batlantirish bolaning oilada o'rni borligini his qilishda o'ziga bulgan ishonchni oshirish bilan bir qatorda uning mustaqil shaxs bulib shakillanishida katta rol uynaydi. Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar shuni kursatadi-ki, inson o'z umri mobaynda oladigan informatsiyaning 70 /80% ni 5 yoshgacha bulgan davirda olar ekan. Umuman har qanday yosh davrida bolaga etiborsizlik qilib bulmaydi. Ayniqsa bolaning tug'ilganidan uch yoshgacha bulgan davr katta ahamiyatga egadir. Bola uch yoshgacha bulgan davrda oppoq qog'ozga uxshaydi. Nimani yozsangiz butun umr davomida saqlab qolish imkoniyatiga ega. Uch yoshdan keyin esa bolaning meni shakillana boshlaydi va qaysarliklar qilishi, o'z aytganini o'tkazishga urunishi va har xil qiliqlar chiqarishi mumkun. Bunday vaqtda ota-ona shuncha vaqt erkin usgan bolaga birdaniga taqiqlar quyishi va qattiqqullik usuliga o'tishi mumkun. Lekin bu samarasiz usul hisoblanib bola tarbiyasini tug'ilishdanoq balki ona qornidanoq boshlash kerakligini anglatadi. O'ylashingiz mumkun yosh bola nimani ham tushunradi deb. Lekin shuni unutmazlik kerak-ki, ayni manashu yoshda olingan axborot informatsiyalar bosh miyya yarimsharlari pustog'ida chuqur iz qoldiradi va bu olingan ilk malumotlar bola hayoti davomida saqlanib qoladi. Ota-onalarning katta xatolaridan ham biri boxcha yoshigacha bulgan bolalarini erkin quyib boxcha yoshiga yetganidan sung esa ulardan birdaniga ko'p narsani talab qilishlaridadir. Unutmang boxcha juda kech. Ota-ona bola tug'ilganidanoq ta'lim va tarbiyani shakillantirmog'i kerak. Bu davirda bola uchun oson qiyin narsaning o'zi bulmaydi. Bola uchun hammasi yangi. Shu sababli manashu davrda olingan talim va tarbiya katta ahamiyatga egadir. Bunga misol tariqasida 1965 yilning Avgust oyida Tokioda bulib utgan ayol atletlarning xalqaro konfrensiyasida rais Riza Dim bir yoshgacha bo'lgan bolalarning suza olishi mumkunligini isbotlab berdi. Dim xonim besh oylik chaqoloqni suvga tushurdi va uch oydan so'ng u 6 daqiqa suza oladigan natijaga erishdi. Chaqoloq suvda 8 daqiqa-yu 46 soniya turib berib o'ziga xos rekord ham o'rnatdi.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadi-ki, bola tarbiyasidagi ilk yil juda katta ahamiyatga ega.

Bola bog'bon parvrishlayotgan nihol misolidir. Bog'bon kelajakda niholdan yaxshi hosil olishni istasa unga vaqtida mehribonlik berishi parvarishlashi lozim. Aks holda qarovsiz qolgan nihol o'zgaralar tomonidan majruh qilinadi, yoki hechkimga foydasi tegmaydigan g'uladan farqi qolmaydi.

Alloh taollo Qur'oni karimda **“farzand dunyo hayotining ziynatidir”** deya keltirib utilgan. Har bir ota-ona berilgan ushbu ziynatni go'zal xulq, odob, axloq bilan yanada chiroyli bezatmoqlari lozim. Ota-ona o'z farzandiga sen mening faxir iftixorimsan, sendan faxirlanaman, sendan umidlarim katta deb aytishi farzand tarbiyasida eng munosib hatti harakatdir. Bunday munosabat bolada o'ziga bulgan ishonchni ortirish bilan bir qatorda o'ziga bulgan ma'sulyat hisni ham yuklaydi. Va aynan shu muhitda tarbiya topgan bola mustaqil qaror chiqara oladigan, bir ishi boshlasa oxirigacha yetkaza oladigan, oiladagi masuliyatni o'z zimmasiga ololadigan mustaqil shaxs sifatida voyaga yetadi. Lekin afsuski bazi oilalarda farzandlar uchun qarorni ota-onalar chiqaradi Farzandlarning qiziqishlari, xoxish istaklarini inobatga olmagan holda o'z orzu havaslarini farzandlaridan ko'rmoqchi bo'lishadi. Qattiqqullik bilan oilada hukumronlik o'rnatib aytganim aytgan deganim degan qablida bolaning fikir xoxishlarini inobatga olmasdan ruhiy bosim ostida o'zlari bilmagan holda bolani ma'lum bir qolibga solib quyadi. Bu esa kelajakda bolaning shu bilgilangan qolibdan chiqarilmasligi mustaqil qaror va mustaqil faoliyatning yuqligiga olib keladi. Muommoga duch kelganida esa undan qochishga urinishi yoki o'zining o'rniga boshqalar tomonidan bu muommoni hal qilinishi uning uchun yaxshi bulib ko'rinadi. Bugungi kunda ota-onalar o'z oldilariga shunday maqsad qiyishlari kerak-ki, ular tarbiyalayotagn har bir farzand kelajakda malum mavqega salohiyatga ega bulishi va yurt kelajagi ravnaqiga o'zinning munosib hissasni qusha olishlari kerak. Mana shunday sog'lom fikirga ega ota-onadan sog'lom farzandlar, yetuk kadrlar va mutaxassislar chiqadi. Birinchi prezidintimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek **“Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bulishlari shart”**

**Xulosa.** SHuni aytish kerak-ki, farzand ota-ona uchun qanchalik aziz bulsa uning odobi xulqi undanda aziz. Bugungi kunda farzand tarbiyasiga har qancha etiborni qaratsak kam. Chun-ki, kelajak yoshlarning qulida. Yosh avlodning ta'lim va tarbiyasini samarali olib borish uchun ota-onalarni ham kitob savodxonligiga jalb qilish pedagogik bilimlar bilan bir qatorda psixologik bilimlarni ham shakillantirmoq kerak. Lozim bulsa yosh onalar uchun onalar maktablari tashkil qilinib farzand tarbiyasida muhim sanalgan yetarli ko'nikma va malakalar bilan qurollontirilmog'i lozim. Ko'rib turganingizdek ota-onalik masuliyati bu juda katta masuliyatdir har bir ota-ona zimmasidagi ushbu masuliyatli burchni qoyilmaqom qilib bajarsagina kelajakda ushbu qilgan mehnati sayi-harakatining natijasini albatta ko'radi. Zero hadislarimizda **“Kishining o'z farzandini chiroyli odob axloq bilan tarbiyalashi ko'p miqdordagi nafil sadaqa berishdan yaxshiroqdir”**-deb marhamat qilgan (Imom Termiziy rivoyati).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent “Akademnashr” 2019
2. Oilalar mustahkamligini taminlashdagi muommolar va ularni bartaraf etish yullari Toshkent 2019
3. Imom Buxoriy “Al-adab al-mufrad”. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hilol-Nashr” Toshkent 2019.

---

### **O`SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI**

*To'rayeva Saida Adxamjon qizi  
Namangan viloyati Chortoq tumani 24-maktab psixologi*

Ushbu maqolada o`smirlik davrida psixik hayot sohasida bo`ladigan o`zgarishlar, bola psixikasining rivojlanish xususiyatlari, o`smirlik davrining asosiy muammolari va ushbu davrda bola bilan munosabatlar haqida ma'lumotlar berib o`tilgan.

O`smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo`lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o`smirlar o`tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir

muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘shish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.

**O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish** davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga etish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga ta’luqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. Shu sababli o‘smirlik davri «**o‘tish davri**», **»krizis davr**», **«qiyin davr**» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi.

Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida *L.S. Vigotskiy* bunday holatni “*psixik rivojlanishdagi krizis*» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o‘smirlik yoshini ikki xil davrga — kichik o‘smirlik davri va katta o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini “bola”lardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta’kidlamoqchidek bo‘ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o‘smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o‘smir endi o‘zining yosh

bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi.

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya — qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar.

O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin.

Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi.

O'smirlar haddan tashqari g'ayratli va besaramjon bo'ladilar, *ular uchun bekorchilik juda og'irdir, bir xil tarzdagi ishlardan tezda toliqadilar*, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo'yadilar, bu esa ularning ta'lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Xulq-atvordagi og'ish muammosi markaziy psixologik va pedagogik muammolardan biridir. Axir, agar yosh avlodni tarbiyalashda hech qanday qiyinchiliklar bo'lmaganida, jamiyatning rivojlanish va ta'lim psixologiyasiga, pedagogikaga va xususiy metodlarga bo'lgan ehtiyoj shunchaki yo'q bo'lib ketar edi.

O'smirlik — bu insoniyat rivojlanishining eng qiyin davrlaridan biri. Nisbatan qisqa muddat bo'lishiga qaramay, deyarli ko'p jihatdan insonning kelajakdagi hayotini



belgilaydi. O'smirlik davrida xarakterning shakllanishi va shaxsiyatning boshqa poydevorlari asosan shakllanadi.

O'smirlik davrida aqliy rivojlanishning umumiy xususiyatlari:

1. Hayotning murakkablashishi.
2. Mustaqillikni tasdiqlaydi.
3. Ichki pozitsiyalarni o'zgartirish, kelajakka munosabatni o'zgartirish.
4. Professional o'zini o'zi aniqlash vazifasi.
5. Mustaqil hayotning «ostonasi».

- hayot rejalarining paydo bo'lishi;
- hayotning barcha sohalariga kirib boorish;

Yetakchi faoliyat:

- o'quv va professional kasb;
- professional o'zini o'zi belgilash;

Shu vaqtgacha odobli, dilkash bo'lgan o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar o'qituvchi yoki otionalarni qattiq tashvishga soladi, munosabatlarini o'zgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch— uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta— sekin yo'qotish mumkin.

O'smirlar uchun chegaralarni belgilang. O'smirlik davrida mustaqillik va mustaqillikka erishish istagi ko'pincha jamiyatda va oilada mavjud bo'lgan qonunlarni buzish orqali amalga oshiriladi. Buning oldini olish uchun aniq aniq, adolatli va ikkala tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lgan chegaralarni belgilash kerak.

### **Hissiy suhbatni talab qilmang!!!**

Vaqtivaqti bilan har birimiz o'zimiz bilan yolg'iz bo'lishimiz kerak. Yoshlar bundan mustasno emas. Shuning uchun, agar siz bolaning xatti-harakatlarida

o'zgarishlarni sezsangiz, giyohvandlik bilan so'roq qilishni tashkil qilishdan tashqari, siz ularga o'zingizning muloqotingizni yuklamasligingiz kerak.

### **O'smirni kattalar muammolarini hal qilishga jalb qiling**

Kattalarning keng tarqalgan xatolaridan biri shundaki, biz bolalar kattalar muammolarini hal qila olmaymiz deb hisoblaymiz.

Kuni kecha beozorgina, yuvoshgina bo'lib yurgan, qalb kechinmalari bilan o'rtoqlashgan bolaning birzumda tutoqib, asabiylashib ketishi, gapga quloq solmasligi, qo'pollik bilan javob berishining sababi nimada deb o'ylanib qoladi, gohida ota-onalar. To'g'ri, o'smirlar ba'zida muammo tug'dirishi mumkin, ammo mazkur davrdagi o'zgarishlar sizni xayratga solmasin. Axir farzandingiz, ba'zilar uchun unchalik oson bo'lmagan o'smirlik davrini boshdan kechiryapti. Bunday paytda gormonal o'zgarishlar sodir bo'lib, bolaning xatti-harakatlarida aks etadi. U o'ta ta'sirchan, asabiy bo'lib, ba'zan halovati yo'qdek ko'rinadi. O'smirlar ko'pincha javobsiz muhabbat, ota-ona yoki tengqurlari bilan kelishmovchiliklar, kelajak oldida qo'rquv hamda yolg'izlikdan aziyat chekishadi. To'g'ri, o'smirlik davrida hamma bolalarda ham bu kabi muammolar kuzatilmaydi, biroq organizmdagi o'zgarishlar vaqti-vaqti bilan o'zini namoyon etadi. Bizning vazifamiz bunday muhim damda, o'smir bolalar bilan til topishish uchun sabr-toqat kilishimizga to'g'ri keladi. Avvalambor, do'stona munosabatlarni o'rnatib, ko'proq muloqotda bo'lish nihoyatda muhim. . Shuning uchun o'z bolajoningiz uchun vaqt ajratib, ko'proq oilaviy yig'ilishlar uyushtiring. Ertalab maktabga kuzatayotganda, birgalikda nonushta qila turib, uning hayotiga qiziqishingizni bildirishingiz mumkin. Uning mashg'ulotlari, qiziqishlari, tanish-bilishlari, nizolari haqida so'rab-surishtirishingiz ayni muddaodir. Siz doimo hammasidan xabardor bo'lib turishingiz kerak.

Farzand o'stirayotgan har bir ota-ona bolaning o'smirlik davri haqida ko'plab ma'lumotlarni eshitgan bo'lsa ajab emas. Ehtimol, quloqqa chalingan har qanday voqea-hodisalar sizni xavotirga solgandir, ammo ana shu davr borasidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lsangiz, xavotirga aslo o'rin yo'q.

## O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Ergasheva Zarnigor Axmat qizi  
Yakkabog' tumani 30-maktab psixologi*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri xam udan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bolib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zoriqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor

bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'zligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga

qattiq ta‘sir ko‘rsatadi. Haddan tashqari ko‘p ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir bo‘lgan asabiylashish eng ko‘p tarqalgandir. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, ish qancha qiziqarli bo‘lsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob bo‘ladi. Yana bu sabablarga qo‘shimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qo‘yishi, o‘quvsiz ota-onaningning o‘quvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas o‘spirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat ko‘proq natija beradi. Stressni bartarafetishda asosan inson sabr-qanoatli bo‘lish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor bo‘lish, o‘zini chalg‘itish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib borish, hech bo‘lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe‘l, tavozelik bo‘lish, o‘zaro hurmat va xushmuomalali inson bo‘lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta‘sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo‘l-yo‘riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo‘lsangiz, bu haqda kamroq o‘ylashga va doimo nima bilandir band bolishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg‘usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo‘llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro‘y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o‘z ruhiyatidagi munosabatni o‘zgartirish);

b) ko‘proq jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish )

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.
3. T.Sodiqova "Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat" qo'llanma. Toshkent 2018.

---

## PSIXOLOGIYADA STRESS MUAMMOSINING TAHLIL QILINISHI

*Karimova Gulhayo Bahodir qizi  
Andijon viloyati Baliqchi tumani 30-maktab psixologi*

Madrid muxtor universiteti professori J.Karrobles (1991) stressni quyidagicha ta'riflaydi: "Stress - bu haddan tashqari deb hisoblangan turli xil holatlarda odam boshdan kechiradigan doimiy haddan tashqari faollik holati. Ular mavzuni kam ta'minlanganligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbalari sharoitida yuzaga keladi. Shunga qaramay, stress atamasini ochish kerak, chunki u ikki ma'noga ega. Siz uni "qayg'u" va "eustress" ga ajratishingiz mumkin. Qayg'u ("dis- "="" o'zgartirilgan, etarli emas ") - Bu qachon stress patologik bo'ladi va haddan tashqari holatlar tufayli o'zgargan javoblarga olib keladi.Yustress ("eus- "="" adekvat, yaxshi ") - Bu etarli va kerakli stressni anglatadi. Bu etarli emas, maqbul yoki haddan tashqari bo'lishi mumkin va bu qayg'uga olib kelishi mumkin.

Stress va psixofiziologik kasalliklar o'rtasidagi munosabatni tushunish uchun uni xavotirdan farqlash kerak. Buning sababi shundaki, tananing javobi ko'pincha o'xshashdir. Xavotir xavf bilan bog'liq bo'lib, u haqiqatan ham ma'lum bir kishi tomonidan talqin etiladi. Bu stressli vaziyatlarda sodir bo'lmaydi, chunki ular yoqimsiz yoki xavfli bo'lishi shart emas. Agar biror kishi vaziyatni xavfli deb bilmasa, ular odatda qochib ketmaydi, chunki bu bilan kurashish osonroq. Xavotirga duch kelganda, odatiy javob qochishdir. Ushbu holat xavotirdan saqlanish-xavotir mexanizmi orqali saqlanib qoladi. Agar siz biror narsani xavfli yoki zararli deb bilsangiz, siz qochishga odatiy munosabatda bo'lishingiz mantiqan to'g'ri keladi. Agar xavfli bo'lsa, o'zingizni bunday xavfdan himoya qilish uchun sizga ba'zi vositalar kerak bo'ladi. Va odamlarda odatda bunday o'zini o'zi samaradorlik hissi yo'q. Ular biror narsani xavfli deb bilishadi, chunki ular bilan kurashishga qodir emaslar.

Bundan tashqari, stress zararli ta'sir ko'rsatishi uchun, vaqt o'tishi bilan davom etishi kerak. Xavotirda, hatto qisqa vaqt ichida bo'lsa ham, bu allaqachon zararli. Asosan, bu qisqa vaqt ichida insonning ijtimoiy va hissiy faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Barcha odamlar ichki muhitga va hayotiy belgilarga ega va ular muvozanatlashish tendentsiyasiga ega. Ya'ni, agentlik inson rivojlanishi mumkin bo'lgan har qanday nomutanosibliklarni bartaraf etish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi. Gomeostazga etib bormaganingizda, siz stressni boshdan kechirasiz. Agar siz ongli strategiyalarni amalga oshirishingiz kerak bo'lsa, chunki ular avtomatik ravishda ishlamayapti, unda bu muvozanat holatiga etib bormaslik odatiy holdir. Buning o'rniga siz "gemokinesis" ga, muvozanat holatiga erishasiz. Stress asabiylashish, befarqlik, tashvish, iztirob va g'azabga olib kelishi aniq bo'lsa-da, bu siz sezmagan fiziologik yoki tanadagi javoblarga ham olib keladi. Bular stress va psixofiziologik kasalliklar o'rtasidagi munosabatlarga juda mos keladi. Buning sababi shundaki, siz ularni stressli vaziyat tufayli vaqt o'tishi bilan saqlab tursangiz, ular ba'zi bir psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Stressga qarshi fiziologik javobda somatik tizim elektromiyografik javob uchun javobgardir. Bu skelet mushaklari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr harakati, masalan, ko'z harakati va nafas olish. Shunday qilib, stress paytida katta mushak guruhlariga qon oqimining ko'payishi mumkin: orqa, qo'llar, oyoqlar. Bundan tashqari, umumiy mushak tarangligi ham bo'lishi

mumkin. Ushbu tizim tomonidan qabul qilingan stress reaksiyalari yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq: yurak urishi, qon bosimi va qon oqimi. Shuningdek, ular tana harorati, jinsiy hayajon va elektrodermal reaksiyalarni tartibga soladilar. Bu terining kuch darajasi va uning o'tkazuvchan reaksiyasi. Bundan tashqari, tupurik va oshqozon-ichakning reaksiyalari mavjud. Shuning uchun, stress paytida yurak urish tezligi, buyrak faoliyati kuchayishi, qo'llaringiz va oyoqlaringizdagi periferik vazokonstriksiya va qon ivish omilining ko'payishi mumkin. Markaziy asab tizimining javoblariga kelsak, elektroensefalografik javoblar va uyg'otilgan javoblar mavjud.

Nihoyat, stressga endokrin va biokimyoviy tizimlardan kelib chiqadigan javoblar ham mavjud. Bular turli xil gormonal o'zgarishlarga olib kelishi va boshida immunologik faollikni oshirishi mumkin, keyinchalik u kamayadi.

Xavotirda bo'lgani kabi, ba'zi bir tana tizimlari stressga javoban o'chiriladi, chunki ular foydali emas. Anksiyete hujumining o'ziga xos javobini hisobga olgan holda, ushbu tizimlar o'chiriladi yoki qayta faollashadi. Ammo, stressning barqaror holatida, ular inson sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin. Ovqat hazm qilish traktidagi qon oqimi pasayib, oshqozon yarasi, kolit va asabiy ichak sindromi kabi muammolarga olib keladi. Bu shuningdek, genito-jinsiy tizim bilan sodir bo'ladi, bu erda stress qo'zg'alish, erektsiya, moylash va qo'zg'alishda jinsiy funktsiyalarni buzilishiga olib kelishi mumkin. Psixosomatik kasalliklar psixologik kelib chiqishning fiziologik shartlari. Stress, bu, asosan, insonning jismoniy farovonligiga ta'sir qilmasligi kerak. Ammo bu juda yoqimsiz kasalliklarga va ularning belgilariga olib kelishi mumkin. Ular tanangizning farovonligiga "aql" ta'sirining dalilidir. Ko'p odamlar o'ylagan narsadan farqli o'laroq, ular doimo qo'lma-yon yurishadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, stressning o'zi yomon emas. Ammo, bu qayg'uga aylanganda va u quyidagi xususiyatlarni ko'rsatganda, ehtimol bu sizning psixofiziologik farovonligingizga ta'sir qilishi mumkin. Stress tufayli fiziologik buzilish paydo bo'lishi bilan bog'liq omillar:

- Rag'batlantiruvchi yoki stressli holatlarga tez-tez yoki uzoq vaqt ta'sir qilish. Odamlar stressli vaziyatdan chiqmasa, bu yanada yomonlashadi. Biror narsani tezda hal



qilmaslik yoki undan qochib qutulolmasdan stressli muhitda qolish psixosomatik kasallikni rivojlanishidagi birinchi qadamdir.

- Stress sharoitida sub'ektning fiziologik faollashuvining o'ziga xos namunasini uzoq vaqt faollashtirish. Har bir inson turli xil stress holatiga ega va sizning fiziologik faolligingiz boshqalarnikidan farq qiladi, biz yuqorida aytib o'tganimizdek. Javobga qarab, psixosomatik alomatlar har xil bo'ladi.

- Stressga qarshi organik tizimning haddan tashqari sezgirligi yoki faollashishi. To'liq stressli vaziyatga tushib qolganingizdan so'ng, tanangiz unga sezgir bo'lib qolishi odatiy holdir. Va sizni stressga duchor qilish ancha osonroq.

- Gomeostatik tartibga solish mexanizmining o'zgarishi. Stressning ma'lum darajalariga etganingizdan so'ng, o'zgarishlar yuz berishi osonroq. Buning sababi shundaki, muammolarni keltirib chiqaradigan ogohlantirishlarga nisbatan past tolerantlik mavjud.

- Organik tizim faoliyatining surunkali o'zgarishi. Shuningdek, stressli yoki psixofiziologik yoki stressli psixosomatik kasallikning ko'rinishi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova va bosh... Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004. 85-b.
2. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. T, 2002
3. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. T-2003. 16 b
4. Otajonov M.Y. Menjment psixologiyasi. T-2003. 516.

## ЭФФЕКТИВНОЕ ОБЩЕНИЕ РОДИТЕЛЕЙ И ДЕТЕЙ

*Джаббарова Наргиза Дамировна  
Психолог школы № 168 г. Ташкент*

**Аннотация:** в данной статье раскрывается информация о том, что такое общение и как эффективно общаться с подростками.

**Ключевые слова:** общение, подростки, родители.

В годы независимости в республике Узбекистан забота о молодежи возведена в ранг государственной политики. В интервью главному редактору газеты «Янги Узбекистон» Салиму Дониёрову глава государства Ш.М.Мирзиёев заметил, что молодежи свойственно мыслить по-новому, уверенно предлагать и осуществлять креативные идеи, нестандартно подходить к решению проблем. Поэтому сегодня приоритетное значение отдается качественному образованию молодого поколения, реализации его талантов и потенциала в науке, бизнесе, искусстве, литературе и спорте, обеспечению активного участия в общественно-политической жизни. «Янги Узбекистон» 04.12.2021 г. Фирюза Мухитдинова. Профессор ТГЮУ.

Современному молодому человеку очень сложно будет добиться успехов в личной жизни, в карьерном росте не имея элементарных навыков эффективного общения. Необходимо в начале определить понятие общения как условие взаимодействия и обмена информацией между людьми.

Общение (2-с.1) - важнейший фактор психического и социального развития личности. Навыки общения необходимы каждому человеку для полного и качественного взаимодействия с другими людьми, для адаптации в социуме. Минимальные навыки общения, которые есть у всех, необходимо развивать и совершенствовать. Потребность в общении, относится к числу основных потребностей человека. Общение является необходимым условием нормального развития человека как члена общества, как личности, условием его духовного и физического здоровья, способом познания других людей и самого себя.

Общение - это процесс взаимодействия людей, социальных групп, общностей, в котором происходит обмен информацией, опытом, способностями и результатами деятельности.

Что же такое **эффективное общение**? Это не только когда мы передаем друг другу информацию, еще здесь важно уметь слушать, слышать и понимать собеседника! Учимся мы этому у тех людей которые нас окружают с самого раннего возраста - у наших родителей.

Ильин Е.П. (3-19.8. с.138) говорит о том, что одной из задач общения родителей со своими детьми является их воспитание. Эту важную роль общения отмечал Б.Г.Ананьев (1980). Он писал, что с первых дней жизни после рождения общение становится для человека основной формой его жизнедеятельности. Посредством общения, ребенок научается воспринимать и осваивать окружающую его действительность, действовать в окружающем его мире в соответствии с выработанными в обществе правилами и эталонами поведения и способами предметных операций. Нередко мы (родители) как будто разговариваем с ребенком, но фактически не входим в его внутреннюю ситуацию, не понимаем его. Часто забываем, что беседуем именно с ребенком, для которого многие прописные истины не ясны!

Родителям важно научиться анализировать опыт общения с детьми, избегать крайностей: сюсюканья и грубости, стремиться чтобы отношения были доброжелательными, но требовательными, чтобы в них ощущались и родительская любовь и взыскательность.

Важно помнить: каждое слово, обращенное к ребенку, воспитывает. С ребенком надо не только уметь говорить, но и учить его сложному искусству общения с другими людьми, через которое он включается в сложную систему человеческих отношений. (3-19.8. с.139).

Взрослым важно знать - что мешает правильным взаимоотношениям детей и родителей? Мешают разнообразные барьеры:

*Барьер занятости* - родители постоянно заняты заботами, *барьер возраста* - понять мешает разница в возрасте, *барьер старого стереотипа* - родители

относятся к ребенку, как к малышу, *барьер воспитательных традиций* - не учитывают изменившихся ситуаций воспитания, уровень развития детей и т.д., *барьер дидактизма* - по каждому поводу поучают детей. (3-19.8. с.139).

Грамотно поступают те родители, которые стараются разобраться в том, что же мешает в их конкретном случае общаться со своим ребенком содержательно и эффективно. Если эти барьеры существуют, значит можно постараться их преодолеть и создать благоприятную атмосферу общения в семье.

Из опыта работы школьным психологом совместно с психотерапевтом-наркологом Музаффаровой Л.Д., нами были отмечены проблемные вопросы, в частности: как родителям эффективно общаться со своим ребенком?

Родителям важно помнить что характеры у разных детей разные, и у самих родителей свои особенные характеры. Но здесь важно знать какие существуют особенности разговора с подростками, и как нам нужно развивать общение правильно, чтобы не сломать характер и волю ребенка. Как правило, общаемся мы с детьми, исходя из правил своей семьи и ценностей своей семьи. Но каждый родитель должен знать особенности характера своего ребенка, «слабые места» и соответственно строить отношения.

В любом варианте вести беседу, строить конструктивный диалог необходимо в состоянии спокойствия и любви. Общение между родителями и детьми в семье отличается одной особенностью - высоким уровнем эмоциональной насыщенности взаимодействия, ведь основой построения семьи является чувство любви. (4-с.30) Родителям, для того чтобы быть любящими и внутренне спокойными, необходимо уметь выбрать для себя время, для своего отдыха и восстановления сил, уметь снимать напряжение и усталость, и ни в коем случае не доводить свое состояние до «эмоционального выгорания».

Каким же образом начать беседу с ребенком?

Музаффарова Л.Д.: Рекомендуемая структурная форма разговора с подростком: необходим наш внутренний настрой, спокойствие, ровный тон речи, уверенный взгляд, наше терпение.

Родителям важно уметь учиться у своих детей многим качествам и воспитывать себя в первую очередь: быть спокойными; помочь ребенку нас понять; любить его безусловно, в любом случае; любить ребенка, таким какой он есть, так же как он любит нас - такими какие мы есть!

Родителям необходимо знать: там, где мы не можем помочь ребенку нас понять, мы можем попросить его: «Дорогой сынок, подскажи мне такие слова, чтобы сейчас тебе объяснить, чтобы ты сделал уроки. Потому что я за это беспокоюсь. Помоги мне, чтобы я была спокойной, чтобы я за тебя не беспокоилась!». Этими словами мы говорим от своего внутреннего «Я», и информируем ребенка о своих чувствах и переживаниях, без оценивания кого-либо или чего-либо. В таком варианте ребенок слышит от нас: 1) информацию о ситуации, которая нас беспокоит, 2) информацию о наших чувствах и эмоциях, которые мы переживаем. Диалог, построенный таким образом, информирует о проблеме, побуждает подростка мыслить, понимать чувства родного человека, призывает его откликнуться на просьбу о помощи и действовать.

Самое главное условие эффективного общения с подростком: это положительный внутренний настрой родителя: вера в то, что его ребенок «классный», надежда - «У тебя все получится!», все это делает ребенка внутренне сильным, подсознательно у него закладывается уверенность в себе, внутреннее спокойствие, развивается сила воли, самодисциплина и самостоятельность. Такой подросток, повзрослев, станет самодостаточной личностью и психологически здоровым человеком.

#### **Список использованной литературы:**

1. Выготский Л. С. Психология подростка // Собр. Соч. В 6-ти т. Т. Детская психология / под ред д. Б. Эльконина. М.: Педагогика 1984. 132с.
2. Лекции по психологии общения.
3. Ильин Е.П. Психология общения - СПб: Питер, 2013 - 576 с.
4. Психология общения: уч.пос/ Сост. Г.Н.Панфилова - Брянск: Мичуринский филиал ФГБОУ ВО «Брянский ГАУ», 2015 - 48 л.

## МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАР БОЛАЛАР МАЪНАВИЯТИНИНГ КЎЗГУСИ

*Усмонова Гулрух Латиповна*

*Кармана тумани 10-мактаб психологи*

Ўйинлар азалдан аждоларимиз маданий ҳаётининг ажралмас қисми сифатида эъзозланиб келинади. Аксарият ўйинларнинг илдизлари жуда қадимий бўлиб, асрлар давомида халқимиз маънавиятини бойитиб, онгу тафаккури ва ҳис-туйғуларини теранлаштириб келган

Халқ маънавиятининг энг қадимий кўриниши бўлган ўйинларда инсоннинг турмуш тарзи, меҳнати, кураши ва ютуқлари ўз аксини топган. Шу боис асрлар давомида халқ уйинлари авлодларни тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади. Ўзбек халқи орасида “ўйин” ибораси болаларнинг оддий эрмак уйинларидан тортиб, мерганлик, чавандозлик, дорбозлик ва ва бошқа майдон томошаларини ҳам ўз ичига олади.

Ўйин турли ифодли воситалар билан маълум қоида ёки олдиндан келишилган шартлар асосидаги жисмоний мусобақалар, беллашувлар, тафаккур баҳслари, баҳрибайтлар, ва ижрочилик талабларидан вужудга келган қадимий қадриятларимиздандир. Узоқ асрлардан буён авлоддан-авлодга ўтиб давом этиб келаётган ўйинларда аждодларимизнинг урф-одатлари, маросимлари ва яшаш тарзи ва руҳий олами ўз ифодасини топган.

Ўзбек халқ ўйинлари ҳақидаги маълумотлар IX-XII тарихчилари,

Файласуфлари ва шоирлари ижодида яққол кўзга ташланади. Қвйқоқус, Умар Ҳайём, Абдулқосим Фирдавсийлар чавгон, нард, шоҳмот, тирандозлик, қиличбозлик, чавандозлик каби туркий халқларга хос юзлаб ўйинлар, уларда қатнашиш одоби хусусида ўз фикрларини ёзиб қолдирганлар.

Таъкидлаш лозимки, ҳозирги кунда ўзбек халқ ўйинларининг айрим турларигина уйналади. Масалан, Навруз байрами, баҳор палласида –“Тол баргак”, дала гуллари очилганда –“Гул ўйини”, пишиқчилик пайтида данак,

ёнғоқ уйинлари, арғимчоқ учуш лар хали ҳам сақланиб қолган. Кеч куз, қишда ёгингарчилик бошланиб, ер юмшаганда қозик, ошиқ, тош уйинлари одат тусига кирган. Қор ёққонда “Қорхат”, “Қорбурон”, ёмғир ёққанда “Ёмғир ёғалоқ”, кучли шамол эсганда “Бўрон-бўрон” ўйинлари, совуқ ўз кучини кўрсатганда барча сандал атрофида йиғилиб, “Топишмоқ топ”, “Тез айтиш”, “Ким айтди” каби ўйинлар уйналган. Илгарилари кеч куздан то эрта баҳоргача “Улоқ” мусобақалари ўтказилган. Муайян ҳудудларга хос ўйинлар қаторида қадим Кармананинг ҳам ўз ўйинлари бўлган. “Беш тош”, “Мак-мак”, “Ланка” каби ўйинлар шулар жумласига киради.

Шукрки, юртимиз истиқлолидан сўнг халқ ўйинларини тўплаш, ўрганиш ва қайта тиклаш жараёни изчил йўлга қўйилди. Халқ томоша санъати ва миллий ўйинларга кенг йўл очилди.

Аждодларимиз тафаккурининг бебоҳо дурдоналари бўлган халқ ўйинлари ўсиб келаётган ёш авлод тарбиясида муҳим аҳамиятга эга. Шу боис мактабимизда ўзбек халқ ўйинлари тарғиботига катта аҳамият қаратганмиз. Ўтказилаётган турли хилдаги спорт мусобақаларида ўзбек халқ ўйинларидан фойдаланиш одат тусига кирган. Навруз умумхалқ байрами арафасида “Арқон тортиш”, “Хуроз уруштириш”, “Қучқорлар жанги” каби миллий ўйинлар уйналмоқда. Ўрни келганда таъкидлаб ўтишим лозимки, таълим масканимизда бошланғич синф ўқитувчиларининг ташаббуси билан Қўғирчоқ театри ташкил этилди. Қадим эртақлар асосида саҳналаштирилган томошаларни ўқувчиларимиз мароқ билан томоша қилишмоқда. Зеро, халқимизнинг бетакрор самимиятини, ўзида акс эттирган урф-одат, маросим ва халқ оғзаки ижоди қадимий маданиятимизнинг гўзаллигини намоён этувчи кўзгудир.

## МУНДАРИЖА

<b>Xodjayeva Ozodaxon Muxammadanasovna</b>	Psixologik xizmatda psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar	4
<b>Madaliyeva Ziyodaxon Usmonovna</b>	Nizoli vaziyatlari inson hayotiga ta'siri	8
<b>Berdiyeva Mahmudaxon Ohunovna</b>	O'quvchilarni ongli kasb tanlashlariga tayyorlashning psixologik omillari	11
<b>Amriddinov Azamat Zafar o'g'li</b>	Oila mustahkamligini ta'minlashda din rolining o'rni	15
<b>Kung'irova Soxiba Berdimurotovna</b>	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb - hunarga yo'naltirishning psixologik - pedagogik samaradorligini oshirishdagi muammolari va yechimlari	18
<b>Хамитжонова Гулбахор Обитовна</b>	Ўсмирнинг ҳаёт кечириш тарзи ва унинг психик тараққиётга таъсири	23
<b>Boboyeva Nasiba Maxmudovna</b>	O'quvchilarni kasbga-hunarga yo'naltirishning psixologik omillari	27
<b>Shamamedova Laylo Ro'ziyevna</b>	Maktab o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati	31
<b>Ayitbayeva Nilufar O'marbek qizi</b>	Bolalarda uchraydigan tortinchoqlikning ijobiy va salbiy tomonlari	34
<b>Usmonova Umida Uralovna</b>	O'quvchilarni kitobga muhabbat va kitovsevarlikka jalb etish usullari	38
<b>Haydarova Nigora Murtazayevna</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda matematika fanidan to'garaklarning o'rni	41
<b>To'xtayeva Ra'no Xolmaxmatovna</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish	44
<b>Taniyeva Gavhar To'xtayevna</b>	Sharq mutafakkirlari ta'lim jarayoni haqida	47
<b>Maxmudova Gullola Xolmo'minovna</b>	Buyuk ajdodlar ta'limotida ustoz-shogird munosabati	50
<b>Maxmudova Feruza Xolmo'minovna</b>	Boshlang'ich ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini qo'llash	54
<b>Mavlonova Nazokat Jomurodovna</b>	Boshqaruv jarayonida rahbarning o'z xodimlari bilan munosabati	57
<b>Muhammadiyeva Dilfuza Axmadovna</b>	Muloqot va uning inson hayotidagi ahamiyati	60
<b>Parmonova Norgul Saitovna</b>	Boshlang'ich ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	63
<b>Babayeva Nodira Mahmudovna, Karimova Shaxlo Yuldashovna</b>	Boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatish yo'llari	66
<b>Xudoyqulova Farida Rahmatovna</b>	Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda o'qituvchi mahorati	70
<b>Бегматова Ирода Толкиновна</b>	Мактаб ўқувчилари психологиясини ўрганувчи методлар	73
<b>Rahmonova Dilorom Qo'chqaraliyevna</b>	Maktablarda zo'ravonlikni oldini olish	77
<b>Mamadjonova Muhtaram Rahmonjonovna</b>	Maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari	79
<b>Botirova Ozoda Maxmanazarovna</b>	Psixologik korreksiyaning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda amalga oshirish shakllari	83



<b>Xisenova Musallam Fozilovna</b>	O'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishida oilaviy munosabalarning psixologik ta'siri	86
<b>Matmuratova Dilfuza Kopjursinovna</b>	Tarbiyasi og'ir bolalar shaxsining shakllanish omillari va ularga psixologik yechimlar	90
<b>Duschanova Nasiba Ollaberganovna</b>	Ilk o'spirinlik davrida intellektual rivojlanishning psixologik xususiyatlari	94
<b>Абдусамадова Муқаддас Хамидулла қизи</b>	Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг психологик ривожланишида диққатни жамловчи ўйинларнинг аҳамияти	98
<b>Allaberganova Fazilat Shakirbayevna</b>	Kichik maktab yoshida o'quvchi-shaxsining psixologik va jismoniy rivojlanishi	101
<b>Allaberganova Fazilat Shakirbayevna</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishda individual hususiyatlarini tadqiq qilish	104
<b>Yusupova Dilfuza Muxammadjonovna</b>	Shaxs rivojlanishida motivatsiya va himoya mexanizmlarining ahamiyati	108
<b>Каримова Мирижон Холдоржоновна</b>	Психологик хизмат кўрсатишда тестларнинг аҳамияти	111
<b>Nosirova Gulzoda Sadullayevna</b>	Kasbiy yo'naltiruv ishlarini amalga oshirishda psixologning o'rni	114
<b>Ro'ziyeva Feruza Fayzullayevna</b>	O'quvchi-yoshlarda odob-ahloq xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari	118
<b>Tursunova Barnoxon Sohibjonovna</b>	Yoshlar ijtimoiy faolligi – ijtimoiy psixologik hodisa sifatida	122
<b>Movlanova Ulxon Xurramovna</b>	O'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi	125
<b>Habibova Lola Shamsiddinovna</b>	Yangi pedagogik texnologiyalar – o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish vositasi	130
<b>G'opurova Gulshoda Durdiboy qizi</b>	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda maktab psixologining o'rni	133
<b>Muhiddinova Mahliyo</b>	Ruhiy zo'riqish va uni oldini olishning o'ziga xosligi	136
<b>Махкамова Раънохон Бакирбаевна</b>	Болани ўсмир ёш даврида психик ривожланишининг асосий хусусиятлари	140
<b>Исаева Барно Эшмухамматовна</b>	Ўсмирнинг ривожланишида рухий омиллар аҳамияти	143
<b>Nurullayeva Shalola Sur'at qizi</b>	Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda irodaviy xususiyatlarning o'rni va psixologik omillari	147
<b>Tuxtamurodova Fotima Azamat qizi</b>	Ruhan sog'lom o'quvchining psixik holatlari va ularni tushuntirish vositalari	151
<b>Ziyaeva Sarbinaz Adilbekovna</b>	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish usullarining ijtimoiy-psixologik tamoyillari	154
<b>Achilova Shukurjon Azamatovna</b>	O'smirlik davrining psixologik muammolarini bartaraf qilishda maktab psixologning o'rni	158
<b>Achilova Shukurjon Azamatovna</b>	Maktab o'quvchilari bilan o'tkaziladigan rivojlantiruvchi treninglarni tashkil qilish	161
<b>Usmonova Muxlisa Nasrullo qizi</b>	Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi	165
<b>Abdusamadova Muqaddas Xamidulla qizi</b>	Kichik maktab yoshidagi bolaning psixik o'sishida o'yinning ahamiyati	167

<b>Kulmanova Janar Xidirbayevna</b>	O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik muammolari	171
<b>Аллаярова Феруза Акрамжановна</b>	Таълим – тарбия жараёнида ижтимоий ҳамда педагогик-психологик муаммолар ва ечимлар	174
<b>Mirdjalilova Dilnoza Xamidullayevna</b>	Art-terapiyaning asosiy yo'nalishlari va turlari. Art-terapiya	179
<b>Баратова Мухтасар Набижоновна</b>	Ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишини олдини олишда оилавий тарбиянинг ўрни	182
<b>Olimova Shahodat G'ayrat qizi</b>	O'quvchilarni kasb tanlashlariga psixologik ko'maklashish	188
<b>Dehqonova Aziza Shokirovna</b>	Psixologik moslashuv va noto'g'ri ishlash	192
<b>Rustamova Mayramxon Nabiyevna</b>	Yoshlarda stressogen vaziyatlarda psixologik chidamlilikni oshirish imkoniyatlari	194
<b>Saydazimova Shahnoza Bahodirjanovna</b>	Tarbiyasi og'ir o'quvchilar psixodiagnostikasi va ular bilan ishlash	199
<b>Исоқова Хулкархон Сайдивалиевна</b>	Оилавий конфликтларнинг фарзандларга психологик таъсири	202
<b>Ahmedova Zumradxon Ikromovna</b>	Maktab o'quvchilarining axloqiy kamolotida baxt haqidagi tasavvurlarning o'rni	206
<b>Baratova Baxriya Suvonovna</b>	Maktab yoshidagi bolalarning psixologik holatlari	210
<b>Markaboyeva Inobat Fayzulloyevana</b>	Maktab o'quvchilarining salomatligi va kasb tanlashga qo'yiladigan talablar	214
<b>Qodirova Ozodaxon Musajon qizi</b>	Proposition toward the development of a psychological theory of thought	218
<b>Qodirova Ozodaxon Musajon qizi</b>	Psychological studies of thought:thoughts about a concept of thought	223
<b>Рахманова Маърифат Алимбаевна</b>	Ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишида ижтимоий муҳит ва оилавий тарбиянинг ўрни	227
<b>Axmedova Dilnoza Jo'raboyevna</b>	Barkamol shaxsni shakllantirishda psixologik mezonlar	231
<b>Домложонова Латофат Мирзаевна</b>	Интернетнинг ёшлар маънавий-ахлоқий ҳаётига психологик таъсири	235
<b>Назарова Нигора Мухамаджоновна</b>	Кичик гуруҳлардаги шахслараро муносабатларда мулоқот маданиятининг шаклланишининг психологик жиҳатлари	238
<b>Mahmudova Nigora Sayfilloyevna</b>	Yoshlarning dunyoqarashi va xulq – atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	243
<b>Mussoyeva Matluba Satorovna</b>	Voyaga yetmaganlarning xulq-atvoridagi nuqsonlarni tuzatishda psixologik yondoshuv	248
<b>Tursunova Dilbarxon Abdubannayevna</b>	Stress holatlarda o'smirlarning psixologik himoya namoyon bo'lishi va ijtimoiy-psixologik omillari	252
<b>Xojixo'jayeva Gavxar Saidorifxonovna</b>	O'spirin o'quvchilardagi hissiy-emotsional jarayonlar va muhabbat hissining kechishi psixologik nazariy asoslari	256
<b>Norova Gulzoda Innatulloyevna</b>	Kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilarda aqliy va psixik rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari	260
<b>Boltayeva Aziza</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik xususiyatlari	264
<b>Qo'ldoshova Gulnora</b>	Bolalarda jahli tezlik va uni yo'qotish yo'llari	268
<b>Safarova Aziza</b>	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasi xususiyatlari	272

<b>Худайбердиева Кизлархон Садуллаевна</b>	Қизларни оилавий ҳаётга тайёрлаш , эрта турмуш ва эрта туғруқни олдини олиш”нинг ижтимоий психологик хусусиятлари	276
<b>Баратова Мухтасар Набижонова</b>	Ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишини олдини олишда оилавий тарбиянинг ўрни	278
<b>Н.А.Ортиқова</b>	Таълим тизими - Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг таъсирчан воситаси сифатида	285
<b>Qurbonova Nasiba</b>	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixikasiga umumiy tushuncha	291
<b>Jo'raqulova Shalola</b>	O'quvchilarning anatomik-fiziologik xususiyatlari	294
<b>Gadoyeva Zilola</b>	Kichik maktab yoshidagi o'quvchining faoliyatini baholash	297
<b>Ochilova Dilso'z</b>	Birinchi sinf o'quvchilarining tafakkuri	300
<b>Nurillayeva Xurshida</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalarning tarkib topishi	303
<b>Mansurova Bibimariyam</b>	Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni	306
<b>Samandarova Komila</b>	Muhammad ibn muso al-xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari	310
<b>Шойсуломова Шахло Шорахимовна</b>	Актуальные проблемы физического воспитания в дошкольном образовательном учреждении.	313
<b>Қўлдошева Маъмура Салом қизи</b>	Бола тарбиясида ота-онанинг ўрни ва вазифаси	318
<b>Jabbarova Barno Rustamovna</b>	Tarbiyasi qiyinlikda olib boriladigan psixokkoreksiya va psixoprofilaktika	321
<b>Axmedova Nozimaxon Akramjon qizi</b>	O'smirlarda bilish jarayonlarining o'sishi va ular orasidagi "tarbiyasi og'ir"lik muammosi	324
<b>Yo'ldiyeva Feruza Ostonovna</b>	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasi xususiyatlari	328
<b>Adizova Olima Isroilovna</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik xususiyatlari	332
<b>Mirsaidova Laylo Fazliddin qizi</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotida ikkinchi tilni o'rganishga qiynalayotgan tarbiyalanuvchilarni ikkinchi tilga qiziqtirishda turli metodlardan foydalanish	336
<b>X.Oripova</b>	Farzandlaringiz taqdiriga befarq bo'lmang!	339
<b>Адизова Дилрабо</b>	Высокодуховная молодежь - фундамент будущего	341
<b>Otamurotova Zubayda Olimboyevna</b>	O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik muammolari	344
<b>Ruzmetova Intizor Rajabovna</b>	Ta'lim muassasalaridagi amaliyotchi psixologlarning o'rni va muhim vazifalari	347
<b>Qodirova Dilbar Zikrillayevna</b>	Zamonaviy ta'limni tashkil etishda didaktik va rolli o'yinlardan samarali foydalanish	351
<b>G'ofurova Nigora G'uzorovna</b>	Abu Ali Ibn Sino asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarning yoritilishi	354
<b>To'xtayeva Ma'rifat Xolmurodovna</b>	Xalq og'zaki ijodi ma'naviy – axloqiy tarbiya manbai sifatida	358
<b>Rustamova Ibodat G'ayratovna</b>	Ta'lim jarayonida o'yinlarning samaradorligi	362
<b>Hayitova Nodira Abdullayevna</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini oshirish yo'llari	366
<b>Jo'rayeva Maryam Ergashovna</b>	"Qobusnoma"da so'z san'atiga oid qarashlar	369
<b>Husenova Nodira To'rayevna</b>	O'quvchilarning ijtimoiy faolligini tarbiyalashda psixologik omillar	372

<b>Zurdinova Shaxnoza</b>	Kasbiy stressni yuzaga kelishidagi ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar	375
<b>Eshonqulov Zafar G'ayrat o'g'li</b>	Amir Temur va temuriylar davrida obodonlashtirish ishlari va uni tarix darslarida o'rganish	380
<b>Ungarov Javoxir Baxtiyor o'g'li</b>	O'zbekiston tarixini o'rganishda mahalliy materiallardan foydalanish	383
<b>Soibova Shahnoza Qudratovna</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida muammoli o'quvchilar bilan ishlashda psixologik yondashuv	387
<b>Yesmurzayeva Oltin Kuvanchevna</b>	O'smirlik yosh davrining psixologik xususiyatlari	392
<b>Xolova Gulxayoxon Baxodirovna</b>	Yoshlarda xulq-og'ishi va tarbiya buzilishi kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik sabablari	395
<b>Turdibaeva Gulnara Kewlimjayevna</b>	O'quvchilarni tarbiyalashda uch tomonlama hamkorlik: ota-ona, sinf rahbar hamda psixolog	399
<b>Xodjiyeva Nigora</b>	Boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati va bola psixologiyasiga ta'siri	403
<b>Trapova Farog'at Salaydin qizi</b>	Bugungi ta'lim va tarbiya jarayoniga psixologik muhitning ta'siri	407
<b>Kung'irova Soxiba Berdimurotovna</b>	Ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil qilishning ijtimoiy asoslari	411
<b>Baxbidova Sojida Abadnazarovna</b>	Voyaga yetmagan o'smirlar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash – psixologik muammo sifatida	416
<b>Rahimova Shoxsanam Dilmurodjon qizi</b>	Bola shaxsini rivojlanishida tarbiyaning o'rni	419
<b>Razzoqov Davron Ниёзович, Nafosat Taymurodova Murodovna</b>	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirishda metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish masalalari	422
<b>Ishmamatova Guliston Mardiyevna</b>	O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	427
<b>Mirzajonov Alisher Maxamadsodiq o'g'li</b>	Oiladagi nosog'lom muhitni bola ruhiyatiga salbiy tasirlari	431
<b>Ahmedova Muqaddas Nurullayevna</b>	Stressli vaziyatlarda psixologik muhofazaning ijtimoiy psixologik muammolari	435
<b>Жиенбаева Бахытгул Кеунимжаевна</b>	Фарзандларимиз муаммоларни қандай ҳал қиламиз?	439
<b>Xushmurodova Zokiya</b>	Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilganidan so'ng xalq ta'limi va pedagogik fikrlar	443
<b>Xoliqova Dilfuza</b>	Til va nutq belgilari	446
<b>Abdirimova Avazjon Madrimovna</b>	Muomala jarayonidagi erkinlik – o'smirlardagi mustaqil fikrlashning asosiy psixologik omili, psixologik xizmatning dolzarbligi	449
<b>Рузибоев Темур</b>	Диндор шахс психологияси тўғрисидаги қарашлар	453
<b>Гаипова Гулбахор Матиякубовна</b>	Психологик консультацияга мурожаат қилувчи шахслар турлари	458
<b>Gaipova Gulbahor Matiyakubovna</b>	Maktablarda o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik muammolari	462
<b>Axmedova Dilobar Sa'dullayevna</b>	Psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar	466
<b>Axmedova Nozimaxon Akramjon qizi</b>	O'smirlarda bilish jarayonlarining o'sishi va ular orasidagi "tarbiyasi og'ir"lik muammosi	469

<b>Elbayeva Sayiba Rasulovna</b>	Iqtidorlilik va iqtidorli o'quvchilarning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari	473
<b>Abdijabbarova Munira Rozimboyevna</b>	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan psixologik diagnostika va korreksion ishlarni tashkil qilishda maktab amaliyotchi psixologining o'rni	476
<b>Muqimova Gulchehra Jumanazarovna</b>	Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-psixologik omillari: muammo va yechimlar	480
<b>Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna</b>	O'smirlarda delikvent xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.	484
<b>Madinaxon G'aniyeva Xamidjonovna</b>	Individual psixologik xususiyatlar: temprament va xarakterning o'quvchilarda o'rganilishi	488
<b>Xakimova Nargiza</b>	Yoshlarni ma'naviy qadiryatlar asosida tarbiyalashning o'rni va ahamiyati	492
<b>Хакимова Наргиза</b>	Замонавий таълим-тарбия жараёнининг психологик-педагогик масалалари	496
<b>Razzoqov Davron Niyozovich, Nafosat Taymurodova Murodovna</b>	Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning dolzarb masalalari	500
<b>Оллаберганов Сардорбек Махсуд ўғли</b>	Нотўлиқ ва мурасасиз оила билан ишлаш психологияси	505
<b>Оллаберганов Сардорбек Махсуд ўғли</b>	Тарбияси оғир ўқувчилар, уларнинг синф раҳбарлари, ота-оналари билан ишлаш бўйича тавсиялар	509
<b>Собирова Махсуда Мадаминовна</b>	Болалар психологиясини ўрганувчи методлар	513
<b>Тағонова Санобар Қўзибоевна</b>	Тарбияси қийин гуруҳга мансуб агрессив хулқли болалар ва уларнинг ота-онаси билан ишлаш муаммолари	517
<b>Тағонова Санобар Қўзибоевна</b>	Ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атвориға таъсир этувчи ижтимоий психологик омиллари	521
<b>Toshmatova Guldonga</b>	Maktab o'quvchilarida kuzatiladigan stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	525
<b>Маматқулова Камолахон Баходировна</b>	Ўқувчи қобилиятларини ривожлантиришнинг психологик асослари	528
<b>Egamnazarova Shaxnoza Ithomjon qizi</b>	Tushkunlik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish usullari	531
<b>Saparova Nafosat Abdiyevna</b>	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan psixologik konsultatsiya usullari	535
<b>Халилова Ойдиннисо Эркиновна</b>	Таълим тизимида зўравонликни олдини олиш ва коррекция қилиш	538
<b>Насреддинова Камила Мурадовна</b>	Психологические основы формирования духовной культуры у учащихся старших классов	542
<b>Yuldasheva Gulnozaxon Abdumannobovna</b>	Bugungi globallashtan sharoitda yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik himoya qilish omillari	545
<b>Xoshimova Gulsara Nig'matovna</b>	Sog'lom turmush tarzi va zararli odatlarni oldini olishning psixologik omillari	549
<b>To'xtamishov Xolmurod Murodovich</b>	Maktab o'quvchilarining axloqiy kamolotida baxt haqidagi tasavvurlarning o'rni	552
<b>Шойсуломова Шахло, Махсудов Бобохон, Шодмонова Маржона</b>	Современный спорт: проблемы и решения	556

<b>Qodirova Nigoraxon Xamidovna</b>	Oilaviy hayotga tayyorgarlikni maktab o`quvchilarida shakllanish	561
<b>Jo`rayeva Mahbuba Abdusattor qizi</b>	Zamonaviy psixologiyada ekstremal vaziyatlar muammolari	564
<b>Saparova Sayyora Xolmamatovna</b>	Yoshlarning ma`naviy tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	566
<b>Chotanova Feruzaxon</b>	1-sinf o`quvchilarini maktabga moslashishlari uchun metodik ishlanmasi	570
<b>Жабборова Чаман, Тўраева Нилуфар</b>	Ота-оналарнинг ўз болаларига эътиборини кучайтиришнинг психологик аҳамияти	573
<b>Toxirova Sabohat Yo`ldosh qizi</b>	Agressiv xulqli bola bilan korreksion ishi	577
<b>Янгиева Дилафруз Бекмуратовна</b>	Юқори синф ўқувчиларида учрайдиган психологик инкирозлар ва унинг фаолиятга таъсири	580
<b>Xamitjonova Gulzoda Aminjon qizi</b>	Farzand tarbiyasida ota-onalarning psixologik bilim, ko`nikma va malakalarini oshirish va psixologik madaniyatini rivojlantirish loyihasi	584
<b>Tojiboyeva Shohsanam Вахромовна</b>	O`quvchilarni kasb tanlashlariga psixologik ko`maklashish	588
<b>Тожибоева Шохсанам Бахромовна</b>	Болалар ва ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишида ижтимоий муҳит ва оилавий тарбиянинг ўрни	591
<b>Yormatova Mohira Abdusattor qizi</b>	O`quvchi-yoshlarning to`g`ri kasb tanlashlariga ko`maklashish	595
<b>Xayitova Yauza Xoliyarovna</b>	O`smirlik davri va bu yoshdagi o`quvchilar psixologiyasining o`ziga xos xususiyatlari	598
<b>Nematova Lobar Ramazonovna</b>	Kichik maktab yoshi inqirozi va uni oldini olish hamda bartaraf etishda psixologik treninglarning ahamiyati	602
<b>Юсупова Латофат Равшановна</b>	Как вы думайте почему людям не везёт?	606
<b>Karimova Mardona Ulug`bekovna</b>	Ta`lim muassasalarida tarbiyasida nuqsoni bor qizlar bilan ishlashda maktab amaliyotchi psixologining o`rni va vazifalari	608
<b>Axmatqulova Muqaddasxon Murodovna</b>	O`quvchilarni kasbga yo`naltirishning pedagogik-psixologik muammolari	612
<b>Turgunova Fazilat Abduljabarovna</b>	Maktabgacha ta`lim tashkilotida ingliz tilini o`rgatish	616
<b>Choriyeva Zulfiya Tirkashevna</b>	Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari	619
<b>Aminov Anvar Majidovich</b>	Kasbiy yo`naltiruv ishlarini amalga oshirishda psixologning o`rni	625
<b>Matvaliyeva Nodira Abdulhoshim qizi</b>	Umumta`lim maktablarida ta`lim olayotgan o`quvchi-yoshlarning psixologik barqarorligiga erishishda maktab psixologlarining roli	629
<b>Jummayev Shuxrat Eshboyevich</b>	Maktab o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirishda mahalla va maktab psixologi hamkorligi	635
<b>Муниса Зокирова</b>	Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг психологик ривожланишида диққатни жамловчи ўйинларнинг аҳамияти	638
<b>Tolipova Rohila Qahramonovna</b>	O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish	641
<b>Rahmatova Dilfuza Nurmatovna</b>	O`rta maktab o`smir o`quvchisining psixofiziologik xususiyatlari haqida	646
<b>Tilloyeva Sarvinoz Barotovna</b>	Salbiy xulq-atvor shakllanishiga ta`sir etuvchi omillar va uni bartaraf etish yo`llari	649
<b>Mansurov Iskandarbek</b>	Kasbim-faxrim	654

<b>Mansurov Iskandarbek</b>	Kasbiy stressni yuzaga kelishidagi psixologik vaziyatlar	658
<b>Narzilloeva Nodira Nasilloevna</b>	Art-terapiyaning ertak terapiya usuli orqali bolaga ta'sir etish yo'llari	663
<b>Asila Oxunjonovna Majidova</b>	O'smirlilik davrida turli xil qatlamga ega bo'lganlarning psixologik xususiyatlari	667
<b>Sultonova Nazokat Amonovna</b>	Voyaga yetmagan o'smirlar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash – psixologik muammo sifatida	671
<b>Rustamova Hurriyat Abdullayevna</b>	Ijtimoiy-psixologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	675
<b>Bo'riboeva Nafisa Nurmatjonovna</b>	Oila va maktabning bola tarbiyasidagi roli	678
<b>Qurbonova Shoira Mannonovna</b>	Xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi	680
<b>Уразбаева Ёркиной Атаназаровна</b>	Ўқувчи қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантиришнинг психологик асослари	684
<b>Komilova Nargiza Shuxratovna</b>	9-11-sinflarda matematika fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish va masalalarga yechim topish	689
<b>Тожиева Махлиё Яшнаражоновна</b>	Тарбиянинг психологик муамолари ва унинг психологик асослари	694
<b>Irmatova Nilufar Xolmatovna</b>	Yoshlarda stressogen vaziyatlarda psixologik chidamlilikni oshirish imkoniyatlari	697
<b>Нигматова Дилором Ахмаджановна</b>	Работа с неуспевающими (низко мотивированными) учащимися	701
<b>Bekmirzayeva Nafisa Odiljanovna</b>	O'smirlilik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining kelib chiqish sabablari va korreksiya qilishda amaliy tavsiyalar	707
<b>Axmedova Ra'noxon Ismoilovna</b>	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari	711
<b>Qurbonova Nigora Mannonovna</b>	Maktabda tarix fanini o'qitish bo'yicha uslubiy tavsiyalar	715
<b>Ulzada Muratbekovna Erlepesova</b>	Bolalarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilishda psixologning yordami	719
<b>Uljayeva Dilbar Normuminovna</b>	Maktabgacha talim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikalari	724
<b>Tursunova Saidaxon Rafikjonovna</b>	O'smirlilik davridagi deviant xulq-atvorni psixologik tashxis qilish	728
<b>Турсунова Саидахон Рафикжоновна</b>	Ёшларни касбга йўналтириш	732
<b>Marasulova Shoxsanam Abdumalikovna</b>	Zo'ravonlik va uning bola tarbiyasiga ta'siri	736
<b>Raximova Ra'no</b>	Ajdodlarimiz merosi ta'lim-tarbiyaning muhim omili	739
<b>Yuldasheva Yulduz Javliyevna</b>	Xalq pedagogikasida ilm va uni egallashning afzalligi xususida	744
<b>G'aniyeva Aziza</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlari faolligi va rivojlanishtirish yo'llari	748
<b>Каримова Шохиста Абдуманнобовна</b>	Ўқувчи қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантиришнинг психологик асослари	752

<b>Сапаров Мурод Юлдашович</b>	Комил инсон концепциясининг тасаввуфда талқин этилиш жиҳатлари	757
<b>To'rayeva Saida Adxamjon qizi</b>	Farzand tarbiyasida ota - onaning o'рни	762
<b>To'rayeva Saida Adxamjon qizi</b>	O'smirlilik davri psixologiyasi	766
<b>Ergasheva Zarnigor Axmat qizi</b>	O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	771
<b>Karimova Gulhayo Bahodir qizi</b>	Psixologiyada stress muammosining tahlil qilinishi	774
<b>Джаббарова Наргиза Дамировна</b>	Эффективное общение родителей и детей	778
<b>Усмонова Гулрух Латиповна</b>	Миллий ўйинлар болалар маънавиятининг кўзгуси	782
<b>МУНДАРИЖА</b>		784



